

ISSN 3030-3710
E-ISSN 3030-3095

ILMIY AXBOROTNOMA * SCIENTIFIC BULLETIN * НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

№ 3, 2024

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI

ILMIY AXBOROTNOMASI

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

№ 3, 2024

http://buxpxti.uz

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI

ilmiy-amaliy jurnal

SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA INSTITUTE OF PSYCHOLOGY AND FOREIGN LANGUAGES

scientific and practical journal

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ИНСТИТУТА ПСИХОЛОГИИ И ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

научно-практический журнал

№ 3(7) 2024

Muassis: Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti
Tahririyat manzili: Buxoro viloyati, Kogon tumani, B.Naqshband MFY, 20-uy
http://buxpxti.uz/, buxpxti@gmail.com

Tel: +998918312511 Sobirova D.A.
+998905124244 Ostanov Sh.Sh.
https://t.me/OstanovSH



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИ АДМИНИСТРАЦИЯСИ ҲУЗУРИДАГИ АХБОРОТ ВА ОММАВИЙ КОММУНИКАЦИЯЛАР АГЕНТЛИГИ

ГУВОХНОМА

№ 064916

"BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI" MASULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
С-5669145


СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
308196898

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
22.02.2023дан

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Бухоро вилояти, Когон тумани, "B. NAQSHBAND" MFY HUDUDI

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги

22.02.2023 12:34
ТАҚДИМ ЭТИЛГАН САНА



Гувохнома № 064916

Фаолият тури

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Қўшимча маълумотлар

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Оммавий ахборот воситасининг тили	Оммавий ахборот воситасининг тури
BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI	O'ZBEK,RUS, ILNGLIZ	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Ҳудуд	Тарқатилиш шакли
Республика миқёсида		Анъанавий

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI ilmiy-amaliy jurnal 3-son Buxoro - 2024. - 304 b. **Научный вестник Бухарского института психологии и иностранных языков** научно-практический журнал Выпуск 3. Бухара - 2024. - 304 с.	Jurnal Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti muassisligidagi nashr hisoblanadi. **Jurnalning nashr sifati uchun bosmaxona javobgar.** OBUNA INDEKSI 3062	Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Bosishga ruxsat etildi 15.05.2024 Qog'oz bichimi 60x84, 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i 19 Buyurtma № 105. Adadi - 60 Bahosi kelishilgan narxda. «Sharq-Buxoro» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahar O'zbekiston Mustaqilligi ko'chasi, 70/2 uy. Tel: 0(365) 222-46-46

BOSH MUHARRIR:

Baratov Sharif Ramazanovich

psixologiya fanlari doktori, professor,
Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Bosh muharrir o`rinbosari:
Shoumarov G'.B. – O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Mas'ul kotib:
Sobirova D.A. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

XORIJ OLIMLARI

Kozlov V.V. - psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)
Malix S.B. -psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)
Maksimenko S.D.- psixologiya fanlari doktori, akademik (Ukraina)
Rejep O`zyurek -psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Darya Gaysina - Sasseks universiteti Psixologiya fakultetida genetika va epigenetika, PhD (Angliya)

O'ZBEKISTON OLIMLARI
PSIXOLOGIYA FANLARI

Umarov B.M.- psixologiya fanlari doktori, professor
Qodirov B.R. - psixologiya fanlari doktori, professor
Qodirov U.D. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramova F.A. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Baratova D.Sh. -psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Utepberganov M.A. - psixologiya fanlari doktori, professor
Ayrapetova A.G.- psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Nazarov A.M. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Fayziyeva M.X. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Qarshiyeva D.S. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Arzikulov D.N. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdullayeva D.U. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Ruxiyeva X.A. - psixologiya fanlari nomzodi, professor
Usmanova M.N. - psixologiya fanlari nomzodi, professor
Ostanov Sh.Sh. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rustamov Sh.Sh. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

PEDAGOGIKA FANLARI

Ibragimov X.I. - O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi
Olimov Sh.Sh. - pedagogika fanlari doktori, professor
Abdullayeva B.S. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Hamroyev A.R. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Rajabov T.I. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

FILOLOGIYA FANLARI

Shodmonov Q.B. – filologiya fanlari doktori, professor
Gadoyeva M.I.- filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rajabov D.Z. - filologiya fanlari doktori, professor
Rasulov Z.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor v.b.
Toirova G.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Raxmatullayev Sh.N. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xalilova R.R. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUHARRIRLAR:

Raxmatova M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov A.M. - BuxPXTI "Xorijiy tillar" kafedrasi mudiri

"Scientific reports of Bukhara institute of psychology and foreign languages"
scientific-theoretical journal

EDITOR-IN-CHIEF:

Baratov Sharif Ramazanovich

doctor of psychology, professor, Full Member (academician) of the International Academy of Psychological Sciences

Deputy editor-in-chief:
Shoumarov G.B. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS

Responsible secretary:
Sobirova D.A. – Doctor of Psychology (DSc), professor

FOREIGN SCIENTISTS

Kozlov V.V. - Doctor of Psychology, academician (Russia)
Maliks S.B. - Doctor of Psychology, academician (Russia)
Maksimenko S.D. - Doctor of Psychology, academician (Ukraine)
Rejep Ozyurek - Doctor of Psychology, professor (Turkey)
Darya Gaysina - PhD, Genetics and Epigenetics, Faculty of Psychology, University of Sussex (England)

SCIENTISTS OF UZBEKISTAN
PSYCHOLOGICAL SCIENCES

Umarov B.M. - doctor of psychology, professor
Kadirov B.R. - doctor of psychology, professor
Kadirov U.D. - doctor of psychology, professor
Akramova F.A. - doctor of psychology (DSc), professor
Baratova D.SH. - doctor of psychology (DSc), professor
Utepberganov M.A. - doctor of psychology, professor
Ayrapetova A.G.- doctor of psychology (DSc), associate professor
Nazarov A.M. - doctor of psychology (DSc), professor
Atabayeva N.B. - doctor of Psychology (DSc), Associate Professor
Fayziyeva M.Kh. - doctor of Psychology (DSc), Associate Professor
Karshiyeva D.S. - doctor of Psychology (DSc), Associate Professor
Abdullayeva D.U. - doctor of Psychology (DSc), Associate Professor
Arzikulov D.N. - doctor of Psychology (DSc), Associate Professor
Rukhiyeva K.A. - candidate of psychology, professor
Usmanova M.N. - candidate of psychology, professor
Ostanov Sh.Sh. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Rustamov Sh.Sh. - doctor of philosophy in psychology (PhD)

PEDAGOGICAL SCIENCES

Ibragimov X.I. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan
Olimov Sh.Sh. - doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Abdullayeva B.S. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor
Hamroyev A.R. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor
Rajabov T.I. - doctor of pedagogic sciences (DSc), professor

PHILOLOGY SCIENCES

Shodmonov Q.B. - doctor of Philology, professor
Gadoyeva M.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Rajabov D.Z. - doctor of Philology, professor
Rasulov Z.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Toirova G.I. - doctor of philological sciences (DSc), professor
Rakhmatullayev Sh.N. - doctor of philosophy in philology (PhD)
Khalilova R.R. - doctor of philosophy in philology (PhD)

EDITORS:

Rakhmatova M.M. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Tursunov M.M. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Kurbonov A.M. - Head of the Department of Foreign Languages of BukhPFL

Karimova Vasila Mamanosirovna
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti professori,
psixologiya fanlari doktori

OILANING ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI TADQIQ ETISHNING AYRIM METODOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Oila etnopsixologiyasi va milliy psixologiya nima, uni qanday qilib tadqiq etib, o‘rganish mumkin? Bu hozirda, ya’ni mustaqil O‘zbekiston sharoitida, ko‘pgina tadqiqotchilarni qiziqtirayotgan masaladir. Chunki davr etnopsixologiyadan shunday empirik ma’lumotlar kutmoqdaki, u faqatgina milliy ongga taalluqli bo‘lgan hozirgi va o‘tmishdagi holatni emas, balki millatning ertangi kunini, uning ongi qaysi tomonga o‘zgarishini, millatlararo sodir bo‘ladigan jarayonlarni bashorat qila olishni nazarda tutadi. Buning uchun esa unga kuchli etnopsixologik nazariya va ishonchli metodlar, metodologik asos kerak. O‘zbekiston olimlari oxirgi paytlarda masalaning xuddi ana shu tomoniga katta e’tibor bermoqdalar.*

Kalit so’zlar: *oila, etnopsixologiya, metodologiya, yosh davri, ong, bashorat, ishonchli metodlar, millat.*

НЕКОТОРЫЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК СЕМЬИ

Аннотация. *Что такое семейная этнопсихология и национальная психология, как ее можно исследовать и изучать? Это вопрос, который интересует многих исследователей сейчас, то есть в условиях независимого Узбекистана. Потому что эпоха ждет таких эмпирических данных от этнопсихологии, что она сможет предсказать не только текущую и прошлую ситуацию, связанную с национальным сознанием, но и завтрашний день нации, в каком направлении будет меняться ее сознание, и процессы то, что произойдет между странами, предполагает. Для этого ему нужна сильная этнопсихологическая теория и надежные методы, методологическая база. В последнее время этому аспекту проблемы узбекские ученые уделяют большое внимание.*

Ключевые слова: *семья, этнопсихология, методология, молодой возраст, сознание, прогнозирование, надежные методы, нация.*

SOME METHODOLOGICAL ASPECTS OF FAMILY ETHNOPSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS RESEARCH

Abstract. *What is family ethnopsychology and national psychology, how can it be researched and studied? This is an issue that many researchers are interested in now, that is, in the conditions of independent Uzbekistan. Because the era is waiting for such empirical data from ethnopsychology that it will be able to predict not only the current and past situation related to the national consciousness, but also the tomorrow of the nation, in which direction its consciousness will change, and the processes that will take place between nations. implies. For this, he needs a strong ethnopsychological theory and reliable methods, a methodological basis. Uzbek scientists have recently been paying great attention to this aspect of the issue.*

Key words: *family, ethnopsychology, methodology, young age, consciousness, prediction, reliable methods, nation.*

Millat psixologiyasini o‘rganishning dastlabki o‘chog‘i aynan oila bo‘lib, oila kontekstida milliy sifatlar shakllanishi va o‘zgarishi dinamikasini etnopsixologiya o‘rganadi. Zero, ***etnopsixologiya*** – bu psixologiyaning shunday tarmog‘iki, u ayrim olingan millatlar psixologiyasidan tashqari, turli xalqlar psixologiyasini, kichik milliy guruhlar doirasida milliy qiyofa va uning barcha unsurlarini o‘ziga xos usullarda o‘rganadi.

Fan tarixidan ma’lumki, dastlabki etnopsixologik tadqiqotlarni nemis olimi V.Vundt boshlab bergan edi. Uning tadqiqotlaridagi “xalq” tushunchasi aslida etnik uyushmani bildirgan, bu esa etnopsixologiyaning asosiy kategoriyalaridan hisoblanadi va oila bunday uyushmaning klassik shaklidir. Uning fikricha, etnik guruhlar psixologiyasini o‘rganish uchun ularning tilini, odatlarini, an’ana va udumlarini, shu xalqlarda keng tarqalgan afsonalar va boshqa ong tizimlarini o‘rganish kerak. Gap aslida

katta ijtimoiy guruhlarga aloqador birlik haqida bo‘lsa-da, fundamental tadqiqotlarda uning mayda “atom”lari – oilalar tadqiq etiladi. Aynan shunday ilmiy izlanishlarni Vundtdan keyingi davrda rus psixologi A.R.Luriya O‘zbekiston xududlarida tashkil qilgan. Luriya boshchiligidagi olimlar guruhi O‘zbekistonda oila sharoitida turmush tarzini o‘rganib, o‘zbek xalqi psixologiyasining o‘zgarish tendensiyalarini aniqlagan edi. Tadqiqot asosan, o‘z-o‘zini analiz qilish metodi yordamida o‘tkazilgan bo‘lib, izlanishlar mobaynida erkaklar va ayollarga turli savollar orqali o‘z shaxsiga xos xususiyatlarni, o‘zidagi yetakchi sifatlarni aniqlash, ba’zi psixologik holatlarga baho berish topshirig‘i berilgan. Tadqiqotning metodologik ahamiyati shunda ediki, unda qo‘llanilgan piktogramma – “so‘z portretlari”, o‘z-o‘zini analiz qilish metodlarini hozirgi zamonaviy tadqiqotlarda ham yangicha metodologik tamoyillar asosida ishlatilmoqda. Chunki davr talabi shundayki, fan jamiyatga shunday etnografik va etnopsixologik ma’lumotlar majmuini yaratib berishi lozimki, undagi ma’lumotlar asosida katta guruh hisoblangan millatlar psixologiyasini ham boshqarish mumkin bo‘lsin.

Bugungi globalizatsiya va o‘zgarishlar davrida oilani tadqiq etishning dolzarbligi va ahamiyati avvalo nimada? Avvalo, O‘zbekistonda nikohlar va oilalar sonining ortib borayotganligi, rasmiy oilalardan tashqari noqonuniy, shar’iy, ikkinchi va undan ortiq nikohlarning mavjudligi; noto‘liq oilalar va ular bog‘liq bo‘lgan muammolar turli xil ziddiyatlar va muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bundan tashqari, oilada farzandlar tug‘ilishi har bir o‘zbekistonlikni quvontiradi, lekin muammo - umuman rasmiy nikohda tug‘ilayotgan bolalar bilan noqonuniy, oatlik belgilanayotgan hamda boshqa demografik omillar ta’sirida paydo bo‘layotgan bolalarning soni o‘rtasidagi nomutonosibliklar mavjud. Ayollarning reproduktiv ustanovkalarida rasmiy nikohda tug‘ilayotgan bolalar soni 2-3 nafarni tashkil etgan holda tug‘ilish ko‘rsatgichlari mavjud rasmiy oilalar soniga nisbatan ko‘p. Ularga ikkinchi va undan ortiq nikohga kirayotgan erkak (ayol)dan tug‘ilayotgan farzandlar ham qo‘shilmoqda. Oilaviy munosabatlarda ham muayyan ma’noda inqirozli holatlar tobora ortib bormoqda. Erta nikohlarning kamayishi kuzatilayotgan bir vaqtda balog‘at yoshidagi yoshlarning oilaviy munosabatlarga, er-xotinlik rollariga, qaynona va boshqa yaqin qarindoshlarning o‘zaro munosabatlarga tayyor emasliklari, qaynonalardagi merkantilizm, oiladagi xiyonat, despotizm, zararli odatlar kabilarni ham misol tariqasida keltirish mumkin.

Albatta, bundan eng avvalo, yosh oilalar zarar ko‘rmoqda, shu bois ham ular bilan ishlaganda, ularning ma’naviy sifatlariga, oilada saqlanib kelayotgan milliy qadriyatlarning mavjudligini aniqlash, yoshlarda ham milliy, ham islomiy, ham umumbashariy qadriyatlarga to‘g‘ri munosabatni shakllantirishda va bu yo‘lda targ‘ibotning eng samarali yo‘llari aniqlash muhim metodologik muammodir. Biz bunday ishlarni samarador qilishda quyidagi metodologik talablarni inobatga olish zarur, deb hisoblaymiz:

1) yoshlar auditoriyasida ishni aynan ma’ruzalar shaklida emas, balki ochiq muloqot, davra suhbati va interfaol usullarda tashkil etilishi;

2) auditoriyaning fazoviy joylashuvi va yetkaziladigan ma’lumotlar va axborotning boshqa turdagi axborot va faoliyat turi bilan, masalan, kasbiy tayyorgarlik yoki norasmiy muloqot faoliyati bilan uyg‘unlashuvi;

3) verbal muloqotni axborot yetkazishning texnikaviy usullari bilan uyg‘unlikda qo‘llash, masalan, axborotlarning qisqa kliplar, hujjatli faktlar, multi-medialarda ifodalangan axborotlar bilan qo‘shib berilishi;

4) ayrim alohida muhim g‘oyaning, yaxlit mavzuning fragmental bo‘laklari tarzida uzatish usulidan foydalanish, yirik va yaxlit xarakterli mavhum mavzulardan qochish;

5) yosh uy bekalariga mo‘ljallangan suhbatlarda ular qiziqishlariga bevosita yaqin bo‘lgan amaliy faoliyatni uyg‘unlashtirish usuli, masalan, bola xastalanganda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishga o‘rgatish jarayonida farzandlarni ma’naviy va ahloqiy tomondan tarbiyalash vositalari haqidagi axborotni yetkazishga erishish;

6) suhbat va uchrashuvlar mavzusining bevosita shaxsga emas, mavzu predmetiga yo‘naltirilganligiga erishish;

7) predmetning konkret faktlarga asoslanishiga erishish, ya’ni, uchrashuvni olib boruvchining qo‘lida bevosita o‘sha hudud va mahallaga, viloyat va tuman manfaatlariga aloqador faktlarning bo‘lishi, ulardan o‘rinli va omilkorona foydalanish;

8) milliy ma’naviyat va mafkuraga oid materialning barcha bilishi zarurligi va xalq manfaati uchun universal qadriyat ekanligini tushuntirishga erishish;

9) Islom dini qadriyatlaridan va o‘tmish allomalari merosidan o‘z o‘rnida unumli va asosli foydalanish. Bunda birinchi navbatda yoshlarning intellektual salohiyatini, aqli va zehnini oshirib borishda

qadriyatlarimizdan unumli foydadanish ma'quldir Masalan, komillikka intiluvchi insonlarni Hazrati Navoiy o'z davrida "ahli ma'ni" deb atagan edi. "Ahli ma'ni" - bu ba'mani fikrli odamlardir. Fikrlashida ma'ni chuqurligi bo'lgan inson xamma narsa to'g'risida mustaqil mushohada qila oladi. Odam va olam taqdiriga vijdon bilan qarash qobiliyati shakllanadi. Ular uchun hayot go'zalligi insof, diyonat, kamtarlik, fidoiylik, muruvvat, sadoqat, haqiqat va imon kabi xislatlar bilan chambarchas bog'liq. Bunday fazilatli yoshlar oramizda juda ko'p va ular jamiyatning xaqiqiy boyligidir. Navoiy fikricha "ahli surat" orasida shoh bo'lguncha "ahli ma'ni" orasida gado bo'lgan yaxshi. Ahli ma'nilar ma'naviyati yetuk shaxslar bo'lib, ular tufayli ham yurtimizda, muqaddas O'zbekistonimiz zaminida ma'naviyat hamisha barqarordir.

Ushbu tamoyillarga rioya qilgan holda tashkil etilgan targ'ibot va tashviqot ishlari yosh oila vakillarining sog'lom fikrli bo'lishi va oila o'chog'ini mustahkam ushlab hayot kechirishga bo'lgan intilishini yanada rag'batlantiradi. Yoshlarni komil inson bo'lishga chorlaydi, oilalarning mustahkam bo'lishini ta'minlaydi.

Yuqoridagilar oila tadqiqotlarining tashkiliy tamoyillari bo'lsa, aynan oila muammolariga bog'liq konkret tadqiqot o'tkazishning o'ziga xos tarkibi

a) oilada o'tkazishning murakkabligi va bunda anonimlilikni ta'minlash prinsipi;

b) metodlar ishlab chiqish va tanlashda tizimlilik;

v) metodlarning validligi va ularning milliy muhitga moslashtirilganligi;

g) reprezentativlilik tamoyili: nechta oilada va necha nafar respondentni qamrab olish masalasi; ob'ektning ayni maqsadga mosligi muammosi;

d) ob'ektivlilik, ya'ni, tadqiqotga tashqi muhitning ta'sirini inobatga olish, oilaning tashqi tomondan jihozlanishi, milliy udumlar va an'analarni aks ettiruvchi buyumlar, hattoki, oila a'zolarining kiyinish madaniyatidagi o'ziga xoslikning mavjudligini inobatga olish tamoyili (aynan kim, qayerda, kimlar tadqiqotda ishtirok etdi, kabi prinsiplar).

Oila tadqiqotlarini o'tkazish samaradorligi albatta, tanlangan metodikalarga bevosita bog'liq. Psixologik tadqiqotlar amaliyotida, asosan, oiladagi shaxslararo munosabatdar, undagi ma'naviy muhit o'rganilganligi bois quyida shunday metodikalarning ayrimlarini keltiramiz:

1.Erkin suhbat va ijtimoiy psixologik so'rovnoma; ularning natijalarini oddiy statistk tahlil hamda kontent-tahlil qilish usullari.

2.IPSdagi ochiq savollar, tugallanmagan jumlalar proektiv metodikalari va ularning natijalarini kontent-tahlil qilish metodi.

3.Oiladagi obro'li shaxslar – avtoritetlarni, ulardan tashqari ahamiyatli shaxslar – oila a'zolari uchun refrent bo'lgan guruh a'zolarini aniqlash usullari.

4.An'anaviy oila munosabatlarini o'rganuvchi metodikalarni milliy mentalitetning qadriyatlariga muvofiqlashtirish, sinovdan o'tgach, qo'llash; buning uchun tanlovga kirgan respondentlardan turli faoliyat jabhalari - mehnat, dam olish, oila a'zolari uchun ahamiyatli bo'lgan oilaviy tadbirlar qatorini shakllantirish orqali aniqlash, solishtirma analiz qilish.

5.Oilaning mustahkamligi, a'zolarning bir-birlarini qadrlab, qo'llab-quvvatlashlarga muhtoj bo'lganliklari sababli "Qo'llab-quvvatlanishga nisbatan motivatsiyani o'rganish" metodikasi dan foydalanish mumkin. Bu metodika aslida amerikalik D. Kraun va D. Marlou (1964) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, qo'llab-quvvatlanishga nisbatan motivatsiyani o'rganish shkalasini biz mahalliy muhitga 2000-2005 yillarda moslashtirganmiz va yuzlab kelinchaklarda sinovdan o'tkazdik. Metodikaning o'zbekcha varianti 20 ta tasdiq fikrdan iborat bo'lib, ularning har bir kalit javobga moslari bir balldan baholanadi. Ma'lumotlarni qayta ishlash aynan kalitga mos kelgan javoblar miqdorini sanab chiqish bilan ifodalanadi.

6.Kelinning qaynona bilan o'z munosabatini o'zi baholash metodikasi.

7.Kelinchakning o'zini o'zi baholash metodikasi (20 ta sifatni ranglar bo'yicha kelin avval o'zida, keyin biror yaqin kishisi uni baholaydi va ranglar korrelyatsiyasi bo'yicha o'ziga bo'lgan bahoning adekvatligi aniqlanadi.

8."Nikohga nisbatan individual motivatsiyani o'rganish" metodikasi yordamida har bir shaxsda mavjud bo'lgan oilaviy rollarga nisbatan ijobiy (salbiy) ustanovkalarni aniqlanadi va h-zo.

9.Ota-onalarning o'smir yoshli farzandini tushunish testi. Ushbu maqsadlarda J. Piaje va I.S. Kon tomonidan o'smirlik va o'spirinlik yoshlarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan test metodikasini qo'llash mumkin.

10.Oiladagi rollar taqsimoti metodikalaridan Yu.E Aleshina, L.Ya.Gozman, Ye.M.Dubovskayalarning “Oilada rollar taqsimoti” metodikasi; A.N.Volkovaning “Nikohdagi rollar: kutuvlar va da’volar” test-metodikasi; S.Bemning “Gender identifikatsiyalik” testidan foydalanish mumkin va shu kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Антонов А.И. Сотсиология семьи.- М., 2005
2.Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Darslik. – T., 2008
3.Karimova V.M. Omonov Sh. Ijtimoiy psixologiya: metod va treninglar.-Fargona, 2023
4.Шнейдер Л.Б. Основи семейной психологии.-М., 2001

Safayev Nuriddin Salixovich
O‘zbekiston Milliy universiteti Umumiy psixologiya
kafedrasi professori, psixologiya fanlari doktori

Muxamedova Dilbar Gafurdjanovna
O‘zbekiston Milliy universiteti Umumiy psixologiya kafedrasi mudiri
psixologiya fanlari doktori, professor

Odilova Naira Gulyamovna
O‘zbekiston Milliy universiteti Umumiy psixologiya kafedrasi dotsenti

IJTIMOIY O‘ZARO TA’SIR NATIJASIDA O‘SMIRLAR AXLOQIY O‘ZINI O‘ZI ANGLASHINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada ijtimoiy o‘zaro ta’sir natijasida o‘smirlar axloqiy o‘zini o‘zi anglashini rivojlantirish xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi. O‘smirlar bilan psixologik ishni (psixologik konsultatsiya, psixologik korreksiya, psixologik trening va b.) sinergetik yondashuvni inobatga olgan holda amalga oshirish, yoshlar hayotiy faoliyatining sifat jihatidan yangi darajasiga erishish uchun o‘zaro ta’sirga, ma’lum bir odamlar doirasiga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatni nazarda tutishi asos bo‘lishi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy o‘zaro ta’sir, o‘smir, axloqiy o‘zini o‘zi anglash, refleksiya, Men-axloqiy sinergiya, sinergetik yondashuv, sinergetik effekt.*

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ НРАВСТВЕННОГО САМООБОЗРЕНИЯ ПОДРОСТКОВ КАК РЕЗУЛЬТАТ СОЦИАЛЬНОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ

Аннотация. *В статье рассматриваются особенности развития нравственного самосознания подростков в результате социального взаимодействия. Проведение психологической работы с подростками (психологическое консультирование, психологическая коррекция, психологический тренинг и др.) утверждается, что реализация с учетом синергетического подхода предполагает совместную деятельность, направленную на взаимодействие, достижение определенного круга людей для достижения качественно нового уровня жизнедеятельности молодежи.*

Ключевые слова: *социальное взаимодействие, подросток, нравственное самосознание, рефлексия, Я-нравственное, синергия, синергетический подход, синергетический эффект.*

CHARACTERISTICS OF THE DEVELOPMENT OF ADOLESCENT MORAL SELF-CONCEPTION AS A RESULT OF SOCIAL INTERACTION

Annotation. *The article talks about the features of the development of moral self-awareness of adolescents as a result of social interaction. Psychological work with adolescents (psychological counseling, psychological correction, psychological training, etc.) it is argued that the implementation, taking into account the synergistic approach, provides for joint activities aimed at achieving interaction, a certain circle of people, in order to achieve a qualitatively new level of youth vital activity.*

Key words: *social interaction, adolescent, moral self-awareness, reflection, I-moral, synergy, synergistic approach, synergistic effect.*

O‘smir axloqiy o‘zini o‘zi anglashini rivojlantirishning eng maqbul usulini aniqlash uchun, belgilangan tarkibiy-psixodiagnostik xususiyatlardan tashqari, o‘smir hayoti davrida o‘rganilayotgan hodisaning rivojlanish xususiyatlarini ham o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Mazkur jihatdan, N.P.Shityakova fikricha, “O‘smir axloqiy o‘zini o‘zi anglashini shakllanishining quyidagi uning rivojlanishiga ko‘maklashuvchi tegishli yondashuvlarni tanlashda e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi:

o‘zini o‘zi bilishning murakkablashishi va chuqurlashishi;

o‘zi haqidagi tasavvur va o‘zini idrok etishning yuzaga kelishi alohida affektiv ahamiyatga ega bo‘ladi;

o‘zini o‘zi anglash tarkibiy qismlarini differensiatsiyalash jarayonlari namoyon bo‘ladi (Men turli obrazlarining refleksiyasi: jismoniy, ideal, real, me’yoriy, ijtimoiy, axloqiy va b.) va o‘zini o‘zi anglash tuzilishida psixik shakllanishlarning integratsiyasi (sintez- Men turli jihatlari xususiyatlarini o‘ziga nisbatan avtonom va boshqa shaxslardan mustaqil bo‘lgan ajralmas shaxs sifatida global tasavvurga umumlashtirish);

integratsion jarayonlarni joriy etish shaxs identikligi individual o‘zini o‘zi anglash, uzluksizlik va birlik hissi sifatida nisbatan barqaror shaxs shakllanishi yuzaga kelishini faollashtiradi;

o‘zini o‘zi idrok etishda chuqur o‘zgarishlar yuzaga keladi, aynan bir tomondan, o‘z ichki dunyosining o‘zgaruvchanligi kechinmalari bo‘lsa, boshqa tomondan, o‘zi haqida yaxlit tasavvurga moyillik, bu ichki dunyoning murakkabligi, o‘z Meniga tegishli tasavvur va kechinmalarning noaniqligini keltirib chiqaradi;

o‘smirga bu dunyoning barqaror shakllanishlarini qayd etish qiyin bo‘lib, bu esa shaxs hayot faoliyati uchun katta qiyinchiliklarni va kattalar yordamiga bo‘lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi;

shaxsiy refleksiyaning namoyon bo‘lishi o‘z shaxsini turli tomondan o‘rganish qobiliyati sifatida (o‘z xarakter xususiyatlari, hissiyotlari, harakatlari, umuman xulq-atvori);

hozirgi vaqtda (bu yerda va hozir) o‘ziga nisbatan ijobiy va salbiy munosabatni aks ettiruvchi o‘zini o‘zi baholashning situatsion tabiati, bu o‘z xususiyatlarini, fazilatlarini, xulq-atvor shakllarini muayyan ijtimoiy, birinchi navbatda axloqiy me’yorlar bilan taqqoslashga asoslangan (13-14 yosh);

o‘zi haqida negativ fikrlar paydo bo‘lishi bilan o‘zini o‘zi yuqori baholashning ustunligi (11-12 yosh);

noaniq o‘z-o‘zini baholashning paydo bo‘lishi va bu borada o‘zi haqidagi salbiy fikrlarning asta-sekin kamayishi (14 - 15 yosh);

muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlikka adekvat javobning paydo bo‘lishi, bu muvaffaqiyatga faoliyat va muloqotdagi situatsion yutuq sifatida to‘g‘ri munosabatda bo‘lish qobiliyatidan kelib chiqadigan intilishlar darajasining dinamikasini va muvaffaqiyatsizlikni o‘zaro munosabatlardagi o‘ziga xos noto‘g‘ri hisob-kitoblar sifatida belgilaydi (umuman o‘z-o‘zini hurmat qilishning yo‘q bo‘lishi emas) va shuningdek, vaziyat sifatida muvaffaqiyatsizlik;

axloqiy mezonlarga ko‘ra o‘zi haqidagi hukmlarga o‘tish, unga ko‘ra o‘z shaxsi axloqiy faoliyat sub’ekti, axloqiy baholash ob’ekti sifatida baholanadi, kutilgan axloqiy baholashga yo‘naltirilganlik paydo bo‘ladi;

o‘smirning fikricha, kattalar tomonidan e’tirof va hurmatga sazovor bo‘lgan axloqiy xatti-harakatlarga qodirlik, bu refleksiv kutishlarga, uning fikricha, kattalar o‘smirdan nimani kutishini aniqlaydigan baholashga asoslanadi [11].

A.E.Vorobyova fikricha, yoshga bog‘liq ravishda o‘smir shaxsi axloqiy o‘zini o‘zi anglashining fenomenal maydoni sezilarli darajada kengayadi. O‘smirlarda o‘z xususiyatlari, axloqiy pozitsiyalari, axloqiy harakatlari, Men birlik sifatida o‘z individualligi va boshqalar haqida umumlashtirilgan tasavvurlar yuzaga keladi. Shaxsiy refleksiyaning rivojlanishi nafaqat o‘ziga xos pozitiv yoki negativ xususiyatlarni differensiatsiya qilishga olib keladi, balki individual shaxsiy xususiyatlarni yaxlitlikka integratsiya qilish qobiliyatini belgilaydi va shu bilan o‘z shaxsini o‘z-o‘zini aks ettirishga yangi nuqtai nazar beradi. O‘smirlarning uyg‘un shaxsiy o‘sishi normativ Men chegaralarida sodir bo‘ladi. O‘smirning o‘zini o‘zi anglashida o‘zi haqida yaxlit tasavvur va o‘z shaxsiga, o‘z Meniga bo‘lgan qadriyatli munosabat hayot faoliyatining axloqiy jihatlariga nisbatan pozitsiyani shakllantirishni faol ravishda amalga oshiradi. Bundan tashqari, o‘smirning fikr mazmuniga, axloqiy hukm chiqarish qobiliyatiga va boshqalarga ahamiyatli ta’sir ko‘rsatuvchi, kognitiv sohasi faol rivojlanadi. Bu o‘smirga boshqalarning xulq-atvoridagi turli axloqiy jihatlarning mohiyatini tushunishga (axloqiy pozitsiyalar, ideallar, harakatlar, kechinmalar, normalar va b.) va ularni o‘z Meni bilan solishtirishga imkon beradi. Shuningdek, tafakkur o‘smirlar tomonidan turli axloqiy tushunchalarni faol qo‘llashga yordam beradi. O‘tish davrida o‘smirda o‘z me’yorlarining va talablarining o‘ziga xos kompleksi yuzaga kelib, atrofdagi kattalarning fikri va pozitsiyalaridan qat’iy nazar, u ularni himoya qilishga harakat qiladi. Nisbatan barqaror va mustaqil axloqiy qarashlar, hukmlar va baholar shakllana boshlaydi, ammo ikkinchisi tengdoshlarning referent guruhining pozitsiyalari va qarashlari ta’siri ostida o‘zgarishi mumkin. Shu munosabat bilan, amaliy psixologning eng muhim vazifalaridan biri, muallifning fikriga ko‘ra, o‘smirning umuminsoniy qadriyatlarga batafsil

yo‘nalganligiga tayyorligini shakllantirishdir. Aynan shu yo‘nalishlar o‘sib borayotgan shaxsga kundalik hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri tanlov qilishga yordam beradi. Shu maqsadda tadqiqotchi trening ishlarida axloqiy hislarni rivojlantirish bo‘yicha bir qator uslubiy maslahatlar va tavsiyalarni taklif etadi. Olim, shuningdek, axloqiy xislarni rivojlantirish uchun o‘smirlar bilan ishlash jarayonida psixolog bu his-tuyg‘ularning mazmunini ochib berishi, ularning mohiyatini tushuntirishi, konstruktivligi yoki konstruktivizmini isbotlashi kerakligini ta’kidlaydi (masalan, hasad hissi konstruktiv bo‘lmagan axloqiy his) [3].

O‘smirlik davrida, E.I.Kyakinen fikriga ko‘ra, tegishli to‘siqlarni yengib o‘tish qobiliyati, qandaydir qat’iyatlilik, o‘jarlik va hokazo kabi kuchli irodaviy sifatlar sezilarli rivojlanishga ega bo‘ladi. Yoshlar, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilardan farqli o‘laroq, nafaqat alohida irodaviy harakatlarga, balki umuman irodaviy faoliyatga ham qodir bo‘lib bormoqda. Ushbu toifa, shuningdek, mustaqil ravishda maqsadlarni belgilash va ularga erishish yo‘llarini ishlab chiqish qobiliyatiga ega. Shu bilan birga, irodaviy sifatlar rivojlanishining yetishmasligi, avvalambor, bir turdagi faoliyatda katta qat’iyat ko‘rsatib, o‘smirlar uni boshqa turlarda aniqlay olmasliklaridan iborat. O‘z navbatida, o‘smirning axloqiy o‘zini o‘zi anglashini rivojlantirish muloqotga bo‘lgan ehtiyojning dolzarbligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu yoshlarni, birinchi navbatda, o‘zini izlashga, axloqiy o‘zini o‘zi baholashni rivojlantirishga, o‘zining axloqiy pozitsiyasini aniqlashga undaydi. Faqat muloqotda, boshqasi bilan o‘zaro ta’sirda axloqiy xulq-atvor normalari o‘zlashtiriladi, tenglik va bir-biriga hurmat munosabatlari o‘rnatiladi. O‘smirlik davridagi kishi o‘zining ichki dunyosini o‘zi uchun kashf etadi, shuningdek, boshqasining ichki dunyosini kashf etadi, busiz esa axloqiy o‘zini o‘zi anglashni to‘g‘ri rivojlantirish mumkin emas. Asosan kattalar bilan muloqot qilish jarayonida o‘smir, odatda, maqsadlarni, xulq-atvor motivlarini, baholash mezonlarini o‘rganadi.

Shu bilan birga, tengdoshlar bilan muloqot qilish jarayonida, odatda, o‘smirga Men-axloqiyni amalda qo‘llash, agar kerak bo‘lsa, zaruriy o‘zini o‘zi korreksiyalashni amalga oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, o‘smir kattalar bilan muloqotda kichiklar pozitsiyasida turadi va barcha axloqiy me’yorlarni o‘zlashtira olmasligi mumkin. O‘smir tengdoshlari bilan munosabatda teng huquqlidir, bu esa Men-axloqiyni rivojlanishiga yordam beradi. Aynan o‘smirlar jamoasida kattalar rolining mohiyatini to‘liq kuch bilan xayoliy emas, balki haqiqiy his qilish mumkin. Unda barcha o‘smirlarga kattalar pozitsiyasida va kattalar harakatlarida Men-axloqiyni namoyon qilishga ruxsat beriladi. Bu yerda xulq-atvor avtonomligi Men-axloqiyning o‘ziga xos xususiyatlar uchun mas’uliyat bilan birlashtirilishi muhimdir. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, muallif axloqiy va kognitiv rivojlanishning izchil traektoriyasini optimallashtirish, o‘g‘il va qizlarni turli xil ijtimoiy vaziyatlarda yetuk qarorlar qabul qilishga o‘rgatish uchun o‘smir axloqini trening texnikasi yordamida rivojlantirishni taklif qiladi. Olim tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda aniqlanishicha, asotsial yoshlar uchun barqaror va aniq kognitiv buzilishlar xosdir. Shu munosabat bilan treningni quyidagi bosqichlarni hisobga olgan holda kognitiv yondashuv doirasida o‘tkazish taklif etiladi:

muammoli vaziyat bilan tanishtirish;
yetuk axloqni tarbiyalash;
axloqiy rivojlanishdagi sustlashishni tuzatish;
yetuk axloqni mustahkamlash [5].

A.N.Brajnikova tadqiqotlariga ko‘ra, umuman olganda, o‘smirlik davridagi yetakchi yo‘nalish shaxsning Meni faol rivojlanishi, ota-onaga nisbatan me’yoriy qadriyatlar tizimining lokalizatsiya jarayonlarini faollashtirish va o‘zinikini shakllantirish yuzaga keladi. O‘smirlik davrida axloqiy o‘sish jarayonida shaxsning axloqiy qadriyatlarini liberallashtirish va uni ota-onadan emansipatsiyasi kabi yetakchi psixologik tendensiyalar aniqlanadi. Murakkab, ikki tomonlama jarayon sifatida axloqiy qadriyatlarni liberallashtirish quyidagilarni anglatadi:

birinchidan, o‘smir oldingi yillarda unga kattalar, ayniqsa ota-onalar va o‘qituvchilar tomonidan taklif qilingan yoki unga yuklangan me’yorlar, stereotiplardan xalos bo‘lishga qodir va intiladi;

ikkinchidan, o‘smir har doim ham autentik bo‘lmasa-da, o‘zi tushunadigan va boshdan kechirgan axloqiy qadriyatlar tizimini qurishga harakat qiladi.

Emansipatsiya jarayoni psixologik tendensiya va shu bilan birga o‘smirlarning axloqiy qadriyatlarini liberalizatsiya jarayonining sharti bo‘lib xizmat qiladi va uch turga bo‘linadi:

normativ;
emotsional;
xulq-atvor.

O‘smir bolalarning ota-onalariga hissiy qaramligidan xalos bo‘lishga, normativ, qadriyat va xulq-atvor sohalarida erkinlik, mas’uliyatni olishga intiladi. Bundan tashqari, muallifning ta’kidlashicha, qoida tariqasida, zamonaviy o‘smirning turli xil muammolari ko‘pincha yoshlarning axloqiy o‘zini o‘zi anglashining buzilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, shaxsning shakllanishi, uning o‘smirlik davrida o‘sishi axloqiy o‘zini o‘zi anglashning rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. Bu jihatdan psixolog ishida yetakchi o‘rinlardan birini psixologik konsultatsiya egallaydi, u ham individual, ham guruhiy shaklida amalga oshirilishi mumkin. Shu munosabat bilan, o‘smirlar bilan ishlaydigan amaliy psixologning muhim vazifasi o‘sib borayotgan shaxsning axloqiy o‘zini o‘zi anglashini rivojlantirishga hissa qo‘shadigan psixokorreksion usullar to‘plamini qo‘llashdir. Konsultatsiyaning guruhiy usullari – tatbiqiy psixologiyaning deyarli yangi sohasi bo‘lib, xususan, uning aniq nomi yo‘qligi bilan namoyon bo‘ladi. Uni belgilash uchun turli xil atamalar mavjud, masalan: faol ijtimoiy ta’lim; ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik; ijtimoiy-psixologik trening va boshqalar. Shu bilan birga, bunday ishning asosiy vazifalari, odatda, ishtirokchilarga ijtimoiy-psixologik ko‘nikmalarni egallash muhimligini anglash imkoniyatlarini taqdim etish, yaxshilangan kommunikatsiya va ijtimoiy o‘z taqdirini o‘zi belgilash jarayonini dolzarblashtirishni ta’minlaydigan rol repertuarini kengaytirish va hokazolarni o‘z ichiga oladi. Guruhiy konsultatsiya trening mashg‘ulotlari shaklida o‘tkazilganda, nafaqat fikrlash va xulq-atvorning yangi ko‘nikmalarini rivojlantirish, balki ularni korreksiyalash ham sodir bo‘ladi. Shaxs bilan psixologik konsultatsiya jarayoni psixologik korreksiya tamoyillari va usullari bilan chambarchas bog‘liq [2].

A.A.Maksutova ta’kidlashicha, aynan o‘smirlarda rivojlanishning ijtimoiy vaziyatini sifatli o‘zgartirish faol amalga oshiriladi. Bunda u o‘smir o‘zini o‘zi anglashida yangi qadriyatlar yo‘nalganligiga aylanadi. U o‘z Menini kattalar bilan taqqoslashga, o‘z mustaqilligini himoya qilishga harakat qiladi. Bu davrda Men-axloqiyni amalga oshirish, birinchi navbatda yangi emotsional-qadriyatli intilish – katta bo‘lish bilan bog‘liq. Katta odamning rolli pozitsiyasi o‘smirning muhim emotsional kechinmalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Muhim kattalarning xulq-avtorini imitatsiya qilib, u o‘z Menining imkoniyatlarini anglaydi. O‘smir o‘z Menini kattalar pozitsiyasida va kattalar harakatlarida, ayniqsa, kattalar makonidan chetlashtirilgan xulq-atvor shakllarida tasdiqlaydi. Shu munosabat bilan, egoistik xulq-atvor strategiyalarini amalga oshirish, birinchi navbatda, yoshga bog‘liq vazifalarni hal qilish va o‘zini anglash jarayonida Men-axloqiyni yangi tushunish bilan bog‘liq. Aslida, bu davrda egoistik xulq-atvor strategiyalarini amalga oshirish yangi Men qadriyatni kuchli tashqi va ichki ta’sirlardan himoya qilish bilan bog‘liq. Yuqoridagilardan kelib chiqib, muallif tomonidan taklif qilingan o‘smirlarning axloqiy tasavvurlarini tarbiyalashning psixologik-pedagogik tizimi qiziqish uyg‘otadi, bu o‘quvchilarning axloqiy ongini shakllantirish va o‘sishiga yordam beradigan tavsiyalar tizimini o‘z ichiga oladi. Olimning fikricha, maqsadga yo‘naltirilgan psixologik-pedagogik ta’sir usullari pedagogning o‘smirlar, o‘smirlar tengdoshlari bilan doimiy harakatlari va tashabbuslari almashinuvi orqali o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialini o‘zlashtirishni yaxshilashga yordam beradi, bu esa axloqiy muammolarni mustaqil tahlil qilish va hal qilish qobiliyatini rag‘batlantirishga olib keladi. Ushbu tizim doirasida pedagoglarning o‘smirlar bilan tashkiliy faoliyati bir nechta bosqichlarni o‘z ichiga oladi: darsda va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda yaratilgan axloq lug‘ati qo‘llaniladi, maxsus trening davomida guruh ishlari bahs-munozaralar, rolli va imitatsion o‘yinlar, insholar yozish va boshqalar shaklida amalga oshiriladi [6].

E.M.Sadikova pozitsiyasiga muvofiq, refleksiya orqali o‘smir Men-axloqiyni anglash yo‘nalishida oldinga ketadi va u boshqa o‘smirning Men-axloqiyligi bilan bog‘lanishga intiladi. Men-o‘tmishda-hozirda-kelajakda sxemasi bo‘yicha refleksiv o‘zini o‘zi tahlil qilish, o‘smirga o‘zining nomukammalligini ochib beradi va u Men-axloqiy inqirozini boshdan kechiradi. Ushbu inqiroz tufayli o‘smir Men-axloqiyni qayta ko‘rib chiqadi, o‘z his-tuyg‘ulari va fikrlari sohasini boyitadi. O‘zini namoyon qilish doirasida o‘smir katta qiyinchiliklar bilan bog‘liq faoliyatni tanlashga harakat qiladi, bu esa barcha narsadan o‘tish, o‘zini ko‘rsatish istagi bilan asoslanadi. O‘smirlik davrida inson axloqiy xulq-atvor tajribasini intensiv ravishda egallaydi va uning turli jihatlari o‘z hayotida sinovdan o‘tkaziladi. U o‘zining axloqiy sohasini mustaqil ravishda shakllantira oladi va nazorat qila oladi va uning harakatlari u uchun hayotda mazmun kasb etadi. O‘smirlarning axloqiy o‘zini o‘zi anglash sohasidagi sezilarli o‘zgarishlar, shuningdek, faollikning kengayishi, asosan ijtimoiy-axloqiy munosabatlar bilan bog‘liq yangi o‘lchovlarga o‘tish, ular mavjudligining ma’nosini anglash, axloqiy me’yorlarni qabul qilishga bo‘lgan munosabat bilan sodir bo‘ladi. O‘smirlik davrining yuqorida aytib o‘tilgan xususiyatlariga asoslanib, olim teningni o‘smirlarning axloqiy tanlov qilishga tayyorligini rivojlantirishga yetarlicha samarali yondashuv sifatida ko‘rib chiqishni taklif qiladi. Trening doirasida muallif yoshlarga ekzistensial muammolarni hal qilishda shaxsiy tajribaga ega bo‘lishlari

uchun sharoit yaratadi, bu esa axloqiy o‘zini o‘zi anglashni rivojlantirishga yordam beradi va natijada o‘smirlarning axloqiy tanlov qilishga tayyorligini oshiradi. Olimning so‘zlariga ko‘ra, trening atamasining o‘zi psixoterapiya, psixokorreksiya, shuningdek o‘qitishga ta’sir qiluvchi amaliy psixologiyaning juda keng doirasini qamrab oladi. Shu bilan birga, muallif tomonidan taklif qilingan psixologik trening o‘z tuzilishida o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘zini o‘zi bilish ko‘nikmalarini maqsadli rivojlantirish uchun ishlatiladigan amaliy psixologiyaning faol yondashuvlari majmuasidir. Bundan tashqari, zamonaviy o‘smirlarning o‘zlarini rivojlantirishga yordam berish uchun trening yondashuvlaridan foydalanish mumkin [7].

I.A.Solopova o‘z tadqiqotida ta’kidlashicha, zamonaviy o‘smirlar bilan psixologik ishni (psixologik konsultatsiya, psixologik korreksiya, psixologik trening va b.) sinergetik yondashuvni inobatga olgan holda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu yo‘nalish bo‘yicha muallif asosan yoshlarning hayotiy faoliyatining sifat jihatidan yangi darajasiga erishish uchun o‘zaro ta’sirga, ma’lum bir odamlar doirasiga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatni nazarda tutadi. Bundan tashqari, ushbu jarayonda barcha energiya tarkibiy qismlarining yig‘indisidan oshib ketadigan energiya deb ataladigan yanada mukammal birlashtirilgan shakl yaratiladi.

Sinergiyaning shakllanishi va rivojlanishining asosiy shartlari sifatida tadqiqotchi quyidagilarni ajratib ko‘rsatadi:

zamonaviy o‘smirlarni guruhiy faoliyatga (tegishli shaxslar doirasi) emotsional jalb qilishni shakllantirish va rivojlantirish;

doiraning optimal ta’rifi va tuzilishi;

sinergiya jarayoniga jalb qilingan tegishli shaxslarning rolli taqsimoti [10].

Mazkur jihatda D.S.Jvanskiy fikricha, yosh avlod bilan guruhiy ishda sinergiya effektiga erishish uchun quyidagilarni hisobga olish kerak:

dolzarb ma’lumotlarning faol almashinuvi, ya’ni asos turli tajribalar, nuqtai nazarlar va boshqalarga nisbatan tolerantlik pozitsiyasini hisobga olgan holda yaxshi tashkil etilgan kommunikatsiya bo‘lishi kerak. Bu o‘smirlarga o‘zlarini qulay his qilishlariga, turli xil fikrlarni faol ravishda almashishlariga va shunga mos ravishda sinergiyaga osonroq erishishlariga imkon beradi;

qayta aloqani muntazam hisobga olish, ya’ni guruh ishi jarayonida asosan ikki tomonlama muloqotga, tinglash qobiliyatiga, alternativ pozitsiyalarni hisobga olishga, hamkorlik va o‘zaro qo‘llab-quvvatlashga e’tibor qaratiladi;

faktlarni tarixdan ajratish, ya’ni birinchisi kuzatilishi mumkin bo‘lgan tafsilotlar bilan birga keladi va tarix bu tafsilotlarning tegishli interpretatsiyasidir va hokazo [4].

V.G.Solovyanyuk-Krotova pozitsiyasiga ko‘ra, sinergetik yondashuv doirasidagi o‘smirlar bilan guruhiy ish ota-onalar va pedagoglarning faol ishtirokini ta’minlaydi, bu esa natijani ko‘p marta sezilarli darajada oshiradi. O‘zining mohiyatiga ko‘ra, aynan shu kontekstda sinergiya effekti paydo bo‘ladi. Muallif o‘zining uzoq muddatli amaliyotida zamonaviy o‘smirlar bilan ishlash uchun ijtimoiy-psixologik treningni, shuningdek, ularning ota-onalari va umumiy g‘oya bilan birlashtirilgan bevosita o‘zaro ta’sir qiluvchi pedagoglar bilan konsultativ-ma’rifiy ishlarni qo‘llaydi. Bu birgalikda akkumulyatsiyalashgan – sinergetik effekt beradi [9].

V.I.Aydarov, S.N.Simonov ta’kidlashicha, sinergetik yondashuv umuman olganda, birgalikdagi ish va birgalikdagi maqsadga yo‘naltirilgan harakatni anglatadi. Sinergiya o‘smirlar ma’lum bir natijaga qaratilgan birgalikdagi faoliyatni amalga oshirganda yaratiladi, agar hamma alohida harakat qilsa, bu imkonsiz bo‘lar edi. Bundan tashqari, sinergiya atamasining o‘zi ham muammolarni tushunishning eng yaxshi usuli o‘smir hayotining barcha qismlari, ham tashqi, ham ichki, aynan shu vaqtda qanday birlashganini ko‘rib chiqish ekanligini eslatib turadi. Yoshlarning kundalik ishlari, sodir bo‘layotgan voqealar, ularning hayotiy tajribasi, fikrlari, hissiyotlari, qadriyatlari va boshqalar ularning bugungi kunda haqiqiy hayotni qanday qabul qilishlariga ta’sir qiladi [1, 8].

Shu o‘rinda ijtimoiy o‘zaro ta’sir tushunchasi sinergiya tushunchasi bilan yondosh holatda quyidagi ta’rifda o‘z ifodasini topadi: “Ijtimoiy o‘zaro ta’sir – bir sub’ektning harakati boshqa sub’ektlarning javob harakatining sababi va natijasi bo‘lib, o‘zaro bog‘liq ijtimoiy harakatlar tizimidir”. Bu ijtimoiy aloqalarni shakllantirishning boshlang‘ich nuqtasi “ijtimoiy harakat” tushunchasi bilan bog‘liq.

Shunday qilib, yuqorida aytilganlarga asoslanib, katta bo‘lish davrida yoshlarda axloqiy o‘zini o‘zi anglashini, xususan, kognitiv, hissiy, irodaviy, motivatsion, ijtimoiy, shaxslararo va boshqalarni dinamik shakllantirish uchun tegishli shart-sharoitlar yuzaga keladi degan xulosaga kelish tavsiya etiladi. Ushbu shart-sharoitlarni hisobga olgan holda, o‘smir hayoti davrining xususiyatlari, shuningdek, axloqiy o‘zini

o‘zi anglash va psixodiagnostik texnikaning ilgari aniqlangan tuzilishi, uning rivojlanish jarayonini optimallashtirish uchun o‘smir shaxsiga kompleks ta’sir ko‘rsatadigan trening ishlari eng samarali va maqbul yo‘l sifatida namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari, bu jarayonni sinergetik yondashuvni hisobga olgan holda yaratish tavsiya etiladi, bu birinchi navbatda o‘smirlarning ota-onalari va o‘qituvchilarini faol jalb qilgan holda birgalikdagi yaratuvchanlik faoliyatini nazarda tutadi. Shu bilan birga, psixologik treninglarni tayyorlash va qo‘llash xususiyatlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, ularning har biri ma’lum bir nazariy asosga, muammoli xarakterdagi tegishli psixologik masalalarni hal qilish uchun maqsadli texnikalar to‘plamiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Айдаров В.И. Синергетический подход в методологии психолого-педагогического обеспечения оптимизatsii качества жизни личности с ограниченными возможностями здоровья. // Современные наукоемкие технологии. - 2016. - № 2. - С.270-274.
2. Бражникова А.Н. Модель исследования нравственности как системы нравственно-психологических отношений личности. // Вестник Университета Российской Академии Образования. - № 1. - 2018. - С. 8-13.
3. Воробьева А.Е. Нравственное самоопределение молодежи. - М.: Изд-во «Институт психологии РАН», 2013 - 480 с.
4. Жванский Д.С. Эффект синергии в групповой работе с подростками. // Современные проблемы науки и образования. - 2009. – №3. – С. 123-126.
5. Кякинен Э.И. Психологическая оценка понятий добра и зла. // Теоретические и прикладные вопросы психологи. Мат-л юбилейной конф. Ананьевски чтения-2001. - СПб.: Изд-в СПбГУ, 2001. - №3. - С. 31-37.
6. Максутова А.А. Психолого-педагогическая система воспитания нравственных представлений подростков. // Психическое и физическое здоровье человека, медико-социально-психологические и психолого-педагогические аспекты: Регин. науч-практ. конф. - Иркутск: Изд-во Иркут. гос. ун-та, 2009. - С. 29-32.
7. Садыкова Э.М. Подходы к развитию готовности подростков к осуществлению нравственного выбора. // Образование как интегративный фактор цивилизatsionного развития. Матер междунар науч. практ. конфер. - Казань. Изд-во «Таглимат» ИЭУП, 2005. - С. 56-61.
8. Симонов С.Н. Синергетический подход в педагогике. // Тамбовский государственный университет им. Г.Р. Державина. – Тамбов, 2012. – 372 с.
9. Соловьянюк-Кротова В.Г. Синергетический подход к вопросам развития личности. // Знание. Понимание. Умение, №4. - 2013. - С. 303-308.
10. Солопова И.А. Синергетический подход в психологической работе с подростками. // Восьмой международный междисциплинарный конгресс «Нейронаука для медицины и психологии». Судак, 2012, тезисы докладов, С. 166-167.
11. Шитякова Н.П. Практикум по диагностике нравственной воспитанности дошкольников и школьников. - Челябинск: Изд-во ЧГПУ. - 2001. - 79 с.

Abdullaev Bobur Askarjonovich
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi mas’ul xodimi,
Psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori, PhD

DAVLAT XIZMATCHILARINING BOSHQARUV FAOLIYATI VA UNING IJTIMOIY - PSIXOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya. *Maqola davlat xizmatchilarining boshqaruv faoliyati va uning ijtimoiy -psixologik tahlili mavzusiga bag‘ishlangan. Shuningdek, maqola mazmunida zamonaviy boshqaruv amaliyoti va uning samaradorligi, kundalik o‘zgarishlar va davlat xizmatidagi rahbar imkoniyatlari, zamonaviy rahbarga xos tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik, rahbarga xos boshqaruv uslubi, boshqaruv faoliyatidagi rahbar strategiyasi kabi masalalar ham keng tadqiq etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Davlat xizmati, boshqaruv faoliyati, jamiyat, davlat, zamonaviy rahbar, soha, ijtimoiy faollik, ijtimoiy kompetensiya, boshqaruv qadriyatlari, ijtimoiy-psixologiya, milliy boshqaruv, namunali rahbar, fidoiylik, burch, vazifa, millatparvarlik, sodiqlik, samaradorlik.*

АДМИНИСТРАТИВНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ГОСУДАРСТВЕННЫХ СЛУЖАЩИХ И ЕЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация. *Статья посвящена управленческой деятельности государственных служащих и ее социально-психологическому анализу. Также в содержании статьи рассмотрены такие вопросы, как современная практика управления и ее эффективность, ежедневные изменения и возможности лидера на государственной службе, инициативность, свойственная современному лидеру, социальная активность, характерный для лидера стиль управления, стратегия лидера в управленческой деятельности. широко исследуются.*

Ключевые слова: *Государственная служба, управленческая деятельность, общество, государство, современный лидер, промышленность, социальная активность, социальная компетентность, ценности управления, социальная психология, национальный менеджмент, образцовый лидер, самоотверженность, долг, задача, патриотизм, лояльность, эффективность.*

ADMINISTRATIVE ACTIVITY OF CIVIL SERVANTS AND ITS SOCIAL-PSYCHOLOGICAL ANALYSIS

Annotation. *The article is devoted to the management activity of civil servants and its socio-psychological analysis. Also, in the content of the article, issues such as modern management practice and its effectiveness, daily changes and leader's capabilities in public service, initiative characteristic of a modern leader, social activity, management style characteristic of a leader, leader's strategy in management activities are widely researched.*

Key words: *Public service, management activity, society, state, modern leader, industry, social activity, social competence, management values, social psychology, national management, exemplary leader, dedication, duty, task, patriotism, loyalty, efficiency.*

Hozirgi kunda, mustaqil rivojlanish yo’lidan borayotgan O‘zbekiston Respublikasi uchun ham, boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish, davlat xizmatidagi rahbar kadrlarni zamon talablari darajasida o‘qitish, ularni boshqaruv faoliyatiga qayta tayyorlash, kasbiy malakalarini oshirish, shuningdek, boshqaruv kompetensiyalarini yanada rivojlantirish kabi ishlarning chora-tadbirlari masalasi o‘ta muhim islohotlardan biri sifatida qaralmoqda. Chunki davlat xizmatidagi boshqaruv faoliyati murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sanalib, unda nafaqat biror tashkilotning balki, butun bir jamiyat va davlatning taqdiri, fuqarolarning huquq va erkinliklari, hamkorlikdagi o‘zaro aloqalar, birgalikdagi faoliyat, samarali mehnat muhiti, tizimga aloqador imkoniyat va yutuqlar, istiqbol rejalar kabi ko‘plab masalalar o‘z aksini topgan[1]. Ayniqsa, ushbu masalani davlat xizmatchilari xodimlari faoliyati bilan bog‘lab o‘rganish, o‘ta muhim sanalgan vazifalardan biri hisoblanadi.

Aytish joizki, davlat xizmatidagi rahbarlarga xos eng muhim ijtimoiy-psixologik xususiyat bu – boshqaruvga bo‘lgan kompetentlik sanalib, u orqali davlat va jamiyat ravnaq topadi shuningdek, yangicha yashash va yangicha hayot tarzi amalga oshiriladi. Ushbu dolzarb vazifalar davlat xizmatidagi rahbar

shaxslar faoliyati bilan uzviy bog‘liq sanalib, uni ijtimoiy-psixologik jihatdan tadqiq etish o‘ta ahamiyatli hisoblanadi. Qolaversa, zamonaviy rahbar va uning boshqaruv uslubi, davlat xizmatidagi rahbar shaxslarga xos xarakterologik xususiyatlar, novator rahbarga qo’yiladigan talablar, samarador boshqaruv tizimi, tashabbuskor rahbar kabi masalalarga bag‘ishlangan yangi mahalliy psixologik tadqiqotlar, rahbar kadrlar sohasini qayta isloh qilish, jamiyat boshqaruvini modernizatsiya qilish ishlarida ilg‘or g‘oyalar sifatida xizmat qilishi tabiiydir. Hozirga qadar boshqaruvda rahbar imkoniyatlari va muvaffaqqiyatli rahbar masalalariga oid xarizmatik, transformatsion, o‘zgaruvchan yetakchilik, tuzatuvchan yetakchilik kabi yondoshuvlar mavjud bo‘lib, ularda innovatsion rahbar xulq-atvoriga xos ko‘plab ijtimoiy – psixologik xususiyatlar majmui tavsiflangan. Biroq, biz maqsadimizga mos ayrim tadqiqotlar mazmuniga e’tibor qaratmoqchimiz.

Tadqiqotchi V.G.Gryazeva-Dobishinskayaning aytishicha, davlat xizmatidagi innovatsion rahbar faoliyati, hozirgi ijtimoiy-psixologiya uchun, yangi tadqiqot g‘oyasi sanalib, uni ilk bor tadqiq etgan olimlar sifatida Dj.Kadjemi, D.S.Dayl, E.Y.Lesser, T.L.Tomas, A.G.Vas, R.L.Daft, E.D.Sheyn hamda D.K.Xarres kabilarni tan olish mumkin[2,97]. Mualliflar asosan, innovatsion rahbarning jamiyat o‘zgarishlariga bo‘lgan munosabati va yangiliklarga moslasha olish qobiliyati masalalariga ko‘proq e’tibor qaratishgan.

P.S.Gluxova davlat xizmatidagi namunali rahbar faoliyatining o‘ziga xosliklari borasida tadqiqotlar olib borib, unga shunday ta’rif beradi[3,74]: “innovatsion rahbar tashkilotdagi o‘zgarishlarni to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi, tashqi sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olib, ishni bajarishda o‘z jasoratini namoyish etadi. Shuningdek, boshqalar tomonidan berilgan taklif va mulohazalarni qabul qiluvchi, ularni qayta ishlovchi shaxsdir. Demak, bunday rahbarlar qaysi soha bo‘lmasin doim yangilikni istovchi, uni qo‘llab –quvvatlovchi, novator shaxslardir. Yuqoridagi fikrlardan farqli o‘laroq, innovatsiya moyil rahbarlar oldindan strategiyalar tuzuvchi va ularni o‘z vaqtida qo‘llay oluvchi kishilardir. N.V.Gorodnikova aytishicha, yangiliklar va o‘zgarishlarni yaratadigan rahbarlar ijtimoiy faoldir. Ular zarurat tug‘ilishidan oldin harakat qilib ulguradilar. Ya’ni ular kimdandir g‘oya yoki yordam kutib o‘tirishmaydi[4,15]. Shuning uchun ham, ularning faoliyati muvaffaqqiyatli yakunlanadi. Mazkur mulohazalardan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, rahbar faoliyatining samaradorligi bu undagi intuitsiya qilish qobiliyati bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Intutsiya bu – oldindan biror yangilik yoki yutuq imkoniyatlarini ko‘ra olish qobiliyati sanaladi.

R.L.Daftning tadqiqotlarida keltirilishicha, ilg‘or rahbar bu – g‘ayri oddiy harakat qiluvchi, nostandart fikrlovchi, yorqin ishlarga qodir, yangi madaniyatga tez moslasha oluvchi, ijodkorlikni qo‘llab – quvvatlovchi, boshqalarni muvaffaqqiyat sari yetaklovchi shaxsdir[5,216]. Demak, zamonaviy rahbar uchun nostandart fikrlash, harakat qilish muhim sanalib, u muvaffaqqiyatni ta’minlovchi psixologik shart-sharoitlardan biri hisoblanadi. I.V.Konevning so‘zlariga ko‘ra, innovatsion ishlarni tashkil qilish uchun, avvalambor, davlat xizmatidagi rahbar shaxsida quyidagi qobiliyatlar shart hisoblanadi[6,14]:

– Har qanday tashqi o‘zgarishlarga tezkor javob berish qobiliyati;
– Boshqaruv tizimini soddalashtira olish;
– Vazifalarni amalga oshirish vaqtini qisqartira olish;
– Guruh a’zolarining takliflari va tavsiyalariga e’tiborli bo‘lish;
– Guruhning barcha ishtirokchilari o‘rtasida iliq munosabatlar o‘rnata olish;
– Eng iste’dodli xodimlarni bir guruhdan boshqasiga o‘tkaza olish qobiliyati va hokazo. Mazkur keltirilgan tasniflar mazmunidan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, bo‘lajak rahbar kadrlar shaxsida vaziyatlarni tez idrok qilish, qo‘l ostidagi xodimlarni boshqara olish, iste’dodli xodimlarni ajrata olish kabi qobiliyatlar shakllangan bo‘lishi lozim sanaladi.

L.N.Ogolevoyning ta’rificha, innovatsion faoliyat - bu ilmiy izlanishlar, yangi turdagi mahsulotlarni yaratish, asbob-uskuna va mehnat ob’ektlarini takomillashtirish, texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni to‘g‘ri tashkil etish, xodimlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning dinamik xarakterini tushuna olish, fan va texnikaning so‘nggi yutuqlari to‘g‘risida ma’lumotlarga ega bo‘lish, ilmiy-texnik taraqqiyotni rejalashtira olish, iqtisodiy islohotlar va imtiyozlarni takomillashtira olish hamda ish joyida samaradorlikka olib kelib keluvchi chora-tadbirlarni tashkil eta olish kabi qator kompetensiyalarni o‘z ichiga olgan faoliyat turidir[7,132]. Bizningcha, yuqorida keltirilgan ijtimoiy - psixologik sifatlar bilan birga, har qanday davlat xizmatidagi rahbar shaxs uchun, quyidagi fazilatlar ham muhim hisoblanadi:

1. Ijtimoiy-axloqiy fazilatlar: ijtimoiy va shaxsiy motivlarning uyg‘unligi, ijtimoiy mas’uliyat, burch hissi, majburiyatlarni bajarishdagi aniqlik va intizomlilik;

2. Intellektual fazilatlar: tezlik, moslashuvchanlik, mustaqillik va tanqidiy tafakkur, kreativ fikrlash, o‘z-o‘zini nazorat qila olish;

3. Tashkiliy va boshqaruv fazilatlar: talabchanlik, bo‘ysunuvchilarga hurmat va xushmuomalalik, so‘zga sodiqlik, boshqaruv, hissiy va ixtiyoriy barqarorlik;

4. Kommunikativ fazilatlar: yuqori darajada va haqiqiy o‘zini o‘zi anglash, o‘ziga ishonch, o‘zini o‘zi anglash, o‘zini hurmat qilish, hazil tuyg‘usi, savodxonlik, nutqning aniqligi va ekspressivligi va hokazo.

L.A.Balakirevaning ta’kidicha, shaxsda samarador boshqaruv qobiliyatini ta’minlovchi quyidagi psixologik sifatlar mavjud[8,56]:

– Diqqatni boshqarish - rahbar natija, maqsad yoki harakatni o‘z hamkasblariga jozibali ko‘rinishda taqdim yetadi;

– Ma’lumotlarni yetkazib berish qobiliyati - yetakchi rejalarning ma’nosini guruhning har biri tushunishi va ma’qullashi uchun aniq yetkazadi;

– Boshqalarda ishonch hissini uyg‘ota olish;

–O‘zini o‘zi boshqara olish qobiliyati - rahbar doimiy ravishda o‘z ustida, ayniqsa, o‘z shaxsiy fazilatlari ustida ishlashi lozim. Ana shunda, ular ayrim xususiyatlar kasbiy ahamiyatli fazilatlarga aylanadi va bu faoliyatda muvaffaqiyat garovi sanaladi.

Zamonaviy jamiyatda rahbarning boshqaruvchanlik qobiliyatini baholashning o‘ziga xos yondoshuvlari ham mavjud bo‘lib, unda yetakchi shaxslarda rivojlangan yuqori empatik qobiliyatlar va emotsional intellekt to‘g‘risida fikr-mulohazalar boradi.

L.I.Berestova o‘zining “ijtimoiy-psixologik kompetensiya rahbar professionalligining xarakteristikasi” mazusidagi dissertatsiya ishida, rahbar shaxsiga xos emotsional intellektning boshqaruvdagi roli haqida, o‘ziga xos ta’rifni keltirib o‘tgan. Muallifning fikricha, yuqori rivjlangan emotsional intellekt rahbar shaxs uchun, o‘zi his-tuyg‘ularidan va boshqalarning his-tuyg‘ularidan o‘z vaqtida xabardor bo‘lishga, noxush hislarning sabablarini tushuna olishga, o‘z hissiy holatini har qanday murakkab sharoitlarda boshqara olishga, begona kishilar va qo‘l ostidagi yangi xodimlarga nisbatan hamdard bo‘la olishga, ishchi va xodimlarning imkoniyatlari va qay darajadagi malakalari mavjudligini ko‘ra olishga hamda ularni tarbiyalash hamda kasbiy imkoniyatlarini rivojlantirishga bosh-qosh bo‘la olish kabi xususiyatlarini ta’minlovchi qobiliyatlar turi sifatida xizmat qiladi. Demak, samarali boshqaruv kompetentligi uchun emotsional intellekt shart va zarurdir[9,24].

Zamonaviy rahbar uchun innovatsion yetakchilik qobiliyati ham farqlanib, mazkur masala borasida ham o‘ziga xos yondoshuvlar hamda tadqiqotlarni uchratish mumkin. S.D.Ilinkova hamda L.M.Goxberglar bu borada shunday deydi: “Boshqaruv faoliyati samaradorligi uchun shart bo‘lgan innovatsion qobiliyat bu – rahbar shaxsning murakkab sharoitlarda chidamlilik xususiyati, noaniqliklarga bo‘lgan sezgirlik sifatlari, vaqt kam vaziyatlarda oqilona va to‘g‘ri qaror qabul qilish tajribasi, turli yangi axborotlar bilan ishlash ko‘nikmasi shuningdek, har qanday sharoitlarda barcha tomonlarning manfaatlarini hisobga olgan holda, ish tutish malakasi kabilarni ta’minlovchi qobiliyat turidir [10,78]. Albatta, har bir muvaffaqqiyatli rahbar shaxsda yetarlicha innovatsion qobiliyat shakllangan bo‘lishi lozim. Ba’zi tadqiqotchilarning fikricha, boshqaruv kompetentligi masalasida tadbirkorlik tafakkuri ham tilga olinib, bu psixik jarayonsiz namunali rahbar faoliyati haqida gapirish noo‘rin ekanligi ta’kidlanadi.

Xulosa qilib aytganda, ilg‘or boshqaruv kompetensiyasiga ega davlat xizmatidagi rahbarga xos qator ijtimoiy-psixologik xususiyatlar tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik, o‘z-o‘zini rivojlantirish, altruizm, tolerantlik, kasbiy kompetensiya, psixologik kompetensiya, intellekt, sotsial intellekt, emotsional intellekt kabilar qayd etilib, ularni ijtimoiy – psixologik bilimlar orqali o‘rganish, boshqaruvda rahbar kadrlarni psixologik jihatdan tayyorlash hamda ularning boshqaruv kompetentligini takomillashtirish kabi masalalarga, yangicha yechimlar olib kelishi ehtimoldan holi emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni. https://lex.uz/docs.

2. В.Г.Грязева-Добшинская Инновационное лидерство: социально- психологическая программа для менеджеров / В.Г. Грязева-Добшинская // Социалная психология творчества – 2007: сборник научных трудов. – Челябинск: ЮУрГУ, 2007. – С. 200 – 207.

3. Глухов П.С. Управленческие ориентации и стили лидерства менеджеров организаций с разной степеню инновационного развития / П.С. Глухов // Вестник ЮУрГУ. – Серия «Психология». – 2010. – Вып. 9. – С.74 – 78.

4. Городникова Н.В. Индикаторы инновационной деятелности: 2014: статистический сборник / Н.В. Городникова, Л.М. Гохберг, И.А. Кузнецова и другие. – М.: НИУ «ВШЭ», 2014. – 472 с.

5. Дафт Р.Л. Уроки лидерства / Р.Л. Дафт. – М.: Эксмо, 2006. – 480 с.

6. Конев И.В. Инновационная готовност персонала организации: диагностика и пути повышения: Автореферат дис. на соискание ученой степ, канд. социол. наук. Белгород, 2001. – 25 с.

7. Инновационный менеджмент/ под ред. Л.Н. Оголевой. М: Инфра-М, 2001. – 238 с.

8. Балакирева Л.А. Психология профессионалного успеха / Л.А.Балакирева, Н.А.Даниличева. СПб.: ЛСП, 1998. – 144 с.

9. Берестова Л.И. Социально-психологическая компетентность как профессиональная характеристика руководителя: автореф. дисс. . канд. психол. наук: 19.00.05 / Рос. акад. управления. М., 1994. – 24 с.

10. Инновационный менеджмент: Учебник для вузов / С. Д. Ильенкова, Л. М. Гохберг, С. Ю. Ягудин и др.; Под ред. С. Д. Ильенковой. М., 1997. – С.78.

Abdurahmanova Regina
O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi

ПСИХОФИЗИОЛОГИЧЕСКАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ, КАК ФАКТОР СВЯЗЫВАЮЩИЙ СОЦИАЛЬНО ПСИХОЛОГИЧЕСКУЮ АДАПТАЦИЮ И ПСИХОЛОГИЧЕСКУЮ СТАБИЛЬНОСТЬ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Аннотация. *В статье рассматривается литературный обзор актуальной проблемы психофизиологической устойчивости военнослужащих РУз. Основываясь на исследования отечественных и зарубежных ученых, изучается использование, подтвержденных ранее теорий об условиях развития психофизиологической устойчивости. Раскрытие психофизиологической устойчивости сквозь широкий спектр психологических и эмоциональных характеристик, которые позволяют военнослужащим эффективно функционировать в условиях службы и преодолевать трудности, с которыми они сталкиваются.*

Ключевые слова: *устойчивость, военнослужащие, психофизиология, профессиональная подготовка, особенности, качества, наука, поведение, реакция, экстремальные условия.*

PSIXOFIZIOLOGIK BARQARORLIK HARBIY XIZMATCHILARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ADAPTASIYALINISHI VA PSIXOLOGIK BARQARORLIGINI BOG'LANGAN OMIL SIFATIDA

Annotasiya. *Maqolada O'zbekiston Respublikasi harbiy xizmatchilarining psixofiziologik barqarorligining dolzarb muammosiga adabiy sharh berilgan. Mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlari asosida psixofiziologik barqarorlikni rivojlantirish shartlari to'g'risida ilgari tasdiqlangan nazariyalardan foydalanish kuzatilmoqda. Harbiy xizmatchilarga xizmat muhitida samarali ishlashga va ular duch keladigan qiyinchiliklarni yengib o'tishga imkon beradigan keng ko'lamli psixologik va hissiy xususiyatlar orqali psixofiziologik barqarorlikni ochish.*

Kalit so'zlar: *chidamlilik, harbiy xizmatchilar, psixofiziologiya, kasbiy tayyorgarlik, xususiyatlar, fazilatlar, fan, xatti-harakatlar, reaksiya, ekstremal sharoitlar.*

PSYCHOPHYSIOLOGICAL STABILITY AS A FACTOR LINKING SOCIO-PSYCHOLOGICAL ADAPTATION AND PSYCHOLOGICAL STABILITY OF MILITARY SERVANTS

Abstract. *The article discusses a literary review of the current problem of psychophysiological stability of military personnel of the Republic of Uzbekistan. Based on research by domestic and foreign scientists, the use of previously confirmed theories about the conditions for the development of psychophysiological stability is observed. Uncovering psychophysiological resilience through a wide range of psychological and emotional characteristics that enable military personnel to function effectively in their service environments and overcome the challenges they face.*

Key words: *resilience, military personnel, psychophysiology, professional training, features, qualities, science, behavior, reaction, extreme conditions.*

В постановлении Президента РУз, от 10.12.2021 г. № ПП- 40 о дополнительных мерах по организации физической подготовки военнослужащих Вооруженных Сил РУз мы наблюдаем, что огромное внимание уделяется не только качественному военно- техническому обеспечению, условиям содержания военных, но и психофизической устойчивости военнослужащих нашей республики. В нынешних непростых условиях глобализации военные угрозы национальной безопасности, вытекающие из военно-политической ситуации в мире и регионе, требуют от военнослужащих Вооруженных Сил Республики Узбекистан высокой боевой готовности, твердой воли и физического совершенства.[11]

В современном мире постоянно происходят политические, экономические, климатические и другие изменения, затрагивающие все области жизни гражданской и военной сферы деятельности. С каждым годом растут требования по подготовке психофизически стойких кадров среди офицеров и курсантов во всех военных Вузах Узбекистана.

В работах В.Д. Небылицына, Б.Ф. Ломова, КМ. Гуревича, О.А. Конопкина, В.М. Русалова и многих других отечественных и зарубежных исследователей проблема эффективности и надежности профессиональной деятельности рассматривается в свете учения о типах высшей нервной деятельности.

Основная функция военных: обеспечение безопасности страны, не может выполняться без четкого осознания рядовых и офицеров своего психофизического состояния, от которого, напрямую, зависит качество деятельности выполненной как в мирное время, так и в экстремальных ситуациях.

После поступления в военный вуз и на протяжении всего этапа учебно-профессиональной подготовки и несения военной службы, военнослужащие постоянно находятся в условиях изменения их физической, эмоциональной и когнитивно- поведенческой сущности. Трудности психофизической устойчивости курсантов связаны, в первую очередь, с особенностями военного учреждения, где курсант сталкивается с жесткой дисциплиной, казарменное положение, порождающее напряжение межличностных отношений с однокурсниками, большие физические и эмоциональные нагрузки. Это этап формирования и развития психофизической устойчивости в стабильных условиях военного социума.

Актуальность исследования обусловлена необходимостью развития психофизиологической устойчивости в экстремальных условиях. Применение адекватных методов и техник воздействия на развитие ПФУ в военных вузах. В условиях реформирования и профессионализации вооруженных сил РУз, требуется разработка научно обоснованных способов профессионализации поступающих на службу молодых людей. Поиск новых средств воздействия на психофизиологическую устойчивость военнослужащих, находящихся в экстремальных условиях.

В настоящее время остаются недостаточно исследованными социально психологические условия развития психофизической устойчивости среди военнослужащих в экстремальных условиях. Крепкая зависимость военнослужащих от социально психологических условий указывает на существование недоработок в этой сфере.

Формирование благоприятных условий развития психофизической устойчивости напрямую зависит от коллектива, семьи и общества где находится военнослужащий. Изучение психофизической устойчивости вбирает в себя, изучение не только социально психологических условий развития общества, где непосредственно находится воин, но также морально- нравственные нормы и ценности самой личности.

В 2022 жители Каракалпакистана, Ташкенсткой области, Сурхандарьинской области, Кашкадарьиской области перенесли кратковременную дестабилизирующую обстановку на границах нашей Родины и внутри нее. Профессиональная деятельность хорошо подготовленных военнослужащих разных родов войск, смогла стабилизировать напряженные обстановки на границах и внутри страны. Это отличный показатель уровня психофизической подготовки наших солдат.

Психофизиология наука, изучающая физиологические механизмы субъективных психических явлений, состояний и индивидуальных различий, ее основателем, как науки является русский ученый И.М Сеченов. Основу современной психологии и психофизиологии составили фундаментальные труды И. М. Сеченова: «Рефлексы головного мозга» (1863 г.), «Физиология нервной системы» (1866 г.) и «Элементы мысли» (1879 г.) Первоначально термин использовался наряду с понятием «физиологическая психология» для обозначения широкого круга исследований психики, опиравшихся на точные объективные физиологические методы.[9]

А.Р Лурия «Психофизиология», как наука о физиологических основах целостных форм психической деятельности и поведения человека изучает механизмы и закономерности деятельности мозга, обеспечивающие психические процессы и целенаправленные поведенческие акты.

В разработку и развитие системного подхода внесли вклад исследования отечественных физиологов – И.П. Павлова, А.А. Ухтомского, Н.Н. Бернштейна, П.К. Анохина. В психологии точка зрения об иерархической многоуровневой организации деятельности мозга, обеспечивающей реализацию психических процессов, была высказана Л.С. Выготским и развита в работах А.Р. Лурия. Согласно Л.С. Выготскому, психическая функция представляет собой результат динамической интеграции функционально дифференцированных и взаимосвязанных мозговых центров. А.Р. Лурия, развивая это положение, сформулировал принцип динамической локализации функций, в соответ-

ствии с которым дифференцированные и иерархически организованные межцентральные отношения, лежащие в основе психический функций, могут претерпевать значительные изменения в зависимости от состояния отдельных структур мозга и степени их участия в осуществлении целостной деятельности.[9]

Термин «Психологическая устойчивость» по толкованию Энциклопедии современной юридической психологии, является качеством психофизиологической сферы психики, обусловленной особенностями нервной системы и высшей нервной деятельности, сохраняет оптимальные параметры функционирования в экстремальных ситуациях и условиях. По определению В.Э Чудновского (1982) «Устойчивость организма и устойчивость личности- две качественно различные ступени развития». [7]

В нашей работе мы исследуем психофизиологическую устойчивость военнослужащих в экстремальных условиях. Анализируя, собранный теоретический материал мы понимаем, какие факторы и условия способствуют развитию ПФУ.

Борисов А.А в своих исследованиях указывает на особую роль, физической подготовки военнослужащих для выполнения задач поставленных руководством. Он считает, что учебно- воспитательный процесс в военных вузах является важнейшим компонентом подготовки военных специалистов. Он должен обеспечивать как высокий уровень профессиональной подготовки, так и психофизическую готовность применения полученных знаний в экстремальных условиях военной службы.[1]

Бушов Ю.В в своем труде «Психофизиологическая устойчивость человека в особых условиях деятельности: оценка и прогноз» исследует неблагоприятные факторы обитания (НФО), которые имеют прямое отношение к психофизиологическому развитию человека. Бушов Ю.В анализирует влияние производственных и климатических факторов (шум, монотония, гипоксия, гипертермия, гиподинамия) на ПФУ, что в свою очередь послужило основанием для разработки существующих санитарно- гигиенических норм, предельно допустимых уровней факторов и предельно допустимых концентраций веществ в атмосфере окружающей человека.[2]

Гилев В.П отмечает, что «сущность специальной направленности физической подготовки состоит в наиболее эффективном использовании средств, методов и форм физической подготовки с целью обеспечения на базе разносторонней физической направленности военнослужащих преимущественного развития физических, специальных, психологических качеств и прикладных навыков, наиболее важных для повышения их боеспособности» [3].

По мнению Зюрина Э.А качественно подобранная программа физической подготовки является одним из средств эффективного контроля своей психофизической устойчивости и регуляции двигательных действий в экстремальных условиях, что является особо важным аспектом в профессиональной подготовке военнослужащих. [4]

Т.Н Гуренкова, И.Н Елисеева, Т.Ю Кузнецова, В.Н Непопалов, В.Ф Сопов, А.В Родионов, исходя из практических наблюдений, указывают на то, что даже высококвалифицированный военный специалист, работая в чрезвычайной ситуации, оказавшись под воздействием огромного количества стрессогенных факторов может принимать неверные решения, несмотря на опыт работы и хорошие теоретические знания, что не редко влечет за собой плачевные последствия. Указанные обстоятельства требуют формирование умения и закрепление навыков быстро принимать правильные решения в экстремальной ситуации. Спецификой такой работы являются нестандартные условия, ненормированный режим, дефицит времени и информации для принятия решения, что требует от военнослужащего чрезвычайной мобилизации физических и психофизиологических резервов организма. [5,6]

В данной работе были исследованы факторы, влияющие на психофизиологическую устойчивость военнослужащих в экстремальных условиях. Проведенный анализ теоретического материала позволил выявить ключевые аспекты, способствующие развитию этой устойчивости.

Исследования, проведенные Борисовым А.А., подчеркивают важность физической подготовки военнослужащих для успешного выполнения поставленных задач. Учебно-воспитательный процесс в военных вузах играет значительную роль в формировании профессиональной и психофизической готовности к службе в экстремальных условиях.

Бушов Ю.В. в своих исследованиях рассматривает влияние неблагоприятных факторов обитания на психофизиологическое развитие человека. Он анализирует различные производственные

и климатические условия, которые могут оказывать негативное воздействие на психофизическое состояние и здоровье.

Гилев В.П. подчеркивает важность специализированной физической подготовки военнослужащих, направленной на развитие физических, специальных и психологических качеств, необходимых для повышения их боеспособности.

Зюрин Э.А. отмечает, что качественно подобранная программа физической подготовки является одним из основных средств контроля психофизической устойчивости и регуляции двигательных действий в экстремальных условиях, что является критически важным аспектом в подготовке военнослужащих.

Работа Гуренковой Т.Н. и ее коллег подчеркивает, что даже высококвалифицированные военные специалисты могут столкнуться с трудностями принятия решений в экстремальных ситуациях из-за стресса и недостатка информации. Это подчеркивает необходимость формирования умения принимать правильные решения в условиях дефицита времени и информации.

Таким образом, на основе представленного теоретического материала можно сделать вывод о важности комплексного подхода к подготовке военнослужащих, включающего в себя физическую подготовку, адаптацию к неблагоприятным условиям обитания, специализированную тренировку и развитие навыков принятия решений в экстремальных ситуациях. Это поможет повысить уровень психофизиологической устойчивости и эффективность деятельности военнослужащих в различных ситуациях, в том числе в условиях боевых действий и экстремальных обстоятельствах.

Список литературы

1. Борисов А.А., Грачев К.А. Основы формирования программы дополнительных занятий по физической подготовке военнослужащих инженерных войск. Актуальные проблемы физической и специальной подготовки силовых структур. - науч. рец. журнал./под. ред. д.п.н., проф.В.Л. Пашута.- СПб.: ВИФК МОРФ.- №4(17), 2012.- 34-37с.
2. Бушов Ю.В Психофизиологическая устойчивость человека в особых условиях деятельности: оценка и прогноз.- Томск: Изд-во Том.ун-та, 1992- 176с.
3. Гилев В.П. Специальная направленность физической подготовки ВДВ. – СПб.: ВИФК, 2001. – 13 с.
4. Зюрин Э.А., Жуков А.С. Оценка взаимосвязи уровня физической подготовленности с показателями профессиональной деятельности летного состава в процессе военно-профессионального обучения // Актуальные проблемы совершенствования образовательного процесса в академии. — Монино: ВВА, 2006. - Вып. 8. - С. 59-61
5. В.Н. Непопалов, В.Ф. Сопов, А.В. Родионов и др..; под ред. А.Н. Блеера Психология деятельности в экстремальных условиях: учеб. Пособие для студ. Высш. Учеб. заведений/.− М.: Издательский цент «Академия», 2008.− 256 с. ISBN 978− 5 −7695−3869−8.
6. Т.Н. Гуренкова, И.Н. Елисеева, Т.Ю. Кузнецова и др. Психология экстремальных ситуаций: учебное пособие для студ. высш. учеб. Заведений / 4 под общ ред. Ю.С. Шойгу.- М.: Смысл; издательский центр Академия, 2009.- 320 с.
7. Чудновский В.Э. Нравственная устойчивость личности. – М.: Педагогика, 1981. – 208 с. Столяренко.А. М.Устойчивость психофизиологическая Энциклопедия юридической психологии.— М.: юнити-дана. Под общей редакцией профессора .
8. http://dictionary.pirao.ru/T3_psyFiz/index_PF.htm (10/09/2022)
9. https://ru.wikipedia.org (10/09/2023)
10. Lex.uz/ru/docs/5769990 (10/009/2023)

Abduraxmonova Zuxra Erkinovna
O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy psixologiya kafedrasi dotsenti,
Psixologiya fanlari nomzodi

NIKOHNI O’RGANISHDA FENOMENOLOGIK YONDOSHUVNING O’ZIGA XOS MUAMMOLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada nikohni o‘rganishda fenomenologik yondoshuvning o‘ziga xosligi muammolari, hamda fenomenologik yondashuv nikoh munosabatlarini er-xotinning o‘ziga xos shaxsiy, individual dunyosi nuqtai nazaridan o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *oila, nikoh, fenomenologik yondoshuv, millatlararo nikoh, qadriyatlar, urf-odatlar, ijtimoiy institut, madaniy-ma’rifiy xususiyatlar.*

СВОЕОБРАЗНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ФЕНОМЕНОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА В ИЗУЧЕНИИ БРАКА

Аннотация. *В данной статье исследованы специфика и проблемы феноменологического подхода к изучению брака, а также брачных отношений с точки зрения специфического личностного и индивидуального мира супругов с использованием феноменологического подхода.*

Ключевые слова: *семья, брак, феноменологический подход, межнациональный брак, ценности, традиции, социальный институт, культурно-образовательные особенности.*

SPECIFIC PROBLEMS OF THE PHENOMENOLOGICAL APPROACH IN THE STUDY OF MARRIAGE

Annotation. *This article explores the specifics and problems of the phenomenological approach to the study of marriage, as well as marital relations from the point of view of the specific personal and individual world of spouses using the phenomenological approach.*

Key words: *family, marriage, phenomenological approach, interethnic marriage, values, traditions, social institution, cultural and educational features.*

Oila va nikoh yer yuzidagi barcha odamlar ishtirok etadigan ijtimoiy institutlardir. Har bir inson u yoki bu tarzda ularga kiritilgan yoki hech bo‘lmaganda ular bilan o‘z munosabatiga ega. Eng qadimiy insoniy ijtimoiy shakllanishlardan biri bo‘lib, zamonaviy insonlar kundalik hayotining ajralmas qismi bo‘lgan nikoh va oila insoniyat tarixi davomida mutafakkirlar, olimlar va tadqiqotchilarni qiziqtirgan. Bu qiziqish oilaning jamiyatdagi o‘rni va rolini, oilaning davlat bilan aloqasini va ularning o‘zaro ta’sirini tushunish istagi bilan bog‘liq; shuningdek, oilaning inson zotini ko‘paytirish, shaxsning eng dolzarb ehtiyojlarini qondirishdek hayotiy va global funksiyasini bajarish zarurati bilan bog‘liq.

Oila, kishilarning tabiiy-biologik, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy-madaniy birlikdir. Oila tushunchasi faqatgina maishiy munosabatlarni aks ettiruvchi mazmun jihatidan tor tushuncha emas. U ijtimoiy jamoaning mo‘jaz namunasidir.

Oilaning nazariy va empirik tadqiqotlari ko‘pincha uning tizim sifatida faoliyat ko‘rsatish samaradorligini o‘rganish bilan bog‘liq. O‘rganilayotgan zamonaviy muammolar qatorida, birinchi navbatda, oila va nikoh faoliyatining ijtimoiy ehtiyojlarga mos kelmasligi (tug‘ilishning pasayishi, nikoh munosabatlarining beqarorligi, qonuniy nikoh nufuzining pasayishi, nikohning kamayishi), oilaning tarbiyaviy salohiyati va boshqalar); jinsiy hayotni, jinslararo va avlodlararo munosabatlarni o‘zgartirish, nikoh va oilaviy munosabatlarda gender stereotiplarini qayta ko‘rib chiqish; oilani ijtimoiy institut sifatida o‘zgartirish tendensiyalari, shu jumladan oilaning funksional ko‘rinishining o‘zgaruvchanligi; oilaviy munosabatlardagi o‘zgarishlar; yosh oilalarning ijtimoiy salohiyati, unga ta’sir etuvchi ekzogam va endogam omillar va boshqalar bilan bog‘liq.

Bugungi kunda oila va nikoh haqidagi ijtimoiy-psixologik fikrlash tarixiga, uning muhim va mazmunli mazmuniga, evristik salohiyatiga murojaat qilish dolzarb ko‘rinadi, chunki bizning o‘tmishdoshlarimiz ijodida ko‘plab zamonaviy uslubiy va empirik muammolarni hal qilish, tushunish uchun maslahatlarni topish mumkin. Shundan kelib chiqib, tarixiy o‘tmish, shaxslar, oilani o‘rganishga ilmiy yondashuvlarni tizimlashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Zamonaviy jamiyatda millatlararo nikohlar soni doimiy ravishda o‘sib bormoqda. Bu tendensiya, ayniqsa, so‘nggi yillarda xorijliklar bilan nikohlar soni bir necha marta ko‘paygan mamlakatlarda sezilarli ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi

jamiyatda millatlararo nikoh ko‘pincha o‘zaro simpatiya va ishqiy munosabatlarga emas, balki chet ellik (boshqa millat vakili) bilan turmush qurish orqali olinishi mumkin bo‘lgan ma’lum bir foyda asosida amalga oshiriladi [2].

Nikoh va oilani o‘rganishning ko‘plab ilmiy maktablari va yo‘nalishlari, fikrlar plyuralizmi, oilani o‘rganish nazariyasi va metodologiyasini tushunishning xilma-xilligi mavjud. Gnoseologik usullar oila va nikohni obyekt sifatida o‘rganish darajalari, ularning vakillarining dunyoqarashi, olimlar va mutafakkirlarning g‘oyaviy pozitsiyalari bilan farqlanadi [9].

Ijtimoiy fanlarda demografik jarayonlarni o‘rganish uchun metodologik yondashuvlar va tushunchalar dolzarb bo‘lib, ular nafaqat jarayonlarni tavsiflash, tushuntirish, balki sharhlash ham mumkin edi. So‘nggi paytlarda tadqiqotning fenomenologik usulidan foydalanishga qiziqish ortib bormoqda. Ijtimoiy fanlar doirasida A.Antonov, E.Gusserl, A.Shuts, P.Berger, T.Lugman va boshqalarning asarlarida mazkur mavzuga oid bir qancha qarashlar rivojlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Millatlararo nikohlarni o‘rganishda fenomenologik yondashuvdan foydalanishda asosiy e’tibor munosabatlar, qadriyatlar, xulq-atvor, turmush, urf-odatlar, kundalik faoliyat, oila qiyofasi, ota-ona qiyofasi, bolalarga munosabatni o‘rganishga qaratiladi [4].

Ijtimoiy takror ishlab chiqarish yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega. Zamonaviy o‘zbek jamiyatida uning demografik tarkibiy qismining ortib borayotgan roli ayniqsa xarakterlidir. Dunyo aholisining doimiy ravishda kamayishi va uning qarishi kuzatilmoqda. Ko‘payishning kamayishi butun jamiyatning yaxlitligi va barqarorligini ta’minlash darajasiga, uning bevosita yashashiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri proporsionaldir. Nikoh instituti aholining ijtimoiy takror ishlab chiqarishining asosiy ijtimoiy regulyatori hisoblanadi [4].

Ijtimoiy-psixologik jihatdan qaraganda nikohni har biri o‘z hayotiy hikoyasiga ega bo‘lgan ikki shaxs - erkak va ayolning subyektiv birligi sifatida o‘rganishda undan oqilona foydalanish imkonini beradi. Bundan tashqari, ijtimoiy-psixologik tahlil darajasida odamlarning kundalik hayotdagi bevosita ijtimoiy o‘zaro ta’siri ko‘rib chiqiladi, bunda fenomenologik konsepsiya ilmiy metodologik yo‘nalish sifatida jamlangan.

Tadqiqotlarda fenomenologik yondashuvni qo‘llaydilar, chunki nikoh munosabatlari sohasi, bir tomondan, oilaning kichik guruh sifatida asosiy qurilishi uchun zarur bo‘lgan oilaviy xatti-harakatlarning turlaridan biri sifatida talqin etilsa, ikkinchi tarafdan, esa, oila kichik mikroguruh bo‘lishi bilan birga jamiyatga “mahsulot” yetkazib beruvchi mexanizmning tarkibi bo‘lib xizmat qiladi. Fenomenologik yondashuvga muvofiq, umumiy nazariy ko‘rsatmalar muammoli sohaning instrumental tuzilishining tabiatini oldindan belgilaydi va agar insoniy aloqaning ichki ma’nosi hisobga olinmasa, uni sezilarli darajada toraytirishi mumkin. Bunga misol qilib, gender munosabatlarining turli talqinlarini keltirish mumkin.

Oilaning makro va mikro obyektga bo‘linishi nisbiydir va shunga qaramay, mezon umumlashtirish va tahlil qilish darajalari emas, balki tadqiqotning makro va mikro-obyektlari o‘rtasidagi farqga aylanganda zarurdir. Oila makro-obyekt sifatida jamiyatning boshqa institutlari bilan o‘zaro munosabatlardagi ijtimoiy jarayonlar konteksida va tarixiy vaqt miqyosida o‘rganiladigan ijtimoiy institutdir. Mikro-obyekt sifatida oila - bu oilaviy “iqlim” ning shaxsiy xususiyatini hisobga olgan holda o‘z oilaviy tarjimai holi yoki tarixiga ega bo‘lgan kichik guruh sifatida talqin etiladi.

Ijtimoiy-psixologiyada oilalarning o‘zaro ta’sirini, birinchidan, ularning instrumental, oilaviy xatti-harakatlarning muayyan natijalariga erishish, oilaviy hayot siklining bosqichlari nuqtai nazaridan o‘rganadi: ikkinchidan, “subyektiv” ma’nolarni tushunish, idrok etish psixologiyasi nuqtai nazaridan, kundalik oilaviy hayot maromini baholaydi. Ijtimoiy-psixologik yondashuvning alohida mavzusi - kundalik talqinlarning oilaviy vaziyat va xatti-harakatlarning ilmiy tushuntirishlariga, psixologik nazariyalarga kirib borishi bilan belgilanadi. Bu tadqiqotchilar tomonidan boshlang‘ich nuqtalarni aniq shakllantirish talabiga qat’iy rioya qilishga e’tibor qaratadigan oilaning fenomenologik psixologiyasi sohasi hisoblanadi. Oilani ijtimoiy-psixologik tadqiq etish metodi va tartiblari miqdoriy va sifat usullarining qarama-qarshiligiga emas, balki birlikka asoslangan oila psixologiyasining muhim qismidir.

Shu munosabat bilan A.I.Antonov “Oila sifatida hayotning bunday shaxsiy sohasini o‘rganishda doimiy ravishda oilani, oilaviy hodisalarni o‘lchash vositalari, ishonchliligi va asosliligiga alohida e’tibor qaratish lozim; lekin gap nafaqat psixologlarning shaxsiy borlig‘iga bo‘lgan qiziqishi bilan to‘qnash kelgan odamlarning darhol ich-ichiga o‘girilish istagi bilan yondashmaydilar; albatta, tadqiqotchi har kimning yashirin olamiga kirib borishning murakkab vositalarini o‘ylab topishi kerak”[3].

Bugungi zamondagi turli tahdidlar sharoitida oilalardagi qiyinchiliklar ko‘rsatkichlari aniq masshtabini aniqlash, ularni har bir hudud kesimida, hududning o‘zigagina xos geografik, etnik-ijtimoiy, tarixiy, madaniy-ma’rifiy xususiyatlaridan kelib chiqib, har taraflama o‘rganish talab qilinadi. Oila mustahkamligiga erishish, zamonaviy namunali oila modelini shakllantirish uchun, birinchi navbatda,

barcha sohadagi ilmiy ishlanmalar holatini inventarizatsiyadan o‘tkazish hamda istiqbolda amalga oshirish lozim bo‘lgan fundamental amaliy va innovatsion ilmiy ishlar rejasini ishlab chiqish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqa tomondan, oilaviy xatti-harakatlar oila psixologiyasining yo‘nalishlaridan biridir. Alohida ta’kidlash kerakki, chet ellik sherik bilan millatlararo nikohlar nisbatan yashirin va reklama qilinmagan xususiyatga ega, bu esa fenomenologik asoslardan ularni tushunish va chuqur tadqiq qilish uchun eng muhim va yagona mumkin bo‘lgan asos sifatida foydalanishni kuchaytiradi.

XXI asr boshlariga kelib. millatlararo munosabatlar “yengib bo‘lmaydigan irqiy” tafovutlar tekisligidan millatlararo, madaniyatlararo tekislikka o‘tdi. Millatlararo nikohlar muammosi nafaqat muhojirlar oqimini qabul qilayotgan mamlakatlarda, balki kelib chiqish mamlakatlarida, xususan, islom dini asosiy e’tiqod qiluvchi davlatlarda ham dolzarb bo‘lib qoldi.

Etnograflarning turli materiallari vaqt o‘tishi bilan jamiyatning moddiy hayoti va uning madaniyati o‘rtasidagi bog‘liqlik aniq emasligini, muayyan jamiyatlar va ularning tuzilmalari, xalqlarning o‘zaro ta’siri va o‘zaro ta’siri faktlarini hisobga olmaslik hayotning bir xil moddiy asoslari muayyan sharoitlarga qarab turli xil mafkuraviy ustki tuzilmalarni keltirib chiqarishi mumkinligini va buning iloji yo‘qligini ko‘rsatdi. Biz madaniy tarqalish, o‘zaro kirish haqida gapiramiz. Madaniy tarqalish faktlari avval ham e’tirof etilgan. Masalan, yetakchi etnolog-evolyusionist ingliz Edvard Teylor hatto madaniy xususiyatlarning tarqalish qonuniyatlari haqida bir qator maqolalar yozgan.

Fenomenologik yondashuv nikoh munosabatlarini er-xotinning o‘ziga xos shaxsiy, individual dunyosi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqadi. Bu ularni o‘rganishga eng oqilona imkon beradi, chunki nikoh sheriklarining shaxsiy dunyosining mikro muhiti, kundalik, subektiv nikoh haqiqatining nozik sohasidir. Nikohni o‘rganishga fenomenologik yondashuvning ilmiy xususiyati-bu aniq shaxslarning (er-xotinlarning) nikoh munosabatlarining haqiqiy, hayotiy tajribasini o‘rganish orqali nikoh harakatlari, xulq-atvorlarini ilmiy tushuntirishlariga kundalik talqinlarning kirib borishidir, bu esa keyinchalik tadqiqot sohasini doimiy ravishda markazlashtirish va barcha tajribalarni umumlashtirilgan ko‘rinishga modellashtirish imkonini beradi.

A.I.Antonov va V.M.Medkovlarning ta’kidlashicha, evolutsionizm ilmiy yondashuv sifatida bir xil emas. Ikkita oqim yoki ikkita tendensiyani ajratib ko‘rsatish mumkin, ularni shartli ravishda optimistik va pessimistik deb atash mumkin. “Optimistik oqim” insoniyat jamiyatining o‘tmishdan hozirgi kungacha kelajakka bo‘lgan taraqqiyotini bir yo‘nalishdagi ijobiy o‘zgarishlar sifatida talqin qilish bilan bog‘liq, ya’ni “progressiv rivojlanish”. Bunda oilaga evolutsion yondashishning nazariy asosi oila jamiyatning bir bo‘lagi bo‘lgan holda ham progressiv yo‘nalishda o‘zgarib borishiga asoslanadi. Shu bilan birga, oila shakllari “pastki shakllardan yuqori shakllarga” o‘zgaradi. “Oiladagi har qanday innovatsiyalarda “progressive” yo‘nalishni, tarixiy taqdirni yoki har qanday yangi vaziyatga hayratlanarli moslashishni ko‘rish tendensiyasini oilaviy o‘zgarmaslik, oilaviy turmush tarzining barqarorligi va ijtimoiy institut sifatida oila tushunchasi deb atash mumkin” [3]. Shunday qilib, Antonov va Medkov ta’kidlashicha, ma’lum bir turdagi oilaning o‘zgarmasligi g‘oyasi (bu patriarxal oila nazariyasining mohiyatini tashkil etadi) umuman oilaga o‘tadi va zarurat tug‘iladi, odamlarning turmush qurishi va farzand ko‘rishi abadiy va mustahkam hisoblanadi.

S.V.Korneevaning ta’kidlashicha, millatlararo nikohlarni o‘rganishga fenomenologik yondashuvni qo‘llash birinchidan, nikoh - bu “kundalik hayotda umumiy asosga” ega bo‘lgan turmush o‘rtoqlarning ijtimoiy o‘zaro munosabatlari namoyon bo‘ladigan haqiqat - bu shaxslararo muloqot va birgalikda yashashning muntazamligi bilan belgilanadi. Ikkinchidan, nikoh - bu “yuzma-yuz” vaziyat, “sherikning bevosita e’tirozi va uning harakatlari” sub’ektivligida ifodalangan va nikoh munosabatlarining qurilishi va hayotiy faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan haqiqatdir. Uchinchidan, nikoh - bu uyda hayot orqali o‘zida mujassamlangan haqiqat - er-xotinlarning tug‘ilgan, birinchi navbatda qurilgan, qo‘shma dunyosi hisoblanadi. To‘rtinchidan, nikoh - bu turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi shaxslararo muloqot jarayoni nikoh munosabatlarini o‘rnatish va sherikning subektivligini tushunish va unga kirish imkonini beradigan haqiqatdir [5].

A.Shuts ta’kidlaganidek, subyektiv nuqtai nazarni himoya qilish ijtimoiy voqelik olami o‘rnini xayoliy mavjud bo‘lmagan dunyo bilan almashtirmasligining yagona, ammo yetarli kafolatidir. Nikoh - bu yuzma-yuz voqelik bo‘lib, unda turmush o‘rtoqlardan biri ikkinchisining oldida “ikkalasi ham boshdan kechirgan tirik sovg‘a”da paydo bo‘ladi, sherikning to‘g‘ridan-to‘g‘ri berilganligi, uning harakatlari, xususiyatlari va boshqalar mavjud bo'lganda nikoh munosabatlarida shaxsning xulq-atvori subyektiv reallik tomon harakatlanadi.

P.Berger va T.Lukmanlarning fikricha, “yuzma-yuz vaziyat boshqa shaxsning subyektivligiga kirish uchun optimal holat bo‘lib ko‘rinadi” [7]. Bu nikoh munosabatlarini qurish va ularning hayotda ishlashi uchun juda muhimdir.

Aytish mumkinki, yuzma-yuz vaziyatning bevosita va muhim xususiyatlari vaqtinchalik va fazoviy mezonlar bo‘lib, ular “Men o‘z hamrohimni bevosita boshdan kechiraman, agar u men bilan vaqt va makonning umumiy sektorini baham ko‘rsa” qabilidagi tamoyil asosida kechadi. Bu bizning ongimiz oqimlarining bir vaqtdaligini anglatadi: mening hamrohim va men birga o‘samiz (yashaymiz, qariymiz), mening hamrohim menga boshqa birov sifatida emas, balki o‘zi kabi ko‘rinadi. Agar sheriklarning har biri ongli ravishda yaqin aloqada bo‘lishga va bir-birini idrok etishga qaratilgan bo‘lsa intim munosabatlar davomiyligi uzoqroq kechadi.

A.Shuts bunday munosabatlarni «biz-munosabat» deb ataydi, ular «men boshqaning ongli hayotida faqat konkret biz - yuzma-yuz munosabatda ishtirok etganimdagina ishtirok etaman» bilan tavsiflanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, sheriklarning nikoh munosabatlari kundalik hayotning umumiy asosiga ega - bu intim, mustahkam rishtalar bilan muhrlangan nikohdir.

Millatlararo nikohlar qadriyatlarning ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy makonidagi o‘zgarishlarni aks ettiradi. Bunday davlat ko‘rsatkichlari orasida iqtisodiy omillar (xorijiy investitsiyalar oqimi, mamlakatda xalqaro biznes va moliyaviy tashkilotlarning ochilishi) ajralib turadi; siyosiy omillar (hukmron siyosiy partiyalarning Yevropa integratsiya jarayonlariga yo‘naltirilganligi); madaniy omillar (madaniy almashinuv va aloqalarni faollashtirish); axborot omillari (axborot va kompyuter texnologiyalarining tez tarqalishi, elektron pochta, mobil aloqa); ijtimoiy omillar (chet elda ta’lim olishning yangi imkoniyatlari, chet elda xalqaro bandlik dasturlarini amalga oshirish), shuningdek, xalqaro turizmning mavjudligi kabilar turadi. Natijada, millatlararo nikohga munosabat, bir tomondan, jamiyatda aniq yoki bilvosita hukmron bo‘lgan va boshqa tomondan, xulq-atvorga ta’sir qiluvchi ijtimoiy munosabatlar, qadriyatlar va ayrim stereotiplarni idrok etishning aksi bo‘lib ko‘rinsa, turmush o‘rtog‘ini tanlash va chet ellik sherik bilan turmush qurish niyatlari ham millatlararo nikohlarga ta’sir etuvchi omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, millatlararo nikohlarni o‘rganishga fenomenologik yondashuv shaxsning ijtimoiy va biologik tamoyillarini o‘rganishga qaratilgan. Oila, nikoh turli darajalarda o‘rganiladigan noyob hodisalardir. Bir tomondan, nikoh boshqa tuzilish, hayotning o‘ziga xos xususiyatlari, oilaviy tajriba va qadriyatlarning uzatilishi bilan tavsiflanadi, ikkinchi tomondan, nikoh va oila ijtimoiy institutdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduraxmanova Z.E. Peculiarities of relations in families of inter-ethnic marriages. Science and innovation in the education system. Internation scientific-online conference. Italy. 07.12 2023.

2.Амбалова С.А. Влияние семи на сотсиализасию личности ребенка //Вектор науки Толяттинского государственного университета. Серия: Педагогика, психология. 2015.№ 3 (22). С. 13-15.

3.Антонов А.И., Медков В.М. Сотсиология семи. М.; Изд-во МГУ: Изд-во Международного университета бизнеса и управления («Братя Карич»), 1996. - 304 с.34.Бекоева М.И., Хуриева М.Ю. Институт родительства как психолого-педагогический феномен: материнское и отсовское воспитание //Вестник СевероОсетинского государственного университета имени Коста Левановича Хетагурова. 2014. № 3. С. 127-132.

4.Дружинин В.Н. Психология семи /В.Н. Дружинин. - СПб: Питер, 2012. - 176 с.

5.Михайлова А.В., Попова Л.Н. Феноменологический подход к изучению межнасиоиалных браков // Международный журнал прикладных и фундаменталных исследований. – 2016. – № 10-3. – С. 473-477;УРЛ: ҳттпс://апплиед-ресеарч.ру/ру/артисле/виеw?ид=10372 (дата обращения: 12.01.2022).

6.Очерки феноменологической философии / Под ред. Я. А. Слинина. СПб., 1997. С. 60.

6.Сложност систематизасии и классификасий приемов научного познания семи требует отделного глубокого исследования. Некоторыми сотсиологами уже предпринималис такие попытки (А.И.Антоновым, А.А.Клесиным, А.Г.Харчевым и др.)

7.Етничност и религия в современных конфликтах / отв. ред. В.А. Тишков, В.А. Шнирелман. М.: Наука, 2012.

UDK: 159. 9.072 = 316.6

Arapbayeva Damegul Kurbanovna
Xalqaro Nordik universiteti dotsenti,
psixologiya fanlari nomzodi

NOTO‘LIQ OILA FARZANDLARINI TARBIYALASH MUAMMOLARI

Annotatsiya. *Maqolada noto‘liq oilalar muammolari orasida uning farzandlarini tarbiyalash va ijtimoiylashtirish instituti sifatida ishlashi masalasi yoritiladi.*

Noto‘liq oila deyilganda, nafaqat ota-onasi ajrashgan, balki boquvchisini yo‘qotgan oila, yolg‘iz onaning oilasi, bolalar uyidan farzand olishga qaror qilgan ayollar ham tushunilishi ta’kidlanadi.

Noto‘liq oilalarning farzandlarida: xulq-atvordagi, nevrotik buzilishlar va noqonuniylikka moyillik, ota-onalarga salbiy munosabat, tengdoshlardan farqli o‘laroq salbiy tuyg‘uning mavjudligi, o‘z-o‘zini hurmat qilishning beqarorligi yoki pastligi, onaga nisbatan talabchanlik va uning xatti-harakatlarini o‘zgartirish istagi kabi xususiyatlar namoyon bo‘lishi xususida mulohazalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: *oila, ota-ona, noto‘liq oila, farzand, tarbiya, psixologik xususiyat, iqtisodiy omil.*

ПРОБЛЕМЫ ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ ИЗ НЕПОЛНОЙ СЕМЬИ

Аннотация. *Среди проблем неполных семей в статье освещается вопрос о ее функционировании как института воспитания и социализации своих детей..*

Подчеркивается, что под неполной семьей понимается не только семья, родители которой разведены, но и семья, потерявшая кормильца, семья матери-одиночки, женщины, решившие усыновить ребенка из детского дома.

В статье приводятся мнения относительно проявления у детей неполных семей таких черт, как: поведенческие, невротические расстройства и склонность к распущенности, негативное отношение к родителям, наличие негативного чувства отличия от сверстников, неустойчивость или низкая самооценка, требовательность к матери и желание изменить ее поведение.

Ключевые слова: *семья, воспитание, неполная семья, ребенок, воспитание, психологическая характеристика, экономический фактор.*

PROBLEMS OF EDUCATION OF CHILDREN OF NUCLEAR FAMILIES

Abstract. *Among the problems of a nuclear family, the article highlights the issue of its functioning as an institution for the education and socialization of children.*

It is emphasized that the term “nuclear family” means not only a family whose parents are divorced, but also a family that has lost its breadwinner, a family of a single mother, and women who decide to adopt a child from an orphanage.

In children from nuclear families comments are given regarding the manifestation of such characteristics as demandingness towards the mother and the desire to change her behavior, neurotic disorders in behavior and a propensity to illegality, a negative attitude towards parents, the presence of a negative feeling in contrast to peers, instability or low self-esteem.

Key words: *family, parents, nuclear family, child, upbringing, psychological characteristics, economic factor.*

Kirish. Noto‘liq oila – ota-onalardan biri yo‘q bo‘lgan oila. Yana bir qo‘shimcha oila turi bo‘lib, u funksional jihatdan noto‘liq oila deb ataladi, bunda ota-onalar o‘zlarining professional bandliklari yoki uzoq muddatda oilada bo‘la olmasliklari sababli, oila a’zolariga nihoyatda kam vaqt ajratadilar [6].

Bu oila turida ota-onalarning ajrashib ketishidan tashqari, biror obyektiv va subyektiv sabablar natijasida: bemorlik, favkulodda hodisalar, o‘lim, mehnat migrasiyasi tufayli er yoki xotinning o‘zga yurtlarda qolib ketish holatlari ham uchraydi.

Xorij psixologik adabiyotlarda, noto‘liq oila deyilganda, nafaqat ota-onasi ajrashgan, balki boquvchisini yo‘qotgan oila, yolg‘iz onaning oilasi, bolalar uyidan farzand olishga qaror qilgan ayollar ham tushuniladi. Har bir vaziyatning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari va yolg‘iz ona (kamroq yolg‘iz ota) duch keladigan qiyinchiliklari mavjud [5].

So‘nggi paytlarda, afsuski, ijtimoiy kafolatlar ro‘yxati sezilarli darajada kamaydi va ijtimoiy himoya darajasi pasaydi [5]. Ayol onaning o‘zi bolani otasiz tarbiyalayotgan oilasining farovonligi uchun javobgar bo‘lishi kerak. Jismoniy yoki neyropsixiyatrik rivojlanishida anormalliklari bo‘lgan bolalar, nogiron bolalar o‘sadigan noto‘liq oilalar alohida ehtiyoj sezadilar. Agar nogiron bola doimiy nazorat va g‘amxo‘rlikka muhtoj bo‘lsa, unda ayol moddiy farovonlikni yaxshilash uchun hech qanday imkoniyatga ega emas, ular bolaning nogironlik nafaqasi va bolalar nafaqasidan foydalangan holda yashashlari kerak [5].

Tashqi yordam bo‘lmasa, parvarish qilish zarurati, maishiy xizmatlar doirasini yo‘q qilinishi ayolning professional sohada o‘zini namoyon qilishiga imkon bermaydi: ularni tanlash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega xulq-atvorni shakllantirish moddiy javobgarlikka egadir [5]. Ko‘pgina ayollar bolalarni tarbiyalash va ularga g‘amxo‘rlik qilishni o‘zlarining asosiy maqsadi deb bilishadi va kasbiy muvaffaqiyat va martabani ikkinchi o‘ringa qo‘yishadi. Shu bilan birga, moddiy farovonlik va ko‘pincha ikkita ish bilan band bo‘lish yolg‘iz onani bolani tarbiyalash va parvarish qilishdan to‘xtatadi va u o‘zini o‘zi qoldiradi.

Noto‘liq oilalar muammolari orasida uning bolalarni tarbiyalash va ijtimoiylashtirish instituti sifatida ishlashi muammosi ayniqsa dolzarbdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tadqiqotchi G.S.Yunusovaning izlanishlarida, to‘liq va noto‘liq oilalarda ona tarbiyasi ta’sirida bo‘lgan o‘smirlik va ilk o‘spirinlik yoshidagi o‘g‘il bolalar va qizlarning hayotiy qadriyatlarga munosabatlari, ijtimoiy mo‘ljallari, ijtimoiy tasavvurlari hamda istiqbol to‘g‘risidagi obrazlarining xususiyatlari tadqiq etiladi [8]. Tadqiqotchi fikricha, to‘liq va noto‘liq oilalarda tarbiyalanayotgan o‘g‘il bolalar va qizlarning istiqbol to‘g‘risidagi tasavvurlaridagi obrazi gender o‘ziga xoslikka ega. Chunki o‘g‘il bolalarnikiga nisbatan qizlardagi istiqbolga yo‘nalgan obrazlar ijobiyroq bo‘lib, bu holat ularning onasi bilan doimiy muloqotda bo‘lishi, uning qadriyatlarini o‘zlashtirish imkoniyatining mavjudligidan kelib chiqadi. Bu ijtimoiy-psixologik xususiyat ayniqsa, onalari o‘qimishli, ijtimoiy jihatdan faol, kommunikativ ta’sir doirasi sezilarli oilalarda tarbiyalanayotgan qizlarda yaqqol ifodalangan va ko‘rsatkichlar qiyoslanganda ijobiy korrelyasiya kuzatilganligi aniqlangan [8].

Ota yoki onadan biri mavjud bo‘lgan oilalarning paydo bo‘lishiga turli sabablar borligi quyidagicha ko‘rsatiladi: ajrim tufayli bittasi qoladi, nikohsiz paydo bo‘lgan oila sharoiti, bunda onaning yoshi katta bo‘lishi ham (yoshi o‘tib borayotganligidan nikohsiz bo‘lsa ham bitta farzand tug‘ib, uni yolg‘iz o‘zi katta qiladi), juda yosh bo‘lishi (tasodifan yoshlik qilib qiz maktab yoshidayoq ona bo‘lib qolgan holatlar) ham mumkin [3].

Tadqiqotlarda odatda turli sabablarga ko‘ra yolg‘izlanib qolgan noto‘liq oila a’zolari jamiyatdan ancha ayri yashashga, yolg‘izlikka mahkum bo‘ladi, bunday oilalar moliyaviy inqirozlarga ham uchrashi ta’kidlanadi [3].

Noto‘liq oilada bolalarni tarbiyalash xarajatlari, birinchi navbatda, salbiy iqtisodiy omillarning ta‘siri bilan bog‘liq deb hisoblaydiganlar to‘g‘ri. Shunday qilib, bitta ota-onasi bo‘lgan oilaning o‘ziga xos turmush tarzi ta’lim jarayonida sezilarli darajada aks etadi. Oilada bitta ota-onaning yo‘qligi bolalarni noto‘g‘ri, muvaffaqiyatsiz tarbiyalashga olib kelishi mumkin [5].

Noto‘liq oilada onalarda o‘g‘il bolalar oiladagi erkak xatti-harakatlarining namunasini ko‘rmaydilar, bu esa (ularning ijtimoiylashuvi jarayonida) erkak, er, otaning rol funktsiyalari to‘g‘risida yetarli bo‘lmagan g‘oyani shakllantirishga yordam beradi. Oilada turmush qurmagan onaning xatti-harakati asosan ikkinchi ota-onaning yo‘qligi bilan bog‘liq [5]. Bu, shuningdek, onaning noto‘liq oilalarida tarbiyalangan qizlarning ijtimoiylashuviga ta’sir qiladi, ularning ayol, rafiqa, onaning rol funktsiyalari haqidagi g‘oyalarini buzadi. Ota yoki onadan biri mavjud bo‘lgan oilalarda tarbiyalangan bolalar oiladagi erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlarning misolidan mahrum bo‘lib, bu ularning umuman ijtimoiylashuviga va xususan kelajakdagi oilaviy hayotga tayyorligiga salbiy ta‘sir qiladi [5]. Ilm-fan bolalarni ota-onalari bilan identifikatsiya qilish ko‘rsatkichini oilaviy tarbiya samaradorligining asosiy mezonlaridan biri sifatida baholaydi. Shu bilan birga, bola ota-onasining axloqiy va mafkuraviy me’yorlarini qabul qilishni ifodalaydi. Noto‘liq oilada o‘quv jarayonining ushbu tarkibiy qismini amalga oshirish bitta ota-onaning yo‘qligi sababli deformatsiyalanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ota-onalarning noto‘liq oilalarida yuqorida sanab o‘tilgan muammolarga onaning mehrining yo‘qligi qo‘shiladi, ularsiz bolalarni tarbiyalash ham to‘liq bo‘lmaydi. Ota-onalardan biri yo‘qligi sababli, ikkinchisi oilaning barcha moddiy va maishiy muammolarini hal qilishni o‘z zimmasiga olishi kerak. Shu bilan birga, ta’lim ta’sirining yetishmasligini to‘ldirish kerak. Ushbu vazifalarni birlashtirish qiyin bo‘lishi mumkin-ko‘pchilik noto‘liq oilalar moddiy va maishiy qiyinchiliklarga uchraydi va pedagogik muammolarga duch kelishadi. Bu yerda psixologik iqlim asosan ota-onalardan birining

yo‘qligi natijasida yuzaga kelgan og‘riqli tajribalar bilan belgilanadi [5]. Noto‘liq oilalarning aksariyati otasining yo‘qligi sababli paydo bo‘ladi. Ona kamdan-kam hollarda bezovtalikni o‘z ichiga oladi va yashiradi, uning umidsizligi va noroziligi ongsiz ravishda bolaga prognoz qilinadi. Vaziyat onaning aybsiz qurbon-bola rolini ta’kidlashi mumkin, chunki oilaning tarbiyaviy muhiti buzilgan.

Albatta, har doim ham emas, lekin ko‘pincha noto‘liq oilalarning farzandlarida quyidagi xususiyatlarni ajratish mumkin:

– akademik ko‘rsatkichlar yomonlashishi;
– xulq-atvordagi, nevrotik buzilishlar va noqonuniylikka moyillik;
– infantilizmning namoyon bo‘lishi;
– ota-onalarga salbiy munosabat;
– jinsiy rol xatti-harakatlarining buzilishi;
– tengdoshlardan farqli o‘laroq salbiy tuyg‘uning mavjudligi;
– o‘z-o‘zini hurmat qilishning beqarorligi yoki pastligi, uni oshirishga bo‘lgan ehtiyoj;
– onaga nisbatan talabchanlik va uning xatti-harakatlarini o‘zgartirish istagi;
– “Muhim kattalar”ni faol izlash [5].

Noto‘liq oilada nikoh munosabatlarining namunasi yo‘q – er va xotin munosabatlariga xos bo‘lgan his-tuyg‘ular, munosabatlar madaniyatini shakllantirishning ma’lum bir imkoniyatidir. Tadqiqotlarda keltirilishicha, otasiz tarbiyalangan kelajakdagi erlar ko‘pincha ayol xatti-harakatlarini o‘zlashtiradilar, ular erkaklarning xatti-harakatlarini tajovuzkor, keskin, qattiq deb noto‘g‘ri tasavvur qilishlari mumkin [5]. Va otasiz o‘sgan kelajakdagi ayollar, aks holda kelajakdagi turmush o‘rtog‘ining ideali haqida g‘oyalarni shakllantiradilar – oilaviy hayotda ular uchun er va o‘g‘illarni tushunish ancha qiyin [5]. Shuning uchun bunday oilalarda nizolar, ajrashishlar uchun ko‘proq sabablar hisobga olinadi.

Tahlil va natijalar. B.R.Mandel tadqiqotlarida, noto‘liq oiladagi tarbiya imkoniyatlari cheklangan ya’ni bolalarni nazorat qilish qiyinlashadi, otaning yo‘qligi bolalarni oilaviy munosabatlarning turli xil variantlari bilan tanishish imkoniyatidan mahrum qiladi va aqliy rivojlanishning bir tomonlama xususiyatiga olib keladi [5]. Va bu, shuningdek, kelajakda aks ettirilishi mumkin bo‘lgan kattalarning jinsiy xulq-atvorning yo‘qligi bilan bog‘liqdir. Onaning “Himoyalangan” tarbiyasini olgan bola ko‘pincha zarur erkak xususiyatlaridan mahrum bo‘ladi, u xarakterning qat’iyligi, intizomi, mustaqilligi va qat’iyatliligini rivojlantirmaydi.

Qizlarga erkak obrazini shakllantirishda otasi bilan muloqot qilish yordam beradi, agar oilada ota bo‘lmasa, unda bu obraz buzilgan-zaif yoki aksincha, idealizatsiya qilingan bo‘lib chiqadi, bu keyinchalik erkak bilan shaxsiy munosabatlarda soddalashtirishga yoki yengib bo‘lmaydigan qiyinchiliklarga olib keladi. Ammo bularning barchasi noto‘liq oila, albatta, tarbiyaviy jihatdan nosog‘lom degani emas – shunchaki biz ko‘rsatgan muammolar noto‘liq oilada to‘liq oilaga qaraganda ko‘proq paydo bo‘lishi mumkin, garchi bundan kelib chiqmasa ham, ular albatta paydo bo‘ladi – ba’zi hollarda oilaning psixologik muhiti juda yaxshi va sog‘lom shaxsni shakllantirishda qiyinchiliklar tug‘dirmaydi [5].

Injiq bolani yolg‘iz o‘zi tarbiyalashga majbur bo‘lgan onalarda odatda depressiya holati kuzatiladi. Ko‘pincha bunday ona o‘zini omadsiz, turmush vaziyatlarining qurboniday his qiladi, ko‘pincha xafa bo‘lib yuradi va ich-ichidan o‘zini bolalari oldida gunohkor his etadi, istiqbolda uni va farzandlarini nima kutayotganligini bilmay tashvishlanishi kuzatilishi tadqiqotlarda keltiriladi [3].

Xulosa va takliflar. Yosh bola uchun atrofdagi butun jamiyat oiladir. Unda bolaning “Men”i o‘zgaradi va atrofdagi odamlar soni katta ahamiyatga ega emas. O‘zaro munosabatlarning sifati va intensivligi ancha muhimdir. U bitta onasi bilan yashashi va ular bir-biriga nisbatan katta hurmat bilan munosabatda bo‘lishlarini yaxshi tushunishi mumkin. Bola onaning orzularida u kuchli va yaxshi odam ekanligini, u bilan birga ekanligiga ishonishini, undan ko‘p narsa kutishini yaxshi biladi – va bu holat har doim ham to‘liq oilalarda ham bo‘lavermaydi.

Shunday qilib, noto‘liq oila, garchi bir qator ob’yektiv qiyinchiliklarga duch kelsa ham, bolalarni to‘liq tarbiyalash uchun yetarli imkoniyatlarga ega. Ota-ona, noto‘liq oilaning boshlig‘i bo‘lgan holatlar tufayli, vaziyatning psixologik xususiyatlarini to‘liq anglashi va ularning salbiy oqibatlarga olib kelishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Tajriba ko‘plab farovon noto‘liq oilalarda bunga erishish mumkinligini tasdiqlaydi [5].

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Abduraxmanova Z.E. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Universitet”, 2023. – 186 b.

2.Arapbaeva D.K. The Role of Individual-Typological Characteristics In The Process of Family Adaptation of Young Brides. SPAST Reports, Vol. 1 No. 1 (2024): PAMIR One Preprints.
Retrieved from https://spast.org/ojspath/article/view/4632

3.Karimova V.M., G‘ayibova N.A. Oila psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “ILM-ZIYO-ZAKOVAT”, 2022. – 232 b.

4.Левин К. Супружеские конфликты // Психология конфликта: Хрестоматия /Сост. и общ. ред. Н.В. Гришиной. - СПб.: Питер, 2001. - С. 118-132.

5.Мандель Б.Р.Психология семьи [Электронный ресурс]: учеб. пособие / Б.Р. Мандель. – М. : ФЛИНТА, 2015. – 304 с.

6.Oila ensiklopediyasi [Matn] / Tuzuvchilar: Akramova F.A., Bilolova Z.B., Jovliyev I.S. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2019. – B. 240.

7.Хорни К. Конфликты материнства // Психология конфликта: Хрестоматия / Сост. и общ. ред. Н.В. Гришиной. – СПб.: Питер, 2001. – С. 105-113.

8.Yunusova G.S. To‘liq va noto‘liq oilalardagi ona shaxsining farzand ijtimoiy tasavvurlariga ta’siri. Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018. – B. 54.

9.Эйдемиллер Э.Г., Юстицкис В. Психология и психотерапия семьи. – СПб.: Питер, 2001. – 656 с

UDK 159.9.

Arifdjanovna Yulduz Jasur qizi
O'zbekiston Milliy universiteti stajer-o'qituvchisi

O'SMIRLAR DELINKVENT XULQ-ATVORNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya. *Har yili o'smirlar jinoyatchiligi va giyohvandlik xatti-harakatlari ko'payib bormoqda va o'smirlarning xatti-harakatlarida og'ishlarning kuchayishi tendentsiyasi mavjud. Buning sababi o'smirlarning qadriyat yo'nalishining o'zgarishi, oilaviy-maishiy munosabatlarning salbiyligi, xulq-atvori ustidan nazoratning yo'qligi, ota-onalarning haddan tashqari bandligi va befarqligi, oilaning moddiy bazasining zaifligidir. Shu munosabat bilan ushbu maqolada o'smirlarda huquqbuzarlik xatti-harakatlarining namoyon bo'lishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-psixologik omillar ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *addiktsiya, deviant xulq-atvor, oila, o'smir, delinkvent xulq-atvor, huquqbuzarlik.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF DELINQUENT BEHAVIOR IN ADOLESCENTS

Annotation. *Every year there is an increase in teenage crime and addictive behavior, and there is a tendency to increase deviations in adolescent behavior. The reason for this is a change in the value orientations of adolescents, negative family and household relations, lack of control over behavior, excessive employment and indifference of parents, and the weak material base of the family. In this regard, this article examines the socio-psychological factors that contribute to the manifestation of delinquent behavior in adolescents.*

Key words: *addiction, deviant behavior, family, teenager, delinquent behavior, crime.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ДЕЛИНКВЕНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *Каждым годом отмечается рост подростковой преступности, аддиктивного поведения, наблюдается тенденция к увеличению отклонений в поведении подростка. Причиной этого является изменение ценностных ориентаций подростков, негативные семейно-бытовые отношения, отсутствие контроля над поведением, чрезмерная занятость и безразличие родителей, слабая материальная база семьи. В связи с этим в данной статье рассматривается социально-психологические факторы способствующие к проявление у подростков делинквентного поведения.*

Ключевые слова: *аддикция, девиантное поведение, семья, подросток, делинквентное поведение, правонарушение.*

Изменения, которые происходят в нашем мире, выдвинули ряд проблем, одной из которых является проблема делинквентного поведения в подростковом периоде. Каждый день мы можем наблюдать антисоциальное поведение людей. Напряженная социальная ситуация обусловливает рост различных отклонений в личностном развитии и поведении людей, в большей степени это влияет на подростков, у которых еще не сформировалась структура ценностей, проявляется незрелость личности. В Российской психологии делинквентное поведения изучали Е.В. Змановская, В.И. Доброньков, А.Е. Личко и др. В зарубежной психологии данный вопрос активно изучается в исследованиях Американской психологической ассоциации, Р. Бартона, Е. Динера и других.

Подростковый возраст – это период становления характера. Большое влияние оказывает ближайшее окружение, среда. Поведение подростка является внешним проявлением сложного процесса построения его характера. Зачастую серьезные изменения в поведении связаны с отклонениями в этом процессе. Подростки стремятся к самостоятельности, независимости, переоценивают свои возможности. Формируются моральные понятия, принципы, ценности, и не всегда они соответствуют правовым нормам, в результате этого совершаются преступные действия.

Проблема делинквентного (противоправного, антиобщественного) поведения, является центральной для исследования большинства социальных наук, поскольку порядок в обществе имеет важнейшее значение в развитии как государства в целом, так и каждого гражданина в отдельности.

На основе анализирования научной литературы мы можем сделать вывод о том, что в качестве делинквентного поведения в основном понимают действия конкретной личности или социальной группы, отклоняющиеся от установленных в данном обществе законов или правил.

Под делинквентным поведением понимают действия конкретной личности, отклоняющиеся от установленных в данном обществе и в данное время законов, угрожающих благополучию других людей или социальному порядку и уголовно наказуемые в крайних своих проявлениях. Анализировать социальных факторов такого поведения поможет выявить особенности данного феномена, а также создать актуальные программы профилактики делинквентного поведения.

Как следствие, в российской психологии делинквентность используется в двух разных значениях. А.Е. Личко и другие исследователи утверждают, что делинквентность — это повторяющиеся асоциальные проступки, складывающиеся в определенный устойчивый стереотип действий, нарушающих правовые нормы, но не влекущих уголовной ответственности из-за их ограниченной общественной опасности или недостижения личностью возраста, с которого начинается уголовная ответственность [1].

В свое время данную точку зрения оспаривал В.В. Ковалев и его последователи, рассматривающие делинквентность как преступность [2]. В частности, Е.В. Змановская, придерживаясь позиции В.В. Ковалева, отмечает, что делинквентное поведение — это «действия конкретной личности, отклоняющиеся от установленных в данном обществе и в данное время законов, угрожающие благополучию других людей или социальному порядку и уголовно наказуемые в крайних своих проявлениях. Личность, проявляющая противозаконное поведение, квалифицируется как делинквент, а сами действия — деликтами» [3]. При этом, в российской науке понятие «делинквентность» до сих пор не является приоритетным. В современной психологии используется достаточно широкий спектр слов, соответствующих зарубежным представлениям о делинквентности как (противоправное, криминогенное, преступное поведение и др.) [4].

Т. В. Шипунова подчеркивает, что «делинквентность» в узком смысле обозначает такое поведение детей, подростков и молодежи, которое можно было бы назвать преступным, если бы его демонстрировали взрослые [5]. У. С. Позднякова под деликвентным поведением подростков понимает разновидность их девиантного поведения с такой степенью тяжести социальных последствий, при которой несовершеннолетним осуществляется нарушение правовых норм, господствующих в данном обществе, и которая выражается, как правило, в совершении правонарушений или преступлений, представляющих повышенную общественную опасность, а также в стойком противодействии несовершеннолетнего окружающей реальности [6].

С.В. Маришина, посвященное анализу психологических барьеров в общении несовершеннолетних осужденных. Он выделяет следующие виды: адаптационные, мотивационно-смысловые, эмоциональные, коммуникативные барьеры [7]. С точки зрения автора, особенности проявления психологических барьеров делинквентов в ситуации лишения свободы заключаются в выраженности внутренней конфликтности между позитивным и безнравственным отношением к ряду норм поведения члена общества. Внутренний конфликт личности осужденного разрешается в конкретных жизненных ситуациях в пользу безнравственных устремлений.

С.В. Маришин связывает психологические барьеры делинквентов с проблемами в эмоциональной сфере (агрессивность, депрессивность, раздражительность, эмоциональная лабильность, субъективное ощущение одиночества, тревожность, фрустрация, ригидность). При этом подростки достаточно высоко ценят такие нравственные качества, как любовь к родителям, доброта, открытость, милосердие, гостеприимство [8].

На взгляд И. С. Кона, «нет практически ни одного социального или психологического аспекта поведения подростков или юношей, который не зависел бы от их семейных условий в настоящем или прошлом» [9]. Существенную роль в происхождении делинквентного поведения, кроме личностных особенностей, несомненно, играет микросоциальная ситуация, основу которой составляют внутрисемейное неблагополучие и травмирующие события, пережитые подростком, что является социальными факторами формирования делинквентного поведения у подростков.

Делинквентное поведение может развиваться по принципу порочного круга. После первичного, возможно случайного преступления человек переносит наказание, в последующем возникают трудности адаптации, из-за ярлыка «преступника» происходит накопление трудностей, и человек

совершает повторное преступление [10]. Еще одной причиной делинквентности может служить несправедливая оценка наказания правонарушений. Микросоциальная ситуация оказывает существенное влияние на формирование делинквентного поведения. Факторы, вызывающие делинквентность:

– Фрустрация детской потребности в заботе и внимании со стороны родителей. Ребенок испытывает боль и при отсутствии понимания переходит в разочарование и злость. Агрессия привлекает родителей, ребенок таким способом начинает добиваться своих целей. Постепенно это становится систематическим и происходит закрепление делинквентного поведения.

– Насилие, применение наказаний, физическая, психологическая жестокость оказывают сильнейшее влияние на ребенка.

– Конфликты между родителями, которые наблюдает ребенок. – Нежелательные личностные особенности родителей (сочетание нетребовательного отца и потворствующей матери) [11].

Делинквентное поведение формируется у подростка в основном под влиянием средовых факторов, важнейшим из которых можно считать нарушение взаимоотношений в семейной системе, в частности в стиле воспитания матерей, так как именно мать играет наиболее существенную роль в формировании личности ребенка. Таким образом, делинквентное поведение у подростков с большей вероятностью формируется в семьях, в которых основным стилем воспитания матерью являются гиперпротекция, потворствование, строгость наказаний при отсутствии четких требований на фоне эмоционального отвержения. Причины негармоничного воспитания матерями подростков различны. Порой это некие обстоятельства в жизни семьи, мешающие наладить адекватное общение с детьми. Нередко основную роль в нарушении воспитательного процесса играют личностные особенности самих родителей. В подобных семьях подростки значительно чаще переживают кризисные ситуации, сопровождающиеся нервно-психическим напряжением, выраженной тревожностью, неустойчивостью самооценки. Исследованием выявлено, что делинквентные подростки мало времени проводят с родителями, редко просят помощи у них, не прикладывают усилий, чтобы заслужить их похвалу, предпочитают не зависеть от их советов и наставлений. При этом несовершеннолетние искренне считают, что их в семье не любят, не признают, отказывают в поддержке. Подростки чувствуют, что их не принимают как личность, мало доверяют, стремятся критиковать, авторитарно воздействуют, их не покидает чувство одиночества в своей семье [12].

Вместе с тем делинквентное поведение чаще формируется у подростков, имеющих опыт травмирующих событий высокой степени интенсивности, таких как смерть близких, развод родителей, вступление родителей в новый брак. Это связано с тем, что в подростковом возрасте, в период интенсивного формирования Я-концепции, сопровождающийся противоречивыми переживаниями, полярными оценками, иногда острым чувством неполноценности, потеря одного из родителей для ребенка может являться утратой базисного чувства безопасности.

В основе глубоких отношений между взрослыми и детьми лежат эмпатия и способность к диалогу в любых ситуациях. Этими качествами должен обладать значимый для подростка взрослый, чтобы повлиять на ситуацию. В этом случае взрослый поможет подростку адекватно относиться к себе и своему поведению, принять общественные нормы и изменить отношение к окружающему миру.

Список используемой литературы

1.Личко А.Е. Типы акцентуаций характера и психопатий у подростков / А.Е. Личко. — М. : Апрель-Пресс : ЭКСМОПресс, 1999. — 406 с.

2.Александров А.А. Типология делинквентного поведения при психопатиях и акцентуациях характера / А.А. Александров // Нарушения поведения у детей и подростков : сб. ст. / Моск. НИИ психиатрии ; Ленингр. науч.-исслед. психоневрол. ин-т им. В.М. Бехтерева ; отв. ред. В.В. Ковалев. — М., 1981. — С. 51–59.

3. Змановская Е.В. Девиантология: психология отклоняющегося поведения : учеб. пособие / Е.В. Змановская. — 2-е изд., испр. — М. : Академия, 2004. — 288 с.

4. Тигунцева Г.Н. Генезис научного знания о личности подростка-делинквента в отечественной психологии / Г.Н. Тигунцева // Криминологический журнал Байкальского государственного

университета экономики и права. — 2015. — Т. 9, № 1. — С. 47–56. — DOI: 10.17150/1996-7756.2015.9(1).47-56.

5. Психологические механизмы коррекции девиантного поведения школьников. / В.Г. Баженов, В.П. Баженова. – Ростов н/Д.: Феникс, 2007.

6.Позднякова У. С. Понятие, признаки и формы девиантного и делинквентного поведения детей // Вопросы современной науки и практики. Университет им. В. И. Вернадского. 2014. № 2(51). С. 119–126

7. Купченко В. Е. Личностная типология подростков с учетом уровня делинквентного поведения // Вестн. Ом. ун-та. Сер. «Экономика». – 2017. – № 4 (60). – С. 86–91. – DOI: 10.25513/1812-3988.2017.4.86-91.

8. Маришин С.В. Преодоление психологических барьеров у несовершеннолетних осужденных в процессе перевоспитания : автореф. дис. … канд. психол. наук / С.В. Маришин. — Курск, 2009. — 25 с

9. Кон И. С. Ребенок и общество: Историко-этнографическая перспектива. М., 1988. 270 с.

10. Овчарова Р. В., Малюшина Ю. А. Криминальная мотивация несовершеннолетних правонарушителей и ее коррекция. – Курган : Изд-во Кург. гос. ун-та, 2011. – 176 с.

11. Змановская Е. В. Девиантология. Психология отклоняющегося поведения. – М. : Академия, 2003. – 288 с.

12. Гартвик Е. В. Психологические факторы делинквентного поведения подростков // Психопедагогика в правоохранительных органах. 2021. Т. 26, № 3(86). С. 283–291. DOI: 10. 24412/1999-6241-2021-3-86-283-291

Burxanova Mavjuda Bekbutayevna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: burxanovamavjuda@gmail.com

MAMLAKATIMIZ OLIMLARI TOMONIDAN OILADA OTA-ONA VA FARZANDLAR O‘RTASIDA MUOMALA MADANIYATINI ORGANILISHI

Annotasiya. *Maqolada mamlakatimiz olimlari tomonidan oilada ota-ona va farzandlar o‘rtasida muomala madaniyatini o‘rganilishi haqida fikr yuritilgan*

Kalit so’zlar: *oila, shaxs, tarbiya, munosabat, muomala, ahloq, odob, ruhiyat, madaniyat, ma’rifat, idrok, tuyg‘u.*

ИССЛЕДОВАНИЕ КУЛЬТУРЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РОДИТЕЛЕЙ ИДЕТЕЙ В СЕМЬУ УЧЁНЫМИ НАШЕЙ СТРАНЫ

Аннотация. *В статье рассмматривается исследование культуры взаимодействия родителей и детей в семье учеными нашей страны.*

Ключевая слова: *семья, личность, образование, отношение, поведение, мораль, манеры, духовность, культура, просвещение, восприятие, чувство.*

STUDY OF THE CULTURE OF INTERACTION BETWEEN PARENTES AND CHILDREN IN THE FAMILY BY THE SCIENTISSTS OF OUR COUNTRY

Annotation. *The article discusses the study of cultura of interaction betqeen parents and children in the family by scientists in our country.*

Key words: *family, personality, education, attitude, behavior, morals, manners, spirituality, culture, enlightenment, perception, feeling.*

Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inini tashkil etadi. Jamiyat katta-kichik oilalardan iborat. Bu oilalar qanchalik mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham shunchalik mustahkam bo‘ladi, hamda oila jamiyatda o‘ziga xos bo’lgan ijtimoiy birlashmani tashkil etadi. Oilaning bu xususiyati birinchi galda uning jamiyat manfaatlari bilan bog‘liqligida hamda ijtimoiy vazifalarida ifodalanadi. Mamlakatda har bir oila va har insonning turmush farovonligini, fuqarolar totuvligini mustahkamlashga qaratilgan dasturiy maqsadlarga asoslanib ish olib borilmoqda.

Muomala eng avvalo odamni odam tomonidan idrok qilinishidan boshlanadi, unda dastlabki o‘zaro baholash amalga oshadi, dastlabki hissiy intellektual munosabatlar shakllanadi va shundan so‘ng tegishli muloqot shakli amalga oshiriladi. Bu jarayonda odam haqidagi ma’lumot, idrok etilayotgan odamning hayotiy tajribasi, u yoki bu munosabat shaklini yoqtirishi yoki yoqtirmasligini yuzaga keltiradigan emotsional munosabatlar muhim rol o‘ynaydi.

Mamlakatimiz olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek oilasining mentalitetida bolajonlik, iymon, oilaning muqaddasligi, o‘zaro ko‘mak, naslni davom ettirish, mehnatga, kattalarga hurmat va muhabbat ruhi ustun turadi.

Muomala odobini quyidagi: er va xotin, ota-ona va farzandlar, erkaklar, ayollar, yoshlar, qariyalar, kasbdoshlar muomala odoblari kabi turlarga bo‘lish mumkin. Muomala odobining bu turlari har bir odamning burch va vazifalaridan kelib chiqqan holda amalga oshadi.

Erning oiladagi burchlari: xotinni sevish, hurmat qilish, u bilan maslahatlashib ish olib borish, oilani moddiy mablag‘ bilan ta’minlash, xotini va farzandlarini boqish, parvarishlash, oilani boshqarish, tarbiyalash, nazorat va himoya qilish, oilaga, xotinga vafodorlik, farzandlarni ilmli, hunarli qilish, barcha farzandlarni teng ko‘rish, yaqinlarini hurmat qilib, yaxshi muomalada bo‘lish.

Xotinning oiladagi burchlari: erni sevish, hurmatlash, unga itoatli bo‘lish, farzand tug‘ish, parvarishlash, tarbiyalash, ro‘zg‘or ishlari, tartib, gigiena qoidalariga rioya etish, saranjom-sarishtalik, erning topib kelganining qadriga yetib, tejamkorlik bilan ishlatish, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik, har bir ishda er bilan maslahatlashish, roziligini olish, erga vafodorlik, erning ota-onasini, yaqinlarini hurmat qilib, yaxshi muomalada bo‘lish, sabr-qanoatli bo‘lish, erga, farzandlarga doimo e’tiborli bo‘lib, hushyorlik,

talabchanlik bilan ularning xatti-harakatlarini, o‘y-fikrlarini kuzatib borish. «Ona farzandlari ruhiga eng go‘zal axloqni naqsh etadi. Boshqalarni yaxshi ko‘rmoqni, yaqinlariga xushmuomala bo‘lmoqni, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat ko‘rsatmoqni, zaif va zaifalarga yordam bermoqni o‘rgatadi. Ishlarni chiroyli va go‘zal bajarishni, to‘g‘ri so‘z bo‘lishni uqtiradi. Ahdiga vafo qilishni, hukmlarida odil bo‘lishni, shunga o‘xshash odob-axloqqa doir narsalarni farzand ongiga, qalbiga soladi va oqibatli, xushxulq inson bo‘lishiga tinimsiz yordam beradi»[1].

Bizning fikrimizcha, ota-onaning farzand oldidagi burchlarini ikki bosqichga bo‘lish mumkin:

Birinchi bosqich – farzand tug‘ilgunga qadar: moddiy va ma’naviy shart-sharoit yaratish, hamda farzandni parvarishlash, tarbiyalashda zarur bo‘ladigan bilimlarga ega bo‘lish.

Ikkinchi bosqich – farzand tug‘ilganidan keyin: farzandni parvarish qilish farzandni yoshiga qarab, bosqichma-bosqich tarbiyalab borish, bolaga yoshligidan kitobga ixlosmandlikni o‘rgatish, qiziqarli kitoblarni, ayniqsa, o‘zbek xalq ertaklarini o‘qib berish, 3-4 yoshga kirganda o‘qib berilgan ertakni qanday tushunganini so‘rash, ertak bo‘yicha qisqa savollar berish va bolani shu savolga javob berishga asta-sekinlik bilan, shoshmasdan o‘rgatishi, ota-ona har kungi odat bo‘yicha sabr-toqat, diqqat, hurmat, mehribonlik, talabchanlik bilan farzandlari bilan munosabatda bo‘lishlari zarur, oilada turli mavzularda farzandlari bilan suhbatlashish, axloq, odobni o‘rgatish, ilm berish, hunar o‘rgatish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish, go‘daklikdan tozalikka o‘rgatish.

Farzandlarning burchlari: ota-onani hurmat qilish, ularning nasihatlariga quloq solish, ularga ozor bermaslik, har ishda ota-ona bilan maslahatlashib, ularning rizoligini olish, uy-ro‘zg‘or ishlarida yordam berish, ilm olish, kasb-hunar egallash, turmush qurib, alohida ro‘zg‘or yuritsa ham, ota-onani, aka-uka, singillarni moddiy va ma’naviy qo‘llab turish.

Oila, ijtimoiy va madaniy munosabatlarni vujudga kelishi va kechishini ta’minlanish uchun zaruratdi r. Bu haqda akademik E.Yusupov shunday yozadi: “Oila – ijtimoiy, tabiiy omillar asosida shakllangan kichgina jamao sifatida, ikki jinsga mansub bo‘lgan shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarning birga hayot ko‘rib, nasl qoldirish ehtiyojidan kelib chiqqan shaklidir.

Oila, kishilarning tabiiy-biologik, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy-madaniy birlikdir. Oila tushunchasi, faqatgina maishiy munosabatlarni aks ettiruvchi mazmun jihatidan tor tushuncha emas. U, ijtimoiy jamoaning mo‘jaz namunasidir. Binobarin oila jamiyatning bir bo‘lagi. O‘z navbatida, oilalar birlashib, yaxlit ijtimoiy tizim - jamiyatni tashkil etadi. Jamiyatdagi o‘zgarishlar oilaga ta’sirini ko‘rsatganidek, oiladagi o‘zgarishlar ham jamiyatga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Aniqrog‘i munosabatlar xarakteri, qadriyat va an’analarga amal qilish, xulq-atvor namunasida ifodalanadi.

Oila, milliy-madaniy hayot tarzini ifodalovchi va ta’minlovchi ijtimoiy institutdir. U orqali jamiyat insonlarning hayot tarzini tartibga soladi va boshqarib turadi. Oila har doim jamiyatni yangi avlodlar bilan to‘ldirib turadi. Qari va dunyodan ko‘z yumgan insonlar o‘rniga yangi va yangi avlodlar jamiyatga kirib kelaveradi. Jamiyat esa, mana shu yoshlar hisobiga yashaydi va yangi mehnat zaxiralariga, yangi ishlab chiqaruvchi kuchlarga, ma’rifiy bunyodkorlarga ega bo‘lib boraveradi. Demak, oila jamiyatni yangi a’zolar bilan to‘ldirib turuvchi institut. Bundan boshqa yo‘llar natijasiz va ijtimoiy tasdiqlanmagan. Shuning uchun, an’anaviy qadriyatlar asosida oiladan tashqari tug‘ilgan bola muhokama qilinadi va qoralanadiki, etnopsixologik xususiyat sifatida baholanadi[2].

Mazkur masalaga E.G‘oziev etnopsixologik jihatdan yondashib, “O‘zbek oilasida tarbiya mohiyati, mazmuni, tarbiyaning kundalik va istiqbol rejalari: bolalarga ta’sir o‘tkazish vositalarini tanlash va undan unumli foydalanish o‘ziga xos xususiyatlarga ega, chunki uning asosida xalq an’analari yotadi”[3] - deb yozadi.

Demak, oiladagi tarbiya jarayonida xalq an’analarining ta’siri masalasi birlamchi ahamiyat kasb etishini e’tirof etish lozim.

Oiladagi har bir munosabat bola tarbiyasida o‘z izini qoldiradi. Shuning uchun har bir oilada bola tarbiyasiga katta e’tibor berilishi kerak. Noto‘g‘ri tarbiya noqobil farzandlarni yuzaga keltiradi. Shuning uchun ham oila alohida institut sifatida o‘rganiladi.

Shaxsning taraqqiyotida o‘zaro munosabat, muomala madaniyatining psixologik asoslarini paydo bo‘lishiga oiladagi muhitning ta’siri nihoyatda katta ekanligini professor F.R.Abdurahmanov “Pedagogik sotsiologiya” kitobida ko‘rsatib o‘tadi. Muallif insonlarni ijtimoiylashuvida oilaviy muhit va unga ta’sir etuvchi omillarni ko‘rsatib o‘tish bilan yoshlarni tarbiyasida muloqot yuz beradigan sharoit va undagi asosiy mazmun juda katta ahamiyatli jarayon ekanligini ko‘rsatib o‘tadi[4]. Haqiqatda ham shaxsni o‘zaro

munosabatini sodir bo‘lishida, undagi psixologik jarayonlarni to‘g‘ri tushunishda oiladagi muhitning o‘rni juda katta.

Muomala jarayonida odamlar bir-birlarini idrok etadilar va tushunadilar. “Shaxslararo idrok jarayonida muloqot asosan sherigi to‘g‘risida shakllanadigan tasavvur bilan belgilanadi”[5] deb ta’kidlaydi E.N.Sattorov.

Bizning fikrimizcha, muomala madaniyati insonning psixologik xususiyatlariga, oilaviy muhit va ota-ona tomonidan beriladigan tarbiyaga bog‘liq.

Ijtimoiylashuv jaroyinida insondagi nutq o‘ziga yarasha boyib borib inson ehtiyoj va manfaatlarida aks etadi, hamda muomala madaniyati axloq-odob tarzida shakllanib boradi.

“Muomala madaniyatini oshirish uchun odamda ilk yoshlikdan boshlab boshqa odamlarga hurmat va samimiyat bilan munosabatda bo‘lishni, ularga hamdardlik, insonparvarlik, mehribonlik qilish qobiliyatlarini shakllantirib borish kerak bo‘ladi”[6] - deb ta’kidlaydi G‘.B.Shoumarov.

Muomala eng avvalo odamni odam tomonidan idrok qilinishidan boshlanadi, unda dastlabki o‘zaro baholash amalga oshadi, dastlabki hissiy intellektual munosabatlar shakllanadi va shundan so‘ng tegishli muloqot shakli amalga oshiriladi. Bu jarayonda odam haqidagi ma’lumot, idrok etilayotgan odamning hayotiy tajribasi, u yoki bu munosabat shaklini yoqtirishi yoki yoqtirmasligini yuzaga keltiradigan emotsional munosabatlar muhim rol o‘ynaydi.

Muloqotda buyruq ohangining ustunligi, do‘q-po‘pisa ohangida keskin shaklda muomalada bo‘lish, suhbutdosh nomiga tez-tez bilidirilib turiladigan e’tirozlar, uning xatti-harakati va fikrlaridan norozilikni ifodalash, yo‘l bermaslik va tajovuzkorlikni namoyon qilish, oilada o‘zaro raqobot munosabatlarini yuzaga keltiradi.

Befarqlik, e’tiborsizlik, qo‘pollik, bemehrlik, behurmatlik kabilar oiladagi samimiy muloqotga putur yetkazadi. Agar aksariyat hollarda, iltimoslardan, maslahatlardan, o‘zaro kelishuvli savol-javoblardan, o‘z niyat-istaklarini, xatti-harakatlarini hotirjamlik bilan bayon qilish usulidan foydalanilsa, agar oilada o‘zaro yordam, o‘zaro tushunish, bir-birlariga yon berish odat bo‘lsa, unda bunday oilalarda do‘stona munosabatlar o‘rnatiladi, oilaviy hayot uchun eng maqbul bo‘lgan psixologik muhit yuzaga keladi.

Aytish mumkinki, muomala madaniyatiga birinchidan, o‘z-o‘zini bilish va boshqa odamlarni tushuna olish qobiliyati, ya’ni ularning psixologik xususiyatlarini to‘g‘ri baholay olish, ikkinchidan, ularning xulqi va holatlariga nisbatan mos munosabat bildira olish, uchinchidan, har bir odamga nisbatan uning shaxsining individual xususiyatlariga eng ma’qul keladigan muomala shakli, usuli va stillarini tanlay bilish kiradi.

“Oilada bola nafaqat o‘ziga makon topadi, balki odamlar, tengqurlar, umuman, insonlar bilan munosabatga kirishishni o‘rganadi, kattalar ko‘zi bilan dunyoni, hayotni anglaydi. Farzandning atrofdagi insonlarga munosabati, dunyoga qay ko‘z bilan qarashi uning hayotidagi birinchi va asosiy murabbiylari bo‘lmish ota-onaga bog‘liqdir”[7], deydi B.Umarov.

Bizningcha, oilada o‘rnatilgan o‘zaro munosabatlardagi ahillik, totuvlik, muomala madaniyati, har doim bir-birini qo‘llab-quvvatlab turish noxush holatlarning oldini oladi.

Oila, jamiyatning alohida, o‘ziga xos birlamchi bo‘g‘ini hisoblanib, uni o‘rganish, imkoniyatlarini bilish jamiyat rivoji, ishlab chiqarish va sanoatni boshqarish, ijtimoiy-madaniy munosabatlarni modellashtirish va prognozini amalga oshirish uchun zarur.

Ota-onalarning farzandlari borasidagi munosabatlarini shartli ravishda to‘rt guruhga bo‘lish mumkin (albatta, mazkur shikoyatlar bir-birini inkor qiladigan emas, balki taqozo etadigan muammolar bilan bog‘liq bo‘ladi):

1. Farzandlar bilan muloqotning yo‘qligi: ularning qanday yashayotganlari, qiziqishlari, intilishlarini bilmaslik, bolalari bilan «ochilib» gaplashmaslik, ota (ona) sifatida begonaligini his etish va h.k. Bunday muammolarga ega mijozlar uchun farzandlari to‘g‘risidagi quyidagi fikr-mulohazalar xos bo‘ladi: «Men uni umuman tushunmayman», «Men uning qayerlarda bo‘lishi, do‘stlari xususida hech narsa bilmayman», «U menga o‘zi haqida hech narsa demaydi, menga ishonchsizlik bilan qaraydi» va sh.k.

2. Farzandlarning ota-onaga nisbatan hurmatsizlarcha, keskin munosabati; arzimagan sabablar bilan doimiy nizoga borishi, janjallashishi. Bunday holga «U doim menga qo‘pollik qiladi, men bilan hisoblashmaydi, menga biror narsada ko‘maklashmaydi, yordam bermaydi» qabilidagi shikoyatlar xosdir.

3. Ota-onaning o‘z nazarlarida farzandlari risoladagiday, lozim bo‘lgani kabi yashamayotganlari uchun ular taqdiridan xavotirlanishi. Bunday paytlarda ota-ona bolalarini omadsiz, baxtsiz, kalavasining uchini yo‘qotgan, yolg‘iz deb hisoblashadi va shu holat psixologga murojaat uchun asos bo‘ladi. Shikoyatlar quyidagicha ifodalanishi mumkin: «Qizimning kuyovim bilan munosabatlari juda yomon, men

ular oilaviy hayotining bir maromga tushishi uchun bajonidil yordam bergan bo‘lardim, biroq buni qanday amalga oshirishni bilmayman», «O‘g‘lim uch yil o‘qigan institutni tashlab ketdi» yoki «Qizimning yoshi o‘tib boryapti, biroq kelayotgan sovchilarga doim rad javobini beradi».

4. Farzandlarning noqobilligi, xulq og‘ishlari, turli destruktiv ta’sirlarga tushganligi bilan bog‘liq shikoyatlari: «O‘g‘limni ichkilikdan qaytarolmayapman, nima qilishim kerak?», «Farzandim keyingi paytlarda giyohvand moddalar qabul qilyapti», «Bolamning diniy mutaassiblar ta’siridan qutqarishimda yordam bering», «O‘g‘lim o‘g‘ri, bezorilar to‘dasiga qo‘shilgan» yoki «Qizimning axloqi, o‘yin-kulgiga moyilligi menga yoqmayapti» va h.k

Oilaviy munosabatlar keng qamrovli bo‘lib, ular nafaqat huquq me’yorlari bilan tartibga solinadi, balki unda odob-axloq va urf-odat qoidalariga ham amal qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, oilada ota-ona farzandlarini sevishi, sog‘lig‘iga g‘amxo‘rlik qilishi, ularga g‘amxo‘rlik qilish, munosib ta’lim berish bilan birga ulardagi muomala madaniyatiga, axloqiy xulq-atvoriga javob berish kabi oilaviy qadriyatlarda aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фотимахон Сулаймон қори қизи. Аёлларга хос масалалар. – Т.: Мовароуннаҳр. 2003, 109-б.67

2. Платонов Ю.П. Этническая психология. – СПб.: «Речь», 2001. - 320 с.

3. G‘oziev E.G‘. O‘zbek xalqining etnopsixologiyasi va bolalar tarbiyasi // O‘zbek oilasining etnopsixologik muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani qisqa ma’ruzalar matni. - T. 1993. B.- 8-9.

4. Abduraxmonov F.R. Pedagogik sotsiologiya. Toshkent. 2005

5. Sattorov E.N.Omadga erishish psixoloiyasi..T. “G‘afur G‘ulom” nashriyoti.2014 y. 18-19 b.

6. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. . – T.: «Sharq», 2008. –296-b.

7. Д.Ташмухамедова, Б. Умаров. “Ота - оила устуни” Оилада отанинг фарзандлар тарбиясига таъсири ва улар ўртасидаги ўзаро муносабатлар психологияси: Илмий-услубий қўлланма. – Тошкент: “Tasvir nashriyot uyi”, 2019, – 36 б.

G‘iyosova Vasilaxon Shukurulla qizi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti “Umumiy psixologiya” kafedrasi
tayanch doktoranti (PhD)

O‘SMIRLIK DAVRIDAGI MAKTAB O‘QUVCHILARIDA UMUMIY XAVOTIRLIKNING TA’LIM JARAYONIGA TA’SIRI

Annotatsiya. *Bulling fenomeni XXI asrda maktab o‘quvchilari orasidagi muhim ijtimoiy muammo bo‘lib, OAV va jamoaviy ongda zo‘ravonlikning qisqartirilgan hamda o‘zgargan formasidir. Deyarli har bir maktab sinfida boshqa tengdoshlardan farqlanib turuvchi xususiyatlarga ega o‘quvchilar uchraydi. O‘quvchining farqli jihatlari masxaralanish va tahqirlanishga olib keladi. Bullingning asosiy mazmuni shundan iboratki, insonga ta’sir o‘tkazish natijasida u o‘zi xoxlamagan tarzda o‘zini tutishga majburlashga olib kelinadi. Zo‘ravonlik insonning ruhiy va ma’naviy sog‘lig‘iga, uning hayotiy qiziqishlariga va ehtiyojlariga qarshi qaratilgan bo‘lishi mumkin. Shu sababli fenomenni kelib chiqish ildizlarini, turlari va sabablarini tadqiq qilish ta’lim muhitidagi havfsizlikni va ta’lim jarayonidagi sub’ektlar o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlarda hamda, o‘quvchi shaxsining rivojlanishida negativ aks etishini oldini olishga yordam beradi. Ushbu muammolarni tadqiq etish, ularga yakuniy hamda ilmiy isbot va dalillarga ega ekanligini aniqlash kechiktirib bo‘lmas zarurat ekanligi ushbu qarashlarning amaldagi mavjud yaqqol qarama-qarshiliklari bilan yanada namoyon bo‘lib bormoqda.*

Kalit so‘zlar*: bulling, xavotirlik, stress, ehtiyoj, frustratsiya, emotsional, negativizm, ta’lim.*

ВЛИЯНИЕ ОБЩЕЙ ТРЕВОГИ НА УЧЕБНЫЙ ПРОЦЕСС ПОДРОСТКОВ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация*. Феномен буллинга является важной социальной проблемой среди школьников в XXI веке и представляет собой сокращенную и измененную форму насилия в СМИ и коллективном сознании. Почти в каждом школьном классе есть ученики с характеристиками, которые отличаются от других сверстников. Различия читателя приводят к насмешкам и унижениям. Основное содержание буллинга состоит в том, что в результате воздействия на человека оно приводит к принуждению вести себя так, как ему не хочется. Насилие может быть направлено против психического и духовного здоровья человека, его жизненных интересов и потребностей. Поэтому изучение корней, видов и причин возникновения явления способствует предупреждению незащищенности образовательной среды и ее негативного отражения на межличностных отношениях между субъектами образовательного процесса, а также на развитии личности учащегося. Тот факт, что изучение этих проблем является неотложной необходимостью, чтобы установить, что они имеют как окончательные, так и научные доказательства и доказательства, дополнительно демонстрируется существующими очевидными противоречиями этих взглядов в действительности.*

Ключевые слова*: буллинг, тревога, стресс, экстравагантность, фрустрация, эмоциональность, негативизм, образование.*

THE INFLUENCE OF GENERAL ANXIETY ON THE EDUCATIONAL PROCESS OF ADOLESCENT SCHOOL STUDENTS

Annotation. *The bulling phenomenon is an important social problem among schoolchildren in the 21st century, a reduced and changed form of violence in the media and collective consciousness. In almost every school class, students with distinguishing characteristics from other peers are found. Different aspects of the reader lead to ridicule and bullying. The main content of the bulling is that, as a result of influencing a person, he is brought to force himself to behave in a way that he does not want. Violence can be directed against a person's mental and spiritual health, against his life interests and needs. For this reason, research into the roots, types and causes of the phenomenon of origin can help prevent insecurity in the educational environment and negative reflection in interpersonal relationships between subjects in the educational process and, in the development of the personality of the student. The fact that the research of these problems, finding out that they have final and scientific proofs and evidence is an inexhaustible necessity is further manifested by the existing obvious contradictions of these views.*

Keywords*: bulling, anxiety, stress, exttioj, frustrasia, emotional, negativism, education.*

Maktabdagi zo‘ravonlik bu – o‘quvchilarning o‘quvchlarga nisbatan yoki bolalar o‘rtasidagi zo‘ravonlik harakatlarini amalga oshirish holatlari ro‘y beradigan zo‘ravonlik turidir. Maktabdagi zo‘ravonlikning ikki: ochiq-oshkora va yashirin turlari ajratiladi. Ochiq-oshkora zo‘ravonliklar atrofdagilarga o‘ta qiziq bo‘lgan alohida shaxslarga, yoki bo‘lmasa, aksincha to‘liq bir guruh shaxslariga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Maktabdagi zo‘ravonlik holati ham ta’lim jarayonida berilgan vazifalar sabab, ham o‘quvchilarning o‘qituvchilar va tengdoshlari bilan munosabatlari sabab vujudga kelishi mumkin.

Bugungi kunda boshqa bolalarga nisbatan bolalaraning zo‘ravonlik harakatlarini amalga oshirishlari bevosita ularning psixologik jihatdan nomaqbul (noto‘g‘ri) tarbiyalanayotganligi bilan izohlanadi, odatda bolalar va o‘smirlarning boshqalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lishlariga sabab ulardagi yomon tarbiya tajribasi sanaladi deb aytsak to‘g‘ri bo‘ladi.

Maktab o‘quvchilari orasida bullingni yuzaga kelishida bir qancha omillar ta’siri natijasida bolada xavotirlikning yuzaga kelishi natijasida ta’lim sifatida o‘zgarishlar kuzatilishi mumkin. Maktabdagi umumiy havotirlikni aniqlash (Filipps) metodikasi aynan maktab o‘quvchilariga mo‘ljallangan bo‘lib, uni o‘tkazish oson hisoblanadi. Quyida metodika haqida ma’lumotlar keltiramiz.

Metodika (savolnoma)ning maqsadi: kichik maktab va o‘rta maktab yosh davridagi o‘quvchilarning xarakterdagi xavotirlik darajasini o‘rganishga mo‘ljallangan.

Test 58 savoldan iborat bo‘lib, o‘quvchilarga yozma yoki og‘zaki tarzda berilishi mumkin. Har bir savolga sinaluvchilar “ha” yoki “”yo‘q” javobini berishlari mumkin.

Yo‘riqnoma: “Bolalar hozir sizga savollardan iborat savolnoma taqdim qilinadi, unda siz maktab qanday xis qilishingiz haqida so‘z yuritiladi. Savollarga aniq va to‘g‘ri javob berishga harakat qiling, bu yerda to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javoblar yo‘q. Savollar ustida uzoq o‘ylamay tez javob bering.

Savollarga javob berayotganda sizda shu holat mavjud bo‘lsa “+” javobni, agar to‘g‘ri kelmasa “-” javobni belgilang.

Natijalarni tahlil qilish vaqtida kalitga mos kelmaydigan javobni belgilab olinadi. Masalan, bola 58 savolga “Ha” deb javob bersa, kalitda bo‘lsa bu javob “-” ga ya’ni “yo‘q” javobiga to‘g‘ri kelsa shu javobga ball beriladi. Kalitga javoblari to‘g‘ri kelmaydigan savollar xavotirlikni namoyon qiladi. Natijalarni tahlil qilishda quyidagilar hisobga olinadi.

1. Savollarga javoblarning mos kelmasligini umumiy holati. agar 50%dan ortiq bo‘lsa xavotirlikni ortgani haqida xabar beradi, agar shu natija 75% dan oshsa yuqori darajadagi xavotirlikni mavjudligini ko‘rsatadi.

2. Har bir 8 ta omil bo‘yicha xavotirlik darajasini namoyon bo‘lishini. Xavotirlik darajasi yuqoridagi holatdagi aniqlanadi. O‘quvchini ichki emotsional holatlari aniqlanadi. Ko‘pgina holatlarda xavotirli darajani u yoki bu sindromlari ko‘rsatiladi.

1) Mos kelmaydigan natijalar hisoblab topiladi va foizga ko‘tariladi. Har bir respondent uchun.
2) Bu ko‘rsatkichlarni individual diagramma tarzida namoyon qilinadi.
3) Hamma sinnf uchun mos kelmagan ko‘rsatkichlarni foizi hisoblanadi <50%; >50%; va>75%.
4) Bu ko‘rsatkichlarni ham diagramma shaklida ko‘rsatiladi.
5) Omillarga mos kelmagan o‘quvchilarning soni foiz hisobida (hamma omillar uchun) ko‘rsatiladi.
6) boshqatdan o‘lchanganlarni farqlari hisoblanadi.
7) Har bir sinaluvchi haqida to‘liq ma’lumot (test natijalariga ko‘ra) keltiriladi.

Har bir omilning tavsifnomasi.

1. Maktabdagi umumiy xavotirlik – maktab hayotidagi holatlarga bog‘liq bo‘lgan bolaning umumiy emotsional holatini beradi. Agar bunda bolaning holati yuqori bo‘lsa umumiy xavotirlik yuqori bo‘ladi.

2. Ijtimoiy stressni boshidan o‘tkazish – bola ijtimoiy munosabatga kirishadigan vaqtdagi emotsional holatlari (birinchi navbatda tengdoshlari bilan) aniqlanadi.

3. Muvaffaqiyatga erishishiga bo‘lgan ehtiyoj frustratsiya – yuqori natijalarga erishishda bolaning muvaffaqiyatga erishishida to‘siq bo‘ladigan psixik ko‘rinishlar va boshqalar tahlil qilinadi.

4. O‘zini namoyon qilishdagi qo‘rquv – o‘zini boshqalar oldida namoyon qilishda, o‘z imkoniyatlarini ko‘rsatish vaqtida vujudga keladigan negativ emotsional hissiyotlar.

5. Bilimlarni tekshirish vaziyatidagi qo‘rquv – bolaning imkoniyatlarini, yutuqlarini, bilimlarini (ayniqsa hammaning oldida) tekshirishga bo‘lgan negativ munosabatlarning mavjudligi.

6. Atrofdagilarni talablariga to‘g‘ri kelmaslik qo‘rquvi – boshqalarni bu bola haqidagi fikrini doimo ijobiy bo‘lishiga qaratilgan faoliyat, bunda atrofdagilar unga salbiy fikr bildirishidan xavotirlanadi.

7. Stressga qarshilik ko‘rsatishning past fiziologik xususiyati – boladagi psixofiziologik holatlarning o‘ziga xosligi, bolaning stressli vaziyatlarga nisbatan moslashishning pastligi. Bu ko‘pincha atrofdagi holatlardan kelib chiqqan holda bo‘lishi mumkin. Agar atrofdagi holat yomon bo‘lsa bolada stressga qarshilik ko‘rsatish kamayadi.

8. O‘qituvchilar bilan munosabatdagi qo‘rquv – bolaning o‘quv darajasini pasayishida maktabdagi katta insonlarga nisbatan qo‘rquvning mavjudligi, umumiy negativ emotsional fon.

Fillips metodikasi bo‘yicha ma’lumotlarni normal taqsimlanishga mosligini tekshirish

Ko‘rsatkichlar	Kolmogorov Smirnov mezoni	Ishonch darajasi
Maktabdagi umumiy xavotirlanish	,946	,332
Ijtimoiy stressni boshidan o‘tkazish	1,683	,007**
Muvaffaqiyatga erishishiga bo‘lgan ehtiyoj frustratsiyasi	1,551	,016**
O‘zini namoyon qilishdagi qo‘rquv	2,056	,000***
Bilimlarni tekshirish vaziyatidagi qo‘rquv	2,325	,000***
Atrofdagilarning talablariga to‘gri kelmaslik qo‘rquvi	2,234	,000***
Stressga fiziologik qarshilik ko‘rsatishning past darajasi	2,472	,000***
O‘qituvchilar bilan munosabatdagi qo‘rquv	2,198	,000***

Tadqiqot doirasida biz Kolmogorov Smirnov mezonidan foydalandik. Natijalar tahliliga ko‘ra quyidagi holatlar aniqlandi: maktabdagi umumiy xavotirlanish (D=0,946 ; p>0,05), ijtimoiy stressni boshidan o‘tkazish (D=1,683; p<0,01), muvaffaqiyatga erishishiga bo‘lgan ehtiyoj frustratsiyasi (D=1,551; p<0,001), o‘zini namoyon qilishdagi qo‘rquv negativizm (D=2,056; p<0,001), bilimlarni tekshirish vaziyatidagi qo‘rquv (D= 2,325; p<0,001), atrofdagilarning talablariga to‘g‘ri kelmaslik qo‘rquvi (D=2,234; p<0,01), stressga fiziologik qarshilik ko‘rsatishning past darajasi (D=2,472; p<0,001) va o‘qituvchilar bilan munosabatdagi qo‘rquv (D=2,198; p<0,001) shkalalaridagi olingan natijalari normal taqsimlanish qonuniga mos kelmas ekan. O‘g‘il bola sinaluvchilarimiz qiz bolalarga nisbatan maktabda ko‘proq xavotirlanar ekanlar. O‘g‘il bolalar qiz bolalarga nisbatan maktab hayotida ko‘proq emotsional stressga tushishlari ma’lum bo‘ldi. Bu o‘g‘il bolalardagi holatlarni o‘zini kuchli nazoratidan bo‘lsa ajab emas. Aynan o‘smirlik davri ularda fiziologik, biologik, ijtimoiy va psixologik o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Qiz bolalar ijtimoiy muhitga moslashishda uni atrofdagilar qanday qabul qilishida xavotirlik darajasini ortishini kuzatildi. Qiz bolalarda atrofdagi odamlar unga qanday munosabat bildirishi albatta muhimdir. Aynan qiz bolalarda muvaffaqiyatga erishishga bo‘lgan holatlar xavotirlanish darajasi yuqori ekan. Qiz bolalarda hayotda muvaffaqiyatga erishishni birinchi o‘ringa qo‘yib, muvaffaqiyatga erishmasligidan chiqishlarini kuzatdik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сидоренко Е.В. (2001). Методы математической обработки в психологии. - СПб.: Речь, - 350с.

2. Баева И.А., Семикин В.В. (2005). Безопасность образовательной среды, психологическая культура и психическое здоровье школьников // Известия российского государственного университета им. А.И. Герцена. Т.5. №12. С. 7-19.

3. Белобрыкина О.А., Бруско И.С. (2001)Тревожное состояние “человеческого фактора”. Реальность школьного образования. // Концепция философии образования и современная антропология: Материалы международного семинара. Новосибирск, С. 84

Mamirova Feruza Sulaymonovna
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail: sulaymonovnaferuza@gmail.com

ESHITISHDA NUQSONI MAVJUD BOLALARDA KOGNITIV JARAYONLAR RIVOJLANISHI MUAMMOSINING O`RGANILGANLIGINI NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada eshitishda nuqsoni mavjud bolalarni ilmiy tadqiq etish bo'yicha ko'plab tadqiqot ishlarining nazariy asoslari yoritilgan. Hamda ushbu maqolada xorij olimlarining eshitishda nuqsoni mavjud bolalar psixologiyasi bo'yicha olib borilgan ishlari yuzasidan to'liq ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari eshitishda nuqsoni mavjud bolalarda kognitiv jarayonlar rivojlanishi muammosini rus va chet el olimlari tomonidan o'rganilganligi yoritib berilgan. Bilish jarayonlarini o'rganish eshitish qobiliyati zaif maktabgacha yoshdagi bolalarda tasavvur jarayoni va psixologik holatni aniqlash uning to'liq rivojlanishini ta'minlaydigan shartlar biridir. Chet el psixologiyasi turli xil nazariy pozitsiyalar bilan ajralib turadi, unga ko'ra eshitish qobiliyati zaif odamlarning aqliy rivojlanishini tashxislash va tuzatish uchun uslubiy metodlar ishlab chiqilmoqda.*

Kalit so'zlar. *Idrok, sezgi, oliy psixik funksiyalar, tafakkur, psixika, tasavvur, analizator, aqliy operatsiyalar, mantiqiy fikirlash.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ У ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЕМ СЛУХА

Аннотация. *В данной статье освещены теоретические основы многих научных исследований по научному изучению детей с нарушением слуха. Также в данной статье представлена полная информация о работах зарубежных учёных по психологии слабослышащих детей. Кроме того, подчеркивается, что проблема развития познавательных процессов у детей с нарушением слуха изучалась российскими и зарубежными учеными. Исследование познавательных процессов является одним из условий, обеспечивающих полноценное развитие процесса воображения и психологического состояния слабослышащих детей дошкольного возраста. Зарубежную психологию отличают различные теоретические позиции, согласно которым разрабатываются методические методы диагностики и коррекции психического развития людей с нарушениями слуха.*

Ключевые слова. *Восприятие, интуиция, высшие психические функции, мышление, психика, воображение, анализатор, мыслительные операции, логическое мышление.*

THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE STUDY OF THE PROBLEM OF THE DEVELOPMENT OF COGNITIVE PROCESSES IN CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENT

Abstract. *This article covers the theoretical foundations of many research studies on the scientific study of children with hearing impairment. Also, this article provides complete information on the work of foreign scientists on the psychology of hearing-impaired children. In addition, it is highlighted that the problem of the development of cognitive processes in children with hearing impairment was studied by Russian and foreign scientists. The study of cognitive processes is one of the conditions that ensure the full development of the imagination process and psychological state of hearing-impaired preschool children. Foreign psychology is distinguished by various theoretical positions, according to which methodological methods are being developed for diagnosing and correcting the mental development of people with hearing impairment.*

Key words. *Perception, intuition, higher mental functions, thinking, psyche, imagination, analyzer, mental operations, logical thinking.*

Kirish. Ma'lumki, birlamchi nuqson ikkilamchi nuqsonlarni yetaklab keladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatining o'ziga xosligi ularni umumiy rivojlanishiga ham bevosita va bilvosita ta'sir qiladi.

Qadimgi yunon faylasufi Arastu inson sezgi a'zolaridan birining mavjud bo'lmasligi yoki uning buzilishi yaxlitlik va butunlikni izdan chiqarib, uning umumiy rivojlanishiga yo'l qo'ymasligini alohida ta'kidlaydi hamda eshitish analizatoriga quyidagicha baho beradi: "Tovush fikrlash vositasi bo'lib, eshitish atrof olamni anglashning muhim organidir. Shu bilan bog'liq ravishda aytish mumkinki, tug'ilgandan boshlab eshitmagan inson, tabiiyki, soqov bo'ladi" deb aytib o'tganlar. [1;2]

Adabiyotlar tahlili. Eshitish idroki buzilgan bolalarning psixologik xususiyatlari yuzasidan rus psixolog olimlari L.S.Vigotskiy, A.R.Luriya, A.N.Leontev, L.Ch.Ivanova, S.L.Rubinshteyn, A.V.Zaporojes, N.I.Jinkin, T.V.Axutinalar o‘z ishlarini olib borishgan.

Rus psixologlari ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazdilar, eshitish qobiliyati zaif odamlarning aql-idrokining turli jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan: aqliy operatsiyalarni o‘rganish, ularning karlarda shakllanishi va ishlashi turli yoshdagi bolalar (T.A.Grigoreva, 1981, Ye.M.Kudryavseva, 1962; M.M.Nudelman, 1962; T.V.Rozanova, 1966, 1978, 1981, 1985; I.M.Solovev, 1940, I960, 1962, 1971; J.L.Shif, 1968), har xil fikrlash turlarining xususiyatlari (A.A.Venger, 1984; A.V.Zaporojes, 1981, N.V.Lshkova, 1966, 1968, 1988), turli xil turlarning nisbati fikrlash (G.V.Rozanova, 1991,1997), sababiy munosabatlarni o‘rnatish (T.A.Grigoreva, 1973, 1985, 1990), faoliyatning neyrofiziologik jihatlari aql-idrok (M.N.Fishman, 2003), intellektual rivojlanish xususiyatlari eshitish qobiliyati past bolalar (Ye.L.Andreeva, 1973; A.Bassam, 1992; R.M.Boskis, 1963, 1968; I.M.Gilevich, 1973, 1980, 1981, 1982,1986; G.L.Zayseva, 1981; K.P.Korovin, 1976, 1982, 1985; L.V.Likolaeva, 1981; L.L.Tigranova, 1961, 1965, 1968, 1972, 1978, 1986, 1991) [2;3].

Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarni ilmiy tadqiq etish bo‘yicha N.V.Dobrinin, N.V.Kuzminina, I.V.Straxov, M.V.Gamezo, F.N.Gonobolin kabi bir qator olimlar tomonidan olib borilgan. Eshitish a’zolarining fiziologik asoslarini tushuntirishda esa rus fiziologlari I. P.Pavlov, A.A.Uxtomskiylarning olib borgan ishlari muhimligi bilan ajralib turadi. Ularning ta’limotlariga asosan, nutqning holatlari, sifatlari, xususiyatlari, birinchidan, qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarining o‘zaro birgalikdagi harakati bilan, ikkinchidan, miya strukturasida hukm suruvchi qo‘zg‘aluvchanlik bilan uyg‘unlikka egadir.[3]

Chet el psixologiyasi turli xil nazariy pozitsiyalar bilan ajralib turadi, unga ko‘ra eshitish qobiliyati zaif odamlarning aqliy rivojlanishini tashxislash va tuzatish uchun uslubiy metodlar ishlab chiqilmoqda. (J.P.Garden, 1994; H.G.Furt, 1971; R.U.Kelly, 2008; M. Marshak, 1997; D.Moores, 1987; L. Nunesetal, 2008; M.Vernon, 2005; P. Sullivan, L. Montoya, 1997 va boshqalar).

AQShda imo-ishora tili psixologiyasi imo–ishora tili imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish istagi bilan tavsiflanadi. Masalan: aqlni rivojlantirish uchun, shaxslararo muloqot vositasi va o‘rganishni tashkil qilish vositasi sifatida (M.Marshaka, 1997; M.Marshak, P.G.Xauser, 2008; D.Moores, 1987). [10]

Tahlil va natijalar. Zamonaviy maxsus ta’lim tizimining nazariy asoschisi L.S.Vigotskiy o‘z ilmiy qarashlarida ilgari surgan ko‘plab g‘oyalar bevosita bolalarning psixik taraqqiyotiga oiddir. L.S.Vigotskiyning oliy psixik funksiyalar shakllanishi haqidagi qonuni bolalar tarbiyasi va ta’limini amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Olimning ilmiy qiziqishlarining markazida bolaning ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti masalasi turadi. L.S.Vigotskiyning izlanishlari oliy psixik funksiyalar, yani ixtiyoriy xotira va diqqat, tafakkur, irodaviy harakatlarni bevosita miyaning faoliyati bilan tushuntirib bo‘lmasligini, ushbu funksiyalarning mohiyatini tushunish uchun ularning ildizlarini organizmdan tashqaridagi ijtimoiy muhitdan izlash lozimligini ko‘rsatdi. Aynan L.S.Vigotskiyning ilmiy qarashlari ijtimoiy muhit ahamiyatini aniqlashtirishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qildi. Shu bilan birga L.S.Vigotskiy eshitishda muammosi bo‘lgan bolalarni atroflicha o‘rgangan. Olim eshitishning buzilishi oqibatida yuzaga kelgan soqovlik – insoniy nutqning mavjud bo‘lmasligini keltirib chiqarsa, o‘z navbatida, nutqni egallay olmaslik umumiy madaniy rivojlanishiga katta salbiy ta’sir ko‘rsatishini alohida qayd etadi.[5]

A.N.Leontevning ilmiy qarashlari jahon psixologiya fani taraqqiyotida ulkan hissa bo‘lib qo‘shildi, ular bolalar psixologiyasi sohasida ko‘plab nazariy va amaliy muammolarni hal etish uchun ham zamin bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. [3.56 b].

A.V.Zaporojesning xizmati shundaki, eshitish qobiliyati zaif bolalar orasida u eshitish qobiliyatini maxsus psixologik va pedagogik yondashuvga loyiq deb ajratdi. Ushbu bolalarning karlardan ajralib turadigan asosiy xususiyati shundaki, ular mustaqil ravishda, yetarli darajada bo‘lmasa ham, og‘zaki nutqni o‘rganadilar. XX asrning 50-60-yillarida eshitish qobiliyati past bolalar uchun og‘zaki va yozma nutqda, rus tilida va maktab siklining boshqa fanlarida maxsus ta’lim tizimi ishlab chiqildi. O‘qitish uchun ikkita bo‘lim ajratilgan: I bo‘lim - eshitish qobiliyati nisbatan kichik bo‘lgan bolalar va talaffuz va tushunish xatolari bo‘lgan frazeologik nutq uchun; II bo‘lim - eshitish qobiliyati og‘irroq bo‘lgan va faqat eng asosiy nutqqa ega bolalar uchun. Biroz vaqt o‘tgach, eshitish qobiliyati past maktabgacha yoshdagi bolalar uchun maxsus ta’lim tizimi yaratildi.

Rus psixolog olimi L.Ch.Ivanovning fikricha: “Nutq tafakkur bilan chambarchas bog‘langandir. Odam nutqi bo‘lmasa, til vositalari bo‘lmasa fikr qilolmaydi. Tafakkur bo‘lmasa nutq til bo‘lishi mumkin emas,”- deydi. Ivanovning yuqoridagi fikridan ko‘rinib turibdiki, insonning psixik rivojlanishi uchun nutq

va tafakkur jarayonlari bir-biriga chambarchas bog‘liqdir. Tadqiqotchilar R.M.Boskis, I.M.Solovev, P.V.Rozanova, L.I.Tigranovaning isbotlashlaricha, nutqning rivojlanganligi qator salbiy omillarni: atrofni idroklash, ko‘rgazmali va so‘zli materiallarni eslab qolish, tafakkur operatsiyalarining rivojlanishiga xalaqit beradi.

R.M.Boskis eshitish analizatori funksiyasining nisbati oz bo‘lishi – shivirlashni idrok etish imkoniyatining chegaralanishi ham bola nutqining me’yorda rivojlanishiga, buning oqibatida mantiqiy tafakkurning shakllanishiga to‘sqinlik qilishini ko‘rsatib o‘tadi. [11].

I.M.Solovev atrofdagi haqiqatni idrok etishda analizatorlarning o‘zaro ta’siri muammosiga bag‘ishlangan, eshitish yoki vizual kabi muhim bo‘lgan bitta analizatorning buzilishi saqlanib qolgan analizatorlarning faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Eshitish qobiliyatining buzilishi vizual idrokning to‘liqligini pasaytiradi, kinestetik sezgirlikning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi va ayniqsa nutq organlarining kinesteziyasi (4, 54-bet).

I.M.Solovevning fikricha, eshitish qobiliyati zaif bolalarni idrok etishni rivojlantirishning yanada muhim omili, tadqiqotlar natijasida aniqlanganidek, obyektlarni belgilash, ularning qismlari va xususiyatlarini ta’kidlash vositasi sifatida nutqni bilish o‘lchovidir. Vizual idrok yetishda eshitish qobiliyati zaif bolalar aniq ajralib turadigan, yorqin, qarama-qarshi bo‘lgan narsalarning belgilariga ko‘proq e’tibor berishadi va muhim belgilarni ajratish qiyin, ayniqsa ular bo‘lsa. Obyektning asosiy aniqlovchi xususiyatlarini tezda aniqlay olmaslik vizual idrok tezligining pasayishiga olib keladi. Obyektni kontur bo‘yicha aniqlashda yanada katta qiyinchiliklar taktil idrokida eshitish qobiliyati buzilgan bolalarda kuzatiladi (4, 39-bet).

T.V.Rozanova tomonidan ilgari qabul qilingan obyektlarni ketma-ket yoki bir vaqtning o‘zida taqdim etish sharoitida tanib olish muvaffaqiyatini taqqoslash shuni ko‘rsatdiki, eshitish qobiliyati buzilgan bolalarga xos bo‘lgan o‘xshash obyektlarni aralashtirish ikki sababga bog‘liq. Birinchidan, eshitish qobiliyati zaif bolalarda, ularning vizual idrokining to‘liq emasligi, muhim, muhim xususiyatlarni aniqlashdagi qiyinchiliklar tufayli, obyektlarni ushlashning aniqligi biroz pasayadi. Ikkinchidan, eshitish qobiliyati zaif bolalar ilgari ko‘rilgan obyektni yangi qabul qilingan obyekt bilan aqliy taqqoslashda qiynalishadi, bu obyektlar tasvirlari bilan ishlashda yetarli erkinlik bilan bog‘liq. Boshqacha qilib aytganda, ikkinchi sabab-hayoliy fikrlashning kamchiliklari (1, 75-bet).

Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarning xayoliy xotirasining qayd etilgan xususiyatlari boshlang‘ich maktab yoshining boshida aniq namoyon bo‘ladi va boshlang‘ich maktab oxiriga kelib kamroq seziladi.

Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarning xayoliy xotirasida, shuningdek, yodlash va ko‘paytirish jarayonlarining umumiy naqshlarining namoyon bo‘lishi mavjud bo‘lib, ular materialni idrok etishda tushunish va og‘zaki bayon qilish, yodlash usullaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lib, keyinchalik bu materialning o‘zboshimchalik bilan ko‘payishiga yordam beradi. Ammo ular obyektlarning og‘zaki xususiyatlarini yodlash uchun yaxshi eshitadiganlarga qaraganda kamroq foydalanadilar va asosan o‘rta maktab yoshida. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalar tabiiy imo-ishoralar va an’anaviy belgilar belgilaridan foydalangan holda kodlashning boshqa vositalariga ham murojaat qilishadi. Umuman olganda, ular yodlash uchun vositalardan foydalanish qobiliyatini yaxshi eshitadiganlardan kam, bu ko‘payish unumdorligini pasaytiradi (13, 81-bet).

Eshitishda nuqsoni mavjud bolalar ruhiyatining o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish, diagnostika va korreksiya qilishda quyidagicha belgilanadi:

- Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarning ruhiy rivojlanishning umumiy va maxsus qonun-qoidalarini aniqlash;
- Eshitishda nuqsoni mavjud bolalar bilish faoliyatini rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish;
- Eshitishda nuqsoni mavjud bolalar ruhiy rivojlanish xususiyatlarini psixologik korreksiya va diagnostika qilish;
- Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarga pedagogik-psixologik ta’sir usullarini psixologik jihatdan asoslash;
- Eshitishda kamchiligi mavjud bolalarni diagnostikasi va korreksiyasi jarayonidir. [11]

Tadqiqotlarning aksariyati imo-ishora tili psixologiyasi bolalar aqlining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan boshlang‘ich va o‘rta maktab yoshidagi eshitish qobiliyatining buzilishi; shu bilan birga, tadqiqotlar eshitish qobiliyati buzilgan kattalar aqlining ishlashi kamdan - kam uchraydi-ikkalasi ham mahalliy va xorijiy maxsus psixologiya.[10]

Ba’zi xorijiy mualliflar uchun og‘zaki nutqning rolini kam baholash xarakterlidir. Ularning fikricha eshitishda nuqsoni bor bolalarning intellektual faoliyati, e’tiborga olish nutq va fikrlashning rivojlanish

jihatlaridan tashqarida o‘zaro ta’siri hamda ularning munosabatlaridagi o‘zgarishlar eshitish qobiliyati buzilgan bolaning o‘quv jarayoni namayon bo‘ladi.

L.S.Vigotskiy va uning izdoshlari nutq faoliyatini birlik sifatida tushunadilar aloqa va umumlashtiradilar. Kommunikativ funksiyani amalga oshirishda bu muhimdir, o‘z xatti-harakatlarini rejalashtirish (nutqning o‘zini o‘zi boshqarish funksiyasi, kabi aaleontiev tomonidan belgilangan). Intellektual funksiyani amalga oshirishda, o‘z xatti-harakatlarini rejalashtirish imkoniyati ham birinchi o‘ringa chiqadi, ya’ni har qanday intellektual faoliyatga xosdir. Ontogenezda nutq funksiyalari muayyan ketma - ketlikda shakllanadi-birinchi, kommunikativ, ichida keyingi-nominativ, normativ, rejalashtirish (A. K. Markova).[5]

Rus psixologlari (I.M.Slovev, T.V.Rozanova, N.V.Yashkova,) og‘zaki nutqni o‘zlashtiradigan eshitish qobiliyati zaif bolalar eshitadiganlarga qaraganda ancha kechroq va boshqa hissiy asosda, aql-idrok rivojlanishining barcha bosqichlarida sezilarli darajada o‘ziga xos xususiyatlarga ega kognitiv sohani tashkil etuvchi boshqa jarayonlarning rivojlanishi haqida o‘z ishlarida asoslab o‘tgan. Bu xususiyatlar vizual samarali fikrlashni shakllantirish bosqichida ham namoyon bo‘ladi (A.V.Zaporojes) va keyingi bosqichga o‘tishda signal fikrlash bo‘ladi.

Tasavvur jarayonini o‘rganib, olimlar ikkalasi ham bor degan xulosaga kelishdi, uning rivojlanishi va faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari va umumiy qonuniyatlari eshitish qobiliyati buzilgan va odatda eshitadigan bolalarda (L.S.Vigotskiy, A.V.Zaporojes, M.M.Nudelman, M.Yu.Rau, D.B.Elkonin va boshqalar). Ayni paytda, bolalarda tasavvurning o‘ziga xos xususiyatlarini maxsus tadqiqotlar eshitish qobiliyati juda kam, ularning aksariyati uzoq vaqt davomida bajarilgan va maktab yoshidagi bolalarda ushbu jarayonni o‘rganishga bag‘ishlangan (M.M.Nudelman, M.Yu.Rau, Ye.G.Rechiskaya, Ye.A.Soshina, L.I.Fomicheva), qaysi chegaralari ijodiy tasavvurni rivojlantirish bo‘yicha maxsus psixologiya g‘oyalari eshitish qobiliyati buzilgan maktabgacha yoshdagi bolalarda. Eshitish qobiliyatining ta’siri muammosini hisobga olgan holda aqliy rivojlanish bo‘yicha yetakchi olimlar (T.G.Bogdanova, R.M.Boskis, L.S.Vigotskiy, Ye.G.Rechiskaya, T.V.Rozanova, I.M.Solovyov, L.I.Tigranova, J.I.Shifa, N.Vlshkova va boshqalar) o‘qish zarurligini ta’kidladilar eshitish funksiyasi buzilgan bolalarning tasavvurlari. Teng, yo‘nalishlarni aniqlash masalasi va eshitish qobiliyati buzilgan maktabgacha yoshdagi bolalarning tasavvurini rivojlantirish uchun psixologik sharoitlar yetarli darajada o‘rganilmagan.[7] Shunday qilib, ehtiyoj xususiyatlarini o‘rganish eshitish qobiliyati zaif maktabgacha yoshdagi bolalarda tasavvur jarayoni va psixologik holatni aniqlash uning to‘liq rivojlanishini ta’minlaydigan shartlar, birida qo‘l, muammoning dolzarbligi va amaliy ahamiyatiga va boshqa tomondan qo‘l, bu sohada maxsus tadqiqotlar yo‘qligiga.[7]

Har qanday nutqni gapirmaydigan eshitish qobiliyati zaif bolalarning vizual samarali fikrlashining o‘ziga xos xususiyati shundaki, muammoni hal qilish prinsipini o‘tkazishda narsalarning aloqasi va bolaning o‘z harakati yetarlicha ajratilmagan (A.V.Zaporojes, 1980). Uning tafakkurini yanada rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydigan kar bolaga nutqni o‘rgatish uning 16 mavzu mazmuni bilan oldindan tanishishni ta’minlaydi. Ob’ektlarning belgilarini, ularning belgilarini va munosabatlarini o‘zlashtirish orqali bola ob’ektlarning tasvirlari bilan aqliy harakatlarni amalga oshirish qobiliyatiga ega bo‘ladi (I.M.Solovev, 1971;T.V.Rozanova, 1978;J.Sh.Pif, 1968).[8]

T.V.Rozanovaning fikriga ko‘ra 10-11 yoshda eshitish qobiliyati zaif bolalar aniq konseptual fikrlashni rivojlantirishda davom etadilar. Shu bilan birga, kar bolalar yosh bolalar uchun juda qulay bo‘lgan og‘zaki tuzilgan vazifalarni hal qilishda katta qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Ko‘pgina kar bolalar sabab-oqibat va maqsadli munosabatlarni ifodalash uchun zarur bo‘lgan nutq tuzilmalarini o‘zlashtiradilar, lekin ulardan qanday qilib to‘g‘ri foydalanishni bilishmaydi (T.A.Grigoreva, 1973).[9]

Eshitish qobiliyati zaif bolalarda og‘zaki va mantiqiy fikrlashni shakllantirishda yanada o‘ziga xoslik mavjud eshitish bolalaridagi rivojlanishi bilan taqqoslaganda. L.L.Tigranova eshitish va zaif eshitish o‘rtasidagi sezilarli farqlarni ta’kidlaydi eshitish qiyin bo‘lgan yosh maktab o‘quvchilari nutqning turli xil roli bilan belgilanadi ularning aqliy faoliyati jarayoni. Og‘zaki va mantiqiy to‘liq rivojlanish fikrlash intellektual rivojlanishning eng yuqori bosqichi sifatida nutq darajasiga bog‘liq bolalarning rivojlanishi va aqliy harakatlarni shakllantirish va amalga oshirishning muvaffaqiyati Bu asosan intellektual jarayonda nutqning ishtiroki darajasi bilan belgilanadi faoliyat.

Tadqiqot yondashuvlarini amalga oshirish uchun aniq narsalarga tayanish kerak tegishli tanlashga imkon beradigan uslubiy pozitsiyalar diagnostika vositalari va olingan natijalarni tahlil qilish. Sifatida L.S.Vigotskiy yozgan: "hech bir fan bunday xilma-xillik va to‘liqlikni taqdim etmaydi uslubiy muammolar, bunday mahkam siqilgan tugunlar, erimaydigan qarama-qarshiliklar biznikidek. Shuning uchun, bu yerda

ming qadam tashlamasdan bitta qadam tashlash mumkin emas dastlabki hisob-kitoblar va ogohlantirishlar ".[5] Amaliy tajriba ham muhimdir. Muayyan uslubiy pozitsiyalarni amalga oshirishning bir jihati, chunki ular odamlar uchun ma'lum bir ta'lim tizimini tanlashni aniqlang nogironlar, shu jumladan eshitishda nuqsoni mavjud bo'lgan insonlar.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkin-ki, eshitishida nuqsoni bor bolalar uchun vizual idrok atrofdagi dunyo haqidagi g'oyalarning asosiy manbai va boshqa odamlar bilan muloqot qilish, ularga qaratilgan nutqni idrok etish imkoniyatini beradigan kanaldir. Qisqa muddatli idrok tufayli eshitishida nuqsoni bor bo'lgan bola obyektning tafsilotlarini ko'rmaydi. Obyektni uning konturi bo'yicha tanib olish qobiliyati asta-sekin shakllanadi, chunki u tahlil va abstraksiyaning ma'lum darajada rivojlanishini talab qiladi. To'liq bo'lmagan tahlil ko'pincha elementlarning noto'g'ri kombinatsiyasiga olib keladi.

Vizual idrok etish tezligi eshitishida nuqsoni bor bolalarga kam ma'lum bo'lgan narsalar, shuningdek, to'liq idrok etish uchun ularni ilgari ma'lum bo'lgan raqamlar bilan bog'lash zarur bo'lgan turli xil elementlar idrok etilganda past bo'ladi.

Eshitishida nuqsoni bor bolalarning vizual yani ko'ruv idrokini rivojlantirishga alohida e'tibor berish kerak, chunki u ta'lim va tarbiyaning asosi, bilim, shaxsiy tajriba va ko'nikmalarni shakllantirishdir. Idrok, tasavvur va tafakkurni tevarak-atrofdagi voqelikni idrok etishga qaratilgan yagona tizimga birlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Розанова Т. В. Особенности развития познавательной сферы глухих школьников. //Дефектология. - 1997. - № 2. -б.102-107.
2. Петшак, В. Изучение эмоциональных проявлений у глухих и слабослышащих младших школьников/ В. Петшак// Дефектология. - 1989. № 4. -б.66-70.
3. Веронова Т.В. Theory and practice of correctional pedagogy. - Минск .: 2007.
4. Соловьев И. М. Очерки психологии глухонемого ребенка/ И.М.Соловьев.- М.:Наука, 1990.-170 б.
5. Выготский Л. С. Проблемы дефектологии/Л. С. Выготский. - М.: Просвещение, 1995.-157 б.
6. Запорожец А. В. Роль элементов практики и речи в развитии мышления у детей (на материале глухонемых детей)/ А. В. Запорожец.- М.: Просвещение, 1996. – 304 б.
7. Труханова Ю.А Психологические условия развития воображения у слабослышащих старших дошкольников. Автореферат. 2011
8. Розанова, Т. В. Развитие памяти и мышления глухих детей/ Т.В.Розанова.- М.: Мнемозина, 1998.-106 б.
9. Мамирова, Ф. (2023). Зрительное восприятие - как фактор психологического развития у детей с нарушениями слуха. *Talqin Va Tadqiqotlar*, *1*(24). извлечено от https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/1615
10. Mamirova , F. (2023). Eshitishida nuqsoni bor bolalarda vizual idrok rivojlanishining psixologik xususiyatlari. *Interpretation and Researches*, *1*(17). извлечено от https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/1498
11. Feruza Sulaymonovna Mamirova (2023). Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda tafakkur rivojlanishining psixologik xususiyatlari. Academic research in educational sciences, 5 (NUU Conference 2), 395-399.

Mullabayeva Nozima Maxmudjanovna
Psixologiya fanlari doktori (DSc)

BULLINGNI HIS QILISH DARAJALARI VA NATIJALARINING TAHLILI

Annotatsiya. *Hozirgi kunda ta'lim sohalarining barcha jabhasi bulling va viktim xulq atvor shakllari avj olib bormoqda. Bulling xulq atvor shakllari O'zbekiston sharoitida keyingi yillarda o'rganila boshlandi, biroq bu tadqiqotlar yetarli darajada emasligi ba'zi bir muammolar doirasida kuzatilmoqda. Maqolada muallif tomonidan moslashtirilgan SMOB savolnomasi va sotsiometriya, bulling tuzilma, guruhiy jipslikni aniqlash metodikalarining bog'liqlik qonuniyatlari o'rganilgan va statistik jihatdan tahlil qilib berilgan. Maqola doirasida nazariy ma'lumotlar tahlil qilinib, amaliy jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *bulling, bulling tuzilma, mobbing, initsiator, himoyachi, lider autsayder, kuzatuvchi, yordamchi, qurbon, guruhiy jipslik, bulling qurbonlari, bulling darajalari, bullingni his qilish.*

АНАЛИЗ УРОВНЕЙ ВОСПРИЯТИЯ И РЕЗУЛЬТАТОВ БУЛЛИНГА

Аннотация. *Сегодня буллинг и виктимизация широко распространены во всех аспектах образования. Формы буллингного поведения изучаются в последние годы в условиях Узбекистана, однако отмечается, что по некоторым проблемам эти исследования недостаточны. В статье изучаются и статистически анализируются адаптированный автором опросник СМОБ, а также закономерности зависимости социометрии, структуры буллинга, методы определения групповой сплоченности. В рамках статьи анализируются и обосновываются в практическом плане теоретические сведения.*

Ключевые слова. *травля, структура буллинга, моббинг, инициатор, защитник, лидер-аутсайдер, наблюдатель, помощник, жертва, групповая сплоченность, жертвы травли, уровни травли, восприятие буллинга.*

ANALYSIS OF BULLING PERCEPTION LEVELS AND OUTCOMES

Annotation. *Bullying and victimization are rampant in all aspects of education today. Forms of bullying behavior have been studied in recent years in the conditions of Uzbekistan, but it is observed that these studies are insufficient in terms of some problems.* In the article, the SMOB questionnaire adapted by the author and the laws of dependence of sociometry, bulling structure, methods of determining group cohesion are studied and statistically analyzed. Within the framework of the article, theoretical information is analyzed and justified in practical terms.

Keywords: *bullying, bullying structure, mobbing, initiator, defender, leader outsider, observer, helper, victim, group cohesion, victims of bullying, levels of bullying, perception of bullying*

Kirish. Bulling (inglizcha - bullying) tushunchasi bezorilik, qo'rqitish, shuningdek, bir jamoa a'zosining boshqa a'zolar yoki muayyan bir a'zo tomonidan agressiv ravishda ta'qib qilinishini bildiradi. Ta'qib qilinish jarayonida qurbon o'ziga nisbatan amalga oshirilgan zo'ravonlikka nisbatan hech qanday javob qaytara olmasligi mumkin. Nizolar ham shunga o'xshash bo'lishi mumkin, biroq nizolarda asosan kuchlar teng bo'ladi. Ta'qib qilish haqorat, tahdid, jismoniy agressiya ko'rinishlarida doimiy ravishda qurbonga va uning faoliyatiga nisbatan salbiy baho berish, ishonchsizlik bildirish kabilarni kiritishimiz mumkin. Bulling turli xil yosh va ijtimoiy guruhlarda jismoniy va psixologik shakllarda sodir bo'lishi mumkin. Murakkab vaziyatlarda esa guruhiy jinoyatchilikni keltirib chiqarishi mumkin. Bulling o'ziga ishonch tuyg'usining yo'qolishiga sabab bo'lishi mumkin, u turli xil psixik kasalliklar, turli darajadagi psixik og'ishlar va hattoki o'z joniga qasd qilishga urinishga ham olib kelishi mumkin. Bunday holatlarda shaxsga agressiv ravishda ta'qib qilinayotganligini tushuntirish va bunday vaziyatlarda o'zini qanday tutish bo'yicha yo'l-yo'riq berish kerak bo'ladi [1].

Bulling (ba'zida «mobbing» atamasi ham qo'llaniladi) – bu murakkab sotsial fenomen bo'lib, insonning jamoadagi hayoti davomida davom etib kelayotgan murakkab jarayondir. Ko'pgina holatlarda kuchlarning teng bo'lmaganida muntazam agressiv xulq-atvor namoyon bo'lishi bilan belgilanadi. Bullingga xos bo'lgan xususiyatlardan biri bu maqsadning mavjudligi, doimiylik, kuch yoki hokimiyatning teng emasligi hisoblanadi. Chet el psixologiyasida ta'lim psixologiyasi doirasida bu mavzu juda keng yoritilgan. Ta'lim tizimidagi ta'qib tushunchasi birinchi bor 1905 - yildagi maqolalarda o'z aksini topgan bo'lsa-da (Klement Dukas), bu mummoga skandinaviyalik olimlar katta hissa qo'shganlar: shved shifokori

Peter-Paul Xaynemann, norvegiyalik psixolog tadqiqotchi Dan Olveus, pedagog va sotsiolog Erling Georg Rulann, eston-shved kognitiv psixologi Anatol Pikaslar shular jumlasidandir. Oxirgi yillarda ta'lim jarayonida bulling profilaktikasiga katta hissa qo'shgan olim sifatida fin psixologi Kristina Salmivallini keltirib o'tish o'rinlidir. Ayniqsa, Dan Olveusning ilmiy ishlari alohida ahamiyatga egadir, uning sa'y-harakati bilan dunyo psixologiyasi bullingga alohida e'tibor qaratila boshlandi [2; 3;].

Birinchi navbatda skandinaviyalik psixologlarning tadqiqotlari natijasida bulling profilaktikasining fenomenologik va texnologik jihatlari tahlil qilingan va ularning tahlili natijasida dunyo olimlari bulling bo'yicha ilmiy tahlillarni amalga oshira boshladilar. Bu mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, hamma bullingning barcha ishtirokchilarida og'ir asoratlar saqlanib qolishi bilan izohlanadi. Rossiyada bulling va ta'qib mavzusi bo'yicha turli davrlarda turli olimlar tadqiqot olib borganlar: I.S.Kon, S.N.Yenikolopov, V.S.Sobkin, S.V.Krivsova, A.A.Bochaver, K.D.Xlomovlar shular jumlasidandir. Bulling fenomeni shaxs psixologiyasi, sotsial va klinik psixologiyaning predmeti sifatida o'rganilmoqda. Munosabatlar, agressiyalar, hokimiyatni o'rganish maqsadida eksperimentlar o'tkazilgan (eng yorqin eksperimentlardan Stenli Milgrem elektrik kuchlanishlar bilan va Filipp Zimbardoning qamoq eksperimenti), ulardan olingan ma'lumotlar tahlili ko'plab olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keltirib o'tilgan [4; 5;].

Metodlar. Shaxsning psixologik xavfsizligiga doir ilmiy asoslangan metodikalardan X.Kasperning «Maktabdagi mobbing» so'rovnomasi (SMOB), Dj.Morenoning «Sotsiometriya» metodikasi, Guruhiy jipslikni aniqlash metodikasi, Ye.Rollandning «Bulling tuzilmasini aniqlash» metodikalari;

Natijalar va munozaralar. SMOB so'rovnomasi bizning tadqiqotimizda asosiy metodikalardan biri bo'lganligi sababli ilovada keltirilgan 55 ta savolga respondentlar tomonidan berilgan tasdiqlovchi javoblar asosida "Bullingni his qilish" darajasini aks ettiruvchi maxsus shkala ishlab chiqildi.

Bu shkala natijalarini tahlil qilib «Bullingni his qilish" shkalasi bo'yicha birlamchi statistik tahlil natijalari quyidagi jadvalda keltirdik.

Jadval-1

Bullingni his qilish shkalasini birlamchi statistika tahlili

Statistik ko'rsatgichlar	Hisoblash natijalari
N	2696
Minimal qiymat	0
Maksimal qiymat	55
O'rtacha	5,56
Standart og'ish	4,331
Asimmetriya	3,313
Ekssess	28,978

Bullingni his qilish shkalasi bo'yicha sinaluvchilarimizning minimal ballari 0 ballga teng bo'lsa, maksimal ball 55 ni tashkil qildi. Bu shkala bo'yicha o'rtacha qiymat 5,56 ballni tashkil qilgan bo'lsa, standart og'ishi 4,331 ni tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin. Asimmetriya ko'rsatkichi 3,313 ni ko'rsatdi va bu aksariyat sinaluvchilarning mazkur shkala bo'yicha past qiymatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Ekssess ko'rsatkichining haddan ziyod oshganligi ham aksariyat o'quvchilar bullingni his qilish darajasining juda past darajasini, juda kam sonli o'quvchilargina bu ko'rsatgichning yuqori darajalarini namoyon qilganini bildiradi. Ushbu jadvaldagi o'rtacha-statistik ko'rsatgichlar asosida «Bullingni his qilish «shkalasining standart me'yorlari belgilab olindi va mazkur standart me'yorlar asosida barcha respondentlar "Bullingni his qilish" darajalariga ko'ra beshta guruhga ajratildilar (3.1.2-jadval):

Birinchi guruh «Sinfdagi bulling holatini mutlaqo his etmaslik». Ushbu guruhga 0 ball olgan sinaluvchilarni kiritildi ularning soni 320 nafarni (11,9%) tashkil qildi.

Jadval-2

Tadqiqot ishtirokchilarining bullingni his qilish darajasiga ko'ra taqsimlanishi

Bullingni his qilish darajalari	Ballar	Respondentlar soni	Foizi
Sinfdagi bulling holatini mutlaqo his etmaslik	0 ball	320	11,9%
O'rta darajadagi bullingni his qilish	1-9 ball	2158	80,0%
O'rtachadan yuqori darajadagi bullingni his qilish	10-14 ball	139	5,2%

Yuqori darajadagi bullingni his qilish	15-19 ball	46	1,7%
O‘ta og‘ir darajadagi bullingni his qilish	20-55 ball	33	1,2%
Jami		**2696**	100,0%

Ikkinchi guruh “O‘rta darajadagi bullingni his qilish” bo‘lib, bunga 1-9 ball oralig‘idagi sinaluvchilarni kiritildi. Ularning soni 2158 nafarni (80,0%) tashkil qildi.

Uchinchi guruh “O‘rtachadan yuqori darajadagi bullingni his qilish holatlari bo‘lib, bularga 10-14 ball oralig‘idagi sinaluvchilar kiritildi. Ushbu guruhga kiruvchilarning umumiy soni 139 nafarni (5,2%) tashkil qildi.

To‘rtinchi guruhga «Yuqori darajadagi bullingni his qiluvchi» o‘quvchilar kiritilgan bo‘lib, ularning umumiy soni 46 nafar (1,7%) va bullingni his qilish darajasi 15-19 ballni tashkil etadi.

Beshinchi guruh «O‘ta og‘ir darajadagi bullingni his qiluvchi» 33 nafar (1,2%) o‘quvchidan iborat bo‘lib, ular mazkur shkala bo‘yicha 20 balldan yuqori ko‘rsatgichlarni namoyon etganlar.

Jadval-3

Bullingni his qilish darajasining jins kesimida taqsimlanishi (Xi-kvadrat mezoni)

Bullingni his qilish darajalari	**Jinsi**		**Jami**
	Qiz bolalar (N=1491)	**O‘g‘il bolalar (N=1205)**	
Sinfdagi bulling holatini mutlaqo his etmaslik	12,20	11,50	11,90
O‘rta darajadagi bullingni his qilish	80,10	79,90	80,00
O‘rtachadan yuqori darajadagi bullingni his qilish	4,70	5,70	5,20
Yuqori darajadagi bullingni his qilish	2,00	1,30	1,70
O‘ta og‘ir darajadagi bullingni his qilish	0,90	1,60	1,20
Jami	100,00	100,00	100,00

Bullingni his qilish darajasining jinslar kesimida taqsimlanishi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi (3-jadval). Bullingni his qilish darajasi bo‘yicha jins tafovutlari mavjud yoki mavjud emasligini tahlil qilishga harakat qildik natijalar tahliliga ko‘ra ishonch darajasidagi jins tafovutlari aniqlanmadi (χ^2=5,742; p>0,05).

Keyingi jadvalda o‘quvchilar tomonidan bullingni his qilish darajasini sinflar kesimida tahlil qilinadi (4-jadval).

Olingan natijalar tahliliga ko‘ra bullingni his qilish darajasi qaysi sinfda o‘qiyotganligiga aloqador bo‘lishi mumkin ekan (χ^2=108,486; p<0,001). Natijalar tahliliga ko‘ra 11-sinf o‘quvchilarida bulling holatlari mavjud emasligi yoki o‘rta darajadagi bullingni his qilish holatlari mavjudligi aniqlandi. 6-sinf o‘quvchilarida esa o‘ta og‘ir darajadagi bullingni his qilish holatlarini kuzatishimiz mumkin.

Jadval-4

Bullingni his qilish darajasining sinflar kesimida taqsimlanishi (Xi-kvadrat mezoni)

Bullingni his qilish darajalari	**5-sinf (N=62)**	**6-sinf (N=200)**	**7-sinf (N=580)**	**8-sinf (N=684)**	**9-sinf (N=686)**	**10-sinf (N=443)**	**11-sinf (N=41)**	**Jami**
Sinfdagi bulling holatini mutlaqo his etmaslik		5,50	10,00	9,60	12,20	20,10	29,30	11,90
O‘rta darajadagi bullingni his qilish	88,70	86,00	79,50	82,20	83,10	70,20	65,90	80,00
O‘rtachadan yuqori dara-jadagi bullingni his qilish	9,70	4,50	7,80	4,80	3,40	4,70	4,90	5,20
Yuqori darajadagi bullingni his qilish	1,60	0,50	2,20	1,60	0,90	3,20		1,70
O‘ta og‘ir darajadagi bull-ingni his qilish		3,50	0,50	1,80	0,40	1,80		1,20
Jami	**100,00**	**100,00**	**100,00**	**100,00**	**100,00**	**100,00**	**100,00**	**100,00**

Bullingni his qilish darajasining guruhiy faoliyat davomiyligiga bog‘liqligi tahlil qilinganda (3.1.5-jadval), ishonchli farqlar aniqlandi (χ^2=99,904; p<0,001). Sinfdagi bulling holatini mutlaqo his etmaslik

bir yil birga o‘qigan guruhlarda bo‘lsa, o‘ta og‘ir darajadagi bulling holati ikki yildan beri o‘qiyotgan bolalarda kuzatildi. Bir yil davomida o‘qish vaqtida o‘quvchilar yangi kelgan o‘quvchini tanimaydilar va undan nima kutish mumkinligini anglamaydilar.

Shu sababli ham ulardagi bulling bir yil o‘qiyotgan bolalarga nisbatan bo‘lmasligi mumkin. O‘ta og‘ir darajadagi bulling holatlari sinfda ikki yil o‘qiyotgan bolalarda kuzatilishi mumkin ekan, ya’ni bunday bolalarga ta’sir ko‘rsatish vaqtida ular bunga yetarlicha javob qaytarmasalar, bulling holati kuchayib ketishi mumkin. O‘rta darajadagi bullingni his qilish esa deyarli o‘qiyotgan yiliga bog‘liq emas ekan, deyarli 80 foizga yaqin o‘quvchilarda o‘rta darajadagi bulling ko‘rinishlari qaytarilishi mumkin ekan.

Jadval-5

Bullingni his qilish darajasining guruhiy faoliyat davomiyligiga bog‘liqligi (Xi-kvadrat mezoni)

Bullingni his qilish darajalari	1 yil (N=120)	2 yil (N=89)	3 yil (N=99)	4 yil (N=113)	5 yil (N=117)	6 yil (N=190)	7 yil (N=378)	8 yil (N=341)	9 yil (N=362)	10 yil (N=159)	Jami
Bulling holatini mutlaqo his etmaslik	24,90	8,60	9,20	12,90	6,30	8,80	10,60	11,60	11,60	14,00	11,90
O‘rta darajadagi bull-ingni his qilish	69,90	76,70	80,90	82,20	84,00	81,20	81,50	81,00	83,40	72,30	80,00
O‘rtachadan yuqori da-rajadagi bullingni his qi-lish	3,10	6,90	7,60	2,50	7,60	5,90	6,30	4,80	3,50	6,20	5,20
Yuqori darajadagi bull-ingni his qilish	1,00	4,30	1,50	1,20	0,70	1,70	1,40	1,10	1,00	5,40	1,70
O‘ta og‘ir darajadagi bullingni his qilish	1,00	3,40	0,80	1,20	1,40	2,50	0,20	1,60	0,60	2,10	1,20
Jami	**100**	**100**	**100**	**100**	**100**	**100**	**100**	**100**	**100**	**100**	**100**

Maktab o‘quvchilari o‘rtasida bullingni his qilish darajasining ayrim ijtimoiy-demografik ko‘rsatgichlarga bog‘liqligini (6-jadval) tahlil qilganimizda ishonchli tafovutlar mavjudligini, ya’ni yosh ko‘rsatkichi va bullingni his qilish darajasi ko‘rsatgichlari o‘rtasida ishonch darajasidagi farq mavjudligini kuzatishimiz mumkin (H=28,18; p<0,001).

Jadval-6

Maktab o‘quvchilari o‘rtasida bullingni his qilish darajasining ayrim ijtimoiy-demografik ko‘rsatgichlarga bog‘liqligi (Kruskal-Uollis N-mezoni)

Ko‘rsatgichlar	O‘rtacha ranglar					H	p
	Bulling holatini mutlaqo his etmaslik (N=320)	O‘rta darajadagi bull-ingni his qilish (N=2158)	O‘rtachadan yuqori darajadagi bullingni his qilish (N=139)	Yuqori darajadagi bull-ingni his qilish (N=46)	O‘ta og‘ir darajadagi bullingni his qilish (N=33)		
Yoshi	1523,97	1328,47	1178,50	1511,17	1445,91	28,18	0,000**
Sinfi	1618,08	1318,31	1187,53	1428,24	1275,44	50,76	0,000**
Oilada nechanchi farzand	1303,49	1353,26	1319,22	1412,52	1507,86	3,36	0,499
Oilada nechta farzand	1366,52	1346,42	1350,53	1357,39	1288,80	0,44	0,979
Shu sinfda o‘qiyotganiga necha yil bo‘ldi	1314,83	1353,99	1308,63	1502,50	1269,36	3,28	0,512

Izoh: ** - p<0,01.

Jadvaldagi raqamlarga qaraganda, sinaluvchilarimizning yoshlari qanchalik katta bo‘lsa, bullingni his qilish darajasi shunchalik pasayishi kuzatilar ekan. Bullingning yuqori va o‘ta yuqori darajasi taxminan 7- va 8-sinflar oralig‘ida ko‘proq sodir bo‘lishi mumkin ekan, quyi va yuqori sinflarda, ya’ni 5-sinf hamda 11-sinf o‘quvchilarida bullingni his etish darajalari kamroq foizni tashkil qilishini kuzatish mumkin.

Keyingi jadvalda Maktab o‘quvchilarida bullingni his qilish darajasining Bullingni aniqlash metodikasi shkalalariga bog‘liqligi bo‘yicha tahlil natijalari keltirilgan (7-jadval). Initsiatorlar va bulling darajalarini tahlil qilganimizda quyidagi holatlarni kuzatdik (H=56,34; p<0,001). Ya’ni Initsiatorlik

darajasi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar sinfdagi bulling holatini mutlaqo his etmas ekanlar, yoki initsiatorlarning bullingga uchrash darajalari past bo‘lar ekan. Yordamchilar esa aksariyat hollarda yuqori darajadagi bullingni his etishlari mumkin ekan (H=41,23; p<0,01). Yordamchilarning mazkur natijalari bizni qiziqtirdi, chunki adabiyotlar tahlilida yordamchi bulling initsiatoriga yordam beradigan va uni dastaklaydigan inson sifatida keltirib o‘tilgan. Aynan bulling yordamchilarining yuqori darajada bullingni his qilishlari ularning ixtiyoriy va ongli ravishda initsiatorga yordam berish vazifasini bajarishlaridan guvohlik bermoqda. Ehtimol, «yordamchilar» bulling qurboni bo‘lmaslikka harakat qilib, bulling initsiatorlariga yordam berishga kirishishlari ham mumkin.

Jadval-7

Maktab o‘quvchilarida bullingni his qilish darajasining Bullingni aniqlash metodikasi shkalalariga bog‘liqligi (Kruskal-Uollis N-mezoni)

Ko‘rsatgichlar	O‘rtacha ranglar					H	p
	Bulling holatini mut-laqo his etmaslik (N=320)	O‘ rta darajadagi bullingni his qilish (N=2158)	O‘ rtachadan yuqori darajadagi bullingni his qilish (N=139)	Yuqori darajadagi bullingni his qilish (N=46)	O‘ ta og‘ ir darajadagi bullingni his qilish (N=33)		
Initsiator	1637,65	1320,32	1224,24	1109,82	1243,20	56,34	0,000**
Yordamchi	1102,79	1375,57	1453,67	1533,03	1260,95	41,23	0,000**
Himoyachi	1693,42	1328,56	1039,97	989,05	1108,64	99,92	0,000**
Qurbon	1163,07	1381,19	1312,78	1190,45	1379,55	24,88	0,000**
Kuzatuvchi	1047,96	1381,86	1475,63	1344,80	1550,80	59,13	0,000**

Izoh: ** - p<0,01.

«Himoyachilar»ning bullingni his qilish darajasi juda past ekanligi aniqlandi (H=99,92; p<0,001). «Himoyachilar» aksariyat hollarda norasmiy liderlar hisoblanib, bunday sinaluvchilarni butun sinf har doim hurmat qiladi, chunki ular bulling qurbonlarini himoya qila oladigan yagona inson bo‘lib hisoblanadi. Shu sababli ham ularning bullingga uchrash ehtimollari kam bo‘ladi. Bulling «qurbonlari» albatta o‘ta og‘ir darajadagi bullingdan aziyat chekadigan o‘quvchilar hisoblanadilar (H=24,88; p<0,01). Bu ko‘rsatkichda ham «qurbonlar» tomonidan bullingni his qilish darajasining yuqori ekanligini kuzatishimiz mumkin (7-jadval).

Bulling «kuzatuvchilari» ham yuqori darajadagi bullingni his etishlarini kuzatishimiz mumkin (H=59,13; p<0,01). Aynan bulling «qurboni» bo‘lmaslik uchun ham ular bulling kuzatuvchisi bo‘lib qolishga intilishga harakat qilishlari mumkin. Keyingi bosqichda maktab o‘quvchilarida bullingni his qilish darajasining «Sotsiometriya» hamda Guruhiy jipslikni aniqlash metodikasi shkalalariga bog‘liqligi tahlil qilindi (8-jadval).

Jadval-8

Maktab o‘quvchilarida bullingni his qilish darajasining «Sotsiometriya» hamda «Guruhiy jipslikni aniqlash» metodikasi shkalalariga bog‘liqligi (Kruskal-Uollis N-mezoni)

Ko‘rsatgichlar	O‘rtacha ranglar					H	p
	Bulling holatini mut-laqo his etmaslik (N=320)	O‘ rta darajadagi bullingni his qilish (N=2158)	O‘ rtachadan yuqori darajadagi bullingni his qilish (N=139)	Yuqori darajadagi bullingni his qilish (N=46)	O‘ ta og‘ ir darajadagi bullingni his qilish (N=33)		
Qabul qilinish darajasi	1426,63	1341,53	1253,73	1438,74	1320,29	6,17	0,187
Rad etilish darajasi	1385,88	1331,61	1452,17	1401,86	1579,47	7,54	0,110

Liderlik-autsayderlik	1471,33	1339,21	1222,81	1440,34	1166,15	14,45	0,006**
Guruhiy jipslik indeksi	1413,33	1337,88	1342,67	1439,18	1312,18	3,33	0,504

Izoh: ** - p<0,01.

Natijalar tahlilini amalga oshirish jarayonida «Liderlik-autsayderlik» shkalasi bo‘yicha ishonch darajasidagi farq mavjudligi aniqlandi (H=14,45; p<0,01). O‘quvchilarning liderlik darajasi yuqoriligi ularda sinfdagi bullingni his etish ko‘rsatgichlarining pasayishini ta’minlaydi va bu natija liderlarning bullingga uchrash ehtimoli juda kamligidan dalolat beradi. Autsayderlik darajasining yuqoriligi esa, aksincha, o‘ta og‘ir darajadagi bulingga uchrash ehtimolini oshirar ekan. Guruhiy jipslik indeksi bilan bullingni his qilish darajasi o‘rtasida ishonch darajasidagi statistik bog‘liqlik aniqlanmadi.

Xulosa qilib aytganda, keltirib o‘tilgan ma’lumotlar tahlili o‘quvchilardagi bullingni his qilish darajasi turli xil omillarga bog‘liq bo‘lar ekan. Bolalarda liderlik va initsiatorlik xislatlari shakllanganda bullingni his qilish darajasi pasayib borishi aniqlandi, bulling qurbonlari, bulling yordamchilari va bulling kuzatuvchilarida esa bullingni his qilish darajasi ortib borishi kuzatildi.

Adabiyotlar

1. Андронникова О.О. Онтогенетическая концепция виктимности личности: Дисс. … д-ра психол. наук / О.О. Андронникова. – Новосибирск, 2018. – 566 с

2. Бочавер А.А. Кибербуллинг: травля в пространстве современных технологий / А.А. Бочавер, К.Д, Хломов // Психология. Журнал Высшей школы экономики. – 2014. – Т. 11. – № 3. – С. 177–191

3. Буданов А.В. Педагогика личной профессиональной безопасности сотрудников органов внутренних дел / А.В. Буданов. – М.: Академия МВД России, 1997. – 39 с

4. Кон И.С. Что такое буллинг и как с ним бороться? / И.С. Кон // Семья и школа. – 2006. – №11. – С.15-18.

5. Кондрашенко, В.Т. Девиантное поведение у подростков / В.Т. Кондрашенко. – Минск: Беларусь, 1988. – 202 с.

UDK 159.922.4

Nasimdjanova Maxsuma Majidovna
Profi universiteti “Pedagogika va psixologiya”
kafedrasi dotsenti (PhD)

INKULTURATSIYA JARAYONIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Annotatsiya. *Maqolada shaxsda inkulturatsiya jarayoniga ta’sir ko’rsatuvchi yetakchi omillar ko’rib chiqilgan. Respondentlarning o‘z madaniy urf-odatlari, an’analari, qadriyatlariga munosabati, ularni asrab-avaylash va avloddan-avlodga yetkazish borasidagi qarashlarini o‘rganishga qaratilgan mualliflik so‘rovnomasi natijalari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *inkulturatsiya, integratsiya, madaniyat, urf-odatlar, an'analar, jamiyat, millat.*

ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА ПРОЦЕСС ИНКУЛЬТУРАЦИИ

Аннотация. *В статье рассматривается ведущие факторы влияющие на процесс инкультурации личности. Анализируется результаты авторского опросника направленного на изучение отношение +респондентов к своим культурным обычаям, традициям, ценностям, взгляды на их сохранение и передачу из поколения в поколение.*

Ключевые слова: *инкультурация, интеграция, культура, обычии, традиции, общество, национальность.*

FACTORS AFFECTING THE PROCESS OF INCULTURATION

Annotation. *The article discusses the main factors influencing the process of inculturation of the individual. The results of the author's questionnaire aimed at studying the attitude of the population to their cultural customs, traditions, values, views on their preservation and transmission from generation to generation are analyzed.*

Key words: *inculturation, integration, culture, customs, traditions, society, nationality.*

Kirish. Inson–ijtimoiy mavjudot. Hayotining dastlabki kunlaridanoq, o‘zi kabi odamlar orasida kamol topadi, turlicha ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarga kirishadi. Ijtimoiy muloqotning birinchi tajribasini inson so‘zlashuvdan oldin egallaydi. Sotsiumning bir bo‘lagi sifatida o‘z shaxsining ajralmas qismi bo‘lgan ma’lum subyektiv tajribaga ega bo‘ladi.

Dunyoda shaxs, etnik madaniyatlar kompetensiyasi taraqqiyotiga xizmat qiluvchi jumladan, azaliy urf-odatlari, an’analari, xulq-atvor meyorlari, madaniy qadriyatlarini zamonaviy bilimlar bilan uyg‘unlashgan holda avloddan-avlodga yetkazish, o‘z ona tilini saqlab qolish, madaniyatlar xilma-xilligi sharoitida kelajak avlodning intellektual, emotsional, axloqiy-rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda.

Xorijiy madaniy antropologiya va psixologiya individning o‘z madaniyatining vakillariga kognitiv, emotsional va xulqiy jihatdan o‘xshashlikning shakllanishini, madaniyatga xos bo‘lgan dunyoni tushunish va xulq-atvorni o‘zlashtirish jarayoni inkulturatsiya bilan bog‘laydi. Shaxsning “okulturatsiyasida” dunyo xaqidagi tasavvurlarga asoslangan, madaniy tajribani egallash davomida shakillangan va inson uning yordami bilan o‘z xalqi madaniyatining oliy qadratlarini o‘zlashtirib, dunyo bilan o‘zaro munosabatga kirishish usullarini egallashi markaziy o‘rinni egallaydi.

Inkulturatsiya – «individning o‘z etnik jamiyati va madaniyatiga kirishi va unda “o‘sishi” hisoblanadi” [1]. Ushbu jarayonda ijtimoiy madaniy atrof-muhitni o‘zlashtirish ro‘y beradi: funksional obyektlar, faoliyat, muloqot usullari, normativ ta’lim o’zlashtiriladi. Inkulturatsiyaning ikki bosqichi ajratiladi: birlamchi va ikkilamchi. Inkulturatsiyaning birinchi bosqichi tarbiya ko‘rinishida amalga oshirilib, bolada normal ijtimoiy-madaniy hayot uchun zarur bo‘lgan adekvat ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadida ta’sir ko‘rsatiladi. Bu bosqich madaniyatning barqarorligini saqlaydi.


Har bir jamiyat atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sirga kirishish jarayonida ma’lum tajribaga ega bo‘ladi, bu esa jamoaning vaqtda mavjud bo‘lish zaminiga aylanadi. Jamoa o‘z tajribasini kelgusi avlodlarga ikki xil yo‘l bilan – irsiy va irsiy bo‘lmagan yo‘l bilan uzatishdan manfaatdor [2]. Irsiy bo‘lmagan axborotning uzatilishi inkulturatsiya jarayonida amalga oshiriladi va butunlay o‘rgatishga asoslangan bo‘ladi. Ijtimoiy informatsiyani saqlash, uzatish va akkumulyatsiya qilish uni tartibga solish hamda uning ahamiyatliroq fragmentlarini tanlab olishni ko‘zda tutadi. Bu stereotipizatsiya mexanizmi orqali amalga oshiriladi:

to‘plangan axborot ma’lum bir tajribaga tashkillashtiriladi, esa tuzilmaning mavjudligiga binoan davrda uzatiladi.

Metodlar. Biz shaxsda inkulturatsiya jarayoniga ta’sir ko’rsatuvchi omillarni tadqiq etishda o‘zimiz tomonimizdan ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik so‘rovnomadan foydalandik. Ta’kidlaganimizdek, inkulturatsiya – bu qadrdon madaniyat bilan birga o‘sish, tarbiyali insonning shakllanishidir. Tadqiqotimizda jami 15 yoshdan 65 yoshgacha bo‘lgan turli millatlarga mansub 500 nafar respondent ishtirok etdi, ulardan 284 nafari o‘zbeklar, 112 nafari ruslar, 72 nafari qozoqlar va 32 nafari koreyslar. Mazkur so‘rovnomani o‘tkazishdan maqsad aholining o‘z madaniy urf-odat, an’analari, qadriyatlariga munosabati, ularni saqlab qolish qolish va avloddan-avlodga yetkazish borasidagi qarashlari, insonni qadrdon madaniyatini bilishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashdan iborat bo‘ldi.

Natijalar. Mulohaza. So‘rovnomadagi “Mamlakatimizda madaniyatlar va tillar xilma-xilligi uchun keng imkoniyatlar mavjud, deb hisoblaysizmi?” degan savolga 83,4% o‘zbeklar “ha” javobini berdilar. O‘zbek respondentlarining 7,2% “yo‘q” javobini berganlar. Boshqa millat vakillarining javoblariga nazar tashlasak, quyidagilarni qayd qilishimiz mumkin: mos ravishda ruslarning 72,3%i, qozoqlarning 72,2% hamda koreys millati vakillarining 70%dan ortig‘i “ha” javobini berganlar. Bizning mamlakatimizda 130 dan ortiq millat vakillari ahil-inoq va hamjihatlikda hayot kechirayotganlariga e’tibor qaratsak, mazkur holatning ushbu savolga javoblarda ham o‘z aksini topganini ko‘rishimiz mumkin.

Rasm-1




So‘rovnomadagi “Madaniy normalarimiz, an’analarimiz, qadriyatlarimizni tashqaridan bo‘ladigan ta’sirlardan saqlash uchun chora ko‘rish lozim deb hisoblaysizmi?” savoliga o‘zbeklarning 62,5%i, ruslarning 56,3%i, koreys millati vakillarining 52,3% “ha” javobini berganlar. “Ha” javobi eng yuqori ko‘rsatkichi bu savolga qozoqlarda qayd qilindi – 94,4%. Ko‘rib turganimizdek, deyarli barcha millat vakillari har bir millatning madaniy normalari, an’analari va qadriyatlarini himoya qilish kerakligini ta’kidlaganlar. Albatta bu holat bugungi kunda globallashuv jarayoni, axborot oqimining tezligi va yoshlar hayotiga turli madaniy elementlarning kirib kelishi va ularning o‘zlashtirilayotgani bilan bog‘liq. Qozoq millatiga mansub respondentlarimizning asosiy qismi Navoiy viloyati Konimex tumanida qozoq ovullarida istiqomat qilishlari va tipik qozoq millati vakillari ekanligini hisobga olsak, ularda qayd etilgan yuqori ko‘rsatkichlarni qozoq yoshlarining boshqa hududlarga tarqalib, zamonaviylashib ketayotgani, ba’zilarini hatto o‘z ona tilini ham unutib qo‘yayotganlari bilan tushuntirish mumkin. O‘zbek respondentlari ham bugungi kunda rusiyzabon maktabgacha ta’lim muassasalari va umumta’lim maktablarining ommaviylashib borayotgani milliy xulq-atvor shakllari, qadriyatlarning unutilishiga olib kelish xavfi mavjudligi bilan o‘z javoblarini izohladilar. Rus va koreys respondentlari ham yoshlar o‘rtasida submadaniyatning targ‘ib qilinishi va o‘smirlar hamda yoshlarning ularga berilib ketishi, milliy normalar, urf-odat va an’analardan chekinishga olib kelishi mumkinligini ta’kidladilar (rasm 2).

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, so‘rovnomada ishtirok etgan barcha millat vakillari mamlakatimizda madaniyatlar va tillar xilma-xilligiga yaratilgan imkoniyatlarni yuqori baholagan holda,


bu borada aniq tizimga ega bo‘lish zarurati mavjudligi, ta’lim-tarbiya jarayonida doimiy ravishda turli madaniy qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazish ota-onalar, ta’lim muassasalari hamda birinchi navbatda ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshirilishi zarurligini ta’kidlaganlar.

Rasm-2



Bugungi kunda mamlakatimizda til o‘rganishga qiziqishning ortib borishi va bunga Davlat siyosati darajasida e’tibor berilishi diqqatga sazovor. Chet tillarini bilish inson uchun juda ko‘p imkoniyatlar eshigini ochishi shubhasiz. Shu bilan bir qatorda bir qator mualliflar ma’lum bir millatning o‘zligini saqlab qolishda o‘z ona tilining o‘rni haqida ta’kidlab o‘tadilar. Turli tillarni o‘rganish o‘z madaniy normalarimiz an’ana va qadriyatlarimizni unutishga olib kelmoqda, deb hisoblaysizmi? savoliga barcha millat vakillarining yarmidan ko‘pi “yo‘q” javobini berdilar. Demak, mamlakatimiz aholisi til o‘rganish bilan milliy qadriyatlar, normalar va an’analarning unutilishi o‘rtasida bog‘liqlikni ko‘rmaydilar, til o‘rganish bugungi kun davr talabi va inson qancha ko‘p til bilsa, shunchalik dunyoqarashi keng, imkoniyatlari yuqori bo‘lishini ta’kidlaganlar (rasm 3).


Rasm-3



“Sizni o‘z madaniy aynanligingizni yo‘qotayotganingiz bezovta qiladimi?” savoliga “ha” javobi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlar o‘zbek(58%) va qozoqlarda(77,8%) kuzatildi. Ruslar va koreyslarda “ha javoblari mos ravishda 27,7 va 31,9%ni tashkil etdi. Ruslar va koreyslarda mazkur savolga “yo‘q” javobi 71,4% va 53,3% holatlarda kuzatildi. O‘zbeklar turli milliy marosimlarga, ayniqsa to‘ylarga yot elementlarning kirib kelishi, turmush tarzining o‘zgarishi (masalan, kechqurun oila a’zolari dasturxon atrofida yig‘ilishlarining bugungi kunda ko‘chada ovqatlanish shahobchalarida alohida tamaddi qilish bilan o‘rin almashib borayotganligi, ozodalikka rioya qilish, masalan, ko‘cha va podyezdlarni supurish hozirgi


kunda sansalorlikka aylanib qolgani, to‘ylarda millatimizga yot bo‘lgan urflarning kuzatilayotgani, ortiqcha dabdababozlik, er-xotin munosabatlarida milliy urf-odat va an’analardan chekinishlar) etnik aynanlikning yo‘qolib ketishiga olib kelishi haqida fikr bildirganlar. Qozoq respondentlar millat ko‘zgusi bo‘lgan tilning ham yo‘qolib borish xavfi mavjudligi “yoshlarning haddan ziyod zamonaviylashib, milliy qadriyatlarni unutib qo‘yayotgani” ni ta’kidlab o‘tdilar (rasm 4).

Rasm-4




So‘rovnomaning “Sizning kiyim shkafingizda milliy kiymingiz bormi?” savoliga 5-rasmdan ko‘rib turganimizdek, o‘zbeklar va qozoqlarda eng yuqori ko‘rsatkichlar qayd qilingan. So‘nggi yillarda mamlakatimizda milliy o‘zlikni anglash, milliy qadriyatlarni saqlash va targ‘ib qilishga katta e’tibor qaratilayotgani o‘zbek milliy kiyimlarining nafaqat o‘zimiz, balki boshqa millat vakillari, xattoki chet elliklar o‘rtasida ham urf bo‘lishi, “moda” tusini olishiga zamin hozirladi. O‘zbek adras va atlaslarining butun dunyoga yoyilishi milliy tariximiz va madaniyatimizga e’tiborni bildirsa, yoshlarimizni o‘z madaniyatiga hurmat ruhida tarbiyalashda ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Bir qator mutaxassislar fikriga ko‘ra, madaniy o‘zini namoyon qilish usullaridan biri bu milliy kiyim va uni aktual shaklda saqlab turishdir (N.V.Aksenova, N.M.Lebedeva). Qadimiy milliy kiyimlarga turli yangiliklarni kiritish, mavjud urf-odat va an’analarni millat yoshlariga yaqinlashtiradi, madaniy an’analarni, madaniy identiklikni saqlash va mustahkamlashga xizmat qiladi. Qozoq millati vakillarida ham o‘z milliy kiyimlarini saqlash, qadrlash va avloddan-avlodga yetkazish ehtiyojining yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin (rasm 5).

Rasm-5



So‘rovnomaning keyingi “Sizning fikringizcha, milliy madaniyatingizni asrash uchun qanday omillar muhim hisoblanadi?” savoliga javoblar tahlili turli millat vakillarida turli qarashlar mavjudligini ko‘rsatdi (6-rasm):

Rasm-6



Rasmdan ko‘rib turganimizdek, turli millat vakillaridan iborat respondentlarimizning ko‘pchiligi qadrdon madaniyatni asrashda ta’lim-tarbiyaning o‘rniga alohida urg‘u berganlar. Shuningdek, katta avlodlardan o‘rnak olish, ommaviy madaniyatga qarshi kurash, tarixni o‘rganish zarurligi ham barcha millat vakillari tomonidan e’tirof etilgan. O‘zbek guruhida respondentlarning 31,9% ta’lim va tarbiyani, 24,8% yoshlarni tarbiyalashni, 13,4% katta avloddan o‘rnak olishni, 8,1% dinni, 5,9% ona tilini saqlash va 5,5% ommaviy madaniyatga qarshi kurash kabi omillarni ko‘rsatganlar. Bu javoblardan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek millati vakillari o‘z milliy ma’daniyatlarini asrashda ta’lim – tarbiya va yoshlarni tarbiyalash kabi omillarga yuqori o‘rin berganlar.


Rus millatiga mansub respondetlarimizning 25,9% yoshlarni tarbiyalash, 23,2% katta avloddan o‘rnak olish va ta’lim-tarbiyani urf-odatlarni saqlashdagi ahamiyatini yuqori baholaganlar.

Qozoq millati vakillarining 44,4% ona tilini saqlash, 22,2% tarixni o‘rganish milliy madaniyatni saqlab qolishda ahamiyat kasb etishini ta’kidlaganlar. 11,1% qozoqlar bu borada targ‘ibot-tashfiqot ishlarini olib borishni, 5,6 % esa yoshlarni tarbiyalash va turizmni rivojlantirish kabi omillarni ko‘rsatganlar.

Ona tilini saqlashga bo‘lgan e’tiborni qozoq respondentlarimiz so‘nggi yillarda ushbu millat vakillarining o‘ta zamonaviylashib, hattoki ruslashib ketishi, o‘z ona tilini unutib qo‘yayotgani, ba’zi qozoqlarning esa o‘zbek tilida so‘zlashishga o‘tganligi bilan izohladilar.

“Sizning millatingizga xos qanday urf-odatlar, xulq-atvor shakllari Sizga yoqmaydi va ulardan xalos bo‘lish kerak, deb hisoblaysiz” savoliga:

Rasm-7




Rasmdan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek millati vakillarining 66,7% dabdabozlikni, 10,7% irim - sirimlarga ishonishni, 9,8% ayolga ojiza sifatida qarashni, 2,3 % to‘ydan so‘ng ota-ona bilan yashashni yoqtirmasligi va ulardan xalos bo‘lish zarurligini aytib o‘tganlar. Faqatgina 17,9% respondentlar hech qanday o‘zgarish kerak emasligini belgilaganlar. Bunday javob rus millati vakillarining 84,8% ida qayd qilindi. Buni shunday izohlash mumkinki, ruslarning turmush tarzi o‘zbeklarnikidan erkinroq. Koreys millati vakillarida ham xuddi shunday holatni uchratish mumkin. O‘zbeklarda so‘nggi yillarda turli marosimlarnig dabdaba bilan tashkil etilishi va bu holatlarning barcha hududlarga tarqalishi, ba’zi oilalarning iqtisodiy ahvolini og‘irlashtirib qo‘yayotgani, bu holatlar insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga ta’sir ko‘rsatayotgani, qolaversa ba’zi vaziyatlarda yoshlar taqdirini ham hal qilayotgani respondentlar tomonidan achinarli holat sifatida baholangan. 5,4% ruslar irim-sirimlarga ishonishni, 3,6% dabdababozlikni ko‘rsatib o‘tishgan. Qozoq millati vakillarining 24,4% dabdababozlikni yo‘qotish tarafdorlari bo‘lishsa, 50% mavjud urf-odat va an’analarni, xulq-atvor shakllarini o‘zgartirishga xojat yo‘qligini ta’kidlaganlar. 34,9% qozoqlar (asosan yoshlar) qiz olib qochish udumini yo‘qotish lozimligini ta’kidlaganlar.

Boshqa millat vakillaridan farqli ravishda o‘zbek millati vakillari o‘z milliy madaniyatlaridagi bir qator urf-odatlarni o‘zgartirishga moyil ekanliklarini ko‘rsatganlar. O‘zbeklar orasida azaliy qadriyatlarimizdan bo‘lgan to‘ydan so‘ng ota-ona bilan yashashni xoxlamaydigan yoshlarimizni xam uchratdik. Bu yoshlarimizga o‘zga madaniyatning ta’siri natijasi ekanligini ko‘ramiz. Chunki ota-ona yosh oila hayotining dastlabki davrlarida muhim o‘ringa ega bo‘lib, yoshlarga bola parvarishi va tarbiyasida va oilaviy munosabatlar masalasida yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib keladilar (rasm 7).

“Sizningcha qaysi xalqlarning milliy xususiyatlari, urf-odat va an’analari boshqalarga o‘rnak bo‘la oladi?” savoliga quyidagi javoblar qayd qilindi (Rasm 8):

Rasm-8



O‘zbek respondentlarining 34,9% yaponlar, 17,9% ruslar, 9,8% arablar, 10,7% koreyslarning madaniyatini e’tirof etishgan. Natijalar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, o‘zbeklar o‘z madaniyatlaridan ham mukammalroq bo‘lgan, o‘z urf-odat va an’analari bilan barchaga namuna bo‘la oluvchi xalqlar sirasiga yapon millati vakillarini kiritganlar. Bunga sabab deb yapon millati madaniyatini o‘zbeklar madaniyatiga yaqinligini ko‘rsatish mumkin. O‘zbeklar na’munali, deb hisoblagan yana bir xalq bu ruslar bo‘lib, ruslarni namunali xalq deb bilgan sinaluvchilarning katta qismi rus tilida ta’lim oluvchi yoshlardir. Rus millatiga mansub sinaluvchilarimizning 84,8% o‘z madaniyatlarini qo‘llab-quvvatlashlarini bildirgan bo‘lsalar, ulardan 3,6% o‘zbeklar, yana 3,6% yaponlar, 5,4% koreyslar, 1,8% arablarga xos madaniyat elementlarini yoqtirishlarini ta’kidlaganlar. 66,6% qozoqlar o‘zbeklarning urf-odat, an’analari va xulq-atvor shakllarini yoqtirishlarini e’tirof etganlar. Bunda ular o‘zbeklardagi mehmondo‘stlik, birodarlik, kattalarga hurmat bilan qarash, topganini boshqalar bilan baham ko‘rish, ahillikka alohida urg‘u berganlar. Qozoq millati vakillari oldindan o‘zbeklar bilan yashaganliklari va ularning madaniyati ushbu millat vakillari uchun yaqin va tanish bo‘lganligi uchun o‘zbek millatini na’munali xalq deb xisoblagan bo‘lishlari mumkin. 16,7% qozoqlar yaponlarning urf-odatlari va an’analari butun dunyoga o‘rnak bo‘la olishini aytib o‘tganlar. Koreys millatiga mansub respondentlarimizning 47% o‘z madaniyatlarini butun dunyoga namuna bo‘la olishini ta’kidlaganlar va 26,2% respondentlar o‘zbek xalqining azaliy urf-odat va an’analari barchaga namuna bo‘la olishini, ayniqsa ularga xos mehmondo‘stlik hech qaysi bir millatda

uchramasligi, kattalarga hurmat va e'zozda bo'lish ham ushbu millatning o'ziga xosligini belgilovchi ekanligini qayd etib o'tganlar.

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, inkulturatsiya insonning butun hayoti davomida kechadigan jarayon bo'lib, unga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatadi. Xususan, til, inson yashaydigan hudud, ta'lim-tarbiya usullari, oilaning turmush tarzi, ommaviy axborot vositalari va tadqiqot natijalari shaxsda inkulturatsiya jarayonining kechishida nafaqat oiladagi tarbiya, balki ommaviy axborot vositalarining ham o'rni beqiyos ekanligini ko'rsatdi. Har bir etnik guruhga xos madaniy qadriyatlarni doimiy targ'ib qilish, ularni yoshlar ongiga singdirish, boshqa yot madaniyat elementlariga tushunmasdan ergashib ketish oldini oladi. Inkulturatsiya muammosi etnopsixologiyada nisbatan juda kam o'rganilgan muammolardan biri bo'lib, bu jarayonni nafaqat etnopsixologik nuqtayi-nazardan, balki ijtimoiy-psixologik va yosh davrlariga xos, gender, hududiy ko'rsatkichlar kesimida kechish xususiyatlarini chuqur o'rganish taqozo etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Энциклопедический словарь по культурологии / Под ред. А.А. Радугина. – М.: Центр, 1997. – Б.281.
2. Этнические стереотипы поведения /Под ред. А.К. Байбурина. – Л.: Наука, 2005. –Б.10.

UDK 159.92:159.99

Qodirov Kamoliddin Botirovich
Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi mudiri,
psixologiya fanlari doktori, professor
E-mail: kkamol@rambler.ru

TALABALARDA KASBIY IDENTIFIKATSIYA SHAKLLANISHINING MOTIVATSION OMILLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalar kasbiy identifikatsiyasining motivatsion omillari tahlil qilinadi. Bir qator psixologik tadqiqot metodikalari yordamida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari va statistik ma’lumotlar keltirilgan. Talabalarda kasbiy identifikatsiya shakllanishining motivatsion omillari bo‘yicha tegishli xulosalar taqdim etilgan.*

Kalit so‘zlar: *talabalar, kasbiy identifikatsiya, o‘quv motivatsiyasi, kasbiy faoliyat motivatsiyasi, kasbiy yo'nalganlik.*

МОТИВАЦИОННЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье анализируются мотивационные факторы профессиональной идентификации студентов. Представлены результаты исследования, проведенного с использованием ряда психологических методов исследования и статистических данных. Представлены соответствующие выводы о мотивационных факторах формирования профессиональной идентичности студентов.*

Ключевые слова: *студенты, профессиональная идентичность, учебная мотивация, мотивация профессиональной деятельности, профессиональная направленность.*

MOTIVATIONAL FACTORS OF THE FORMATION OF STUDENTS' PROFESSIONAL IDENTITY

Resume. *In this article the motivational factors of students' professional identification are analyzed. The results of the research conducted using a number of psychological research methods and statistical data are presented. The corresponding conclusions about the motivational factors in the formation of students' professional identity are presented.*

Key words: *students, professional identity, educational motivation, motivation for professional activity, professional orientation.*

Talabalarni kasbiy faoliyatga samarali tayyorlash, ularda kasbiy identifikatsiyani, kasb motivlari, bilim olish motivlarini shakllantirish muhim bo‘lgan pedagogik va psixologik muammolar qatoriga kiradi. Shu sababli, kasbiy o‘zlikni anglash jarayonini ijobiy va barqaror kechishini ta’minlashga qaratilgan psixologik va eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish, ishonchli psixodiagnostik va psixometrik vositalar tizimini ishlab chiqish bo‘yicha ko‘plab vazifalar belgilanmoqda.

Pedagogik psixologiya, psixologiya o‘qitish metodlari, ijtimoiy-psixologiya va rivojlanish psixologiyasidagi tadqiqotlarda kasbiy qadriyatlar, kasbiy o‘zlikni anglash, kasbiy motivlar, kasb identifikatsiyasi subyekt faoliyatini o‘rganishdagi muhim omil sifatida o‘rganiladi. Kasbiy identifikatsiyaning shaxs qadriyatlari bilan o‘zaro aloqadordigi, ularning vujudga kelish omillari, kasb motivlarni qadriyatlardagi tutgan o‘rni, kasb identifikatsiyani bilim olish motivlariga ta’siri bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda kasbiy identifikatsiyaning qadriyatlar tizimi bilan bog‘liqlik jihatlari va kasbiy munosabatlarda kasb motivlarning namoyon bo‘lishi kasbiy faoliyat psixologiyasida muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiq etilayotgan muammo bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy adabiyotlar tahlilining ko‘rsatishicha, olimlarning aksariyat tadqiqot ishlari kasbiy motivlarni shakllantirish, kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Ko‘plab ilmiy psixologik tadqiqot natijalariga ko‘ra, bo‘lg‘usi kasb haqidagi tasavvurlarni shakllantirish, muvaffaqiyatli kasbiy o‘zini o‘zi belgilash va shaxsni kasbiy shakllantirishning eng muhim davri universitetda ta’lim olish davri hisoblanadi (T.M.Buyakas, Y.P.Yermalova, N.L.Ivanova,

G.Y.Lyubimova, T.V.Mishchenko va b.). [2], [3], [4], [6].

Tatbiqiy va amaliy psixologiya nuqtai nazaridan kasbiy faoliyat bilan bog‘liq ilmiy-amaliy muammolar Y.P.Povarenkov, Y.E.Trandina, L.B.Shneyder, K.Adamslarning asarlarida keng tarzda o‘rganilgan [8], [9], [10], [11].

Ushbu **tadqiqotning maqsadi** talabalarda kasbiy identifikatsiyaning shakllanishiga ta’sir etuvchi motivatsion omillarni o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida oliy ta’lim muassasasidagi talabalar ishtirok etgan bo‘lib, ularning umumiy soni jami 1771 nafardan iborat. Shundan 1262 nafarini qizlar, 509 nafarini yigitlar tashkil qildi.

Tadqiqotning usullari. A.A.Azbel va A.G.Gretsovlarning “Kasbiy identifikatsiya xususiyatlarini o‘rganish” metodikasi [1], T.I.Ilyinaning "OTMda ta’lim olish motivatsiyasi" metodikasi [5], A.A.Rean va V.A.Yakuninlarning N.T.Badmaeva tomonidan modifikatsiya qilingan “Talabalar o‘quv motivatsiyasi diagnostikasi” metodikasi [13], Shvarsning “Qadriyatlarni aniqlash” so’rovnomasi [12], T.D.Dubrovitskaya tomonidan ishlab chiqilgan “Kasbiy yo'nalganlikni aniqlash” metodikasi [14], K.Zamfirning A.A.Rean tomonidan modifikatsiya qilingan "Kasbiy faoliyat motivatsiyasi" metodikalari tanlab olindi [13].

Talabalarda kasbiy identifikatsiya xususiyatlari hamda OTMda ta’lim olish motivatsiyasi xususiyatlari orasidagi korrelyatsion munosabatlarni o‘rganildi (1-jadval). Bilim olish shkalasi va kasbiy identifikatsiyaning noaniqligi shkalasi ko‘rsatgichlari orasida manfiy korrelyatsion munosabat mavjudligi aniqlandi.

Jadval-1

Talabalarda kasbiy identifikatsiya xususiyatlari hamda OTMda ta’lim olish motivatsiyasi xususiyatlari orasidagi korrelyatsion munosabatlar tahlili (Spearman mezoni, N=1771)

Ko‘rsatgichlar	Kasbiy identifikatsiyaning noaniqligi	Kasbiy identifikatsiyaning singdirilganligi	Kasbiy identifikatsiya moratoriysi (tanlov inqirozi)	Shakllangan kasbiy identifikatsiya
Bilim olish	-0,178**	-0,121**	0,047*	0,198**
Kasb egallash	-0,081**	-0,033	-0,02	0,099**
Diplom olish	-0,071**	-0,095**	0,081**	0,076**

Izoh: * - p<0.05; ** - p<0.01

Bilim olishga bo‘lgan motivatsiya va kasbiy identifikatsiya morotoriysi (tanlov inqirozi) o‘rtasida ishonch darajasidagi musbat bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. Demak, sinaluvchilarda bilim olish motivatsiyasining oshishi kasbiy rivojlanishlaridagi muqobil variantlarni tahlil qilish variantlarini oshishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ya’ni bilim olishga intilish ortgani sayin sinaluvchilarda kasblarni tahlil qilish, kasbining turli tuman variantlarini ko‘rib chiqish va shunga qarab qaror qabul qilish ko‘nikmalari ortib borar ekan. Ulardagi munosabatlar anglangan holatga kela boshlaydi va bilim olish motivlari identifikatsiyaning rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin ekan. Bilim olish motivi va shakllangan kasbiy identifikatsiya bilan musbat munosabat mavjudligi aniqlandi. Bilim olish motivi oshgani sayin sinaluvchilar kasb tanlashga, kasbiy identifikatsiyaga nisbatan ongli qarorlar qabul qilishni boshlashar ekan. Bilim olish motivi yuqori bo‘lgan sinaluvchilarda o‘z kasbini tanlashda ishonch ortar ekan. Ular endi o‘z kasblarini kelajagini ko‘ra olishni boshlar ekanlar va har qanday vaziyatda kasbiy ko‘nikmalarini yaxshi tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘la boshlar ekanlar.

Talabalarda kasbiy identifikatsiya va kasbiy faoliyat motivatsiyasi xususiyatlari orasidagi korrelyatsion munosabatlar tahlilida ham ishonch darajasidagi bog‘liqliklar mavjudligi kuzatildi (2-jadval).

Jadval-2

Talabalarda kasbiy identifikatsiya va kasbiy faoliyat motivatsiyasi xususiyatlari orasidagi korrelyatsion munosabatlar tahlili (Spearman mezoni, N=1771)

Ko‘rsatgichlar	Kasbiy identifikatsiyaning noaniqligi	Kasbiy identifikatsiyaning singdirilganligi	Kasbiy identifikatsiya moratoriysi (tanlov inqirozi)	Shakllangan kasbiy identifikatsiya
Ichki motivasiya	-0,226**	-0,249**	0,087**	0,303**

Ijobiy tashqi motivasiya	-0,193**	-0,250**	0,167**	0,239**
Salbiy tashqi motivasiya	0,003	-0,025	-0,019	0,013

Izoh: ** - p<0.01

Jumladan, bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatdagi ichki motivatsiyaning ortishi kasbiy identifikatsiya noaniqligining pasayishiga sabab bo‘lar ekan. Ichki motivatsiya ortgani sayin kasbiy identifikatsiyadagi noaniqlik xislati ham pasayib borar ekan. Demak, bu yerda gap ichki motivatsiyalar kasbiy identifikatsiyaga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi haqida bormoqda. Ichki motivatsiyaning ortishi kasbiy identifikatsiyaning singdirilganligi bo‘yicha past ko‘rsatgichlarning vujudga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ya’ni talabalarda ichki motivatsiya yuqori bo‘lsa, ularda o‘zgalar tomonidan kasbiy identifikatsiyaning singdirilishiga nisbatan, ta’bir joiz bo‘lsa, immunitet hosil bo‘ladi. Ichki motivatsiyaning ortishi kasbiy identifikatsiya moratoriysining oshishiga sabab bo‘lar ekan va shu bilan birga, ichki motivatsiyaning yuqori bo‘lishi albatta shakllangan kasbiy identifikatsiya kabi ijobiy xislatlarning rivojlanishiga ham sabab bo‘lishi mumkin ekan.

Amalga oshirilgan keng qamrovli tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1.Kasbiy identifikatsiya – emotsional, kognitiv va motivatsion komponentlardan tashkil topgan dinamik ijtimoiy psixologik shaxs tuzilmasi bo‘lib, uning mazmuni shaxsning kasbiy guruh haqidagi tasavvuri, ushbu guruhdagi o‘rni, kasbiy o‘zini o‘zi belgilash tajribasi bilan birgalikda namoyon bo‘ladi.

2.Nazariy tadqiqotlar natijasida talabalarning kasbiy identifikatsiyani nafaqat kasbiy rivojlanish mezoni, balki kompetensiyalarning muvaffaqiyatli rivojlanishi va ularni amalga oshirishga tayyorlik ko‘rsatkichi sifatida ham o‘rganish mumkinligi aniqlandi.

3. Kasbiy identifikatsiyasi shakllangan va kasbiy identifikatsiya moratoriysi yaqqol namoyon bo‘lgan talabalarning motivatsion sohasi va kasbiy yo‘nalganligida ijobiy tendensiyalar kuzatilishi, biroq, kasbiy identifikatsiyaning noaniqligi va o‘zgalar tomonidan singdirilganligi, aksincha, salbiy motivatsion xislatlarni vujudga keltirishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азбель А.А. Особенности формирования статусов профессиональной идентичности старшеклассников: дис. ... канд. психол. наук. - СПб., 2004. - 219 с.

2. Буякас Т.М. Процесс обучения как диалог между профессионалом и личностным становлением// Вестник Московского университета., Сер.14 Психология. 2001 - № 2. –С 69-77.

3. Ермалова Е.П. Профессионалная идентичность и маргинализм: концепция и реальность / Е.П. Ермалова //ПЖ. -2001. – Т.22. -№4.

4. Иванова Н.Л., Румянцева Т.В. Социальная идентичность: теория и практика. -М.: Изд-во СГУ, 2009. - 453 с.

5. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. – СПб.: Изд-во «Питер» 2000 -512 с.

6. Любимова Г. Ю. От первокурсника до выпускника: проблемы профессионального и личностного самоопределения студентов – психологов// Вестник МГУ Серия 14. Психология. – 2000 №1. С – 48-56.

7. Мищенко Т.В. Становление профессиональной идентичности у студентов педагогического вуза: автореферат дис. ... канд. психол. наук. - Ярославль, 2005. - 23 с.

8. Поваренков Ю.П. Психологическое содержание профессионального становления человека. М.: УРАО, 2002.

9. Трандина Е.Е. Становление профессиональной идентичности у студентов юридического вуза: автореферат дис. ... канд. психол. наук. - Ярославль, 2006. - 23 с.

10.Шнейдер Л.Б. Профессиональная идентичность и память: опыт генетической реконструкции / Л.Б Шнейдер // Мир психологии. – 2001. - № 1.

11.Adams K. Investigating the factors influencing professional identity of first-year health and social care students // Learning in Health & Social Care. June. - 2006. - Vol. 5. - Issue 2. -P. 55-68.

12.Schwartz, S. Identifying culture specifics in the content and structure of values. / S. Schwartz, L. Sagiv // Journal of Cross-Cultural Psychology. – 1995. – V 26. – R. 92–116.

13.http://psychology-corner.ru/view_article/php

14.http://www.psychologos.ru

Ganjiyev Feruz Furqatovich
Buxoro davlat universiteti psixologiya va sotsiologiya
kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)
E-mail: f.ganjiyev@mail.ru

O'SMIRLARDA AGRESSIVLIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada agressivlik tushunchasi, agressivlik borasida olib borilgan tadqiqotlar, agressivlikning turlari hamda o'smirlarga xos agressivlik, uning kelib chiqish sabablari ochib berilgan. Shu bilan birga o'smirlarda agressivlikning shakllanishiga shaxs xususiyatlari ta'siri masalalari va oilaning ta'siri yoritib berilgan.*

Tayanch so'zlar: *ommaviy axborot, o'zidan qoniqmaslik, axloqiy talablar, emansipatsiya, krizis, xulq-atvor, qaysarlik, agressivlik.*

АГРЕССИВНОСТЬ К ПОДРОСТКАМ И ЕЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЙ

Аннотация. *В данной статье раскрываются понятие агрессивности, исследования агрессивности, виды агрессивности и агрессивности, специфичные для подростков, причины ее возникновения. При этом освещаются вопросы влияния личностных особенностей на формирование агрессивности у подростков и влияния семьи.*

Ключевые слова: *общественная информация, самоудовлетворение, моральные требования, эмансипация, кризис, поведение, упрямство, агрессивность.*

AGGRESSIVENESS TO ADOLESCENTS AND ITS SPECIFIC APPEARANCES

Abstract. *In this article, the concept of aggressiveness, research on aggressiveness, types of aggressiveness and aggressiveness specific to teenagers, the reasons for its origin are revealed. At the same time, issues of the influence of personal characteristics on the formation of aggressiveness in adolescents and the influence of the family are highlighted.*

Key words: *public information, self-satisfaction, moral requirements, emancipation, crisis, behavior, stubbornness, aggressiveness.*

Kirish. O'smirlarda tajovuzkor xulq namoyon bo'lishining diagnostikasi va korreksiyasini amalga oshirishning psixologik usullarini takomillashtirish hamda xalqaro baholash dasturlarini keng joriy etish etish dolzarb muammolardan biridir. Hozirgi paytda o'smirlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga e'tiborni kuchaytirish mamlakat taraqqiyoti, yurt kelajagi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu ma'noda so'nggi yillarda mamlakatimizda ma'nan yetuk, jismonan sog'lom yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash, izlanish va iste'dodini qo'llab-quvvatlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. So'nggi yillarda ta'lim muassasalarida ham Yangi O'zbekiston bunyodkorlari bo'lgan yoshlarning chuqur bilim olishi va iste'dodini keng namoyon etishi uchun barcha sharoit yaratildi. O`smirlik davri taqlidchanligi, muhim nuqtai nazarning shakllanmaganligi, hissiyotliligi, mardligi, tantiligi bilan farqlanadi. Shuning uchun tashqi ta'sirlarga beriluvchan o'smir o'g'il-qizlarga alohida e'tibor berish zarur.

Asosiy qism. Agressiya atamasi lotin tilidan olingan bo'lib, «aggredi» – «tajovuz qilmoq» ma'nosini anglatadi. Psixologiyada «agressiya» atamasiga nisbatan turli yondashuvlar mavjud. Ayrim olimlar agressiyaga salbiy yondoshuv qilsalar (X. Delgado, A.A. Bass, L.M. Semenyuk, G. Parens, A. Bandura, R.Uolter, Y.Mojginskiy), ayrimlalari agressiyani (L.Bender, D.Richardson, R.Beron) ijobiy baholaydilar (1). Olimlar agressiyaning quyidagi turlarini keltirib o'tadilar. Bular: Jismoniy agressiya – boshqani qo'rqitishdan tortib, to'g'ridan-to'g'ri jismoniy kuch ishlatish, unga jismoniy va ma'naviy og'riq yetkazish. Bilvosita agressiya – boshqa insonga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan axborotlarni tarqatish (mish-mish, kalaka qilish va hokazo), o'z-o'zidan aynan

boshqa insonga qaratilmagan holda agressiyaning namoyon bo'lishi (mushti bilan stolni urish, eshikni taqillatib yopish va boshqalar). Verbal agressiya – salbiy hislarni baqirish, janjal qilish, so'kish, haqoratlash, tahdid va boshqa usullar orqali bildirish. Arzimagan qo'zg'ovchi ta'sirga ham qo'pollik, terslik, emotsional qo'zg'alish bilan javob berish. T.G. Rumyanseva, I.B. Boyko agressiyani ijtimoiy xulq ko'rinishi deb hisoblaydilar.

Agressivlikning shaxsiy xususiyat sifatida shakllanishi murakkab jarayon bo'lib, unda ko'plab omillar ishtirok etadi. Dushmanlik xulq-atvori oila, tengdoshlar va ommaviy axborot vositalarining ta'siri ostida asta-sekin shakllanadi. Bolalar tajovuzkorlikni kuzatish va sinab ko'rish orqali o'rganadilar: ular nafrat va dushmanlik qanday namoyon bo'lishini ko'radilar, bu nimaga olib kelishini baholaydilar, olgan bilimlarini amalda qo'llaydilar. Agar tajovuzkor harakatlar tajribasi ijobiy bo'lsa, ular xarakterda mustahkamlanadi. Voyaga yetgan odamning tajovuzkorligining sabablari ijtimoiy-psixologik omillar, ruhiy kasalliklar, spirtli ichimliklar va giyohvand moddalar bilan zaharlanish holatlari hisoblanadi.

O'z-o'zidan ma'lumki agressiyani keltirib chiqaruvchi sabablar mavjud. Tadqiqotchilar agressiyani keltirib chiqaruvchi sabablarga subektiv omillarni keltirib o'tganlar. Bular: tarixiy xotira, qasd olish udumlari, ayrim diniy oqimlar (fanatizm, ekstremizm g'oyalari), ommaviy axborot vositalari (ayniqsa, televideniye), ayrim siyosatchilarning individual axloqiy jihatlarining bevosita ta'sir etish imkoniyatlarini ta'kidlaydilar. Davrlar boyicha o'rganilganda eng ko'p agressiyaga moyillik o'smirlik davriga to'g'ri kelishi aniqlangan. Agressiya o'smirlarda yuzaga kelgan ijtimoiy vaziyat, hodisalar ustidan o'ziga xos nazorat qilishning maqbul usuli sifatida qabul qilinadi. G'. B. Shoumarov fikriga ko'ra, o'smirlik davrining og'ir, murakkab davr ekanligi ko'plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun-mohiyati ham o'zgaradi. Bu davrda o'smir hayoti, ruhiyati, organizmining fiziologik jarayonlari, uning ijtimoiy holatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aksariyat vaziyatlarda ularda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli xil holatlar kuzatiladi. O'smirlarda agressivlikning shakllanishiga quyidagi shaxs xususiyatlari ta'sir qiladi:

- tarbiyaning muvozanatlashmagan shakllari: o'z-o'ziga haddan ziyod past baho berish, yuqori darajada impulsivlik, spirtli ichimlik va giyohvand moddalar iste'mol qilish, kompyuter o'yinlariga tobelik, tavakkalchilikka tayyorlik holatlari, o'z-o'zini himoya qilish hislarining chegaralanganligi;

- xulqiy omillar: o'z vaqtini maqsadsiz o'tkazish, maktabdagi darslarni sababsiz qoldirish, o'zlashtirish darajasining pastligi, erta jinsiy aloqalarga kirishish va hokazo; - ijtimoiy omillar (OAVning psixologik ta'siri, jamiyatdagi udum va marosimlar, ota-onaning xulqiy buzilishlarga ega ekanligi, oila ijtimoiy mavqeining pastligi, tarbiyachilarning o'zgarishi (o'gay ota, o'gay ona va hokazo);

- o'smirning xulqiy og'ishlar shakllangan do'stlar bilan yaqin ijtimoiy aloqalarni o'rnatishi (taqlid fenomeni); - ichki oilaviy nizolar (ota-onaning ajrashishi, ikkinchi nikohdagi farzandlar, o'smirning o'zlashtirishiga ota-ona tomonidan o'smir qobiliyatlari, qiziqishlari inobatga olinmagan holda haddan ziyod yuqori talablarning qo'yilishi. Disfunksional oilalarda tarbiyalanayotgan o'smirlarda agressiv xulq ko'rinishlarining shakllanishi ehtimoli funksional oilalarda tarbiyalanayotgan oilalardagi o'smirlarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlangan (1). Oilada o'smir erkinliklarini haddan ziyod cheklash, yoki aksincha, ota-ona tomonidan surunkali befarqlik ham agressiv xulq ko'rinishlarining shakllanishga olib keladi (2). Agressiv xulq oilada o'smirning erkinliklari haddan ziyod chegaralanganda yoki unga haddan ziyod erkinliklar berilganda ham shakllanishi mumkin. Agar o'smir oilada barcha ehtiyojlarining tezlik bilan qondirilishiga o'rganib qolgan bo'lsa, tengdoshlari jamoasida uning ehtiyojlariga to'sqinlik qilganlarga nisbatan agressiv munosabat bildiradi. Oilada emotsional inkor etilganlik holatlarida ham o'smirlar agressiv xulq ko'rinishlari bilan o'zlariga e'tiborni qaratishga harakat qiladilar. Ota-onaning o'smir xul-

qidagi o'zgarishlar sababini izlashi yuzaga kelgan muammolarni konstruktiv tarzda hal etishi asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Agar o'smirning oila a'zolari muntazam tarzda o'zaro nizolar, baqiriqlar orqali ta'sir o'tkazish asosida muammolarini hal etishga o'rgangan bo'lsalar, boshqa ijtimoiy vaziyatda o'smir aynan o'zini shunday tutishga intiladi;

- shaxsiy muammolar (fiziologik va psixologik xarakterdagi muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi o'smirlarda jinsiy rivojlanish xususiyatlari – pubertat davri xususiyatlarining namoyon bo'lishi);

- o'zining tashqi ko'rinishidan norozi bo'lish – «Terzit kompleksi» (kattalar tomonidan noadekvat idrok qilinishi). O'smir o'zini kattalardek his etishida unga bolalar kabi munosabatda bo'lish yoqmaydi;

- o'smirdagi tafakkurning tanqidiyligi – kattalar hatti-harakatiga nisbatan shubha bilan qarash, ularda o'rnatilgan axloqiy meyorlarga nisbatan e'tiroz hislarining shakllanishga olib keladi;

- o'smirga nisbatan ma'lum bir ijtimoiy tamg'alarning bosilishi (o'qituvchilar tomonidan o'smirning o'zlashtira olmasligi, tarbiyasizligi, u bilan gaplashish befoydaligini ta'kidlash);

- ijtimoiy omillar (jamiyatda muammolarni kuch ishlatish orqali hal etilishi haqidagi g'oyasining o'rnatilganligi, maktablardagi o'quv sinflarning haddan ziyod to'laligi, maktabdan haddan ziyod charchash, asabiylashish).

Agressiv xulq shakllanishida «agressor» va «qurbon» rollari ajratiladi. Maktabdagi «agressorlar» tengdoshlari va kattalarga nisbatan o'zlarini yuqori tutadilar, ruhiy og'riqqa nisbatan og'riqni his etmaydilar, o'zlarini dominant tutadilar, yuzaga kelgan nizoli vaziyatlarni jismoniy kuch ishlatish orqali hal etadilar. Bu ko'proq o'g'il bolalarda kuzatiladi. «Agressorlar» affekt holatlarida o'z-o'zini yetarli darajada idora eta olmaydilar. O'zlarini tengdoshlariga nisbatan kuchliroq his etib, o'zlaridan kuchsiz bo'lganlarni «qurbon» sifatida tanlaydilar. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda nafaqat «agressorlar», balki «qurbonlar» ham pedagog va psixologlar e'tiborini talab qiladi. Ya'ni ushbu toifadagi o'smirlar «ijtimoiy autsayder» atamasi bilan nomlanadi. Ushbu o'smirlar passiv va namoyishkorona turlarga ajratiladi. Passiv tipdagi «qurbonlar» bosiq, hadiksirovchi, qo'rqoq bo'ladilar. Odatda, ularda o'z-o'ziga past baho berish, o'zlarini ko'rimsiz, kuchsiz deb baholash kuzatiladi. Ularga nisbatan tajovuz jarayonida yig'laydilar, qochadilar. Maktabda, mahallada o'rtoqlari kam bo'ladi. Ikkinchi guruh namoyishkorona tipdagilar uchun «agressorlar»ga xos bo'lgan xususiyatlar namoyon bo'ladi. Bu o'smirlarda bir vaqtning o'zida agressiya va qo'rqish holatlari namoyon bo'lishi asosida impulsiv, agressiv xulq ko'rinishlari bilan ulardagi qo'rqish va xavotirlanish holatlari birgalikda namoyon bo'lishi, doimiy tarzda kurashga tayyorlik holatlari kuzatiladi. O'zlarining xulqi bilan ular atrofdagilarning noroziligi, agressivligini jalb qiladilar. Bir tomondan, xulqi bilan atrofdagilarning agressiv munosabatlarini o'zlariga jalb qilsalar, boshqa tomondan kuch ishlatish usuli orqali muammolarni hal etishga moyil bo'ladilar. Ushbu toifadagi o'smirlarni tengdoshlari, kattalar yoqtirmaydilar. Agressivlik o'z-o'zidan paydo bo'ladigan holat emas. Ko'p hollarda psixologik muammolarni hal etishda ojizlik holatlari ta'sirida shakllanadi:

Charchash. Agar o'smir haddan ziyod charchagan bo'lsa, psixik agressiya psixik resurs imkoniyatlari cheklanganligi oqibatida shakllanadi.

O'z-o'zini negativ idrok etish. «Men yomon odamman. Shuning uchun o'zimni shunday tutaman». Tobora yomonlik hissi o'smir uchun chuqur, ma'lum bir hatti-harakatni bajarishga psixofiziologik tayyorlik xolati – ustanovkaga aylanadi. Bu toifadagi o'smirlarda arzimagan, yumshoq tanqid ham psixik og'riqning shakllanishiga olib keladi. Agar o'smir insonlar bilan munosabatlarda salbiy tajribaga ega bo'lsa, u ertaroq himoyalanishga intiladi. Ko'p hollarda uning hayotiy tajribasida shunga o'xshash holatlar uchragan, o'zi uchun xavfli deb hisoblagan vaziyatdan himoyalanishga harakat qiladi. O'smirda ijtimoiy muhitdagi insonlar bilan yaqin emotsional munosabatlar o'rnatilmaganligi, o'zini himoyasizqo'rqoq bo'ladilar. Odatda, ularda o'z-o'ziga past baho berish, o'zlarini ko'rimsiz, kuchsiz deb baholash kuzatiladi. Ularga nisbatan tajovuz jarayonida yig'laydilar, qochadilar.

Xulosa qiladigan bo'lsak, o'smirni yosh bola sifatida qabul qilsak-da, unda kattalarga xos sifatlar shakllanganligini hisobga olib, uning fikrlarini, qarashlarini, xohishlarini, takliflarini e'tiborga olish muhimligini esimizdan chiqarmasligimiz zarur.

Amaliy nuqtai nazardan, tajovuzkorlik insonning tug'ma emas, balki ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonida orttirilgan tajovuzkor xatti-harakatlarga tayyorgarligining kuchayishi sifatida qaraladi. Sifat xususiyatlariga ko'ra, tajovuzkorlik konstruktiv va buzg'unchi o'rtasida farqlanadi. Birinchisi, mudofaa harakatlarida, qasddan zarar yetkazishda amalga oshiriladi, ijtimoiy moslashishga, to'siqlarni yengib o'tishga va yetakchilikka imkon beradi. Ikkinchisi, boshqasiga jismoniy yoki ruhiy azob-uqubatlar keltirish niyatiga asoslangan konstruktiv bo'lmagan tajovuzkor harakatlar bilan ifodalanadi.

Yo'nalish nuqtai nazaridan, tajovuzkorlik boshqalarga va o'ziga qaratilgan. Shunga ko'ra, getero-agressiv – haqorat, kaltaklash, so'kinish va o'z-o'ziga zarar yetkazish yoki avto-agressiv reaktsiyalar ajralib turadi. Avto-agressiyaning ekstremal versiyasi o'z joniga qasd qilishga urinishdir. Eng aniq dushmanlik harakati boshqa shaxsga nisbatan jismoniy kuch ishlatishdir. Boshqa mumkin bo'lgan variantlar – dushmanlik, yovuzlik, negativizm, qo'zg'alish, xafagarchilik, shubha, tahdid. O'z-o'zini boshqaradigan tajovuz aybdorlik va o'zini kamsitish hissi bilan birga keladi.

Samarali dushmanlik sizning maqsadlaringizga erishishga, shaxsiy chegaralarni, o'z e'tiqodlaringizni himoya qilishga imkon beradi. Bu ko'pchilikka xos bo'lgan nohaqlikka qarshi xususiyatdir. Agressivlikning zo'ravonligi va chastotasi individual xususiyatlarga, masalan, temperament va xarakterga, shuningdek, ijtimoiy-madaniy sharoitlarga, tasodifiy vaziyat ta'siriga bog'liq. Psixosotseal sabablar bir necha guruhlarga bo'linadi:

Situatsion. Agressiyani bezovta qiluvchi tashqi sharoitlar va fiziologik sharoitlar qo'zg'atadi. Shunday qilib, odamlar haddan tashqari qizib ketganda, tiqilib qolgan xonada bo'lganda, shovqin, tebranishlarga uzoq vaqt ta'sir qilishda tezroq jahldor bo'lishadi. O'z-o'zini nazorat qilish stressli vaziyatda, charchoq, og'riq, jinsiy qo'zg'alish bilan zaiflashadi.

Xulq-atvor. Ushbu omillar guruhiga boshqalar tomonidan nomaqbul deb hisoblangan, mudofaa reaktsiyasini keltirib chiqaradigan har qanday xatti-harakatlar kiradi. Masalan, bolaning tajovuzkorligi maqsadsiz o'yin-kulgi, mashg'ulotdan voz kechish, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish – ota-onalar va o'qituvchilarning qoralanishiga olib keladigan harakatlar bilan bog'liq.

Shaxsiylik. Agressiv odamlar ko'pincha sangvinik va xolerik temperamentga ega, qo'zg'aluvchan va asotsial xarakterga ega. Dushmanlik xulq-atvori hissiy beqarorlik, asabiylashish, depressiya asosida amalga oshiriladi. Boshqa shaxsiy sabablar – o'z-o'zini hurmat qilishning yetarli emasligi, tavakkal qilishga tayyorlik va hasad.

Mikroijtimoiy. Mikroijtimoiy muhit – bu oila, maktab yoki mehnat jamoasi. Ko'pincha zo'ravonlikni kuzatadigan yoki o'zlari buni boshdan kechiradigan, haqorat, haqoratni boshdan kechiradigan odamlar tajovuzkorlikni namoyish etishga moyildirlar. Shu sababli, disfunktsiyali oilalardan chiqqan o'smirlar, huquqni muhofaza qilish organlarida ishlaydigan odamlar o'rtasida dushmanlikning yuqori darajasi aniqlanadi.

Makroijtimoiy. Agressivlikning sabablari sifatida ijtimoiy, siyosiy va madaniy omillarni ko'rish mumkin. Ommaviy axborot vositalarida salbiy voqealar targ'ib qilinganda, e'tiborli odamlar g'ayritabiiy xatti-harakatlarni namoyish qilganda (mamlakat rahbari, vazirlar) va ular zo'ravonlik kultiga ko'tarilganda dushmanlik kayfiyati shakllanadi. Provokatsion omil ko'pincha ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning pastligi, davlatning moddiy yordamiga qaramlik bo'ladi.

Shaxsga doir individual taraqqiyot samarasini hamda shaxslararo munosabatlarni belgilovchi xulq-atvor va xatti-harakatlarning eng muhim xususiyatlaridan biri agressivlikdir. Agressiya – bu odamlar, odamlar guruhiga nisbatan jismoniy va ruhiy zarar yetkazishga qaratilgan individual yoki jamoaviy xatti-harakatlar majmui hisoblanadi. Bugun insoniyat tarixi ishonchli tarzda shuni isbotlamoqdaki, agressiya shaxs va jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bundan tashqari, agressiya ulkan tortish-ish kuchi va yuqumlilik xususiyatiga ega – ko'pchilik o'zining agressiv ekanini inkor etadi, ammo o'zining kundalik hayotida esa, uni keng namoyish qiladi. Aynan agressiv xulq-atvor shaxslararo nizolarning vujudga kelishiga va ularni hal etishning asossiz yo'llari paydo bo'lishiga olib keladi.

Xulosa.

Yuqoridagi fikr mulohazalarimizdan ko'rinadiki, agressorlarning ular tajovuz qilayotgan shaxslardan nafratlanishi yoki ularni yoqtirishi umuman shart emas. Ko'pchilik odamlar o'zlari yoqtirgan insonlarga zulm o'tkazadilar. Inson agressiyasining turli-tumanligi va tubsizligidan kelib chiqib, mazkur

fe'l-atvorni o'rganishda asos tomonidan taklif etilgan konseptual chegaralanish juda foydali ekanligi ayon bo'ldi. Bizning fikrimizcha, agressiv harakatlarni uchta shkalaga asoslangan holda tasvirlash mumkin: jismoniy – verbal, faol – sust va to'g'ri egri. Ularning kombinatsiyalari sakkizta ehtimolga yaqin kategoriyalarni berib, ular asosida ko'plab agressiv harakatlarni tushuntirish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ганжиев Ф.Ф., Қодирова М.Д. Maktabgacha Ta'lim Muassasasi Tarbiyalanuvchilari Ijtimoiy-Psixologik Moslashuvining Oziga Xos Xususiyatlari. //Педагогик маҳорат. Илмий журнал. – Бухоро. 2020.№2. – Б. 109-111. (19.00.00. №7).
2. Ганжиев Ф.Ф., Тўлаев Ҳ.О. Researching the scope of the professional competence within activities. //International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Impact Factor ICV = 6. 630 Philadelphia, USA. 2019. –Б. 388-391.
3. Ганжиев Ф.Ф., Қосимова С.Б. Heads Of Competence In Psychologically School Education. International journal of scientific & Technology research volume 9, issue. 2020. -Б. 2787-2789.
4. F.F. Ganjiev. The basis of social and psychological adaptation of children in the conditions of preschool education. Bulletin of integrative psychology. Journal for psychologists, 59-64.
5. Ф.Ф. Ганжиев. Особенности Психологической Защиты Человека В Экстремальной Ситуации. Лазаревские чтения Лики традиционной культуры в, 2018. С. 117-118.
6. Sh.Sh.Abirqulova. O'smirlarga xos agressivlik va uning ko'rinishlari// https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/ –Б. 150-158.

Muxtorov Erkin Mustafoyevich
Buxoro davlat pedagogika instituti "O'quv ishlari bo'yicha prorektor" psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

VRACH KASBIY MAHORATI DARAJALARINI BAHOLASHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Jamiyatda yuqori kasbiy mahoratga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash, barcha mutaxassislarda (xususan vrachlarda) kasbiy malakani darajalash, baholash va rivojlantirishning emprik-psixologik asoslarini ishlab chiqish hamda ijtimoiy taraqqiyot yo'lida ularni ishlatishdan manfaatdorlik ko'lami tizimli shaklda yoritildi.*

Shuningdek, tadqiqotimiz davomida amaliyotchi vrachlarning kasbiy mahorati bilan ularning kasbiy motivatsiyasi qachon shakllana boshlagani o'rtasida ham muayyan bog'lanish borligi aniqlandi va bu jadval asosida ko'rsatib berildi.

Psixologiyada mavjud nevrotik reaksiya tushunchasiga to'xtalib, bugungi kunda nevrotik shaxslar bilan ishlashning dolzarbligi yuzasidan nazariy xulosalar keltirildi hamda muvaffaqiyatning har doim ikki tomoni individual(shaxsiy) va hissiy tomonlari haqidagi qarashlar ilmiy tahlillar asosida ochib berildi.

Kalit so'zlar: *diledantlik, gipertrofiya, stereotip, motivatsiya, tibbiy personal, rentgenolog, anesteziolog, laborant.*

Абстрактный. *В данной научно-исследовательской работе объем заинтересованности в подготовке кадров с высокой профессиональной квалификацией в обществе, разработке эмпирико-психологических основ нивелирования, оценки и развития профессиональной квалификации всех специалистов (особенно врачей) и их использовании в вопросы социального развития рассматривались систематически.*

Также в ходе нашего исследования было установлено, что существует определенная связь между профессиональными навыками практикующих врачей и временем начала формирования их профессиональной мотивации, что показано на основании таблицы.

Затрагивая понятие невротических реакций в психологии, сделаны теоретические выводы относительно актуальности работы с невротическими личностями в наши дни, а также на основе научного анализа выявлены взгляды на индивидуальную (личностную) и эмоциональную стороны успеха.

Ключевые слова: *дилетантизм, гипертрофия, стереотип, мотивация, медицинский персонал, врач-рентгенолог, анестезиолог, лаборант.*

Abstract*. In this research work, the scope of interest in the training of personnel with high professional skills in the society, development of empiric-psychological bases of leveling, evaluation and development of professional qualifications of all specialists (especially doctors) and their use in the way of social development was covered in a systematic way.*

Also, during our research, it was determined that there is a certain connection between the professional skills of practicing doctors and when their professional motivation began to form, and this was shown on the basis of the table.

Touching on the concept of neurotic reactions in psychology, theoretical conclusions were made regarding the relevance of working with neurotic individuals today, and views about the individual (personal) and emotional sides of success were revealed based on scientific analysis.

Key words: *dilettantism, hypertrophy, stereotype, motivation, medical personnel, radiologist, anesthesiologist, laboratory assistant.*

Kirish. Kasbiy mahorat turli daraja va bosqichlarda namoyon bo'ladi. Bunday bosqichlar jumlasiga diletantlik (kasbiy bilimlar, uquv va malakalarning yuzakiligi) dan to qat'iy kasbiy stereotiplar (kasbiy mahoratning gipertrofiyalashuvi)gacha bo'lgan darajalar kiradi.

Kasbiy faoliyatning samaradorligini oshirish har qanday davr, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya va har qanday tamaddun uchun zarur bo'lgan hodisadir. Kasbiy mahoratning o'sishi muammosini hal qilish muvaffaqiyat, faoliyatning muvaffaqiyatliligi, muvaffaqiyat vaziyati, kasbiy

muvaffaqiyat kabi tushunchalarning psixologik mazmunini aniqlab olish bilan bog‘liq. Sanab o‘tilgan tushunchalar barcha kasblar, jumladan, vrachlik kasbi uchun ham xosdir.

Metodlar. Tadqiqot jarayonida nazariy-deduktiv, analiz-sintez, komporativistik, komporativistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Natijalar. Mulohaza. Har qanday faoliyatni, jumladan, vrach faoliyatini muayyan mezonlar bilan qiyoslab ko‘rilsa, ularni muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz deb baholash mumkin. Bunday mezonlar konkret yoki mavhum, umumiy yoki xususiy bo‘lishi mumkin. Oddiy hollarda mezonlar oddiy muqobillardan, masalan, «hal qildi – hal qila olmadi», «uddaladi – uddalay olmadi» kabilardan iborat bo‘ladi. Faoliyatning rivojlangan bosqichida mazkur mezonlar differensiyalashadi va murakkablashadi.

Praksiologiyaning asoschisi bo‘lgan T. Kotarbinskiy faoliyatning muvaffaqiyatliligini foydalilik, aniqlik va mohirlik darajalari kabi mezonlar yordamida belgilaydi. Motivatsiya to‘g‘risidagi hozirgi zamon nazariyalariga ko‘ra har qanday shaxs muvaffaqiyatga intiladi, unga erishishni orzu qiladi va ayni paytda, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqadi va undan qochishga intiladi. Muvaffaqiyatsizlikning zarari shundaki, u jazoga sabab bo‘lishi, shaxsning o‘ziga beradigan bahosi va ijtimoiy mavqeini pasaytirishi va shular bilan bog‘liq salbiy his-tuyg‘ularga olib kelishi mumkin. Muvaffaqiyatga esa, odamlar unga erishish ijobiy emotsiyalar, maqtovlar, mukofotlar keltirishi uchun intiladi.

Vrachlar faoliyati motivatsiyasini o‘rganish bo‘yicha ham mamlakatimizda ba’zi ishlar amalga oshirilgan. Jumladan G.D. Qo‘ldoshevaning “Talabalar o‘quv motivatsiyasini belgilovchi ijtimoiy-psixologik omillar” deb nomlangan nomzodlik dissertatsiyasi mazkur mavzuga bag‘ishlangan bo‘lib, unda tibbiyot oliygohlari talabalarining o‘quv faoliyatiga nisbatan motivatsiyasi tadqiq etilgan. Tibbiyot oliygohlari talabalarining o‘quv faoliyatiga nisbatan motivatsiyasi bilan vrachning o‘z kasbiy faoliyatiga nisbatan motivatsiyasi o‘rtasida bir qator umumiyliklar bilan birga tafovutlar ham mavjud. Talabaning muvaffaqiyatli o‘qishi bilan vrachning kasbiy faoliyatda qo‘lga kiritgan yutuqlari o‘zaro hamohang bo‘lsa ham, talaba faoliyatidagi muvaffaqiyati unga asosan ma’naviy foyda keltiradi, vrachning muvaffaqiyati esa unga ham ma’naviy, ham moddiy foyda keltirishi mumkin.

Amaliyotchi vrachlarning kasbiy mahorati va kasbiy motivatsiyasi shakllana boshlagan davr o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik (n=56)

Vrachlik kasbiga qiziqishning boshlanishi	Kasbiy mahorat darajalari			Jami
	yuqori n=26	o‘rta n=18	quyi n=12	
Bolaligingizda “vrach-bemor” o‘yini o‘ynaganmisiz	8	9	2	26
Qiziqishim boshlang‘ich sinflarda paydo bo‘lgan	9	4	3	12
Qiziqishim yuqori sinflarda boshlangan	6	3	3	9
Tibbiyot oliygohiga ota-onam(do‘stlarim) maslahati bilan kirganman	3	2	4	9

Tadqiqotimiz davomida amaliyotchi vrachlarning kasbiy mahorati bilan ularning kasbiy motivatsiyasi qachon shakllana boshlagani o‘rtasida ham muayyan bog‘lanish borligi aniqlandi.

Jadvaldan ko‘rinadiki, vrachlik mahoratining yuksak darajalariga erishgan vrachlarning ko‘pchiligida kasbga qiziqish bolalikda yoki boshlang‘ich sinflarda paydo bo‘lganini ham e’tirof etish kerak. Shu bilan birga, vrachlik mahoratining yuksak darajalariga erisha olmagan vrachlarning aksariyati tibbiyot oliygohiga ota-onasining maslahati bilan kirgani yoki kasbga qiziqishi yuqori sinflarda boshlangani ham haqiqat ekan.

Muvaffaqiyat har doim ikki tomonga ega. Birinchi tomon, individual, shaxsiy tomon bo‘lib, quvonchni his qilish bilan bog‘liq. Ikkinchi tomon, boshqalar tomonidan shaxsning yutug‘iga berilgan baho bilan bog‘liq bo‘lib, u atrofdagilarning jamoa yoki guruh a’zosi muvaffaqiyatiga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi.

Lekin, boshqa jamoalardan farqli ravishda tibbiy jamoalarda vrachning muvaffaqiyati faqat bir shaxsning muvaffaqiyati emas, hech bo‘lmaganda, ikki shaxs: vrach va bemorning muvaffaqiyati

hisoblanadi. Bundan tashqari, mazkur muvaffaqiyatga yordamchi tibbiy personal: hamshiralar, rentgenolog, anesteziolog, laborantlar va boshqa bir qator shaxslar ham hissa qo‘shgan bo‘ladi. Shuning uchun aytish mumkinki, tibbiyot muassasalarida hasadgo‘ylar boshqa muasssasalarga nisbatan ancha kam uchrashi tabiiy hol hisoblanishi lozim.

Ijobiy motivatsiya muvaffaqiyatga erishishning muhim sharti hisoblanadi. Ikkinchi tomondan, inson uchun ahamiyatli bo‘lgan muvaffaqiyatga erisholmaslik shu qadar kuchli, salbiy tuyg‘ularni keltirib chiqaradi.

Shaxsning kasbiy muvaffaqiyatga intilishining bir necha mezonlarini ko‘rsatish mumkin. Birinchidan, muvaffaqiyat aniq natijalarga qarab baholanishi mumkin. (Bunga ishlab topilgan pul mablag‘lari, qilingan ixtirolar, olingan mukofotlar, yaratilgan ne’matlar kabilarni misol qilish mumkin). Vrachning muvaffaqiyati esa, jamiyatdagi eng oliy qadriyat hisoblanadigan inson va uning salomatligi bilan bog‘liq. Mamlakatimizda demokratik islohotlarning amalga oshirilishi ayni paytda inson, uning salomatligi qadri ortib borishi bilan uzviy bog‘liq tarzda kechmoqda. Bunga keyingi qator yillar davomida mamlakatimizda davlat budjetining yarmidan ortiq qismi ijtimoiy sohalarga sarflanayotgani, tibbiyot sohasida qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar, yuzlab qishloq vrachlik punktlarining qurilishi va ishga tushirilishi kabi misollar asosida ishonch hosil qilish mumkin. Bundan tashqari, 2023- yilning mamlakatimizda “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim” deb e’lon qilingani ham mazkur fikrni tasdiqlaydi. Chunki “inson qadri” tushunchasi birinchi navbatda “inson salomatligi” tushunchasini ham qamrab oladi.

Ikkinchidan, muvaffaqiyat sarf qilingan kuch va mablag‘ga nisbatan baholanishi mumkin. Ayni bir xil muvaffaqiyatga turli mutaxassislar turli darajada kuch va mablag‘ sarflab erishishi mumkin. Muvaffaqiyatga katta kuch va ko‘p vaqt hamda mablag‘ sarflab erishilsa, bunday muvaffaqiyat unchalik yuqori baholanmasligi mumkin. Bundan ko‘rinadiki, muvaffaqiyatning ijobiy bahosi unga erishish uchun sarflangan kuch, vaqt hamda mablag‘ miqdoriga teskari proporsionaldir. Biroq, vrachning muvaffaqiyati bunday qoidadan istisno deyish mumkin. Chunki, qancha kuch va vaqt sarflamasin, vrachning muvaffaqiyati baribir yuqori baholanadi. Chunki, uning muvaffaqiyati oliy qadriyat bo‘lgan insonning salomatligi va uni saqlash bilan bog‘liq.

Vrach kasbiy muvaffaqiyatga erishish, ya’ni bemorni muvaffaqiyatli davolash uchun vijdon, hayo, hurmatidan voz kechishi talab etilmaydi (vrachning mansab uchun intilishi bundan mustasno).

Psixologiyada muvaffaqiyatga nisbatan nevrotik reaksiyalar ham tahlil qilinadi. Nevrotik shaxslar soxta maqsadlar, sarob qadriyatlar orqasidan quvar ekan, har doim qayergadir kechikadi. Nevrotik sportchi uchun yonida yugurayotgan odam musobaqadosh emas, dushman hisoblanadi. Shuni ham e’tirof etish kerakki, nevrotik shaxslarning o‘zini ayamasdan, oldinga intilishi tufayli jamiyat ham oldinga siljiydi, yangi texnologiyalar, yangi ixtirolar kashf qilinadi.

Muvaffaqiyat vaziyati muvaffaqiyatdan farq qiladi. Mazkur tushuncha muvaffaqiyatni keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlar yig‘indisidir.

Shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchi uni vaziyatdan yuqoriroqqa ko‘tarilishi va ob’ektiv qiyinchiliklarni yengib o‘tish uchun kuch bag‘ishlashi mumkin. Psixologiyadan ma’lumki, muvaffaqiyat ham muvaffaqiyatsizlik ham insonda stress holatini keltirib chiqaradi. Lekin, muvaffaqiyat qanchalik qiyinchilik bilan qo‘lga kiritilsa ham, u juda kam salbiy iz qoldiradi. U. G. Sele aytganiday, stress keltirib chiqaradi, lekin distressga olib kelmaydi. Insonni muvaffaqiyat keltirgan stress emas, muvaffaqiyatsizlik olib kelgan distress charchatadi va kuchdan ketkazadi. Ayniqsa, muvaffaqiyatga erishay deb turganda, muvaffaqiyatsizlikka uchrash odamga kuchliroq ta’sir qiladi. Bunday holat ruhiy yoki somatik kasalliklarga olib kelishi mumkin.

Psixologiya fanida kasbiy mahoratning bir necha darajalari farqlanadi. Masalan, M.D. Ustyujnikov kasbiy mahoratning “nominal”, “potensial”, “istiqbolli”, “optimal” darajalarini farqlaydi.

V.A. Bodrov kasbiy mahoratning “dastlabki”, “asosiy”, “ijodiy” darajalarini farqlaydi.

Xulosa va tavsiyalar. Yuqoridagi nazariy tahlillardan ko‘rinib turibdiki, psixologlar tomonidan hanuzgacha vrach kasbiy mahorati atroflicha va to‘liq o‘rganilmaganligi kuzatildi. Shunday qilib, yuqoridagi tadqiqotlarning tahlili, birinchidan, umumiy tarzda, ilmiy-nazariy jihatdan kasbiy mahoratga tarif berish imkonini bersa, ikkinchidan, tadqiqot maqsadiga mos vrach kasbiy mahoratining psixodlogik mezonlarini ishlab chiqish va uni amaliyotda qo‘llash uchun ilmiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Demak, mazkur ilmiy mulohazalarni umumlashtiradigan bo‘lsak, bugungi kunda kasbiy mahoratni o‘rganilishi va tadqiq etilishi kasbiy psixologiyaning nihoyatda dolzarb yo‘nalishlaridan biri ekanligini yana bir bor e’tirof etishimiz mumkin.Mana shu holatdan xulosa qilib aytish mumkinki, yoshlarni kasbiy

yo‘naltirish bo‘yicha tadbirlar qanchalik erta o‘tkazilsa, ularning kelajakda yetuk mutaxassis bo‘lib yetishish imkoniyati shuncha baland bo‘ladi. Ma’lumki, qiziqishlarning ong ostida mavjudligi shaxsni shu yo‘nalishda izlanish va mehnat qilishga shunchalik kuchli undaydi. Bunday shaxslarda ko‘pincha masalaning moddiy jihati ikkinchi o‘ringa o‘tib qolishi ham mumkin.

Foydalangan adabiyotlar

1.Абрамова Г.С., Юдчиц Ю.А. Психология в медицине: Учебное пособие.–М.: “Кафедра-М”, 2008.

2. Ильин Е.П.Мотивация и мотивы. – СПб.: Питер, 2010.–512 с.

3. Попов А.С., Кондратьев В.Г. Очерки методологии врачебного мышления. – Л.: “Медицина”, 2002.–С.22-30.

4. Андронов В.П. Профессиональное мышление врача и возможности его формирования.Психологическая наука и образование, 1999. –№2. – С.33

5. Собирова Д.А. Тиббиёт ходимлари касбий компетентлигининг психологик асослари. Монография – Бухоро. “Дурдона” 2020 – 248 б.

UDK:15993752361

Qudratullayeva Ruxsora Baxtiyarovna
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy unversiteti psixologiya kafedrasi dotsenti

Zaripova Dilfuza Qo'ziboy qizi
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy unversitrti ijtimoiy fanlar fakulteti
Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) 2-kurs magistranti
E-mail: zaripovadilfuza1992@gmail.com

FACTORS OF FORMATION OF IDEAS ABOUT HEALTH AND ILLNESS

Abstract. *Factors affecting human health are divided into two groups: 1) environmental factors; 2) factors determined by the typological characteristics of the person. The influence of external factors occurs indirectly - through the psyche. Special attention is paid to personal constructs and motivational factors. In the article, human health is related to functional states of the body and personal relationships. Negative mental states are indicators of maladjustment in the "person - professional environment" system. Mood is considered as a stable component of the mental state, which ensures the relationship between the structure of the person and the physical and mental tone of the person. The role of self-reported health is indicated.*

Key words: *Health, psychological factors, health psychology, motivation, personality, mental states.*

ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О ЗДОРОВЬЕ И БОЛЕЗНИ

Аннотация. *Факторы, влияющие на здоровье человека, делятся на две группы: 1) факторы внешней среды; 2) факторы, определяемые типологическими особенностями личности. Влияние внешних факторов происходит опосредованно - через психику. Особое внимание уделяется личностным конструктам и мотивационным факторам. В статье здоровье человека связано с функциональными состояниями организма и личностными отношениями. Негативные психические состояния являются индикаторами дезадаптации в системе «человек - профессиональная среда». Настроение рассматривается как устойчивый компонент психического состояния, обеспечивающий связь между структурой личности и физическим и психическим тонусом человека. Указана роль самооценки здоровья.*

Ключевые слова: *Здоровье, психологические факторы, психология здоровья, мотивация, личность, психические состояния.*

SALOMATLIK VA KASALLIK HAQIDAGI TASAVVURLAR SHAKLLANISH OMILLARI

Annotatsiya. *Inson salomatligiga ta'sir etuvchi omillar ikki guruhga bo'linadi: 1) atrof-muhit omillari; 2) shaxsning tipologik xususiyatlari bilan belgilanadigan omillar. Tashqi omillarning ta'siri bilvosita - psixika orqali sodir bo'ladi. Shaxsiy konstruktsiyalar va rag'batlantiruvchi omillarga alohida e'tibor beriladi. Maqolada inson salomatligi tananing funktsional holatlari va shaxsiy munosabatlar bilan bog'liq. Salbiy ruhiy holatlar "odam - professional muhit" tizimidagi noto'g'ri moslashuv ko'rsatkichlari hisoblanadi. Kayfiyat psixik holatning barqaror tarkibiy qismi sifatida qaralib, shaxs tuzilishi bilan shaxsning jismoniy va ruhiy ohangi o'rtasidagi munosabatni ta'minlaydi. Salomatlikni o'z-o'zini baholashning roli ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar: *Salomatlik, psixologik omillar, salomatlik psixologiyasi, motivatsiya, shaxsiyat, ruhiy holatlar.*

Mavzuning dolzarbligi. Salomatlik konsepsiyasini tushunmasdan, odamlarga xizmat qilish uchun mo'ljallangan, tibbiyotning qiymat yo'nalishlarini tushunish, inson va odamlarning o'zlari uchun eng maqbul shakllarda hayotning imkoniyatlarini ta'minlash mumkin emas. Odamlarning hayoti va sog'lig'iga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan sharoitlarni yaratishda davlat va jamiyatning o'rni va o'rni bilan bir qatorda. Sog'lik - insonning asosiy hayotiy qiymati, shaxsning uyg'un rivojlanishining asoslari va eng yaxshi farovonlikdir. Zamonaviy jamiyatda "salomatlikning maksimal darajasiga erishish" insonning ajralmas huquqlaridan biri va inson sifatida tan olinadi va ijtimoiy rivojlanishning yakuniy maqsadlaridan biri sifatida eng muhim shart va vosita bo'lib xizmat qiladi. Aksincha, sog'liqni saqlashning past darajasi har qanday

davlatning milliy xavfsizligiga bevosita tahdid soladi va uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga to'siq bo'ladi.

XX asr oxiriga kelib insoniyat kelajakda qanday qilib tinch va osoyishta hayot kechirishi mumkin degan savol eng dolzarb masala bo‘lib qoldi. Dunyodagi ijtimoiy tengsizlik, iqlim o‘zgarishi, tabiiy boyliklarning haddan ortiq ishlatilishi, havo, suv va yerning zaharlanishi, qashshoqlik va boshqa bir qancha muammolarni yechimini topishda yangi bilimlar, yangi bilim dasturlarini yaratish va yangi axloqiy tamoyillar insonning tanasi va ruhiyatiga singishi zarurligini ko‘rsatdi.

O‘tgan asrlarda sil, bezgak, chechak va boshqa bir qancha bedavo dardlarning shifosi topildi va millionlab insonlarning hayoti saqlab qolindi, biroq «OITS» degan bedavo dard paydo bo’lib, butun insoniyatning hayotiga xavf solmoqda. Shu bilan bir qatorda millionlab insonlar iymon sari yuz tutdi, ammo diniy ekstremizm avj oldi va millionlab insonlar hayotiga xavf soldi. Rivojlangan mamlakatlarda aholining turmush darajasi o‘sishi jinoyatchilik, giyohvandlik va ichkilikbozlik, ruhiy kasalliklar hamda «FarovonIik kasalliklari» deb nomlanuvchi semirish harakatsizlik va yurak xastaliklari keng tarqalishi ham kuzatilmoqda. Aholi sonining ortib borishi xomashvo va resurslar sarfini keskin ko‘payishiga sabab bo‘ldi. Bularning natijasida salomatlik muammolari keskinlashdi.

Zamonaviy dunyoda sog'liq bilan bog'liq inson erkinligi chegaralari ko'p jihatdan kengayib bormoqda: odamlarga tibbiy muassasalar va dori-darmonlarni tanlash, farzand ko'rish yoki qilmaslik haqida qaror qabul qilish, odamni koma holatida tirik saqlash yoki yo'qligini aniqlashga ruxsat beriladi. Insoniyat ko'plab ilgari o'limga olib keladigan va davolab bo'lmaydigan kasalliklar bilan kurashishni va hatto o'z jinsingizni o'zgartirishni o'rgandi. Biroq, bunday erkinlikning narxi moddiy-texnik vositalarga keskin bog'liqlikdir. Shu bilan birga, jamiyat doimo shaxsga muayyan majburiyatlarni yuklaydi.

Har bir inson ish, oila, davlat uchun javobgardir. Zamonaviy hayot sharoitlari har bir inson salomatligida o'z izini qoldiradi. Bular atrof-muhit omillari, kasbiy salomatlik omillari va ijtimoiy-iqtisodiy omillardir.

Salomatlik va kasallik haqida fikrlar

Salomatlik - bu nafaqat kasallik va jismoniy nuqsonlarning yo'qligi, balki to'liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik bilan tavsiflangan shaxsning holati. Salomatlik insonning o'z yoshi, ijtimoiy va madaniy rollarini etarli darajada bajarish sharti bo'lib, uning hayoti davomida uzluksiz rivojlanish imkoniyatini ta'minlaydi.

Turli yoshdagi insonlar uchun sog'likka bo'lgan ehtiyoj katta ahamiyatga ega va o'rta yoshga qadar u inson tomonidan muvaffaqiyatga erishishga imkon beradigan narsa sifatida tan olinadi. Inson qanchalik katta bo'lsa, alohida va mustaqil qadriyat sifatida sog'likka bo'lgan ehtiyoj shunchalik yuqori bo'ladi. Bu ehtiyoj doimiy bo'lsa-da, u ritmik xususiyatga ega: sog'liq muammolari paydo bo'lganda, u aktuallashadi, ular yo'q bo'lganda u kamayadi, lekin hech qachon yo'qolmaydi va to'liq qondirilmaydi.

Salomatlik va kasallik haqidagi har qanday g'oyalar har doim nisbiy, tarixiy, shuningdek, ularni belgilaydigan ijtimoiy-madaniy me'yorlar va stereotiplardir. Kimdir tomonidan taklif qilingan salomatlik tushunchasi qanchalik to'liq bo'lishidan qat'i nazar, u ilmiy nutqning mahsulidir (ya'ni, ma'lum bir shaklda tuzilgan "dunyo tasviri" yoki ma'lum bir tilda aks ettirilgan talqinlar tizimi) hozirgi kunda u erda hukmronlik qiladi. muayyan ilmiy yoki professional hamjamiyat. Har qanday hodisa haqida bahslashar ekanmiz, biz muqarrar ravishda u yoki bu nutq maydoniga kiramiz; shu bilan birga, odatiy g'oyalar, stereotiplar va noto'g'ri qarashlar ta'siriga qarshi turish kamdan-kam uchraydi.

Salomatlik va kasallikni aniqlashga urinib, biz madaniyatda allaqachon mustahkamlangan tushunchalar va baholash mezonlari bilan ishlay boshlaymiz yoki o'rnatilgan ilmiy naqshlarga murojaat qilamiz. Boshqacha qilib aytganda, inson salomatligi kabi universal ahamiyatga ega bo'lgan hodisani tushunishda biz ijtimoiy-madaniy qat'iylikdan qochib qutula olmaymiz. Biz xolislikka qanchalik intilmaylik, muayyan holatlarda salomatlik holatini baholashda biz ixtiyoriy ravishda umume'tirof etilgan standartlarga tayanamiz, shuning uchun "sog'lom" va "normal" xususiyatlar ko'pincha sinonim sifatida qabul qilinadi.

Salomatlik - bu to'g'ri ishlaydigan, buzilmagan organizmning normal holati yoki "organizmning to'g'ri, normal faoliyati".

"Salomatlik" va "kasallik" dialektik, bir-birini to'ldiruvchi tushunchalar qatoriga kiradi, ularni prinsipial jihatdan bir ma'noda aniqlab bo'lmaydi va ularni doimiy ravishda tushunish, qayta baholash yangi bilimlarni shakllantirishga, inson hodisasiga yanada yaxlit nuqtai nazarni shakllantirishga olib keladi.

Demak, salomatlikni "normallik" ga qisqartirib bo'lmaydi, bu esa tarixan o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlarga oddiy muvofiqlik sifatida tushuniladi; Bundan tashqari, psixopatologiyani asos sifatida tanlab, uning

asosiy qonunlarini aniqlashtirish bir vaqtning o'zida sog'lom, to'laqonli hayotning yanada aniq chegaralarini o'rnatishiga ishonish, sog'liqni "aksincha" tamoyili bo'yicha belgilash noqonuniydir.

Ruhiy salomatlik kasalliklarining barcha turlari cheksiz o'zgarib turadi va ularning tasniflari psixiatriyada doimiy ravishda qayta ko'rib chiqiladi, ammo biz sog'liq-kasallik dixotomiyasining mohiyatini tushunishga yaqinlashmaymiz. Salomatlik mustaqil va ko'p qirrali hodisa bo'lib, chuqur, xolis tadqiqotni talab qiladi, shuning uchun sog'liqning zamonaviy kontseptsiyasini ishlab chiqish va sog'lom shaxsning faraziy modelini yaratish zarur, bu ikkala sog'lom (to'liq) xususiyatlarini o'rganish uchun indikativ asos bo'ladi.

Salomatlik psixologiyasi psixologiya fanining bir tarmog'i sifatida salomatlik bilan bog'liq hodisalarni o'rganishga qaratilgan. Uning qo'llaniladigan vazifalari quyidagilardan iborat[1]: atrof-muhitdagi inson salomatligiga ta'sir qiluvchi psixologik omillarni aniqlash, kuzatish, ro'yxatga olish, tahlil qilish, prognozlash va ulardan foydalanish. Shu bilan birga, psixologiya fanining tegishli sohalarida qabul qilingan metodlar va tadqiqot usullari - mehnat psixologiyasi, shaxs psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya qo'llaniladi.

Asosan kasallikka, ruhiy jarayonlarga, bemorning funktsional holatiga va xususiyatlariga e'tibor qaratadigan tibbiy psixologiyadan farqli o'laroq, "kasallik prizmasi orqali" ko'rib chiqiladi, salomatlik psixologiyasi uchun bunday "prizma" "salomatlik" tushunchasidir[2].

Psixologiyada shaxs xususiyatlari, funktsional holatlari va organizmda sodir bo'ladigan jarayonlar o'rtasidagi munosabatlar g'oyasi an'anaviy bo'lib qoldi. O'z navbatida, salomatlik, tananing funktsional holatlari va shaxsiy munosabatlar o'rtasida bog'liqlik mavjud[3].

Sog'likka ta'sir qiluvchi ko'plab omillar (tashqi - atrof-muhit ta'siri va ichki, insonning tipologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda) mavjud[4]. Ushbu omillarning umumiy ko'rinishi tadqiqotchiga ularni aniqlash uchun mos psixologik usullarni tanlash imkonini beradi. "Salomatlik psixologiyasi" faniga oid adabiyot manbalarini tahlil qilish asosida salomatlik yoki kasallik bilan bog'liqliklari eng kuchli bo'lgan uchta omillar guruhini shakllantirish mumkin. Keling, ularni chaqiramiz: Birlamchi (oldingi), uzatuvchi (efir) va motivatorlar (umumiy javob omillari).

Keling, ushbu omillar guruhlarini batafsilroq ko'rib chiqaylik.

I. Birlamchi (prekursor) omillar: ularning salomatlik va kasallik bilan bog'liqligi eng kuchli hisoblanad.

1. Salomatlik yoki kasallikka moyil bo'lgan omillar.
2. Kognitiv omillar va insoniy xususiyatlar.
3. Ijtimoiy muhit omillari:
4. Demografik omillar

II. O'tkazuvchi (uzatuvchi) omillar - bu turli xil stress omillariga javoban yuzaga keladigan o'ziga xos inson xatti-harakati. Bu guruhga quyidagilar kiradi:

1. Salomatlikni saqlashga yordam beradigan xatti-harakatlarning stereotiplari:
2. Salomatlikni saqlashga yordam bermaydigan xatti-harakatlarning stereotiplari:

III. Motivatorlar umumiy javob omillari:

1. Stress organizm va psixikaning umumiy adaptiv reaksiyasi sifatida.
2. Kasallikning mavjudligi
3. Insonning adaptiv imkoniyatlari organizm resurslarining ajralmas xarakteristikasi sifatida

Biz har qanday tashqi omillarning insonga ta'siri bilvosita - uning psixikasi orqali sodir bo'lishini ta'kidlaymiz. Salomatlikdagi og'ishlarning ko'rsatkichlari salbiy ruhiy holatlardir.

Tadqiqot metodologiyasi va metodi

2021-2022-yillarda o‘tkazilgan tadqiqotning maqsadi yoshlar o‘rtasida salomatlik va kasallik haqidagi ijtimoiy g‘oyalarning xususiyatlarini o‘rganish va bu g‘oyalar dinamikasini aniqlashdan iborat edi. G'oyalar tahlili yoshlar tomonidan salomatlik va kasalliklarga qanday ma'no berishini ko'rib chiqishga, shuningdek, bu g'oyalarning barqaror va harakatchan elementlarini aniqlashga imkon beradi. Tadqiqot ob'ekti yoshlar edi. Tadqiqotda turli yo'nalishdagi 210 nafar talaba, shu jumladan mehnat va o'qishni birlashtirgan talabalar (170 ayol va 40 erkak),

[1] Ананьев Б.Г. Человек как объект познания. - СПб: Питер, 2001. - 288 с
[2] Arziqulov R.U. Sog‘lom turmush tarzi asoslari 1-2 jild, Toshkent, 2005 yil
[3] Маклаков А.Г. Общая психология: учебник. СПб.: Питер, 2000.- с. 201
[4] Mo‘minov H.M. Sog‘lom turmush tarzi – salomatlik ilmi va amali. Toshkent, 2006 yil.

Biz salomatlik va kasallik haqidagi ijtimoiy g'oyalarda o'zgarishlar yuz berdi, degan taxmindan kelib chiqdik, ammo ular atrofida kristallanadigan "kuch" - "zaiflik" qarama-qarshiligi o'zgarishsiz qoldi. Salomatlik g'oyasining o'zgarishi salomatlikni saqlash usullarini ko'rsatadigan elementlarning ko'proq ifodalanishi bilan bog'liq. Kasallik g'oyasining o'zgarishi uni davolash usullarini ko'rsatadigan elementlarning ko'proq ifodalanishida ifodalanadi.

Savol berish asosiy tadqiqot usuli edi. Anketa 3 qismdan iborat bo'ldi: birinchi qismda kasallik va salomatlik haqidagi g'oyalarning tuzilishini aniqlash uchun bepul uyushmalar usuli qo'llanildi. Ikkinchisida - salomatlikni saqlash choralari, sog'liq uchun tahdid, ushbu muammolar muhokama qilinadigan guruhlar haqida savollar. Uchinchisi ijtimoiy-demografik muammolarni o'z ichiga olgan. Taqdimot effektini engish uchun ob'ektlar ketma-ketligi o'zgardi. Olingan ma'lumotlar prototip tahlili va kontent tahlilidan o'tkazildi.

Natijalarning tavsifi va tahlili. Hammasi bo'lib, respondentlar "sog'liqni saqlash" ob'ekti bilan 1066 ta, "kasallik" ob'ekti bilan 1089 ta assotsiatsiyani taklif qilishdi. Har bir ob'ekt uchun tushunchalar lug'ati tuzilgan bo'lib, unda 280 ta turli tushunchalar - sog'lik holatida, 311 ta kasallik holatida. Har bir ob'ekt uchun assotsiatsiyalarni tahlil qilish vakillik tuzilishini aniqlash imkonini berdi.

Xulosa. Sog'liqni saqlash, tiklash va mustahkamlash masalalari tadqiqotchilarning ongida, shuningdek, "oddiy odam" ongida sog'lik, to'g'rirog'i, uning yo'qligi muammoga aylanganda paydo bo'ladi.

Insonparvarlik nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda zamonaviy sog'liq tushunchalari salomatlik mezonlarining sub'ektivligini ta'kidlaydi. Ushbu holatlar doirasida inson va uning atrofidagi odamlar jismoniy, psixologik va axloqiy noqulayliklarni his qiladilar. Bunday noqulaylik stress, ortiqcha yuk va boshqalar bilan bog'liq vaziyatning buzilishi sifatida yuzaga keladi. Yoki - ayniqsa, vaqt o'tishi bilan, yoshga bog'liq o'zgarishlar bilan ular "normal farovonlik" uchun yangi mezonlarni ishlab chiqadilar. Shu bilan birga, odamlar ongli ravishda yoki ongsiz ravishda, lekin doimo "norma" darajasini pasaytiradi. Ikkala holatda ham "charchoq" kasallikka aylangan vaqtni o'tkazib yuborish imkoniyati mavjud.

Hayotiy resurslardan noto'g'ri foydalanish, shaxslararo va ijtimoiy munosabatlarning nomutanosibligi, muhim hayotiy maqsadlarning yo'qligi bilan bog'liq buzilishlar inson hayotining doimiy "yiqilishi uchun o'yin" ning "o'zgarishlar doirasini" boshlaydi. “Vaziyat charchoqlari”dan boshlab, umuman olganda “hayot charchoqlari” bilan tugaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedov A. Sog‘lom turmush tarzi uzoq umr garovi. Toshkent “Ibn Sino” nashriyoti 2010 yil.
2. Arziqulov R.U. Sog‘lom turmush tarzi asoslari 1-2 jild, Toshkent, 2005 yil
3. Ayrapetov S.G. Salomatlik – his-hayajon, go‘zallik. Toshkent “Fan” 1986. - 80 b.
4. Mo‘minov H.M. Sog‘lom turmush tarzi – salomatlik ilmi va amali. Toshkent, 2006 yil.
5. Qurbonov SH. Q. Ovqatlanish madaniyati. T., Ma’naviyat, 2005. -208 b.
6. Павлов И.Г. Гигиена физического воспитания. Москва изд.”Фис” 1986. -225 с.
7. Ананьев Б.Г. Человек как объект познания. - СПб: Питер, 2001. - 288 с .
8. Маклаков А.Г. Общая психология: учебник. СПб.: Питер, 2000. -592 с. .
9. Маклаков А.Г. Оценка уровня развития адаптационных способностей человека // Семинар по психологии управления и профессиональной деятельности / Под ред. Г.С. Никифорова, М.А. Дмитриева, В.Н. Снеткова. - СПб: Речь, 2001. - С. 127-146.
10. Павлов К.В. Психология здоровья // Практическая психология: учебник для вузов / Под ред. М.К. Тутушкина. - СПб.: Дидактика Плюс, 1998. - С. 291-311

Raximova Indira Igorevna
O'zbekiston milliy universiteti Ijtimoiy psixologiya kafedrasi dotsenti
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

IJTIMOIY FAOL YOSHLARDA TADQIQOT O'TKAZISHNING BIRLAMCHI NATIJALAR TAHLILI

Annotatsiya. *Maqolada ijtimoiy faol yoshlarda tadqiqot o'tkazishning o'ziga jihatlari, Ishtirokchilarni tanlash mezonlari, tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, vaqt cheklovlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari tadqiqotning birlamchi natijalari rasm va jadval ko'rinishida berilgan. Tadqiqotda ma'lumotlarning tahlilida sinaluvchilarning oilaviy ahvoli ham inobatga olingani keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy faol yoshlar, jins, ijtimoiy faollik, yoshlar, oilaviy ahvoli.*

АНАЛИЗ ПЕРВИЧНЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ИССЛЕДОВАНИЯ У СОЦИАЛЬНО АКТИВНОЙ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. *В статье представлена информация об особенностях проведения исследований социально активной молодежи, критериях отбора участников, целях и задачах исследования, а также временных ограничениях. Кроме того, первичные результаты исследования представлены в виде рисунков и таблиц. В исследовании отмечается, что при анализе данных также учитывалось семейное положение испытуемых.*

Ключевые слова: *социально активная молодежь, пол, социальная активность, молодежь, семейный статус.*

ANALYSIS OF PRIMARY RESEARCH RESULTS ON SOCIALLY ACTIVE YOUTH

Abstract. *The article provides information about the features of conducting research on socially active youth, criteria for selecting participants, goals and objectives of the study, as well as time limitations. In addition, the primary results of the study are presented in the form of figures and tables. The study notes that the marital status of the subjects was also taken into account when analyzing the data.*

Key words: *socially active youth, gender, social activity, youth, family status.*

Kirish. Yoshlar jamiyat rivojiga ta'sir ko'rsatadigan eng muhim ijtimoiy guruhlardan biridir. Bugungi kunda, tez o'zgaruvchan dunyoda, yoshlar shaxsiy rivojlanish, jamiyatda o'z o'rnini topish, ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish, shuningdek, kelajakdagi kasbiy faoliyati to'g'risida ongli qarorlar qabul qilish bilan bog'liq ko'plab chaqiruv va muammolarga duch kelmoqdalar. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy faol yoshlarning psixologik xususiyatlarini o'rganish ilmiy jamoatchilik va faoliyatning turli sohalarida amaliyotchilar uchun alohida ahamiyatga ega va dolzarbdir.

Adabiyotlar tahlili. Djerald Meller (Gerald R. Miller) yoshlar faolligi va uning ijtimoiy muhitga ta'sirini o'rgangan amerikalik sotsiologdir. Uning ta'kidlashicha, ijtimoiy faollik ham ijobiy, ham salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Djerald Meller o'z tadqiqotida yoshlar faolligi va uning ijtimoiy muhitga ta'siriga e'tibor qaratdi. Karen Xecht ham yoshlar ijtimoiy faolligining psixologik jihatlarini o'rgangan amerikalik psixolog bo'lib, uning ishi ijtimoiy faollik yoshlarda hissiy barqarorlik, ijtimoiy ko'nikmalar va o'ziga ishonchni rivojlantirishga qanday yordam berishi mumkinligiga qaratilgan. Anna Pshenichnikova (Anna Pshenichnikova) - yoshlarning ijtimoiy faolligini o'rganish jarayonida uning ishi yoshlarning ijtimoiy faol bo'lishiga imkon beradigan psixologik mexanizmlarga va ijtimoiy faollik yoshlar shaxsining rivojlanishiga qanday ta'sir qilishi mumkinligiga qaratilgan.

Ijtimoiy faol yoshlarni o'rganish turli metod va yondashuvlar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Eng keng tarqalgan yondashuvlardan biri bu ijtimoiy hodisalarni ularning ijtimoiy kontekstida va ijtimoiy konstruktlar asosida o'rganishga imkon beradigan sotsiologik yondashuvdir. Yana bir yondashuv – psixologik – yoshlarning xulq-atvori va faolligini belgilovchi psixologik mexanizmlar va omillarni o'rganishni taqozo qiladi. Ijtimoiy faol yoshlarni tadqiq qilish metodlari sifat va miqdoriy metodlarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy faol yoshlarni o'rganishning umumiy metodologiyasi bir nechta bosqichlarni o'z ichiga oladi, ularning har biri aniq va ishonchli natijalarga erishish uchun muhimdir.

Tadqiqot ishtirokchilarini tanlash mezonlarini aniqlash uchun maqsadli guruhni aniqlash kerak. Bunda maqsadli guruh deb, ko'ngillilik, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarda ishtirok etish, ijtimoiy yoki madaniy-ijodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanadigan 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan ijtimoiy faol yoshlar hisoblanadi.

Muhokama va natijalar. Ishtirokchilarni tanlash mezonlari – bu tadqiqotning potensial ishtirokchilarida, ular tadqiqotning maqsad va vazifalariga mos bo'lishlari uchun ega bo'lishlari kerak bo'lgan xususiyatlardir. Tanlov mezonlarini aniqlash tadqiqotning muhim bosqichidir, chunki u tadqiqotga eng katta foyda keltiradigan munosib ishtirokchilarni tanlash imkonini beradi. Tadqiqotimizda biz ishtirokchilarni tanlash uchun quyidagi mezonlarni aniqladik: 18 yoshdan 30 yoshgacha; kamida 1 yil davomida ijtimoiy-siyosiy va ko'ngillilar faoliyatida faol ishtirok etish; tadqiqotda ishtirok etish uchun xabarli rozilik berishga tayyorlik; intervyuda savollarga javob berishga yoki anketani to'ldirishga tayyorlik.

Ko'ngillilik bilan bog'liq tadbirlarda ishtirok etish, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarda, ijtimoiy yoki madaniy-ijodiy tadbirlarda ishtirok etish.


Kamida 1 yil davomida ijtimoiy-siyosiy faoliyatda ishtirok etish tajribasi.

Internetga va ijtimoiy tarmoqlarga kirish imkoniyati.

Ushbu tanlov mezonlari tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, vaqt cheklovlari va ishtirokchilarning mavjudligini hisobga olgan holda aniqlandi.

Ishtirokchilarni tanlash mezonlarini aniqlash uchun biz ushbu sohadagi boshqa tadqiqotchilarning tajribasi va natijalarini hisobga olgan holda adabiyotlar va oldin o'tkazilgan tadqiqotlar sharhini o'tkazdik. Shuningdek, biz ishtirokchilarning yoshi, jinsi, ma'lumoti va yashash joyi kabi turli xil ijtimoiy-demografik xususiyatlarini hisobga oldik.

Tadqiqotda 561 nafar qiz bolalar (52,8 %) va 502 nafar o'g'il bolalar (47,2 %) ishtirok etdi. Ularning taqsimlanishi nisbatan teng bo'lganligi sababli, me'yorlarga mos keladi (1-rasm). Jami 1063 nafar sinaluvchi. Yoshlik davri o'zligini belgilash va o'z individualligini shakllantirish davri ekanligini inobatga olgan holda sinaluvchilarning jinsiy belgilariga qarab ajratdik. Ma'lumotlarning tahlilida gender xususiyatlar ham inobatga olindi.



1-rasm. Ijtimoiy faol yoshlarning jins tafovutlari

Tadqiqotimizda sinaluvchilar oilaviy ahvoli bo'yicha belgilariga qarab ajratdik. Bunda 234 nafar oila (22 %), 203 nafar turmush qurmagan (19,1%), 308 nafar ajrashgan (29%), 318 nafar beva (29,9%) sinaluvchilar ishtirok etdi. Ularning taqsimlanishi nisbatan teng bo'lganligi sababli, me'yorlarga mos keladi (1-jadval). Jami 1063 nafar sinaluvchi. Ma'lumotlarning tahlilida sinaluvchilarning oilaviy ahvoli ham inobatga olindi.


Jadval-1

Sinaluvchilarning oilaviy ahvoli natijalari

	Chastota	Foiz
Oilali	234	22,0
Turmush qurmagan	203	19,1
Ajrashgan	308	29,0

Beva	318	29,9
Jami	1063	100,0

Tadqiqotimizda sinaluvchilar ma’lumoti bo’yicha belgilariga qarab ajratdik. Bunda 320 nafar oliy (30,1 %), 440 nafar tugallanmagan oliy (41,4%), 303 nafar o‘rta maxsus (28,5%) sinaluvchilar ishtirok etdi. Ularning taqsimlanishi nisbatan teng bo‘lganligi sababli, me’yorlarga mos keladi (2-rasm). Jami 1063 nafar sinaluvchi. Ma’lumotlarning tahlilida sinaluvchilarning ma’lumoti ham inobatga olindi.



2-rasm. Sinaluvchilarning ma’lumoti bo’yicha taqsimoti

Tadqiqotimizda sinaluvchilar yashash hududi bo’yicha belgilariga qarab ajratdik. Bunda 354 nafar Toshkent shahri (33,3 %), 318 nafar Farg‘ona viloyati (29,9%), 391 nafar Samarqand viloyati (36,8%) sinaluvchilar ishtirok etdi. Ularning taqsimlanishi nisbatan teng bo‘lganligi sababli, me’yorlarga mos keladi (2-jadval). Jami 1063 nafar sinaluvchi. Ma’lumotlarning tahlilida sinaluvchilarning istiqomat qiluvchi hududi ham inobatga olindi.

Jadval-2

Sinaluvchilarning viloyatlararo taqsimoti

	Chastota	**Foiz**
Toshkent	354	33,3
Farg'ona	318	29,9
Samarqand	391	36,8
Jami	1063	100,0

Tadqiqotimizda sinaluvchilar faoliyat turi bo’yicha belgilariga qarab ajratdik. Bunda 447 nafar o’quv faoliyati bilan (42,1 %), 316 nafar mehnat faoliyati bilan (57,9%) shug‘ullanadigan sinaluvchilar ishtirok etdi. Ularning taqsimlanishi nisbatan teng bo‘lganligi sababli, me’yorlarga mos keladi (3-jadval). Jami 1063 nafar sinaluvchi. Ma’lumotlarning tahlilida sinaluvchilarning faoliyat turi ham inobatga olindi.

Jadval-3

Sinaluvchilarning faoliyati bo’yicha taqsimoti

	Chastota	**Foiz**
o'quv	447	42,1
mehnat	616	57,9
Jami	1063	100,0

Tadqiqotimizda “Ijtimoiy faol yoshlarni aniqlash so’rovnomasi”ni ishlab chiqib, ushbu so’rovnoma orqali ijtimoiy faol yoshlarni o’rganib chiqdik. Tadqiqotda 77 nafar o’ta past darajadagi ijtimoiy faol yoshlar (7,2%), 153 nafar past darajadagi ijtimoiy faol yoshlar (14,4%), 234 nafar o’rta darajadagi ijtimoiy faol yoshlar (22%), 263 nafar yuqori darajadagi ijtimoiy faol yoshlar (24,7%), 336 nafar o’ta yuqori darajadagi ijtimoiy faol yoshlar (31,6%) tashkil qildi. Ularning taqsimlanishi nisbatan teng bo’lganligi sababli, me’yorlarga mos keladi (4-jadval).

Jadval-4

Sinaluvchilarning ijtimoiy faollik darajasi bo’yicha taqsimoti

	Chastota	Foiz
o'ta past	77	7,2
past	153	14,4
o'rta	234	22,0
yuqori	263	24,7
o'ta yuqori	336	31,6
Jami	1063	100,0

Tadqiqotimizda “Ijtimoiy faol yoshlarni aniqlash so’rovnomasi”ni ishlab chiqib, o’spirinlik hamda yoshlik davrlarining turli xil yoshlarni o’rganib chiqdik. Tadqiqotda 98 nafar 20 yosh (9,2%), 125 nafar 21 yosh (11,8%), 66 nafar 22 yosh (6,2%), 151 nafar 23 yosh (14,2%), 93 nafar 24 yosh (8,7%), 137 nafar 25 yosh (12,9%), 116 nafar 26 yosh (10,9%), 52 nafar 27 yosh (4,9%), 81 nafar 28 yosh (7,6%), 84 nafar 29 yosh (7,9%), 60 nafar 30 yosh (5,6%)gilar tashkil qildi. (5-jadval) Ularning taqsimlanishi nisbatan teng bo’lganligi sababli, me’yorlarga mos keladi. Lekin biz tadqiqotimizda ijtimoiy faol yoshlarning psixologik xususiyatlarini o’rganishni maqsad qilib olganimiz sababli sinaluvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olmadik.

Jadval-5

Sinaluvchilarning yosh bo’yicha taqsimoti

	Chastota	Foiz
20,00	98	9,2
21,00	125	11,8
22,00	66	6,2
23,00	151	14,2
24,00	93	8,7
25,00	137	12,9
26,00	116	10,9
27,00	52	4,9
28,00	81	7,6
29,00	84	7,9
30,00	60	5,6
Jami	1063	100,0

Ushbu tadqiqot ishimizning psixodiagnostik imkoniyatlari ham juda keng hisoblanadi va dissertatsion ishimizning asosiy metodikalari sifatida quyidagi metodikalardan foydalandik. Bular “Ijtimoiy faol yoshlarni aniqlash” mualliflik so’rovnomasi, Soldatovaning Tolerantlikning umumiy darajasini aniqlash uchun “Tolerantlik indekslari” ekspress-anketasi, I.V.Zverevaning o’z-o’zini rivojlantirish qobiliyati so’rovnomasi, A.V. Karpovning Refleksivlikni rivojlantirish darajasini aniqlash so’rovnomasi, I.G.Seninning Qadriyatlar yo’nalishlari savolnomasi, R.B.Kettellning «Shaxsni 16 omil yordamida o’rganish so’rovnomasi», V.Smekal, M.Kucheraning “Shaxsiy yo’nalganlikni aniqlash metodikasi”, T.Lirining “Shaxslararo munosabatlar interpersonal tashhisining modifikatsiyalashtirilgan varianti” metodikasi, M.V.Chumakovning “Shaxsning irodaviy sifatlarini o’rganish metodikasi” hamda E.G’.G’ozievning Vatanparvarlik his-tuyg’usini baholash mezonlari metodikalari.

Yuqorida keltirilgan metodikalar 1063 nafar yoshlarda o’tkazildi va birlamchi natijalar olindi.

Tadqiqot natijalarini statistik jihatdan qayta ishlashda korrelyatsion tahlili va boshqa matematik-statistik usullardan foydalanildi. Natijalarning psixologik tahlili tadqiqotimizning keyingi bosqichlarida keltirilgan.

Metodikalarimizning parametrik yoki noparametrik mezonlarga mansub ekanini aniqlash maqsadida Kolmogorov-Smirnov mezonidan foydalandik va natijalar tahlilini amalga oshirdik.

E.G‘ozievning “Vatanparvarlik his-tuyg‘usini baholash mezonlari” metodikasi (D_z=3,018; p<0,01) normal taqsimlanish qonuniga mos kelmadi va bu metodikani biz noparametrik me’zonlar orqali tahlil qilamiz. Mann Uitni, Vilkokson, Spirman, Krusskal Uollis me’zonidan foydalanishimiz kerak bo’ladi.

I.V.Zverevaning o’z-o’zini rivojlantirish qobiliyati so’rovnomasi (D_z =3,482; p<0,01) normal taqsimlanish qonuniga mos kelmadi va bu metodikani biz noparametrik me’zonlar orqali tahlil qilamiz. Mann Uitni, Vilkokson, Spirman, Krusskal Uollis me’zonidan foydalanishimiz kerak bo’ladi.

A.V.Karpovning “Refleksivlikni rivojlantirish darajasini aniqlash” metodikasi (D_z=5,469; p<0,01) normal taqsimlanish qonuniga mos kelmadi va bu metodikani biz noparametrik me’zonlar orqali tahlil qilamiz. Mann Uitni, Vilkokson, Spirman, Krusskal Uollis me’zonidan foydalanishimiz kerak bo‘ladi (6-jadval).

Jadval-6

E.G’ozievning “Vatanparvarlik his-tuyg’usini baholash mezonlari” metodikasi, I.V.Zverevaning o’z-o’zini rivojlantirish qobiliyati so’rovnomasi hamda A.V.Karpovning “Refleksivlikni rivojlantirish darajasini aniqlash” so’rovnomalarining Kolmogorov-Smirnov mezoni bo’yicha natijalar tahlili

Ko’rsatkichlar	Kolmogorov-Smirnova mezoni D	Ishonch darajasi (p)
Goziyevning “Vatanparvarlik his-tuyg’usini baholash mezonlari” metodikasi	3,018	0,000***
I.V.Zverevaning o’z-o’zini rivojlantirish qobiliyati so’rovnomasi	3,482	0,001***
A.V.Karpovning “Refleksivlikni rivojlantirish darajasini aniqlash” so’rovnomasi	5,469	0,000***

***P<0,000

*** 0,001-0,000 99,9% ishonch darajasi

Xulosa. Kolmogorov Smirnov bo’yicha tahlil natijalarining ko’p qismi, ya’ni 90%i normal taqsimlanish qonuniga mos kelmaganligi tufayli biz tadqiqot ishimizda noparametrik mezonlardan foydalandik.

Demak biz keyingi ishlarimizda Styudent t-mezoni, Dispersion tahlil mezoni hamda Pirson mezonlaridan foydalana olmaymiz. Demak bu shkalani biz noparametrik me’zonlar orqali tahlil qilamiz, ya’ni Mann Uitni, Vilkokson, Spirman, Krusskal Uollis me’zonidan foydalanishimiz lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Miller, G.R., & Boster, F.J. (1989). "The impact of communication on social support within young adults' personal networks". Human Communication Research, 16(4), 504-531.
2. Hecht, K., & Miller-Day, M. (2013). Parent-Adolescent Communication About Sex and Condoms: Impact on Peer Influences of Sexual Risk Behavior. Journal of HIV/AIDS & Social Services, 12(2), 203-218.
3. Рахимова, И. И. Влияние ценностей на социальную активность. *edagogik ahorat*.
4. Рахимова, И. И., & Юлдашева, Н. Ш. (2021). Роль молодёжи в борьбе против изменения климата. being a music fan: fandom effects on the psychological well-being of its participants

Raxmatullaev Farxod Baxtiyor o'g'li
O'zbekiston Milliy universiteti "Umumiy psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi

YOSH PEDAGOGLARDA ILMIY IJODKORLIK KOMPETENSIYASI NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqola yosh pedagoglarda ijodkorlik kompetensiyasi namoyon bo'lishining psixologik jihatlari mavzusiga bag'ishlangan. Shuningdek, maqola mazmunida ijodkorlik xususiyati va uning psixologik tabiati, pedagogik faoliyatda ijodkor ishlash va uning mexanizmlari, yosh pedagoglarda ilmiy ijodkorlik kompetensiyasini rivojlantirish, shaxs ijodkorligini tadqiq etishning psixologik o'ziga xosliklari, ijodiy kompetensiya va innovatsion ishlash ko'nikmasi, ijodiy kompetensiya va uni tashkil etuvchi psixologik sifatlar, zamonaviy psixologiyada ijodiy kompetenlik va innovatsion ishlashni tushuntiruvchi nazariyalar va ilmiy yondashuvlar.*

Kalit so'zlar: *Pedagogik faoliyat, pedagog, ijodkorlik, ijodiy kompetensiya, shaxs, innovatsiya, kreativlik, ta'lim, tarbiya, o'qitish, zamonaviy bilim, faoliyat, motiv, ko'nikma, tanqidiy fikrlash, sezgirlik, kognitiv faollik, oliy ta'lim, o'qituvchi, rivojlantirish, o'ziga xoslik, omillar.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОЯВЛЕНИЯ НАУЧНО-ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У МОЛОДЫХ ПЕДАГОГИ

Аннотация. *Статья посвящена теме психологических аспектов проявления творческой компетентности у молодых педагогов. Также в содержании статьи рассмотрены сущность творчества и его психологическая природа, творческий труд в педагогической деятельности и его механизмы, развитие научной творческой компетентности у молодых педагогов, психологические особенности исследования индивидуального творчества, творческой компетентности и инновационных трудовых навыков. творческая компетентность и ее организация, психологические качества, теории и научные подходы, объясняющие творческую компетентность и инновационные работы в современной психологии.*

Ключевые слова: *Педагогическая деятельность, педагог, творчество, творческая компетентность, личность, новаторство, творчество, образование, воспитание, обучение, современные знания, активность, мотив, умение, критическое мышление, чувствительность, познавательная активность, высшее образование, педагог, развитие, личность, факторы.*

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE MANIFESTATION OF SCIENTIFIC AND CREATIVE COMPETENCE IN YOUNG TEACHERS

Annotation. *The article is devoted to the topic of psychological aspects of the manifestation of creative competence among young teachers. The content of the article also examines the essence of creativity and its psychological nature, creative work in teaching and its mechanisms, the development of scientific creative competence in young teachers, psychological features of the study of individual creativity, creative competence and innovative work skills. creative competence and its organization, psychological qualities, theories and scientific approaches that explain creative competence and innovative work in modern psychology.*

Key words: *Pedagogical activity, teacher, creativity, creative competence, personality, innovation, creativity, education, upbringing, training, modern knowledge, activity, motive, ability, critical thinking, sensitivity, cognitive activity, higher education, teacher, development, personality , factors.*

Kirish. Hozirgi kunda, zamonaviy ta'lim sohasida fan texnika faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirish kabilar, yurtimiz kelajagini munosib tarzda barpo etishning muhim omilllaridan biri bo'lib bormoqda. Qolaversa, dunyoning rivojlangan davlatlaridan bo'lgan AQSh, Yaponiya, Malayziya, Koreya, Germaniya, Fransiya va Avstriya kabi davlatlarda yuqori ijodiy ko'nikma va malakalarga ega, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga asosiy yo'nalishi sifatida qaralib, oliy ta'limda kompetentlikni, shu jumladan, zamonaviy o'qitishning kreativ va ijodiy uslublarini keng joriy etilishi ta'minlanmoqda. Bu esa, o'z navbatida bo'lajak mutaxassislarni bo'lajak ijodiy faoliyat muvaffaqqiyatlariga xizmat qiluvchi, zamonaviy bilim va ko'nikmalar, yangicha fan yondoshuvlari va ilg'or konseptual asoslar orqali, maxsus qobiliyatlarini shakllantirish zaruratini yanada oshiradi. Hozirgi kunda har bir fanni o'qitishda bolani har tomonlama

rivojlantirish, bolada ijodkorlikni rivojlantirish, uning mustaqilligi va faolligini to‘g‘ri yo‘naltirish kabi masalalarni kompleks hal etish zarurligi keng e’tiborga olingan. Zamonaviy ta’limning asl maqsadi, insonga ma’lum bilimlarni yetkazishgina emas, balki uning ma’naviy-axloqiy mohiyatini rivojlantirishdir.

Adabiyotlar tahlili. Xorij tadqiqotchisi V.A.Adolfning ta’rificha, “ijodiy kompetensiya” - bu an’anaviy yoki qabul qilingan fikrlash shakllaridan chetga chiqadigan, tubdan yangi g‘ayrioddiy g‘oyalarni yaratishga qodirlik, shuningdek, murakkab vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish qobiliyati kabi xususiyatlar bilan tavsiflangan shaxsning ijodiy qobiliyatidir[1].

Shuningdek, ijodkorlik kompetensiyasi murakkab jarayon sanalib, uni o‘rganishda qobiliyat, iqtidor, ijod kabi tushunchalarning tabiati ham hisobga olinishi lozim. Gans Yurgen Ayzenk ijodiy sifatlarni belgilovchi, va asoslovchi qobiliyat tushunchasiga alohida e’tibor qaratib, uni insonning butun ruhiy holatining boshqa fazilatlari bilan tabiiy birligi sanaladi. Har bir inson yangi bilimlar va tajribalarni o‘zlashtirishga qaratilgan o‘quv faoliyati orqali rivojlanadi, maxsus bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaydi, ijodiy faoliyat orqali o‘z qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bois, psixologiya fani qonuniyatlariga ko‘ra, ijodkorlik sifatini shaxsda rivojlantirish ishlari juda erta amalga oshiriladi. Va bu holat muvaffaqqiyatli bola aql-zakovatining tabiatini ochadi, uning ijodkorlik qobiliyatini psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi. Ijod va ijodkorlik masalasi, xorij tadqiqotchisi E.Torrensning izlanishlari bilan bog‘liq bo‘lib, u insondagi sezgirlik, muammolarni aniqlay olish xususiyati, farazlar asosida har qanday masalaning yechimini topa bilishga, uni o‘zgartirish kabilarga xizmat qiluvchi qobiliyat turlarini tadqiq etishga harakat qilgan[2].

Bundan tashqari, shaxsning ijodkorligi, ijodiy qobiliyatlar, kompetentlik va ijodiylikni tadqiq qilish bo‘yicha xorijiy tajribalar F.Barron, Ye.DeBono, G.Demos, E.From, Dj.Gilford, T.Lyubard, A.Maslou, K.Mushiru, K.Rodjers, A.Rou, R.Stenberg, S.Tordjman, F.Zenaslarning ham ishlarida keng o‘rganilgan[3]. Yuqorida nomlari qayd etilgan psixolog tadqiqotchilarning xulosalariga ko‘ra, “ijodiy kompetensiya” faqat ijodkorlikda namoyon bo‘lishning muhim shartlaridan biridir. Bunday holatda insonning umumiy intellekti va maxsus qobiliyatlari o‘rtacha darajadan ancha yuqori bo‘lishi, shuningdek, topshiriqni bajarish uchun, avvalambor, ishtiyoq bo‘lishi lozim.

Zamonaviy psixologiyada ijodiy jarayonga nafaqat aqliy harakat, balki insoniy sifat, obraz yoki turmush tarzi, dunyoga munosabati sifatida qaraladi. Shaxs kamolotidagi ijodiy taqdir, shaxsning madaniyat bilan munosabati va muloqot malakalari bilan belgilanadi. Psixolog G.Olport o‘zining “Shaxs” nomli birinchi fundamental kitobida shunday deydi: “har bir rassom, bastakor, o‘qituvchi, o‘quvchi, pianinochi, haykaltarosh, raqqosa, shoir, dramaturg, rassom, notiq, fotograf, akrobat, uy bekasi va oddiy haydovchining o‘ziga xos harakatlar uslubi bor. Biz Shopinning sonatalarini, Van Gogning rasmlarini va Salli xolaning piroglarini bir uslubda taniy olamiz. Demak, uslub ijodiy qobiliyatning yuqori darajasi sanalib, u yaxshi integratsiyalashgan va shaxsning muvaffaqqiyatli xatti-harakati ishtirok yetganda yuzaga keladi” deb ta’kidlaydi[4].

So‘zlariga ko‘ra, ijodkorlik albatta, cheklangan amaliyot sohalarida shaxs individualligini aks ettirish yoki yaxshi rasm chizishni anglatmaydi, balki u kundalik va oddiy ko‘rinadigan narsalarda, masalan, kechki ovqat tayyorlash, mashinani ta’mirlash va hatto pol yuvishda ham ifodalanishi mumkin. Shunga qaramay, masalan, ko‘pchilik yaxshi asar va ijod namunalarini dunyodagi eng yaxshisi deb baholashadi, bu yangiliklarni yaratishga bo‘lgan ijodiy yondashuvni aks ettiradi va muhabbat bilan uyg‘unlashadi. Demak, ijodiy kompetensiya insonning o‘ziga xos sifatlari va maxsus qobiliyatlari majmui sanalib, yangi va ilg‘or g‘oyalarni yaratishga xizmat qiladi. L.A.Adreevaning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, har bir yoshning o‘ziga xos qobiliyatlari bor va u ijodkorlik uchun juda muhimdir. Shuning uchun bolani yoshligidan maktabni tugatguniga qadar, ijodga doimiy jalb etish, aql-zakovat va moslashuvchanlik kabi sifatlarni rivojlantirish o‘ta muhim ish sanaladi [5].

D.B.Bogoyavlenskayaning so’zlariga ko‘ra, “ijodiy kompetensiya” mazmunini tahlil qilish, birinchi navbatda, “qobiliyat” tushunchasini tushunishni talab qiladi. Falsafada “qobiliyatlar” shaxsning muayyan harakatni amalga oshirish imkonini beruvchi shaxsiy xususiyatlari bo‘lib, ular ijtimoiy-tarixiy faoliyat natijasida shakllanib, yanada rivojlanib borishini ta’kidlanadi. “Ijod” so‘zining ma’nosi etimologik eihatdan “ishlab chiqarish”, “ixtiro qilish” degan ma’noni anglatadi [6]. Demak, bu yangi narsa ixtiro qilish, muvaffaqiyatga erishish demakdir. Falsafiy lug‘atda shunday izoh berilgan: “... ijodkorlik – o‘ziga xos, tarixiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan, yuqori sifatli yangiliklarni ochib beruvchi harakatdir”.

Taniqli psixolog L. S. Vigoskiy kashfiyotni “ijodiy” deb ta’riflaydi. Va ushbu masalani chuqur o‘rgangan psixologlardan biri Ya.A. Ponomarev ijodkorlikni - “rivojlanish” tushunchasi bilan tenglashtiradi. Chunki yangilik, ayniqsa, intellektual ma’noda bola ruhiyatini yangi sifat bosqichiga

ko‘taradi. Hozirgi sharoitda davlatlarning rivojlanish darajasini nafaqat tabiiy resurslarning boyligi, balki intellektual va bunyodkorlik jamiyati, fan va ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishdagi muvaffaqiyatlar ham belgilaydi. Shunday qilib, bola doimiy monitoring davomida mustaqil ishlay boshlaydi. Muallifning xulosalariga ko’ra, 2 yoshdan 3 yoshgacha rasm chizishga qiziqish, iqtidor bor. Ta’lim jarayonida ijodiy ish, atrof-muhit qiyofasi bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Masalan, “Siz nimani chizdingiz? Bolaga buni eslatish kerak. Ushbu faoliyat davomida atrof-muhit bilan tanishish uchun bola dastlab bu savolga jimgina javob bermasligi mumkin. Shu ma’noda, uzluksiz ijodiy ish jarayonida bola nimani va qanday yoqtirishini tushuna boshlaydi. Bog‘cha bolalarining qobiliyatlari ikki xil tarzda rivojlanadi. Birinchidan, har bir bola, bilim olish jarayonida insoniylik tajribasini o‘rgansa, ikkinchidan, har bir bola ijodiy faoliyat orqali o‘zining ichki imkoniyatlarini rivojlantira boradi. O‘rganish va ijodiy faoliyat o‘rtasidagi farq shundaki, bola o‘z-o‘zini shakllantirish g‘oyasini amalga oshirishning yangi usullarini izlaydi. Muammoni o‘ziga xos tarzda hal qilishga harakat qiladi. Bugungi kunda, ijodkor o‘quvchilar har qanday ijodiy vazifani muvaffaqiyatli hal qilishlari mumkin. Faqat unga yaxshi rahbarlik va yaxshi o‘quv muassasasi kerak. Ijodkorlik - bu inson hayoti davomila o‘z-o‘zini bilishga intilish. Inson hayotda to‘g‘ri yo‘lni topish uchun, to‘g‘ri fikr yuritishni, mustaqil ravishda sifatli, asosli qarorlar qabul qilishni o‘rganishi kerak. Inson qobiliyatini rivojlantirish, uning susayishiga yo‘l qo‘ymaslik uning ma’naviy quvvatini mustahkamlashga, hayotda o‘z o‘rnini topishiga xizmat qiladi. Chunki, inson nafaqat mavjudot, balki yaratuvchi hamdir. Bolaning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish yo‘llari va vositalarini aniqlash psixologiya va pedagogikada azaldan o‘rganilgan. D.B.Bogoyavlenskaya shunday yozadi: “Maxsus qobiliyatli kishilarning aqliy sohalari, qobiliyatlari va moyilliklari, shaxsiyati va tashqi ko‘rinishi har xil bo‘ladi. Biroq, bu masalada ular yuz foiz bir xil emas. Bu tabiatning, inson tabiatining yana bir siridir” [7]. Shunga qaramay, har bir kishi o‘z irodasiga mos ravishda o‘z qobiliyatlarini tan olish va rivojlantirishga intiladi. Aksincha, o‘z qobiliyatlarini behuda sarflaydiganlar va boshqalarga sarflayotganlar juda ko‘p hisoblanadi. Qobiliyatlarni rivojlantirish va shakllantirish jarayoni turli darajalarda rivojlanadi. Birinchi daraja reproduktiv, ikkinchi daraja ijodiy deb ataladi. Reproduktiv daraja - o‘qish, yozish, hisoblash qobiliyati va ijodiy daraja - maxsus qobiliyatlarni tan olish. S.A.Gelmanovning izlanishlariga ko‘ra, har bir inson o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish va shakllantirishning boshlang‘ich bosqichida o‘rganish, bilim olish, zarur harakatlarni amalga oshirish uchun moslashuvchanlikka ega bo‘ladi. Ikkinchi daraja esa, yangi narsalar va asarlar yaratish qobiliyatini anglatadi[8]. Ijodning har qanday turi mashaqqatli mehnat bilan rivojlanadi va shakllanadi. Hech kim qattiq mehnat qilmasa, uning ijodi ahamiyatsiz bo‘ladi. Zero, qobiliyat inson qalbining tafakkur, kuchli iroda, matonat, matonat, tezkor tasavvur kabi ko‘p jihatlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Tadqiqot metodlari. Mazkur maqola mazmunini amaliy jihatdan yoritishda biz, I.M.Kondakov tomonidan ishlab chiqilgan “Ijodiy ahamiyatga ega bo‘lgan sifatlarni o‘rganish” kabi so‘rovnomalardan foydalandik. Va Natijalarni qayta ishlash uchun, matematik statistika metodlardan: Styudentning t-mezoni, hamda K.Pirsonning korrelyatsiya koeffitsenti kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari amaliy tahlili. Yosh pedagoglarda ijodkorlik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida, motivlar ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi, chunki ularda ijodiy kompetensiyaning rivojlanishi ta’lim-tarbiya jarayoni va tarbiyaviy munosabatlarning samaradorligiga ham bog‘liq bo‘lib, mazkur jarayonlarning natijasi, shaxsda ijodiy kompetensiyani rivojlantirishning natijaviyligini ifodalaydi. Demak, yosh o‘qituvchilarda ijodiy kompetensiyani rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘rganish, o‘ziga xos ahamiyatga ega sanalib, bunday holatda o‘quv motivlarini ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishning asosi, deb aytishimiz mumkin.

Jadval-1

Ijodiy ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyatlarni aniqlash so‘rovnomasi o‘rtasidagi korrelyatsiya ko‘rsatkichlari
(K.Pirsonning korrelyatsiya koeffitsienti bo‘yicha)

Kuzatuvchan	Kuchli xotira	0,502**
	Hissiy	0,397**
	Irodali	0,377**
	Nutq	0,395**
	Kommunikativ	0,283*
Kuchli xotira	Hissiy	0,598**
	Sezgir	0,336*
	Intellektual	0,408**
	Irodali	0,387**

Sezgir	Hayolchan	0,319*
	Intellektual	0,404**
	Hissiy	0,317*
	Irodali	0,344*
	Nutq	0,434**
	Kommunikativ	0,328*
Hayolchan	Intellektual	0,511**
	Irodali	0,547**
Intellektual	Irodali	0,603**
	Kommunikativ	0,384**
Hissiy	Nutq	0,461**
Irodali	Kommunikativ	0,519**

Izoh: * r≤ 0,05, ** r≤ 0,01.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, tarix yo‘nalishidagi yosh o‘qituvchilarning ijodiy kompetensiyasi bo‘yicha, ijodiy ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyatlarni aniqlashni o‘rganish so‘rovnomlari bo‘yicha, faktorlar orasidagi korrelyatsion aloqalar ko‘proq, kuzatuvchanlikka oid faktorlar bilan to‘g‘ri bog‘lanayotganligi ya’ni, kuchli xotira (r=0,502, r≤0,01), hissiy (r=0,397, r≤0,01), irodali (r=0,377, r≤0,01), nutq (r=0,395, r≤0,01) va kommunikativ (r=0,283, r≤0,05) faktorlari bilan, kuchli xotira shkalasi sezgir (r=0,336, r≤0,05), intellektual (r=0,408, r≤0,01), hissiy (r=0,361, r≤0,01) va irodali (r=0,387, r≤0,01) faktorlari bilan, sezgirlik shkalasi hayolchan (r=0,319, r≤0,05), intellektual (r=0,404, r≤0,01), hissiy (r=0,317, r≤0,05), irodali (r=0,344, r≤0,05), nutq (r=0,434, r≤0,01) va kommunikativ (r=0,328, r≤0,05) bilan, hayolchan shkalasi intellektual (r=0,511, r≤0,01) va irodali (r=0,547, r≤0,01) bilan, intellektual shkalasi irodali (r=0,603, r≤0,01) va kommunikativ (r=0,384, r≤0,01)bilan, hissiy shkalasi nutq (r=0,461, r≤0,01) bilan, irodali shkalasi kommunikativ (r=0,519, r≤0,01) faktorlari orasida yuqori darajada korrelyatsion aloqalar kuzatilayotganligini ko‘rish mumkin.

Xulosa. Jamiyat va atrof-muhitdagi jadal o‘zgarishlar, ijodkorlik qobiliyatiga ega bo‘lgan, alohida qarorlar qabul qila oladigan shaxsga qator talablar qo‘yadi. Umuman olganda, mazkur muammo yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1.Ijodiy kompetensiyaning kasbiy faoliyatiga ijobiy ta’siri mavjud bo‘lib, ijodiy kompetensiya rivojlangan yosh o‘qituvchilarda o‘quv jarayonidagi topshiriqlarni tez bajara olishi yuqori darajada shakllanganganligidan dalolat beradi.

2.Ijodiy kompetensiya pedagogik faoliyatga ijobiy ta’siri aniqlandi: ijodiy kompetensiya rivojlangan yosh o‘qituvchilarda ijodiy bilimdonlik sifatlari, boshqa talabalarga nisbatan yaxshiroq rivojlanganligi yuqori ko‘rsatkichlarni namoyon etdi.

3.Shaxsda ijodiy kompetensiya shakllanishining psixologik xususiyatlari bo‘yicha olingan natijalar, ikki yo‘nalish tekshiriluvchilarida natijalarning o‘zaro bir xilligi, gumanitar ta’lim yo‘nalishida faoliyat yuritish, ularning fikri aksariyat vaziyatlarda bir joydan chiqadi, deb aytish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Адолф В.А. Теоретические основы формирования профессионалной компетентности учителя: дис.... д-ра пед.наук М., 1999. – С.96.

2. Торренс Э. Активизация различных видов учебных занятий в институте. Методическая разработка. - Д.: ИПК СП, 2014. – 78 с.

3. Айзенк Г.Ю. Интеллект: новый взгляд. // Вопросы психологии. -1995.-№1.- С.23-31.

4. Алтшуллер Г. С. Творчество как точная наука. - М.: Наука, 2011. – С.96.

5. Андреев А. Л. Знания или компетенции? // Высш. образование в России : науч.-пед. журн. - 2005. - № 2. - С. 3-11

6. Богоявленская Д. Б. Психология творческих способностей. - М.: Изд. центр «Академия», 2002. – С.13.

7. Гилманов С.А. Диагностика качеств творческой индивидуалности педагога: Учеб. пособие. - Тюмен: Изд-во ТГУ, 1998. – С.34.

Shernayeva Shahnoza Aqmirzayevna
O'zbekiston Milly universiteti Umumiy psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK KASBIY MAHORATINI SHAKLLANISHIDA TIZIMLIY YONDASHUVNING AHAMYATI

Anatatsiya. *Bo'lajak o'qituvchining kasbiy shakllanish muammolarini o'rganish, ushbu maqola doirasida olimlarning tizimli yondashuv sohasidagi ishlanmalarida asosli uslubiy pozitsiyalarga tayanish tavsiya etiladi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv yuqori darajadagi tizimda qismlar va butunlarning o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ilmiy prinsip, bilish va o'zgartirish usuli sifatida qaraladi. Shunday qilib, bo'lajak o'qituvchining kasbiy shakllanishi ushbu maqolada ichki shaxsiy o'zgarishlar tizimi, shaxsga tashqi ta'sir tizimi va talabaning kasbiy rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan tashkiliy tizimlarning o'zaro ta'sirida keltirilgan.*

ЗНАЧЕНИЕ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА В ФОРМИРОВАНИИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОПЫТА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Анатация. *Для изучения проблем профессионалного становления будущего учителя рекомендуется опиратся на обоснованные методологические позитсии в разработках ученых в области системного подхода в рамках данной стати. В то же время этот подход рассматривается как научный принцип, способ познания и изменения с учетом взаимозависимости и взаимодействия частей и селых в системе более высокого уровня. Таким образом, профессионалное становление будущего учителя представлено в данной стате во взаимодействии системы внутренних личностных изменений, системы внешнего воздействия на личност и организатсионных систем, связанных с профессионалным развитием студента.*

THE SIGNIFICANCE OF A SYSTEMATIC APPROACH IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL PROFESSIONAL EXPERIENCE OF FUTURE TEACHERS

Anatatsiya. *To study the problems of professional formation of the future teacher, it is recommended to rely on reasonable methodological positions in the development of scientists in the field of systematic approach within the framework of this article. At the same time, this approach is considered as a scientific principle, a way of knowing and changing, taking into account the interdependence and interaction of parts and wholes in a higher-level system. Thus, the professional formation of the future teacher is presented in this article in the interaction of the system of internal personal changes, the system of external influence on the person, and the organizational systems related to the professional development of the student.*

Adabiyotlar tahlili. Bu borada jahon psixologlari bilan bir qatorda respublikamizning psixolog olimlari ham o'z hissasini qo'shib kelmoqdalar. Xususan, D.G.Muhamedova, R.B.Abduraxmonova, Yu. M. Asadov va A.A.Beknazarov, A.A.Zokirov va pedagogik vaziyatlarga tayyorlik bo'yicha M. Golubeva, Yu.A. Skroskiy R.M.Fatixova, R.I. svetkova G.G. Petrochenko, A.P.Ershov va boshqalar.

Asosiy qism: Ilmiy adabiyotlarda bo'lajak o'qituvchilarni samarali tayyorlash, qoida tariqasida, pedagogik oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonining tarkibiy mazmuni, shakllari va usullarini ochib beradigan asosiy qoidalar, tarkibiy qismlar to'plami sifatida qaraladi. Ushbu tizimning eng muhim xususiyatlari uning yaxlitligi va tashqi muhitga, shuningdek, turli ta'sirlarga qarshilik ko'rsatish imkoniyatidir. Ko'rinib turibdiki, psixologiya va pedagogikadagi tizimlar va izchillikni tadqiq qilish, ularning barcha jozibadorligi va istiqbollari uchun ko'plab qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarni tizim sifatida tayyorlashni o'rganishda turli olimlar duch keladigan qiyinchiliklarni aytib o'tishgan. [1.2]

M. Golubeva, Yu.A. Skroskiy ta'kidlashicha, kasbiy tayyorgarlik moslashish davrini, kasbiy shakllanishning muhim davrlarini, shuningdek, psixik yangiliklarning takomillashtirish davrini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, kasbiy shakllanishning tanqidiy davri ta'lim olishga qiziqishning pasayishi, kasbiy qoniqishning pasayishi, ba'zi bir tartibsizliklar, xavotirning kuchayishi va psixikaning rivojlanishning bir darajasidan boshqasiga o'tishining bir xilligini buzish bilan birga bo'lishi mumkin. Shunday qilib, bir tomondan, faoliyat shaxsiy xususiyatlarga ta'sir qiladi, shaxsiy o'zgarishlarni rag'batlantiradigan professional shaxs tipini shakllantirishga hissa qo'shadi. Shu bilan birga, faoliyat, muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda, aksincha, shaxsning ayrim individual psixologik xususiyatlarining rivojlanishiga

to‘sqinlik qilishi mumkin. Boshqa tomondan, shaxs faoliyatning vazifalari va maqsadlarini belgilaydi, kasbiy mehnat vositalariga ko‘ra uning turlarini belgilaydi. Shu bilan birga, o‘zining negativ sifatlariga ega bo‘lgan shaxs, masalan, o‘zini baholashning noadekvatligi yoki qadriyatlar tuzilishining rivojlanmaganligi ham kasbiy faoliyatni sekinlashtirishi mumkin. Asosiysi, insonning professional sifatida rivojlanishi, agar u yangi qadriyatlar yo‘nalganligi, motivlari va kasbiy faoliyat mazmuni bilan boyitilgan bo‘lsa, uni amalga oshirish mumkin. Shu bilan birga, kasbiy muhim sifatlarning o‘zi qadriyatlar bo‘lib, ularning mavjudligi asosan faoliyat samaradorligini belgilaydi [3].

R.I. Svetkova fikricha, oliy o‘quv yurtida o‘qish yillari tizimli ravishda ijodiy faoliyatga va doimiy kasbiy o‘sishga kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishning maqsadli jarayoni sifatida taqdim etilishi kerak. Shu munosabat bilan har bir o‘quv yili yagona umumiy maqsadga bo‘ysunadigan turli xil va shu bilan birga juda avtonom maqsadlarni amalga oshirishga, xususan, bo‘lajak mutaxassisning shaxsini kasbiy shakllantirish muammolarini nazariy tushunishga va shu asosda o‘zlarining kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Ma’lumki, tizimli yondashuvning uslubiy tamoyillaridan biri yaxlitlik prinsipi bo‘lib, unga ko‘ra har qanday komponentning xulq-atvori oxir-oqibat boshqa barcha tarkibiy qismlarga ta’sir qiladi. Tizimlilik kasbiy shakllanish kabi murakkab tarkibiy hodisaning rivojlanish jarayonining yaxlitligi belgilarini ta’minlaydi, uning muvofiqlashtirilishi va maqsadga muvofiqligini belgilaydi. Ilmiy psixologik-pedagogik tajriba shuni tasdiqlaydiki, tizimli yondashuv, agar uning tamoyillari o‘rganilayotgan jarayonning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olsa, ijobiy natijalar beradi [4.].

Pedagogik tayyorgarlik tizimi bu uning elementlari to‘plamidir va ular o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni tartibga solish uning tarkibiy qismlariga xos bo‘lmagan yangi integrativ fazilatlarni keltirib chiqaradi. Tizimlarning mavjud tasniflari ularning turli xil fazilatlari va xususiyatlariga asoslanadi:

qiyinchilik darajasi;

atrof-muhit bilan aloqa qilish usuli;

determinatsiya tabiati;

maqsadning mavjudligi;

asosiy parametrlarning barqarorligi va o‘zgaruvchanligi darajasi;

nazorat qilish belgilari va boshqalar.

Tizimli yondashuv pedagogik ta’lim tizimini tadqiq qilish yo‘nalishi, o‘qituvchining malakasini oshirish jarayonida ichki shaxsiy o‘zgarishlar tizimi va bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy shakllanishi jarayoniga tashqi ta’sirlar tizimi sifatida qaraladi [5].

Bugungi kunda pedagogik ta’lim - bu bo‘ljak o‘qituvchilarning pedagogik kasbiy mahoratini va kasbiy shakllanishini shaxsga yo‘naltirilgan rivojlanishini ta’minlash uchun rivojlanayotgan va ishlab chiqilgan murakkab, ochiq, dinamik, maqsadli, boshqariladigan va o‘zini o‘zi boshqaradigan ijtimoiy tizimdir.

Shaxsga yo‘naltirilgan kasbiy shakllanish quyidagi tizimdan iborat:

maqsadlar, tamoyillar, usullar;

o‘zaro munosabatlar va munosabatlarning sub’ekt-ob’ekt tizimlari;

shaxsiy tartib tuzilmalari, ya’ni qiziqishlar, didlar, bilimlar, intilishlar, tasavvurlar, refleksiv harakatlar tizimi va boshqalar.;

tashkiliy tuzilmalar.

Ularning barchasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega va tegishli tizim tahlilini talab qiladi [6].

Tizimli tahlil - bu tizimli yondashuvni amalga oshirish va bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishi uchun psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash muammolarini aniqlash va hal qilishga qaratilgan. Tizimni tahlil qilish jarayonida quyidagi qoidalarga rioya qilish tavsiya etiladi:

tadqiqotning barcha bosqichlarida usullar va tahlil usullari bir-biriga mos keladi;

tadqiqotning muayyan bosqichlarida ma’lum yechimlarni tanlash turli xil alternativlarni o‘rganishga asoslangan;

Tizimli tahlil natijalari kasbiy shakllanish darajalari va bosqichlarining muhim xususiyatlarini, bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy shakllanishidagi o‘zgarishlarni keltirib chiqargan va ularning kasbiy rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillarni aks ettiradi.

An’anaga ko‘ra, o‘qituvchilarni tayyorlash tizimi o‘qituvchining kasbiy rivojlanishiga tashqi ta’sirlar sohasiga tegishli. Ilmiy-uslubiy ta’minot, qoida tariqasida, ilmiy tadqiqotlar, texnologiyalar, metodikalar, dasturlar, rejalar, qo‘llanmalar, darsliklar va kasbiy tayyorgarlikning boshqa vositalarini yaratish, tashqi ta’sir doirasining tashkiliy va integratsiyalashgan ilmiy-uslubiy tizim sifatida ishlashini ta’minlash uchun mo‘ljallangan treninglar orqali amalga oshiriladi. Tashqi harakatlar tizimiga o‘qituvchining o‘quvchiga

ta'siri kiradi. Bunday ta'sirning xususiyatlari ko'p jihatdan shaxslararo muloqot sub'ektlarining individual psixologik xususiyatlariga bog'liq. Shu munosabat bilan, bo'lajak o'qituvchining kasbiy shakllanishining usullari u bilan o'zaro aloqada bo'lgan o'qituvchilarning kasbiy rivojlanish darajasi, shuningdek, turli xil pedagogik vaziyatlarda yuzaga keladigan pedagogik muloqotning o'ziga xos xususiyatlari, tizimning kasbiy muhim xususiyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilganligi xususan, refleksiv fikrlash bilan belgilanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida shaxsga tashqi ta'sirlar tizimini xususiy (tashqi) tizim sifatida, ichki xususiy tizimni esa kasbiy tayyorgarlik va o'zini takomillashtirish elementlari birlashtirilgan ichki shaxsiy o'zgarishlarning tuzilishi sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, ta'sir tizimning ishlash sharoitlariga bog'liq, shuning uchun pedagogik faoliyat natijalari, boshqa barcha ko'rsatkichlar teng bo'lsa, ushbu faoliyatni amalga oshirish shartlari kabi bir-biridan farq qiladi. Tizim va uning alohida tarkibiy qismlari o'z-o'zini boshqarish va o'zini o'zi boshqarish tamoyili asosida ishlaydi, o'z faoliyatini saqlab qolish va rivojlantirish manfaatlarida o'z kasbiy funksiyalarini bajaradi. O'quv davrida, bo'lajak o'qituvchining ongida, ichki shaxsiy o'zgarishlar va tashqi ta'sirlar tizimi nazariyani amaliyotdan uzoqlashtiradigan bir xil sabablarga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Ushbu sabablardan biri bo'lajak o'qituvchining o'zini qanday tasavvur qilishi, o'qituvchilik kasbining nazariy asoslarini o'zlashtirishi va tegishli amaliyot davomida ma'lum kasbiy va pedagogik tajribaga ega bo'lgan holda o'zini qanday o'ylashi o'rtasidagi farqdir. Tegishli kasbiy va pedagogik bilimlar, ko'nikmalar kabi omillar mavjud bo'lganda ham talaba o'zini o'qituvchi sifatida tasavvur qilishi mumkin, ammo u o'zini ongli ravishda o'z kasbiy vazifalarini tizimli, qat'iyatli va maqsadli bajaradigan, rejalar tuzadigan, darslar o'tkazadigan, kursni tahlil qiladigan professional mutaxassis sifatida tasavvur qilishi juda qiyin ularning xulq-atvori, tinglovchilarning reaksiyalarini, shuningdek erishilgan natijalarni qayd etadi, doimiy ravishda o'z ustida ishlaydi. Ya'ni, har kim o'zini o'qituvchi sifatida tasavvur qilishi mumkin, ammo kasbiy shakllanishning tegishli davrlarini o'tgan mutaxassisgina o'zini professional sifatida anglay oladi .

Bo'lajak o'qituvchi o'zini o'z sohasidagi professional sifatida sifat jihatidan anglay olishi uchun uning ongida kasbiy faoliyatning maqsadi, yo'nalishlari, mazmunini tahlil qilish, baholash, tushunishga, o'z-o'zini bilish va kasbiy o'zini takomillashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilishga qaratilgan refleksiv harakatlar tizimi shakllanishi kerak Ushbu sohalarning o'zaro ta'siri pedagogik bilim va pedagogik tajribaning to'g'ri muvofiqligiga erishishi kerak. Kasbiy va pedagogik ongni rivojlantirishning muhim sharti "Men professional o'qituvchiman" deb o'z imidjini shakllantirishdir. Optimal sharoitlarda, bo'lajak o'qituvchi ongida, tashqi ta'sirlar tizimi sifatida oliy o'quv yurtidagi o'quv jarayoni ichki shaxsiy o'zgarishlar tizimi sifatida kasbiy shakllanish jarayoni bilan birlashtirilishi kerak. Shu bilan birga, o'z-o'zidan va tashqi muhitning optimal nisbati uchun sharoitlar yaratiladi. Bunday integratsiya qanchalik chuqur bo'lsa, kasbiy ongning rivojlanish darajasi, bo'lajak o'qituvchining kasbiy shakllanishi shunchalik yuqori bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy funksiyalarini rivojlantirish sharti kasbiy aks yettirish mahorati, refleksiv harakatlar ko'nikmalari va qobiliyatlarini o'zlashtirish, talaba va o'qituvchi o'rtasidagi dialogik o'zaro ta'sirning refleksivligi hisoblanadi. Talaba va o'qituvchi o'rtasidagi birgalikdagi ijodiy munosabatlarning refleksiv modeli kelajakdagi o'qituvchining kasbiy rivojlanishini tashkil etishning muqobil tizimiga aylanishi mumkin. Uning mohiyati shundan iboratki, o'qituvchi talaba bilan birgalikda ijod qilish jarayonida o'z tajribasini qayta ko'rib chiqish orqali o'zini takomillashtirish jarayonida ishtirok etadi.

Ma'lumki, pedagogik kommunikatsiya, qoida tariqasida, nutq aloqasidan boshlanishi mumkin, shuning uchun nutq qobiliyatlari o'qituvchi va talabaning kasbiy qobiliyatlari orasida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Ular o'qitish predmetining ma'lum bir tilini idrok etish ko'nikmalariga asoslanadi. Bundan tashqari, pedagogik muloqotning samarali shakli bo'lgan va uni tashkil etish uchun eng dolzarb bo'lgan, pedagogik vaziyatda o'qituvchi va talaba o'rtasida zarur aloqalarni rivojlantirishga imkon beradigan dialogni ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. Bu maqbul insoniy munosabatlar tabiatining sub'ektdan sub'ektga xarakteriga adekvat hisoblanadi. Tadqiqot predmetining ma'lum bir masalasi bo'yicha dialog holatidagi ikkita shaxs o'ziga xos umumiy estetik va pedagogik makonni, o'qituvchining o'quvchiga ta'siri sub'ektlarning psixologik birligiga yo'l qo'yadigan yagona hissiy hodisani shakllantirishi mumkin. Shu sababli, pedagogik muloqotning ijodiy jarayoni rivojlanmoqda, o'zaro ta'sir va o'zaro ijodda o'z-o'zini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, dialog quyidagicha ishlaydi:

inson muloqotining asosiy shakli talabaning kasbiy rivojlanishini belgilaydi;

rivojlanishning yetakchi determinanti, bu yerda tashqi birlamchi ichki shaxsga o'tib, individual o'ziga xoslikni shakllantiradi;

insoniyat madaniyatini o‘rganish tamoyili va usuli, ular o‘rtasidagi muloqot sharoitida yuzaga keladigan sub’ektlarning ichki sohalari mazmunini qayta qurish orqali amalga oshiriladi;

o‘z qonunlari va dinamikasiga ko‘ra rivojlanadigan jarayon;

bir-biri bilan muloqot qilishning ma’lum bir psixofiziologik holati;

estetik munosabatlar va pedagogik muloqotni tashkil etish darajasi, pedagogik faoliyat va shaxsiy rivojlanish uchun maqbuldir;

pedagogik va psixokorrektiv ta’sirning samarali usullaridan biri;

ijodiy jarayon.

Inson o‘zini o‘zi takomillashtirish va kasbiy shakllanish maqsadini aniqlashda shaxsning kasbiy ta’limi ko‘rinadigan darajada ishtirok etishi mumkin. Mutaxassis tomonidan oldindan belgilanadigan shaxsiy, uning shaxsiy dunyosi sifatida quriladi. Shunday qilib, pedagogik ta’limning maqbul tizimi bu imkoniyatdir va o‘zini takomillashtirish tendensiyasini ta’minlaydi.

Xulosa. Shunday qilib, yuqorida aytilganlarga asoslanib, bo‘lajak o‘qituvchining asosiy tayyorgarligi bosqichida kasbiy shakllanishini yaxshi muvofiqlashtirilgan tizim, qoida tariqasida tarkibiy mazmunni ochib beradigan asosiy qoidalar, zamonaviy oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayoni tamoyillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan elementlar to‘plami sifatida ko‘rib chiqish kerak degan xulosaga kelish mumkin. Shu bilan birga, ushbu tizimning asosiy xususiyatlari uning yaxlitligini, shuningdek, tashqi muhit va turli ta’sirlarga qarshilik ko‘rsatish imkoniyatini o‘z ichiga oladi. Shuni inobatga olgan holda, kelajakdagi o‘qituvchining kasbiy shakllanishi ushbu maqolada ichki shaxsiy o‘zgarishlar tizimi, shaxsga tashqi ta’sir tizimi va talabaning kasbiy rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan tashkiliy tizimlarning o‘zaro ta’sirida keltirilgan.

Adabiyotlar

1.G‘oziev Y. Oliy maktab psixologiyasi. Toshkent, 2006. – 164 б.

2. G‘oziev Y.G.Психология средней школы. ТошДУ 1996.

3.Голубева М. Кризисы профессионального становления юношей и девушек. - М.: LAP Lambert Academic Publishing, 2011. - 272 с.

4. Дониченко О.Г. Психолого-педагогические технологии сопровождения предпрофильного и профильного обучения / О. Г. Дониченко// Психология и школа. - 2007. - №2 - С. 47-54.

5.Давлетchин М.Г. Общая психология Т. 2002 г.

6.SHernayeva.SH.A. // Сотсиально-психологическая ҳарактеристика будущих учителей // Весник 2023.Впуск 30 chact 1. 367.368. 369 с. //

7.Dilshod Ne’matovich Arzikulov (2022). Ta’lim-tarbiya jarayonida mutaxassislar kasbiy shaxsiy sifatlarini shakllantirishning axloqiy psixologik omillari. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2 (12), 131-135.

8.Шернаева.Ш.А.//Бўлажак ўқтувчиларни касбий тайёрлаш ва уни рувожлантириш муомалалари. // Педагогик махорат Бухоро 1-сон 2024 январь сахифа. 107-110.

9.SHernayeva.SH.A.//Bo‘lajak o‘qtuvchilarni pedagogik faoliyatga tayorlash va uni ruvojlantirish// Talqin va tadqiqotlar 24 -сон 2023/12/25

UDK **159.9.07**

Valiyev Nozimaxon Xusanboy qizi
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

KICHIK MAKTAB YOSHIDA IJODIY QOBILIYATLAR RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Hozirgi kunda aqliy va motivatsion rivojlanish muammosi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shu ma'noda bu muammo bo'yicha ko'pgina olimlar o'z ishlarini olib borganlar. Ma'lumki bolalikning har bir davri o'z aqliy darajasiga ega. Kichik maktab yoshida birinchi o'rinda tayyorgarlik, tanlash va eslab qolish qobiliyatlari turadi. Bunda boshlang'ich o'qish davomida taqlid bola intuitsiyasi va uning tashabbuskorligiga tayanadi. Shu jihatdan ham kichik maktab yoshi davrida ijodiy qobilyatlar rivojlanishi muhim xisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *qobiliyat, iste'dod, tafakkur, ehtiyoj, tasavvur.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ В МЛАДШЕМ ШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ

Аннотация. *В настоящее время проблема психического и мотивационного развития является одной из актуальных проблем. В этом смысле многие учёные вели свои работы над этой проблемой. Известно, что каждый период детства имеет свой интеллектуальный уровень. В младшем школьном возрасте на первое место выходят навыки подготовки, выбора и припоминания. В этом случае подражание в начальной школе опирается на интуицию и инициативу ребенка. С этой точки зрения развитие творческих способностей в младшем школьном возрасте считается важным.*

Ключевые слова: *способности, талант, мышление, потребность, воображение.*

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES IN PRIMARY SCHOOL AGE

Annotation. *Currently, the problem of mental and motivational development is one of the pressing problems. In this sense, many scientists carried out their work on this problem. It is known that each period of childhood has its own intellectual level. At primary school age, the skills of preparation, selection and recall come first. In this case, imitation in elementary school is based on the child's intuition and initiative. From this point of view, the development of creative abilities at primary school age is considered important.*

Key words: *abilities, talent, thinking, need, imagination.*

Kirish. Jamiyatning yangicha rivojlanishi ijodiy qobiliyati yuqori, professional kompetentligi shakllangan, ijtimoiy mobilligi kuchli, yangiliklarga ochiq va ularni qabul qilishga tayyor, turli vaziyatlarda nostandart qarorlar qabul qila oladigan shaxslarga bo'lgan ehtiyojning ortib borishini taqozo etadi. Aynan mana shunday insonlar faoliyatning har qanday sohasida o'zini amalga oshira olishi mumkin. Ijodiy qobiliyatlar esa aynan bolalik davridan boshlab shakllanadi. Bir qator mualliflar kichik maktab yosh davrida ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish nihoyatda dolzarb ekanligini ta'kidlaydilar.

Psixologiyada ijodiy qobiliyatlar rivojlanishi borasida bir qator umumiy jihatlar aniqlanib olingan, ya'ni ijodiy qobiliyatlar tahlilida mazkur fenomen yuzaga kelish asosi sifatida bir qator biologik va ijtimoiy omillar ham ko'rsatib o'tilgan, moddiy va ma'naviy madaniyatni yaratishda ijodiy qobiliyatlar roliga urg'u berishga alohida e'tibor qaratilgan, shuningdek, inson tomonidan u yoki bu faoliyat turini amalga oshirish muvaffaqiyatini ta'minlashda ijodiy qobiliyatlar o'rni va ahamiyati ko'rsatib berilgan. Biroq hozirgi kunga qadar ijodiy qobiliyatlar mazmuni va tuzilmasiga nisbatan yagona nuqtai nazar mavjud emasligi, hattoki ijodiy qobiliyatlar tushunchasining o'zi ham aniq ifodalanishga ega emasligi olimlar tomonidan e'tirof etiladi va kichik maktab yoshida ijodiy qobiliyatlarning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish omillari borasida ham batafsil tadqiqotlarning yo'qligi aytib o'tiladi.

Ijodiy qobiliyatni o'rganuvchi ko'pgina psixologlarning fikricha insonda oldindan ijodiy faollikka intilish mavjud bo'lar ekan. Ijodiyotda ehtiyojlarni qondirishga intilish insonning ijodiy qobiliyatlari rivojlanuvchi ijodiy faoliyatga bo'lgan motivlarning shakllanishiga zarur sharoit hisoblanadi. Shuning uchun ham motivlar yoki ijodiy motivatsiya qay tarzda umumiy aqliy qobiliyatlar rivojlanishiga olib kelishini ko'rib chiqamiz.

D.Uznadze fikricha, vital va bilish ehtiyojlari, shuningdek, ijtimoiy aloqaga bo‘lgan ehtiyoj substansional ehtiyojlar sinfiga kiradi. Ulardan farqli ravishda funksiyalashtirishga bo‘lgan ehtiyoj ham mavjud. D.Uznadzening ko‘rsatishicha, psixik funksiyalar rivojlanishi davrida mos sharoitlarda ijodiy xulq kabi faollik formasini chaqiruvchi kuchlarni harakatga keltirish extiyoji yuzaga keladi.

Shaxsning o‘z-o‘zini aktualizatsiyasi muammosi gumanistik psixologiyada K.Rrodjers, individual psixologiyada A.Maslou, individual psixologiyada A.Adler tomonidan, boshqa psixologik maktablar namoyondalari va hozirgi kunda ishlanayotgan akmeologiyada izchil ravishda o‘rganilgan. A. Adler bo‘yicha insonlar o‘z shaxsiy hayotlaridan to‘g‘ri foydalanishlari uchun ijodiy kuchga egalar, shuning uchun insonni belgilovchi sifati mustaqil anglangan faollik hisoblanadi. Bunday ijodiy kuch inson tajribasining har bir chegarasiga: idrok, tafakkur, xotira, orzular, tasavvurlarga ta’sir ko‘rsatadi [1].

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning o‘quv faoliyatida ijodiy qobiliyatlarini o‘rganish borasida bir qator tadqiqotlar mavjudligi inobatga olingan holda ijodiy qobiliyatlar asosan maktabda o‘quv faoliyatidan tashqari vaziyatlarda ham muvaffaqiyatli shakllantirilishi mumkinligi pedagog-psixologlar tomonidan e’tirof etiladi. Jumladan, kichik maktab yosh davrida ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishga ta’sir etuvchi psixologik mexanizmlar sifatida katta yoshdagi ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxslarga taqlid qilish, o‘zini o‘zi baholash tizimi, rollarni qabul qilish va o‘zlashtirish ko‘rsatiladi.

V.D.Shadrikov mazkur fenomenni murakkab, ko‘p tuzilmaviy, rivojlanishga olib boruvchi, , o‘zini o‘zi baholashni, o‘zgartiruvchi sifatida qaraydi [2].


Bir qator mualliflar fikriga ko‘ra, ijodiy qobiliyatlar integrativ, dinamik tuzilma bo‘lib, kognitiv, emotsional va motivatsion komponentlarni o‘z ichiga oladi, faoliyatning bajarilish muvaffaqiyatini belgilab beradi. Ijodiy qobiliyatlar o‘zgaruvchan, namoyon bo‘lishida esa individual darajaga ega.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarning rivojlanish ko‘rsatkichlari sifatida ijodiy tafakkurning originalligi (o‘quvchining hech kimga o‘xshamagan javoblar berishi), abstrakt(obrazli axborotni verbal axborotga aylantirish), tezligi (anglangan g‘oyalarni yuzaga keltirish qobiliyati), noverbal xayol, ko‘rgazmali-obrazli tafakkur, ijodiy o‘qituvchiga nisbatan pozitiv-emotsional munosabat, ijodiy faoliyat mobaynida o‘quvchining emotsional kechinmalari, ijodiy motivatsiya e’tirof etiladi.

Metod. Biz kichik maktab yoshidagi bolalarda ijodiy qobilyatlarning rivojlanishini o’ranish maqsadida tajribaviy tadqiqotlar olib bordik. Tajribaviy tadqiqotlarimizda jami bo‘lib 50 ta kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar ishtirok etishdi. Tadqiqotimizning obyekti sifatida Toshkent shahridagi 157 - o‘rta ta’lim maktabning ikkinchi sinf o‘quvchilari olindi.

Biz tadqiqotimiz davomida Gilfordning “Ijobiy qobiliyatni o‘rganish metodikasidan foydalangan holda bolalarning ijodiy qobilyatlarini jinsiy tafovutlarini o‘rgandik. Olingan natijalarda biz turli shkalalar bo‘yicha ishonch darajasidagi farqlar mavjud yoki mavjud emasligini kuzatishimiz mumkin.

Muhokama. Birinchi shkala “So‘zlarni ishlatish” subtesti hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha ishonch darajasidagi farqlar mavjud ekanligini kuzatdik ($t=5,25$, $p<0,001$).




Rasm 1. Gilford metodikasi “So‘zlarni ishlatish” shkalasi bo‘yicha jins tafovutlari.

So‘zlarni ishlatish holati va darajasi bo‘yicha qiz bolalarning natijalari yuqori chiqqanligi aniqlandi, qiz bolalardagi so‘z boyligining ko‘pligi ularda so‘zlarni o‘rniga qo‘yib ishlatishini ko‘rsatdi, bundan chiqdiki nutqning rivojlanishi jihatlari kichik maktab yoshida qiz bolalarda jadalroq rivojlanar ekan. O‘g‘il

bolalarda aniq holatlar rivojlansa, qizlarda so‘zlarga ta’rif berish rivojlanishi mumkinligini kuzatishimiz mumkin.


Vaziyatlarning natijasi shkalasi bo‘yicha ishonch darajasidagi farqlar kuzatilmaganligini aniqladik. Demak vaziyatlarni tahlil qilish holati o‘g‘il bolalarda ham qiz bolalarda ham bir xil rivojlanar ekan. So‘zlarni ishlatish darajasi bo‘yicha biz ishonch darajasidagi farqlar mavjudligini kuzatishimiz mumkin ($t=2,345$, $p<0,05$).



Rasm 2. So‘zlar shkalasi bo‘yicha jins tafovutlari

Natijalar tahlilida qiz bolalarda so‘zlarni, ya’ni malum bo‘g‘inlardagi so‘zlarni ko‘proq aytish bo‘yicha o‘g‘il bolalarga nisbatan ko‘proq natija qayd qilinganligini kuzatishimiz mumkin. Demak qizlarda ko‘p so‘z aytish holatlari yuqori ekan. Ular kichikligidan so‘zdon bo‘lganligi sababli ularda aynan so‘zlarni ko‘proq ishlatish jihatlarini kuzatishimiz mumkin. Qiz bolalar juda ta’sirchan bo‘lganligi uchun ular so‘zlar orqali ko‘proq e’tirof qilishgan bo‘lsa ajab emas. So‘zlarni bog‘lash holatlari bo‘yicha ishonch darajasidagi farqlarni kuzatmadik, sinaluvchilarimizning o‘g‘il bola va qiz bolalarimizda bir xil holatda so‘zlarni bog‘lash jihatlari mavjud ekan.

Tasvirni yasash shkalasi bo‘yicha esa ishonch darajasidagi farqlar mavjudligini kuzatishimiz mumkin ($t=4,24$, $p<0,001$).




Rasm 3. Tasvirni yasash shkalasi bo‘yicha jins tafovutlari.

Tasvirni yasash ya’ni shakllarni idrok qilish holatlari bo‘yicha qiz bollalarda katta ko‘rsatkich chiqqanligini kuzatishimiz mumkin. Sinaluvchilarimizning bunday natijani ko‘rsatishi ba’zi bir yuqorida keltirilgan adabiyotlarga mos keladi. Shuning uchun ham bizni bu hola ajablantirmadi, qizlarda fazoni, shaklni idrok qilish holatlari o‘g‘il bolalarnikiga nisbatan birmuncha pastroq ekan. Ehtimol o‘g‘il bolalardagi aniqlik holatlari bu bosqichda qizlardan ko‘ra yuqoriroq natijani ko‘rsatishiga omil sifatida xizmat qilgan bo‘lsa kerak.

Eskizlar shkalasi bo‘yicha ishonch darajasidagi farqlarni kuzatmadik, tahlil qilish vaqtida ularning natijalari yuqori chiqqanligini kuzatishimiz mumkin, o‘g‘il bolalarda ham qiz bolalarda eskizlarni

tushunishi va idrok qilish holatlari bir biriga yaqin ekan. Ularning hozirgi vaqtda ko‘proq mehnat darslaridan yasash ishlarini olib borayotganligidan bo‘lsa ajab emas.

Berkitilgan shakl shkalasi bo‘yicha qiz bolalarda yuqori natija qayd qilinganligini kuzatishimiz mumkin (t=2,345, p<0,05). Ularning o‘g‘il bolalardan yuqori natijani ko‘rsatganligini sababi aynan qiz bolalar kichiklik vaqtidan uydagi buyumlarni sarishtalashga harakat qilishlaridan bo‘lsa ajab emas.



Rasm 4. Berkitilgan shakl shkalasi bo‘yicha jins tafovutlari.

Ko’rib turganimizdek kichik maktab yoshidagi bolalarda ijodiy qobiliyatlari jins bilan bog’liq tafovutiy holatlarda namoyon bo’lgan. Ko’pgina topshiriqlarda qiz bolalarning ustunlik qilganliklarini ko’rishimiz mumkin.

Xulosa. Kichik maktab o‘quvchilarning tafakkuri, nutqi uning xayoli bilan birga rivojlanadi. Kichik maktab o‘quvchilari xayolidagi obrazlar haqiqatga yaqinroq bo‘lib, ularni ancha aniqroq aks ettiradilar. Ular xayolining xarakterli xususiyati yaratilgan obrazlarning yaqqolligi va aniqligidadir. Xotirada yaxshi saqlanib qolgan, olingan bilimlarning kengayib borishi tufayli ancha boy va xilma-xil bo‘lib boradigan xayol obrazlarining mustahkamlanishi yuzaga keladi. Kichik o‘quvchilar xayoli taqlidchan xarakterli bo‘ladi. Bola o’zi o‘ylab topgan, eshitgan, kuzatgan narsasini tiklashga urinadi. Shuning uchun undagi xayol tiklash xarakteriga ega bo‘ladi. O‘qish jarayonida bu tiklovchi xayol muhim ahamiyatga egadir.

Yuqorida bayon qilinganlardan ma’lumki, kichik maktab o‘quvchilarining bilish jarayonlari, aqliy taraqqiyotiga xos xususiyatlar, unda kelgusida bilim egallash uchun imkoniyatlar mavjudligidan darak beradi. Bu imkoniyatlarni bola faolligini rag’batlantirish, aktiv, mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatish, undagi imkoniyatlarni qobiliyat darajasiga yetishi uchun tinmay harakat qilish orqali shakllantirib borish talab qilinadi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Диагностика умственного развития дошкольников. Под ред. Л.А.Венгера и В.В.Холмовской. М.: Педагогика. 2005.

2. Yosh va iste’dod. Iste’dodli bolalarning ijodiy potensialining rivojlanishi. A.M Matyushkin tahriri ostida. -M.: Voronej: NPO “MODEK” nashiryoti. 2004. –B.192.

Yelibayev Jaxanger Tungishebayevich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
“Umumiy psixologiya” kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

BO‘LAJAK PSIXOLOGLARDA EMPATIYA NAMOYON BO‘LISHINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK OMILLARI VA XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada psixologlarning hozirgi tayyorgarligida axborot ustunlik qiladi, psixologning eng muhim axloqiy sifati uning professional kommunikativligini shakllantirishga hissa qo‘shish kompetentsiya - odamlar bilan munosabatlarda empatiya xususiyati sanaladi. Empatiya shaxslararo munosabatlar muvozanatiga, shaxsning axloqiy o‘sishiga, ta’minlashda samarali o‘zaro tushunishga yordam beradi. Insoniy munosabatlarda “issiqlik” yetishmasligi sharoitida keskin odamlar oldida ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmadagi salbiy o‘zgarishlar yolg‘izlik va befarqlik muammosi paydo bo‘ladi. Shu munosabat bilan empatiya muammosi hamdardlik va hamdardlik qobiliyati qanday dolzarb bo‘lib qolishi haqida fikrlar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *empatiya, psixolog, qobiliyat, ong, bola, maxsus yordam, element, maslaxat, kasbiy faoliyat, ta’lim , diagnostika.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ И ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ЭМПАТИИ У БУДУЩИХ ПСИХОЛОГОВ

Аннотация. *В статье в современной подготовке психологов преобладает информация о том, что важнейшим нравственным качеством психолога является способность способствовать формированию его профессиональной коммуникативной компетентности - свойства эмпатии в отношениях с людьми. Эмпатия помогает сбалансировать межличностные отношения, нравственному росту человека, эффективному взаимопониманию. В условиях недостатка «теплоты» в человеческих отношениях перед людьми возникает проблема одиночества и безразличия, негативные изменения в социально-экономической структуре. В связи с этим высказываются мысли о том, как становится актуальной проблема эмпатии и способности сочувствовать.*

Ключевые слова: *эмпатия, психолог, способности, сознание, ребенок, специальная поддержка, элемент, совет, профессиональная деятельность, обучение, диагностика.*

SOCIAL PSYCHOLOGICAL FACTORS AND CHARACTERISTICS OF THE DEMONSTRATION OF EMPATHY IN FUTURE PSYCHOLOGISTS

Annotation. *In the article, information prevails in the current training of psychologists, the most important moral quality of a psychologist is the competence to contribute to the formation of his professional communicative competence - the trait of empathy in relations with people. Empathy helps balance interpersonal relationships, moral growth of a person, effective mutual understanding. In the conditions of lack of "warmth" in human relations, the problem of loneliness and indifference appears in front of people, negative changes in the socio-economic structure. In this regard, thoughts are expressed about how the problem of empathy and the ability to sympathize become relevant.*

Keywords: *empathy, psychologist, ability, consciousness, child, special support, element, advice, professional activity, education, diagnosis.*

Kirish. O‘zining kasbiy faoliyatining har xil turlarida psixolog uchun empatiyaning tegishli elementlari kerak. Agar profilaktika paytida, ta’lim va diagnostika, aloqa sherigini tushunish kifoya, keyin esa tuzatish va maslahat ishlari jarayoni ham talab qiladi empatiya va murojaat qilgan bolalarga maxsus yordam ko‘rsatish zarur bo‘ladi. Psixologiya yo‘nalishi talabasi uchun empatiya va muloqot qobiliyatlari yuqori darajada bo‘lishi muhimdir. Buning sababi shundaki, bunday kompetensiyalar psixologning kasbiy muhim fazilatlari hisoblanadi. Ushbu sohadagi mutaxassis turli odamlar bilan umumiy aloqani topa olishi va ularning muammolarini hal qilishda yordam bera olishi kerak. Jamiyatda muloqot ham katta rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar tahlili va metadologiya. Muloqotning asosiy vazifasi - birgalikdagi faoliyat jarayonida turli shaxslar o‘rtasida aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirishdir. Samarali muloqot uchun sheriklar o‘rtasida

o‘zaro tushunishga erishish muhimdir. Bu hissiy va shaxsiy ochiqlikda ham, his-tuyg‘ularni ifodalashning samimiyligida ham namoyon bo‘ladi. L.A. Mixaylovning ta’kidlashicha, kommunikativ qobiliyatlar - bu shaxsning boshqa shaxslar bilan muloqot qilish samaradorligini va birgalikdagi faoliyatda psixologik mosligini ta’minlaydigan qobiliyatlari hisoblanadi. Kommunikativ kompetentsiyani va uni shakllantirish yo‘llarini o‘rganish quyidagi olimlar tomonidan amalga oshirilgan: G.S. Vasilev, A.Sh. Guseinov, Yu.N. Emelyanov, Yu.M. Jukov, E.V. Zalyubovskaya, A.G. Kovalev, L.I. Novikova, L.A. Petrovskaya, E.V. Rudenskiy, T.Yu. Savelyeva va boshqalar. Kommunikativ qobiliyatlarning rivojlanishi va tuzilishi masalalari bilan O.B. Asriyan, E.A. Golubeva, T.V. Kapustina, A.A. Leontyev, L.A. Mixaylov, K.K. Platonov, Yu.V.Utkina ta’kidlaganidek, empatiya shaxslararo muloqotning barcha turlarida mavjud. O‘z navbatida, muloqot empatiya paydo bo‘ladigan, rivojlanadigan va o‘zini namoyon qiladigan asosiy ijtimoiy-psixologik muhitdir. Empatiya aloqa bilan bog‘liq holda shaxsiy xususiyat sifatida ishlaydi. U muloqotning asosini tashkil qiladi. Kommunikativ faoliyatda esa u shaxslararo munosabatlarning muvozanatiga hissa qo‘shadi va inson xatti-harakatlarini ijtimoiy jihatdan shartli qiladi. Yu.S. Zaitsevaning so‘zlariga ko‘ra, empatiya axloqiy munosabatlarning ichki ma’nosini ochish uchun samarali vosita bo‘lib, u yerda qadriyatlar tizimi shakllanadi va bu o‘z navbatida shaxsning boshqa shaxsga nisbatan xatti-harakatlarini belgilaydi. Empatiya muallif tomonidan bilvosita shaxsiyatning yuqori shakllari - qadriyatlar bilan bog‘langan, shuningdek, ular o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida harakat qiladi. Empatiyaning asosi hissiy sezgirlik va sezgidir, lekin ayni paytda jonli narsalarni aql va oqilona idrok etish muhim rol o‘ynaydi. Psixologik adabiyotda empatiya - bu hissiy holatni tushunish, his-tuyg‘ularga, boshqa odamning tajribasiga kirishdir.

V.V.Boykoning fikricha, bu nuqtai nazarga jiddiy qo‘shimchalar kerak. Ko‘pincha empatiya ta’riflari ikkita holatni ta’kidlaydi: funksiya va berilgan psixologik voqelikning namoyon bo‘lish zarurati. Darhaqiqat, nega boshqasini (atrofimizdagi odamlarni) aks ettirishning empatik tizimi repertuarda mavjud va unga qachon ehtiyoj paydo bo‘ladi? Bizning fikrimizcha, aks ettirishning ratsional-emotsional-intuitiv shakli sifatida empatiya boshqa shaxsning psixo-energetik makoniga “kirish” uchun juda murakkab vositadir. Empatiya yordamida sherikning himoya energiya ekrani “buzilgan” va bu “o‘tish qobiliyatini” oshirishni talab qiladi. Bu bir kishi boshqasiga sheriklik va hamdardlik ko‘rsatganda sodir bo‘ladi. Shunday qilib, sheriklik va empatiya empatiyaning ma’nosi yoki funktsiyasi emas, balki boshqa maqsadga erishish uchun faqat hissiy vositadir. Empatiya zarurati boshqa birovning individual xususiyatlarini aniqlash, tushunish, oldindan bilish va keyin unga to‘g‘ri yo‘nalishda ta’sir qilish zarur bo‘lgan hollarda paydo bo‘ladi. Shu ma’noda, empatiya nafaqat sheriklik va empatiyani namoyish qilish qobiliyati emas, balki inson individualligi haqidagi eng qimmatli bilimdir. Empatiyadagi emotsionallik insonning hissiy tajribasi asosida, hissiy assotsiatsiyalar va ko‘chirishlar orqali boshqasini tushunish bilan bog‘liq. Boshqasini empatik tushunishdagi sezgi sherik haqidagi ma’lumotlarni ongsiz ravishda qayta ishlashga to‘g‘ri keladi. Bu haqida umumlashtirish va xulosa qilish mantiq ishtirokisiz, lekin o‘tgan tajriba bilan ongsiz taqqoslash asosida amalga oshiriladi. Aytilganlarni umumlashtirish uchun biz quyidagi ta’rifni berishimiz mumkin: Empatiya - bu boshqa odamning ratsional-emotsional-intuitiv aks ettirish shakli bo‘lib, u sizga uning psixologik himoyasini yengib o‘tishga va uning xatti-harakatlarini bashorat qilish va yetarli darajada ta’sir qilish uchun o‘zini namoyon qilishning sabablari va oqibatlarini - xususiyatlarni, holatlarni, reaktsiyalarni tushunishga imkon beradi. Boshqa birovning o‘zini o‘zi boshqarishining sabablari va oqibatlarini tushunish u nima uchun? Qachon? kim bilan? (nima?) ekanligini tushunishni anglatadi.

Natijalar. Empatiyaga odamning egosentrik yo‘nalishi to‘sqinlik qiladi, u boshqalardan ko‘ra ko‘proq o‘zi haqida qayg‘uradi. Empatiya natijalariga insonning psixologik noqulayligi ham yomon ta’sir qiladi. Agar biror kishi tashvishli, tajovuzkor, tushkunlikka tushgan yoki oddiygina dolzarb muammolar bilan mashg‘ul bo‘lsa, unda uning sheriklarini chuqur tushunishga vaqti yo‘q. Uning ruhiy holatida zaruriy “erkinlik darajalari” yo‘q, uning boshi boshqa narsa bilan band. Hamkorlarning xatti-harakatlarining sabablari va oqibatlari haqidagi taassurotlar juda yuzaki bo‘ladi. Bu shoshilinch xulosalar, asossiz maslahatlar yoki boshqalarga talablar qo‘yishga olib keladi. Hamkorning individualligini empatik tushunish oddiy odamning xatti-harakati haqidagi stereotipik xulosalar bilan almashtiriladi. Ko‘pincha empatiya boshqa odamning ichki dunyosining buzilgan rasmini beradi, chunki empatiya sherikga o‘z fazilatlarini asossiz ravishda aks ettiradi - kamchiliklar, odatlar, hissiy tajriba shular turkumidandir. Yoki u boshqa odamni baholash uchun shubhali standartlar va choralardan foydalanadi. Masalan, bu eskirgan qarashlar, dunyoviy soxta donolik va oldindan o‘ylangan hukmlar bo‘lishi mumkin. Empatik qobiliyatlar shaxsning ratsional imkoniyatlariga, birinchi navbatda, hissiy reaktivlik va faollikka bog‘liq. Va, albatta,

intellektual sohadagi eng kichik buzilishlar bilan empatiya kamayadi. Ijtimoiy ma'qullangan fazilatlarga taqlid qiluvchi nosamimiy odamning xatti-harakatlarini tushunish va oldini olish qiyin. Mansab, shaxsiy manfaat va kelishuvga erishish uchun u odoblilik, altruizm, demokratiya, xayrixohlik va xushmuomalalikni mahorat bilan tasvirlaydi. Tajribasiz sherik hamma narsani o'z qiymatida qabul qiladi va uning xatti-harakatlarining sabablari va oqibatlari haqida noto'g'ri xulosalar chiqaradi. Ba'zi sheriklarning holatlari aniq emas va bu holat ham empatiyani qiyinlashtiradi. Misol uchun, yengil qayg'u qayg'u, sentimentallik yoki yengillik belgisi bo'lishi mumkin. Zamonaviy dunyo o'z sohasidagi mutaxassislarga, jumladan, psixologlarga muhtoj. So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tobora ko'proq odamlar nizolarni konstruktiv tarzda hal qila olmaydi, bir-birini "eshita olmaydi" va tinglay olmaydi. Kelajakda zo'r psixolog bo'lishga qaror qilgan talabalar ushbu muhim xususiyatga ega bo'lishi kerak. Dolgova V.I., Melnik E.V. kasbiy kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishga hissa qo'shadigan psixologning eng muhim axloqiy sifati empatiya deb hisoblaydi. Terapevtik munosabatlarda empatiya shaxslararo munosabatlar muvozanatiga, shaxsning axloqiy o'sishiga va psixologik yordam ko'rsatishda samarali o'zaro tushunishga yordam beradi. 1905-yilda empatiya atamasining birinchi ta'riflaridan biri taklif qilindi. Zigmund Freyd o'zining "Aql va uning ongsizga munosabati" asarida psixoanalitiklar bemorning ruhiy holatini hisobga olishlarini, o'zlarini shunday holatga qo'yishlarini va uni o'zlari bilan solishtirish orqali tushunishga harakat qilishlarini ta'kidladi. Gumanistik psixologiya asoschisi Karl Rojers empatiyaga quyidagicha ta'rif bergan: "Empatiya - bu boshqa odamning hozirgi hissiy holatiga ongli empatiya, bu tajribaning tashqi kelib chiqishi tuyg'usini yo'qotmasdan yuzaga keladi". Bundan tashqari, muallif empatiya holatidagi odam hissiy va semantik soyalarni saqlab qolgan holda, boshqasining ichki dunyosini to'g'ri idrok etishi kerakligini ta'kidladi. Ya'ni, odam "go'yo" tuyg'usini yo'qotmasdan, boshqasiga aylanadi. Shunday qilib, shaxs o'zi his qilganidek, birovning quvonchi yoki dardini his qiladi va uning sabablarini o'zi his qilganidek idrok etadi. K.Rojers, shuningdek, har doim "go'yo" soyasi bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi: go'yo men baxtli yoki qayg'uli bo'lganman. Ko'pgina tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, empatiya kognitiv va hissiy jarayonlarning birligini tashkil etuvchi murakkab funktsional shakllanishdir. Bundan tashqari, empatiya vositachilik qiladi va shaxsning haqiqiy ehtiyojlarini rivojlantiradi va o'z navbatida, ularning ta'siri ostida rivojlanadi. V.I.Dolgova va E.V.Melniklar empatiya bir nechta tarkibiy qismlardan iborat deb hisoblaydi:

Zamonaviy psixologiya fanida empatiya deganda shaxsning ongsiz darajada suhbatdoshining fikr va his-tuyg'ularini tushunish, uning emotsional holatini idrok etish, unga hamdard bo'lish, vaziyatni nuqtai nazardan ko'ra olish qobiliyati tushuniladi. Olimlar R. Baron S. Shtayn va G. Buk eksperiment yordamida erkaklarda o'zini hurmat qilish tuyg'usi ancha kuchliroq, ayollarda esa empatiya va ijtimoiy mas'uliyat ustunlik qiladi. Psixologik hodisa sifatida empatiya butun shaxsga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va ko'plab mutaxassislarning, shu jumladan psixologlarning kasbiy faoliyati uning rivojlanish darajasiga bog'liq. Psixologlarning kasbiy rivojlanishida odamlar bilan empatik munosabatlar rivojlanishda davom etadi, kasbiy o'zini o'zi belgilash rag'batlantiriladi, kasbiy jihatdan muhim fazilatlar, shu jumladan empatiya shakllanadi. Empatiyaning namoyon bo'lishi turli yo'llar bilan sodir bo'ladi: muloqot sherigining his-tuyg'ulariga chuqur sho'ng'ishdan tortib, hech qanday hissiy jalb qilmasdan, muloqot sherigining tajribasini obyektiv tushunishgacha. Shu munosabat bilan empatiyaning uch turi mavjud: hamdardlik - hissiy sezgirlik, kimgadir yordam berish zarurati; empatiya - odam ko'pincha muloqot sherigi bilan bir xil his-tuyg'ularni boshdan kechiradi, hamdardlik insonga nisbatan juda samimiy va iliq munosabatdir.

Olim T.P. Gavrilova empatiyani tushuntirishda eng keng tarqalgan to'rtta sohani aniqladi:

1) empatiya - boshqa odamning his-tuyg'ulari va ehtiyojlarini tushunish;

2) san'at ob'yektiga, hodisaga, tabiatga nisbatan his-tuyg'u sifatida empatiya;

3) empatiya - boshqa shaxs yoki odamlar guruhining hissiy holatini, boshqa odamlar bilan affektiv aloqani bo'lishish;

4) empatiya psixoterapevtning mulki sifatida.

T.P. Gavrilovaning birinchi, ikkinchi va uchinchi ta'riflarida keltirib o'tilgan. T.P.Gavrilova empatiyani jarayon sifatida, to'rtinchidan - mulk sifatida ko'rsatgan.

E.Titchener psixologiyaga empatik tajribaning uch toifadan iborat tasnifini kiritdi: u ratsional, hissiy va emotsional empatiyaga asoslanadi:

1) hissiy empatiya - bu shaxsning boshqa birovning hissiy holatiga munosabati - u haqiqiy tajribalarni his qiladi va ularni o'ziga o'tkazadi. Odamlar o'rtasidagi muloqotning aksariyati ushbu turdagi empatik tajribaga asoslanadi.

2) Kognitiv empatiya - bu boshqalarning fikrlarini tushunish, taqqoslash va tahlil qilish qobiliyati. Ushbu shakldagi empatiyaning asosiy vazifasi tushunish va chuqur tushunishdir. Bu tip munozaralar va ilmiy tortishuvlar paytida, his-tuyg‘ularni baholamasdan yoki o‘girilmasdan, nima bo‘layotganini va raqibning nuqtai nazarini tushunish va uni boshqalarga tushunarli so‘zlar bilan ifodalash vazifasi bo‘lganda namoyon bo‘ladi.

3) Predikativ empatiya bilan odam boshqa odamlarning har qanday harakat yoki hodisalarga munosabatini tahlil qilish va bashorat qilish qobiliyatiga ega. Kundalik hayotda empatiyaning bu turi o‘zini boshqasining o‘rniga qo‘yish va uning reaksiyasini tasavvur qilish zarurati tug‘ilganda odamlar o‘rtasida faol qo‘llaniladi.

Bu turlarning barchasi har bir shaxsda ko‘proq yoki kamroq rivojlangan, ammo ulardan biri har doim yorqinroq. Chuqur empatiya qobiliyati ko‘plab omillarga bog‘liq - temperament, xarakter, inson miya faoliyati, kasbiy kompetensiya. Empatiya - bu ko‘pchilik foydalana olmaydigan haqiqiy sovg‘adir, u odamni azob-uqubatlarga duchor qiladi, chunki odamlar har doim ham sharoitlarni boshdan kechirmaydilar. Har qanday psixologik hodisa singari, empatiya ham o‘zining “ijobiy” va “salbiy” tomonlariga ega. Ushbu taqqoslash jadvalda ko‘rsatilgan. Adabiyotda empatiya tuzilishiga qarashlar birligi mavjud emas. Dastlab, bu kontsepsiya hissiy konsepsiya doirasida ko‘rib chiqildi (empatiya yoki hamdardlik ko‘rinishidagi boshqa odamning tajribasiga hissiy munosabat). Keyinchalik empatiya samarali kognitiv hodisa sifatida ko‘rib chiqila boshlandi, bu boshqa odamning ichki holatini (fikrlari, his-tuyg‘ulari) aks ettirish bilan bog‘liq bo‘lgan tajribaga bilvosita hissiy munosabat sifatida tavsiflanadi. Eng istiqbolli yo‘nalish tadqiqotning “integrativ yo‘nalishi” bo‘ldi, unda empatiya murakkab psixologik hodisa sifatida o‘rganiladi. Biroq, empatiyaning nafaqat sifat xususiyatlarini (hissiy, kognitiv, bashoratli va samarali empatiya), balki uning mazmunli xususiyatlarini (empatik orientatsiya) ham hisobga oladigan ushbu sohaga oid ishlar orasida amaliy tadqiqotlar kam. Konstitutsiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan empatiya tuzilishini hisobga olgan holda, empatiyani ma’lum bir xususiyatga kiritilgan ko‘rsatkichlar sifatida tuzilishi mumkin bo‘lgan murakkab ko‘p darajali, lekin ayni paytda yaxlit shakllanish sifatida ko‘rib chiqish odatiy holdir. Empatiya tuzilishida uchta daraja mavjud: empatiyaning dinamik xususiyatlarini tavsiflovchi rasmiy-dinamik (empatik reaktsiyalarning paydo bo‘lishi va borishi xususiyatlari) va empatik jarayonning psixologik mohiyatini aks ettiruvchi sifatli (hissiy empatiya; kognitiv, bashoratli va samarali); mazmunli-shaxsiy, bu empatiya jihatlarini o‘z ichiga oladi, ularning yordamida ma’lum obyektlar va ogohlantirishlarga empatik reaksiya paydo bo‘ladi. Empatiya haqidagi imperativ daraja ommaviy va individual g‘oyalar sifatida talqin qilingan. Ayrim asarlarda empatiyaning xulq-atvor jihati (muloqot holatida) bir qator xususiyatlar bilan ifodalanadi. Keling, ushbu xususiyatlarni ko‘rib chiqaylik, hamdardlikni uyg‘otishi mumkin bo‘lgan adekvat xatti-harakatlarni tanlash, boshqa birovning fikrlari va his-tuyg‘ulari haqidagi mulohazalarni uning shaxsiy tajribasiga mos keladigan o‘zaro ta’sir shakllarida ifodalash, boshqa shaxsga zarar keltirmaydigan aloqa shakllaridan foydalanish.

Muhokama. Hozirgi vaqtda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat keskinlashmoqda, hamma narsa yanada dinamik. Psixologning kasbiy faoliyati tarkibiga quyidagilar kiradi: psixolog va mijoz o‘rtasidagi shaxslararo o‘zaro munosabatlar, bu muayyan mexanizmlar asosida qurilgan. Shaxslararo mexanizmlar qat’iydir individual, va qanchalik zamonaviy bo‘lsa, ular ko‘proq zamonamizning ijtimoiy ideallariga mos keladi. Samarali uchun kasbiy faoliyat ijobiy munosabatni talab qiladi boshqa odamning shaxsiyati, uning muammolariga e’tibor qaratish va ularning yechimiga qiziqish. Psixologiyadagi gumanistik an’analarga ko‘ra, ijobiy boshqa shaxsga munosabat yaratilishi mumkin, hukmsiz munosabat va shaxsni so‘zsiz qabul qilish tufayli boshqasi, shuningdek, bu jarayonda o‘zini o‘zi bo‘lish qobiliyati, shaxslararo o‘zaro ta’sir natijasida ham insonlarda o‘zaro hamdardlik bo‘lishi, bir birlarini tushunishga urinishlari mumkin. Shaxslararo mexanizmlar aks ettirish va empatiyani o‘z ichiga oladi.

I.Yu. Shilovaning fikriga ko‘ra psixolog ko‘rsatishi kerak hamdardlik, ya’ni mijozga uning fikrlash va his-tuyg‘ularini tushunishingizni ko‘rsating va dunyoni mijoz ko‘rgandek ko‘rishi mumkin, lekin ayni paytda u mijoz dunyosidan ajralishini saqlab qoladi. Psixologning o‘zi bo‘lish qobiliyati haqiqiylik o‘ziga nisbatan halol munosabatni, o‘zini aks ettirishni nazarda tutadi nomuvofiqlik, murakkablik, noaniqlik, chin dildan qobiliyati va his-tuyg‘ularingizni, fikrlaringizni va niyatlaringizni ochiq ifoda etish zarur. Shaxsiy o‘sish psixolog professional sifatida unga nisbatan real munosabatni talab qiladi, yangi tajribalarga doimiy ochiqlik, ichki tayyorgarlik o‘zgartirish va bu kabi aks ettirish psixologning muhim sifati sanaladi. Empatiya - bu boshqa odamni so‘zlarsiz tushunish, fikrlashga tayanmasdan, balki sezgilar, his-tuyg‘ular, his-tuyg‘ular va yordami bilan ular haqida keyingi xabardorlik. Empatiya ko‘rsatish orqali psixolog

mijozning qalbiga kirib boradi. Ko‘pincha biz xatti-harakatlarimiz va hissiyotlarimizning psixologik qismini o‘ylamaymiz. Ulardan ba’zilari biz uchun odatiy ko‘rinadi. Shunday qilib, qiyin ahvolda boshqa odamlarga mehr qo‘yish qobiliyati tashqi ko‘rinishi tabiiy ko‘rinishi mumkin, ammo bu haqiqat ilmiy tushuntirishga ega va qanday empatiya ekanligini bilish insonni, his-tuyg‘ularini va his-tuyg‘ularini chuqurroq anglashi mumkin. Zamonaviy dunyoda, o‘z qadr-qimmati bilan, axloqiy qadriyatlarni tez-tez almashib turish va hayotning dahshatli ritmi insonni saqlab qolish uchun juda muhimdir. Ba’zi hollarda befarq bo‘lish va befarq bo‘lmaslik qobiliyati munosib bo‘ladi va uning haddan tashqari darajalari shaxsning o‘ziga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Empatiya va his-tuyg‘u tushunchalari, xuddi shu narsa kabi ko‘rinadi, lekin ularga qo‘shilgan ma’no farq qiladi. Empatiya uchun boshqa odamning his-tuyg‘ulariga qo‘shilish, ular bilan ishlamaslik, ularga qo‘shilmaslik va xushyoqish uchun - bu shaxsga, uning muammosiga yoki hissiyotlariga, ehtimol ba’zi ishtiroklarga e’tiborni namoyon qilish xarakterlidir. Qanday his-tuyg‘ularni bilish uchun siz uning ba’zi xususiyatlarini tushunishingiz mumkin. Birinchidan, bu inson tajribasiga javoban insonning hissiy munosabatini namoyon etadi. Empatiya - bu boshqa shaxsning boshidan kechirgan his-tuyg‘ularini va his-tuyg‘ularini o‘ziga singdirish uchun psixologik imkoniyatdir.

Odatda empatiyaning namoyishi uch guruhga bo‘linishi mumkin va bu uch guruhning har biri bo‘lajak psixologlar uchun juda ahamiyatlidir ular quydagilar:

- Kognitiv - intellektual jarayonlarni o‘z ichiga oladi - o‘xshashlik yoki taqqoslash;
- Hissiy - bu odamning ba’zi reaktsiyalariga taqlid qilishdan iborat;
- Predikativ - bu sodir bo‘lgan narsalarga turli xil reaktsiyalarni kiritish mumkin bo‘lgan xususiyati

Bo‘lajak psixologlarda empatiyaning quyidagi darajalari bo‘lishi ham maqsadga muofiq bo‘ladi.

Ushbu tuyg‘u rivojlanishida uchta asosiy daraja mavjud:

1. Birinchi yoki eng past empatiya darajasi odamning o‘zi va uning g‘amxo‘rligi, do‘stlar yoki hamkasblar hayotiga qiziqishning yo‘qligi bilan tavsiflanadi. Bunday odamlar uchun suhbatni davom ettirish yoki ijtimoiy faoliyatda ishtirok etish qiyin bo‘lishi mumkin.

2. Ikkinchi daraja esa, ba’zida boshqa odamlarga hamdardlik qobiliyatidir va ba’zan boshqa odamlarning xavotirlariga yoki muammolariga befarq bo‘lmoqda. Ushbu guruh o‘z his-tuyg‘ularini kamdan-kam namoyon qiladigan jamoatchilikni o‘z ichiga oladi. Ko‘pincha u oqilona va xotirjam bo‘lib qolaveradi.

3. Uchinchi daraja odatda hissiy va hissiy odamlarga xosdir, ularning ozchiligi bor, lekin ular boshqalarni yaxshi tushunish va his qilish imkoniyatiga ega. Ular eng yaxshi do‘stlar, samimiy, har qanday vaziyatda masalaning mohiyatiga kirib, tegishli so‘zlar va yechimlarni topishlari mumkin, lekin ba’zida ular faqat his-tuyg‘ularga asoslangan.

Empatiya tuyg‘usini rivojlantiradigan ba’zi bir fikrlar mavjud yoki hech bo‘lmaganda ushbu masalani chuqurroq anglash uchun foydali bo‘lishi mumkin. Maslahatlarning ba’zilari shaxsni o‘rganish - uning xulq-atvori, his-tuyg‘ulari, har xil omillarga reaksiyalar yoki tirnash xususiyati beruvchi narsalar haqida gapiradi. Empatiya va uni qanday qilib rivojlantirish kerak:

1. Suhbatdoshingizni tinglang - bu usul his-tuyg‘ularni uyg‘otishga va sherigingizning yaxshiroq tushunilishiga yordam beradi.

2. Turli vaziyatlarda atrofdagilarga e’tibor bering va ularning fikrlarini tushunishga harakat qiling, ular qanday ish joylari, ular qaysi mintaqaviy pozitsiyaga tegishli.

3. Siz bilmaydigan odamlar bilan suhbatni boshlang: poezdda yoki metroda sayohat qilib, yolg‘iz sayohatchisi bilan minibüste. Qiziqish - empati rivojlanishining vositalaridan biri.

4. Boshqa tomondan har qanday muammolarni ko‘rib chiqish uchun o‘zingizni boshqa odamning o’rniga qo‘ying. Qabul qilish uchun masala sifatida, qahramonlar umidsiz vaziyatda bo‘lgan psixologik filmlarga murojaat qilishingiz mumkin. Bunday vaziyatda qanday qilib harakat qilishni tushunishga harakat qiling.

5. O‘z his-tuyg‘ularingizni va his-tuyg‘ularingizni aniqlash qobiliyatlarini rivojlantiring, hissiy xotiralarni rivojlantirishga harakat qiling.

Ko‘pincha odamlar tashvishining sababi gipertrofiyalangan empatiya. Bu muammo odamlar bilan muloqot qilishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Buni bartaraf qilish uchun bu hissiyot va his-tuyg‘ularni nazorat qilish, o‘z tashvishlaringizga va sevimli mashg‘ulotlariga o‘tishga imkon beradi. Inson bilan muloqotda bo‘lish, ijobiy daqiqalarni topish muhimdir. Empatiya insonga his-tuyg‘ularni his qilish, uni his qilish qobiliyati, shuning uchun bunday tuyg‘udan to‘liq qochish jamiyatdan voz kechishga va o‘z-o‘zidan yopilishiga olib keladi.

Xulosa. Adabiyotda ko‘rsatilgan empatiya subyekti va obyekti o‘rtasidagi o‘xshashlik omiliga murojaat qilish, ijtimoiy o‘ziga xoslik nazariyasi g‘oyalariga murojaat qilaylik. Bu nazariyaga ko‘ra, individni bir qancha asoslarga ko‘ra turkumlash mumkin. O‘zaro toifalarga bo‘linish natijasida bir shaxs, bizning holimizda boshqa madaniyat vakili, bir asosda ichki guruh a’zosi sifatida qabul qilinishi va boshqa asosda tashqi guruh a’zosi sifatida. Xususan, R.Braun va J.Tyorner yozganidek, agar shaxs bir asosda toifaga ajratilsa, bu guruh a’zosi holatida ijobiy bahoga va salbiy bahoga olib keladi. Ikkita asos bo‘yicha toifalarga bo‘lingan holda, tadqiqotchilar umumiy ta’sirni kutishni taklif qilishadi, ya’ni, ikkita asos bo‘yicha ichki guruh a’zosi eng ijobiy baho, tashqi guruh a’zosi ikki asos bo‘yicha eng salbiy baho oladi, bir asosda ichki guruh a’zolari va boshqa asosda tashqi guruh a’zolari mos ravishda neytral baholanadi. Bunday qayta tasniflash natijasida shaxs turlicha idrok qilinadi, idrok etuvchi tomonidan kamroq salbiy reaksiyalar yuzaga keladi. Boshqa madaniyat vakillari bilan qarama-qarshilik holatlarida empatiya omillari haqida gap ketganda, bunday qayta tasniflashdan foydalanish mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas. Agar globallashuv jarayoni va migratsiya jarayonlari natijasida madaniyatlar to‘qnashuvi faktini hisobga olsak, tadqiqotning bu yo‘nalishi nafaqat nazariy nuqtai nazardan, balki amaliy jihatdan ham istiqbolli ko‘rinadi. Guruh vakiliga nisbatan empatiya bilan bog‘liq holda o‘zaro toifalarga ajratish (muallif tili bilan aytganda, jarayon qayta toifalash deb yuritiladi) g‘oyalarini G. Dovidio va uning hamkasblari asarlarida ko‘rish mumkin. Uchta model empatiya (empatik tashvish sifatida qaraladi) muhim vositachi ekanligi haqidagi taxminga asoslanadi, bu orqali guruhlararo aloqa va umumiy o‘ziga xoslikni idrok etish kabi ijtimoiy omillar guruhlararo munosabat va xatti-harakatlarni shakllantiradi. Birinchi modelga ko‘ra, empatiya guruhlararo qarama-qarshilikni (masalan, identifikatsiya mexanizmi orqali) kamaytirishga qaratilgan aralashuvlar va guruhlararo munosabatlar o‘rtasida vositachi vazifasini bajaradi. Ushbu model bir qator eksperimental tadqiqotlarda olingan dalillar bilan qo‘llab-quvvatlanadi, masalan, oq tanli talabalarga kamsitish haqida gapiradigan matn (qora tanli talaba nomidan) o‘qilgan. Bir holatda, subyektlardan o‘zlarini matn muallifi o‘rniga qo‘yib, uning o‘rnida nimani his qilishlarini tasavvur qilishlari so‘ralgan (eksperimental guruh), ikkinchisida ma’lumotni tahlil qilishda obyektiv bo‘lishlari talab qilingan (nazorat guruhi). Eksperimental guruhdagi sub’ektlar nazorat guruhidagi subyektlarga nisbatan guruhlararo tarafkashlikning pasayishini ko‘rsatdi. Kuzatuvchining pozitsiyasini bajaruvchi pozitsiyasiga o‘zgartirish muqarrar ravishda atributiv jarayonlarni o‘zgartiradi, voqelik boshqacha tarzda qabul qilinadi. Shunga o‘xshash natijalar boshqa tadqiqotlarda ham olingan (bir qator stigmatizatsiyalangan guruhlar vakillari - OIV bilan kasallanganlar, uysizlar, giyohvandlar va boshqalar misolida). Bundan tashqari, tashqi guruh vakiliga bo‘lgan munosabatni kechiktirilgan o‘lchash ta’sirning barqarorligini ko‘rsatdi. Ikkinchi modelning mantig‘i shundaki, guruh a’zoligi ham guruhlararo munosabatlarga, ham empatiyaning o‘ziga ta’sir qilishi mumkin va bu ikki konstruktsiya, o‘z navbatida, guruhlararo reaktsiyalarga mustaqil ravishda ta’sir qilishi mumkin. Umumiy va guruhli o‘ziga xoslik modeli g‘oyalariga murojaat qilib, G. Dovidio guruhlararo chegaralarni idrok etishni muntazam ravishda o‘zgartirish orqali amalga oshirilgan qayta toifalash guruhlararo qarama-qarshilikni kamaytirishga imkon beradi, deb hisoblaydi. Natijada, shaxslar o‘zlarini ikkita alohida guruhning a’zolari sifatida emas, balki bitta umumiy toifaga (yuqori darajaga) tegishli deb bilishadi. Kategoriyalash uchun yangi asoslar maktab sinfi, kompaniya yoki millatni o‘z ichiga olishi mumkin. Umumiy maqsadlar yoki umumiy taqdir kabi birlashtiruvchi omillarning kiritilishi umumiy guruh ichidagi o‘ziga xoslikni yaratishga yordam beradi. Qora tanli talabalar tomonidan guruhlangan oq tanli talabalar namunasidan olingan eksperimental natijalar ushbu model uchun empirik yordam beradi. Uchinchi model, oldingi guruhlararo munosabatlar va guruhlararo aloqaning tabiati tashqi guruh a’zolariga nisbatan o‘rtacha empatik reaktsiyalar ekanligini ta’kidlaydi. Kontakt gipotezasiga ko‘ra, tashqi guruhga bo‘lgan munosabat yaxshilanishi kerak bo‘lsa-da, aloqaning o‘zi (ijobiy yoki salbiy) guruhlararo moyillik zaiflashishi yoki kuchayishini belgilaydi. Shunga qaramay, eksperimental faktlar ushbu model qoidalarini tasdiqlaydi. Ushbu modellar doirasida olingan kontseptual modellar va empirik faktlar tashqi guruh a’zosiga nisbatan empatik reaksiyaga yordam beradigan omillarning mavjudligidan dalolat beradi, chunki maxsus ta’sirsiz tashqi guruh a’zosi bu reaktsiyani keltirib chiqarmaydi. Empatiya, Devis ta’biri bilan aytganda, vaqtincha bo‘lsa-da, “... o‘zini va boshqalarni ajratilgan ijtimoiy sub’yektlarni birlashtiradigan” psixologik jarayondir. Guruh va tashqi guruh o‘rtasidagi bu aloqalarning uzilishi antisotsial xatti-harakatlarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абалкина, М. А. Анатомия взаимопонимания / М. А. Абалкина, В. С. Агеев. -М.: Знание, 1990.-64 с.

2. Абрамова, Ю. Г. Психология среды: истоки и направления / Ю. Г. Абрамова //Вопросы психологии. 1995.-№2. -С. 130-131.

3. Абульханова-Славская, К. А. Жизненные перспективы личности / К. А. Абульханова-Славская /'/' Психология личности и образ жизни. М., 1987.-С. 138-144.

4. Агавелян, Р. О. Формирование эмпатии у студентов-психологов / Р. О. Агавелян. Челябинск: ЧелГУ, 1998. - 66 с.

5. Адлер, А. Практика и теория индивидуальной психологии / А. Адлер; перевод А. Боковикова. М.: Академический проект, 2007. - 240 с.

6. Адорно, Т. Актуальность философии / Т. Адорно // Путь в философию: Антология. М., 2001. - С. 335-349.

7. Алексахин, С. В. Прикладной статистический анализ данных. Теория. Компьютерная обработка. Области применения / С. В. Алексахин. М.: ПРИОР, 1998.-688 с.

8. Аллахвердова, О. В. Мотивационная сторона конфликтов: ребенок, семья, школа / О. В. Аллахвердова // Социальные и психолого-педагогические проблемы воспитания детей. СПб., 2001. - С. 147-151.

9. Аминов, Н. А. О компонентах специальных способностей будущих школьных психологов / Н. А. Аминов, М. В. Молоканов // Психологический журнал. 1992. - Т. 13. - № 5. - С. 104-109.

10. Ананьев,Б.Г. Человек как предмет познания / Б. Г. Ананьев.СПб.: Питер, 2010.-288 с.

UDK159.99

Ziyavitdinova Gulnora Ziyautdinovna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Zoirova Diyora Murod qizi
Psixologiya (faoliyat turlari bo‘yicha) yo’nalishi magistranti

AYOLLARDA TASHQI KO‘RINISH O‘ZGARISHIDA O‘Z-O‘ZIGA MUNOSABATINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ayollarning tashqi ko‘rinishidagi ma‘lum o‘zgarishlari va o‘ziga bo‘lgan munosabatning psixologik xususiyatlari va ularni psixodiognostik talqin etish omillari taxlil qilindi. Tashqi ko‘rinishidagi o‘zgarish shaxsining shaxsiyati yoki ijtimoiy hayotiga ta‘siri va uning individual tipologik xususiyatini yaqqol ochib berish sabablariga to‘xtalib o‘tilgan. Ayollarda tashqi go‘zallikga e‘tibor qaratilishi va bu ularni o‘zini-o‘zi qadrlashi o‘zini-o‘zi hurmat qilishi va shaxslararo munosabatga kirasha olishiga olib keladi. Biz tadqiqotimiz davomida buni yoritib berishga harakat qildik.*

Kalit so‘zlar: *tashqi ko‘rinish, subyektiv farovonlik, avtosimpatiya, respondent, integral munosabat, polarizatsiya, o‘zini-o‘zi qadrlash, o‘zini-o‘zi hurmat qilish, shaxslararo munosabat.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ САМООТНОШЕНИЯ ПРИ ИЗМЕНЕНИИ ВНЕШНОСТИ У ЖЕНЩИН

Аннотация. *Сведения и особенности целебного облика этих женщин. Обсуждаются влияние изменения внешности на личность или социальную жизнь и причины четкого выявления индивидуально-типологической ситуации. У женщин акцент организации на красоте и ее самооценке приводит к развитию самооценки и навыков межличностного общения. Мы постарались выяснить это в нашем исследовании.*

Ключевые слова: *внешний вид, субъективное благополучие, самосимпатия, респондент, интегральная установка, поляризация, самооценка, самооценка, межличностные отношения.*

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF SELF-ATTITUDE IN THE CHANGE OF APPEARANCE IN WOMEN

Annotation. *Information and characteristics of these women‘s healing appearance. The impact of the change in appearance on the personality or social life and the reasons for clearly revealing the individual typological situation are discussed. In women, the organization‘s focus on beauty and its self-esteem lead to self-esteem and interpersonal skills. We tried to clarify this in our research.*

Key words: *appearance, subjective well-being, self-sympathy, respondent, integral attitude, polarization, self-esteem, self-esteem, interpersonal relationship.*

Kirish. Ayollarda tashqi ko‘rinishga bo‘lgan munosabat hozirgi kunda shaxsning individual xususiyatidan kelib chiqgan holda o‘zgarishi mumkin. Tashqi farovonlikka erishish uchun shaxs farovonligining turli ommilarini, subyektiv farovonlikni aniqlash va uning xususiyati ko‘rib chiqilgan.[1].

“Tashqi ko‘rinish – hayotning sifati subyektiv farovonligi” muammosini dolzarbliligi va katta qiziqish bilan bildirilgan psixologik xulosalari keltirib o‘tilgan[3]. Ayollarning tashqi ko‘rinishidagi zaiflik chiroy yoki ma‘lum plastik jarohliklarni qilishi yoki tashqi qiyofadan qoniqmaslik holatlarini kuzatamiz. Hozirgi zamonaviy davrda ijtimoiy hayotda ayollarning ko‘p jabhalarda faqatgina yuzlarni emas balki tanani boshqa qismlarini o‘zgartirish holatlari kuzatilmoqda va buning foydalanuvchi va taqdim etayotgan shaxslar ham ko‘p. G‘arbda ayollar tashqi ko‘rinishga huddi o‘zlarini individual shaxsiyati sifatida qarashadi va jozibali bo‘lish ularning yagona birlamchi xususiyatiga aylangan, jozibali tashqi ko‘rinish shaxs hayoti sifatida ta‘sir muammosini an‘anaviy tarzda talqin etilgan [2].

Ba‘zi ayollar tashqi ko‘rinishini jarrohlik yo‘li bilan to‘g‘irlamoqchi bo‘lishadi va hozirgi kunda bu ommaviy tusga kirgan jarayonlardan biri. Bu toifadagi ayollar yuz qismini o‘zgartirish yoki tana azolarini ma‘lum miqdorda katta yoki kichik qilish shaxsning individual xususiyati bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Tana qiyofasi, o‘z tanasini baholash va o‘z tanasiga bo‘lgan munosabat "menlik"ni rivojlanishining muhim elementlari hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tanamizni qanday qabul qilishimiz uning tashqi ko‘rinishidan ko‘ra tanamiz qiyofasi biz uchun muhimroqdir. Chunki insonning tana qiyofasi va jozibadorlik hissi o‘zini-o‘zi hurmat qilish, farovonlik, baxt, hayotdan qoniqish bilan kuchli bog‘liq. Shaxsning o‘z tanasiga bo‘lgan munosabati hayotning turli bosqichlarida shakllanadi va o‘zgaradi. O‘smirlik va erta balog‘at davrida o‘z tanasini baholash sezilarli darajada kamayadi. O‘rta balog‘at davrida astasekin o‘sib boradi va keyin qarilik yoshiga yetganida tez pasayadi. Odamlar o‘smirlik va yoshlik davrida o‘z tanalarini eng tanqid qiladilar va o‘smir tanalariga xos kamchiliklar ko‘pincha tengdoshlari tomonidan masxara yoki rad etish manbai sifatida ishlatiladi. Tana qiyofasini shakllantirishga tanaga bo‘lgan munosabat va e’tiqodlar (subyektiv fikrlar va hislar, masalan, tashqi ko‘rinishidan qoniqish yoki norozilik), jismoniy omillar (obyektiv nisbatlar, tana massasi, bo‘y balandligi), shaxslararo omillar (fikrlar atrof-muhit, masalan, oila a’zolari, tengdoshlari) va madaniy omillar (masalan, ommaviy axborot vositalaridan) sabab bo‘lib xizmat qiladi. Ikkinchisi shaxs o‘zi erishmoqchi bo‘lgan "ideal" qiyofasiga katta ta’sir ko‘rsatadi, chunki ular o‘zlari uchun standart qiyofalarni qabul qilishga sananladi.

Adabiyotlar tahlili. Ko‘pgina psixologlarning ta‘kidlashicha, yoshlarning o‘ziga bo‘lgan munosabati, ayniqsa, qizlarning tashqi ko‘rinishi o‘zlarini qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi va ularning shaxslararo muloqoti muvaffaqiyatining kaliti bo‘lib hisoblanadi [4].

Shunday qilib, Z.N.Lukyanova qizlarning tashqi ko‘rinishining o‘zini-o‘zi qadrlash darajasi sezilarli darajada degan xulosa keladi. Birinchidan, ular jamoada egallagan mavqei bilan, ikkinchidan, aloqa hamkorlarini tanlash bilan bog‘liqligini qayd etadi[5].

E.Drozdovaning tadqiqot ishlarida kuzatish mumkinki, o‘zini-o‘zi qadrlash bilan bog‘liq komponentlar o‘rtasida sezilarli farqlar topilib ular turli sotsiometrik maqomga ega ayollarning tashqi ko‘rinishini misol qilib keltirib o‘tadi [6].

E.V.Burenkova 17-18 yoshdagi qizlarda empirik tadqiqot o‘tkazdi. Shuningdek, 17-18 yoshdagi qizlarda uchun qonunbuzarliklar mavjud degan xulosaga keldi. Ya‘ni bu xulosalarning negizida yosh qizlar va ayollar o‘zini-o‘z hurmat qilish o‘ziga bo‘lgan ishonch darajasi va hurmatini qay darajada ko‘rishi va ularning jamiyatdagi axloq qoidalarga munosibligini kuzatib borish tavsiflanadi.[7]

L.D.Kachmarek, J. Enko va boshqalar o‘z ishlarida o‘rganilgan to‘plagan ma‘lumotlarida bir qator tadqiqotlarni to‘plab o‘z fikr mulohazalarini keltirib o‘tgan va ular shunday nazariy ma‘lumotlarga to‘xtalib o‘tishgan, tashqi ko‘rinishdan qoniqish shaxs farovon hayoti ya’ni hayot davomida o‘z o‘zidan qoniqishi va tashqi qiyofasiga moslashish o‘ziga, jamiyatga yoqishi har qanday qoniqish xohishlaridan ustunligini ta‘kidlaydi[8].

Natija va tahlil. Biz ushbu mavzuni emperik jihatdan yoritib berishda bir qancha metodlardan foydalandik. Ushbu tadqiqotimizda foydalangan metodlarga to‘xtaladigan bo‘lsak asosan kuzatish metodi va suhbat jarayoni va ayollardagi o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatni o‘rganish uchun Dembo Rumbeshteyn metodikasi o‘zini-o‘z baholash va MMPI 16 omil shaxs so‘rovnomasi va O.Skorogevskiyni “O‘z tanasidan qoniqish darajasini baholash” va “O‘z tanasini tasviri so‘rovi” metodikalaridan foydalanib, ilmiy jihatdan o‘rganib chiqdik. Olingan natijalar emperik jihatdan o‘rganib chiqilib uning ijobiy tasviri yoritib ko‘zlagan maqsadga erishildi.[9]

Ko‘pincha tadqiqotda tana shaxsning jismoniy "men" ning namoyon bo‘lishi sifatida tushuniladi. R.Berns, V.Jeyms, N.Remsi, V.V.Stolin, D.Xarkort va boshqalar kabi tadqiqotchilar “men” obrazining alohida ahamiyatini qayd etib, undagi shaxsning jismoniy, psixologik va ijtimoiy tomonlarini ta‘kidladilar [5]. Chunki, shaxsning men komponenti o‘zini qadrlash va o‘zidan qoniqish hissini mavjudligini ko‘rsatib o‘tadi. Ayollarda tashqi qiyofa muloqatning negizi hisoblanib birlamchi omil bo‘lib kelgan.

Va nihoyat, tashqi ko‘rinishning ta‘sirini baholash hayot sifatiga (tashqi ko‘rinishning ahamiyati) bevosita bog‘liq ayol shaxslaridagi ayollikning jiddiyligi va erkaklik – erkakcha tashqi ko‘rinishda namayon bo‘ladi. Yuqori polarizatsiya bilan, gender farqlar, jumladan, tashqi ko‘rinish juda qadrlanadi va an‘anaviy erkaklik standartlariga mos keladi va ayollik xususiyatlariga mos ravishda kuzatilib boriladi. Ehtimol, genderga xos bo‘lgan mavzular jinsning atributi yoki o‘z tanasiga e‘tibor sifatida gender sxemasini kuchaytiradi [6].

Shunday qilib, jins va gender bo‘yicha tadqiqotlar o‘ziga va o‘z tanasiga bo‘lgan munosabatdagi farqlar gipotezani tasdiqlaydi. Ko‘proq ayollar va ayollik tashuvchilardan ko‘ra o‘zidan va o‘z tanalaridan mamnun shaxs sifatida qaraladi va go‘zalikni sevuvchi shaxsiyatdir. Bundan tashqari, empirik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, ayollik xislatlariga ega bo‘lish ikkalasi uchun ham ma‘qulroq jinslar ayollarga qaraganda

yuqoriroq degan taxminni tasdiqlaydi. Zamonaviy jamiyatda ayollar go‘zalikni tashqi tana o‘zgarishi va chiroyini undagi fazilatlarda deb hisoblaydilar. Shunday qilib, ayollar tashqi ko‘rinishi haqida qayg‘uradilar va hayot davomida u yoki bu darajada qoniqadi. O‘rta yoshli ayollarda, tana ko‘rinishidan norozilik faqat mazmunni o‘zgartirib qolmay balki tashqi ko‘rinish asosida yuritilib boriladi.

Shunday qilib, yosh qizlar asosan vazn, tana shakli haqida qayg‘uradilar va ularning boshqalarda qoldiradigan taassurotlari ular uchun muhimdir. Yoshi katta ayolarda esa 50 yil o‘tgach, bu tashvishlar ko‘rinadigan qo‘rquvga aylantirildi, qarilik belgilari namayon bo‘ladi [7]. Biroq, tashqi ko‘rinish bilan bog‘liq tashvishlarning kamayishi hali ham 60 yoshdan oshgan ayollarda kuzatiladi, e‘tiborni ko‘proq funktsional jihatlarga o‘tkazish tashqi ko‘rinish (masalan, ko‘zlarni o‘zgartirish qoshlarni yoki lab qismlarini) va yana boshqa tana a‘zolardagi nuqsonlar bilan bog‘liqdir. Hayotning keyingi bosqichida kattalar ijtimoiy jihatdan o‘rnatilgan ideallarga muvofiqlikni emas, balki tashqi ko‘rinishdagi xilma-xillikni qadrlay boshlaydilar.

Qizlar voyaga yetganida tashqi ko‘rinishdan norozilikning yuqori darajasi va bu komponentning qadriyatlar tarkibida yuqori ahamiyati davom etadi, garchi ularning zo‘ravonligi yoshlarnikiga nisbatan pastroq bo‘lsa ham [8].

D. Xarris va A. Karr ayollarning eng ko‘p 18-30 yoshdagi ishtirokchilar bilan tadqiqot olib borgan bo‘lib, tadqiqotlar natijasida ularda yuqori darajadagi tashvish qayd etilgan. Bu yerda respondentlarning 69 foiz qismida yuqori darajada. Bu daraja 51-60 yoshdagi ayollar guruhida 60% gacha kamaydi. Eng past 61 yoshdan katta (33%) ayollar guruhida tashqi ko‘rinishga oid tashvishlar darajasi kuzatildi [9]. Bu izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, yoshga nisbatan kutilgan natijalar o‘z aksini topmagan balki o‘rta yoshdagi ayollarda o‘zini tanasini qadrlash va ko‘proq e‘tibor berish xususiyatlari yoritib o‘tilgan.

Psixologik yordamga muhtojlik sezmagan ayollarda o‘ziga bo‘lgan integral munosabat, o‘zini-o‘zi hurmat qilish, avtosimpatiya, boshqalarning kutilgan munosabati, boshqalarning munosabati, o‘z-o‘zini qabul qilish, tana a‘zolari, terisidan qoniqish bilan bog‘liqligi bilan farqlanadi. Ta‘kidlab o‘tilgan, ushbu guruhdagi o‘zini-o‘zi hurmat qilish natijalari yuqori darajada tananing qismlaridan qoniqish bilan, umumiy tana qismlaridan qoniqish bilan esa o‘rtacha darajada bog‘liqligi sezilarli farqlanadi. Ko‘pgina ayollarda tana a‘zolaridagi o‘zgarish kimgadir taqlid yoki kimgadir yoqish uning idealiga aylanish hisslari bilan bog‘liqligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Qarish inson tajribasining asosiy jihati bo‘lsa-da, shaxsiy rivojlanish, o‘zgarish va hatto ijtimoiy me’yorlardan xalos bo‘lish imkoniyatlarini taklif qilsa-da, keksa ayollar ko‘pincha ayolning yoshligiga eng yuqori qiymatni qo‘yadigan va ayollarni kamroq jozibador deb hisoblaydigan madaniyatda tengsiz ikki tomonlama standart bilan kurashadilar. Ular qarigan sari. ayollar abadiy yosh ko‘rinishni saqlab qolish uchun intilishadi. Binobarin, qarish ayrim ayollarda Yoshi ulug‘likni anglatsada ko‘pchilik ayollarda ajinlar, dog‘lar yoki kulrang sochlar kabi xususiyatlar ko‘pincha mag‘lubiyat belgisi sifatida qabul qilinadi.

Garchi jismoniy jozibadorlik erkaklar va ayollar uchun muhim bo‘lsa-da, madaniyatlardagi erkaklar go‘zallikni potentsial turmush o‘rtoqlarda ko‘proq ustun qo‘yadilar [8], chunki erkaklar insoniyat ajdodlari tarixi davomida yoshlik, salomatlik va unumdorlikni ishonchli bashorat qilgan xususiyatlarga ko‘proq ahamiyat berishadi. Binobarin, ayolning jismoniy jozibadorligi uning umumiy turmush o‘rtog‘i qiymatining asosiy komponentidir.

Ayollarning yuzlari va tanalari bir vaqtning o‘zida yoshlik, sog‘liq va unumdorlik bilan bog‘liq xususiyatlarni namoyish etadi. Yuzlar dumaloq yonoqlar, katta ko‘zlar va tor jag‘lar, tiniq teri va yuz simmetriyasi orqali salomatlikni va to‘liq lablar kabi estrogenga bog‘liq xususiyatlar orqali tug‘ilishni ko‘rsatishi mumkin.

Ayollarning qaror qabul qilish mexanizmlari erkaklar tomonidan kutilayotgan juftlik qiziqishini baholashda o‘zlarining jozibadorligi haqidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olishi va shu bilan uning turmush qurishga intilishiga ta‘sir qilishi taxmin qilinmoqda.

Yuzni pardoz qilish noaniq ijtimoiy idrok bilan bog‘liq. Garchi pardoz qilib yurgan ayollar jozibali va iliq deb qabul qilingan bo‘lsa-da, boshqa tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ular ham dominant va kamroq ishonchli deb qabul qilinadi. Makiyaj turmush o‘rtoqlarni jalb qilish va raqiblar bilan raqobatlashish taktikasi sifatida tasvirlangan, bu uning ta‘sir o‘tkazish niyatining belgisi sifatida qabul qilinishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytadigan bo‘lsam, ayollarda o‘z o‘zidan qoniqishi va tashqi ko‘rinishini o‘zgartirishi sezilarli oshib bormoqda va bunga ularning individual shaxsiy qarashlari qarorlari va tashqi

muhit asosiy omil bo‘lib kelmoqda. Psixo-emotsional holatini tuzatish uchun psixolog xizmatlaridan foydalanmayotgan ayollar va psixologik konsultatsiyalarga tashrif buyuradigan ayollarning tana qoniqishi, o‘ziga bo‘lgan munosabati va o‘zini-o‘zi qadrlashning qiyosiy tahlili natijalari tasvirlangan. Aniqlanishicha, respondentlarning ikkala guruhi ham o‘z tanasi va uning alohida qismlaridan juda yuqori darajada qoniqish darajasiga ega, ammo ular o‘z-o‘ziga munosabat tarkibiy qismlarida va o‘zini-o‘zi baholash tadqiqoti natijalarida sezilarli darajada farq qiladi.

Ushbu tadqiqot o‘zini-o‘zi anglaydigan jozibadorlik, o‘z-o‘zini hurmat qilish va adonizatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib chiqdi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘zini-o‘zi anglagan jismoniy jozibadorlik va o‘zini-o‘zi anglaydigan ijtimoiy jozibadorlik adonizatsiya bilan ijobiy bog‘liqdir. O‘zini-o‘zi anglagan jismoniy jozibadorlik odamlarga ularning tashqi ko‘rinishi qanday ekanligini bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Terexina N.S., Sergienko E.A., Lekalov A.A., Zvenigorodskiy P.V. Xulqatvorni nazorat qilish va turli kasb egalarining sub‘ektiv farovonligi o‘rtasidagi munosabatlar // Eksperimental psixologiya. 2014.
2. Cherkashina A.G. Jismoniy shaxsning qiyofasi, o‘ziga bo‘lgan munosabatning xususiyatlari, tananing o‘z-o‘ziniidrok etish haqiqatiga bog‘liqligi / A.G. Cherkashin // Samara gumanitar akademiyasining xabarnomasi. Seriya "Psixologiya". - 2012. - 1-son (11). – C. 75-91.
3. Lukyanova Z.N. Talabaning tashqi ko‘rinishini o‘zini-o‘zibaholashning uning tashqi ko‘rinishiga ta‘siri boshqa odamlar bilan muloqot / Z.N. Lukyanova // Psixologiya savollari. - 1989. - 3-son. - B.71-75.
4. Burenkova E.V. Tana tasviri metaforik vakillik sifatida Jismoniylik psixologiyasi: nazariy va amaliy tadqiqotlar. - 2009. – C. 63-74
5. Ramsey N., Harcourt D. Tashqi ko‘rinish psixologiyasi / N. Ramsey, D. Harcourt. - Sankt-Peterburg: Peter, 2009. - 256 p
6. Ziyautdinovna, Z. G. (2016). Social Psychological Services in Professional Colleges and Academic Lyceums. *Archive*, 125.
7. Gulnora, Z. (2019). Psychological preparedness of youth for family life. In *Bridge to science: research works* (pp. 177-178).
8. Safaev, N., Kamalova, Z., & Ziyavitdinova, G. (2024). The Present Condition of Preparedness for the Development of Family Life. *SPAST Reports*, *1*(1).
9. Mukhamedova, D., Rakhimova, I., Ziyavitdinova, G., & Kamalova, Z. (2022). The Relationship Between the Effectiveness of the Managerial Activity of an Education Manager With the Peculiarities of the Manifestation of His Communicative Potential in Uzbek System. *Journal of Higher Education Theory and Practice*, *22*(4).

Zuxurova Dilrabo Abdulaziz qizi
O'zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Umumiy psixologiya kafedrasi tayanch doktaranti
E-mail: zdilrabo4493@gmail.com

"MEN" OBRAZI VA O'ZINI-O'ZI BAHOLASH JARAYONINING ENG MUHIM BOSQICHLARI

Annotatsiya. *Men konsepsiyasi - bu insonning o'zi haqidagi tasavvurlarining rivojlanib boruvchi tizimi, uning tarkibiga o'zining jismoniy, intelektual, xarakterologik, ijtimoiy va boshqa xususiyatlarini idrok qilish, o'z-o'ziga baho berish va shaxsiyatga tasir o'tkazuvchi tashqi omillarni subyektiv idrok etish kiradi. Men konsepsiyasi shaxsning o'zini tanlash, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini aktualizatsiya qilishga yordam beradi, shu sababli biz ushbu maqolamizda "men" obrazi va o'zini-o'zi baholashning eng muhim bosqichlari haqida yoritib bermoqdamiz.*

Kalit so'zlar: *"men" obrazi, o'zini-o'zi baholash, identifikatsiya, jinsiy tipazatsiya nazariyasi, avtokategorizatsiya nazaryasi.*

ОБРАЗ «Я» И САМЫЕ ВАЖНЫЕ ЭТАПЫ ПРОЦЕССА САМООЦЕНКИ

Аннотация*. Я-концепция – это развивающаяся система представлений человека о себе, включающая в себя восприятие его физических, интеллектуальных, характерологических, социальных и других характеристик, самооценку и субъективные внешние факторы, влияющие на личность. Я-концепция помогает человеку выбрать себя, саморазвитие и самореализацию, поэтому в этой статье мы обсудим наиболее важные этапы формирования Я-образа и самооценки, о которых мы рассказываем.*

Ключевые слова: *образ «Я», самооценка, идентификация, теория половой типизации, теория автокатегоризации.*

THE IMAGE OF "ME" AND THE MOST IMPORTANT STAGES OF THE SELF-ASSESSMENT PROCESS.

Abstract. *Self-concept is a developing system of a person's ideas about himself, which includes the perception of his physical, intellectual, characterological, social and other characteristics, self-evaluation and subjective external factors influencing personality. includes perception. Self-concept helps an individual to choose himself, self-development and self-actualization, so in this article we will discuss the most important stages of self-image and self-evaluation. we are covering about.*

Key words: *"I" image, self-evaluation, identification, sexual typification theory, auto-categorization theory.*

Kirish. «Men» obrazi shaxsning o'zi, o'z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeini tasavvur qilishidan hosil bo'lgan obrazga aytiladi, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi shaxs barkamolligining mezonlaridan hisoblanadi. Shaxsning o'zi haqidagi obrazi va o'z-o'zini anglashi yosh va jinsiy o'ziga xoslikka ega.

"Men" obrazining jinsiy identifikatsiya shakllanishi. Ilk bolalik davrida bola (3-4 yosh) o'zining ma'lum bir jinsga munosabati bo'lganligini tushunadi va atrofdagi odamlarning jinsini bemalol ajrata oladi. Garchi bolalar o'zining shaxsiy jinsni tashqi belgilari orqali – kiyim, soch uzunligi bilan umumlashtiradi. Biroq o'zining jinsiy identifikatsiyalashida bolada shu yoshda murakkablik yaratadi. Bola o'zining maskulin-feminin ko'rsatkichlarini baholashi bolalar orasida jinsiy rollari noaniqligi tufayli qiyinchiliklar bo'ladi. Bu muammoni yechishida u savolga javob qidiradi: "Sen kim bo'lishni istarding? Senga kim bo'lishi ma'qul? Qiz bolami yo, o'g'il bolami? deb savol berish va "Axloq eksperementlar" orqali, qachon bola erkak va ayol obrazlari va rollaridan birini tanlashi kerak.

O'g'il va qiz bolalar o'rtasidagi munosabatlar bolalar bog'chasida o'ziga xos xususiyatga ega. Bolalar bog'chasi bola uchun faqatgina tashqi olamni bilish, dunyoni hissiy baholash emas, balki o'z tengdoshlari bilan muloqotda bo'lish imkoniyatini beradigan joydir. Ayniqsa o'g'il bolalar bilan qiz bolalar o'rtasidagi munosabatlar o'ziga xos tarzda amalga oshadi. Bog'chada bolalar jamoasi shakllanadi. Kattalar bolaga o'g'il bola va qiz bola qanday bo'lishi kerakligi haqida tushuntiradilar. Masalan, o'g'il bola yig'lasa

“yig’lama, sen erkak bo’lishing kerak”, “qiz bolamisan”deb, qizlarga esa “daraxtga chiqma, sen qiz bolasan” kabi iboralar bilan tushuntiriladi. Bundan tashqari bolalar katta erkak va ayollar xulq - atvorlariga qarab ham o’zlarini qanday tutishni o’rganadilar. O’yin faoliyatlarida erkak va ayollarga xos xususiyatlarni namoyon qiladilar. Demak, bu davrdagi bolalarda muloqotning shakllanishi o’ziga xos xususiyatlarga ega. Ularda muloqotni rivojlantirish tarbiyachilarning mahoratiga bog’liq, ya’ni mashg’ulotlarning to’g’ri tashkil qilinishi muhimdir.

Ilk bolalik yoshi – bolada faol nutq shakllanishi davridir.Bir yarim yoshgacha bola 30-40 tadan 100 tagacha so‘z o‘zlashtiradi, ikkinchi yil oxirida bola 300 tagacha, uchinchi yil oxirida esa 1500 tagacha so‘z ishlatadi.

Nutq rivojlanishi ona tilining tovush xususiyati va grammatik tuzilishini egallashni taqozo etadi. Dastlab bola nutqni so‘zning umumiy ritmik-melodik (tezlik, ohang) tuzilishini ilib olish yo‘li bilan qabul qilsa, ikkinchi yil oxiriga kelib u ona tilining barcha tovushlarini fonematik qabul qiladigan bo‘ladi va shu asosda lug‘at va so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rganadi. Faol nutqning shakllanishi bolaning butun psixik rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ko‘pchilik psixologlar tug‘ilgandan voyaga yetgunga qadar insonning psixologik rivojlanish yo‘lining o‘rtasi 3 yosh deb hisoblashadi. Uch yoshli bola o‘z-o‘ziga xizmat qila oladi, atrofdagi odamlar bilan o‘zaro munosabatga kirishishni biladi. Bunda u og‘zaki muloqot qilishni biladi, unda xulq-atvorning eng oddiy shakllari shakllanadi. Bola uch yoshda etarlicha faol va atrofdagilarga tushunarlidir. Uning xarakteri va temperamenti xususiyatlari allaqachon namoyon bo‘la boshlaydi.

Bolalik oxirida (hayotning uchinchi yilida) yangi faoliyat turlari (rasm chizish, kuylash, haykaltaroshlik, loyihalashtirish) yuzaga kela boshlaydi.

Predmetli faoliyatda belgilangan taasssurotlarning to‘planishi bola nutqining rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Faqat so‘z ortida real dunyo obrazlari turgandagina bu so‘zning o‘zlashtirilishi muvaffaqiyatli kechadi. Agar bola ma’lum bir sababga ko‘ra, bu yoshda nutq rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitdan mahrum bo‘lsa, unda yo‘qotilgan imkoniyat o‘rnini to‘ldirish oxir-oqibat juda murakkab bo‘lib qoladi, chunki bu yosh nutq rivojiga nisbatan senzitiv (sezgir)dir: aynan mana shu paytda nutq o‘zlashtirilishi ancha samarali kechadi.

Jinsiy differensial va jinsiy identifikatsiyalash psixologik nazariyalari. Uchta alternativ nazariyalar mavjud.

Idendifikatsiya (aynan o’xshatish) nazariyasi psixoanalitik asosga ega, hissiyotlar va o’xshatish ro’lini ta’kidlayapti. Taxmin qilishicha, bola beixtiyor o’z jinsi vakillarining axloqini takrorlaydi.

Jinsiy tipazatsiya nazaryasi ijtimoiy o’rganish konsepsiyasiga tayanadi va jinsiy idenfikatsiyasini tasdiqlash harakatlari orqali tushuntiradi; ota-ona va boshqa shaxslar o’g’il bolalarni “o’g’il bola” deb hisoblanadigan fe’l-atvor uchun rag’batlantirishadi va aksincha ular o’zlarini “qiz bola” tutganda koyishadi; qizlar esa femenin axloq uchun yaxshi so’z eshitishadi, va yomon so’z – maskulin axloq uchun salbiy tasdiq olishadi. Jinsiy tipizatsiya – bu jarayon avval bola jinsiga qarab farqlanuvchi fe’l-atvor qoidalarini bajarishga kiritadi.

Avtokategorizatsiya nazaryasi kongnitiv dunyoqarash bilan bog’liq bo’lib ushbu jarayonning bilish, o’rganish jihatlarini diqqat markaziga oladi: bola dastavval jinsiy idenfikatsiyani o’zlashtiradi, o’zini “o’g’il” yoki “qiz” sifatida aniqlaydi, keyin esa o’zining shu jinsiy tegishlikka muvofiq ravishda tutishga harakat qiladi.

Maskulin – erkak jinsiy belgilarining rivojlanishi.

Feminine – ayol jinsiy belgilarining rivojlanishi.

Jinsiy rolini afzal ko’rishi – faoliyatining va axloqini jinsiga nisbatan aniqlash.

Jinsiy o’z-o’zini aniqlash – o’zini qaysi jinsga tegishli ekanligini anglash.

Ushbu nazariy qarashlar L.A.Koxlberg keltirgan quyidagi misol orqali yaxshi tushuntirib o’tilgan. Masalan, jinsiy tipizatsiya nazaryasi nuqtayi nazardan bola “Men rag’bat xoxlayman”, “Men o’g’il bola harakatlarini bajarganimda meni tan olishardi. Shuning uchun “Men o’g’il bola bo’lishni xoxlayman”. O’zini kategoriyazatsiyalash nazariyasiga muvofiq. “Men o’g’il bolaman shuning uchun men “erkak” harakatlarini qilishim kerak (Kon.I.S 1981).

Demak, bolalik davri boshida bolaning birlamchi jinsiy idenfikatsiyalashi paydo bo’ladi. Kiyim va boshqa tashqi belgilari o’zgarishi bilan jinsi o’zgarmaganligi haqida bola tushunadi. Biroq ilk bolalik davridagi bolalar o’z diqqatini jinsiy ayirmalarga kam yo’naltiradi, qachon ular xal qiladi, kim “o’g’il bola” yoki kim “qiz bola” (xususan, bu bolalarning rasmlariga xos). Maktabgacha yosh davridagi 4 – yoshdan

katta bolalar nafaqat atrofdagilar jinsini to'g'ri ajrata oladi va jinsiga qarab odamlarga turlicha talablar ham qo'yilishini bilishadi. Bu bolalarning o'z kelajagi haqidagi tasavvurlaridan o'rin olgan shaxsiy senariylarida aks etadi.

Kattalarnig ko'pchiligi bolalarning faolligini chegaralaydilar va bu bilan o'z nuqtayi nazariga binoan bolaning xavfsizligini ta'minlashadi, shuningdek, tartib-intizom va muvofiqlik tushunchalarini birinchi o'ringa qo'yishadi. Agarda bola ularning talablariga qarshilik ko'rsatsa, ixtiloflar vujudga keladi va ular, E.Eriksonning fikricha bolada o'ziga o'z kuchiga ishonchsizlik, o'z mustaqilligiga ishonmaslik tuyg'ularining paydo bo'lishiga olib keladi. Mustaqillik va o'ziga ishonmaslik alternativasi bolalik pallasini hal qiluvchi muammosi hisoblanadi. Ushbu krizis qanday xal bo'lishi shaxsning keyingi taraqqiyotida aks etadi.

Ushbu pallaning shaxsning shakllanishidagi ahamiyatini tasvirlar ekan, R.Berne ushbu yoshda bola atrofidagilarning qo'llab-quvvatlashiga va ruhiyatini ko'tarishga ayniqsa juda muhtoj bo'lishiga alohida e'tibor qaratadi. Unda paydo bo'layotgan mustaqillik tuyg'usi shunchalik rag'batlantirilishi kerakki, kattalarning ma'n qilishi bilan bog'liq ixtiloflar bolaning ortiqcha uyatchanlik va o'z kuchida shubhalanishiga olib kelmasligi kerak. Bolada o'zining boshqarishning rivojlanishi unda ijobiy o'z-o'zini baholashining shakllanishiga ziyon keltirmasligi kerak.

4 yoshdan boshlab bolada u qanday inson bo'lishi kerakligi haqidagi tasavvurlar paydo bo'la boshlaydi. Bolaning asosiy harakat kuchi shu yoshda energiya va intilish bilan olamni o'rganish faoliyati, va uni bosh harakat qilayotgan kuchi esa qiziquvchanlik bo'ladi. Bola endi erkinlik bilan harakat qiladi va yetarli darajada nutqi rivojlanib savol beradi va qabul qilgan javoblarni idrok qiladi.

6. Goll, I., & Rasheed, A. A. (2005). The Relationships between Top Management Demographic Characteristics, Rational Decision Making, Environmental Munificence, and Firm Performance. *Organization Studies, 26*(7), 999–1023. https://doi.org/10.1177/0170840605053538

7. Myers, S. A. (2002). Perceived Aggressive Instructor Communication and Student State Motivation, Learning and Satisfaction. Communication Reports, 15, 113-121.

8. Sinclair, M., & Ashkanasy, N. M. (2005). Intuition: Myth or a Decision-making Tool. *Management Learning, 36*(3), 353–370. https://doi.org/10.1177/1350507605055351

9. Zsambok, Caroline E., Klein, G. Naturalistic Decision Making. eBook Published21 January 2014. Pub. LocationNew York. ImprintPsychology Press., DOIhttps://doi.org/10.4324/9781315806129., P. 440.

UDK: 159.9 + (022)

Alijonov Nurbek Ulug‘bek o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

TA’LIM SOHASIDAGI RAHBARLARNING PSIXOLOGIK SALOMATLIGINI TADQIQ ETISH

Annotatsiya. *Ushbu maqola ta'lim rahbarlarining psixologik salomatligi bo'yicha tadqiqotlarni qisqacha ko'rib chiqadi. U ta'lim rahbarlari duch keladigan stress omillari, ularni yengish mexanizmlari va tashkiliy dinamikaga ta'sirini o'rganadi. Rahbarlarning farovonligi va ularning samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik, ruhiy salomatlikni mustahkamlashga qaratilgan aralashuvlar va qo'llab-quvvatlash tizimlari bilan bir qatorda ta'kidlangan. Ta'lim rahbarlarining psixologik salomatligini tushunish va hal qilish qulay ish muhitini yaratish va tashkiliy natijalarni optimallashtirish uchun muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so’zlar: *rahbar, psixologik salomatlik, dinamika, avtoritet, liderlik, ijtimoiy psixologiya, jipslashtirish, faollashtirish, operatsion vazifalar.*

STUDY OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF EDUCATIONAL LEADERS

Abstract. *This annotation provides a concise examination of research on the psychological health of leaders in education. It delves into stressors faced by educational leaders, their coping mechanisms, and the impact on organizational dynamics. The connection between leaders' well-being and their effectiveness is highlighted, alongside interventions and support systems aimed at bolstering mental health. Understanding and addressing the psychological health of educational leaders is pivotal for fostering a conducive work environment and optimizing organizational outcomes.*

Key words: *leader, psychological health, dynamics, authority, leadership, social psychology, integration, activation, operational tasks.*

ИССЛЕДОВАНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ РУКОВОДИТЕЛЕЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Аннотация. *В данной аннотации представлен краткий обзор исследований психологического здоровья лидеров в сфере образования. В ней рассматриваются стрессовые факторы, с которыми сталкиваются руководители образовательных учреждений, их механизмы преодоления и влияние на организационную динамику. Подчеркивается связь между благополучием руководителей и их эффективностью, а также меры и системы поддержки, направленные на укрепление психического здоровья. Понимание и решение проблемы психологического здоровья руководителей образовательных учреждений имеет ключевое значение для создания благоприятной рабочей среды и оптимизации организационных результатов.*

Ключевые слова: *лидер, психологическое здоровье, динамика, авторитет, руководство, социальная психология, интеграция, активация, оперативные задачи.*

Kirish. Yurtimizda rahbar shaxsi va uning psixologiyasi mehnat faoliyatiga alohida e’tibor qaratiladi. Rahbarning psixologik salomatligi masalasi esa kun sayin muammoli nuqtalardan biriga aylanib bormoqda sababi boshliq shaxsining psixologik ya’ni ruhan sog‘lom bo‘lishi mehnat faoliyatida, ish samaradorligida, rahbar va xodim o‘rtasidagi o‘zaro shaxslararo munosabatlarda ijobiy natijalarga erishish mumkinligini ko‘rsatadi. Yurtimiz ravnaqi uning ertangi kuni, porloq kelajagi uchun har bir ham yurtimiz birdek mas’uldir, biroq bu mas’ullikning salmoqli qismi rahbar shaxsining zimmasiga yuklanishi sir emas. Zero rahbar jamiyat taraqqiyoti uchun hissa qo‘shishi, qo‘l ostidagi xodimlar bilan samimiy va iliq munosabat o‘rnata olishi eng asosiysi esa ruhan salomatlik chegarasidan chiqmasligi (stress, agressilik shu kabilarga berilmaslik) uning rahbarga xos qobiliyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Keng ma’noda boshqarish moddiy-predmetli yoki ijtimoiy tizim holatini muvofiqlashtirishni o‘z ichiga oladi. Boshqarish o‘z ob’ektiga ta’sir qilib va uning holatini o‘zgartirib kutilgan natijaga erishishga intiladi. Faoliyatda kutilayotgan natijani psixologiyada maqsad deb ataladi. Har qanday

boshqarish faoliyati maqsadli vazifalardan tashkil topadi. Ana shunday vazifalar qatoriga quyidagilar kiradi:

1. Ishlab chiqarish vazifasi.
2. Ijtimoiy vazifa.
3. Ijtimoiy psixologik vazifa.

Ijtimoiy psixologik vazifa tarkibiga jamoani tashkil qilish, uni faollashtirish (stimullash), jipslashtirish, takomillashtirish, o‘z-o‘zini boshqarishni rivojlantirish kiradi.

Jipslashtirish - jamoada mustaqil birlashma sifatida o‘z bir butunlik xususiyatini shakllantirishdir.

Faollashtirish – optimal (maqsadga muvofiq) mehnat tarangligini qo‘llash maqsadida xodimlarning motivatsiya (maqsadga yo‘nalish) sohasiga ta’sir ko‘rsatish demakdir.

Takomillashtirish – jamoa hayot faoliyatiga tinmay yangilik kiritib borish, eskirgan g‘oyalardan voz kechish, o‘z xizmatlarini o‘tab bo‘lgan tasavvurlarni odamlar ongidan chiqarib tashlash demakdir.

O‘z-o‘zini boshqarishni rivojlantirish – boshqarishdagi yuqoridan va quyidan (tashqaridan) maxsus vakolatli odamlarning jamoa hayot faoliyatini tashkil qilishlaridan farq qilib, boshqarilayotganlarning o‘z harakatlarini ichki muvofiqlashtirishlaridan tashkil topadi.

1. Operatsion vazifalar. Bunga rejalashtirish (qaror qabul qilish), ko‘rsatma berish va nazorat kiradi.

Tadqiqotchilar rahbarlik samaradorligini ta’minlaydigan mezonlar sifatida quyidagilarni ajratishadi:

Birinchidan – jamoa mehnatining real (aniq) natijalari, mahsuldorlik, ishlab chiqarish – iqtisodiy ko‘rsatkichlar to‘plami;

Ikkinchidan – ishlab chiqarish va tashkiliy muammolarni hal qilish uchun jamoa a’zolarining jipsligi;

Uchinchidan – jamoa a’zolari faolligi va boshqaruvchanligi darajasi.

Bundan tashqari sanab o‘tilgan mezonlar qatoriga yana quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Rahbarning real (aniq), ilmiy bashorat qilish mumkin bo‘lgan kelajakka ustanovkasi (chog‘lanishi).
2. Rahbarning ishbilarmonlik epchilligi, topqirligi.
3. Jamoa faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, mafkuraviy sohalarda ifodalanadigan muvaffaqiyati.

Rahbarning ustanovka (chog‘lanish) mezonining mazmunini quyidagi ko‘rsatkichlar tashkil qiladi:

1. Rahbarning o‘z faoliyatida ilmiy texnika yutuqlaridan foydalanishi, texnologiyani takomillashtirish yoki almashtirish, tashkiliy faoliyatni takomillashtirish.
2. Faqat ayni payt uchun emas, balki yaqin kelajak uchun guruh va umumdavlat manfaatlarini muvofiqlashtirish.
3. Ijtimoiy rejalashtirish, muassasa ijtimoiy hayotini rejalashtirishga sotsiologik xizmatni jalb qilish.
4. Muassasada xodimlar kasbiy ta’limini, ularning o‘sishini yo‘lga qo‘yish.
5. Muassasada mehnat qilayotganlar tomonidan sotsiologik va ijtimoiy psixologik tadbirlar bilan o‘lchanadigan, maqsadga yo‘naltirilgan tarbiya vositasida erishilgan kelajak taraqqiyot darajasini real (aniq) anglanilishiga erishish.

Har bir muassasada axloqiy siyosiy holat shakllanib, bu holatning ko‘rsatkichlari odatda rahbar tomonidan amalga oshirilayotgan xo‘jalik siyosati va buning natijasida vujudga keladigan xo‘jalik siyosiy vaziyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Bunday vaziyatlarning eng ko‘p tarqalganlari asosan quyidagilar:

1. Davlat va guruh manfaatlari aloqasini aks ettiradigan xo‘jalik-siyosiy vaziyatlar;
2. Xo‘jaliklar ishlab chiqarish faoliyatining turlicha o‘sishi natijasida paydo bo‘ladigan vaziyat;
3. Jamoa ishlab chiqarish iqtisodiy faoliyati tomonlari va ko‘rsatkichlarining har xil mutanosibliklari tufayli vujudga keladigan vaziyat;
4. Yangi texnologiya defitsiti yoki eskirgan texnologiya tufayli vujudga keladigan vaziyat.

Boshqarish faoliyatida liderlik, lider – rahbar ijtimoiy psixologik fenomeniga katta e’tibor beriladi. Liderlik fenomenini tahlil qilishdan oldin avtoritet tushunchasini ko‘rib chiqish lozim. Avtoritet (lotincha autoritos – hokimiyat, ta’sir ko‘rsatish) – ijtimoiy psixologiyada – odam, ijtimoiy guruh, jamoat tashkilotining boshqalarga ta’siri, boshqa odamlar nazaridagi mavqeini anglatadi. Shaxs, guruh yoki tashkilotning avtoriteti qonuniy, rasmiy yoki norasmiy, ularning norasmiy munosabatlar tizimidagi


holatiga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Birinchi holatda avtoritet sub’ektning ijtimoiy roliga bog‘liq bo‘ladi, ikkinchi holatda unga atrofdagi odamlarning munosabatiga bog‘liq bo‘ladi.[1]

Yuqoridagi vazifalarni to‘laqonli va sidqidildan bajarish uchun rahbarlik lavozimida faoliyat olib borayotgan shaxslarga psixologik salomatlik ruhiy ma’naviy barkamollik juda zaruriy mezon sanaladi. Shuning uchun ham biz tadqiqot ishimizda aynan rahbarlarning psixologik salomatlik darajasini o‘rgandik.

Amaliy qism. Biz tadqiqot ishimizda aynan rahbar shaxsi va uning psixologik salomatlik darajasini o‘rgandik. Ta’lim sohasida faoliyat olib borayotgan rahbar xodimlardan “Rahbarlik imkoniyati testi”, “Salomatlik darajasi” aniqlovchi test va anketa so‘rovnomalarini o‘tkazdik. Ta’lim saxasida bir necha yildan beri faoliyat olib borayotgan 30 nafar rahbarlik lavozimida ishlovchi shaxslardan test olindi unga ko‘ra natijalar quydagicha:

Ta’lim sohasida o‘z mehnat faoliyatini rahbarlik lavozimida olib borayotgan 30 nafar rahbarning “Salomatlik darajasi” ni aniqlovchi metodikaga ko‘ra ularning 30 foizida salomatlik darajasi va kayfiyati a’lo natijada ekanligi 70 foiz rahbarlarda esa salomatlik darajasi me’yoriy holatdaligi aniqlandi. Quyidagi 1-diogrammada natijalar solishtirilgan.

Diagramma-1




30 foiz rahbarlar salomatligi a’lo darajada ekanligining boisi shundaki, ular rahbarlik qobiliyatiga ega. O‘z ustida ishlashgan va xodimlar bilan to‘g‘ri muloqot o‘rnata olgan. Bunday insonlar ishlash jarayonida aqliy zo‘riqishga uchramaydi. Har qanday qiyin vaziyatda to‘g‘ri yechim topa oladilar. Ularni haqiqiy liderlar desa bo‘ladi.

“Rahbarlik imkoniyati testi” natijalariga ko‘ra: 30 nafar ta’lim sohasidagi xodimlarning 60 foizida rahbarlik imkoniyatlari yetarli ekanligi, ular yaxshi rahbarlarligi aniqlandi, 33 foiz rahbar xodimlarda rahbarlik imkoniyati yetarli emasligi ularda uyushqoqlik va qattiyatning yetishmasligi aniqlandi, 7 foiz ta’lim sohasidagi rahbar larda esa rahbarlik imkoniyati juda past ekanligi natijalarga ko‘ra ma’lum bo‘ldi. Quyida diogrammada rahbarlarning “Salomatlik darajasi” va “Rahbarlik imkoniyati” qiyoslangan. Quyidagi 2-diogrammada natijalar ko‘rsatilgan.

[1]M.Otajonov Boshqaruv psixologiyasi o’quv qo’llanmasi 5-6 bet

Diagramma-2



Xulosa. Xulosa qilib aytganda, yuqorida salomatlik darajasi va rahbarlik imkoniyatlari foizlarda solishtirildi va natijalar doirasimon diogramma ko‘rinishida taqdim etildi. Diagrammada esa ularning salomatlik darajasi va rahbarlik imkoniyatlari solishtirilgan. Rahbarlik faoliyatida psixologik salomatlikni aniqlash maqsadida jamiyatimiz rahbarlari psixologik bilimlarga ega bo‘lsa, psixologik salomatlik darajasi yuqori bo‘lsa, ular faoliyat ko‘rsatayotgan joyda psixologik muhit va shaxslararo munosabatlar albatta ijobiy bo‘ladi deb hisoblagan edim. O‘tkazilgan metodikalar natijalarini yanada aniqroq tushunish maqsadida so‘rovnoma natijalari diogramma va jadvallar ko‘rinishida ilovada keltirildi.

Foydalanildan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – T.: «Adolat», 1998. – 302 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –T: «O‘zbekiston», 2018.– 40 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 fevraldagi «2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish kontseptsiyachini tadiqlash to‘g‘risida»gi PQ- 4190 - son qarori/Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.02.2019 y., 07/19/4190/2614-son.
4. Abdullayev Y.O Menejment. «Boshqarish nazariyasi va boshqalar asoslari». T. 1998 yil
5. Baratov SH.R “Mehnat jarayoni va ijtimoiy-ruhiy jihatlar/ Iqtisod va hisobot”. 1997 yil
6. Genov F Psixologiya upravleniya M. Progress 1992 yil
7. Salimov S Boshqarish san’ati, T 1993 yil
8. G‘oziyev E.”Rahbar faoliyatidagi nuksonlarni bartaraf etish” X.T. 2000 y 3-son.
9. Ibrohim Maxmudov. Boshqaruv psixologiyasi. -T.: “YUNAKSPRINT” 2006 yil.
10. Xalilova Sh. T. “Boshqaruv psixologiyasi” –195

Jumayev Nodir Zayniddinovich
Buxoro davlat universiteti Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi dotsenti,
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TALABALAR ISTE'DODINI RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalar iste'dodini rivojlantirishda psixologik texnologiyalarning o'rni va kreativlik xususiyatlarini shakllantirish xususiyatlari yoritib berilgan. Shuningdek qobiliyatlar va istedodni rivojlantirishda zamonaviy psixologik vositalrning o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Bundan tashqari talabalar istedodni rivojlantirish bo'yicha chora tadbirlar usul va metodlar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *qobiliyat, intellekt, persepsiya, motivasiya, didaktika, psixokorreksiya va psixokonsultant, mantiqiy, pragmatik qobiliyat.*

РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ТАЛАНТОВ УЧАЩИХСЯ

Абстрактный. *В данной статье описывается роль психологических технологий в развитии талантов учащихся и особенностей творческих способностей. Также научно проанализирована роль современных психологических инструментов в развитии способностей и талантов. Кроме того, разработаны меры и методы развития талантов учащихся.*

Ключевые слова: *способности, интеллект, восприятие, мотивация, дидактика, психокоррекция и психоконсультация, логические, прагматические способности.*

ROLE OF PSYCHOLOGICAL TECHNOLOGIES IN STUDENT TALENT DEVELOPMENT

Abstract. *This article describes the role of psychological technologies in the development of students' talents and the characteristics of creativity. Also, the role of modern psychological tools in the development of abilities and talents has been scientifically analyzed. In addition, measures and methods for the development of students' talents have been developed.*

Key words: *ability, intellect, perception, motivation, didactics, psychocorrection and psychoconsultation, logical, pragmatic ability.*

Kirish. Jahonda bugungi kunda inson kapitaliga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi “intellekt”, “iste’dod”, “qobiliyat”, “kretivlik”, “mantiqiylik”, “mazmundorlik” kabi psixologik kategoriyalarga turli madaniy, ta’limiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni nazorat qilib turuvchi, yoshlarning faoliyatiga baho beruvchi zaruriy o‘lchov sifatida qaralishiga sabab bo‘lmoqda. Qolaversa, bugungi kunda ilm-fan va texnologiyalarning tez sur’atlar bilan rivojlanishi sharoitida uzluksiz ta’limning barcha bosqichlari, jumladan, umumiy o‘rta ta’limning samaradorlik, natijadorlik va sifatini ta’minlashda ta’lim oluvchilarning kreativlik, mantiqiylik, mazmundorlik, ijodiy qobiliyatlarining rivojlanganlik darajalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shu bois hozirda o‘quvchilarda kreativlik va istedod xususiyatlarini shakllantirishning psixologik jihatlari masalasi dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Dj.Meyer, P.Selovey, D.Karuzo, R.Bar-On, M.Zaydner, M.Braykket, V.Deluvich, J.V.Kerrochi, R.Emmerling, G.Bover, J.Averil, G.Orme kabi ilg‘or xorijlik olimlarning tadqiqotlarida turli yoshlarda kreativlik xususiyatlarini namayon bo‘lish jihatlari ilmiy asoslab berilgan.

Talabalarda tafakkur, kreativlik, iste’dod va intellektual qobiliyatlar munosabatlari mazkur qobiliyatlarni takomillashtirishning psixologik xususiyatlari esa Dj.Gilford, Ye.Torrens, A.Maslou, T.Anderson, V.Andreyev, K. Platonov, V. Kruteskiy, Y.Ponomarev, A.Leontyev va N.Ilin kabi tadqiqotchilarning ishlarida atroflicha tahlil qilingan.

E.G‘.G‘oziyev, G‘.B.Shoumarov, B.R.Qodirov, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, N.S.Safayev, Sh.R.Baratov, A.M.Jabborov, Z.T.Nishanova, Sh.X.Abdullayeva, E.Z.Usmonova, A.I.Rasulov, D.A.Sobirova, R.N.Melibayeva, Z.A.Abduraxmonova kabi o‘zbek psixolog olimlari asarlarida esa ijodiy qobiliyat, iste’dod va tafakkurning krektiv, mazmundor sifatlari to‘g‘risidagi tadqiqotlar va ularning ilmiy natijalarini kuzatish mumkin.

Ko‘plab tadqiqotlar o‘quvchilarda iste’dod fikrlashni shakllantirish mexanizmlarini hisobga olish va kreativlikni rivojlantirish uchun sharoit yaratish uchun quyidagi omillarni bilishimiz va doim mazkur omillar bilan hisoblashimiz lozimligini ko‘rsatmoqda. Mazkur psixologik omillar quyidagilarni tashkil etadi. Jumladan,

- ✓ Iste’dodni shakllantirish shartlari;
- ✓ Iste’dodning namoyon bo‘lish shakllari;
- ✓ Iste’dodning kognitiv va shaxsiy xususiyatlar bilan aloqasi;

Zamonaviy psixologlarning o’quvchilar ijodni o‘rganish sohasidagi tadqiqotlari shuni tasdiqlaydiki, mazkur yoshdagi o‘quvchi qobiliyatini tarbiyalash va rivojlantirishga oid zamonaviy qarashlar kreativ salohiyatni rivojlanishini to‘liq ta’minlay olmasligi ko‘rsatmoqda.

Tahlil va natijalar. Ba’zi bir mualliflar, ya’ni Kettel, Bini-Simon kabi tadqiqotchilarni ta’kidlashicha, iste’dod muammolarni hal qilish qobiliyati sifatida namayon bo‘ladi. Boshqa mualliflar iste’dod shaxsiy xususiyatdir deb hisoblashadi. Ushbu ta’rifga ko‘ra, ba’zi odamlar iste’dod qobiliyatiga ega, boshqalar esa fikrlarni ishlab chiqarish qobiliyati bilan bog‘liq xususiyatlarni namoyon qilishadi. Ammo ushbu jarayonda muvaffaqiyat qozonmagan bo‘lsalar ham, ijodiy fikr yoki mahsulotni taniy oladigan kreativ odamlarni qamrab olmaydi. Ba’zi mualliflarning ta’kidlashicha, g‘oyalarni tan olish qobiliyatini o‘z ichiga olishi kerak.

Shu kabi bahsli ilmiy mushohadalar yuzasidan aniq bir to‘xtamga kelish uchun biz iste’dodni biologik, fiziologik, psixologik komponentini ko‘rib chiqamiz.

Iste’dodning biologik komponentini tadqiq qilgan olimlarning ta’kidlashiga ko‘ra, iste’dod o‘ng yarim sharning prefrontal korteksining faoliyati bilan bog‘liq deb hisoblanadi, bu bizning yaxlit ko‘rish va tasvir manipulyasiyasi qobiliyatimiz uchun javobgardir. Bizga voqealar tartibini, obyektlarning tuzilishini baholashga, shuningdek ularni yangi usullar bilan birlashtirishga imkon beradi. Ilk bolalik yoshdan boshlab bolalar bitta hayvonning boshini boshqasining tanasiga yoki ikkinchisining panjalariga bog‘lashni yaxshi ko‘radilar. Bolalar ko‘pincha haqiqatni anglash uchun emas, balki tanish obyektlarni qayta konfigurasiya qilsalar nima bo‘lishini aniqlashga harakat qilishadi.

Iste’dod ham ijobiy va ijodiy ta’sir bilan bog‘liq. Uning sababi uning xayolotida aglutinasiya darajasining ko‘payishi hisoblanadi, bu kognitiv moslashuvchanlikni oshiradi va turli xil bilim pozitsiyalarini tanlashni osonlashtiradi. Bu odamga vaziyatga har xil nuqtai nazardan qarashga imkon beradi.

Iste’dodning kognitiv komponentini tadqiq qilgan Edvard De Bano ilmiy ishlarida kreativlikka quyidagicha psixologik jihatlar aniqlangan. Uning fikricha, evolyusiya jarayonida oldindan aytib bo‘lingan va doimiyni ajratib olish qobiliyati rivojlandi. Dunyoni o‘rganar ekan, inson unga ta’sir qiluvchi turli xil elementlarni bog‘laydi. Bu, hatto bitta element mavjud bo‘lsa ham, ikkinchisining rasmini shakllantirishga imkon beradi. Muammo, De.Banoning so‘zlariga ko‘ra, agar biz elementlarni faqat umumiy narsalarning bir qismi sifatida ko‘rib chiqsak, ularni yangi, o‘ziga xos tarzda tuzishimiz qiyin.

Yuqoridagi tadqiqotlar insonning ijodiy faoliyatini ta’minlaydigan quyidagi asosiy omillarni ajratib ko‘rsatishadi.

- iste’dod
- ijodiy potensial
- intellektual faoliyat (D. B. Bogoyavlenskaya)
- vaziyatdan tashqari ish (V. A. Petrovskiy).

Psixologiya fanida iste’dod o‘quvchilarning quyidagi ko‘rsatkichlari ajratib ko‘rsatiladi:

1. Motivatsiya - faollik va shaxsga yo‘naltirilganlik.

2.Intellektual va mantiqiy qobiliyat - (tahlil qilish, mavhumlashtirish, umumiy xususiyat va turlar farqini aniqlash, xulosa chiqarish, isbotlash qobiliyati).

3. Intellektual-evristik, sezgi qobiliyatlari (gipotezani ilgari surish qobiliyati, tasavvur qilish qobiliyati, vazifaning tarkibiy qismlari o‘rtasida yangi aloqalarni o‘rnatish, qarama-qarshilik va muammolarni ko‘rish, bilim, ko‘nikmalarni yangi vaziyatga o‘tkazish qobiliyati, tanqidiy fikrlash).

4. Shaxsning dunyoqarash xususiyatlari.

5. Muvaffaqiyatli o‘quv va kreativ faoliyatni ajratib turadigan axloqiy fazilatlar.

6. Estetik fazilatlar.

7. Kommunikativ va kreativ qobiliyat.

Tegishli ilmiy adabiyotlar tahlili va o‘z kuzatishlarimizga asoslangan ilmiy tadqiqiy mulohazalar bugungi kunda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda iste’dod xususiyatlarini psixologik jihatlari va uning shakllanganlik darajalarini tadqiq qilishni atroflicha amaliy o‘rganishni taqozo qilmoqda.

Buning uchun esa, dastavval o‘quvchilarda iste’dodning xususiyatini ijobiy va salbiy sifatlarini shakllanganlik darajalari va psixologik omillari, mezonlari ko‘lamini belgilash va ularning har birini chuqur o‘rganish uchun tegishli usullarni yoki uslublarni tanlash va ishlab chiqishga to‘g‘ri keldi.

Shunga ko‘ra, tegishli ilmiy adabiyotlar ustida olib borilgan tahlillarimizga asoslanib, iste’dod xususiyatini shakllanganlik darajalarini aniqlashga yo‘naltirilgan maxsus iyerarxik tizim – sxema ishlab chiqildi, hamda ushbu tizim asosida iste’dod xususiyatini shakllanishining psixologik omillari va uni tadqiq qilish uslubi belgilandi.

Endi, har bir usulning tadqiqot maqsadiga mos mazmuni va tadqiq qilish uslubi haqida qisqacha izoh berib o‘tamiz.

Vilyams ijodkorligi testi va uning tadqiqot maqsadiga mosligi

Ushbu metodika 5 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilardagi kreativlik xususiyat va sifatlarini kompleks tashxislash uchun mo‘ljallangan. Ijodiy fikrlash va shaxsiy ijodiy xususiyatlar bilan bog‘liq sifatlarni baholaydi. Metodikaning to‘liq varianti dissertasiyaning 3-ilova qismida keltiriladi.

Test uch qismdan iborat:

1. Turli xil (ijodiy) fikrlash testi.
2. Shaxsiy ijodiy xususiyatlar testi (bolalar uchun so‘rovnoma).
3. Vilyams shkalasi (ota-onalar va o‘qituvchilar uchun so‘rovnoma).

Kuzatishlarimiz kreativlik xususiyati bo‘yicha Vilyams ijodiy testlari kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni kreativlik xususiyat va sifatlarini tashxislash uchun eng yaxshi psixodiagnostik vositalardan biri ekanligi ko‘rsatdim va biz o‘z tadqiqotlarimizda ushbu metodikadan foydalanishni maqsadga muvofiq deb bildik. Chunki Vilyams testlari ishonchli, qulay va keng yosh guruhga mo‘ljallangan bo‘lib, turli ijodiy xususiyatlarni aks ettiradi.

Test maktabgacha yoshdan boshlab (5-6 yosh) va maktabning bitiruv sinflariga (17-18 yosh) bolalarning ijodiy iste’dodini o‘rganish uchun ishlatilishi mumkin. Ushbu testlarning vazifalariga javoblar subyektlar ularga rasm va imzo shaklida berilishi kerak. Agar bolalar yozishni bilmasa yoki juda sekin yozishsa, eksperimentator va uning yordamchilari ularga rasm chizishlariga yordam berishlari kerak. Shu bilan birga bolaning tasavvur doirasidagi tasvirlarga to‘liq rioya qilish kerak.

Mazkur metodi kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni divergent (ijodiy) fikrlash xususiyatlarini ham tashxislaydi.

Metodikani qo‘llash uslubi.

Testni taqdim etishdan oldin tadqiqotchi ko‘rsatmalarni to‘liq o‘qib, ishning barcha jihatlarini diqqat bilan ko‘rib chiqishi kerak. Sinovlarda hech qanday o‘zgarish va qo‘shimchalarga yo‘l qo‘yilmaydi, chunki test o‘zgartirilsa ko‘rsatkichlarining ishonchliligini va haqiqiyligini o‘zgartiradi.

Barcha tushuntirishlar va ko‘rsatmalarda "test", "imtihon", "tekshirish" so‘zlarini ishlatmaslik lozim. Agar zarur hollardagina ushbu so‘zlarni ishlatish tavsiya etiladi: chizmalar, rasmlar va boshqalar. Sinov vaqtida ya’ni imtihonda raqobatning xavotirli va keskin muhitini yaratishga yo‘l qo‘yilmaydi. Aksincha, iliqlik, qulaylik, ishonch, tasavvurni rag‘batlantirish va bolalarning qiziqishlarni e’tiborga olish, muqobil javoblarni qidirishni rag‘batlantirish uchun do‘stona va osoyishta muhit yaratishga intilish kerak.

Sinov qiziqarli o‘yin shaklida bo‘lishi kerak. Bu natijalarning ishonchliligi uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Test topshirish jarayonida barcha respondentlarni qalam yoki ruchka bilan ta’minlash kerak. Barcha keraksiz jihozlarni olib qo‘yish kerak. Tadqiqot jarayonida test namunalari, shuningdek soat yoki sekundomer bo‘lishi kerak. Tajriba jarayonida sinaluvchilar soni oshib ketmasligi kerak.

Guruhdagi sinaluvchilar soni 15-35 kishidan ortib ketmasligi lozim. Yosh bolalar uchun guruhlarning kattaligi 5-10 kishiga kamaytirilishi kerak. Sinov paytida bola stolda yoki trener yordamchisi bilan o‘tirishi lozim. Metodika davomiyligi 25 daqiqa bo‘lishi lozim.

Ishlarni topshirishdan oldin, trener o‘quvchilarga nima qilishlarini tushuntirishi, topshiriqlarga qiziqtirishi va ularni amalga oshirishga turtki berishi kerak. Buning uchun quyidagi matndan foydalanishingiz mumkin, bu muayyan shartlarga qarab turli xil modifikatsiyalarga imkon beradi:

Tafakkurning rivojlanish darajasi. Qo‘shimcha tafsilotlar tasvir assimetriyasini yaratadiladigan joyida bo‘lsa:

- nom berilmagan bo‘lsa - 0 ball

- bitta so‘z berilgan bo‘lsa - 1 ball
- bir nechta so‘zlardan iborat bo‘lsa - 2 ball
- rasmda ko‘rsatilganidan ko‘proq narsani ifodalovchi shaklli ism-3 ball

Barcha chizilgan rasmlar uchun ushbu omil bo‘yicha ballar qo‘shiladi. Maksimal 36 ball.

Divergent fikrlash testining asosiy parametrlari bo‘yicha hisoblash natijalari:

Fikrlashning ravonligi – ushbu omilda respondentlarda tezlik va mahsuldorlik talab etiladi. 12 ta rasm chiziladi. Baholash - har bir rasm uchun 1 baldan beriladi. Eng yuqori ball-12.

Moslashuvchanlik – bunda talaba turli g‘oyalarni ilgari surish, o‘z pozitsiyasini o‘zgartirish va narsalarga yangi nuqtai nazar orqali yondashadi. Kategoriyadagi har bir o‘zgarish uchun birinchi o‘zgarishni hisobga olgan holda 1 ball beriladi, (to‘rtta mumkin bo‘lgan toifalar mavjud). Maksimal ball-11.

Originallik – respondent faqatgina chegara chiziqlari bilan cheklanib qolmaydi, balki, u butun rasmning berilgan shablon qismini yaratish uchun konturning tashqarisida va ichkarisida rasm chizadi. Har bir original rasm uchun 3 ball beriladi. Maksimal ball - 36.

Tafakkurning rivojlanish darajasi. – respondentlar berilgan shablonga tafsilotlarni qo‘shadi, rasmda assimmetriya va murakkablikni afzal ko‘radi. Har bir assimetrik ichki va tashqi rasm uchun 3 balldan beriladi. Maksimal ball - 36.

Nomlash - respondentlar lug‘at boyligidan mohirlik va oqilona foydalanishadi. Har bir mazmunli, aqlli, rasmga berilgan nomni uchun 3 ball beriladi. Maksimal ball-36.

Barcha subtestlar uchun maksimal ball - 131.

Demak, yuqoridagi jadvaldagi ma’lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, Vilyams va Varteganing kreativlik sifatlarini aniqlash bo‘yicha tajriba va nazorat guruhlarida olingan dastlabki statistik ma’lumotlar o‘rtasida hech qanday farq sezilmadi. Bu esa olingan test natijalarining ishonchli (valid) ekanligi isbotlaydi.

Xulosa.

Yuqoridagi tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi xulosalar qayd qilindi.

Tadqiqotlarimiz shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirish muammosi faqat miqdoriy emas, balki xususiyatlarning sifat o‘zgarishlarini ham o‘z ichiga oluvchi hodisa sifatida tushunishimiz mumkinligini ko‘rsatdi.

O‘rganishlarimiz ta’lim jarayonining muvaffaqiyati va shu ta’lim tizimida o‘quvchi shaxsining ijtimoiy-psixologik taraqqiyoti eng avvalo har bir o‘quvchining shu ta’lim faoliyatiga nisbatan mustaqil va kreativ yondashuviga, o‘quv faolligiga nisbatan barqaror qiziqishlarning tarkib topishiga va ayni paytda u yoki bu guruhda o‘zining ijtimoiy menligini nechog‘lik shakllantirishga bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi.

Tadqiqotimiz maqsadini amalga oshirishga qaratilgan barcha metodikalar tadqiqotimizga adekvat va valid ekanligi aniqlandi. Jumladan, ma’lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, Vilyams va Varteganing kreativlik sifatlarini aniqlash bo‘yicha tajriba va nazorat guruhlarida olingan dastlabki statistik ma’lumotlar o‘rtasida hech qanday farq sezilmadi. Bu esa olingan test natijalarining ishonchli (valid) ekanligi isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Давидов В.В., Кудрявсев В.Т. Развиваюее образование: теоретические основания преемственности дошколной и началной школной стуреней// Вопросы психологии. 2003. №1. - С. 3-19.

2. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi. – T.: O‘zbekiston, 1999. – 30 b.

3. Илин Е.Р.Психология творчества, креативносты, одаренносты. – СРб: Питер, 2019. – 448 с.

4. Орлова С.Н. Развитие творческого мышления личности. Монография. Сибирский государственный университет науки и технологий имени академика, год 2014 – С 196-204.

5. Рономарйов Я.А. Перспективы развития психологии творчества // Пихология творчества: школа Я.А. Рономарйова / род ред. Д.В. Ушакова. М.: Институт Психологии РАН, 2006. - С. 145–276.

Matkarimova Dilnavoz G'ayratovna
Xalqaro Osiyo universiteti magistranti

Ismatova Dilafruz Tuymuratovna
Buxoro davlat universiteti Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi dotsenti
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNI PEDAGOGIK PSIXOLOGIK QO`LLAB-QUVVATLASHNING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarni pedagogik psixologik qo`llab-quvvatlashning zamonaviy imkoniyatlari to`g`risida va undan tashqari bolaning maktabdagi qiyinchiliklari, amerikalik psixologlarning tadqiqotlaridan olingan ma`lumotlar keltirilgan. Shuningdek, qo'llab-quvvatlash - bu psixologik va pedagogik amaliyot maqsadlarini o'zida mujassam etganligi va shu bilan birga mavzu yuzasidan adabiyotlar tahlili hamda o`tkazilgan tadqiqotning natijalar tahlili ham taqdim etilgan.*

Kalit so'zlar: *psixologik kompetensiya, neoplazma, faoliyat, semantik aloqa, psixologik yetishmovchilik, innovatsion ta'lim, individual imkoniyatlar.*

СОВРЕМЕННЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПЕДАГОГО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО СОПРОВОЖДЕНИЯ ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. *В статье представлены сведения о современных возможностях педагогико-психологической поддержки детей младшего школьного возраста, а также о трудностях ребенка в школе, из исследований американских психологов. Также в поддержку включены цели психолого-педагогической практики, а вместе с тем представлен анализ литературы по теме и анализ результатов проведенных исследований.*

Ключевые слова: *психологическая компетентность, новообразование, активность, смысловая связь, психологическая недостаточность, инновационное образование, индивидуальные возможности.*

MODERN POSSIBILITIES OF PEDAGOGICAL PSYCHOLOGICAL SUPPORT FOR CHILDREN OF PRIMARY SCHOOL AGE

Abstract. *This article presents information about the modern possibilities of pedagogical psychological support for children of small school age, as well as about the child's difficulties at school, from the research of American psychologists. Also, the support includes the goals of psychological and pedagogical practice, and at the same time, the analysis of the literature on the topic and the analysis of the results of the conducted research are also presented.*

Key words: *psychological competence, neoplasm, activity, semantic communication, psychological deficiency, innovative education, individual capabilities.*

Kirish. Birinchi marta maktabga qadam qo`yadigan birinchi sinf o`quvchilarining maktabga borganda maktab talablariga va sharoitlariga moslashish uchun ma`lum vaqt zarurdir. Aynan bu ishlar maktab psixologining boshlang`ich sinf o`quvchilari bilan olib boradigan pedagogik-psixologik qo`llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Amalda moslashish vaqti hamma bolalarda ham bir xilda samarali o`tmasligi mumkin. Bolaning maktabda moslashishdagi qiyinchiliklar faqat ota-onalar arzlaridagina emas, balki o`qituvchilarning o`quvchilarni qo`llab-quvvatlashlarida ham qayd etilmoqda. Kichik maktab yoshi uchun bolalarni psixologik-pedagogik qo`llab-quvvatlash muammosi o'rganishning dastlabki bosqichlarida muhimdir. Ushbu davrda ular yetakchi faoliyat doirasida, ya'ni ta'lim, shaxsning normal aqliy va psixologik rivojlanishi haqida gapirishga imkon beradigan shaxsiy neoplazmalarni shakllantirishdir. Shuningdek, bu uning ta'lim jihatidan keyingi ta'limi uchun juda muhimdir – ta'lim faoliyatining shakllangan ko'nikmalari, universal ta'lim faoliyati unga samarali bo'lishga va bitiruvchiga zamonaviy talablarga javob berishga imkon beradi.

Kichik maktab o'quvchilarida birinchi signal tizimi ustunlik qiladi, shuning uchun ularda vizual-majoziy xotira rivojlangan. Ular uchun aniq ma'lumotlarni, masalan, yuzlar, voqealar, narsalar va boshqalarni eslab qolish eng oson va har qanday ta'rif yoki tushuntirishni eslab qolish hali ham qiyinlik

qiladi. Ular eslashlari mumkin, lekin faqat mexanik takrorlash orqali, semantik aloqalarni bilmasdan amalga oshirish mumkin. Bundan tashqari, boshlang'ich maktab o'quvchisi uchun matnni o'z so'zlari bilan takrorlash qiyin, chunki u hali ham nutqni yaxshi bilmaydi va hamma narsani yodlash osonroq. O'z navbatida, ular semantik yodlashni qanday tashkil qilishni bilishmaydi: materialni semantik guruhlarga bo'lish, yodlash uchun kuchli nuqtalarni ajratib ko'rsatish, matnning mantiqiy rejasini tuzishdan iboratligi haqida ma'lumot kam. Fikrlash rivojlanganda, bolaning shaxsiyatining yangi xususiyati paydo bo'ladi. Bola o'zini, oiladagi, sinfdagi mavqeini anglay boshlaydi, o'zini yaxshi o`quvchi sifatida baholaydi. U o'zini atrofdagilar, yaqin odamlar unga qanday munosabatda bo'lishiga qarab baholaydi.

Mavzu bo`yicha adabiyotlar tahlili. Mashhur amerikalik psixolog E.Erikson: "Ushbu davrda bola ijtimoiy va psixologik kompetensiya hissi yoki noqulay sharoitlarda — ijtimoiy va psixologik yetishmovchilik kabi muhim shaxsiy ta'limni rivojlantiradi,"- degan tushunchani yaratdi. Birinchi sinf o'quvchilari maktabdagi yangi sharoitlarga juda boshqacha moslashadilar. Zamonaviy o'qituvchi, pedagogik-psixolog me'yoriy hujjatlarni boshqarishi va an'anaviy va innovatsion ta'limdan foydalangan holda davlat ta'lim standartlariga muvofiq kasbiy faoliyatni amalga oshirishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasida maktabda o'qish jarayonida pedagogik psixologik qo`llab-quvvatlash va moslashmaslik xususiyatlarini o'rganishga yondashuvlar bo`yicha G.Aubert, A.L.Venger, V.N.Gurov, T.V.Dorojevets, V.N.Drujinin, G.L.Isurina, V.P.Zinchenko, V.E.Kogan, A.V.Petrovskiy va boshqalar, psixologik tushunishga yondashuvlar va maktabga tayyorgarlik bo`yicha esa L.I.Bojovich, N.I.Gutkina, G.Kojaspirov va A.Kojaspirovalar hamda G.G.Kravtsova, M.I.Lisina, R.Ovcharova, T.M.Chirkovalar boshlang'ich maktab o'quvchilarining moslashuvini psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlashni o'rganishga yondashuvlar to`g`risidagi tadqiqotlar keltirilgan.

M.R.Bityanova ta'riflaganidek, qo'llab-quvvatlash - bu psixologik va pedagogik amaliyot maqsadlarini o'zida mujassam etgan, asosiy narsaga - shaxsga qaratilgan muayyan ish mafkurasidir. Psixologik-pedagogik yordam - bu ta'lim muhitida bola bilan o'zaro munosabatda bo'lgan kattalarning kasbiy faoliyati hisoblanadi. Qo'llab-quvvatlashning asosiy maqsadi - har bir bolaning o'z faoliyati, muloqoti va o'z ichki dunyosi subyekti bo'ladigan ijtimoiy, pedagogik va psixologik sharoitlarni yaratish. Bolaning rivojlanish jarayonini psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. Ta'lim tizimida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar davrida bugungi kunda kichik maktab yoshidagi bolalarni pedagogik-psixologik qo`llab-quvvatlash alohida ahamiyatga ega. Ular ta'limning barcha bosqichlarini isloh qilish, har tomonlama yangilash bilan bog'liqdir.

Davlat ta'lim standartining joriy etilishi aslida pedagogik ta'limni psixologik va pedagogik ta'limga o'zgartirdi. Bu o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, intellektual va shaxsiy salohiyatini to'liq ochib berishga qaratilgan o'qitish zarurligini ta'kidladi. Bu esa, o'z navbatida, psixologik-pedagogik yordam masalasini ko'taradi. Uning dolzarbligi ta'lim dasturlarining murakkabligi va xilma-xilligi, o'quvchilarning maktabga tayyorgarligi, dastur talablariga va individual imkoniyatlarning har xil darajada muvofiqligidadir.

Har qanday ta'lim tizimida bilim olgan shaxs o'quvchi hisoblanadi. U ta'lim jarayonining subyektidir.

A.V.Brushlinskiyda: "Subyekt, ya'ni o'z tarixini yaratuvchisi, o'z hayot yo'lining hakami, dastlab amaliy faoliyatni boshlash va amalga oshirish, muloqot, xulq-atvor, bilish, tafakkur va inson faoliyatining boshqa turlari - ijodiy, axloqiy, erkin. Ya'ni, inson doimo jamiyat bilan bog'liq, lekin ayni paytda u mutlaqo mustaqil - "erkinlik va o'z-o'zini rivojlantirishga so'zsiz huquqlarga ega bo'lgan shaxs sifatida shaxsning mutlaq qiymati tan olinadi". Bola ta'lim obyektidir.

M. R. Bityanovaning so'zlariga ko'ra, kichik maktab yoshidagi bolalarni pedagogik-psixologik qo`llab-quvvatlash, balki keyingi shaxsiy, psixologik va ijtimoiy rivojlanish qobiliyatini ham hisobga oladi.

N. V. Kiryuxina o'z tadqiqotlarida kichik maktab yoshidagi bolalarni pedagogik-psixologik qo`llab-quvvatlashning uch turini ajratib ko'rsatadi:

1. biologik - bu atrof-muhit bilan faol ta'sir o'tkazish jarayoni;
2. ijtimoiy - bu ijtimoiy sharoitlar tomonidan qobiliyati;
3. fiziologik - bu vaziyatning ehtiyojlarini to'liq qondiradigan reaksiya.

Shuni ta'kidlash kerakki, ijtimoiy qo`llab-quvvatlashda eng samarali yondashuv madaniy bo'lib, unda ijtimoiy qo`llab-quvvatlash va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar muammosi ko'rib chiqilgan. L.Uayt, E.Vayda, R.Rappoport, M.Xarris va boshqalar kabi olimlar madaniyatni evolyutsion

yo'nalishda inson hayoti uchun zarur bo'lgan adaptiv tizim yoki makon sifatida ko'rishgan. L.Uaytning fikriga ko'ra, ushbu kosmosdagi barcha quyi tizimlar ma'lum bir muvozanatga erishish uchun o'zaro moslashishi kerak hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, boshlang'ich sinf o'quvchisi va o'qituvchisi ishida uzluksizlik g'oyalarini amalga oshirishga imkon beradigan shakllarni ajratib ko'rsatish kerak:

1. Bolaning tanasi u uchun mutlaqo yangi yashash va faoliyat sharoitlariga, jismoniy va intellektual yuklarga moslashadi. Bunday holda, u maktabga borgan yoshi, shuningdek, bolalar bog'chasiga borganmi yoki uyda tayyorgarlik ko'rganmi, organizmning funksional tizimlari qanchalik shakllanganligi, bolaning xatti-harakatlarini o'zboshimchalik bilan tartibga solish va o'zini o'zi tashkil etish darajasi qanday ekanligini bilish muhimdir. (oiladagi vaziyat).

2. Boshlang`ich sinf o'quvchisi yangi ijtimoiy munosabatlarga va quyidagi aloqalarga moslashadi:

- vaqt-makon munosabatlari: kun tartibi, maktab formasi, darslarni tayyorlash, uning o'quv qurollari saqlanadigan maxsus joyi, "voyaga yetganlik" ni tan olish, mustaqillikni ta'minlash va boshqalar;
- shaxsiy va semantik munosabatlar: bolaning maktabga, o'ziga talaba sifatida munosabati, sinfdoshlari va o'qituvchilari bilan muloqot, sinfda unga qanday munosabatda bo'lish;
- bolaning faoliyati va muloqotining xususiyatlari: oilada unga qanday munosabatda bo'lish, ota-onalar va o'qituvchilarning xulq-atvori, oiladagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, boshlang`ich sinf o'quvchisining ijtimoiy tayyorgarligi va boshqalar.

Shuningdek, maktabdagi pedagog-psixolog tomonidan o`quv jarayoniga tayyorlashning turli shakllari mavjud: boshlang`ich sinf o'quvchisining xatti-harakatlari maktabning me'yoriy talablaridan farq qiladigan xatti-harakatlar va bolaga o'quv ko'nikmalarini egallash qiyin bo'lgan o'quvlardir.

Turli pedagog-psixologlar maktabdagi noto'g'ri faoliyati natijasida kichik maktab o`quvchisida olib keladigan asosiy omillarni aniqladilar, masalan:

-ijtimoiy-psixologik e'tiborsizlik;
-ixtiyoriy sohaning yetarli darajada rivojlanmaganligi;
-yuqori aqliy funksiyalarning individual bo'g'inlarining qisman shakllanmaganligi;
-miyaning funksional o'zaro ta'sirining tipik shakllanishi (masalan, chap qo'llik va u bilan bog'liq motor, kognitiv va hissiy sohalarni rivojlantirish muammolari); faoliyatning neyrodinamik xususiyatlarining buzilishi (aqliy jarayonlarning beqarorligi);
-somatik zaiflik;
-hissiy va shaxsiy muammolar, shu jumladan kommunikativ muammolarning shakllanishi.

Muhokama va natijalar

Kichik maktab yoshidagi bolalarni o'qitish va tarbiyalashda kuchli ta'sir pedagogik jarayonni tashkil etish va o'qituvchining shaxsiyatidan kelib chiqadi. Shuni ta'kidlash kerakki, o'qituvchining bolaga qanday ta'sir qilishini na darslik, na jazo va mukofotlar tizimi bilan almashtirish mumkin emas. Shuningdek, u nazariyasiz va pedagogik amaliyotsiz – amalga oshmaydi. O'qituvchining o'zi, pedagogik fanni bilgan holda, uni ta'lim va tarbiya san'atiga aylantirishga harakat qiladi. Binobarin, pedagogik faoliyatni ijodkorlik deb hisoblagan, o'qituvchi o'zi ta'sir qilmoqchi bo'lgan ruhiy hodisalar qonunlarini o'rganishi va qonunlar va ularni qo'llamoqchi bo'lgan holatlar bajarilishi uchun harakat qilishi kerak.

Ko'rsatkich	Mann-Uitni Koeffitsienti	Muhimlik darajasi (p)	O'rta daraja	
			1 "A"	1 "B"
O`quv motivatsiyasi	435,5	0,826	30,02	30,98
O'z-o'zini hurmat qilish	375	0,230	33	28
Yo`nalganlik	355	0,156	33,67	27,33
Maktabga moslashuvi	415,5	0,606	29,35	31,65

O'qituvchilar va psixologlar uchun boshlang`ich sinf o'quvchilarini moslashtirishning asosiy maqsadi bolaning mustaqil ishlashi, munozara qilish va fikrlarini himoya qilish qobiliyatini shakllantirish, savolni to'g'ri berish va to'liq javob berish qobiliyatidir. Agar tizimli maktabga bolalarni barcha fanlar bo'yicha o'qitish paytida statik stressni bartaraf etish qo'shilsa, shuningdek, kun, hafta davomida ruxsat etilgan o'quv yukini hisobga olgan holda maqbul dars jadvalini tuzsangiz, bola uchun moslashish og'riqsiz bo'ladi va boshlang`ich sinf o'quvchilarining psixofiziologik va jismoniy imkoniyatlari

Olingan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki 1 "A" va 1 "B" dagi barcha ko'rsatkichlarning ahamiyatlilik darajasi (p) 0,05 dan yuqori, demak, subyektlar guruhlarida barcha ko'rsatkichlar bo'yicha sezilarli farqlar mavjuddir. Shuning uchun ushbu sinflarning har birini nazorat va eksperimental guruhga kiritish mumkin. Shunday qilib, nazorat guruhi 1 "A" sinf, eksperimental guruh esa 1 "B" sinfdir.

Shuni ta'kidlash kerakki, ikkala guruhda ham ijobiy yo'nalishda o'zgarishlar yuz berdi, birinchi sinf o'quvchilarining aksariyati shakllantiruvchi eksperimentdan so'ng o'quv motiviga ega, ya'ni o'quv davrida bolalar o'yin motivi fonga tushib qoldi va ular ko'proq maktabda o'qish motivatsiyaga ega bo'lishdi.

O'z-o'zini baholash diagnostikasi bo'yicha olingan ma'lumotlarga muvofiq sub'ektlarning taqsimlanishi, bu yerda nazorat va eksperimental guruhda shakllantiruvchi eksperimentdan oldin va keyin natijalar aks ettirilgan. Natijalar dinamikasi rasmda aks ettirilgan.

Shunday qilib, tadqiqot natijalariga ko'ra, biz birinchi sinf o'quvchilarini maktabda o'qishga qo`llab-quvvatlash va uni eksperimental guruhda amalga oshirish dasturini ishlab chiqish orqali shakllantiruvchi eksperiment yordamida uning yordamida qanchalik muvaffaqiyatli amalga oshirganligini aniqlashimiz mumkin.

Xulosa. Kichik maktab o`quvchilari uchun g'ayrioddiy hayotiy vaziyatga kirishning ushbu davrining ahamiyati nafaqat o'quv faoliyatini o'zlashtirishning muvaffaqiyati, balki maktabda bo'lish qulayligi, bolaning sog'lig'i, uning maktabga munosabati va ta'limotiga bog'liqligi bilan namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, boshlang`ich sinf o'quvchilarining maktabga muvaffaqiyatli ko'rsatkichlarini quyidagi mezonlar bo'yicha aniqlash mumkin degan xulosaga kelishimiz mumkin:

- maktab motivatsiyasi, kognitiv qiziqishlarning rivojlanishi unga bog'liq bo'lganligi sababli, boshlang`ich sinf o'quvchisi o'z xatti-harakatlarini, kognitiv faoliyatini o'zboshimchalik bilan boshqarishi kerak, bu esa shakllangan pedagog-psixologlarning ierarxik tizimi bilan mumkin bo'ladi;

-bolaning o'zini o'zi qadrlashi jamoada sotsializatsiya, shuningdek muvaffaqiyatli o'quv faoliyati uchun muhimdir;

-bolaning ixtiyoriy sohasi, bu kattalarning talablari va qoidalariga bo'ysunish qobiliyati, model bo'yicha ishlash qobiliyati deb tushuniladi;

-maktab tashvishi, u alohida e'tiborni tortadi, chunki u bolaning maktabdagi noto'g'ri ishlashining eng yorqin belgisi bo'lib, uning hayotining barcha sohalariga salbiy ta'sir qiladi: nafaqat o'qish, balki aloqa, shu jumladan maktabdan tashqarida, sog'liq va umumiy psixologik farovonlik darajasi bilan namoyon bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pickren W. E., Rutherford A. A history of modern psychology in context.Hoboken, New Jersey. 2010. 380 p.

2. Александровская, Э.М. Психологическое сопровождение школьников [Текст]: Учеб. пособие для студентов высш. пед. учеб. заведений / Э.М. Александровская, Н.И. Кокуркина, Н.В. Куренкова. — М. : Академия, 2002. - 208с.

3. A.Z.Djamilovna Study of the formation of crime motivation in adolescents as a problem of psychological research, I.H.Bakhtiyorovna - ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2022

4.Ахмедова З.Ж. “Педагогико-психологические особенности адаптации младших школьников к учебной деятельности” Вестник интегративной психологии 2023 Выпуск 29

5.Ostonova, G. (2023). Turli xil stress omillardan garmsel omilining g ‘o ‘za barg sathiga ta’siri. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(11 Part 2), 107-111.

6.Rashidovna, O. G. (2023). Physiology of the endocrine glands. european journal of modern medicine and practice, 3(11),1-6.

Tursunova Moxinur Bahodir qizi
Osiyo Xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti

Ismatova Dilafruz Tuymuratovna
Buxoro davlat universiteti Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi dotsenti,
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

BOSHLANG`ICH TA`LIMDA PSIXOLOG KASBIY FAOLIYATINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Anotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy psixologiyada psixolog kasbiy faoliyati to`g`risida va ilmiy tadqiqotlardagi psixolog olimlarning fikr-mulohazalari keltirilgan. Bundan tashqari kasbiy faoliyat hamda kasbiy kompetentlik bugungi kundagi ahamiyati, amaliyotchi psixologlarning matematik kompetensiyalari, shaxsning o'zini-o'zi anglashi, o'z-o'zini hurmat qilishini belgilovchi omil sifatida tushunchalar yoritib berilgan. Shuningdek, maktab amaliyotchi psixologlarning kasbiy kompetentligini turli psixolog olimlarning matematik hamda statistik natijalari bilan ochib berilgan.*

Kalit so`zlar: *anglanmagan faoliyat, anglanilgan faoliyat, anglangan faoliyat, matematik kompetensiya, kasbiy kompetentlik, kompetensiya, tashabbuskorlik, motivlashtirilgan xulq-atvor.*

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПСИХОЛОГА НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В данной статье представлена профессиональная деятельность психолога в современной психологии и мнения психологов в научных исследованиях. Кроме того, подчеркивается важность профессиональной деятельности и профессиональной компетентности сегодня, математической компетентности практикующих психологов, самосознания и самооценки человека. Также профессиональная компетентность практикующих школьных психологов раскрывается математическими и статистическими результатами различных психологов.*

Ключевые слова: *неосознанная деятельность, сознательная деятельность, сознательная деятельность, математическая компетентность, профессиональная компетентность, компетентность, инициатива, мотивированное поведение.*

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE PSYCHOLOGIST'S PROFESSIONAL ACTIVITY IN PRIMARY EDUCATION

Abstract. *In this article, the professional activity of a psychologist in modern psychology and the opinions of psychologists in scientific research are given. In addition, the importance of professional activity and professional competence today, mathematical competence of practicing psychologists, self-awareness and self-esteem of a person are highlighted. Also, the professional competence of practicing school psychologists is revealed by the mathematical and statistical results of various psychologists.*

Key words: *unconscious activity, conscious activity, conscious activity, mathematical competence, professional competence, competence, initiative, motivated behavior.*

Kirish. Zamonaviy psixologiya fanida psixologlar kasbiy faoliyati muammosini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni o'rganar ekanmiz, ulardagi kasbiy faoliyati metodologiyasiga dahldor ayrim psixologik xususiyatlarni nazariy jihatdan izohlashga harakat qildik. Ilmiy adabiyotlarning tahliliga qaraganda, kasbiy faoliyatni aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlar mavjud.

Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim tizimini takomillashtirish, uni bugungi zamon talablari asosida o'qitishning ilg'or yondashuvlarini joriy etish bo'yicha olib borilgan islohotlar natijasida maktab amaliyotchi psixologlarning kasbiy kompetentligini matematik bilimlarni egallash orqali yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari fan-texnika taraqqiyoti, insonlarning sifatli va aniq ma'lumotga bo'lgan ehtiyojlarining ortishi ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud ekanligini ko'rsatmoqda.

Mavzu bo`yicha adabiyotlar tahlili mashhur rus pedagog-psixologi O.A.Kozireyeva o'z ilmiy tadqiqotlarida kasbiy yuksalish bosqichlari va kasbiy kompetentlik rivojlanishini qiyoslab o'rgangan.

Uning talqinicha, kasbiy yetuklikning 3 ta bosqichi bo‘lib, ularning har biri «anglanmagan faoliyat, anglanilgan faoliyat, anglangan faoliyat» ko‘rinishidagi kasbiy faoliyatlikni namoyon etadi.

Demak, yuqoridagi amaliyotchi psixologlarning matematik kompetensiyalar tuzilishi keltirilgan asosiy fikrlardan kelib chiqib, kasbiy faoliyat atamasini ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta’minlash uchun muayyan kishilar malakasini rivojlantirish mehnat faoliyatini oshirish va psixologlarni mutaxassis sifatida shakllanishida o‘ziga xos muhim indikator sifatida xizmat qiladi.

Nazariy manbalarning tahliliga ko‘ra, amaliyotchi psixologlarning “kasbiy faollik” va “kasbiy faoliyati” bo‘yicha aniq tahsil juda kam uchraydi. Bu esa ushbu atamani zamonaviy psixologik mazmundagi muammolarni o‘rganishda dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

“Kompetentlik” tushunchasi dastlab kognitiv psixologiya sohasi vakillari tomonidan qo‘llanila boshlagan. Ushbu tushuncha shaxsning o‘zini-o‘zi anglashi, o‘z-o‘zini hurmat qilishini belgilovchi omil bo‘lib hisoblanadi va shaxsning umumiy xususiyatlari hamda uning kasbiy faoliyati xususiyatlaridan ko‘ra ko‘proq bog‘liqligini bildiradi.

Ijtimoiy psixologiyaga oid nazariyalarda “kompetentlik” tushunchasi aniq bir kasbga xos sifatlar, har bir shaxs erishishi lozim bo‘lgan xususiyatlar deb qaraladi. Kompetentlik bu yerda kasbiy professionalizmning bir qismi sifatida tushuniladi. Deyarli barcha lug‘atlarda "kompetentlik" va “kompetensiya” muammolari alohida bir kategoriya sifatida o‘rganiladi. Kompetentlik ta’riflari bir-biriga juda o‘xshash va bir-birini takrorlaydi, "Kompetentlik" uchun yagona talqin bo‘lmasa-da, bu konsepsiya "har qanday tashkilot yoki mutaxasisning bilimlarga egalik qilish vakolatlari (huquq va burchlari) yig‘indisi" deb talqin qilinadi. Shunday qilib, “kompetensiya” – bu “kompetentlik” so‘zidan olingan termin bo‘lib, insonning bilim, ko‘nikma va malakalarini to‘g‘ri anglay olishiga, “kompetentlik” esa semantik tomondan birlamchi yo‘nalish bo‘lib, ularning intro (insonning ichki imkoniyatlari) jamlanmasi, tizimi, shaxsning ma’lum bir tajribalari "jamlanmasi"ni bildiradi.

Dj.Raven o‘z ilmiy tadqiqotlarida “kasbiy faoliyat” atamasiga umumiy holda ta’rif beradi. Uning ta’rifiga ko‘ra, kasbiy faoliyat – ma’lum bir sohadagi muayyan harakatni samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan o‘ziga xos qobiliyat bo‘lib, yuqori ixtisoslashgan ko‘nikmalarni o‘z ishiga oladi. Ixtisoslashgan ko‘nikmalar deganda, fikrlash usullari, shuningdek, o‘z harakatlari uchun javobgarlikni his qilishga aytiladi.

Bundan tashqari Dj.Raven (kichkinasi) “oliy kasbiy faoliyat” haqida ham fikr bildiradi. Unga ko‘ra “Oliy kasbiy faoliyat” qaysi sohada namoyon bo‘lishidan qat’iy nazar, insonning yuqori darajaga ega ekanligini, tashabbuskorligi, tashkilotchiligi va o‘z maqsadlariga erishish uchun o‘z harakatlarining ijtimoiy oqibatlarini baholash hamda tahlil qilishga bo‘lgan qobiliyatlarni tushuniladi.

“Oliy kasbiy faoliyat”ni barcha turlarini quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin.

1. Tashabbuskorlik.
2. Tashkilotchilik va boshqaruvchanlik qobiliyati.
3. Hamkorlik va muloqot.

Dj.Raven kasbiy faoliyatni bir nechta tarkibiy qismlari mavjudligini ta’kidlaydi. Uning tarkibiy qismlari bir-biridan nisbatan mustaqil bo‘lib, kompetensiyalarning o‘zaro almashinuvchanlik xislatlariga ega. "Kasbiy faoliyat turlari" atamasi ma’lum ma’noda "motivlashtirilgan qobiliyatlar"dan boshqa narsani anglatmaydi, ya’ni, motivlashtirilgan xulq-atvorning kognitiv, ta’sirchan va irodaviy tarkibiy qismlari "tashabbus" kabi atamaga mos keladi.

Shu bilan birga, "samaradorlik" yoki "kasbiy faoliyatning tarkibiy qismlari" atamasi o‘tgan tajribadan foydalanish yoki o‘z maqsadlariga erishishda boshqalar bilan hamkorlik qilish tendensiyasi kabi shaxsiy kompetentlikni shakllantiradigan o‘ziga xos xulq-atvor tendensiyalariga murojaat qilish uchun ishlatilishi mumkin. Yuqoridagilardan tashqari Dj.Raven o‘zining “Pedagogik testlashtirish” asarida kompetentlikka yana qo‘shimcha sifatlarni - ko‘nikma va tajribani keltirib o‘tadi.

N.B.Moskvinaning fikricha "kasbiy faoliyat" asosiy xarakterga ega bo‘lib, uni mazmuni, inson bilishi va amaliyoti bilan bog‘liq bo‘lgan yangi kashfiyotlarni o‘zlashtirish bilan bog‘laydi.

N.B.Moskvina o‘z tadqiqotlarida "kasbiy faoliyat"ni uch jihatini keltirib o‘tadi:

- semantik, shu jumladan, tushunishning adekvatligi, ijtimoiy munosabatlarni tushunishni madaniy shakllarini baholay olish;
- amaliy - turli ko‘rinishdagi sotsial munosabatlarni adekvat baholay olish, maqsad, vazifa, normalarini malum bir sharoitda kerakli darajada shakllantirish va ijobiy amalga oshirish.

I.A.Zimnyaya "Kompetentlik"ni 3 guruhini keltirib o‘tadi:

- o‘z-o‘ziga shaxs sifatida va hayot faoliyatining subyekti sifatida qarashligi;
- insonning boshqa kishilar bilan o‘zaro ta’sir munosabati bilan bog‘liqligi;

- inson faoliyati bilan bog‘liq kompetensiyalar uning barcha turlari va shakllarida namoyon bo‘lishi. Bizning fikrimizcha, amaliyotchi-psixologlarning kasbiy tayyorgarligini tashkil etish jarayonida I.A.Zimnaya asarlari juda muhim sanaladi.

Kasbiy faoliyatni keng ma’noda qobiliyat bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, ko‘nikma, malaka va boshqalar. Kompetentli shaxs - yetarli malakaga, bilim va imkoniyatlarga ega shaxs hisoblanadi.

T.V.Zamorskaya talqiniga ko‘ra, “amaliyotchi psixologlarning kasbiy kompetensiyasi” – samarali faoliyatga asos bo‘luvchi murakkab psixologik ta’lim, hamda bilim, ko‘nikma malakalar hamda shaxsiy fazilatlar tizimini o‘z ishiga oladigan sifatlar jamlanmasidir.

So‘nggi yillarda kasbiy faoliyat muammosi yangicha talqinlarda namoyon bo‘lmoqda. Ko‘pgina olimlar nafaqat faoliyat balki professional kasbiy faoliyat haqida mutaxassisning kasbiy mehnat talablariga muvofiqligi ko‘rsatkichi sifatida fikr yuritishgan.

Shaxsning professional kasbiy faoliyat muammosi bo‘yicha K.K.Platonova, N.S.Ribakova ilmiy-nazariy izlanishlarida amaliyotchi psixologlarning faoliyati nuqtai nazaridan o‘z-o‘zini anglashi, kasbiy foydalik darajasi, o‘z kasbiga moslik darajasi, kasbiy malaka kabi asosiy psixologik kategoriyalarning mazmunini anglashga yordam beradi. Ushbu yo‘nalish doirasida professional yondashuv usullari ham takomillashtirildi.

Yana bir yo‘nalish vakillari B.G.Ananyev, A.N.Leontev, S.L.Rubinshteynlarning asarlarida kasbiy faoliyatning turli ko‘rinishlarida individual psixologik xususiyatlar va shaxsiy sifatlarini bevosita o‘rganilgan.

V.A.Yadov sotsiologiyada faoliyat kasbiy mahoratning atributi sifatida faoliyat yuritishi va o‘z ishi uning mohiyati, murakkab aloqalari, undagi munosabatlar, ko‘zlangan maqsadlarga erishishning mumkin bo‘lgan vositalari va usullari to‘g‘risida eng puxta bilim sifatida tavsiflanganligini ta’kidlaydi.

L.A.Petrovskaya birgalikdagi va boshqaruv faoliyatida, shuningdek, turli xil muloqotlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega kommunikatsiya kasbiy faoliyatning maxsus konsepsiyasini ishlab shiqdi. M.I.Lukyanova kasbiy faoliyatning tarkibida o‘qituvchining psixologik-pedagogik kompetentligi tushunchasini belgilaydi, ya’ni pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorgarlik darajasini va ta’lim jarayonida talabalar bilan samarali hamkorlikni hisobga olgan holda insonning muayyan fazilatlari (xususiyatlari) majmuini anglatadi.

Psixologning kasbiy faoliyati haqidagi dastlabki fikrlar XX asrning 90-yillarida to‘g‘ri keladi. Inson evolyutsiyasining har bir bosqichida psixologlarning jamiyat uchun qiladigan vazifalarini aniq belgilab beradigan ehtiyoj paydo bo‘ldi. Arastu o‘z sohasida kasb egasi bo‘lish uchun zarur bo‘lgan bilimlarning o‘qituvchi shaxsini rivojlantirishdagi roliga katta ahamiyat bergan. Aristotelning fikricha, “Yetuk mutaxassisning belgisi bu - bolalarni o‘qitishga bo‘lgan qobiliyatning mavjudligidadir”.

A.K.Markova “Professional kasbiy faoliyatni” yanada chuqurroq o‘rgangan holda quyidagilarni ko‘rsatib o‘tadi:

- kasbiy ko‘nikma;
- kasbiy psixologik o‘rni, kasb bo‘yicha talab qilinadigan ko‘nikmalar;
- kasbiy samaradorlikka yo‘naltirilgan individual sifatlar .

Umuman, bolaning shaxsiyatiga ta’sir o‘tkaza oladigan o‘qituvchi shaxsiyatining ichki qiymati va o‘ziga xosligini rivojlantirish, bu o‘qituvchining kompetentligini tadqiq qilish muammosini ko‘rib chiqish uchun asos yaratadi, uning insonparvar va ijodkor sifatida shaxsiy fazilatlarini belgilab beradi.

Muhokama va natijalar

Tadqiqotimiz davomida amaliyotchi psixologlarning kasbiy faoliyatini o‘rganish maqsadida maxsus ishlab chiqilgan “Matematik kompetentlik darajasini aniqlash so‘rovnomasi” orqali olingan natijalarni sharhiga to‘xtalamiz. Ushbu so‘rovnomada matematik kompetentlikka dahldor bo‘lgan 5 ta (“Sotsial-psixologik faoliyat”, “Kognitiv faoliyat”, “Matematik faoliyat”, “Mantiqiy faoliyat”, “Kreativ faoliyat”) kabi omillar orqali olingan statistik ma’lumotlar tahlil qilindi.

Ushbu tahlillar maktab tizimida faoliyat olib borayotgan amaliyotchi psixologlar o‘rganildi. Bu esa psixodiagnostik, psixokorreksion hamda psixokonsultativ ishlari samaradorligini yuqori darajada bo‘lishini ko‘rsatadi. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, mehnat amaliyotiga ega bo‘lgan amaliyotchi psixologlarda matematik usullar, matematik statistika, psixologik ma’lumotlarni interpritatsiya qilishda yangi texnologiyalarni qo‘llashga bo‘lgan munosabat ularda induktiv, deduktiv tafakkur operatsiyalaridan sanalgan xulosa chiqarish ko‘nikmalarini mavjudligidan dalolat beradi.

Xulosa. Kasbiy kompetentlikka nisbatan tarixda va bugungi kunda turli xil munozarali fikrlar mavjud bo‘lib, bu qarashlar turli manbalarda Sharq va G‘arb mutafakkirlari ijodida, ilg‘or psixologiya vakillarining ilmiy asarlarida asrlar davomida sayqal topib kelgan, ammo amaliyotchi psixologlar kasbiy

kompetentligini rivojlanishida matematik usullardan foydalanishning amaliy jihatdan tadqiq etish muammosi psixologiyada o‘zining muayyan nazariy − metodologik bazasiga ega bo‘lsada, ushbu muammoga dahldor tadqiqotlar ko‘lami hali o‘zining mukammal yechimlariga ega bo‘lmagan.

Omillar	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	T	Ishonch darajasi
Sotsial psixologik faoliyat	30,7	9,7	4,457	005
	36,5	7,4		
Kognitiv faoliyat	18,6	7,8	1,968	007
	22,4	8,8		
Matematik faoliyat	18,6	9,9	4,965	004
	10,6	10,4		
Mantiqiy faoliyat	10,0	5,9	1,741	003
	17,1	5,4		
Kreativ faoliyat	22,1	6,5	3,963	000
	13,5	7,9		

Omillar	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	T	Ishonch darajasi
Sotsial psixologik faoliyat	30,7	9,7	4,457	005
	36,5	7,4		
Kognitiv faoliyat	18,6	7,8	1,968	007
	22,4	8,8		
Matematik faoliyat	18,6	9,9	4,965	004
	10,6	10,4		
Mantiqiy faoliyat	10,0	5,9	1,741	003
	17,1	5,4		
Kreativ faoliyat	22,1	6,5	3,963	000
	13,5	7,9		

Amaliyotchi psixologlar kasbiy kompetentligini rivojlanishida matematik usullardan foydalanishning ahamiyatini amaliy jihatdan o‘rganish, ijtimoiy psixologik muammo sifatida o‘rganishga qaratilgan ilmiy-nazariy manbalarni tadqiq etish, amaliyotchi psixologlar kasbiy kompetentligiga xizmat qiluvchi omillar haqida batafsilroq mushohadalar yuritish imkonini beradi. Bu imkoniyat esa amaliyotchi psixologlar shaxsini, uning kasbiy kompetentligini yanada chuqurroq tadqiq qilish uchun zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1 Абрамова Г.С Практическая психология – Екатеренбург, 1998. – 365с.

2 Афанасев В.Г Проектирование педагогических технологий // Высшее образование а России. – 2001. № 4. – С. 147-150.

3 Бабанский Ю.К Избранные педагогические труды.–М.:Педагогика,2008.– 500с.

4.Ахмедова З.Ж. “Педагогико-психологические особенности адаптации младших школьников к учебной деятельности” Вестник интегративной психологии 2023 Выпуск 29

5A.Z.Djamilovna Study of the formation of crime motivation in adolescents as a problem of psychological research, I.H.Bakhtiyorovna - ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2022

6.Ismatova D.T. Oilaviy psixologik xizmatda shaxslararo munosabatlarni empirik tahlili Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2023 йил №5) 338-343 b.

7.Ismatova D.T.Oilaviy munosabatlarda emotsional zo`riqishlarni korreksiyalashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari —Pedagogik mahorat ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023, № 596-101b

Мирзаева Шахло Рузмат кизи
Старший преподаватель кафедры Социальных наук, педагогики и психологии
Ташкентского педиатрического медицинского института
Orcid: 0000-0002-2698-5042

ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА УЧЕБНУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СТУДЕНТОВ-МЕДИКОВ

Аннотация. *Эмоциональный интеллект (ЭИ) является важным аспектом развития личности и успешной адаптации в обществе. В последние годы все больше исследований уделяется изучению влияния эмоционального интеллекта на различные сферы человеческой деятельности, включая учебную. Данная научная статья посвящена исследованию влияния эмоционального интеллекта на учебную деятельность студентов-медиков. Эмоциональный интеллект является важным аспектом развития личности и профессиональной деятельности будущих врачей, поэтому изучение его влияния на учебный процесс представляет большой интерес. В статье проведен анализ психологических особенностей эмоционального интеллекта у студентов-медиков, а также исследованы связи между уровнем эмоционального интеллекта и академической успеваемостью, адаптацией к учебному процессу, эмоциональным благополучием и мотивацией к обучению. Результаты исследования позволили выявить значимое влияние эмоционального интеллекта на учебную деятельность студентов-медиков, подчеркнув важность развития эмоциональных компетенций в процессе обучения. Проведенный анализ также обозначил потенциальные области для внедрения программ тренировки эмоционального интеллекта в учебный процесс студентов-медиков с целью улучшения качества их обучения и будущей профессиональной деятельности.*

Ключевые слова: *эмоциональный интеллект, учебная деятельность, студенты-медики, медицинское образование, психологические особенности.*

THE STUDY OF THE INFLUENCE OF EMOTIONAL INTELLIGENCE ON THE EDUCATIONAL ACTIVITIES OF MEDICAL STUDENTS

Abstract. *Emotional intelligence (EI) is an important aspect of personal development and successful adaptation in society. In recent years, more and more research has been devoted to the study of the influence of emotional intelligence on various spheres of human activity, including educational. This scientific article is devoted to the study of the influence of emotional intelligence on the educational activities of medical students. Emotional intelligence is an important aspect of personal development and professional activity of future doctors, therefore, the study of its impact on the educational process is of great interest. The article analyzes the psychological characteristics of emotional intelligence in medical students, and also examines the relationship between the level of emotional intelligence and academic performance, adaptation to the educational process, emotional well-being and motivation to learn. The results of the study revealed a significant influence of emotional intelligence on the educational activities of medical students, emphasizing the importance of developing emotional competencies in the learning process. The analysis also identified potential areas for the introduction of emotional intelligence training programs into the educational process of medical students in order to improve the quality of their education and future professional activities.*

Keywords: *emotional intelligence, educational activity, medical students, medical education, psychological characteristics.*

Проблема исследования психологических факторов, влияющих на учебную деятельность студентов, всегда была актуальной и важной. Одним из ключевых аспектов, оказывающих значимое и существенное влияние на результаты обучения в медвузе, является эмоциональный интеллект [6, 9, 15].

Концепция эмоционального интеллекта представляет собой совокупность навыков и способностей, связанных с умением управлять собственными эмоциями, пониманием чувств других людей и эффективным взаимодействием с окружающими. Ряд ученых, таких как Даниэль Гоулман, Питер Сэловей, Джон Майер и др., предложили различные теории и подходы к понятию эмоционального интеллекта [2, 7, 8].

Даниэль Гоулман выделил пять ключевых компонентов эмоционального интеллекта:

1. Самосознание - умение осознавать свои эмоции, мотивы и цели.

2. Саморегуляция - способность контролировать и управлять своими эмоциями, реакциями и поведением в стрессовых ситуациях.

3. Эмпатия - способность почувствовать и понять эмоции и переживания других людей.

4. Социальные навыки - умение справляться с межличностными отношениями, включая коммуникацию, сотрудничество и решение конфликтов.

5. Мотивация - внутренняя направленность на достижение целей, умение управлять мотивацией и самодисциплиной.

Питер Сэловей выделяет важность эмоционального интеллекта в аспектах лидерства и социальной компетентности, подчеркивая его связь с успехом в карьере и личной жизни.

Джон Майер предлагает модель эмоционального интеллекта, включающую четыре основных компонента: восприятие эмоций, использование эмоций, понимание эмоций и управление эмоциями.

Таким образом, концепция эмоционального интеллекта представляется различными учеными, которые выделяют ключевые компоненты, включая саморегуляцию, эмпатию, социальные навыки и мотивацию, способность осознания, контролирования и выражения своих эмоций, понимание и управление эмоциями других людей, а также подчеркивают его важность для успешного взаимодействия с окружающим миром и достижения успеха в различных сферах жизни. В контексте учебного процесса он может быть рассмотрен как набор навыков и компетенций, которые помогают студентам более успешно адаптироваться к новой среде обучения, эффективно решать проблемы и достигать поставленных целей.

Стремительное развитие технологий и изменения в требованиях к профессиональным навыкам медиков делают актуальными исследования, направленные на выявление связи между эмоциональным интеллектом студентов-медиков и их успехом в учебной деятельности [3, 4, 10, 12, 14]. Понимание этой связи позволит разработать эффективные методы обучения и подготовки будущих врачей, учитывающие их эмоциональные возможности и потребности. В данной статье мы рассмотрим результаты проведенного исследования, посвященного изучению влияния эмоционального интеллекта на успех студентов-медиков, а также предложим практические рекомендации для повышения эмоциональной компетентности в медицинском образовании.

Студенты-медики сталкиваются с проблемами, связанные не только со сложной нагрузкой комплексной учебной программы, но и с требованиями эмоциональной сферы, такими как сочувствие, проявление эмпатии и эмоциональная устойчивость. Понимание и эффективное управление собственными эмоциями и эмоциями других людей, психологическое благополучие являются факторами, которые влияют на успех в учебной деятельности [1, 13].

Эмоциональный интеллект играет важную роль в медицинском образовании, так как успешная практика медицинской профессии требует не только хороших профессиональных знаний и навыков, но и способности эффективно управлять своими эмоциями, устанавливать эмоциональную связь с пациентами и коллегами, решать конфликты и принимать сложные решения в стрессовых ситуациях.

Развитие эмоционального интеллекта у студентов-медиков значительно повышает их успех в обучении и в будущей профессиональной деятельности. Связь между уровнем эмоционального интеллекта и академической успеваемостью студентов уже доказана в нескольких исследованиях. Высокий уровень эмоционального интеллекта связан с социально-психологической адаптацией студентов, лучшими оценками, более высоким уровнем мотивации и эффективностью обучения. Эмоционально умные студенты лучше справляются с конфликтами, стрессом и давлением, что помогает им успешно завершить долгосрочное обучение.

Кроме того, эмоциональный интеллект также связан с эмоциональным благополучием студентов-медиков. Обучение медицинской профессии может быть тяжелым и стрессовым, поэтому важно, чтобы студенты умели эффективно управлять своими эмоциями, избегать выгорания и сохранять психологическое здоровье.

Исследования также показывают, что уровень эмоционального интеллекта влияет на эффективность врачебной практики. Врачи с высоким уровнем эмоционального интеллекта имеют лучшие отношения с пациентами, более эффективно коммуницируют, легче решают конфликты и принимают сложные решения, так как они лучше умеют управлять своими эмоциями, оценивать эмоциональные потребности других людей и устанавливать эмоциональную связь с ними.

Это помогает им улучшить качество медицинской помощи, повысить удовлетворенность пациентов и сделать свою практику более успешной [9, 14].

Студенты-медики с высоким уровнем эмоционального интеллекта проявляют большую эффективность во время клинической практики, лучше понимают и адекватно реагируют на эмоциональные потребности пациентов, уделяют больше внимания коммуникативным навыкам и эмоциональному благополучию пациентов.

Однако, некоторые исследования указывают на то, что уровень эмоционального интеллекта может быть низким у многих студентов-медиков. Это связано с личностным свойством - темпераментом, высокой степенью стресса, свойственной медицинскому образованию, а также с отсутствием эффективных методов развития эмоционального интеллекта в учебном процессе. Правильное развитие эмоционального интеллекта может помочь студентам-медикам в лучшем взаимодействии с пациентами, более эффективном планировании и распределении времени, а также в успешной адаптации к стрессовым ситуациям [5, 10].

В данной статье будет проведен анализ исследований, посвященных влиянию эмоционального интеллекта на учебную деятельность студентов-медиков. Также будут представлены методы и стратегии развития эмоционального интеллекта, которые могут быть использованы в медицинском образовании. Основываясь на результате этого исследования, можно будет сформулировать рекомендации для улучшения образовательной практики и повышения успеха студентов-медиков.

Методы исследования.

Для проведения исследования о влиянии эмоционального интеллекта на учебную деятельность студентов-медиков были выбраны два подхода к измерению эмоционального интеллекта: самооценочный подход и экспертный подход [11].

В самооценочном подходе студенты-медики оценивали свой уровень эмоционального интеллекта с помощью определенного набора психологических тестов и анкет (методики Н.Холла и М.А.Манойловой для диагностики ЭИ). Эти тесты включали задания, позволяющие определить уровень способности к распознаванию и пониманию эмоций, управлению собственными эмоциями и эмоциональной саморегуляции. Результаты самооценки использовались для определения индивидуального уровня эмоционального интеллекта каждого студента-медика.

В экспертном подходе эксперты-преподаватели оценивали уровень эмоционального интеллекта студентов-медиков на основе наблюдений и анализа выполнения ими учебных заданий и ситуаций. Эксперты оценивали способность студента к эмоциональной саморегуляции, эмоциональной эмпатии и пониманию эмоций других людей. Оценки экспертов использовались для того, чтобы получить объективную оценку уровня эмоционального интеллекта студентов-медиков.

Выборка студентов-медиков для исследования была осуществлена случайным образом. Участвовали студенты всех курсов медицинского института, их количество составило 152 человек. Учитывались различные параметры, такие как пол, возраст, направление образования студента и год обучения.

Таким образом, методология исследования включала два подхода: самооценочный подход и экспертный подход. Выборка студентов-медиков для исследования была осуществлена случайным образом, чтобы получить достоверные и репрезентативные результаты. Это позволит более точно изучить влияние эмоционального интеллекта на успех в учебной деятельности студентов-медиков.

Обсуждение результатов исследования.

Согласно проведенному исследованию, эмоциональный интеллект имеет прямую связь с успехом студентов-медиков в их учебной деятельности. Анализ данных показал, что студенты с более высоким уровнем эмоционального интеллекта достигали лучших результатов в учебе.

Одним из ключевых факторов, влияющих на успешность учебы, является умение эффективно контролировать и управлять своими эмоциями. Студенты-медики с высоким уровнем эмоционального интеллекта обладали большей способностью избегать стресса и управлять эмоциональными состояниями, что позволяло им лучше сосредотачиваться на учебных задачах.

Также было обнаружено, что студенты с высоким уровнем эмоционального интеллекта более успешно справляются с социальными взаимодействиями в учебной среде. Они лучше уста-

навливают контакт с преподавателями и однокурсниками, что создает благоприятную обстановку для общения и совместной работы. Это в свою очередь приводит к улучшению образовательного процесса и повышению успеваемости.

Однако, необходимо отметить, что эмоциональный интеллект сам по себе не является гарантом успеха в учебной деятельности студентов-медиков. Другие факторы, такие как знания, умения, когнитивные способности, учебная мотивация, стрессоустойчивость, сила воли и трудолюбие, также играют важную роль. Однако, эмоциональный интеллект можно считать дополнительным "инструментом", который помогает студентам более эффективно использовать свои способности и достичь лучших результатов.

Все вышеперечисленное подтверждает необходимость развития эмоционального интеллекта у студентов-медиков в рамках их образовательной программы. Внедрение соответствующих тренировок и практик, направленных на улучшение эмоциональных навыков, может существенно помочь студентам улучшить свою академическую успеваемость и достичь большего успеха в их учебной деятельности.

Существует множество практических рекомендаций, которые помогут студентам-медикам развивать свой эмоциональный интеллект, что в свою очередь способствует достижению успеха в учебной деятельности [5, 9]. Перечислим некоторые из них.

Во-первых, студенты должны осознать свои эмоции и уметь идентифицировать их. Это позволяет им лучше понимать себя, свои реакции на стрессовые ситуации и учебные вызовы. Для этого полезно вести эмоциональный дневник, где можно записывать свои эмоциональные состояния и анализировать их.

Во-вторых, студенты должны развивать свою способность эмоциональной саморегуляции. Для этого полезно изучить различные методы релаксации, такие как глубокое дыхание, медитация или йога. Эти практики помогут студентам справляться с эмоциональным напряжением и стрессом, что повысит их эффективность в учебе.

Во-третьих, студентам необходимо развивать навыки эмпатии и понимания других людей. Это особенно важно для медиков, которые должны быть умелыми коммуникаторами и уметь эмоционально поддерживать своих пациентов. Для этого студенты могут принять участие в тренингах по развитию эмпатии и постановке себя на место других людей.

В-четвертых, студенты-медики должны научиться эффективно управлять конфликтами и стрессом. Для этого полезно освоить навыки конструктивной коммуникации, а также учиться управлять своим временем, чтобы избегать перегрузок и чувства беспокойства.

И наконец, студенты должны поощрять самоактуализацию и ставить перед собой реалистичные, но достижимые цели. Необходимо осознавать свои сильные стороны и развивать их, а также работать над своими слабостями. Для этого полезно составлять планы действий и следовать им, чтобы достичь поставленных целей.

Эти рекомендации могут быть полезны студентам-медикам, чтобы развить свой эмоциональный интеллект и повысить свой успех в учебе. Они помогут студентам лучше управлять своими эмоциями, лучше понимать своих однокурсников, коллег и пациентов, а также быть более эффективными и успешными в своей учебной и профессиональной деятельности.

Заключение. Результаты этого исследования, целью которого было изучение влияния эмоционального интеллекта на успех в учебной деятельности студентов-медиков, позволяют сделать несколько выводов.

Во-первых, эмоциональный интеллект оказывает значительное влияние на успех в учебной деятельности студентов-медиков. Исследование показало, что студенты, обладающие высоким уровнем эмоционального интеллекта, демонстрируют более высокий уровень успеваемости в учебе и лучшие результаты на экзаменах. Они также показали высокую мотивацию к учебе, более эффективные стратегии саморегуляции, способность к общению и сотрудничеству с другими студентами.

Во-вторых, эмоциональный интеллект оказывает влияние не только на академический успех, но и на общие навыки и умения студентов-медиков. Изучение эмоционального интеллекта поможет студентам развить навыки решения проблем, развить понимание эмоций и перспектив других людей, а также улучшить коммуникацию и межличностные отношения. Эти навыки являются важными для будущих врачей, которые будут работать с пациентами и их близкими.

Тем не менее, дальнейшие исследования в этой области требуются для более глубокого понимания механизмов взаимосвязи между эмоциональным интеллектом и успехом в учебной

деятельности студентов-медиков. Важно исследовать, какие конкретные компоненты эмоционального интеллекта оказывают наибольшее влияние, и какие методы обучения помогут студентам развивать эти навыки.

Кроме того, дальнейшие исследования могут расширить нашу базу знаний о влиянии эмоционального интеллекта на профессиональную практику студентов-медиков. Какие именно эмоциональные навыки и навыки саморегуляции могут быть наиболее полезными в их будущей работе и как эти навыки могут быть успешно интегрированы в образовательный процесс?

В целом, изучение влияния эмоционального интеллекта на учебную деятельность студентов-медиков представляет собой важную и актуальную тему исследования. Познание влияния эмоционального интеллекта на студентов-медиков не только поможет им достичь большего успеха в учебе, но и создаст базу для развития компетентных и эмоционально интеллектуальных врачей, способных эффективно работать с пациентами и обеспечивать качественное здравоохранение.

Использованная литература

1. Бердникова, И.А. (2022). Взаимосвязь внутриличностного эмоционального интеллекта и компонентов психологического благополучия студентов / И. А. Бердникова // Профессиональное самоопределение молодежи инновационного региона: проблемы и перспективы: сборник статей по материалам Всероссийской научно-практ. конф. / Под общ. ред. А. Г. Миронова. - Красноярск, - С. 54-58.

2. Береснева О.Е., Корнилова О.А. (2021). Характеристики эмоционального интеллекта у обучающихся младших курсов медицинского вуза // Современная психология и педагогика: проблемы и решения. — С. 83-91. URL: https://elibrary.ru/item.asp?id=46128718 (дата обращения: 22.04.2024).

3. Гайкина, М.Ю., Харькова О.А. (2021). Исследование эмоционального интеллекта и эмпатических способностей у студентов медицинского вуза. // Azimuth of Scientific Research: Pedagogy and Psychology. Т. 10. No 1(34) https://file:///C:/Users/user/Downloads/issledovanie-emotsionalnogo-intellekta-i-empaticheskih-sposobnostey-u-studentov-meditsinskogo-vuza.pdf

4. Григорьев П.Е., & Васильева И.В. (2018). Связь жизнестойкости и эмоционального интеллекта у студентов медицинских специальностей. Проблемы современного педагогического образования, (59-1), 445

5. Каргина А.Е. (2021). Формирование конструктивных стратегий преодоления трудных жизненных ситуаций студентов с различным уровнем эмоционального интеллекта: диссертация ... кандидата психологических наук: 5.3.4. / Каргина Анастасия Евгеньевна; [Место защиты: ФГБОУ ВО «Тихоокеанский государственный университет»]. - Кемерово, - 224 с.;

6. Котомина О.В. (2017). Исследование взаимосвязи эмоционального интеллекта и академической успеваемости студентов университета // Образование и наука. №10. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/issledovanie-vzaimosvyazi-emotsionalnogo-intellekta-i-akademicheskoy-uspevaemosti-studentov-universiteta

7. Мирзаева Ш.Р. (2023) Исследование влияния эмоционального интеллекта на мотивацию и саморегуляцию студентов-медиков. Вестник Гулистанского государственного университета № 4, 30-35 с.

8. Мирзаева Ш.Р. (2023). The importance of studying emotional intelligence in medical students. Journal of Innovation, Creativity and Art (JICA): Special Issue: Интеграция искусства, гуманитарных наук и медицины как средство воспитания эмпатии и критического мышления у студентов. тгси, стр. 215-220. http://jica.innovascience.uz/index.php/jica/article/view/196

9. Мирзаева Ш.Р. (2023). Влияние эмоционального интеллекта студентов на их профессиональную компетентность: монография. Ш.Мирзаева / -Т.: «EFFECT-D», 104 с.

10.Мирзаева Ш.Р. (2023). Исследование взаимосвязи эмоционального интеллекта с копинг-стратегиями у студентов-медиков. Международный научно-методический журнал “Образование и инновационные исследования”, №7, 178-190 с.

11.Мирзаева Ш.Р. (2023). Методологические аспекты исследования эмоционального интеллекта студентов медицинского вуза. Научно-теоретический и методический журнал Педагогика № 2, 17-22 стр.

Sobirov Abdulaziz Abduroziqovich
Buxoro davlat pedagogika instituti
psixologiya kafedrasi dotsenti

YETUKLIK DAVRIDA SHAXS PSIXOLOGIK SALOMATLIGINING STRUKTURAVIY KOMPONENTLARI VA ULARNING O‘ZARO ALOQADORLIGI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yetuklik davrida shaxs psixologik salomatligining strukturaviy komponentlari, shaxsiy xususiyatlar, “MEN” tuzilmasi omillari, emotsional holatlar hamda psixologik himoya mexanizmlari o‘rtasidagi korrelyatsion munosabatlar tahlil qilingan. Tadqiqotda 25–39 va 40–50 yosh oralig‘idagi respondentlarning psixologik salomatlik ko‘rsatkichlari empirik jihatdan o‘rganilib, refleksiya, identifikatsiya, konstruktiv qo‘rquv, emotsional barqarorlik, ekstraversiya, kelishuvchanlik, frustratsiya, agressivlik, rigidlik va xavotir omillari o‘rtasidagi bog‘liqliklar aniqlangan. Natijalar psixologik salomatlik shaxsning ichki resurslari, himoya mexanizmlari va emotsional boshqaruv imkoniyatlari bilan uzviy aloqador ekanligini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *yetuklik davri, psixologik salomatlik, shaxs, refleksiya, identifikatsiya, emotsional barqarorlik, psixologik himoya, korrelyatsion tahlil.*

СТРУКТУРНЫЕ КОМПОНЕНТЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ ЛИЧНОСТИ В ПЕРИОД ЗРЕЛОСТИ И ИХ ВЗАИМОСВЯЗЬ

Аннотация. *В статье анализируются структурные компоненты психологического здоровья личности в период зрелости, а также корреляционные связи между личностными особенностями, факторами структуры «Я», эмоциональными состояниями и механизмами психологической защиты. Эмпирические данные показывают, что психологическое здоровье личности тесно связано с уровнем рефлексии, идентификации, эмоциональной устойчивости, тревожности, агрессивности и адаптационных ресурсов.*

Ключевые слова: *зрелость, психологическое здоровье, личность, рефлексия, идентификация, эмоциональная устойчивость, психологическая защита, корреляционный анализ.*

STRUCTURAL COMPONENTS OF PERSONAL PSYCHOLOGICAL HEALTH IN ADULTHOOD AND THEIR INTERRELATIONSHIP

Abstract. *This article analyzes the structural components of psychological health in adulthood and the correlation between personality traits, factors of the “Self” structure, emotional states and psychological defense mechanisms. The results show that psychological health is closely related to reflection, identification, emotional stability, anxiety, aggression and adaptive psychological resources.*

Keywords: *adulthood, psychological health, personality, reflection, identification, emotional stability, psychological defense, correlation analysis.*

Kirish. Bugungi kunda shaxs psixologik salomatligini tadqiq etish, uni saqlash va rivojlantirish masalasi psixologiya fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar insonning ruhiy holati, shaxslararo munosabatlari, kasbiy faoliyati hamda o‘zini anglash jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, yetuklik davrida shaxsning hayotiy mas’uliyati ortib boradi, oilaviy, kasbiy va ijtimoiy rollar murakkablashadi, natijada psixologik salomatlikni ta’minlovchi ichki omillarni o‘rganish zarurati kuchayadi. Psixologik salomatlik shaxsning faqat ruhiy buzilishlardan xoli bo‘lishi bilan cheklanmaydi. U insonning o‘zini anglash darajasi, emotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi, konstruktiv muloqotga kirisha olishi, stressli vaziyatlarda o‘zini boshqara bilishi va hayotiy muammolarga nisbatan adekvat munosabat bildira olishi bilan belgilanadi. Shu sababli psixologik salomatlikni o‘rganishda shaxsiy xususiyatlar, “MEN” tuzilmasi, emotsional holatlar va psixologik himoya mexanizmlarini birgalikda tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotda yetuklik davridagi shaxslarda psixologik salomatlik omillarining namoyon bo‘lishi, ularning shaxsiy xususiyatlar va emotsional holatlar bilan bog‘liqligi korrelyatsion tahlil asosida o‘rganildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi shaxs psixologik salomatligini belgilovchi strukturaviy komponentlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni aniqlashdan iboratdir. Psixologik salomatlik muam-

mosi ko‘plab olimlar tomonidan turli nazariy yondashuvlar asosida talqin qilingan. Gumanistik psixologiyada psixologik salomatlik shaxsning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi, o‘zini anglash va o‘zini rivojlantirishga intilishi bilan bog‘liq holda izohlanadi. Mazkur yondashuvda insonning ichki resurslari, shaxsiy tanlovi, mas’uliyati va hayotiy maqsadlari asosiy o‘ringa qo‘yiladi.

Psixoanalitik yondashuvlarda esa psixologik salomatlik shaxsning ichki ziddiyatlari, ongsiz kechinmalari, himoya mexanizmlari va “MEN” tuzilmasi bilan bog‘liq holda tushuntiriladi. Ushbu nuqtai nazardan qaralganda, inson ruhiy muvozanatini saqlashda psixologik himoya mexanizmlari muhim vazifani bajaradi. Biroq himoya mexanizmlarining haddan tashqari kuchayishi yoki nomoslashuvchan shaklda namoyon bo‘lishi shaxsning psixologik salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Kognitiv va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarda psixologik salomatlik insonning voqelikni anglash uslubi, o‘zini baholashi, stressli vaziyatlarni talqin qilishi va ularga javob berish strategiyalari bilan bog‘lanadi. Shu jihatdan refleksiya, identifikatsiya, emotsional barqarorlik, ijtimoiy moslashuvchanlik va o‘z chegaralarini anglash psixologik salomatlikning muhim tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo‘ladi. Yetuklik davrida bu omillarning ahamiyati yanada ortadi. Chunki mazkur davrda shaxs turli ijtimoiy rollarni bajaradi, murakkab hayotiy vaziyatlarga duch keladi, kasbiy hamda oilaviy mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi. Shuning uchun psixologik salomatlikni o‘rganishda faqat alohida emotsional holatlarni emas, balki shaxsning strukturaviy tuzilmasi, himoya mexanizmlari va moslashuv resurslarini kompleks tahlil qilish zarur.

Tadqiqotda jami 440 nafar respondent ishtirok etdi. Respondentlar yetuklik davri xususiyatlarini hisobga olgan holda 25–39 yosh va 40–50 yosh oralig‘idagi guruhlarga ajratildi. Tadqiqot davomida shaxs psixologik salomatligi, “MEN” strukturaviy omillari, emotsional holatlar va psixologik himoya mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik metodikalardan foydalanildi.
Empirik ma’lumotlarni qayta ishlashda korrelyatsion tahlil, Mann–Uitni U-mezoni va statistik ahamiyatlilik darajalari qo‘llanildi. Tahlil jarayonida “MEN” strukturaviy omillari, shaxsiy xususiyatlar, emotsional holatlar va psixologik himoya mexanizmlari o‘rtasidagi bog‘liqliklar aniqlashga alohida e’tibor qaratildi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, shaxs psixologik salomatligining strukturaviy komponentlari shaxsiy xususiyatlar bilan uzviy bog‘liqdir. Jumladan, konstruktiv qo‘rquv ko‘rsatkichi emotsional barqarorlik bilan ijobiy bog‘liqlikka ega ekanligi aniqlandi. Bu holat konstruktiv qo‘rquvning shaxs faoliyatini buzuvchi emas, balki uni tartibga soluvchi mexanizm sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Ya’ni emotsional jihatdan barqaror shaxs xavotirni to‘liq inkor etmaydi, balki uni vaziyatga mos tarzda boshqaradi. Konstruktiv qo‘rquvning kelishuvchanlik va ekstraversiya bilan ijobiy aloqadorligi ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Bu natija ijtimoiy faol, muloqotga ochiq va boshqalar bilan hamkorlik qilishga moyil shaxslarda xavotir moslashuvchan shaklda namoyon bo‘lishini bildiradi. Demak, psixologik salomatlikda qo‘rquv yoki xavotirning mavjudligi doimo salbiy holat sifatida baholanmasligi kerak. Aksincha, u konstruktiv shaklda bo‘lsa, shaxsni ehtiyotkorlikka, mas’uliyatli qaror qabul qilishga va ijtimoiy vaziyatlarga moslashishga undaydi.

Defitsitar agressiya ko‘rsatkichi ekstraversiya bilan salbiy bog‘liqlikni namoyon etdi. Bu natija ijtimoiy faol, tashabbuskor va muloqotga kirishuvchan shaxslarda agressiyaning bostirilgan yoki yetarlicha ifodalanmagan shakli kamroq uchrashini anglatadi. Aksincha, ijtimoiy passivlik, o‘z fikrini ochiq bayon qila olmaslik va tashqi faoliyatning sustligi agressiv energiyaning ichki bosim sifatida to‘planishiga olib kelishi mumkin. Konstruktiv o‘zini tashqi chegaralash ko‘rsatkichi emotsional barqarorlik bilan salbiy, ekstraversiya bilan esa ijobiy bog‘liqlikka ega bo‘ldi. Ushbu natija shuni ko‘rsatadiki, shaxsning o‘z chegaralarini belgilashi ijtimoiy faollik bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ayrim hollarda ichki zo‘riqish bilan ham kechishi mumkin. Ya’ni shaxs o‘z shaxsiy chegaralarini himoya qilishga intilganda, tashqi bosim yoki ijtimoiy talablar bilan ichki ehtiyojlar o‘rtasida muayyan ziddiyat yuzaga keladi.

Konstruktiv egoizm vijdonlilik bilan ijobiy bog‘liqlikka ega bo‘lib, bu shaxsning o‘z manfaatlarini anglash va mas’uliyatli xulq-atvor o‘rtasida ma’lum uyg‘unlik mavjudligini bildiradi. Bunday holatda egoizm salbiy sifat emas, balki shaxsning o‘zini qadrlashi, o‘z ehtiyojlarini anglash va hayotiy pozitsiyasini himoya qilishga xizmat qiluvchi psixologik resurs sifatida ko‘riladi. Identifikatsiya ko‘rsatkichi kelishuvchanlik va ekstraversiya bilan ijobiy bog‘liqlikni namoyon etdi. Bu natija boshqalarni tushunish, ularning holatini his qilish va o‘zini boshqa shaxs o‘rniga qo‘ya olish qobiliyati ijtimoiy moslashuv hamda kommunikativ faollik bilan bevosita bog‘liq ekanligini tasdiqlaydi. Demak, identifikatsiya psixologik salomatlikning muhim ijtimoiy-psixologik komponenti sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlilda eng muhim natijalardan biri refleksiya omiliga tegishlidir. Refleksiya emotsional barqarorlik, yangi tajribalarga ochiqlik, vijdonlilik va kelishuvchanlik bilan yuqori ijobiy bog‘liqlikka ega ekanligi aniqlandi. Bu esa refleksiyaning shaxs psixologik salomatligidagi markaziy o‘rnini ko‘rsatadi. Refleksiya orqali shaxs o‘z kechinmalarini anglaydi, xatti-harakatlarini baholaydi, ijtimoiy vaziyatlarga ongli munosabat bildiradi va o‘zini boshqarish imkoniyatini kengaytiradi. Shu bilan birga, refleksiyaning ekstraversiya bilan salbiy bog‘liqligi kuzatildi. Bu holat refleksiyaning ko‘proq ichki yo‘naltirilgan psixik jarayon ekanligini anglatadi. Ya’ni o‘z ichki holatini tahlil qilish, kechinmalarni anglash va shaxsiy tajribani baholash ko‘proq introversiv yo‘nalish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Biroq bu ekstraversiya psixologik salomatlikka zid degani emas. Aksincha, natijalar psixologik salomatlikda ichki tahlil va tashqi ijtimoiy faollik o‘rtasidagi muvozanat muhimligini ko‘rsatadi.

Ayzenkning “O‘z-o‘zining ruhiy holatlarini baholash” metodikasi bilan “MEN” strukturaviy omillari o‘rtasidagi bog‘liqliklar ham muhim natijalarni berdi. Konstruktiv qo‘rquv agressivlik va qo‘rquv-xavotir bilan ijobiy bog‘liqlikka ega bo‘ldi. Bu shuni anglatadiki, xavotir kuchaygan sari shaxsning tashqi ta’sirlarga nisbatan reaktivligi ham ortishi mumkin. Bunday holatda agressivlik har doim destruktiv emas, balki o‘zini himoya qilishga qaratilgan javob reaksiyasi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Konstruktiv egoizmning agressivlik bilan ijobiy bog‘liqligi shaxs o‘z manfaatlarini himoya qilish jarayonida qat’iylik va ba’zan keskin javob reaksiyalariga murojaat qilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bu natija konstruktiv egoizmni shaxsiy chegaralarni saqlash va o‘zini qadrlash bilan bog‘liq psixologik omil sifatida talqin qilish imkonini beradi. Konstruktiv o‘zini tashqi chegaralash ham agressivlik bilan ijobiy bog‘liqlikka ega bo‘ldi. Bu holat shaxs o‘z chegaralarini aniq belgilagan sari, ushbu chegaralar buzilganda himoyaviy reaksiyalar kuchayishini bildiradi. Demak, psixologik salomatlikda shaxsiy chegaralarni anglash muhim bo‘lsa-da, ularni moslashuvchan boshqarish ham zarurdir. Defitsitar agressiya frustratsiya bilan ijobiy bog‘liqlikni namoyon etdi. Bu natija shaxs o‘z noroziligi, salbiy hissiyotlari yoki ichki qarama-qarshiliklarini ochiq ifoda eta olmaganda, ular frustratsiya shaklida to‘planishini ko‘rsatadi. Shunday ekan, psixologik salomatlikni mustahkamlashda shaxsga o‘z hissiyotlarini ijtimoiy maqbul shaklda ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirish muhimdir.

Destruktiv egoizm esa qo‘rquv-xavotir bilan ijobiy bog‘liqlikka ega bo‘ldi. Bu holat shaxsning haddan tashqari o‘z manfaatlariga yopishib olishi, boshqalar bilan muvozanatli munosabat o‘rnata olmasligi ichki xavotir va ruhiy bezovtalikni kuchaytirishi mumkinligini bildiradi. Integral ko‘rsatkichlar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki, 40–50 yoshdagi respondentlarda konstruktivlik ko‘rsatkichi 25–39 yoshdagi respondentlarga nisbatan yuqoriroq namoyon bo‘lgan. Bu holat hayotiy tajriba, ijtimoiy moslashuv, emotsional nazorat va murakkab vaziyatlarga nisbatan barqarorroq munosabat shakllanishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, katta yosh guruhida destruktivlik va defitsitarlik ko‘rsatkichlarining ham oshishi kuzatilgani mazkur davrda ichki ziddiyatlar, hayotiy bosimlar va psixologik charchoq omillari ham mavjud bo‘lishi mumkinligini anglatadi. Psixologik himoya mexanizmlari o‘rtasidagi korrelyatsion tahlil natijalari “inkor etish”, “siqib chiqarish”, “kompensatsiya”, “kognitivlik” va “giperkompensatsiya” o‘rtasida ahamiyatli bog‘liqliklar mavjudligini ko‘rsatdi. Xususan, inkor etish kompensatsiya va giperkompensatsiya bilan yuqori ijobiy aloqadorlikka ega bo‘ldi. Bu holat shaxs noxush voqelikni qabul qilishda qiynalganda, ichki muvozanatni saqlash uchun boshqa psixologik mexanizmlarni faollashtirishini bildiradi.

Siqib chiqarish regressiya, kompensatsiya, o‘rnini almashtirish va kognitivlik bilan musbat bog‘liqlikka ega bo‘ldi. Bu natija noxush kechinmalarni ongdan chetlashtirish holati ko‘pincha boshqa himoya mexanizmlari bilan birgalikda ishlashini ko‘rsatadi. Ayniqsa, siqib chiqarish va regressiya o‘rtasidagi bog‘liqlik shaxs og‘ir vaziyatlarda avvalgi, sodda xulq-atvor shakllariga qaytishga moyil bo‘lishi mumkinligini anglatadi. Kompensatsiya eng ko‘p bog‘lanishlarga ega omillardan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Bu esa psixologik salomatlikni saqlashda shaxsning yetishmayotgan jihatlarni boshqa resurslar orqali to‘ldirishga intilishi muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Giperkompensatsiya va o‘rnini almashtirish mexanizmlari ham bir nechta himoya omillari bilan bog‘liq bo‘lib, ular shaxsning ichki zo‘riqishlarni boshqarishida faol ishtirok etishini bildiradi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari shaxs psixologik salomatligi oddiy, bir omilli hodisa emasligini tasdiqlaydi. U refleksiya, identifikatsiya, emotsional barqarorlik, shaxsiy chegaralar, konstruktiv xavotir, psixologik himoya mexanizmlari va ijtimoiy moslashuv imkoniyatlarining murakkab tizimli o‘zaro ta’siri asosida shakllanadi.

Xulosa. O‘tkazilgan empirik tahlillar yetuklik davrida shaxs psixologik salomatligi bir qator strukturaviy, emotsional va himoyaviy komponentlar bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, refleksiya, identifikatsiya, konstruktiv qo‘rquv, emotsional barqarorlik va kelishuvchanlik psixologik salomatlikning muhim ko‘rsatkichlari sifatida namoyon bo‘ldi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, refleksiya

shaxsning o‘zini anglash, o‘z xatti-harakatlarini baholash va emotsional holatlarini boshqarishida markaziy funksiyani bajaradi. Identifikatsiya esa shaxslararo munosabatlarda empatik tushunish va ijtimoiy moslashuvni ta’minlovchi muhim psixologik omil hisoblanadi. Psixologik himoya mexanizmlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, inkor etish, siqib chiqarish, kompensatsiya, regressiya va giperkompensatsiya o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Bu esa shaxs murakkab hayotiy vaziyatlarda birgina himoya usulidan emas, balki bir nechta psixologik mexanizmlarning uyg‘unlashgan tizimidan foydalanishini bildiradi.

Yetuklik davrida psixologik salomatlikni mustahkamlash uchun shaxsda refleksiv tafakkurni rivojlantirish, emotsional barqarorlikni oshirish, konstruktiv muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘z hissiyotlarini ijtimoiy maqbul shaklda ifodalash va psixologik himoya mexanizmlarini moslashuvchan boshqarishga o‘rgatish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абульханова-Славская К.А. Стратегия жизни. – Москва: Мысль, 1991.
2. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. – Санкт-Петербург: Питер, 2001.
3. Асмолов А.Г. Психология личности: культурно-историческое понимание развития человека. – Москва: Смысл, 2007.
4. Божович Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте. – Санкт-Петербург: Питер, 2008.
5. Василюк Ф.Е. Психология переживания. – Москва: Изд-во МГУ, 1984.
6. Выготский Л.С. Психология развития человека. – Москва: Смысл, 2005.
7. Дерогатис Л. Клиническая психометрия и оценка психического состояния личности. – Москва, 2000.
8. Ильин Е.П. Эмоции и чувства. – Санкт-Петербург: Питер, 2011.
9. Карвасарский Б.Д. Клиническая психология. – Санкт-Петербург: Питер, 2010.
10. Леонтьев Д.А. Психология смысла. – Москва: Смысл, 2007.
11. Маслоу А. Мотивация и личность. – Санкт-Петербург: Евразия, 1999.
12. Мэй Р. Искусство психологического консультирования. – Москва: Класс, 2001.
13. Плутчик Р. Эмоции и защитные механизмы личности. – Москва, 2003.

Babayeva Nazira Asatullayevna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o‘qituvchisi
E-mail. nbabaeva987@gmail.com

TUG‘RUQDAN KEYINGI DEPRESSIYA

Annotatsiya. *Ayol – millat kelajagi, hayot davomchisi.* Ayol – bu, eng avvalo, ONA! 9 oy davomida vujudida bolasini ko‘tarib yurgan ayolning ruhiyatida ona bo‘lgach o‘zgarishlar yuz beradi. Tug‘ruqdan keyingi depressiya - bu bola tug‘ilgandan keyin ayollarda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan psixologik holat. Tug‘ruqdan keyingi depressiyaga bir nechta omillar sabab bo'ladi: fiziologik, gormonal, psixologik va ijtimoiy. Kasallikni davolash. Tug‘ruqdan keyingi depressiyani eng oson davosi bu - yetarlicha uyqu, yetarlicha ovqatlanish va yetarlicha g‘amxo‘rlik qilishdir. Shunday ekan, ayolni e‘zozlang, ayolni qadrlang, ayolga mehr-muhabbat bering.

Kalit so‘zlar: *Ayol, hayot davomchisi, tug‘ruqdan keyingi depressiya, tug‘ruqdan keyingi depressiya omillari, sabablari va davosi.*

ПОСЛЕРОДОВАЯ ДЕПРЕССИЯ

Аннотация. *Женщина – будущее нации, продолжательница жизни. Женщина – это прежде всего МАТЬ! Женщина, вынашивающая в своем теле ребенка 9 месяцев, после того, как стала матерью, претерпевает изменения в своей психике. Послеродовая депрессия – это психологическое состояние, которое может возникнуть у женщин после родов. Послеродовая депрессия вызывается несколькими факторами: физиологическими, гормональными, психологическими и социальными. Лечение заболевания. Самый простой способ лечения послеродовой депрессии — это высыпаться, хорошо питаться и заботиться о себе. Поэтому уважайте женщину, цените женщину, дарите ей любовь.*

Ключевые слова: *Женщина, пережившая роды, послеродовая депрессия, факторы, причины и лечение послеродовой депрессии.*

POSTPARTUM DEPRESSION

Abstract. *A woman is the future of the nation, the continuer of life. A woman is first and foremost a MOTHER! A woman who carries a child in her body for 9 months, after becoming a mother, undergoes changes in her psyche. Postpartum depression is a psychological condition that can occur in women after childbirth. Postpartum depression is caused by several factors: physiological, hormonal, psychological and social. Treatment of the disease. The easiest way to treat postpartum depression is to get enough sleep, eat well, and take care of yourself. Therefore, respect a woman, appreciate a woman, give her love.*

Key words: *Woman who survived childbirth, postpartum depression, factors, causes and treatment of postpartum depression.*

Kirish. Ayol bir qo‘li bilan – beshikni, bir qo‘li bilan dunyoni tebratadi, deydilar. Farzandni dunyoga keltirish va barkamol qilib o‘stirish ota-onadan ko‘p mehnat talab qiladi. Farzandning halol-pok, tartib-intizomli, mehnatsevar bo‘lib o‘sishida onaning o‘rnini hech narsa bilan qiyoslab bo‘lmaydi. [1]

Jahon tibbiyotida ayollarning homiladorlik davrida kechadigan ruhiy-emotsional o‘zgarishlarining tug‘ruq jarayoniga ta’siri yuqori ekanligi alohida o‘rin egallaydi. Ma’lumki, ayollarning emotsional holati nafaqat homiladorlik kechishiga balki tug‘ruq sifatiga va bolaning o‘zini o‘zi his qilishiga ham ta’sir etadi. Psixologlar va psixofiziologlar bola va ona o‘rtasida o‘zaro emotsional bog‘liqlik borligini aniqlaganlar. Ularning ta’kidlashlaricha, hali tug‘ilmagan bolaning o‘z-o‘zini his qilishi - onasining emotsional holatiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Zero, qadim – qadimdan homilador ayollarga nisbatan munosabatlar o‘zgacha bo‘lib, bu davr bo‘lajak ona hayotining muhim qismi sifatida qaralgan. Misrliklar, hindular, keltlar, afrikaliklar va boshqa xalqlarda ham homila sog‘lom shakllanishini ta’minlash maqsadida homilador ayol, emizikli ayol uchun barcha shart-sharoitlarni mujassamlashtirilishi nazarda tutilgan maxsus qonun ishlab chiqilgan. Bundan ming yillar ilgari Xitoyda prenatal klinikalar mavjud bo‘lib, u yerda tug‘ilajak farzandlarning sog‘lom va ko‘rkam bo‘lishlarini

ta’minlash niyatida bo‘lg‘usi onalarga osoyishtalik, xotirjamlik, nafislikka qaratilgan sharoit yaratilganki, unda ona va bola uchun hamma imkoniyatlar yaratilgan.[7]

Amerikalik psixolog olim Jeykob Liberman: “Yigirma birinchi asr – rivojlangan texnologiya va ruhiy-asab kasalliklari davri,” - deya ta'kidlaganda, ko'pchilik unga shubha bilan qarashgan. Bugun esa olimning naqadar haqligini barchamiz kuzatib turibmiz…

Ayol – bu, eng avvalo, ONA! 9 oy davomida vujudida bolasini ko‘tarib yurgan ayolning ruhiyatida ona bo‘lgach o‘zgarishlar yuz beradi. Har bir onaning hayotidagi eng muhim va ayni paytda qiyin davrlardan biri bu tug‘ruqdan keyingi davr bo‘lib, u turli xil hissiy o‘zgarishlar, shu jumladan tug‘ruqdan keyingi depressiya bilan birga bo‘lishi mumkin.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, tug‘ruqdan keyin ayollarning kamida 13 foizi depressiyani boshdan kechiradi. Shu bilan birga, bemorlarning deyarli to‘rtdan uch qismi hatto kasal ekanliklariga shubha ham qilmaydi. Bu juda xavflidir, chunki tug‘ruqdan keyingi depressiya hayot uchun xatarli holat bo‘lib, ba‘zida o‘z joniga qasd qilishga olib kelishi mumkin. O‘z vaqtida choralar ko‘rish va shifokor, psixolog bilan maslahatlashish uchun nafaqat ayolning o‘zi, balki uning yaqinlari uchun ham depressiya rivojlanishining alomatlarini bilish juda muhim: bu holat o‘z-o‘zidan o'tib ketmaydi.

Depressiyada ko'p kuzatiladigan asosiy ruhiy-hissiy buzilishlar – bular kayfiyatning tushib ketishi, umidsizlik, g'am-g'ussa, doimiy xavotir, yomon voqealarni kutib yashash, aybdorlik hissi yoki o'zini ha deb ayblayverish, qaysarlik, o'jarlik, o'z bilganidan qolmaslik, o'z hayotidan qoniqmaslik va o'zini kamsitish, atrofdagi voqealar va yaqinlariga qiziqishning yo'qolishidir. Depressiyaga chalingan odamlarning kayfiyati kun bo'yi o'zgarib turishi mumkin.

Asosiy qism. Rossiyada «Лада» nomli “Homiladorlik va onalikni qo‘llab-quvvatlash” markazi tomonidan o‘tkazilgan mustaqil tadqiqotga ko‘ra, ayollarning 82,5 foizi chaqaloq tug‘ilgandan keyin yordamga muhtoj. Shuningdek, 1500 respondentdan: ayollarning 60 foizi tug‘ilgandan so‘ng darhol hissiy holatidan shikoyat qilgan, 52 foizi jismoniy tiklanish bilan bog‘liq muammolarga duch kelgan, 44 foizi emizishdagi qiyinchiliklardan shikoyat qilgan, 22,5 foizi bola bilan muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch kelgan. So‘rovda qatnashgan har 15 ayol o‘ziga yoki farzandiga zarar yetkazmoqchi bo‘lgan. Bunday ma'lumotlar haqiqatan ham qo'rqinchli[4].

Xo‘sh, tug‘ruqdan keyingi depressiya nima?

Tug‘ruqdan keyingi depressiya - bu bola tug‘ilgandan keyin ayollarda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan psixologik holat. Bu uzoq vaqt davomida qayg‘u, apatiya, charchoq va hayotga qiziqishning yo‘qolishi, shu jumladan yangi tug‘ilgan chaqaloqqa g‘amxo‘rlik qilish bilan tavsiflanadi.

Tug‘ruqdan keyingi depressiyaga bir nechta omillar sabab bo‘ladi: fiziologik, gormonal, psixologik va ijtimoiy.

Yuqori daromadga ega rivojlangan mamlakatlarda har o‘ninchi ayol tug‘ruqdan keyingi depressiyadan aziyat chekadi. Kamroq farovon mamlakatlarda esa - har beshinchi ayolda uchrashi mumkin.

Tug‘ruqdan keyingi stressning nisbatan tez o‘tadigan va hayotdagi o‘zgarishlarga normal reaksiyasi deb hisoblanadigan yengil shakldan farqli o‘laroq, tug‘ruqdan keyingi depressiya mutaxassislarning e‘tiborini talab qiladigan yanada jiddiy va chuqur holatdir.

Bu holat e‘tibor va tushunishni talab qiladigan muhim mavzudir, chunki u nafaqat ayolga, balki uning bolasiga, shuningdek, butun oila tarkibiga ta‘sir qiladi.

Tug‘ruqdan keyingi depressiya belgilari har xil bo‘lishi mumkin, lekin odatda ayolning hissiy holati, xatti-harakati va jismoniy salomatligiga ta‘sir qiladi. Tug‘ruqdan keyingi depressiyaning o‘ziga xos xususiyati uning davomiyligi va belgilarining intensivligi bo‘lib, kundalik hayotga va oilaviy munosabatlarga jiddiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Tug‘ruqdan keyingi depressiya onalikdagi zaiflik yoki muvaffaqiyatsizlik belgisi emasligini tushunish kerak. Bu yoshi, bolalar soni yoki ijtimoiy mavqeidan qat‘i nazar, har qanday ayolga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan jiddiy kasallikdir. Asosiysi, simptomlarni o‘z vaqtida aniqlash va malakali yordam so‘rash.[2]

Tug‘ruqdan keying depressiya sabablari juda ko‘p.

*Eng katta sabablaridan biri bu bola tug‘ilgandan so‘ng, ayolning tanasi gormonlar darajasida sezilarli o‘zgarishlarga uchraydi. Estrogen va progesteron kabi gormonlarning keskin pasayishi, shuningdek, qalqonsimon gormonlar darajasining o‘zgarishi kayfiyatga ta‘sir qilishi va depressiyaga hissa qo‘shishi mumkin.

*Bundan tashqari, tug‘ruqdan keyingi jismoniy o‘zgarishlar, masalan, charchoq, vazn o‘zgarishi va uyqu muammolari ham depressiyani yomonlashtirishi mumkin.

*Yana bir sababi, oddiy ishlaydigan oilada ona va bola, bola va ona o‘rtasida paydo bo‘ladigan munosabatni erkak, oila boshlig‘i o‘z zimmasiga olishi va tushunishi kerak. Ammo ko‘pincha erkak bolaning tug‘ilishiga psixologik jihatdan tayyor emas va xotinidan e‘tibor va jinsiy aloqa yetishmasligidan xafa bo‘ladi. Bunda ayol, yaxshi ona va yaxshi rafiqa emasligidan o‘zini ayblab tug‘ruqdan keyingi depressiyaning rivojlanishiga olib keladi.[3]

*Ayol o‘tmishda bo‘lib o‘tgan salbiy voqea-hodisalarni eslab depressiyani kuchaytirishi mumkin.

Yana boshqa sabablar bo‘lishi mumkin:

- Yaxshi ona bo‘la olmaslik gumoni;
- Iqtisodiy tanqislik;
- Qaynonaning bola parvarishiga aralashuvi;
- Erning e‘tiborsizligi;
- Biologik sabablar;
- Qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi;
- Bolalikdagi qiyin tajribalar;
- O‘ziga past baho berish;
- Stressli yashash sharoitlari;
- Asosiy hayotiy voqealar;[5]
- Ilgari depressiyani boshdan kechirganligi;
- Bolalikda ona bilan qiyin munosabatlar;
- Er bilan munosabatlarning qoniqarsizligi;
- O‘zini anglamaslik;
- Farzand haqida haddan ortiq ko‘p o‘ylash;
- Gallyutsinatsiya va xayolparastlik;
- Uyqu muammolari;
- Haddan ortiq asabiylashish;
- Boshqalar unga zarar yetkazishiga ishonish hissi;
- O‘ziga yoki chaqalog‘iga zarar yetkazishga urinishlar kuzatiladi.[6]

UNICEF tashkilotini ma‘lumotiga ko‘ra, onaga - oila, yaqinlar va do‘stlarning yaxshi yordami bilan bu his-tuyg‘ular odatda davolanishga muhtoj bo‘lmasdan taxminan ikki hafta ichida yo‘qoladi.[5]

KASALLIKNI DAVOLASH

Tug‘ruqdan keyingi depressiyani bizni mintaqamiz bo‘yicha eng oson davosi bu-yetarlicha uyqu, yetarlicha ovqatlanish va yetarlicha g‘amxo‘rlik qilishdir. Ana shu, siz-u biz uchun oddiy ko‘rinadigan jarayon orqali ona o‘zini tiklashi mumkin.

Tug‘ruqdan keyingi depressiyani davolash ayolning jismoniy va psixologik holatini hisobga oladigan kompleks yondashuvni talab qiladi. Asosiy usullarga psixoterapiya, dori-darmonlar va ijtimoiy yordam kiradi. Asosiy maqsad onaning psixo-emotsional farovonligini tiklash, uning bola bilan aloqasini mustahkamlash va oiladagi o‘zaro munosabatlarni qo‘llab-quvvatlashdir.

Psixoterapiya tug‘ruqdan keyingi depressiyani davolashning asosiy usullaridan biridir. Bunda ayol psixolog yoki shifokorga murojaat qilishi, psixolog ayollarga o‘z his-tuyg‘ularini tushunish va qayta ishlash, yengish strategiyalarini topish va boshqalar bilan munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi.

Shuni ta‘kidlash kerakki, tug‘ruqdan keyingi depressiya uchun psixoterapiya, agar u tug‘ilgandan keyingi dastlabki uch oyda boshlangan bo‘lsa, eng samarali bo'ladi.

Dori-darmonlar ko‘pincha psixoterapiya bilan birgalikda qo‘llaniladi, ayniqsa o‘rtacha va og‘ir depressiya holatlarida. Antidepressantlar miyadagi kimyoviy muvozanatni tuzatishga va simptomlarni yengillashtirishga yordam beradi. Shuni ta‘kidlash kerakki, preparat va dozani tanlash, ayolning individual xususiyatlari va ehtiyojlarini, shuningdek, emizishning mumkin bo‘lgan holatini hisobga olgan holda malakali tibbiyot mutaxassisi tomonidan amalga oshirilishi kerak.

Tug‘ruqdan keying depressiyani davolashda ijtimoiy yordam muhim rol o‘ynaydi. Yaqinlaringizni jalb qilish, qo‘llab-quvvatlash guruhlarida ishtirok etish yoki ijtimoiy ishchi bilan maslahatlashish ayolga o‘z tajribalarida kamroq izolyatsiya qilingan va ko‘proq qo‘llab-quvvatlanganini his qilishga yordam beradi.

Tug‘ruqdan keying depressiyani davolash nafaqat simptomlarni yo‘q qilish jarayoni, balki ayolning o‘zini tushunishi, energiyasini tiklashi va hayotda uyg‘unlikni topishi uchun imkoniyatdir.[2]

Xulosa. Ayollarning tanasidagi og‘riq retseptorlari erkaklarnikiga qaraganda ikki baravar ko‘p hisoblanadi, ammo ularning og‘riqqa chidamlilik ko‘rsatkichi erkaklarnikiga qaraganda yuqori bo‘ladi. Xotira faoliyatini yaxshilashga xizmat qiluvchi estrogen gormoni erkaklarning ham, ayollarning ham organizmida mavjud bo‘lib, ayollarda nisbatan ko‘proq uchraydi. Jufti halolini 20 soniya davomida quchoqlash, ularda kuchli baxtiyorlik hissi hamda o‘ziga bo‘lgan ishonchni uyg‘otadi.

“Quality Value Convenience” nomli televizion kanal tomonidan o‘tkazilgan so’rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, Buyuk Britaniyalik ayollar kun davomida to‘qqiz marotaba o‘zlarining tashqi qiyofalari to‘g‘risida o‘ylaydi, hamda hech bo‘lmaganda, lab bo‘yog‘idan foydalanmasdan turib uydan chiqmaydi. Ayollarning 30 foizi o‘ziga oro berishni uyquga ketishdan oldin amalga oshiriladigan asosiy jarayon deb ta‘kidlaydi, 16 foizi esa, uyqudan uyg‘onish bilanoq bajarilishi lozim bo‘lgan faoliyat turi sifatida qaraydi.

Chindan ham, beshikdan allomalar yetishib chiqishida, dunyoning dunyo bo‘lishida ayolning o‘rni muhim. Biz hayotimiz mazmuni bo‘lgan sevgi va sadoqat, mehr-muhabbat, nazokat va latofat kabi eng nozik, sirli tuyg‘ularni Yaratganimizning beqiyos mo‘jizasi bo‘lmish ayol zotisiz aslo tasavvur eta olmaymiz.

Shunday ekan, ayolni e’zozlang, ayolni qadrlang, ayolga mehr-muhabbat bering.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muxtorova Nisora Murodillaevna. Istiqbol mahalla fuqarolar yig‘ini, xotin-qizlar faoli. “Ayol bor dunyoda baxt bor iqbol bor”. 21.02.2023 yil
2. Tug‘ruqdan so‘ngi depressiya. 111033, Moskva, Volochaevskaya ko'chasi. Yauzadagi 15 k. Medskan kasalxonasi. Moskva 2023
3. Послеродовая депрессия. Причины, симптомы, лечение. Официальный сайт психоаналитического психолога Дмитрия Басова. 2023
4. Послеродовая депрессия: Ты не одна. 14.11.2023 © Holdyou
5. “Tug’ruqdan keyingi depressiya”. Mendi Richning intervyusi va maqolasi, UNICEFning raqamli kontent muallifi 2021
6. Zilola G‘aybullayeva, Kun.uz muxbiri 2024
7. Луқмонов А.С. “Ҳомиладорлик даврида аёллардаги эмоционал ҳолатлар намоён этилишининг ижтимоий-психологик хусусиятлари” // психология фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2023. – 123 б.

Назаров Фарход Аллабердиевич
Термезский государственный университет
«Факультет национальной одежды и искусства»
Преподаватель кафедры музыкального образования

ВОСПИТАНИЕ НАРОДНОЙ МОЛОДЕЖИ КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ МЕТОДИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА (НА ПРИМЕРЕ БУХАРСКОГО ДЕТСКОГО ФОЛЬКЛОРА)

Аннотация. В статье обсуждается важность обучения фолклорным песням, а также психологический подход к ним. О важности психологических факторов в формировании музыкального воображения читателей, слушающих фолклорные песни, говорится о трудах наших предков. *В настоящей статье изучены характерные особенности бухарских фольклорных образцов. Указано уникальное воспитательное-дидактическое значение бухарского фольклорного ансамбля, что положительно сказывается на эстетическом воспитании учащихся, внедрении национальных ценностей, традиций предков и формировании гармонично развитой личности. Проанализированы научные и методологические источники музыкально-эстетического воспитания и опыт развитых стран. Даны основы народных песен узбекского народа. Использованы методы и формы педагогической и методологической работы.*

Ключевые слова: бухарский фолклор, психология, песня, культурное наследие, музыка, ритм, музыкальное воображение, традиция, ценность.

EDUCATION OF PEOPLE'S YOUTH AS A PSYCHOLOGICAL METHODICAL PROBLEM (BY THE EXAMPLE OF BUKHARA CHILDREN'S FOLKLORE)

Annotation. *The article discusses the importance of teaching folk songs, as well as the psychological approach to them. The importance of psychological factors in the formation of the musical imagination of readers listening to folk songs is discussed in the works of our ancestors. This article studies the characteristic features of Bukhara folklore samples. The unique educational and didactic significance of the Bukhara folklore ensemble is indicated, which has a positive effect on the aesthetic education of students, the introduction of national values, traditions of ancestors and the formation of a harmoniously developed personality. The scientific and methodological sources of musical and aesthetic education and the experience of developed countries are analyzed. The basics of folk songs of the Uzbek people are given. Methods and forms of pedagogical and methodological work were used.*

Key words: *Bukhara folklore, psychology, song, cultural heritage, music, rhythm, musical imagination, tradition, value.*

XALQ YOSHLARINING TARBIYASI PSIXOLOGIK METODIK MAMAMLA OLARAK (BUXORO BOLALAR FOLKLORI NAMUNA BILAN)

Annotatsiya. *Maqolada xalq qo‘shiqlarini o‘rgatishning ahamiyati, ularga psixologik yondashuv haqida so‘z boradi. Ajdodlarimiz ijodida xalq qo‘shiqlarini tinglovchi kitobxonlarning musiqiy tasavvurini shakllantirishda psixologik omillarning ahamiyati haqida so‘z boradi. Ushbu maqolada Buxoro folklor namunalarining o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganiladi. Buxoro folklor ansambli o‘quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalash, milliy qadriyatlar, ajdodlar an’analarini singdirish va barkamol shaxsni shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotgan o‘ziga xos tarbiyaviy-didaktik ahamiyati ko‘rsatilgan. Musiqiy-estetik tarbiyaning ilmiy-uslubiy manbalari, rivojlangan mamlakatlar tajribasi tahlil qilingan. O‘zbek xalqi xalq qo‘shiqlarining asoslari berilgan. Pedagogik va uslubiy ishning uslub va shakllaridan foydalanildi.*

Tayanch so‘zlar: *Buxoro xalq og‘zaki ijodi, psixologiya, qo‘shiq, madaniy meros, musiqa, ritm, musiqiy tasavvur, an’ana, qadriyat.*

Одной из основных задач в процессе музыкального образования является широкое использование возможностей психологического воздействия при выражении ситуации, связанной с формированием в сознании учащихся первоначальных представлений о фолклорных песнях, выражающих менталитет нашего народа.

С этой точки зрения человек, стремящийся к гармоничному развитию, должен на высоком уровне воспринимать и функционировать в соответствии с социальными и духовными

достижениями общества, уважать интересы общества в соответствии со своим трудом и духовностью, уметь эмоционально и интеллектуально воспринимать произведения искусства. Это поможет ему расширить кругозор, создав возможность воспринимать, чувствовать и понимать древние ценности, в том числе фолклорные песни.

Формирование, развитие музыкального воображения, проявление предрасположенности к овладению народным музыкальным фольклором, а также их чувство, выраженное в нем, способствуют их эстетическому воспитанию. Благодаря внутренним переживаниям и волнениям, выраженным в исполняемых фолклорских песнях, у учеников развиваются такие качества, как патриотизм, национализм, преданность людям, гуманность, трудолюбие, а в их духовном состоянии происходят резкие положительные изменения. Известный психолог А. Маслоу назвал это «вершиной переживаний», а Л. С. Вигоцкий - «чудом искусства». В результате глубокого изучения образцов музыкального фольклора у учащихся возникает катарсис. (Катарсис, то есть они чувствуют « духовное наслаждение»).

Особенности образцов бухарского музыкального фольклора: своеобразие национальных мелодий, воодушевленность, привлекательность, выражение национальных качеств через особенности звукообразования, характерные для фольклорного пения, структура формы песен, отражение в сознании личности закономерностей развития национальной песни выражается в «ярком изображении этнического образа жизни и национальных ценностей с помощью текста песен »

В сокровищнице узбекского народного музыкального наследия важное место занимают народные музыкальные произведения, детские песни, сочетающие в себе духовный мир взрослых и детей раннего возраста. Такие песни характеризуются детской жизнью, психикой, детскими играми, сплетнями, животными и растениями. Детские песни, как и народные песни, имеют художественное и эмоциональное содержание, а текст приобретает своеобразие благодаря своему простому, чрезвычайно компактному характеру.

В начальных классах общеобразовательных школ важную роль играет формирование национальной основы музыкального образования и психологический подход к обучению бухарским детским народным песням, мелодиям и легким стихам, которые больше связаны с детским мышлением. Таким образом, целенаправленное использование на музыкальных занятиях бухарских детских фольклорных песен, содержащих национальное музыкальное наследие нашего народа, применение методов их исполнения с учетом их целей и содержания требует от каждого учителя музыки своего педагогического подхода, знаний и мастерства.

Мы знаем, что Республика Узбекистан разделена на пять местных стилей: Бухара - Самарканд, Кашкадарья - Сурхандарья, Ферганская родина - Ташкент, Хорезм и Каракалпакия. Эти оазисы отличаются друг от друга обычаями, традициями, свадебными церемониями, песнями и мелодиями.

Например, бухарские детские народные песни исполняются на двух языках (как узбекском, так и таджикском), в отличие от других оазисов, танцевальных песен, головоломок, чистонов.

Пример Бухарских детских фольклорных песен:

1. Песня Бобожон
2. Песня идет
3. Народная нефть Занжира бофтем
4. Юмористическая песня Чи гум шудас
5. Песнь Бузг ола
6. Сундук Сандурчая
7. Песня О моя нога
8. Солинав Мубарак
9. Пение Дупар газит
10. Песня. Учтурбачамон.

Ha do`rsa - do`rsa, do`rsa



Ha do`rsa - do`rsa, do`rsa,
Otasi bozorga borsa.
Go`shtu - birinj keltirsa - ye,
Onasi pazanda bo`lsa.
Go`shtu - birinj keltirsa - ye,
Bolasi xo`randa bo`lsa.

Ha dika - dika, dikosi,
Magazinni viskosi.
Olib bersin dadasi,
Tikib bersin onasi.
Olib bersin dadasi,
Kiyib yursin bolasi.

Bozordan oldim poza,
Buncha bu bacha toza.
Bu bachani toza qilgan,
Onasi ham ozoda.
Bu bachani toza qilgan,
Onasi ham ozoda.

Bozordan oldim mayiz,
Buncha bu bachcha aziz.
Bu bachchani aziz qilgan,
Otasi ham betamiz,
Betamiz, betamiz.

Песня Бобожона

Дети издалека смотрят на деда и подходят к нему, здороваются с ним, затем просят его рассказать сказку. Дедушка « не любит, а заставляет его рассказывать сказки ».

Н-т

Бобо бобо пештар бет,
Дамо яктет ушуг гуед
Бобо-бобо бобочае

Фалак-фалак зомичае.
Нукра-нукра намакдоне
Тилло –тилло сўзандоне.
Н-т:
Бобо бобо пештар бет,
Дамо яктет ушуг гуед
Кашвак- кашваки сурхане
Да пойга – пойга монаме
Салли-Сали симобине
Да бухча-бухча монаме.
Н-т:
Бобо бобо пештар бет,
Дамо яктет ушуг гуед
Ҳамма Бобожон эртак айтиб беринг.

Так исполняются песни.

Ознакомление учащихся начальных классов с образцами народной музыки и бухарского детского фольклора требует, прежде всего, самоотверженности в своей профессии, глубокой любви к народному музыкальному творчеству и высокого уровня профессионализма. Следует отметить, что эффективное применение бухарских детских фольклорных песен в процессе урока включает в себя психологический подход и положительное решение ряда задач.

В заключение, создание педагогической и методической системы воспитания музыкальной культуры, духовной и художественно-эстетической молодежи посредством бухарских детских фольклорных песен, психологический подход к детям через песни, изучение их характера и опыт, накопленный по сей день, изучение деятельности фольклорно-этнографических ансамблей, действующих в различных областях, сбор образцов, относящихся к бухарскому детскому фольклору в их репертуаре, укрепление национальных основ музыкального образования путем обобщения и внедрения образовательного процесса.

Литература

1.Ш.М.Мирзиёевнинг маърузасидан Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетасининг 2017 йил 4 августда 32 (4431)-сонида чоп этилган.

2. Сафаров О. Ўзбек болалар фольклори.Т:Ўқитувчи 1985йил.

3. Д.Ражабов ва Т.Ражабов “Халқ қўшиғи ва мусиқа ижрочилиги” Тошкент “Наврўз” нашриёти 2018 йил.

4 Tukhtasin Ibodovich Rajabov Effectiveness of the process of teaching Bukhara children folk songs in music class https://www.eurchembull.com/issue-content/effectiveness-of-the-process-of-teaching-bukhara-children-folk-songs-in-music-class-7277 ECB European Chemical Bulletin.ISSN 2063-5346 Eur.Chem. Bull. 2023, 12 (Special Issue 4), 16389-16397

5. Tukhtasin Ibodovich Rajabov ВОЗМОЖНОСТИ СОВЕРШЕНСТ- ВОВАНИЯ ПРОЦЕССА ОБУЧЕНИЯ УЗБЕКИСКОМУ МУЗЫКАЛЬНОМУ ФОЛЬКЛОРУ Образование и инновационные исследования (2023 год №7) ISSN 2181-1717(E) http://interscience.uz международный научно - методический журнал

6. Tukhtasin Ibodovich Rajabov Distinctive Features of Folk Songs That Serve in The Spiritual and Moral Formation of Pupils International Journal of Culture and Modernity https://ijcm.academic-journal.io ISSN 2697-2131,Volume 29/ Jun-2023

7. Tukhtasin Ibodovich Rajabov The Role of Folk Songs in Children's Education MIDDLE EUROPEAN SCIENTIFIC BULLETIN ISSN 2694-9970 https://cejsr.academicjournal.io Middle European Scientific Bulletin, Volume 37 | June-2023.

8. Tukhtasin Ibodovich Rajabov Изучение узбекских фолклорных народных песен и их психоло- гическое влияние. Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axbototnomasi 2 son, 2023 yil 127-130- bet

9. Tukhtasin Ibodovich Rajabov Тематическая классификация узбекскогодетского музыкально-игрового фольклора. 10.47689/2181-1415-vol4-iss5/S-pp340-345 «Жамият ва инновациялар» журнали (www.inscience.uz Том 4 № 5/S (2023): Спецвыпуск междисциплинарного электронного научного журнала «Общество и инновации»

Beknazarova Lola Sadinovna
Qarshi davlat universiteti psixologiya kafedrasi professori,
psixologiya fanlari nomzodi

IJODKORLIK IJODIY-INNOVATSION TA'LIM SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING MANBAI SIFATIDA

Аннотация. *Maqolada ijodkorlik asosida ijodiy-innovatsion ta'limning samarali bo'lishini ta'minlovchi ta'lim jarayonini samarali tashkil etishning muhim ijtimoiy-psixologik jihatlari sifatida ko'rsatib o'tilgan.*

Tayanch iboralar: *ijod, ijodkorlik, ijodiy-innovatsiya, psixologik-xususiyat, ta'lim, muammo, ijtimoiy faoliyat, bilim, ko'nikma, malaka intellektual, individual.*

CREATIVITY AS A SOURCE OF IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF CREATIVE-INNOVATIVE EDUCATION

Annotation. *The article shows the important socio-psychological aspects of the effective organization of the educational process, which ensures the effectiveness of creative-innovative education based on creativity.*

Keywords: *creation, creativity, creative-innovation, psychological-characteristic, education, problem, social activity, knowledge, skill, skill, intellectual, individual.*

ТВОРЧЕСТВО КАК ИСТОЧНИК ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ТВОРЧЕСКО-ИННОВАЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В статье показаны важные социально-психологические аспекты эффективной организации образовательного процесса, обеспечивающей результативность творчески-инновационного образования, основанного на творчестве.*

Ключевые слова: *творчество, творчество, творчески-новаторский, психолого-характеристика, образование, проблема, социальная деятельность, знание, умение, умение, интеллектуальный, индивидуум.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim berishning maqsadi–barkamol shaxslarni shakllantirishga, insonning biror sohaga tegishli qobiliyatlarini to'liq rivojlantirishga shuningdek, turli faoliyat va fikrlash usullarini o'zlashtirishga qaratilgan, maqsadli jarayondir. Bugungi kunda jamiyatning barcha sohalarini innovatsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Oliy o'quv yurtlaridagi innovatsiyalar, ta'lim sifatini oshirishga, muayyan oliy ta'lim muassasasining ta'lim xizmatlari bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Innovatsion faoliyat insonga ko'plab yangiliklarni o'zlashtirishga imkon beradi. Bu esa, o'z-o'zidan ijodiy-innovatsion ta'limning maqsad va vazifalarini keng yoritish, ta'lim subyektlarining intellektual imkoniyatlarini psixologik baholash kabi ishlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Adabiyotlar tahlili. S.R.Yagolkovskiyning yozishicha, innovatsion - ijodkor inson – bu jamiyatdagi hayotiy vaziyatlarga mohirona moslasha olgan bilim, ko'nikma va malakalaridan samarali foydalana oluvchi, ijodiy fikrlashga ega, tanqidiy baho beruvchi, turli manbalardan olingan ma'lumotlarni ajrata biluvchi, so'ngra ularni qayta ishlab chiqa oluvchi, shuningdek, o'z-o'zini takomillashtira olish kabi qator ijtimoiy-psixologik sifatlarga ega bo'lgan shaxsdir[5]. Shunday tadqiqotlar mavjudki, unda ijodkorlik va yaratuvchanlikni xususiyatlarini, tafakkurning sifatlari bilan bog'lab tushuntirishga harakat qilingan.

Xorij tadqiqodchilaridan K.Spirman ijodkorlikni inson tafakkurining kuchi deb hisoblaydi. Muallifning aytishicha, "Ijodkorlik – bu mahsuldor fikrlash, intellektuallik va individual xususiyatlarni jalb qiluvchi umumiy qobiliyatdir". Shuningdek, "ijodiy jarayon muammoni qabul qilish, qaror qabul qilish, faraz qo'ya olish, uni o'zgartirish va yechim topa bilish bilan tavsiflanadi".[4] Mazkur ilmiy qarashga muvofiq, ijodkorlik ilmiy bilim darajasida ko'rib chiqilishi lozim.

Ijodiy ta'lim muammosi bo'yicha, etakchi mutaxassis D.A.Ivanovning fikricha, "samarali ijodiy ta'limni tashkil etishda, determinantlar nuqtai-nazaridan yondashish ahamiyatli bo'lib, unga ko'ra, umumta'lim maktablaridagi ta'lim sifati, ta'lim natijalarini yaxshilash, o'quvchining qabul qilish miqdori emas, balki uni amalga oshirish usullari va yo'llariga ham uzviy aloqador hisoblanadi" [2]. Demak, bu yerda asosiy muammo o'quvchining fanga bo'lgan munosabatini ijodiy fikrlash orqali shakllantirishni, sohaga oid nazariy bilimlarini hayotda qo'llay olish va o'quvchilarning "oddiy

malaka"larini "determinantlarga" aylantirish maqsad qilinadi. Xuddi shunga yaqin fikrlarni O.E.Lebedevning izlanishlarida ham uchratish mumkin. Muallifning aytishicha, o'quvchilarda ijodkorlik va yaratuvchanlik sifatlarini rivojlantirish, asosan ta'limda determinant sifatida yondashuvni talab etib, uning mazmuni quyidagilarda o'z aksini topadi:[1]

– ta'lim – o'quvchining o'z ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga, ularning ijtimoiy tajribasidan foydalangan holda, hayotning turli sohalaridagi vaziyatlarni yechish yo'llarini o'rgata olishi;

– ta'lim mazmuniga kognitiv, ijtimoiy-huquqiy, innovatsion, o'quv materiallarining mavjud bo'lishi;


– ta'lim – o'quvchining kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirishga, turli muammolarni mustaqil ravishda hal qilishga o'rgatishga qaratilmog'i lozim;

– ta'lim natijasini baholash esa, ko'proq ta'lim darajasi hamda o'quvchilarning ma'lum bir davrdagi, muvaffaqiyati bo'yicha olib borilgan tahlillarga asoslanishi va hokazo. Demak, ushbu yondashuvga muvofiq, ijodiy - innovatsion ta'limni tashkil etish, nafaqat yangi, mantiqiy fikrlashga undovchi usullarga balki, ta'lim oluvchilarni original fikrlashga, nostandart qaror qabul qilishga imkoniyat beruvchi "determinantlar"ga ham uzviy bog'liq ekanligini ko'rish mumkin.

Umuman olganda, ijodiy mas'uliyat hodisasi – murakkab jarayon bo'lib, uni shakllantirish avvalambor, ijodiy bilim va ko'nikmalarni puxta egallash, topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish, soha sirlaridan yetarli darajada xabardor bo'lish, fanga oid zamonaviy tushunchalar va ilg'or konsepsiyalar bilan tanishish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish determinantlariga ega bo'lish kabilar bilan tavsiflanadi. Ijodkorlik - bu inson hayoti davomida o'z-o'zini bilishga intilish. Inson hayotda to'g'ri yo'lni topish uchun, to'g'ri fikr yuritishni, mustaqil ravishda sifatli, asosli qarorlar qabul qilishni o'rganishi kerak. Har bir inson qobiliyatini rivojlantirish, uning susayishiga yo'l qo'ymaslik uning ma'naviy quvvatini mustahkamlashga, hayotda o'z o'rnini topishiga xizmat qiladi.

A.I.Rasulovning ta'kidlashicha, o'qituvchi bilan o'quvchilarning o'zaro munosabatlari "o'qituvchi-o'quvchi" pedagogik – psixologik, ijtimoiy-psixologik rollaridan kelib chiqqan holda tarkib topgan bo'lib, ular o'rtasidagi "subyekt-obyekt" qabilidagi munosabat uning mohiyatini oldindan belgilab berishning imkoniyatiga egadir, chunki ta'limda subyektlar o'rtasidagi o'zaro munosabatda cheklanishning mavjudligini ko'rsatadi. O'quvchi buni "birinchi" bo'lib his qiladi va shunga muvofiq ravishda o'qituvchilar shaxsini baholaydi. Bu esa o'qituvchining muomalada teng huquqli sherik hamda maslakdosh sifatida baholanishga muayyan darajada quyi baho olishga olib keladi.[3] Darhaqiqat, muallifning mazkur qarashlariga muvofiq, o'qituvchilarning o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarida, quyidagi shaxslilik va individlilik xususiyatlari: nevrotizmning o'rtacha darajasi, kuchsiz depressivlik, vijdonlilikning yuqori darajasi, turg'unlashuv, xulqdagi ehtiyotkorlik, konformlik, muloqotmandlikning yuqori bahoga egaligi, bevosita hissiy hamda intuitiv mulohaza yuritishga moyillik, nazokatlilikning o'rtacha ko'rsatkichi kabilar namoyon bo'lishi nazarda tutiladi.

Rasm-1



Yuqorida keltirilgan fikrlarga ko'ra biz ham oliy o'quv yurtlarida ijodiy-innovatsion ta'lim samaradorligini takomillashtirishning ijtimoiy psixologik determinantlarini aniqlash maqsadida tadqiqot uchun tanlab olingan talabalar hamda pedagoglarda N.Vishniyakovaning "Ijodkorlikning

psixologik xususiyatlari"ni aniqlash va E.Tunikning "Shaxs ijodkorligining to'rt yo'nalishini aniqlash" metodikalari yordamida natijalar olishga harakat qildik.


N.F.Vishyakovaning sinaluvchilardan ijodkorlikning psixologik xususiyatlarini aniqlash darajasi so'rovnomasi bo'yicha olingan natijalari taqdim qilingan (1-rasm).

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, ijodiy-innovatsion ta'lim samaradorligiga erishish - innovatsion faoliyat mazmunida talaba shaxsiga xos o'zini o'zi rivojlantirish, tolerantlilik, mas'uliyatlilik, ijtimoiy faollik, kommunikativlik, yuqori darajadagi ijtimoiy intellekt hamda ishbilarmonlik kabi sifatlar innovatsion faoliyatni tashkil etishning zaruriy unsurlaridan biri hisoblanadi.

Ijodkorlikning psixologik xususiyatlarini aniqlash so'rovnomasi natijalariga bo'yicha Termiz davlat universitetida tahsil oluvchi talabalarda ikki oliygoh talabalariga qaraganda yuqoriroq natijalar kuzatilgan.

Keyingi keltirilgan jadvalda sinaluvchilardan E.Tunikning "Shaxs ijodkorligining to'rt yo'nalishini aniqlash" xususiyatlari darajasi so'rovnomasi bo'yicha olingan natijalari taqdim qilingan (2-rasm).

Rasm-2




Shaxs ijodkorligining to'rt yo'nalishi xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan so'rovnoma bo'yicha Samarqand davlat universiteti talabalarida Qarshi va Termiz davlat universitetlarida tahsil oluvchi talabalarga qaraganda natijalar ijobiy va yuqoriroq kuzatilganligi ma'lum bo'lgan. Hozirgi davrda talabalarning ta'lim jarayoniga ijodiy-innovatsion yondoshuvi egalayotgan sohasi uchun zarur bilimlarni egallashi, buning uchun, avvalo, shaxsiy qaror qabul qilishi lozim.

Shuningdek, bu turdagi dolzarb masalalarni tadqiq etishda oliy o'quv yurti pedagoglar faoliyatiga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Rasm-3


Quyida keltirilgan rasmda pedagog shaxsining ijodkorlik xususiyatlarini aniqlash so'rovnomasi natijalari keltirilgan



Ushbu metodika bo‘yicha ko‘rsatilgan natijalar pedagoglarda ijodkorlik faoliyati bugungi kun talablari asosida ta’lim jarayoniga ijodiy-innovatsion yondoshishda unchalik katta farqlar kuzatilmadi.

Keyingi keltirilgan jadvalda sinaluvchilardan ijodkorlikning to’rt yo’nalish xususiyatlari darajasi so’rovnomasi bo’yicha olingan natijalari taqdim qilingan

Rasm-4



Pedagoglar ijodkorlik xususiyatlarini aniqlash metodikasi bo’yicha ularning bergan mulohazalari ijodkorlikdan qay darajada foydalana olish bilim ko’nikmalarning shakllanganligidan dalolat beradi. Metodikadan olingan natijalar pedagoglarning subyektiv munosabatini aks ettirishga xizmat qiladi va kundalik turmushga qay darajada kirib borganligini belgilashga xizmat qiladi.

Innovatsiyalar jamiyat ijtimoiy va madaniy taraqqiyotining muhim xususiyati sifatida uning to‘la qaytadan qurilishiga olib kelmoqda. Buning natijasida innovatsion ong, innovatsion-ijodiy yondashuv, innovatsion faoliyat va ularga asoslangan innovatsion jamiyat shakllanmoqda. Jamiyatda modernizatsiya va innovatsiya jarayonlarining ildizlari aslida insoniyat tarixining ilk davrlariga borib taqaladi. Chunki modernizatsiya va uning natijasida innovatsiyalarning tarqalishi tarixiy jarayonning barcha bosqichlarida ham mavjud bo‘lgan, aks holda progressiv taraqqiyotning o‘zi amalga oshmagan bo‘lar edi.

Ijodkorligini aniqlash metodikasi orqali olingan natijalarda ham pedagoglar jamoasidan olingan natijalarga e’tibor qaratadigan bo’lsak, yuqoridagi faslda talabalardan olingan natijalar bilan o’zaro solishtirilganda, pedagoglar jamoasida natijalar ijobiyligi o’z tasdig’ini topgan. Darhaqiqat, o’quv mashg‘ulotlarida muammoli vaziyat va savollar bilan talabalar faolligini oshirish, ularni ijodiy yondashuv talab qiladigan aqliy faollikka undash o‘z samarasini beradi. Biroq ayni vaqtda amaliyotda bunday shakldagi mashg‘ulotlarda odatda o‘zining ijodiy faolligi bilan avvaldan ajralib turgan pedagoglarning dominantligi hamda nofaol pedagoglarning yana ikkinchi qatorda qolib ketishiga guvoh bo‘lish mumkin.

1-jadval

Ijodkorlikning to’rt yo’nalishi xususiyatlari so’rovnomasi natijalarining ko’rsatkichlari (Kraskal-Uollis mezoniga ko’ra)

Shkalalar	Guruhlar			H	P
	SAMDU pedagoglari N=37	QARDU pedagoglari N=38	TERDU pedagoglari N=37		
Tavakkalchilikka moyillik	145,27	138,28	134,57	20,79	0,005*
Bilimga qiziquvchanlik	149,64	133,53	140,39	21,51	0,004*
Murakkablik	134,57	139,40	136,87	17,32	0,12
Ijodiy tasavvur	142,76	127,90	132,75	19,68	0,005*

Izoh: * – $p \leq 0,05$; ** – $p \leq 0,01$; *** – $p \leq 0,001$.

Oliy o‘quv yurtida faoliyat olib boruvchi pedagog-o’qituvchilarning ijodiy-innovatsion ta’lim samaradorligini takomillashtirish darajasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganishda o‘rtacha ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘rsatkichlar qo‘lga kiritildi.

Xulosa: Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilib aytish mumkinki, ijodiy-innovatsion ta’limda samaradorlikka erishgan pedagog va talabaga xos psixologik xususiyatlar tarkibi mazmunida - strategik qaror qabul qila olish qobiliyati, yaxshi xotira, kreativ tafakkur, ijodiylik, bag‘rikenglik, erkinlik, mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmasi, ijtimoiy rolga ega bo‘lish tajribasi, ijtimoiy mobillik, yuqori darajadagi ijtimoiy intellekt hamda hissiy kechinmalarini tezkor anglashga xizmat qiluvchi, emotsional intellekt darajasi kabilarni ham tadqiq etish o‘rinlidir.

Ijodiy-innovatsion ta’lim ishtirokchisi sifatida tan olingan talaba avvalambor, o‘z xarakterologik sifatlarida strategik fikrlar qobiliyati va vaziyatlarni tez idrok eta bilish kabi determinantlarga ega bo‘lishlari lozim bo’ladi.

Ijodiy-innovatsion ta’limning rivojlantirishning muhim sharti sifatida oliy o‘quv yurtlari pedagoglari bilan talabalarining o‘zaro hamkorlik muhitidagi o‘ziga xoslikni aniqlashda talabalar an’anaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchi bilan bir qatorda, ijodiy-innovatsion ta’lim muhitidagi o‘ziga xoslikni empirik tadqiq etish muhimlik jihatlarini e’tiborga olish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Лебедев О.Е. Компетентностный подход в образовании // Школьные технологии. – 2004. – №5. – С. 3-12.

2.Иванов Д.А., Митрофанов К.Г., Соколова О.В. Компетентностный подход в образовании. Проблемы, понятия, инструментарий: учебнометодическое пособие. – М.: АПКиПРО, 2003. – С.52-54.

3.Rasulov. A.I. O‘qituvchi shaxsining tarbiyachi sifatida o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabat darajalari. Psixol. fanl. nomz. dissertatsiyasi.- Toshkent, - 2001. – S.22.

4.Спирмен Ч., Дружинин В.Н. Психология творчества. Психология общих способностей. – СПб.; Питер, 2007. – С. 27-28.

5. Яголковский С.Р. Психология инноваций. Подходы, модели, процессы, М.: Изд-во ИПРАН, 2010. – С.54.

Sayfullayeva Aziza G‘ulomjonovna
Zarmed universiteti o‘qituvchisi

O‘SMIRLAR GURUHIDA PSIXOLOGIK MUHOFAZA MOTIVATSIYASINI TADQIQ QILISHNING AMALIY - METODIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘smirlar guruhida psixologik muhofaza motivatsiyasini tadqiq qilishning amaliy - metodik asoslari va o’zini psixologik muhofaza qilish jarayonlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, psixologik muhofaza mezonlari va ularni tadqiq qilish uslubi ilmiy asoslab berilgan.*

Kalit so’zlar: o‘smirlik davri, ijtimoiy tasavvurlar, psixologik muhofaza, o’z-o’ziga munosabat, o’ziga munosabat motivatsiyasi, ijtimoiy persepsiya.

ПРАКТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ИССЛЕДОВАНИЯ МОТИВАЦИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ В ГРУППЕ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются практико-методологические основы исследования мотивации психологической защиты в группе подростков и процессов психологической самозащиты. Также научно обоснованы критерии психологической защиты и метод их исследования.*

Ключевые слова: *подростковый возраст, социальные представления, психологическая защита, самоотношение, мотивация самоотношения, социальное восприятие.*

PRACTICAL - METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF RESEARCHING THE MOTIVATION OF PSYCHOLOGICAL PROTECTION IN A GROUP OF ADOLESCENTS

Abstract: *This article discusses the practical and methodological foundations of studying the motivation for psychological defense in a group of adolescents and the processes of psychological self-defense. The criteria for psychological protection and the method of their research are also scientifically substantiated.*

Key words: *adolescence, social ideas, psychological defense, self-attitude, self-attitude motivation, social perception.*

Kirish. Psixologik muhofaza qilish muammosi hamisha insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelgan. Zero, insonning har jihatdan ijtimoiy taraqqiyoti, shaxs sifatidagi faolligi va o‘zini o‘zi rivojlantira borishi ko‘p jihatdan ushbu jarayonga bog‘liqdir.

Alohida ta’kidlash joizki, shaxslar o‘zlarining ma’lum doiradagi psixologik imkoniyatlari, yutuqlari, kamchiliklari haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lsalar, bu ularning hayotda uchraydigan har qanday muvaffaqiyatsizliklarni osonlik bilan bartaraf etishga, o‘z imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalana olishga, bir so‘z bilan aytganda, o‘zlari haqida yanada teran, ijobiy va o‘ziga xos ijtimoiy qiymatga ega bo‘lgan tasavvurlarning shakllanishiga keng imkoniyatlar yaratadi. O‘smirlik davri esa xuddi shunday imkoniyatlar ko‘lamini yanada kengaytirish uchun muhim bosqich hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda yoshlar va ularning tarbiyaviy imkoniyatlari alohida qadriyat sifatida tobora yuksaklarga ko‘tarilmoqda. Umuman, yoshlarni psixologik jihatdan to‘g‘ri tarbiyalash muammosi ham ilmiy psixologiyaning yetakchi yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘p bor munozaralar manbai bo‘lgan. Bu haqida qadimgi va dastlabki psixologik tasavvurlar makoni bo‘lmish Hindiston, Xitoy, Misr, Vavilon, O‘rta Osiyo, Gretsiya, shuningdek, jon (ruh) haqidagi I kitobning muallifi Aristotel va temperament (mijoz) ta’limotining asoschilari Galen, Gippokrat va Ibn Sinolardan tortib, to hozirga qadar psixologlar o‘z fikr-mulohazalarini bildirganlar va bildirib kelmoqdalar.

Tarix va ijtimoiy hayot tamoyillari shuni ko‘rsatmoqdaki, jamiyatning har tomonlama rivojlanishi va unda yuksak darajadagi hayot, turmush tarzining qaror toptirilishi, avvalo har bir faoliyat ko‘rsatuvchi shaxsdagi o‘ziga xos psixologik salohiyatning ne chog‘lik to‘la-to‘kis namoyon etilayotganligi bilan belgilanadi. Zero, har bir mamlakatning porloq kelajagini odamlardagi ijodiy, intellektual va ma’naviy taraqqiyot yo‘liga xizmat qiluvchi davlat mexanizmisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu boisdan bugun barcha davlatlarda yoshlarning ma’naviy va intellektual, jismoniy va ruhiy barkamolligiga va undan ijtimoiy manfaatlar uchun samarali foydalanish yo‘llarini izlashga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan shaxs va uning ijtimoiy faolligi o‘rtasidagi uyg‘unlikni

ta'minlashga qaratilgan psixologik muhofaza tizimining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya. Psixologik muhofaza mezonlarining tanlanishi va tadqiq qilinishi asosan tadqiqotimizning birinchi bobida batafsil qayd etilgan psixologik muhofaza haqidagi nazariy-metodologik tushunchalarga tayanadi. Jumladan, har bir mezon ma'lum darajada o'smir shaxsidagi psixologik muhofaza imkoniyatlarining u yoki bu jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Binobarin, har bir tadqiqotni olib borish, uning natijalarini ilmiy tahlil qilgan holda tegishli xulosalar qilish uchun shartli ravishda u yoki bu mezonlar qabul qilinadi. Xuddi shu qabul qilingan mezonlar yordamida tadqiqot maqsadi, vazifalari, ilmiy xulosalar ochib beriladi. Shu an'anaga amal qilgan holda olib borilishi lozim bo'lgan tadqiqotimizning ilmiy salohiyatini yaqqolroq ko'rsatish maqsadida o'smirlar uchun xarakterli bo'lgan o'zini o'zi psixologik muhofaza qilish jarayonini ochib beruvchi mezonlarni tanlash va tadqiq qilish uslubi belgilab olindi. Albatta, har bir mezonning tanlanishi yuqoridagi bobning birinchi va ikkinchi paragraflarida qayd etilgan ilmiy-fundamental g'oyalar asosida shakllantirildi.

Tabiiyki, har bir tanlanilgan mezon yoki uslub o'smirlar guruhi uchun xarakterli bo'lgan psixologik muhofaza ko'rsatkichlari dinamikasining u yoki bu jihatini ochib berishga xizmat qiladi. Endi har bir mezonning tanlanishi va tadqiq qilish uslubi haqidagi mulohazalarni qisqacha bayon etishga o'tamiz:

1. Ko'pgina adabiyotlardan ma'lumki, har qanday psixologik muhofaza ko'rsatkichlarining namoyon etilishi eng avvalo shaxsning hissiy bezovtalik darajasi, asabiylik holatlarining kechishi va bu jarayonga adekvat harakatlarni yo'naltira olish bilan bevosita bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan o'smirlardagi psixologik muhofaza ko'rsatkichlarini tahlil qilishning birinchi mezoni sifatida "O'smir bezovtaligi va asabiylik holati" tanlab olindi. Mazkur mezonni aniqlash uslubi Kondashning (1973-yil) ijtimoiy holat bezovtaligi shkalalari talabiga mos ravishda ishlab chiqildi. Ushbu mezon ko'rsatkichlari orqali har bir o'smirning maktab hayoti bilan bog'liq bezovtalik darajasi – "a", o'zini o'zi baholash bilan bog'liq bezovtalik darajasi – "b", shaxslararo muloqot bilan bog'liq bezovtalik darajasi – "v" aniqlanadi va tadqiqot talablariga mos ravishda tahlil qilinadi.

2. Psixologik muhofazaning ikkinchi mezoni sifatida tanlangan uslub bu o'zini o'zi hissiy baholash shkalasidir. Mazkur mezon Riks-Uessman shkalasi talablariga mos ravishda tanlandi. Ushbu mezon ko'rsatkichlari orqali o'smirlardagi o'zini o'zi hissiy baholash bilan bog'liq tasavvurlar ko'lamiga baho berish mumkin. Bu tasavvurlarning shakllanishi esa Riks-Uessman shkalasida qayd etilgan asabiylik-xotirjamlik, toliqqanlik-g'ayrat-shijoatlilik, tushkunlik-ko'tarinkilik, ishonchsizlik, o'z-o'ziga ishonch kabi shaxs hissiy holatidagi mazkur sifatlarning nechog'lik namoyon etilayotganligi bilan bevosita bog'liqdir.

3. Psixologik muhofazaning ko'rsatkichlarini aniqlashning uchinchi mezoni ziddiyatli holatni yengishga bo'lgan individual xulq-atvor motivatsiyasining namoyon etilishidir. Mazkur mezon Tomas testi talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib o'smirning ziddiyatli holatdan o'zini muhofaza qiluvchi individual uslubi harakterini aniqlashga va shu asosda o'smirdagi individual yondashuv imkoniyatlarini o'rganishga yordam beradi. Mazkur mezon ko'rsatkichlari Tomas testida qayd etilgan quyidagi 5 ta yo'nalish bo'yicha tahlil qilinadi.

A) bahs-munozara
B) hamkorlik
D) o'zini moslashtirish

Tabiiyki, ushbu yo'nalishlarning qaysi biri u yoki bu o'smir uchun xarakterli ekanligiga qarab shu o'smirdagi ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etish yo'llari haqida tegishli ilmiy tavsiyalarni ishlab chiqish mumkin bo'ladi.

4. Psixologik muhofaza ko'rsatkichlarini aniqlashning 4-mezoni shaxsdagi dinamik xususiyatlar (ekstroversiya, introversiya) va uning psixologik muhofaza ko'rsatkichlariga ta'siri darajasini aniqlashni o'z ichiga oladi. Bunda ilmiy psixologiyada ma'lum va mashhur bo'lgan Ayzenk metodikasi asos qilib olinadi. Jumladan, o'smir shaxsi xulq-atvori yoxud faoliyatida yaqqol namoyon bo'luvchi xususiyatlar (ekstroversiya, introversiya, neyrotizm, hissiy beqarorlik, hissiy barqarorlik) psixologik muhofaza imkoniyati sifatida qaraladi. Darhaqiqat, o'smirdagi mavjud dinamik xususiyatlari o'z hissiyot dunyosini jiddiy ravishda jilovlay olish bilan ham belgilanadi. Chunonchi, Diomond ta'limotida bu xususiyat faollik darajasida va ko'p jihatdan his – tuyg'uning ortiq darajada bo'lishi deb qaralsa, G. Ayzenk bu xususiyat ekstroversiya – introvesiya va neyrotizm tushunchalari orqali izohlaydi.

V.D.Nebilitsinda esa bu muammo psixofiziologik aktivlik manbai sifatida tadqiq qilinadi[135]. V.S. Merlin asarlarining mazmuniga ko‘ra shaxs dinamik xususiyatlari yoxud temperamentlarning har bir xususiyati ba’zi sharoitlarda ish faoliyatining samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatsa, xuddi shu xususiyatning o‘zi boshqa sharoitlarda ish faoliyatiga moslashuvni qiyinlashtirib, uning ijtimoiy samaradorligiga bir muncha salbiy ta’sir etishi mumkin. Masalan, diqqatning qo‘zg‘aluvchanligi bir tomondan yangi sharoitlarda to‘g‘ri yo‘lni tanlab olishni yengillashtirsa, ikkinchi tomondan qo‘zg‘atuvchilar bular diqqatning chalg‘ishiga sabab bo‘ladi. Bu esa o‘smir shaxsining o‘zini o‘zi ayrim muvaffaqiyatsizliklardan psixologik muhofaza qilish tizimiga ma’lum darajada ta’sir etmay qolmaydi. Bu ta’sirning “adekvat” yoki “noadekvat”ligini tadqiq qilish juda muhimdir, deb o‘ylaymiz.

Jadval-1

O‘smirlar guruhida o‘zini o‘zi psixologik muhofaza mezonlarini tizimini tadqiq qilish uslubi

Muxofaza Omili	Muhofaza mezoni	Psixologik muhofaza belgisi	Psixologik muhofaza iyerarxiyasi
Sotsial vaziyatga bog‘liq bezovtalik	Adekvat psixologik himoya (Kondash usuli asosida)	Ijtimoiy me’yoriy faollik Nome’yoriy faollik	1.Mak.hayoti.bilan bog‘liq faollik 2.O‘zini o‘zi baholash bilan bog‘liq faollik 3. Shaxslararo muloqot bilan bog‘liq faollik
O‘zini o‘zi hissiy baholash	Me’yoriy hissiy faollik (Riks – Uessman usuli asosida)	O‘zini o‘zi adekvat boshqarish	1. Xotirjamlik 2.G‘ayrat- shijoatlilik 3.Hissiy ko‘tarinkilik 4. O‘z-o‘ziga ishonch
Ziddiyatli holatdan saqlanish	Adekvat xulq-atvor motivatsiyasi (Tomas metodikasi asosida)	Individual uslubni namoyon qila olish	1.Bahs-munozara 2.Hamkorlik 3.Kelishuv (kompromiss) 4.O‘zini chetga olish 5.Moslashish
Faoliyat va individual yondashuv mutanosibligi	Shaxs dinamik xususiyatlari (Ayzenk uslubi asosida)	Faoliyat va shaxs dinamik xususiyatlari mutanosibligi	1.Ekstroversiya 2.Introversiya 3. Neyrotizm

O‘smir shaxsida namoyon bo‘luvchi har bir individual xususiyat darajasidan (quyi, o‘rta, yuqori) kelib chiqib umumiy psixologik muhofaza ko‘rsatkichlariga izoh beriladi. Binobarin, mazkur mezon ko‘rsatkichlarining tanlanishi va tadqiq qilinishi tadqiqotning empirik salohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Xulosa: Olib borilgan nazariy-ilmiy tahlillar, o‘smirlik davrida o‘zini o‘zi psixologik muhofaza qilish haqidagi tasavvurlarni nazariy tadqiq qilinishiga bag‘ishlangan ishlarning bugungi kunda taqchilligi va shu bilan birga dolzarbligini ko‘rsatdi. Dunyodagi ko‘plab ilg‘or psixologiya namoyandalarining psixologik muhofazaga oid qarashlari tadqiq qilinganda, bu jarayon shaxs ijtimoiylashuvi va rivojlanishi uchun o‘rganilishi muhim bo‘lgan tadqiqot yo‘nalishi ekanligi qayta-qayta ta’kidlanadi.

Ayni paytda, Rossiyadagi olimlar hamda mamlakatimiz olimlari ham aynan shu muammoning ayrim xususiyatlarini yoritishga va tadqiq qilishga o‘z e’tiborlarini qaratmoqdalar. Bu boradagi qator izlanishlar va ilmiy mushohadalarning tahlili quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

1.Umuman, shaxsning o‘zini o‘zi psixologik muhofaza qilish shakllariga nisbatan tarixda va bugungi kunda turli xil munozarali fikrlar mavjud bo‘lib, bu qarashlar turli manbalarda, sharq va g‘arb

mutafakkirlari ijodida, ilg‘or psixologiya vakillarining ilmiy asarlarida asrlar davomida ilmiy sayqal topib kelgan. Ayni paytda, psixologik muhofaza shaxs o‘zligini anglashning, o‘zini o‘zi rivojlantirishning va o‘z imkoniyatlariga adekvat baho berishning muhim omili sifatida olimlar e’tiborini tortgan doimiy tadqiqotlar obyekti hamda subyektiga aylantirilgan.

2. O‘smirlar guruhida psixologik muhofaza jarayonini tadqiq qilish bilan bog‘liq nazariy-ilmiy manbalarning o‘rganilishi psixologik muhofaza omillari haqida batafsilroq mushohadalar yuritish imkonini beradi. Bu imkoniyat esa o‘smirlardagi psixologik muhofaza motivatsiyasi va dinamikasini o‘rganishni taqozo etadi.

3.O‘smirlar guruhida psixologik muhofaza omillarining xilma-xilligi va ularning namoyon etilishi individual xususiyatlar; identifikatsiya va refleksiya jarayonlari bilan bevosita bog‘liq ekanligi olimlar tomonidan alohida e’tirof etilgan.

4.Adabiyotlar tahlili psixologik muhofazaning shakllanishi ijtimoiy va etnopsixologik qadriyatlarga mos tarzda namoyon etilishi mumkinligini ko‘rsatdi. Bu esa o‘smirlar uchun xarakterli bo‘lgan psixologik muhofaza mezonlarini ishlab chiqish va amaliyotda tadbiq etish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda, tadqiq etilgan barcha nazariy mushohadalar o‘smirlar guruhi uchun xarakterli bo‘lgan psixologik muhofaza doirasidagi ijtimoiy psixologiya fani istiqbollarini yanada kengroq ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абульханова-Славская К.А. Развитие личности в процессе жизнедеятельности. – Психология формирования и развития личности. - М.: Наука, 1981. – С. 97-115.

2. Айзенк Г.Ю. Узнай свой собственной коэффицент интеллекта. М.: 1995 .

3. Андреева Г.М. Социальная психология. Учебник для высших учебных заведений. Г.М. Андреева.– 5-е изд., испр. и доп. – М.: Аспект Пресс, 2003. – 364с.

4. Баротов Ш.Р. Ўсмирларда касб танлаш тизими ва унинг ижтимоий - психологик асослари // Педагогик маҳорат. - Бухоро, 2003. - № 4. – Б. 33-37.

5. Баротов Ш.Р, Мухторов Э.М. Ўсмирларда психологик муҳофаза. Монография. - Т. : Фан, 2008. – 118 б.

6. Дубровина И.В. Теоретические основы и прикладные аспекты развития школьной психологической службы: Автореф. дисс. докт. псих. наук-Тбилиси: 1988.-396 с.

Жўраев Қўлдошжон Исматулло ўғли
Исследователь Бухарского государственного университета

СУЩНОСТЬ И СТРУКТУРА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

Аннотация. *Профессиональная компетентность в данной статье рассматривается компетентностный подход, направленный на развитие научного потенциала, коммуникативных и профессиональных навыков студентов, способных решать проблемы, осуществлять и использовать межкультурную коммуникацию, а также использование современных информационных технологий, формирующих профессиональную компетентность у студентов. Кроме того, был проведен анализ научной литературы по изучению профессиональной компетентности.*

Ключевые слова: *компетентность, педагогические условия, профессиональная подготовка, групповая работа, мультимедийные технологии, учебные материалы.*

KASBIY KOMPETENTSIYANING MOHIYATI VA TUZILISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kasbiy kompetentlik muammolarni hal qila oladigan, madaniyatlararo muloqotni amalga oshiradigan va undan foydalanishi mumkin bo'lgan talabalarning ilmiy salohiyati, kommunikativ va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyaga asoslangan yondashuv haqida hamda talabalarda kasbiy kompitentlikni shakllantiruvchi zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish haqida fikr yuritiladi. Bundan tashqari kasbiy kompetentlikni o'rganish bo'yicha ilmiy-adabiyotlar tahlili olib borilgan.*

Kalit so'zlar: *kompetensiya, pedagogik shartlar, kasbiy tayyorgarlik, guruh ishi, multimedia texnologiyalari, o'quv materiallari.*

THE ESSENCE AND STRUCTURE OF PROFESSIONAL COMPETENCE

Annotation. *This article will focus on a competency-based approach aimed at developing the scientific potential, communicative and professional skills of students whose professional competence can solve problems, carry out and use intercultural communication, and on the use of modern information technologies that shape professional competence in students. In addition, scientific and literary analysis was carried out on the study of professional competence.*

Key words: *competence, pedagogical conditions, professional training, group work, multimedia technologies, educational materials.*

Введение. Условия современного общества предъявляют новые требования к качеству профессионального образования и требуют от высшего образования высоко квалифицированного специалиста, который способен решать основные профессиональные задачи и быть при этом целеустремленным, активным, инициативным, ответственным, обладать умением работать в команде и взаимодействовать с людьми, иметь призвание к своей работе, мотивацию к обучению в течение всей жизни (В.Д. Шадриков).

В связи с этим, проблема поиска новых методов, технологий развития профессиональной компетентности будущих специалистов, а также проблема разработки компетентностной модели специалиста, основанной на единстве профессиональных знаний, умений, опыта, личностных качеств и ценностных ориентаций, имеет большую социальную значимость.

Проблеме изучения компетентностного подхода в образовании и профессиональной компетентности специалиста посвящены работы А.Г. Бермуса, О.К. Битюцких, В.А. Болотова, А.А. Вербицкого, Э.Ф. Зеера, И.А. Зимней, Н.В. Кузьминой, В.С. Леднева, А.К. Марковой, С.А. Маруева, Л.М. Митиной, М.В. Рыжакова, Т.М. Сорокиной, А.И. Субетто, Ю.В. Фролова, А.В. Хуторского, В.Д. Шадрикова и др. Эти исследования значительно обогатили представления о процессе становления профессиональной компетентности и отдельных ее компонентов. Однако целостной теории развития профессиональной компетентности студента в период его профессионального обучения не разработано. Недостаточно изучены и описаны конкретные пути, методы формирования и развития профессиональной компетентности будущих специалистов как целостного явления.

Новые тенденции в развитии образования коснулись и психологического образования и обозначили необходимость усовершенствования процесса профессиональной подготовки психологов в соответствии с новыми требованиями современности и принципами компетентностного подхода.

Проблемы профессиональной подготовки студентов-психологов обсуждаются во многих психолого-педагогических исследованиях. Изучены вопросы развития личностного самоопределения, самоидентичности, профессионального самосознания, мотивы выбора профессии, динамика успеваемости студентов-психологов (Т.М. Белокрылова, Д.Ю. Грищенко, А.И. Донцов, Л.Д. Колесникова, Е.П. Кораблина, Е.А. Оленева, В.А. Фокин, Т.И. Чиркова и др.). Развитие профессиональной компетентности студента-психолога как интегрального явления в период его профессиональной подготовки, особенности и динамика этого процесса недостаточно изучены.

Многие авторы отмечают, что профессиональная подготовка; психологов испытывает значительные сложности, к которым относятся большое количество выпускников психологических специальностей и низкое качество их подготовленности, низкий процент трудоустроившихся по специальности и сознательный отказ студентов от профессиональной деятельности психолога (А.И. Донцов, Л.Д. Колесникова, В.А. Фокин, Т.И. Чиркова и др.)- Сегодня как никогда актуальна проблема повышения качества профессиональной подготовки психологов. В связи с новыми тенденциями в развитии профессионального образования особое место в ряду проблем подготовки психологов занимает проблема отсутствия ориентировочной основы учебно-профессиональной деятельности в виде компетентностной модели специалиста.

Реализация компетентностного подхода в профессиональном обучении психологов требует единства научно-обоснованного методологического подхода к пониманию природы профессиональной компетентности (ПК), разработки методов диагностики и развития ПК студентов-психологов и технологии их применения.

Проведенный анализ психолого-педагогической литературы позволил нам выявить ряд противоречий в исследуемой проблеме между:

- требованиями к ПК выпускника вуза и реальным уровнем ее развития;
- актуальностью исследования развития ПК студента-психолога и степенью изученности данного вопроса;
- имеющимися теоретическими разработками проблемы ПК и отсутствием психологических методик изучения и целенаправленного развития ПК;
- необходимостью совершенствования процесса развития ПК будущего психолога и недостаточной изученностью психологических условий, влияющих на развитие ПК студента в период профессиональной подготовки.

Компетенция - это личностная способность специалиста (сотрудника) решать определённый класс профессиональных задач. Компетентность - это владение, обладание человеком соответствующей компетенцией, включающей его личностное отношение к ней и предмету деятельности. Под профессиональной компетентностью педагога понимается единство его теоретической и практической готовности к осуществлению социально-педагогической деятельности.

Компетентность рассматривается как одна из ступеней профессионализма, составляющая основу педагогической деятельности учителя. Компетентность педагога трактуется как способность личности на разном уровне решать различные типы педагогических задач.

Профессиональная компетентность представляет собой следующие сформированные позиции готовности специалиста:

• информационно-смысловая (Я знаю);
• эмоционально-мотивационная (Я хочу);
• деятельностно — технологическая (Я могу);
• нормативно — управленческая (Я должен).[1]

Профессиональная компетентность - это уровень осведомленности, авторитетности педагога, позволяющий ему продуктивно решать учебно-воспитательные задачи, возникающие в процессе подготовки квалифицированного специалиста, формирования личности другого человека. В структуру профессиональной компетентности входят:

• общественно-политическая осведомленность,
• психолого-педагогическая эрудиция,
• педагогическая техника,
• умения и навыки организации педагогической деятельности.[2]

Профессиональная компетентность имеет следующие существенные признаки: компетентность имеет деятельностный характер обобщенных умений в сочетании с предметными умениями и знаниями в конкретных областях; компетентность проявляется в умении осуществлять выбор, исходя из адекватной оценки себя в конкретной ситуации.

Существует трехуровневая иерархия компетентностей.

Ключевые компетентности. Ключевые компетентности приобретают сегодня особую значимость. Они проявляются, прежде всего, в способности решать профессиональные задачи на основе использования информации и коммуникации. Базовые компетентности. Для профессиональной социально-педагогической деятельности базовыми являются компетентности, необходимые для «построения» профессиональной деятельности в контексте требований к системе образования на определённом этапе развития общества.

Специальные компетентности отражают специфику конкретной предметной или надпредметной сферы профессиональной деятельности. Разумеется, все три вида компетентностей взаимосвязаны и развиваются одновременно, что и формирует индивидуальный стиль социально-педагогической деятельности, и, в конечном итоге, обеспечивает становление профессиональной компетентности.

Вывод. Сегодня успешная профессиональная деятельность педагога рассматривается как один из главных определителей коммуникативной компетентности. Мы пришли к выводу, что образовательный процесс в профессиональном плане требует постоянного общения с детьми, родителями и коллегами. Студенческий возраст-чувствительный период для профессионального развития. Если будет проведено больше исследований, некоторые из насущные проблемы коммуникативной компетентности может быть решено.

Литература

1. Иванов Д.А. Компетентности и компетентностный подход в современном образовании. М. : Чистые пруды, 2007.
2. Слободчиков В.И. Антропологическая перспектива отечественного образования. Екатеринбург, 2009.
3. Федеральный государственный образовательный стандарт высшего профессионального образования по направлению подготовки 030300 «Психология». М., 2010.
4. Портал психологических изданий PsyJournals.ru — https://psyjournals.ru/nonserialpublications/education21/contents/55015 [Профессиональные компетенции практического психолога в образовании // Психология образования в XXI веке: теория и практика]
5. Горбунов Г.Д. Психопедагогика спорта. – М.: Физкультура и спорт, 1986.
6. Раднагуруев Б. Особенности психологической подготовки борцов вольного стиля к соревновательной деятельности / Человек в мире спорта: Новые идеи, технологии, перспективы: тез. докл. междунар. конгр. – М., 1998.
7. Крюкова Т.Л. Психология совладающего поведения. – Кострома: Изд-во КГУ им. Н.А. Некрасова, 2004.

Интернет-сайты:

1. https:// uz.m.wikipedia.org.
2. https://mymedic.uz.
3. http:// library.ziyonet.uz.
4. httr://koob.rY

Idiyeva Manuchehra Ikrom qizi
Buxoro Psixologiya va xorijiy tillar instituti magistranti

BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHNING INNOVATSION-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *O‘qituvchi sotsial intellektining shakllanganligi o‘quvchilar emotsional-irodaviy hamda psixologik rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatishga, bilish faoliyatining faollashuviga, bilim, ko‘nikma va malakalarining shakllanishiga, atrofdagilar bilan o‘zaro munosabatlarda ularning ijtimoiy rollari identifikasiyalashuviga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, o‘qituvchi sotsial intellektini belgilab beruvchi omillarni aniqlash, tadqiq qilish va rivojlantirish masalasi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda.*

Kalit so‘zlar: *sotsial intellekt, ijtimoiy fikr, moslashuv akti, ong, ongsizlik, abstrakt-mantiqiy intellekt, predmetli intellekt.*

ИННОВАЦИОННО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОДГОТОВКИ ДЕТЕЙ К ШКОЛЕ

Аннотация. *Формирование социального интеллекта педагога служит коррекции дефектов эмоционально-волевого и психологического развития учащихся, активизации познавательной деятельности, формированию знаний, умений и навыков, идентификации их социальных ролей во взаимодействии с окружающими. В связи с этим вопрос выявления, исследования и развития факторов, определяющих социальный интеллект педагога, остается одной из актуальных проблем сегодняшнего дня.*

Ключевые слова: *социальный интеллект, социальная мысль, акт адаптации, сознание, бессознательное, абстрактно-логический интеллект, предметный интеллект.*

INNOVATIVE AND PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF PREPARING CHILDREN FOR SCHOOL

Annotation. *The formation of teacher social intelligence serves to correct defects in the emotional-volitional and psychological development of students, the activation of cognitive activity, the formation of knowledge, skills and abilities, the identification of their social roles in interaction with those around them. In this regard, the issue of identifying, researching and developing the factors that determine the social intelligence of the teacher remains one of the pressing problems of today.*

Keywords: *social intelligence, social thought, the act of adaptation, consciousness, unconsciousness, abstract-logical intelligence, subject intelligence.*

Mustaqillik yillarida «ta’lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, tarbiyachi, o‘qituvchi, muallim va ilmiy xodimning kasbiy nufuzini oshirish»ga yo‘naltirilgan O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil qilish zarurati yuzaga keldi. Ayni paytda, har bir o‘qituvchi faoliyatining ijtimoiy-psixologik samaradorligi, eng avvalo, uning pedagogik mahorati, muomala madaniyati va intellektual salohiyatiga ko‘p jihatdan bog‘liq ekanligi yanada yaqqolroq sezilmoqda. O‘qituvchi kasbiy faoliyatida sotsial intellektning ustuvorligi, uning faoliyat samaradorligini oshirib, unga ijobiy ta’sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni shakllantiradi hamda o‘qituvchi pedagogik-psixologik kompetentligini takomillashtirishga olib keladi.

Ma’lumki, ijtimoiy psixologiya fanida aynan sotsial intellekt muammosiga bag‘ishlangan va uning barcha omillarini batafsil bayon etishga qodir ilmiy adabiyotlar yetarli bo‘lmasa-da, bugungi kunda fan olamida va jamiyat taraqqiyotida sotsial intellekt muammosining zarurligini ko‘rsata oluvchi va uning metodologik ildizlarini asoslab bera oluvchi ilmiy tadqiqotlarni alohida qayd etish mumkin. Mazkur adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, ulardagi sotsial intellekt metodologiyasiga taalluqli ayrim umumiy jihatlarni ijtimoiy psixologiya fani nuqtai nazaridan tadqiq qilishimizga to‘g‘ri keldi.

Intellektning tarkib topishi va shakllanishi bo‘yicha muayyan yondashuvlar mavjud bo‘lib, ular bir qator ilmiy manbalarda o‘z aksini topgan. Jumladan, intellektga fenomenologik yondashuv: intellekt ong mazmunining asosiy shakli sifatida qaralsa (V.Keller; K.Dunker; M.Vertgeymer; Dj.Kempion va boshqalar), intellektga genetik yondashuvda esa intellekt insonning tashqi olam bilan o‘zaro ta’sirlashuvining tabiiy sharoitidagi o‘rab turgan muhit talablariga qiyin moslashuvi oqibati sifatida

talqin etiladi (U.Charlzvort; J.Piaje). Ayni paytda, intellektga sotsio-madaniy yondashuv tarafdorlari intellekt insonning ijtimoiylashuvi, shuningdek, madaniyatning maqsadli ta'siri natijasi, degan g'oyani ilgari sursa (Dj.Brunner; L.Levi-Bryul; A.Luriya; L.Vыgotskiy va boshqalar), intellektga jarayonli-faoliyatli yondashuvda intellekt inson faoliyatining asosiy shakli sifatida bayon qilingan (S.Rubinshteyn; A.Brushlinskiy; L.Venger; K.Abulxanova-Slavskaya va boshqalar). Intellektga ta'limiy yondashuv vakillari esa, intellekt maqsadga yo'naltirilgan ta'limning mahsuli deb e'tirof etsalar (A.Staats; K.Fisher; R.Feyershteyn va boshqalar), intellektga axborot yondashuvi namoyondalari axborotlarni qayta ishlashning elementar jarayonlari majmui sifatida qaraydilar (G.Ayzenk; E.Xant; R.Shternberg va boshqalar). Intellektning funksional-darajaviy yondashuvida, intellekt har xil darajadagi bilish jarayonlarining tizimi sifatida ko'rsatilsa (B.Ananev; Ye.Stepanova; B.Velichkovskiy va boshqalar), intellektning regulyatsion yondashuvi: intellekt aqliy faollikni, o'zini o'zi idora qilish omilidir, deya ta'kidlaydi (L.Terstoun va boshqalar).

V.Shternning intellektga xos bo'lgan quyidagi xulosasi, ya'ni intellekt «yangi hayotiy sharoitlarga moslashishga umumiy qobiliyatlilik» tarzda qarashi va «moslashuv akti – hayotiy masalalarni intellekt yordamida hal etish, fikrlashda ongning ongsizlik ustidan ustunlik qilishi barobarida amalga oshiriladi», degan mulohazasini keltirib o'tishimiz mumkin.

Sotsial intellekt borasida olib borilgan ilk izlanishlar E.Torndaykning ilmiy tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan bo'lib, unda olim akademik intellektning yuqori darajasi sotsial muvaffaqiyatlarning yuqori darajada bo'lishini ta'minlamasligi mumkinligini xulosaladi. Dastlab, E.Torndayk sotsial intellektga shaxslararo munosabatni oldindan ko'ra olish, insonlarni tushunish qobiliyati va ularga oqilona munosabat o'rnatishga bo'lgan malakalarini tadqiq qildi. U o'zining asarlarida abstrakt-mantiqiy va predmetli intellektning o'ziga xos xususiyatlari bilan bir qatorda sotsial intellektni alohida ajratib ko'rsatdi:

−abstrakt-mantiqiy intellekt – abstrakt, verbal va matematik simvollarni tushunish, ular bilan bog'liq harakatlarni amalga oshirish qobiliyati.

−sotsial intellekt – odamlarni tushunish va ular bilan o'zaro ta'sirlashuvda bo'lish qobiliyati.

−predmetli intellekt – moddiy olamdagi narsa va predmetlarni tushunish qobiliyati.

Shuningdek, E.Torndayk sotsial intellektning asosiy funksiyasiga shaxslararo munosabatni muvaffaqiyatli tashkil etishning yetakchi omillaridan biri sifatida xizmat qiluvchi shaxsning boshqa insonlar va o'zining xulq-atvorini bashoratlashi deb hisobladi. Bu esa olimning nuqtai nazariga muvofiq sotsial intellektning ikki jabhasini ajratishga olib keldi: bilish va xulqiy jihatlar. O'ylaymizki, intellekt tuzilishining bu tarzda ifodalanishi anchagina aniq va mantiqlidir. Mazkur g'oyaga hamohang tarzda sotsial intellektning, umumiy qobiliyatga bog'liq bo'lmagan holda sotsial o'zaro ta'sirlashuvda bilish va xulqiy qobiliyatlari birligi tarzida intellektning asosiy turi sifatida namoyon bo'lishi G.Ollport, D. Ye.Vernon, Dj.Gilford, O.Djon, S.Kosmitskiy va G.Geranyushkinaning ishlarida ham uchraydi.

Sotsial intellekt – ijtimoiy psixologik muammo sifatida kasbiy faoliyat doirasida qay tariqa va qanday o'rganilganligini tahlil qilish va talqin qilish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki sotsial intellektga oid olib borilgan nazariy–ilmiy va amaliy-uslubiy tadqiqotlar ko'lamiga ma'lum tartibda baho bermay turib, uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning sotsial intellektini kasbiy faoliyat doirasida takomillashtirish va rivojlantirish masalasi haqida fikr-mulohaza yuritib bo'lmaydi. O'qituvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablarning anchagina mas'uliyatli ekanligi ko'p hollarda sotsial intellektga bog'liqdir. Bu daraja o'qituvchi ijtimoiy ahamiyatga molik axborotlarni tashuvchisi, ijtimoiy birliklarni amalga oshiruvchi sub'ekt sifatida o'zini anglashiga imkon beradi. O'qituvchi sotsial intellektining shakllanganligi o'quvchilarni emotsional-irodaviy sohasining psixologik rivojlanishidagi nuqsonlarini tuzatishga, bilish faoliyatini faollashuviga, bilim, ko'nikma va malakalarining shakllanishiga, atrofdagilar bilan o'zining ijtimoiy rollarining identifikatsiyalashuviga xizmat qiladi.

Sotsial intellekt har bir shaxsning faoliyati davomida sodir bo'luvchi xulq-atvor belgilarini muvofiqlashtiradigan va bir-biriga yaqinlashtiradigan jarayonlarining kechishi bilan bevosita bog'liq. Bu muammoni G.Andreeva o'z tadqiqotlarida shaxs motivatsiyalarining shakllanishi va amalga oshirilishi, shuningdek, o'zaro hamkorlikka intilishi nuqtai nazaridan asoslab berdi. Bunda, quyidagi ikki jihat asosida tarkib topuvchi shaxs xususiyatlarining sotsial intellekt sifatida tadqiq qilinishi va asoslab berilishi nazarda tutiladi. Sotsial intellekt rivojlanishining birinchi omili, shaxsning odamlar bilan o'zaro munosabatga qobiliyatliligi, yuqori darajada muloqotmandligi bilan bog'lansa, ikkinchidan, suhbatdoshning xulq-atvori, hatti-harakatlari, kechinmalariga nisbatan sezuvchanlik va turli xil vaziyatlarga moslashuvchanlikdan iborat ekanligi qayd etiladi. Shuning uchun G.Andreeva sotsial

intellektni «odamlarning kayfiyatiga, hissiyotiga to‘g‘ri baho berish qobiliyati» deb ataydi va bu tushunchani ma’lum empirik dalillarga tayanib asoslab beradi.

Endi, I.G.Ayzenk metodining maqsadga mos mazmuni va tadqiqiy imkoniyatlari haqida qisqacha izoh berib o‘tamiz.

G.Ayzenk testi va uning tadqiqot maqsadiga mosligi

Ma’lumki, ilmiy adabiyotlarda shaxs tiplarini aniqlashga qaratilgan juda ko‘p metodlar qayd etilgan. Biz shular ichidan barchaga ma’lum va mashhur ingliz psixologi G.Ayzenk testi imkoniyatlaridan foydalandik. Bu esa o‘qituvchi shaxsi bilan bog‘liq sotsial intellekt omillarini o‘rganish imkonini beradi.

Mazkur test G.Ayzenkning individual-tipologik xususiyatlarni aniqlash majmuasi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, unda shaxs «ekstraversiya», «introversiya», «neyrotizm» shkalalari yordamida tadqiq qilinadi. I.Pavlov va K.Yung qarashlarini umumlashtirib, G.Ayzenk ikki parametrli yo‘nalish chizig‘idagi individuallikning «ekstraversiya», «introversiya», «neyrotizm» (asabiylik-hissiy noqat’iylik) – hissiy qat’iylik xususiyatlarining individual farqlarini tadqiq qiladi . Demak, «ekstraversiya»ning xususiyati sifatida uning «qo‘zg‘aluvchanligi» va «harakatchanligi» kuzatilsa, «introvert»da esa biroz «sustkashlik» kuzatiladi. «Noqat’iylik» esa qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarning qo‘nimsizligi oqibatidir. Ushbu holatni tahlil qilish o‘qituvchi faoliyatidagi shaxs tiplari bilan bog‘liq sotsial intellekt omillarini tadqiq qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodni qo‘llash tartibi

So‘rovnoma 57 savoldan iborat bo‘lib, shundan 24 tasi ekstraversiya- introversiya, 24 tasi neyrotizm va 9 tasi o‘rnatilgan tartibdagi nazorat shkalasiga daxldorlikni bildiradi.

Ishni bajarish tartibi: Eksperiment individual yoki guruhiy shaklda o‘tkazilishi mumkin. Eksperimentator tekshiriluvchilarga quyidagi yo‘riqnoma bilan murojaat etadi.

Yo‘riqnoma: Test savollariga javob berishda birinchi paydo bo‘lgan fikrni qayd eting, ortiqcha fikr mulohaza yuritmang. Testda to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javob mavjud emas. Test savolnomasidagi vaziyatlar hayotingizda qanchalik darajada uchrashiga e’tibor bering. Imkon qadar savollarga ochiq javob berishga harakat qiling. Savollarga javoblar variantining mos kelishi yoki kelmasligiga qarab, «Ha» va «Yo‘q» tarzda javob berish mumkin.

Ekstraversiya bu muloqotga tezda kirishib keta olish, tashqi olamga yo‘nalganlik xususiyatidir. Ektravertlar hech narsani ichlarida saqlamaydi, tashqariga chiqarishni yoqtiradilar. Ular o‘z fikr va mulohazalarini ochiq-oydin aytib, har doim o‘zlarini himoya qila oladilar. Bunday shaxslar o‘yin-kulguni, xushchaqchaqlikni yaxshi ko‘radilar. Turli tadbirlarda faol qatnashib, hammaning diqqat markazida bo‘lishni xohlaydilar va bunga erishadilar.

Introversiya – shaxsning doim o‘z ichki olami bilan mashg‘ul bo‘lib yurishini ifoda etuvchi ko‘rsatkichdir. Introvertlar o‘z hissiyotlarini kishilar ko‘zidan yashirishni xush ko‘radilar. O‘zlarining sirlarini kamdan-kam hollarda birovga aytishlari mumkin. Ular biror narsadan qoniqmasalar, buni hech kimga aytmaydilar, hamma narsani ichlariga yutadilar. Introvertlar shovqinli davralardan ko‘ra kitob o‘qishni, uy ishlari bilan shug‘ullanishni ma’qul ko‘radilar.

Neyrotizm shkalasi hissiy barqarorlik – beqarorlik xususiyatini aks ettiradi. Bu ko‘rsatkichning yuqori darajalari sinaluvchining yuqori darajadagi bezovtalik, o‘zini past baholash kabi salbiy kechinmalarga moyillik mavjudligidan guvohlik beradi.

Ma’lumotlarning birlamchi qayta ishlanishi

1. Test talablari asosida har bir respondent uchun xarakterli bo‘lgan (yoki empirik jihatdan to‘plangan) ballar miqdori aniqlanadi.
2. Aniqlangan shartli ballar miqdori test shkalasidagi kalitlar bo‘yicha joylashtiriladi.
3. Har bir obyekt respondentlaridan olingan ballar miqdori o‘rtacha umumiy ko‘rsatkichlar majmuasiga birlashtirilib, o‘rtacha-umumiy foizlar miqdorining tipik ko‘rinishlari belgilanadi.
4. Har bir empirik jihatdan o‘rganilgan obyektlar uchun xarakterli bo‘lgan oraliq diapazonlari hamda umumiy ko‘rsatkichlar ko‘lami qiyosiy tarzda tahlil qilinadi.

Ma’lumotlarning ikkilamchi qayta ishlanishi

Uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilar misolida olingan shaxs tiplari ko‘rsatkichlari maxsus korrelyatsion tahlil talablari asosida qaytadan ko‘rib chiqiladi va maxsus belgilangan jadvallarga kiritiladi.

1. Mavjud empirik ma’lumotlar o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanish natijalari va ma’lumotlarning validligi, ishonchlilik qiymati maxsus qabul qilingan statistik mezonlar yordamida qaytadan ko‘rib chiqiladi. Natijalar SPSS dasturi talablariga mos ravishda taqdim etiladi.

2. Yig‘ilgan keng ko‘lamli ma’lumotlarning matematik-statistik natijalariga tayanib tadqiqot maqsadiga mos umumiy qonuniyatlar aniqlanadi va shu asosda tegishli empirik xulosalar chiqariladi.

Testning kaliti

1. Ekstraversiya-introversiya:

Ha − 1,3,8,10,13,17,22,25,27,39,44,46,49,53,56

Yo‘q − 5,15,20,29,32,34,37,41,51

2. Neyrotizm:

Ha − 2,4,7,9,11,14,16,19,21,23,26,28,31,33,35,38,40,43,45,47,50,52,55,57

3. Yolg‘on:

Ha − 6,24,36

Yo‘q − 12,18,30,42,48,54

Natijalarning me’yoriy ko‘rsatkichlari:

1. Ekstraversiya-introversiya:

0-6 ball − chuqur introvert

7-9 ball –introvert

10-12 ball − ambiversiya

13-18 ball − ekstrovert

19-24 ball − yuqori ekstrovert

2. Neyrotizm:

0-8 ball − psixologik sog‘lom odam.

9-11 ball − asabi joyida, ortiqcha zo‘riqishlardan xoli.

13-16 ball − asabiylik mavjud, o‘zini boshqara olish imkoniyatiga ega, ammo ko‘pincha uni tartibga solishga e’tibor qaratmaydi.

17-24 ball − yuqori asabiy, asabida ortiqcha zo‘riqish mavjud, o‘zini boshqarishi juda qiyin. Tez affektiv holatga, frustratsiyaga duch keladi.

3. Yolg‘on:

0-5 ball − test savollariga ochiq javob bera olgan. O‘zini to‘g‘ri baholay biladi.

6-9 ball − test savollarini tushunmagan, javob berishga ikkilangan yoki o‘zini ortiqcha baholashga moyil.

Natijalarni qayta ishlash jarayonida har bir ko‘rsatkich hisoblab chiqilgandan so‘ng quyidagicha talqin etiladi. Agar ekstraversiya-introversiya 0 dan 12 gacha va neyrotizm 0 dan 12 gacha bo‘lsa, bu tekshiruvchi barqaror-introvert tipiga mansubdir. Barqaror-introvert sovuqqon, har bir ishni o‘ylab qiladigan, o‘z xatti-harakatlarini taroziga solib, o‘zi uchun foydali tomonini ko‘zlaydigan inson hisoblanadi. Barqaror-introvert tipidagi insonlar doimo hushyorlikni, aqlli xatti-harakatlarni birinchi o‘ringa qo‘yadilar. Ular hech bir faoliyatni birinchi boshlamaydigan passiv-sust, har bir ishda «yetti o‘lchab, bir kesadigan» ehtiyotkor, har bir ishni chuqur mulohaza yuritgan holda bajaradigan, aqlli, tinchlikni sevadigan, boshqaruvchan, ishonuvchan, har bir xatti-harakatini nazorat qilishga moyil bo‘lgan vazmin, bir maromda harakat qiladigan xotirjam shaxslar bo‘lib hisoblanadi.

Agar ekstraversiya-introversiya 0 dan 12 gacha va neyrotizm 12 dan 24 gacha bo‘lsa, bu tekshiriluvchi beqaror-introvert tipiga mansub shaxs hisoblanadi. Bunday insonlar haqiqiy introvert bo‘lib, doimo o‘zlarining ichki dunyolari bilan band bo‘lgan kishilardir. Ular har bir narsani ko‘ngillariga oladilar, biroq xafa bo‘lganlarini darrov oshkora qilmaydilar. Beqaror-introvert, ko‘pincha, yuvosh, mulohaza yuritishga moyil bo‘lib, kelajakka umid bilan qaramaydilar. Odamlar bilan muloqot qilishdan qochadilar, muloqotga yengil kirisha olmaydilar.

Agar ekstraversiya-introversiya shkalasi 12 dan 24 gacha va neyrotizm 0 dan 12 gacha bo‘lsa, bunda tekshiriluvchi barqaror-ekstrovert tipiga kiritiladi. Barqaror-ekstrovertlar muloqotga tez kirisha oladilar, har bir jamoaning «yuragi» bo‘la oladilar. Ular har bir ishni qiziqish bilan boshlaydilar, lekin hamma vaqt ham oxiriga yetkazmasliklari mumkin. Barqaror-ekstrovertlar ko‘pincha xushchaqchaq bo‘lib, sharoitga tez va oson moslashadilar.

Agar ekstraversiya-introversiya 12 dan 24 gacha va neyrotizm 12 dan 24 gacha bo‘lsa, bunday tekshiriluvchi beqaror-ekstrovert tipiga mansub hisoblanadi beqaror-ekstrovert sezgirligi, serharakatliligi bilan ajralib turadi. U o‘zgalarning ustidan hukmronlik qilishni yoqtiradi, biron narsa yoqmasa, darhol buni birovga ayta oladi. Ruhiy holati va jarayonlari tez o‘zgarib turadi, uning jahlini chiqarish oson. Jahli chiqqan vaqtda hech kimni tanimaydi, birovning alamini boshqadan olishi mumkin, kelajakka doim umid bilan qaraydi.

Ayzenk testining batafsil tafsilotlari ilmiy adabiyotlarda to‘liq qayd etilgani uchun testdan foydalanishdagi tadqiqotimiz maqsadiga o‘ta-miz.

1. Test natijalariga asoslanib har bir respondentning o‘ziga xos xu-susiyatlari haqida ma’lumot olindi.
2. Olingan ma’lumotlar maxsus tuzilgan «so‘rovnoma» (dissertant tomonidan) natijalar bilan taqqoslanib tegishli xulosalar chiqarilgandan so‘ng shaxs tiplari va sotsial intellekt uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiluvchi adekvat va noadekvat ko‘rsatkichlar ko‘lami belgilandi.
3. Belgilangan ko‘rsatkichlarning haqqoniyligi yana bir karra qo‘shimcha tadbirlar orqali tasdiqlangandan so‘ng ta’lim muassasalarida respondentlar uchun xarakterli bo‘lgan umumiy va o‘rtacha tipik ko‘rsatkichlar jadvaliga kiritildi.

Xulosa. Sotsial intellekt ko‘rsatkichlari o‘qituvchi kasbiy kompitentligini ta’minlovchi muayyan ierarxik va dinamik tizimga ega bo‘lgan ichki psixologik mexanizm asosida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi sotsial intellekti o‘ziga xos ijtimoiy psixologik tuzilmaga ega bo‘lgan shaxs tiplari, shaxs xususiyatlari hamda kognitiv, emotsional, xulqiy komponentlarga bog‘liq holda shakllanadi va rivojlanadi. O‘qituvchi sotsial intellekti ko‘rsatkichlarini Gilford metodi bo‘yicha to‘rt shkala-mezon, Ayzenk metodi bo‘yicha uchta mezon, Kettell metodi bo‘yicha o‘nta shkala-omil talablari asosida baholash va tadqiq qilish mumkin. O‘qituvchi sotsial intellektining ijtimoiy-psixologik ko‘rsatkichlari, verbal va noverbal harakatlarni adekvat tushunish, muloqotga moyillik, hissiy barqarorlik, shaxslararo ta’sirlashuvni samarali tashkil eta olish kabi shaxs sifatlarining namoyon etilishi bilan belgilanadi va baholanadi. O‘qituvchi faoliyatida namoyon bo‘luvchi «muloqotmandlik», «hissiy barqarorlik», «ijtimoiy dadillik», «ijtimoiy yetuklik», «o‘ziga ishonish», «o‘zini nazorat qilish» kabi shaxs xususiyatlari yetakchi omil sifatida sotsial intellekt ko‘rsatkichlarining barqaror va izchil tarzda rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Muayyan maqsadga yo‘naltirilgan psixotrening dasturini qo‘llash orqali, guruhiy jipslikni ta’minlash, assertiv xulqni shakllantirish, emotsional xotira, sotsial tafakkur va kasbiy moslashuv malakalarini o‘zlashtirish bilan bog‘liq ijtimoiy-psixologik omillarni rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. Darslik. – T., 2012. –172 b
2. Майерс Д. Социаьная психология/ Интенсивный курс 3-изд., «Олма Пресс» С.Петер-бург – Москва, 2002. – 188 с.
3. Немов Р.С., Алтунина И.Р. Социальная психология/ Учебное пособие. – СПб.: Питер, 2010. – 432с..
4. Пиаже Ж. Психология интеллекта. – СПБ.: Питер, 2003, – 192 с.
5. Sobirova D.A. Sotsial intellekt: nazariya va amaliyot/ Monografiya. –T.: “Fan”, 2013, – 160 b.
6. Sobirova D.A. Sotsial intellekt diagnostikasi// Psixologiya jurnal. – Buxoro, 2011, – 4-son. – B. 70-85.
7. G‘oziev E.G‘. Ontogenez psixologiyasi. – T.: “O‘qituvchi”, 2010, – 360 b.
8. G‘oziev E.G‘. Oliy maktab psixologiyasi. – T.: “O‘qituvchi”, 2006, – 164 b.
9. G‘oziev E.G‘. Pedagogik psixologiya asoslari. – T.: “Universitet”, 1997, – 80 b.

Yuldashova Dilafruz Shavkatovna
Toshkent Davlat Pedagogika Universitetining
Pedagogika va Psixologiya fakulteti “Psixologiya” kafedrasi o‘qituvchi

TALABALARDA O‘QUV MOTIVATSIYA RIVOJLANISHINING DINAMIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada talabalarning o'quv faoliyati motivlarining qiyosiy tahlili keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *bilimlarni egallash, kasb egallash, diplom olish, kommunikativ motivlar, o‘zini olib qochish motivi, obro motivlari, professional motivlar, o‘z imkoniyatlarini ijod sohasida ro‘yobga chiqarish motivlari, o‘quv va kognitiv motivlar, ijtimoiy motivlar.*

ДИНАМИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ РАЗВИТИЯ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В статье представлен сравнительный анализ мотивов учебной деятельности студентов.*

Ключевое слова: *приобретение знаний, приобретение профессии, получение диплома, коммуникативные мотивы, мотив самоудовлетворения, престижные мотивы, профессиональные мотивы, мотивы реализации своих возможностей в сфере творчества, учебно-познавательные мотивы, социальные мотивы.*

DYNAMIC FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF EDUCATIONAL MOTIVATION IN STUDENTS

Annotation. *The article presents a comparative analysis of the motives of students ' educational activities.*

Key words: *acquisition of knowledge, occupation, obtaining a diploma, communicative motives, self-abduction motive, prestige motives, professional motives, motives for realizing one's capabilities in the field of creativity, educational and cognitive motives, social motives.*

Motivatsiya - bu ichki energiya, shu jumladan insonning hayotdagi va ishdagi faoliyati hamdir [2]. U motivlarga asoslanadi, bunda biz shaxsni harakatga va harakatni amalga oshirishga undovchi o‘ziga xos motivlarni tushunamiz. Agar biz talabalarning motivatsiyasi haqida gapiradigan bo‘lsak, unda motivatsiya ularni bilim faoliyatiga jalb qilish va ta'lim mazmunini faol o‘zlashtirishga undash jarayonlari, usullari va vositalarini ifodalaydi. Motivlar hissiyotlar va intilishlar, qiziqishlar va ehtiyojlar, ideallar va munosabatlarning kombinatsiyasi bo‘lishi mumkin. Shuning uchun motivlar murakkab dinamik tizimlar bo’lib, unda tanlash va qaror qabul qilish, tanlovni tahlil qilish va baholash amalga oshiriladi [1].

Talabalarda o‘quv motivlarni rivojlanishi, uning faoliyatda namoyon bo‘lishi murakkab jarayondir. Ta’lim faoliyatida talaba shaxsining juda ko‘p fazilatlari va malakalari mujassamlashgan bo‘lib, ular talaba shaxsining tuzilishini belgilaydi, uning ilmiy-ijodiy salohiyatini, ta’lim faoliyatining individual uslubini belgilaydi. Ta’lim faoliyati nihoyatda murakkab va xilma-xildir. Lekin shu bilan bir qatorda uning tarkibiy komponentlari nisbatan barqaror bo‘lib, pedagogik jarayonda namoyon bo‘ladi. Bu tizimli faoliyat natijasida talabada o‘zi bajaradigan faoliyat uchun zarur bo‘lgan psixik xislatlar shakllanadi [3].

Biz tadqiqotda talabalar o‘quv faoliyati motivlarini aniqlash maqsadida Termiz davlat universitetining psixologiya (amaliy psixologiya) ta’lim yo‘nalishidan 54 nafar, amaliy matematika ta’lim yo‘nalishidan 45 nafar (shundan, 52 nafari 1-kurs, 47 nafari 4-kurs) talabalar, 25 nafar professor-o‘qituvchilar, Buxoro davlat universitetining psixologiya ta’lim yo‘nalishidan 23 nafar, matematika yo‘nalishidan 24 nafar (shundan, 24 nafari 1-kurs, 23 nafari 4-kurs) talabalar, 16 nafar professor-o‘qituvchilari, Toshkent davlat pedagogika universitetining psixologiya ta’lim yo‘nalishidan 56 nafar, matematika va informatika ta’lim yo‘nalishidan 25 nafar (shundan, 28 nafari 1-kurs, 53 nafari 4-kurs) talabalar, 20 nafar professor-o‘qituvchilari jalb etilgan. Shunda tadqiqotga jalb qilingan talabalarning umumiy soni 227 nafarni (shundan, 104 nafar 1-kurs, 123 nafar 4-kurs talabalari), professor-o‘qituvchilarning soni esa 61 nafarni tashkil etadi. Talabalarning motivatsion sohasini tadqiq etish, ayniqsa o‘quv motivatsiyasini chuqurroq o‘rganish uchun T.I.Ilinning «Universitetda o‘qish motivatsiyasini aniqlash», A.A.Rean, V.A.Yakunin, N.S.Badmaeva tomonidan modifikatsiya qilingan

«Talabalarning o‘quv motivatsiyasini diagnostika qilish» so‘rovnomalaridan foydalandik. Dastlab, birinchi va to‘rtinchi kurs talabalarining o‘quv motivlarini o‘ziga xos jihatlarini tahlil qildik. Kurslar kesimidagi natijalar tahlil qilinganidan so‘ng, ularni ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha natijalarini tahlil qilib chiqdik. Mazkur metodikalardan olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

Jadval-1

Talabalar o‘quv motivatsiyasining dinamik xususiyatlari (n=227)

Motivlar	O‘rtacha qiymati		t
	1-bosqich	4-bosqich	
Bilimlarni egallash	7,8	8,3	-1,23
Kasb egallash	7,0	6,8	-2,69*
Diplom olish	8,1	6,4	-2,45*
Kommunikativ motivlar	4,72	3,01	-2,23*
O'zini olib qochish motivi	4,49	2,67	-2,21*
Obro motivlari	2,03	2,75	0,90
Professional motivlar	1,84	3,76	-2,60*
O‘z imkoniyatlarini ijod sohasida ro‘yobga chiqarish motivlari	1,06	2,76	-2,90*
O‘quv va kognitiv motivlar	2,99	2,62	0,66
Ijtimoiy motivlar	2,1	4,0	-2,32*

Izoh: * p≤0,05; ** p≤0,01; *** p≤0,001.

.Olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, birinchi va to‘rtinchi kurs talabalarining natijalari orasida kasb egallash (t=-2,69; p≤0,05), diplom olish (t=-2,45; p≤0,05), kommunikativ (t=-2,23; p≤0,05), o‘zini olib qochish (t=-2,21; p≤0,05), professional (t=-2,60; p≤0,05), o‘z imkoniyatlarini ijod sohasida ro‘yobga chiqarish (t=-2,90; p≤0,05), ijtimoiy motivlar (t=-2,32; p≤0,05) bo‘yicha ahamiyatli statistik farqlar aniqlangan.

Kasb egallash motivi birinchi kurs bosqichlarida yuqori ko‘rsatkichga egadir. Birinchi kursga qabul qilingan talabalarida yuqori malakali mutaxassis, bo‘lajak kasbiy yo‘nalishda muvaffaqiyatga erishish, kasbiy bilimlarini kengaytirish istagini yuqori darajada namoyon bo‘lishini anglatadi. Bunda talabalar qanday motivlar asosida oliy ta’lim yo‘nalishini tanlaganligidan qat’iy nazar kasb va uning sir-asrorlarini o‘rganish istagi bilan ajralib turadilar. Ta’lim jarayonidagi pedagogik vaziyatlar talabalarning mazkur istaklari va motivlarini ma’lum darajada pasayishiga sabab bo‘lganligi bois, 4-kurslarda mazkur natijalar biroz pastroq qiymatga ega bo‘lgan. Odatda 1-kursga qabul qilingan talabalarning oliy ta’lim jarayoniga moslashishida kasbiy bilimlarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq qiyinchiliklar kuzatiladi. Biroq, mazkur qiyinchiliklar ularni kasb egallash istagini pasaytirmaydi. Qolaversa, 1-kurs talabalarida tanlagan kasblarining ijtimoiy mavqeyi nuqtai nazaridan yoshlardagi «maksimalizm» fenomeni ta’sirida imkon qadar «tezroq» va «osonroq» tarzda kasbiy bilimlarni egallash yo‘llarini izlaydilar. Natijada talabalarda tafakkur operatsiyalarining faollashuvi, o‘quv motivlarini ortishi, har bir o‘zlashtirilgan ma’lumotlarga amaliy proektiv tafakkur asosida analiz qilish holati kuzatiladi. 4-kurslarda esa bilishga oid muammolardan ko‘ra, mutaxassislik fanlari doirasida beriladigan kasbiy bilimlarni amalda qo‘llash bilan bog‘liq muammolarga duch kela boshlaydilar hamda kasbiy tasavvurlarning reallik bilan bir xil bo‘lmaganligi bois talabalarning motivatsiyasi pasayishi kuzatilmoqda. Talabalarda kasbiy sohaga oid bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida «yangi ma’lumotlar»ni o‘zlashtirish uchun sarflanadigan iroda akti psixoemotsional fon ta’sirida sustlashadi. Natijada bo‘lajak o‘qituvchi o‘qitish metodikasi bilan bog‘liq ma’lumotlarni o‘zlashtirishda qiynala boshlaydi. Bu esa uning kasbiy bilimlarni egallash motivini su-sayishiga olib keladi. Qolaversa, 4-kurs talabalarida kasb egallash motivlari ko‘proq tashqi faktorlar bilan emas, ichki omillar bilan bog‘lanadi.

Navbatdagi mezon diplom olish motividir. Diplom olish motivi ham 1-kurs talabalarida ustunroqdir. Bunda oliy ta’lim muassasasida tahsil olish ko‘proq tashqi omillar bilan determinatsiyalashganligini anglatadi. Talabalardagi diplom olish motivining ustuvorligi eng avvalo, ta’limni har bir bosqichida tahsilni davom ettirish, nazorat ishlarini “yaxshi”, “a’lo” ga topshirish orqali tahsilni davom ettirish, bu orqali ota-ona va atrofdagilarning qo‘llab-quvvatlashiga erishishdan iborat. Boshqachasiga aytganda, talabalarda o‘zining “talaba” mavqeini oxirigacha yetkazib olish, bosqichma-bosqich o‘quv topshiriqlarini bajarib, rasman “oliy ma’lumotli” degan mavqeni egallash muhim o‘rinda ekanligi aniqlangan. Bunda albatta ta’lim motivlari bilan bog‘liq tashqi, ijtimoiy motivatsiya ustuvor

harakterga ega bo‘lmoqda. 4-kursga kelib esa talabalarning diplom olish istagi bilan bog‘lq motivlarini o‘rnini anglangan motivlar egallay boshlaydi. Shu boisdan, ham 1-kurs natijalariga qaraganda 4-kurs natijalari pastroqdir.

Har ikki kurs orasida bilishga oid motivlar orasida ahamiyatli statistik farq aniqlanmagan. Biroq, 4-kurs talabalarida ahamiyatsiz darajada bilim egallash, o‘z kasbini bilimdoni bo‘lish, intellektual salohiyatning ortishi kuzatilgan. Mazkur holat ularning umumiy bilim darajasidan kasbiy bilim darajasiga o‘zgarishi bilan kuzatiladi.

Talabalar o‘quv motivlarining navbatdagisi kommunikativ motivlardir. Kommunikativ motivlar ham 1-kurs talabalarida ustunroqdir. Kommunikativ motivlar talabalarning muloqot qilish bilan bog‘liq ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan. Kommunikativ motivlarning 1-kursda ustuvor harakterga ega bo‘lishini talabalik davridagi qiyinchiliklar bilan bog‘lab izohlash mumkin. Bizga ma’lumki, talabalar 1-kursga qabul qilinganidan so‘ng barqaror “talabalar guruhi” ni shakllanishi jarayoni kechadi. Mazkur jarayon talaba shaxsida ijtimoiy-psixologik qiyinchiliklarni bartaraf etish istagini uyg‘otadi. Natijada talabalar imkon qadar bir-biri bilan kommunikativ jihatdan bog‘lanadilar. Dastlab bu kommunikatsiya almashinuvi primitiv darajada kechadi, biroq vaqt o‘tishi bilan talabalar orasidagi axborot almashinish jarayoni emotsional tusga ega bo‘la boshlaydi. Talabalar guruhini shakllanishi va talabalarning ijtimoiy moslashuvi uchun kommunikativ motivlarning faollashuvi muhim mezon hisoblanadi.

Talabalar o‘quv motivlarining navbatdagisi o‘zini olib qochish motivlardir. O‘zini olib qochish ham 1-kurs talabalarida ustunroqdir. Mazkur holat talabalardagi muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivi bilan bog‘liq. 1-kurs talabalaridagi topshiriqlarni bajarish bilan bog‘liq omadsizlikka uchrashdan, kasbiy bilimlarni egallashdagi qiyinchiliklarni yenga olmaslikdan qo‘rqishdan iborat. Odatda 1-kurs talabalari pedagogik topshiriqlarni bajarishda qiyinchilikka uchrashdan qo‘rqadilar, chunki ularda tegishli kompetensiyalar yetishmaydi. Natijada talabalarda didoktogen qo‘rquvlar, ta’lim bilan bog‘liq xavotirlar yuzaga keladi. Bu esa ularni murakkab topshiriqlarni bajarishda “oson yo‘llarni” qidirib, “o‘zini olib qochish” motivlarini kuchaytiradi. Qolaversa, talabalikka qabul qilingandan keyin ta’lim japayoniga moslashish bilan bog‘liq «adaptasiya sindromi» ta’sirida talaba o‘qituvchilarning ijtimoiy kutuvlariga mos ravishda harakatlanishga intiladi. Natijada turli tashkiliy, ijtimoiy muammolarga duch kelmaslik uchun adaptiv xulqni namoyon qiladi va shunga mos ravishda motivlar faollashadi. 4-kursga kelib esa mazkur motivlar o‘z-o‘zidan ta’lim muhitiga moslashish hisobiga kamayib boradi.

So’rovnomada ahamiyatli farq kuzatilgan navbatdagi motiv professional motivdir. Mazkur motiv bo‘yicha 4-kurs talabalari yuqori natijalar ko‘rsatgan. Talabalardagi mazkur motiv kasbiy bilim va ko‘nikmalarni egallashga, yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishga bo‘lgan ehtiyojlarini faollashuvi bilan bog‘liq. Mazkur holatni 4-kursga kelib mutaxassislikka oid fanlarning ko‘payishi, amaliyotning kuchayishi talabalarda professional bilim va ko‘nikmalarni egallash motivini faollashuviga olib keladi. 1-kursda o‘qitiladigan fanlar umumiy fanlar bo‘lganligi bois, talabalarda kasbiy bilimlardan ko‘ra umumiy dunyoqarashning shakllanishiga olib keladi. Bizga ma’lumki, bosqichma-bosqich bizda kasbiy fanlar soni ortib, egallangan bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyati kengayib boradi. Shu boisdan ham 4-kurs talabalarida professional motivlar ustundir.

Navbatdagi mezon o‘z imkoniyatlarini ijod sohasida ro‘yobga chiqarish motivi bo‘lib, mazkur motiv bo‘yicha 4-kurs talabalarida yuqori ko‘rsatkich aniqlangan. 4-kurs talabalarida mutaxassislik fanlari, qolaversa, professional bilim, ko‘nikmalarni rivojlanishi hisobiga shaxs o‘z imkoniyatlarini ijodiy darajada namoyon bo‘lishi kuzatilgan. Mazkur holat talabalardagi kreativ tafakkur, kasbiy intuitsiyaning yil sayin kuchayib borishi bilan ham belgilanadi. 1-kurs talabalarida yetarli darajada bilim va ko‘nikmaning mavjud bo‘lmaganligi kasbiy keyslarni bajarishda reproduktiv tafakkurni namoyon qilishlari bilan bog‘liq. Qolaversa, 1-kurslar kasbiy tushunchalarni ilmiy rakursda o‘zlashtirish uchun ko‘proq vaqt sarflaydilar. Shu boisdan ham ijodiy, kreativ yondashuvdan ko‘ra aniq, ma’lum bo‘lgan usullarda o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishni afzal ko‘radilar.

So’rovnomada ahamiyatli farq kuzatilgan navbatdagi motiv ijtimoiy motivdir. Mazkur motiv bo‘yicha ham 4-kurs talabalari yuqori natijalar ko‘rsatgan. 4-kurs talabalarida ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarga va atrofdagilarni qo‘llab-quvvatlashi, ma’qullashiga intilish, ijtmoiy mavqega intilishning kuchliligi kuzatilgan. 4-kurs talabalarining ijtimoiy motivlari bevosita kasbiy sohada o‘z mavqeyini topishga intilish bilan bog‘liq. 4-kurs talabalarining ijtimoiy muhit bilan, ya’ni pedagoglar, tengdoshlari bilan munosabatlari muhim o‘ringa ega deb baholanmoqda. Mazkur holat talabalarning “jamiyatga nafi tegish” i uchun bilim olishga intilishi, o‘z burchi va mas’uliyatliligi bilan ajralib turishini anglatadi. 1-kurs talabalarida esa “ijtimoiy foydali” bo‘lishdan ko‘ra “raqobatda birinchi bo‘lish” istagini yuqoriligini ko‘rsatadi. Ijtimoiy motivlarning 1-kursda pastroq ko‘rsatkichga ega bo‘lishi talabalarning

ta'lim jarayoni bilan bog'liq ijtimoiy qiyinchiliklari ta'sirida kechadi. Talabalik davriga xos bo'lgan ijtimoiy qiyinchiliklar yangi ijtimoiy muhit, ayrim talabalar uchun boshqa demografik shapoitga moslashishda yuzaga keladigan holatdir. Bu davrda talaba asosiy e'tiborni ijtimoiy munosabatlarni, ya'ni «o'qituvchi-talaba» vertikal, «talaba-talaba» gopizontal munosabatlar diadasini bog'lashga, barqarorlashtirishga qaratadi. Talabalar auditoriyasiga xos bo'lgan emotsional munosabatlar tizimini o'rnatishga urinadi. 4-kursga o'tgan talaba shaxslararo munosabatlar tizimini o'rnatish borasida ancha ijtimoiy tajriba orttirganligi bois, endi asosiy e'tiborni o'quv faoliyatda o'zligini tasdiqlashga, o'z ustida ishlashga yo'naltiradi va shu orqali gupuhdagi ijtimoiy mavqeyini barqarorlashtirishga urinadi.

So'rovnoma natijasida obro', o'quv va kognitiv motivlar orasida ahamiyatli statistik farq kuzatilmagan. Mazkur holat talabalarimiz orasida obro' orttirish, o'quv-kognitiv ehtiyojlar bilan bog'liq istaklarni deyarli differensiyalashmagan holda namoyon bo'lishidan dalolat beradi.

Demak, talabalarning o'quv motivlarining rivojlanishi dinamik xususiyatga ega bo'lib, motivatsion sohaning ierarxik komponentlari takomillashib borishi bilan o'quv motivlarining barqarorlashib borishini kuzatishimiz mumkin. Talabalardagi o'quv faoliyati motivlari bilim egallash, ijodiy faoliyatga intilish bilan bog'liqdir. Bizning ilmiy izlanishlarimiz natijasida talabalar o'quv motivatsiyasini dinamik xususiyatga ega ekanligi 1-kurs talabalarida kasbiy-ilmiy tushunchalarning o'zlashtirilishi, 4-kurslarda esa kasbiy kompetensiyalarni reallikka ko'chirish bilan bog'liq hisoblanadi. Shu boisdan ham, talabalar o'quv faoliyatining motivatsion sohasida kasb egallash, professional, o'z imkoniyatlarini ijod sohasida ro'yobga chiqarish bilan bog'liq ichki, diplom olish, kommunikativ, o'zini olib qochish, ijtimoiy motivlar bilan bog'liq tashqi motivlarning ustuvorligi kuzatilgan.

Adabiyotlar

1. Балашов А.П. Теория менеджмента: Учеб. пособие. – М.: Вузовский учебник: ИНФРА-М, 2014. – 352 с.

2. Подласый И. П. Педагогика: 100 вопросов — 100 ответов: учеб. Пособие для студентов вузов / И. П. Подласый. – М.: Изд. ВЛАДОС ПРЕСС, 2006.

3. F.Xaydarov, N.Xalilova "Umumiy psixolgiya" Toshkent. "Innovatsion-ziyo" 2019. - 284 b.

Nazaraliyeva Marxabo Xayitboyevna
Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

BO‘LAJAK OFISERLARDAGI TOLERANTLIKNING SHAXS QADRIYATLAR TIMZIMI BILAN BOG‘LIQLIGINI O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotasiya. *Jahon miqiyosida axborot oqimi kuchayotgan bir davrda harbiy-siyosiy vaziyat hamda mintaqalardagi qarama-qarshilik, ziddiyat va nizolar, xalqaro terrorizm xavf-hatarlari tobora kuchayib borayotgan bugungi kunda, ko’plab rivojlangan davlatlar armiyalaridagi harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy holati, jangovar shayligi va tayyorgarlikni ta’minlash dolzarb vazifalardan biridir. Mazkur ilmiy maqolada aynan kasbiy tayyorgarlik, harbiylarning professional muhim sifatlarini shakllanishi tolerantlik negizida yoritib berilgan. Bo’lajak ofiserlardagi tolerantlik darajasining qadriyatlar tizimi bilan bog’liqlik jihatlari yoritib berilgan. Bizga ma’lumotki bo’lajak ofiserlar favqulodda holatlarda aholining turli qatlami va guruhi bilan ishlashga tayyorlanadi. Shu boisdan, ularning tolerantligi muhimdir. Tolerantlik- sabr bardosh ma’nosini anglatib, keng ma’noda qo’llaniladigan tushuncha hisoblanib, har bir muayyan insonni uning fikri, nuqtai-nazari dunyoqarashi, e'tiqodini qanday bo‘lsa shundayligicha, ya'ni, inson individualligini o’z etiqodidan voz kechmagan holda qabul qila olishi, atrofdagilarga nisbatan bardoshli bo‘lishi, o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvatli, g‘amho‘r, sahiy bo‘lib o‘z ruhiy muvozanatini adovatga yo‘l qo‘ymasdan, ijobiy munosabatlarni shakllantirgan holda, inqirozli va nizoli vaziyatlarda yon berib adolatli murosa qilgan holda o’zini ideal inson sifatida saqlab qolishidir.*

Kalit so’zlar: *tolerantlik, ofiser, harbiy holat, etnik tolerantlik, ijtimoiy tolerantlik, milliy dahldorlik, millat.*

ХАРАКТЕРИСТИКА СВЯЗИ ТОЛЕРАНТНОСТИ БУДУЩИХ ОФИЦЕРОВ С СИСТЕМОЙ ЛИЧНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация. *В условиях, когда поток информации в глобальном масштабе увеличивается, военно-политическая ситуация и противоречия, конфликты и конфликты в регионах, а также опасность международного терроризма сегодня возрастают, морально-духовное состояние военнослужащих В армиях многих развитых стран обеспечение боевой готовности и обучения является одной из актуальных задач. В данной научной статье освещается профессиональная подготовка, формирование важных профессиональных качеств военнослужащих на основе толерантности. Выделены аспекты, связанные с уровнем толерантности будущих офицеров с системой ценностей. Мы знаем, что будущих офицеров готовят к работе с разными слоями и группами населения в чрезвычайных ситуациях. Поэтому их толерантность важна. Толерантность – это понятие, которое используется в широком смысле, и считается, что оно используется в широком смысле, чтобы уметь принять ситуацию, быть терпимым по отношению к другим, быть добрым, заботливым и щедрым по отношению к другим. другие – сохранять душевное равновесие, не допуская вражды, сохранять позитивные отношения, идти на справедливые компромиссы в кризисных и конфликтных ситуациях, сохранять себя как идеальную личность.*

Ключевые слова: *толерантность, офицер, военное положение, этническая толерантность, социальная толерантность, национальная толерантность, нация.*

CHARACTERISTICS OF THE RELATIONSHIP OF TOLERANCE IN FUTURE OFFICERS WITH THE SYSTEM OF PERSONAL VALUES

Abstract. *At a time when the flow of information is increasing on a global scale, the military-political situation and the contradictions, conflicts and conflicts in the regions, and the dangers of international terrorism are increasing today, the moral and spiritual condition of the military personnel in the armies of many developed countries, combat readiness and training 'providing is one of the urgent tasks. In this scientific article, the professional training, the formation of important professional qualities of the military is highlighted on the basis of tolerance. Aspects related to the level of tolerance in future officers with the value system are highlighted. We know that future officers are trained to work with different strata and groups of the population in emergency situations. Therefore, their tolerance is important. Tolerance is a concept that is used in a broad sense, and it is considered to be a concept that*

is used in a wide sense. to be able to accept the situation, to be tolerant towards others, to be kind, caring and generous towards others, to keep his mental balance without allowing enmity, to maintain positive relationships, to make fair compromises in crisis and conflict situations, and to preserve himself as an ideal person.

Key words: *tolerance, officer, martial law, ethnic tolerance, social tolerance, national tolerance, nation.*

Jahon miqiyosida **«tolerantlik»** tushunchasi XX-asr oxirida BMT tomonidan ishlab chiqilgan va 1995 yilda YUNESKO Bosh konferentsiyasida tasdiqlangan “Tolerantlik tamoyillari deklaratsiyasi” kabi muhim xalqaro hujjatning yaratilishi bilan keng miqiyosda qo’llanila boshladi. Kontseptsiyaning batafsil talqinida yozilishicha «Tolerantlik o’zaro hurmat, o’zgalarni qabul qilish va madaniyatlarning butun hilma-hilligini, o'zini namoyon qilish shakllarini va inson individualligining namoyon bo'lishini to'g'ri tushunishidagi hilma-hilligidagi uyg'unlikdir. Bu nafaqat ma’naviy burch, balki siyosiy va huquqiy zaruratdir. Tolerantlik tinchlikka erishish imkonini beruvchi va urush madaniyatidan tinchlik madaniyatiga olib boradigan fazilatdir» Shaxsda, jumladan ofiserlarda tolerantlikni namoyon bo‘lishi ko‘p jihatdan kasbiy shart-sharoitga, muhitga va eng asosiysi shaxs qadriyatlari tizimiga bog‘liqdir. Bizga ma’lumki, ofiserlar o‘z kasbiy faoliyati davomida turli aholi qatlami bilan munosabatga kirar ekan, ularning qadriyatlar tizimini tolerantlik sifatlarini namoyon bo‘ligiga ta’sirini tadqiq etish muhimdir. Shaxs qadriyatlari tizimi uzoq yillar davomida ijtimoiy ideallar, tasavvurlar, motivasion sohadagi o‘ziga xosliklar bilan uyg‘un holda yuzaga chiqadi. Shunday ekan tolerantlikning bo‘lajak ofiserlarda namoyon bo‘lishi shaxs qadriyatlar tizimiga bog‘liqdir. Biroq, so‘nggi yillarda qadriyatlarning transformasiyalanishi tolerantlikni ma’lum bir darajada yuzaga chiqishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, harbiy sohada tolerantlik darajasining o’ziga xosligi muhim. Chunki, boshqa soha vakillaridan farqli ravishda harbiy ofiserlar turli etnik guruhlar bilan munosabatda bo’ladi va eng asosiysi Vatan taqdiri ham mazkur kasb egalarining qo’lidadir. Shu boisdan harbiylarning qadriyatlar tizimi va tolerantlik darajasini o’rganish muhim.

Haqiqatdan ham tolerantlik muammosi, bizning fikrimizcha, insonparvarlik psixologiyasi nuqtai nazaridan tahlil qilinishi lozim, bunda rivojlanish, erkinlik, hamkorlikka intilish ustuvor yo‘nalish hisoblanadi (Sh.A.Amonashvili yondashuvida); D.Dewey, J.J.Russo, L.N.Tolstoy nomlari bilan bog‘liq insonparvarlik paradigmasi. (I.A.Kolesnikovaning yondashuvida); pedagogikani tushunishning maqsadi O.S.Gazman, N.N.Mixaylova, S.D.Polyakov, S.M.Yusfin, bolani hayot yo‘lining shaxsiy trayektoriyasini qurishda qo‘llab-quvvatlash uchun sharoit yaratishdir. XX asrning 90-yillarida O.S.Gazman tomonidan yaratilgan insonparvarlik pedagogikasining asosiy tavsifi – shaxsning qobiliyati, o‘z taqdirini, dunyo bilan munosabatlarni o‘zi belgilashi, individual imkoniyatlarini amalga oshirish uchun sharoitlarni yaratishdan iborat.

Tolerantlik N.B.Krilova nuqtai nazari bo‘yicha asosiy qadriyatlar sifatida chidamlilik, hamkorlik va insonparvarlik g‘oyalari bilan bog‘liq bo‘lib, shaxsni tanlash va o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga ega ekanligini tan olishga asoslanadi. Mazkur qarashning asosi erkinlikni ta’minlashdan iborat bo‘lib, o‘zga shaxs yoki guruhning mustaqilligini qabul qilish tajribasi, his qilish hamda empatiya vositasida boshqalarni tushunishni anglatadi.[39;448]

Demak, shaxsning erkinlikka ega bo‘lish huquqi - o‘z hayot yo‘li bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilishi va o‘z tanlovi uchun javobgar bo‘lish qobiliyati deb e’tirof etilishi mumkin.

Tolerantlik muammosini yanada kengroq yoritish pedagogikada “tolerantlik” tushunchasining mazmunini tushunishni talab qiladi. Pedagogik lug‘atda B.M.Bim-Bad tolerantlikning psixologik talqinini beradi: «uning ta’siriga sezgirlikning pasayishi natijasida har qanday salbiy omilga javobning yo‘qligi yoki zaiflashishi, insonning psixologik moslashuvini yo‘qotmasdan turli xil hayotiy qiyinchiliklarga dosh berish qobiliyati».

Shaxs qadriyatlari tizimi uning qiziqishlari, qarashlari, motivasion sohasining barqaror qismini, inson hayot tarzining “irodaviy komponenti”ni anglatadi. Shaxs qadriyatlari tizimi inson hayotida maqsadga yo‘naltirish, baholash, motivasiyalash, o‘z-o‘zini nazorat qilish va boshqarish vazifalarini bajarar ekan bo‘lajak ofiserlarning hayot tarzi va faoliyatini o‘ziga xos tarzda tartibga solish bilan bir qatorda tolerantlik kabi shaxsiy va kasbiy sifatlarni shakllanishiga olib keladi. Tolerantlik esa mazkur tizimdagi insoniylik anglatuvchi sifatdir. Bo‘lajak ofiserlar uchun tolerantlikning namoyon bo‘lishi muhim. Bu jihatning shaxs qadriyatlar tizimi bilan qanchalik darajada korrelyasiyalanganligini aniqlash maqsadida G.U.Soldatova, O.A.Kravsova, O.Ye.Xuxlayev, L.A.Shaygerovalarning “Shaxs tolerantlik

indeksi" O.L.Romanovaning "Etnik identifikasiya" so'rovnomalarining Yanov–Bulmanning "Bazaviy e'tiqodlar shkalasi" bilan o'zaro bog'liqlik jihatini aniqlab oldik.

1-jadval

Bo'lajak ofiserlarda tolerantlikning shaxs qadriyatlar tizimi bilan bog'liqlik jihatlari (n=121)

	Dunyoniijobiyligi	Insonlarning yaxshiligi	Hayotning odilligi	Hayotning boshqaruvchan-ligi	Tasodif bo' layotgan voqyealarni taqsimlanishi tamoyili sifatida	O' z " Men" ining qadr – qimmati	O' zini o' zi boshqarish darajasi	Omad darajasi
Etnik tolerantlik	0,007	0,10	0,15	0,18	0,03	-0,08	-0,09	0,05
Ijtimoiy tolerantlik	-0,13	-0,01	0,06	-0,1	-0,10	-0,13	-0,14	-0,13
Barkamollik	-0,16	0,01	-0,04	**-0,2****	-0,10	-0,17	**-0,27*****	-0,07
Etnik mansublik hissi	-0,02	0,15	**0,28*****	0,08	-0,01	0,06	0,13	0,12
Milliy dahldorlik	-0,05	**0,25****	**0,28*****	0,15	0,04	0,01	0,05	0,16
Etnik munosabatlar	-0,1	0,16	0,13	0,1	-0,09	-0,13	-0,01	0,06
U yoki bu tilni qo'llash	0,03	0,11	**0,21****	0,19	0,07	0,13	0,17	0,11

Izoh: * p≤0,10; ** p≤0,05; *** p≤0,01

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, barkamollik hayotning boshqaruvchanligi (r=-0,2; p≤0,05), o'zini-o'zi boshqarish (r=-0,27; p≤0,01) bilan teskari korrelyasiyaga ega. Natijalarimizda kuzatilgan qiziqarli holat ham mana shunda. Chunki barkamollik kamolot, balog'atga erishgan, bekamu ko'st, yetuk, mukammal, komil, ma'rifatlililik degan. Barkamollik aqliy, ma'naviy, axloqiy jihatdan yetukligi, o'zi tanlagan kasb-hunarning ustasi bo'lishi, shaxs sifatida shakllanib, ezgu g'oya va niyatlar bilan bunyodkorlik va yaratuvchanlik qobiliyatiga ega bo'lishini ham anglatadi. Qiziqarli holat shundaki, barkamollik sifati qadriyatlar tizimining hayotni anglashga, adolatga nisbatan munosabatni, insonni o'ziga va atrofdagilarga nisbatan munosabatini ko'rsatib beruvchi jihatlar bilan teskari korrelyasiya bergan. Hayotning boshqaruvchanligi esa insonni o'z hayot tarzini anglashi, tushunishi va ubilan uyg'unlashuvini anglatadi. Biz mazkur ikki fenomen orasidagi teskari bog'liqlikni ofiserlarning turmush tarzidagi ekstremal holatlarni, oila bag'ridan uzoqda "kazarma" tuzimida yashashi bilan tushuntirishimiz mumkin. Bo'lajak ofiserlar hayotidagi favqulodda holatlar shaxsiy hayotdagi bir oz "tartibsizlik"ni keltirib chiqaradi. Natijada, bo'lajak ofiserlarda kasbiy komilikka intilish hayotiy boshqaruvchanlikni bir oz boshqa rakursda kechishiga olib keladi. Navbatdagi mezon o'z-o'zini boshqarish bilan barkamollik orasidagi teskari bog'liqlik. O'z-o'zini boshqarish shaxsning o'ziga bo'lgan munosabatidan kelib chiqadi. Mazkur holatda ham bir oz tushunarsiz holat kuzatilgan. Chunki barkamollik o'z-o'zini boshqarish bilan uyg'un bo'lishi kerak edi. Bizning nazarimizda kuzatilgan ushbu holatni ham bo'lajak ofiserlarni kasbiy shakllanishi bilan bog'liq. Bo'lajak ofiserlar kasbiy shakllanish jarayonida o'zini boshqarish va nazorat qilishni o'rganib boradi. Biroq, ofiserlarni kasbiy tayyorlash maskanidagi shart-sharoitlar, o'ziga xos qat'iy tartib-intizom ikki fenomen orasidagi salbiy bog'lanishlarga olib kelgan. Bu yerda e'tibor qaratish lozim bo'lgan bir jihat bor bo'lajak ofiserlar atroflarida bo'layotgan voqyea-hodisalarni boshqarishga, kerakli harakat strategiyalarni ishlab chiqishga urinishsa ham "xizmat faoliyati" bilan bog'liq favqulodda holatlar ba'zan hayot tarzini boshqarish imkonini cheklab qo'yadi. Shu boisdan, ikki fenomen orasida salbiy bog'lanishlar aniqlangan.

Navbatdagi ko'rsatkich etnik mansublik hissi hayotning odilligi (r=0,28; p≤0,01) mezoni bilan ijobiy bog'lanishlarga egaligi bilan belgilangan. Mazkur holat bo'lajak ofiserlarning o'z kelib chiqishi, milliy mansubligini anglashi, his qilishi hayotning odilligini, bo'layotgan voqyealarning mag'zini tushunish bilan uyg'un kechayotganigini anglatadi. Bo'lajak ofiserlarning hayot odilligiga yuqori

darajadagi ishonchi uning etnik mansubligi, milliy identifikasiyasining kuchliligi bilan uyg‘un holda kuzatiladi. Bo‘lajak ofiserlardagi etnik mansublik hissining hayotni odilligi bilan uyg‘unligi eng avvalo etnik guruhni o‘z adolati prizmasida idrok qilish, shaxsning ijtimoiy mavqyeini mustahkamlash, kasbiy hamda tengdoshlari jamoasini autent baholash, shaxslararo munosabatlardagi differensial yondashuvni o‘ziga xos tarzda yuzaga chiqishiga olib keladi. Natijada bo‘lajak ofiserlarda tolerantlikning etnik mansublik xissiga identiv shakllanishi kuzatiladi.

Psixodiagnostik tekshiruvlarimizning navbatdagi ko‘rsatkichi milliy dahldorlikning bazaviy e’tiqodlardan insonllarni yaxshiligi ($r=0,2$; $p\leq0,05$), hayotning odilligi ($r=0,28$; $p\leq0,01$) bilan ijobiy bog‘liqlikdadir. Milliy daxldorlik ofiserlarda muhim o‘ringa ega, chunki mazkur xis ularni millatga, Vatan taqdiriga, xalqqa uyg‘unligini, ularning taqdiri bilan yashashini, elat oldida mas’uliyatni xis qilishini anglatadi. Shunday ekan, bo‘lajak ofiserlardagi millat va yurt taqdiriga, uning taraqqiyotiga nisbatan bo‘lgan daxldorlik xissi insonlarni yaxshi, optimist, mehribon va eng asosiysiy gumanistik jihatdan idrok qilishlariga olib keladi. Bo‘lajak ofiselarni milliy daxldorligi o‘zlari mansub bo‘lgan millat vakillarini hammadan yaxshi sifatida qabul qilishlariga sabab bo‘ladi. Milliy daxldorligi kuchli rivojlangan bo‘lajak ofiserlarda hayotning odilligi, yurtagi taraqqiyot o‘zining adolat mezoniga qurilganligi bilan ajralib turishi, faxr tuyg‘usi bilan uyg‘unlashadi. Shu boisdan ham mazkur fenomenlar orasida ijobiy bog‘lanishlar aniqlangan.

Dissertasion izlanishlarimizning yana bir muhim jihati bo‘lajak ofiserlarda u yoki bu tilni qo‘llashning hayotning odilligi ($r=0,21$; $p\leq0,05$) bilan ijobiy bog‘lanishga ega bo‘lganligidadir. Bo‘lajak ofiser kasbiy faoliyati nuqtai nazaridan turli millat vakillari bilan diolog o‘rnatishga majbur bo‘ladi. Natijada turli tillarni o‘zlashtirish, ularni faoliyatda qo‘llash shu tilda suxbat qiluvchi millat vakillarining madaniyatiga nisbatan tolerant munosabatni shakllanishiga olib keladi. Mazkur holat esa bo‘lajak ofiserlarning dunyoqarashi, intellegentlilik darajasi, madaniyatini yanada chuqurroq rivojlanishiga olib kelib, xalqlarning turmush tarzi, ijtimoiy qatlamdagi munosabatlar, jamiyat tizimidagi adolatlilikni ko‘rsatadi. Turli millat vakillarining tillarini qo‘llash orqali hayotning odilligi haqidagi tushunchalar tizimi barqarorlashib boradi. Shu boisdan, mazkur ikki fenomen orasida ijobiy bog‘lanishlar aniqlangan.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida xulosa qiladigan bo‘lsak, bo‘lajak ofiserlardagi tolerantlik va bazaviy e’tiqodlar orasida o‘zaro bog‘liqlikning mavjudligi aniqlangan.

Xulosa qiladigan bo’lsak, bo’lajak ofiserlarda tolerantlikni namon bo’lishining shaxs qadriyatlari tizimi, tayanch e’tiqodlari bilan bog’liqligini tadqiq etish asosida quyidagi xulosalarni shakllantirdi:

1. Sotsial turmush tarzida turli xil shaxslar uchraydi, tolerant shaxsning xususiyatlari insonparvarlik, adolatlilik va ijodkorlikning ko‘rinishlari xayol tasavvurlari tolerantlik bilan uzviy bog‘liqligi ularga nisbatan optimistik qarash va samiymiylikni ko‘paytirgan holda agressivlikka barham berish va stress holatlarining oldini olish uchun shaxsda tolerantlik tushunchlarini namoyon bo‘lishidir.

2. Bo’lajak ofiseyerlardagi tolerantlik indeksi asosan hayotni odilligi, o’z-o’zini boshqarish darajasi bilan bog’liq holda namoyon bo’lganligi aniqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Декларация принципов терпимости (принята резолюцией 5.61 Генеральной конференции ЮНЕСКО от 16 ноября 1995 г). Ст. 4. // Национальный психологический журнал. - 2011. - № 2(6). - С. 134-136.3.

2. Королев С.И. Вопроси этнопсихологии в работах зарубежних авторов. –Москва. 1970. - 39 б.

Narzullayev Nuriddin Homit o‘g‘li
Navoiy viloyati PYMO‘MM mustaqil tadqiqotchisi

GEOGRAFIYA DARSLARIDA FANLARARO BOG‘LANISH METODIKASIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada geografik bilimlar ma’zmunan xilma-xil va boy bo‘lib, inson faoliyatining turli sohalarida qo‘llanilishi, jumladan matematika va psixologiya fanlari bilan integratsiya qilinishi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Geografiya o‘qitish metodikasi, didaktika, amaliy mashg‘ulotlar, tarbiyaviy maqsadlar, geografik bilim.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДИКИ МЕЖПРЕДМЕТНЫХ СВЯЗЕЙ НА УРОКАХ ГЕОГРАФИИ

Аннотация. *В данной статье рассматривается разнообразие и богатство географических знаний по содержанию и их применение в различных областях человеческой деятельности, включая интеграцию с математикой и психологическими науками.*

Ключевые слова: *методика обучения географии, дидактика, практические занятия, воспитательные цели, географические знания.*

USING INTER-SUBJECT CONNECTIONS IN GEOGRAPHY LESSONS

Abstract. *In this article, it is thought that geographic knowledge is diverse and rich in content and can be used in various areas of human activity, including integration with mathematics and psychology.*

Keywords: *Geography teaching methodology, didactics, practical training, educational goals, geographical knowledge.*

Kirish. Bugun mustaqil O‘zbekistonimizda aqlan, jismonan, fikran yetuk bo‘lgan farzandlarni tarbiyalab, voyaga yetkazish ta’lim oldida turgan eng katta vazifadir. Bu ulug‘ maqsadni ro‘yobga chiqarish ta’lim tizimiga qarashli barcha xodimlar, qolaversa, maktab ta’lim o’qituvchilarining o‘z ishiga ijodiy yondashish, har bir ishda yuksak samaradorlikka erishish, xilma-xil metodik usullarni o‘ylab topish hamda uni maktab hayotiga tatbiq etishni talab qiladi. Bugun maktablarda ta’lim olayotgan o‘quvchilar ilm-fan, texnika taraqqiyoti erishgan bir qator yutuqlardan bahramand bo‘lgan bilimli kishilardir.

Geografiya fani o‘qituvchisining kasbiy salohiyati va ma’lumot darajasi, uning bolalar psixologiyasi hamda hozirgi zamon ta’lim metodikasini yaxshi bilishi ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchiga bilim berish, har bir dars mazmunini boyitish, qiziqarli mashg‘ulotlarni dars jarayoniga singdirishni talab qiladi. Ruxshunoslarning aniqlashicha, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘qituvchining oddiy tushuntirishi orqali egallab olgan ma’lumotlarga qaraganda turli xil ruhiy kechinmalar orqali o‘zlari mulohaza yuritib, mustaqil bajargan ishlari vositasida o‘zlashtirgan bilimlarini uzoq vaqt esda saqlab qolar ekan. Chunki, o‘quvchi mustaqil mashqlarni bajarishda faoliyat ko‘rsatib, ilgari olgan bilimlariga tayangan holda ko‘plab o‘quv materiallarini xayolidan o‘tkazadi. O‘xshash hodisalarni taqqoslaydi. Mulohaza yuritib mustaqil hukm chiqaradi. O‘qituvchilarning tayyor holda bergan ma’lumotida esa o‘quvchi fikrlash faoliyati to‘la ishga kirishmasdan to‘g‘ri javobni o‘zlashtirib oladi. O‘xshash hodisalarga duch kelishi bilan o‘qituvchi bergan bilimni amaliyotga tatbiq qilishda qiynalib qoladi. Davlat ta’lim standarti va amaldagi maktab dasturlarida o‘quvchi egallashi lozim bo‘lgan materiallar ancha murakkab bo‘lib, bolalarning bu bilimlarni bosqichma bosqich egallab olishlarini, kengaytirib va rivojlantirib borishlarini taqazo etadi.

Asosiy qism. Geografiya fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligining metodik jihatlari shundaki, geografiya materiallarini o‘zlashtirishda matematika kursida o‘tiladigan gradus haqidagi tushunchalar, transportrlar bilan burchaklarni o‘lchash, musbat va manfiy sonlar, foiz kabi bilimlar katta yordam beradi. O‘quv yilining oxirida geometrik yasash, parallellik, simmetriya, uchburchaklar yasash mavzularini o‘tadilar. Bu geografiyadan daryolarning uzunligini aniqlash, yer yuzasidagi turli nuqtalarning

oralig‘ini o‘lchash, ko‘l va dengiz yuzasini hisoblash uchun zarur material hisoblanadi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, matematikadan olgan bilimlarga tayangan holda o‘quvchilarga absolyut balandlik haqidagi tushunchani, ob-havoni kuzatish natijalarini hisoblab chiqishni, havoning suv bug‘lariga to‘yinishi kabi tushunchalarni osonlik bilan o‘zlashtirishga imkon beradi. Geografiya o‘qituvchisi matematik geografiyaga doir mavzularni o‘tgan vaqtda, o‘quvchilar hisobni yaxshi bilishlari, yer haqidagi tushunchaga ega bo‘lishlari, maydon o‘lchash va reja tuzishda ishlatiladigan turli asboblardan foydalana olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari lozim. Bunga matematika va geografiya o‘qituvchilari orasida tegishlicha aloqaning yo‘qligi sabab bo‘ladi.

Beshinchi sinfda masshtabni o‘zlashtirishda matematika yordam beradi. Gradus to‘ri o‘quvchilarning matematikadan olgan bilimlari asosida tushuntiriladi. Ulardan tashqari o‘quv yili oxirida geografiya va matematika darsi o‘quvchilari birgalikda bir qator kompleks ekskursiyalar uyushtirsalar, yana ham yaxshi natijalarga erishish mumkin. Jumladan, quyidagi xarakterdagi ekskursiyalarni uyushtirish maqsadga muvofiqdir.

1. Nivelir yordamida tepa, yonbag‘ir va jarlikning nisbiy balandligini aniqlash.
2. Ko‘z bilan chamalab oraliqni o‘lchash, rejaga tushirish.
3. Soy yoki kanalning suv sarfini hisoblab topish va boshqalar.

Beshinchi sinfda geografiyadan globus va xaritalarda yerning tasvirlanishi mavzusi berilgan bo‘lib, bu mavzu bo‘yicha o‘tiladigan dars mashg‘uloti va amaliy ishlar yuqorida o‘tkazilishi zarur bo‘lgan materiallarga anchagina o‘xshashdir. Shuningdek, matematikadan boshlang‘ich sinflarda beriladigan ma’lumotlar geografiyadan beshinchi sinfda o‘rganilishi zarur bo‘lgan ayrim amaliy ishlarni bajarishda bemalol yordam beradi. Matematika o‘qituvchisi uchburchaklar yasashga doir mavzularni tushuntirishda, geografik xarakterdagi masala va misollardan foydalanishi mumkin. Masalan, geografik savollarni kompasdan foydalanib ishlatishi mumkin: shimol va shimoli-sharq hamda shimol-sharq, shimol va janub va janubi-sharq o‘rtasida qanday burchaklar yotadi? Janubiy yo‘nalishda esayotgan shamol o‘z yo‘nalishini janubi-g‘arb tomonga qarab o‘zgartirdi, burilish burchagi topilsin. Shuningdek, geografik xarakterdagi masalalarni yechish mumkin[1].

Sakkizinchi sinf geografiya darsligida O‘zbekiston iqtisodiy geografiyasi haqida ma’lumotlar beriladi. Bu ma’lumotlarni berishda bir qator grafiklar, diagramma tuzib, uni ishlab, xulosalar chiqarishga to‘g‘ri keladi. Bu ishlarni bajarishda o‘quvchilarning beshinchi sinfda matematika fanidan olgan bilimlariga asoslanish mumkin. Chunki, 4-5-sinf matematika darsligida protsentlar, diagramma va grafiklar to‘g‘risida ma’lumotlar beriladi[2]. Masalan, O‘zbekiston aholisi 2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 36 799 800 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, shundan qishloq aholisning soni esa 18 031 902 ming kishi, shahar aholisi esa 18 767 898 ming kishini tashkil etadi. Qishloq va shahar aholisining foizi aniqlansin. Buni topish uchun proporsiya tuziladi va quyidagicha yechiladi:

1) 36 799 800-100%
18 031 902-X
X=(18 031 902*100)/ 36 799 800=49%
2) 36 799 800-100%
18 767 898-X
X=(18 767 898*100)/36 799 800=51%

Demak, qishloq aholisi 49 foizni, shahar aholisi esa 51 foizni tashkil qilar ekan.

Yer sharidagi quruqlik yuzasining maydoni 149 mln..kv.km O‘zbekistonning maydoni esa 448.9 ming.kv.km. O‘zbekistonning maydoni quruqlik maydonining necha foizini tashkil etadi?

1) 149 000000-100%
448 900-X
X=(448900*100)/149000000= 0.3%

Demak O‘zbekiston maydoni yer sharidagi quruqlik yuzasining taxminan 0.3 foizini tashkil etar ekan. Bunday masalalarni tuzishda reja bo‘yicha o‘sish raqamlaridan va kundalik matbuotda bosilib turadigan ayrim ma’lumotlardan hamda o‘z viloyati shahari va hatto o‘z fermer xo‘jaligidagi turli sohalarning o‘sish ko‘rsatkichlaridan ham foydalanish mumkin.

Ma’lumki, keyingi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyoti, fan va texnikasi misli ko‘rilmagan yutuqlarga erishdi. Bu yutuqlarni aks ettiruvchi aniq raqamlar bilan masala va misollar tuzish hamda ulardan ta’lim protsessida o‘rinli foydalanish matematika o‘qituvchilariga juda qo‘l keladi. Bunday raqamlarni tanlash, taqqoslash va masala, misollar yechish, birinchidan, ta’limni turmush bilan bog‘lanishini ta’minlasa, ikkinchidan, o‘quvchilar mamlakatimiz erishgan yutuqlarni aniq raqamlar asosida chuqur his etishini taminlaydi. Masalan, O‘zbekiston hududi 448,9 ming.kv.km aholisi 36 799 800 ming

kishi. Aholining o‘rtacha zichligi topilsin. (36 799 800 : 448 900=81,9). Demak, O‘zbekiston hududida aholi zichligi 1 kv km yerga 81,9 kishi to‘g‘ri kelar ekan[3].

Geografik bilimlar – bu muammolarni hal qilishda faol rol bo‘lmog‘i kerak. Bu o‘quvchilarni kelgusidagi hayotga, ishlab chiqarish jarayonlarini to‘g‘ri tushunishga tayyorlashdan iborat bo‘libgina qolmasdan, balki ishlab chiqarish jarayonida qo‘llash zarur bo‘lgan iqtisodiy bilimlarni ham o‘rganishga yordam beradi. Buning uchun ta’limni ishlab chiqarishning bevosita uzviy qismi deb qarash lozim. Ammo, bu tarixchi, shoir, yozuvchi, rassom, geolog, iqtisodchilar uchun umumiydir. Ular bu manzaraga qiziqishlari nuqtayi nazaridan yondashadilar. Masalan: shaharni o‘rganishni tarixchi, iqtisodchi o‘z qarashlari va rejasi asosida amalga oshirsa, geograf boshqacha metodda o‘rganadi. Shaharni o‘rganishdagi bunday yondashuv bitta obyektni turli xil yo‘llar bilan o‘rganish mumkinligini, ularni o‘rganishda, albatta, geografik bilimlar ishtirok etishini, bunday bilimlar har qanday kasbdagi kishilar va kasblar uchun zarurligini o‘quvchilar anglab yetadilar. Geografik bilimlarni egallash tufayli o‘quvchilarda xilma-xil ko‘nikmalar shakllanadi. O‘quvchilar geografiya fani o‘rganar ekan u yoki bu hodisani keltirib chiqaradigan sabablarning murakkab ekanligini bilib oladilar.

Bu murakkablik xilma-xil omillar tufayli shakllanganligini anglaydilar. Barcha hududiy komplekslar, regionlardagi tabiiy xususiyatlar tabiiy va atropogen omillarning o‘zaro ta’siri tufayli vujudga keladi. Atropogen omillar turli ko‘rinishlarda, xususan, siyosiy, tarixiy, iqtisodiy, psixologik mazmunni kasb etgan holda bo‘lishi mumkin. Hududlarni ko‘p qirrali tahlil qilish orqali o‘quvchilar tabiatdagi biror narsa va hodisa sababsiz mavjud bo‘lmasligini va shakllanmasligini anglab yetadilar. O‘quvchilarda geografiya fani yordamida xilma-xil ijobiy qobiliyatlar ham shakllanishi mumkin. Aero va kosmik suratlar yordamida yer sharining turli qismlaridagi landshaftlarni tahlil qilish orqali faqat insonlargina mo‘jizalarni yaratishi mumkinligini anglab yetadilar[4].

Geografiya metodikasi psixologiya fani bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Psixologiya fanining hozirgi bosqichdagi taraqqiyoti maktablarda fanlarni o‘qitish jarayonini ilmiy asosda har tomonlama chuqur tadqiq etishni hamda o‘qitishni yanada takomillashtirish uchun zarur bo‘lgan imkoniyatlarni yaratib beradi. Demak, geografiya o‘qitish metodikasi ham o‘z navbatida geografiya o‘qitish jarayonini tashkil etishda psixologiya fani qo‘lga kiritgan yutuqlardan foydalanadi. Psixologiya o‘quvchilardagi ruhiy faoliyatning umumiy qonuniyatlarini o‘rgansa, metodika esa o‘quvchilarning geografik obyekt va hodisalarni o‘zlashtirishlari bilan bog‘liq bo‘lgan jihatlarni tadqiq qiladi.

Metodika bilan psixologiyaning eng muhim bog‘liqlik tomoni shundaki, unda geografiya o‘qitishning mazmuni va metodlari bilan o‘quvchining ruhiy faoliyati orqali erishiladigan natijalar o‘rtasidagi qonuniyatli bog‘lanishlar tadqiq qilinadi. Turli geografik obyektlarning kartadagi joylanishini fazoviy tasavvurlarsiz egallab bo‘lmaydi. Bunda, albatta, psixologiya fani bilimlariga tayaniladi[5].

Xulosa. Shuni aytish lozimki, geografik bilimlar mazmunan xilma-xil va boy bo‘lib, inson faoliyatining turli sohalarida qo‘llaniladi. Sayyoramizda yashovchi har bir inson geografik bilimlarsiz o‘zini mustaqil fuqaro sifatida his qilishi qiyin. Inson yashab turgan atrof-muhit go‘zalligini his qilibgina qolmasdan, unda bo‘layotgan xilma-xil sabab-oqibatlar mohiyatini tushunishi va anglab yetishi kerak. Har bir fuqaro o‘zi yashayotgan shahar, qishloqning geografiyasini puxta bilishi maqsadga muvofiq. Geografiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarning yoshi, bilimi, fikrlash qobiliyati va umuman ruhiy faoliyatini e’tiborga olmasdan turib, ularning o‘quv faoliyatini samarali tashkil etib bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. P.Gulyamov, R.Qurbonniyozov, M.Avezov, N.Saidova. Geografiya (Tabiiy geografiya boshlang‘ich kursi). 5-sinf o‘quvchilari uchun darslik. –Toshkent, 2020.
2. P.Musayev, J.Musayev. 8-sinf o‘quvchilari uchun darslik. Toshkent, 2019.
3. Mirakmalov M.T., Avezov M.M., Nazaraliyeva E.Y. Tabiiy geografiyadan amaliy mashg‘ulotlar. T. Fan va texnologiyalar. 2018.
4. R. Qurbonniyozov. Geografiya o‘qitish metodikasi. Xorazm, 2021.
5. Rafikov V. Qiziqarli geografiya. Sharq nashriyoti, 2014.
6. www.geografiya.uz sayti

Husenova Aziza Sharipovna
Buxoro davlat universiteti katta o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: a.sh.husenova@buxdu.uz

BLUM TAKSONOMIYASI ORQALI BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya. *Maqolada blum taksonomiyasi orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish yo‘llari, bu sohada olingan bilimlarni mustaqil ravishda qayta takrorlash, ularni egallangan ko‘nikma va malakalar bilan uyg‘unlashtirish natijasida yangi mustaqil faoliyat yuritish va mashq bajarish qonun - qoidalarini o‘rganish zarurati, mohiyati va metodikasi berilgan. O‘quvchilar mustaqil ta’limi natijasida erishiladigan yutuqlar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *taksonomiya, kognetiv, affektiv, psixomotor, bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, sintez, baholash. boshlang‘ich sinf, mustaqil ish, mustaqil ta’lim, taksonomiya, kognitiv, affektiv, psixomotor, bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, sintez, baholash, o‘quvchi, metodika.*

WAYS TO DEVELOP CRITICAL THINKING SKILLS IN PRIMARY CLASS STUDENTS THROUGH BLOOM'S TAXONOMY

Abstract. *In the article, the ways to develop critical thinking skills in elementary school students through Bloom's taxonomy, the need to independently repeat the knowledge gained in this area, to combine them with acquired skills and competencies, to learn new independent activities and practice rules , essence and methodology are given. Achievements achieved as a result of independent education of students are described.*

Key words: *taxonomy, cognitive, affective, psychomotor, knowledge, understanding, application, analysis, synthesis, evaluation. primary class, independent work, independent education, taxonomy, cognitive, affective, psychomotor, knowledge, understanding, application, analysis, synthesis, assessment, student, methodology.*

ПУТИ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ЧЕРЕЗ ТАКСОНОМИЮ БЛЮМА

Аннотация. *В статье рассматриваются пути развития навыков критического мышления у учащихся младших классов посредством таксономии Блума, необходимость самостоятельного повторения полученных знаний в этой области, сочетания их с приобретенными навыками и компетенциями, освоения новых самостоятельных видов деятельности и правил отработки навыков, приведены суть и методология. Описаны достижения, достигнутые в результате самостоятельного обучения студентов.*

Ключевые слова: *таксономия, когнитивное, аффективное, психомоторное, знание, понимание, применение, анализ, синтез, оценка начальный класс, самостоятельная работа, самостоятельное обучение, таксономия, познавательное, аффективное, психомоторное, знание, понимание, применение, анализ, синтез, оценка, ученик, методология.*

Kirish. Respublikamizda 2020-yil 23-sentabrdagi yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonunni qabul qilinganligi, maktab ta’lim tizimining ma’naviy - axloqiy tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib Xalqaro baholash reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Biz raqamli texnologiyalar asrida, ta’lim karyerada muvaffaqiyat qozonishning, turmush farovonligini oshirishning bosh omiliga aylangan davrda yashayapmiz. Zamonaviy ta’lim bizning nafaqat bilim va ko‘nikmalarimizni belgilab beruvchi mezon, balki bizning dunyoqarashimizni, bizning dunyo taraqqiyotiga qo‘shadigan hissamizni ham aks ettiruvchi muhim qadriyatdir.

Jahonda va mamlakatimizda ta’lim sohasida bo‘layotgan o‘zgarishlar, ta’lim samaradorligini ta’minlashdagi islohatlar natijasida katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ya’ni qabul qilingan qonun va farmoyishlar jamiyatimiz ravnaqiga ijobiy ta’sir qilishi shubhasizdir. Ular mamlakatning intellektual salohiyatini oshirishda, davlat ta’lim standarti talablariga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilar mustaqil ta’limini samaradorligini ta’minlash hamda bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishda natijador tashkiliy shakllarini tadbiq qilishga bevosita bog‘liqdir. Buning uchun ta’limiy uchlik – “maqsad – jarayon - natija” ning o‘rta bo‘g‘iniga hozirda e’tibor kuchaygan bo‘lsa-da, bir qator pedagog olimlar ushbu zanjirning boshidagi va oxiridagi halqalarini chuqur o‘rganmoqdalar. Amerikalik mashhur psixolog va pedagog Benjamin Blum tomonidan asos solingan savol va topshiriqlar tizimi – bilish faoliyati darajalariga asoslangan o‘quv maqsadlari taksonomiyasi zamonaviy ta’lim olamida yetarli darajada keng tarqalgan. O‘quv maqsadlari taksonomiyasi o‘quvchilar o‘zlashtirishining ma’lum bir darajasidan darak beruvchi konkret harakatlari, mazmunan obyektlarni tabiiy o‘zaro bog‘liqlik asosida murakkablashib borishini ketma-ket joylashtirish orqali turkumlashtirilishi yoki tizimlashtirilishi.

Metodologiya. Mahalliy olimlardan mustaqil ishlarini tashkil etish ishlari bo‘yicha tadqiqotlar bilan shug‘ullangan U.N.Nishonaliyev, O‘.Q.Tolipov, A.R.Xodjaboyev, N.Muslimov, A.O.Qo‘ysinov, Sh.Shodiyev, K.Davletov, Ya.Xaydarovlarning ishlarini qayd etish mumkin. Ular umumiy o‘rta ta’lim, Oliy va o‘rta maxsus kasb – hunar ta’limi tizimida mustaqil ta’limga oid darsliklar va metodik qo‘llanmalar ishlab chiqishgan va amaliyotga joriy etishgan. Xorijiy olimlardan Chikago universiteti professori Benjamin Blum tomonidan bilim olish sohasidagi o‘quv maqsadlari taksonomiyasining yaratilishi diqqatga sazovordir. Taksonomiya – borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasidir. Avvalo, “Blum taksonomiyasi” atamasiga ta’rif bersak. “Taksonomiya” – bu biror narsani ierarxik tartib (pastdan yuqoriga qarab)da joylashtirish prinsipi degan ma’noni bildiradi. Amerikalik psixolog Benjamin Blum boshchiligidagi Chikago universiteti olimlari ushbu oliy maqsadlatr tizimini ishlab chiqishgan. Bu g‘oya birinchi marta 1956-yilda “Ta’lim maqsadlari taksonomiyasi” kitobida nashr etilgan. Benjamin Blum ta’lim maqsadlarini kognitiv, affektiv va psixomotor deb nomlanuvchi uchta sohaga ajratdi. Kognitiv (bilmoq, anglamoq, tushunmoq va fikrlamoq) soha bu bilim, tushunish va tanqidiy fikrlashga xizmat qiladi.

Mirzo Ulug‘bek davridan boshlab mudarris lavozimiga nomzod maxsus ulamolar hayatiga imtihon topshirishi, ya’ni o‘z bilimlarni isbotlamog‘i lozim bo‘lgan. Biroq, keyinchalik bu an’anadan bir oz chekinilgan va XIX asrning boshlariga kelib mudarris lavozimiga ko‘proq xonga qarashli shaxslar tayinlana boshlagan. O‘quv jarayonini tashkil etish odatda mudarrislarning zimmasiga bo‘lib, ular qo‘yidagi uch toifaga bo‘lingan:

Birinchi toifa - a’lo darajali mudarrislar. Bunga qozi-ul quzot, raisi kalon, shayx ul- islom, oxund, a’lam, mufti, askar kirgan.

Ikkinchi toifa - o‘rta darajali mudarrislar. Bu toifadagi mudarrislarni kiygan kiyimlariga qarab “banoraspo‘sh” deb atashgan. Ayni shu toifadan chiqqan ilmli mudarrislar muftiylik lavozimiga erishgan. Maskur toifadagi mudarrislar taxminan 200 nafar bo‘lib, ularni yana “o‘rta mudarrislar” deb ham atalgan.

Uchinchi toifa - quyi darajadagi mudarrislar. Bu toifadagilarni mudarrislar, imom mudarrislar, ba’zan beqasabapo‘sh deb atalgan. Imom mudarrislar soni 300 dan ortiqroq bo‘lgan.

Ayniy esa Buxoro mudarrislarini 3 toifaga ajratgan:

1.O‘zi kursni tugatmasa ham ammo, ta’lim berish qobiliyatiga ega shaxslar. Ular boshlang‘ich kurslarga dars bergan.

2. Quyi mudarrislar. Ularning oyligi xarajatlarni qoplamagan.

3. Katta mudarrislar. Ko‘p yillar ta’lim berib madrasa vaqfidan oylik oladigan. Ko‘zga ko‘ringan mudarrislar.

Shuni ta’kidlash joizki, madrasalarda mudarrislar soni ta’lim oluvchilar soniga qarab belgilangan. Turkiston madrasalarida ta’lim beruvchi mudarrislarning soni II asr boshlarida taxminan 800 nafar deb ko‘rsatiladi.

Ahmad Donish mudarrislik kasbining mashaqqatlari haqida: “Kunduz kuni muallim o‘z o‘quvchilari bilan mashg‘ulotda band bo‘ladi, kechqurun esa ertangi kungi mashg‘ulotlarga tayyorlanadi, xullas u umr bo‘yi o‘qiydi va o‘z kasbi bilan muttasil, tanaffussiz shug‘ullanadi”, degan fikrlarni bayon etadi. Bu fikrlardan anglash mumkinki, bugungi kun o‘qituvchisi ham albatta o‘zini ustida ishlashi yangi texnologiya va interfaol usullardan foydalangan holda dars jarayonini olib borishi kerakligini aytib o‘tadi.

Tadqiqotchi Abdusattor Jumanazar Buxoro madrasalari, xususan Ko‘kaldosh madrasasi haqida yozar ekan, madrasaning ta’lim tizimini bir necha qismlarga bo‘lib o‘rgangan.

Jumladan: Oxund oliy ta’lim sohasida oliy daraja. Dastlabki “oxund” o‘sha davrning eng yuksak maqomdagi ilm dargohi bo‘lgan. “Abdullaxon madrasasi”da dars bergan. Bu so‘z shu vaqtdan ta’lim sohasidagi rasmiy atamaga aylanadi. Qisqa vaqtda oxund “Ko‘kaldosh madrasasi”ga o‘tadi va bu dargoh sho‘rolar inqilobiga qadar uning qadimiy o‘rni bo‘lib qoladi.

A’lam: ta’lim tizimida atama sifatida “oxund” bilan qariyb bir vaqtda shakllangan. Muntazam ravishda “oxund”ning o‘rinbosari bo‘lib kelgan va Gavkushon madrasasida dars bergan.

Mufti: jamiyatdagi har qanday murakkab masala yechimi yuzasidan xulosa chiqarishga ilmi yetadigan olim. Ularning soni Buxoro shahri oliy ta’limi sohasida 10, ba’zan 11 kishidan iborat bo‘lgan. A’lamning o‘rni bo‘sh qolganda maxsus tanlov asosida ulardan biri saralab olingan.

Banoras to‘nli: Ta’lim sohasida ushbu qatlam va atama qachon paydo bo‘lganini hozircha aniq ayta olmaymiz XIX asrda ularning soni qirq- qirq bir nafar atrofida edi. Ular zarurat bo‘lganda belgilangan sinovlar natijasiga ko‘ra mufti darajasiga ko‘tarilgan. Muarrixlarning ta’kidlashicha, banoras to‘nni ushbu toifaga mansub bo‘lmagan boshqa olim yo ustozlar kiyishi ta’qiqlangan. Bu sharafga erishish uchun xizmat qilish lozim edi. Ushbu toifadagi olimlar oxund rahbarligida Ko‘kaltosh madrasasida yig‘ilib, jamiyatda yuzaga kelayotgan ijtimoiy muammolar bilan bog‘liq ilmiy suhbat va munozaralar o‘tkazib turgan. Bunday suhbatlarga qo‘shni xonliklardan kelgan mashhur olimlar ham qatnashib turgan.

Mazkur toifalardan keyin ta’lim tizimining yana bir alohida zanjirli halqasi boshlanadi. Bu oliy ta’lim sohasining quyi qismidir. Ular orasida fanning qaysidir turiga ixtisoslashgan o‘quv dargohlari ham uchraydi. Masalan, ba’zi madrasalarda “Tahzib”chi, “Hidoya”chi, “Salovat”chi, “Mulla Jalol”chi, “Hikmat”chi kabi mudarrislar dars o‘tgan. “XX asr boshlarida ushbu ikki toifadagi o‘quv maskanlari Buxoro shahri va unin atrofida uch yuzga yaqin edi, deb keltiradi.

Madrasadagi birinchi darajali oxund 25 ming tanga maosh olgan, agar u yaxshi olim bo‘lsa, yana 10 ming tanga maosh qo‘shilgan. Mudarrislarga amir yoki qushbegi tomonidan turli tadbirlarda sovg‘a – salomlar berib turilgan.

Mudarislar ham bunday e’tibordan mas’uliyatli his qilgan holda o‘z ustilarida muttasil ishlagan. Ya’ni, darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratganlar. Murakkab asarlarni bilishning turli usullarini yaratganlar. Ular tomonidan yaratilgan o‘qitish usullari quyidagilardan iboratdir. Bu usullar asrlar davomida shakllangan va amaliyotda keng qo‘llanilgan:

1. Usuli hijoiya (savtiya)- bo‘g‘inga bo‘lib o‘qish.
2. Ilmi sharh – tafsir.
3. Ilmi tahlil – munozara, bahs, munosabat ifodasi.
4. Ilmi munozara – munozara, bahs, munosabat ifodasi.
5. Ilmi qiroat – (ohang va so‘z talaffuzi orqali qiroat).
6. Ilmi fasohat (ilmi balog‘at) – chiroyli, o‘rinli so‘zlarni qo‘llash.
7. Ilmi bayon – nozik ma’nolarni bayon qilish (ritorika).
8. Ilmi g‘ariba (g‘arib) – kam so‘z keng ma’noni ifodalash, aks ettirish.
9. Ilmi maoniy – bayon etish bo‘lib, biror narsa yoki hodisaning mohiyatini, mazmunini yechib beruvchi ilm.
10. Ilmi nasr va insho – yozma ish turi. Uslubi, maktub, yozuv savodxonligi.
11. Ilmi muhozirot – latifago‘ylik, hozirjavoblik, zukkolik.
12. Ilmi muammo – badiiy san’at turi bo‘lib, she’riyatdagi masala va ramzlarni echish usuli.
13. Ilmi mantiq – so‘z ma’nosidagi mazmun.
14. Ilmi kalom – naqliy masalani aqliy dalillash, isbot qilish.

1910 - yilda Buxoroda 350 ga yaqin an’anaviy (boshlang‘ich) maktablar faoliyat ko‘rsatgan [1]. Boshlang‘ich maktablarda o‘quvchilarning soni 10 nafardan 50-60 nafargacha bo‘lgan [2]. O‘g‘il bolalar maktabxonasida o‘rtacha 30-40 nafar bola o‘qigan [3] bo‘lsa, ovul maktablarida o‘quvchilar soni 10 nafardan oshmagan[2]. Qizlar o‘qiydigan maktabxonalaridagi o‘quvchilar soni o‘g‘il bolalarga nisbatan 25-30 foizni tashkil etgan [5.413.]

Maktablar idora qilinishi va ta’minoti jihatidan umumiy va xususiyga bo‘lingan [1]. Ularning asosiy farqi – maktab binosining kim tomonidan qurilishi va ta’minlanishida edi. Xususiy maktablar alohida shaxslar, ya’ni mansabdor, davlatmand kishilar tomonidan qurilgan bo‘lsa, umumiy maktablar jamoatchilik tomonidan qurilgan. Maktablar davlat tomonidan mablag‘lashtirilmagan, saxovatli kishilar tomonidan qilingan xayr – ehsonlar, ijtmoiy jamg‘armalar, shuningdek, o‘quvchilarning o‘z ota-onalari hisobidan ta’minlangan [2].

Maktabxonada o‘qishga qabul qilish yoshi Buxoroda 5-12 yoshgacha bo‘lgan davrni tashkil etgan [7.211.]. Sadriddin Ayniy o‘zi yashagan uch yuz xonadonlik qishlog‘ida to‘rt yashardan 12 yashargacha bo‘lgan bolalar maktabning shogirdlari hisoblanganligi haqida ma’lumot beradi [8.140.]. An’anaviy boshlang‘ich maktablarda o‘quvchi besh yildan kam o‘qimagan [2]. Yoz oylari va ramazon oyida o‘quvchilar ta’tilga chiqishgan [2]. Maktabxonada tahsil oladiganlar o‘qishining davomiyligi bir qator omillarga, ya’ni domlaning mahorati, o‘quvchining zehni hamda oiladagi muhitga bog‘liq bo‘lgan.

Qiz bolalar uchun o‘qish 7 yoshdan boshlanib, 13 yoshgacha, ayrim hollarda 10-11 yoshgacha davom etgan [3.]. Odatda qiz bolalarga uyda ta’lim berish tajribasi keng tarqalgan. Umuman olganda,

ayollarning maktabda o‘qishi qiyin kechgan, faqat boy xonadonlarning qizlarigina o‘qib, savodini chiqara olgan, [3] qishloqlarda o‘qigan qizlar juda kamchilikni tashkil etgan.

Maktabxonalarda olib borilgan o‘qish muddati to‘rt yildan 10 yilgacha davom etgan. XIX asrning o‘rtalarida Buxoro amirligidagi maktablarda o‘rtacha o‘qish muddati 7 yil deb ko‘rsatilgan [7.211.]. Fitrat ham maktablardagi o‘qish muddatini 7 yildan 10 yilgacha deb ko‘rsatgan [11.121.].

O‘sha davr matbuoti – “Oyina” jurnalida qayd etilishicha, “Muddati tahsil ko‘p uzoq bo‘lganligi uchun ko‘p kishilar bolalarini 8-10 yil maktabga qo‘ya olmagan”[1]. Aslida maktablarda bolalarning o‘qish muddati ularning iqtidori va qobiliyatiga qarab belgilangan, qobiliyatli, tirishqoq o‘quvchi maktab kursini 4 yilda, qobiliyatsiz o‘quvchi uzog‘i bilan 10 yilda tamomlagan.

Maktabxonalardagi darslar ertalab quyosh chiqishidan asr namozigacha (soat 17:00) davom etib, juma va bayram kunlari o‘quvchilar darsdan ozod qilingan [2]. O‘qituvchi (domla) yil bo‘yi sabr toqat bilan maktabxonani ochib, o‘quvchilarini kutib o‘tirgan [3]. Aksariyat maktablarda jismoniy, estetik, tarbiya masalalariga deyarli e’tibor berilmagan, bolalar berilgan vazifani boshini tebratib o‘qish yoki takrorlash bilan band bo‘lgan. Bola ruhiyatini yaxshi biluvchi domlalar har bir yarim- ikki soatda tanaffus e’lon qilib turgan.[12.73.]

Maktabxonalarning ko‘pchiligi odatda masjidlar yonida yoki uning qoshida tashkil etilgan. XX asr boshida Buxoro shahrida 218 ta masjid bo‘lib, o‘rtacha hisobda bir masjid huzuridagi maktabda 40 nafargacha bola o‘qishiga imkon bor edi.[13.212.] Madrasalar qoshida ham maktabxona tashkil etilgan. Ahmadjon Po‘stindo‘z madrasasi Buxoro shahridagi Asiriy guzarida joylashgan bo‘lib, 1705-yilda qurilgan. U 110 hujradan iborat bo‘lgan.[2] Masalan, Ahmadjon Po‘stindo‘z madrasasida bir vaqtning o‘zida Qur’on suralari ham o‘rgatilgan va bu madrasa vaqf mulkidan qurilgan. Xuddi shunday maktablardan yana biri Zomucha ko‘chasidagi 1815-yilda qurilgan Domla Shermuhammad ibn Nurmuhammad madrasasi qoshida tashkil etilib, uning ta’minoti ham madrasa vaqfi hisobidan bo‘lgan.

Maktabxonalarda ta’lim jarayonining tashkil etilishi bir xil bo‘lmagan. An’anaviy boshlang‘ich mktablarda dars jadvali, qat’iy dastur va muayyan o‘quv kursi bo‘lmagan. Ta’lim berish sinf-dars tizimida bo‘lmasdan, bir domladan saboq oluvchilarning barchasi bir xonada o‘qishgan.

Barcha maktablarda sharq va musulmon pedagogikasining yorqin manbai bo‘lgan Sa’diyning “Guliston” va “Bo‘ston” asari keng o‘qitilgani ham ma’lumdir.

Keyingi bosqichda maktabxonalarda Xoja Hofiz Sheroziyning “Devon”iga o‘tilgan. Madrasalarda darslik sifatida o‘qitilgan “Devon”da lirik she’rlar o‘rin olgan bo‘lib, ilohiylik va dunyoviylik uyg‘unlashgan yosh bolalarni axloqiy tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etgan. Ko‘p maktabxonalardagi asosiy o‘quv kursi shu bilan yakunlangan. Kitoblarni yakunlash, navbatdagisini boshlash ham o‘ziga xos tarzda nishonlab turilgan. Masalan, Buxoro maktabxonalarida yosh o‘quvchi kichik-kichik suralarni yod olganidan keyin “haftiyak”ni o‘qishga kirishish marosimini o‘tkazish odatga aylangan.

Ayniyning yozishicha, Buxoro maktablarida bulardan tashqari, arab grammatikasiga katta e’tibor qaratilib, “Bidon”, “Zanjoniy”, “Muizziy” kabi kitoblar ham o‘qitilgan.[15] “Bidon” – fors- tojik tilida yozilgan arab tili grammatikasi bo‘lsa, “Zanjoniy” – arab tili sintaksisiga dir kitob bo‘lgan. “Mu’izziy” – arab tili morfologiyasiga doir kitob bo‘lib, har uchchala kitob ham madrasa tahsiliga qadar maktabxonada o‘qitilgan.[14] Buxoroda maktab o‘quvchilari fors-tojik va o‘zbek tilida so‘zlashishlari nazarda tutilib, ularga arab tilini fors tili orqali o‘rgatuvchi darsliklar ham bo‘lgan. Masalan Mullo Abdul-G‘ofurning “Arab leksikologiyasi” deb nomlangan darsligi arab imlosida, ammo fors tilida yozilgan. Unda so‘z ma’nosi, shakli va ma’no munosabatlariga ko‘ra turlari, ibora to‘g‘risida tushunchalar berilgan. Yana bir arab tili grammatikasiga taalluqli bo‘lgan darslik “To‘plam” (1848-1849 yillarda yozilgan) risolasi ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismida arab tili grammatikasi to‘g‘risida ma’lumot berilgan bo‘lsa, ikkinchi qismida esa fors tili grammatikasi haqida ma’lumot berilganp.[14] Ammo o‘zbek tili grammatikasi maktabda o‘rgatilmagan. Maktablarda o‘qish jarayonida Alisher Navoiyning ijodiga mansub “Devoni Navoiy”, “Devoni amir Navoiy”, “Amir Navoiy”, “Mavlono Amir Navoiy”, “Kulliyoti devoni Amir Navoiy” kabi nomlar bilan shuhrat qozongan she’riy to‘plamlar ham o‘qitilgan. Bu to‘plamlar noma’lum kishilar tomonidan, asosan ”G‘aroyius-sig‘ar” va qisman “Navodir-ush-shabob” devonining o‘zi ham o‘qitilgan.

Maktablarda badiiy adabiyotga, ayniqsa, she’riyatga alohida e’tibor berilishi talabalarning ichki dunyosini boyitib, ularni ijodiy fikrlashga o‘rgatgan va estetik did egasi qilib tarbiyalagan.

Shu o‘rinda biz Fitratning tarbiya borasidagi fikrini keltiramiz. U bola tarbiyasi faqat oiladagina olib borilmasdan, bu ish bilan keng jamoatchilik, shuningdek, davlat ahamiyatidagi masalaga aylanishi

kerakligini ta'kidlaydi va "Bolalarni barkamol qilib etkazish uchun uning tarbiyasiga faqat oilagina javobgar bo'lmasdan, butun qavm a'zolari javobgardirlar, chunki yoshlar ham har tomonlama yetuk inson bo'lib tarbiyalansa, qavmning kelgusi taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ladi," - deb fikr bildiradi. Fitrat so'zini davom qildirib, fikr-aql tarbiyasi to'g'risida. Ya'ni aql rivojlanishida muhokamaning roli haqida gapirib beradi. Fikr va aql insonni kamolotga yetkazadi va o'qish va o'rganish qobiliyati uni saodatmand qiladi. Insonning komil aqli yaxshilik muhokamasidir. Muhokama nima? Muhokama ikki qismga bo'linadi: birinchisi Kaziyatxon ma'lum (ma'lum bo'lgan hukm, voqea va hodisalar), ikkinchisi Kaziyatxon majhul (noma'lum voqea va hodisalar)dan xulosa chiqarilishidir. Masalan, "Vatan xizmati vojibdir" (shartdir). Bu hukm noma'lum (majhul)dir. Bu hukmga yana boshqa ikki ma'lum hukm lozimdir. Ya'ni "Vatan bizning valine'matimizdir" (sahovatmandimiz, ne'matlar bilan ta'minlovchimizdir). "Har bir valine'mat (oliy himmat inson)ning Vatan uchun xizmati vojibdir", bas, " Vatan xizmati vojibdir" degan hukm yuqoridagi ikki ma'lum kazi(y)yatlar bilan ochiladi[16.195.]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Buxoro madrasalari qadimdan o'z nufuziga ega bo'lib, talabalarning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu esa xalqimizning ming yillar davomida shakllangan an'analari, urf-odat, axloq-odob ma'yorlari, tarixiy milliy qadriyatlarini saqlab qolishga undaydi. Talabalarni kamtar, xushmuomalali, rostgo'y, olijanob, sabr-toqatli, halol qilib tarbiyalashga yordam berdi. Diniy va dunyoviy fanlar uyg'unlikda o'qitilib, ma'rifatparvar olimlar, davlat arboblari etishib chiqdi. Ammo madrasa ta'lim tizimidagi ushbu yutuqlar yurtimiz tarixi, ilmiy merosi etmish yildan ortiq davr mobaynida noxolis yoritilib kelindi. Bugungi kun tadqiqotchilari oldida turgan muhim vazifalardan biri - bu yurtimiz tarixini asl holicha o'rganib, yosh avlodga yetkazishdan iborat.

Adabiyotlar

1. Ниёзий Ражабзода. Ибтидоий мактабларимизнинг тартибсизлиги ёхуд таққийнинг йўли// Ойина, 1914.-№38.
2. ЎзР МДА, 47-фонд, 1-рўйхат, 333-иш, 11 - варақ.
3. Наливкин В. Школа у туземцев Средней Азии// Туркестанские ведомости, 1898. – 8 августа.
4. ЎзР МДА, 47-фонд, 1-рўйхат, 333-иш, 11 - варақ.
5. Солижонова Г. Мактабхона // Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. V- жилд. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2003. – Б. 412-413.
6. ЎзР МДА, 47-фонд, 1-рўйхат, 333[a]-иш, 12– варақ.
7. Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843. – С. 211.
8. Айний С. Эски мактаб // Асарлар VIII томлик. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1965. IV-том. -Б.140.
9. ЎзР МДА, 47-фонд, 1-рўйхат, 333-иш, 17– варақ.
10. ЎзР МДА, 1010-фонд, 1-рўйхат, 66-иш, 18– варақ.
11. Фитрат А. Мунозара // Шарқ юлдузи, - Тошкент, 1997. - №1. – Б.121.
12. Долимов У. Эски мактаб // Тафаккур. – Тошкент, 2010. - №1. – Б.66-73.
13. Сухарева О.К. Истории городов Бухарского ханства. – Ташкент: Изд. АН Уз ССР, 1958. – С.212.
14. Бухоро Давлат меъморий-бадиий музей-кўриқхонаси қўлёзма фонди. 25563/11 инвентар.
15. Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар//Асарлар. -Тошкент: Бадиий адабиёт, 1963. 1- том. – Б.352
16. А.Фитрат. Танланган асарлар. Т,"Маънавият", 2010, 195- бет.

Himoyeva Sarvarbegim Jamilovna
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: s.j.himoyeva@buxdu.uz

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI TA’LIMIDA O‘QUV-BILUV TOPSHIRIQLARINI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI

Annotatsiya. *Maqolada boshlang‘ich sinf ona tili ta’limida o‘quv-biluv topshiriqlarini tashkil etish muammolari va bu orqali o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish haqida fikr yuritilgan. Yoshlarimizning ijodiy-mustaqil, o‘z fikrini erkin va ta’sirli, mazmunli, yozma va og‘zaki shaklda fikrlarini ifodalashga, o‘zbek tili qonun qoidalari ongli o‘zlashtirishga o‘rgatish, shuningdek,ularning ijodiy qarashlarini kengaytirishga oid biluv muammolari ishlab chiqishga doir tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *o’zbek tili, ona tili, ijodiy qobiliyat, o‘quv-biluv, yozma va og‘zaki, boshlang‘ich sinf, mustaqil.*

PROBLEMS OF ORGANIZING LEARNING TASKS IN PRIMARY CLASS MOTHER LANGUAGE EDUCATION

Abstract. *The article discusses the problems of organizing educational tasks in primary-grade mother tongue education and improving students' creative abilities through this. Developing cognitive problems related to teaching our youth to be creative and independent, to express their thoughts freely and effectively, meaningfully, in written and oral form, to consciously master the laws and regulations of the uzbek language, as well as to expand their creative views. exit recommendations are given.*

Key words: *uzbek language, mother tongue, creative ability, learning, writing and speaking, elementary school, independent.*

ПРОБЛЕМЫ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНЫХ ЗАДАЧ В НАЧАЛЬНОМ КЛАССЕ РОЖДЕННОЯЗЫЧНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Абстрактный. *В статье рассматриваются проблемы организации учебных задач в начальных классах родного языка и совершенствования через это творческих способностей учащихся. Разработка познавательных задач, связанных с обучением нашей молодежи быть творческим и самостоятельным, свободно и эффективно, осмысленно выражать свои мысли в письменной и устной форме, сознательно осваивать законы и правила узбекского языка, а также расширять свои творческие взгляды даны рекомендации по выходу.*

Ключевые слова: *узбекский язык, родной язык, творческие способности, обучение, письмо и говорение, начальная школа, самостоятельность.*

Kirish. Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan o‘qituvchilarning darslarga ijodiy yondashishini ta’minlash, ular faoliyatiga ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish hamda o‘quvchilarning dastlabki egallaydigan bilimlarning poydevori mustahkam bo‘lishi, barcha fanlarni o‘zlashtirishga qiziqishini oshirish maqsadida zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib xalqaro baholash reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o‘qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan.

Muhokamalar. Biluv topshiriqlarini tuzish ko‘p faktorli hodisadir. Bunda o‘quv materialining mazmuni, biluv topshirig‘i shakliga olib kelinadigan o‘quv muammosi, o‘quvchilarning real o‘quv imkoniyatlari bilan bir qatorda, biluv topshiriqlarining bir-birini to‘ldirishi, sodda va murakkabligi ham hisobga olinadi. Biluv topshirig‘i o‘quvchilarni o‘rganishga rag‘batlantirishi, fikrlashga jalb qilishi hamda nutq amaliyotini takomillashtirishi zarur. Biluv topshiriqlarini tuzishda quyidagilarga rioya qilish lozim: optimal mavzu tanlanadi, shu mavzu doirasida hal qilinishi lozim bo‘lgan o‘quv muammolari

aniqlanadi, o‘quv muammolarini o‘quvchilarga qo‘yish yo‘li bilan o‘zlashtirish ko‘rsatgichini baholash usullari belgilanadi, tashkil etiladigan o‘quv holatlariga mos til va nutq dalillari tanlanadi, mavzuni o‘quvchilarning to‘liq o‘zlashtirishini mo‘ljallanib, mashqlar miqdori belgilanadi. O‘quvchilar nutqini boyitish o‘qituvchidan qo‘shimcha o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish samarali metodlar asosida amaliyotga tatbiq etishni talab qiladi. O‘quvchilarning adabiy tilni egallashlari va nutqini boyitishda badiiy adabiyot namunalariga tayanish, matndagi so‘zlarning ma’nosi, ma’nodosh so‘zlar, qarama-qarshi ma’noli so‘zlar, uyadosh so‘zlar, ko‘p ma’noli so‘zlar, poetik so‘zlar ustida ishlash, ularning uslubiy vazifasini aniqlash, nutqda qo‘llanadigan metodlardan foydalanish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar ishlab chiqilishi ona tili o‘qitish metodikasidagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarini loyihalash jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish texnologiyasini ishlab chiqishda, innovatsion o‘qitish g‘oyalarining genezisini tahlil qilish orqali o‘quvchilarni faollashtirishning pedagogik imkoniyatlarini yondashuvlar (mantiqiy, evristik, integrativ, avtoritar, tanqidiy, kognitiv-pragmatik) va tamoyillar (ilmiylik, uzviylik, ko‘rgazmalilik, mobillik, modellashtirish), interfaol metodlar (activating game technologies, competing teams, performing didactic functions) va ijodiy o‘quv topshiriqlari asosida komunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha (reproduktiv A1, produktiv A1, qisman izlanishli A1, kreativ A1) tayyorgarlik darajalari optimallashtirilgan (maqsad, tashkiliy, mazmun, natija) komponentlarini o‘zi chiga olgan model takomillashtirildi.

Bugungi kun ta’lim mazmunini o‘qitish, o‘rganish jarayonida o‘quvchini ko‘proq o‘ylash, fikrlash, ijodiy faoliyat ko‘rsatishga undaydigan didaktik jarayonni taqazo qilmoqda. Bu didaktik jarayon shunday bo‘lmog‘i lozimki, unda o‘qituvchi ham o‘quvchi ham bor imkoniyatini maksimal ishga sola olsin, o‘qitishning ta’limiy-tarbiyaviy, rivojlantiruvchi funksiyalari to‘la amalga oshsin, shaxs kamolotini ta’minlash uchun zamin yaratsin. Bunday mexanizm pedagogik texnologiyaning innovatsion metodlar majmuidir. Innovatsion metodlar uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirishning eng muhim omillaridan hisoblanadi. Ular ta’lim jarayonida ma’lum o‘zgarishlarga, ta’lim mazmuni, sifati boyishiga, samarali tashkil etishiga sabab bo‘ladigan turli xil tashabbus va yangiliklarning yaxlit tizimida namoyon bo‘ladi.

Ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish bo‘yicha mavjud tajribani o‘rganish va umumlashtirish maqsadida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining darslari kuzatildi va quyidagi savollarga javob izlandi:

a) ijodiy ta’limning maqsadi bilan daxldor savollar – ta’limni ijodiy tashkil etishning maqsadi, vazifalariga mosligi;

b) ijodiy ta’lim mazmuni bilan daxldor savollar – ijodiy topshiriqlarning o‘quv materiali mazmuniga mosligi, o‘quvchilarning real o‘quv imkoniyatlariga muvofiqligi, u yoki bu ijodiy ishlarning o‘quv topshiriqlari tizimidagi o‘rni;

v) ijodiy ta’limning jarayoni xususiyatlari bilan aloqador savollar – ijodiy topshiriqlarning darsturi, bosqichlariga mosligi, ijodiy ta’limda bolalarning real o‘quv imkoniyatlari, ishlash tempi bilan bog‘liqligi, ijodiy ishlarni bajarishda foydalaniladigan usullar, ijodiy topshiriqlarni bajarishda oldin o‘rganilgan bilim va faoliyat usullarini qo‘llash, yangi bilim va faoliyat usullarini qayd qilish vositalari;

g) ijodiy ishning natijasi bilan daxldor savollar – u yoki bu ijodiy ishning o‘quvchilar uchun ahamiyati mosligi, o‘quv topshiriqlarining o‘quv materiali mazmunini to‘liq o‘zlashtirish talabalariga yetarligi, ijodiy ishlarning bolalarda mustaqil faoliyatni shakllantirishdagi roli va sh.k. Mavzu doirasida bolalarning bilimi, ijodiy faoliyat tajribasini kengaytirish bosqichlarida biluv topshiriqlaridan foydalaniladi. Ona tilida o‘rganilgan bilimlarni dastlabki mustahkamlash bosqichlarida biluv topshiriqlari ta`limga tatbiq qilinadi. Ona tilidan bolalarning bilim va malakalarini umumlashtirish darslarining ikki yoki undan ortiq mavzuda o‘rganilgan bilimlarga oid dalillarni taqqoslash, dalillardan umumiy xulosa chiqarish, chiqarilgan xulosani murakkab o‘quv holatlariga tatbiq qilish bosqichlarida biluv topshiriqlari tashkil etiladi. Biluv topshiriqlarini ta`limga tatbiq etish jarayonida ona tili o‘quv predmetining barcha nuqtai nazarlari hisobga olinadi. Biluv topshiriqlari bolalarda-fonetik hodisalarni (nutq tovushi va harf, unli va undosh, jarangli va jarangsiz undoshlar, bo‘g‘in, uning turlari, bo‘g‘in ko‘chirish, urg‘u) ajrata olish, o‘tilgan mavzular yuzasidan o‘qituvchi o‘zi mustaqil ularning salohiyati va egallangan bilimni qay darajada o‘zlashtirilganligiga qarab turli xildagi tuziladigan mashqlar desak bo‘ladi. Bilish faoliyati maqsadlari obyektiv xarakterga ega. U kishilar tomonidan topilmaydi. Aksincha, bilish faoliyati maqsadi jamiyatning taraqqiyoti, fan va texnikaning, san'at va adabiyotning rivojiga

o‘z hissasini qo‘shadi, binobarin, u ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish talablari, ehtiyojlariga ko‘ra belgilanadi.

Agar o‘quv faoliyati maqsadi bilimlarni egallash, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish e'tiyojlari zaminida shakllantirilsa, bilish faoliyati maqsadlari yanada keng, mazmun jihatdan boy hodisalarga borib taqaladi. Bunday hodisalar qatoriga bolaning jamiyatda o‘z o‘rnini anglashga intilishi, sinfdosh va tengdoshlari bilan fikrlashish ishtiyoqi, o‘zini yaxshi fazilat, odatlarga tayyorlash uchun kurashi, o‘quv predmetlaridan birontasini boshqalarga nisbatan qo'lay olishi, unga urinishi kabilar kiradi. Ana shularga ko‘ra bilish maqsadlarining quyidagicha ko‘rinishlarini ajratamiz:

Ijtimoiy maqsadlar: ular istiqbolga yo‘nalgan maqsadlar bo‘lib, bolaning kelajakka intilishi va o‘zini unga tayyorlashida ko‘zga tashlanadi. Shu bilan birga, ijtimoiy maqsadlar xususidagi bolalarning tasavvurlari juda erta, maktabgacha tarbiya yoshida shakllana boshlaydi. Bu hodisani onasining ikki qo‘lidan ushlab yuriyotgan va ko‘tarishidan zavqlangan bola "katta bo‘lsam, men ham sizni ko‘taraman" yoki mashinada otasi bilan yonma-yon o‘tirgan bolaning "men ham sizni mashinada olib yuraman" degan jumlalarida ko‘ramiz. Ijtimoiy maqsadlar ota-ona, atrofdagi kishilar bilan muomala qilish jarayonida shakllanib, bolaning atrofdagi kishilar, Vatanni sevish, xalqiga xizmat qilish orzu-istaklarini rivojlantirib, yillar osha takomillashib boradi. Bola sinfdan sinfga o‘tgan sayin ijtimoiy maqsadni asosli anglay boradi. Maqsadni anglash bolani o‘z ustida qunt bilan ishlashga, o‘qish-o‘rganishga undaydi. Fikrlashish, so‘zlashuv maqsadi bolani o‘qish-o‘rganishga, o‘z fikrlarini o‘zgalar: ota-ona, sinfdosh, o‘qituvchi bilan baham ko‘rishga yetaklovchi maqsaddir.

Axloqiy maqsad. Unda barkamol shaxsni shakllantirishga oid orzu-istaklar aks etadi. Jamiyatda, jamoada o‘z o‘rnini anglash, ota-ona, o‘qituvchi, sinfdoshlar oldidagi o‘z burchini anglash bolani o‘qish-o‘rganishga oid qiyinchiliklarni bartaraf etishga yetaklaydi. O‘z-o‘zini tarbiyalash, faollashtirish maqsadi o‘z faoliyatida yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish, kamchiliklarni bartaraf etishga intilish, faoliyatdagi yutuqlarni ko‘paytirish, qiyinchiliklarni bartaraf etishga oid maqsadlardir. Bola u yoki bu masalani qanday, qaysi yo‘llar bilan bajarganini tahlil qilish, insho yoki yozilgan hikoyani qayta ko‘rib chiqish qaysi bilan bunday maqsadni amalga oshiradi. Bilish maqsadlari va bilish motivlarining o‘zaro chatishib ketganini hisobga oladigan bo‘lsak, bilish motivlarining ham qator guruhlarini ajrata olamiz:

- ijtimoiy motivlar;
- aloqalashuv motivlari;
- fikrlashuv motivlari;
- ahloqiy motivlar;
- o‘z-o‘zini boshqaruv motivlari.

Agar biluv maqsadlari va motivlari dars tizimida amal qilsa, bilish maqsad va motivlari esa jamiyat, aholi, muloqot, o‘z- o‘zini tarbiyalash bilan bog’liq bo‘lib, ular maktabdan tashqaridagi hodisalar bilan bog‘liqdir. Biluv yana bir tarkibiy qismi biluv vositalaridir. Biluv vositalari bu bilish jarayonida o‘quvchi o‘zi bilan biluv predmeti sarasiga kiradigan moddiy va moddiylashgan narsalardir. Muammo, o‘quv topshiriqlari, turli chizma va jadvallar moddiy narsalar qatoriga kirsa, biluv topshiriqlari ta’limda aqliy faoliyat usullari moddiylashgan narsalar sirasiga kiradi. Moddiy vositalar ta'limga tashqaridan olib kirilsa, moddiylashgan narsalar (biluv mehnati usullari) bolalarning o‘zida bo‘ladi.

Xulosa. Bilish maqsadlari bevosita biluv materiallarini o‘rganish bilan xarakterlanadi. Ijtimoiy aloqalashuv, ahloqiy, o‘z-o‘zini faollashtirish maqsadlarini amalga oshirish bilish maqsadlarini reallashtirish, ongli amalga oshirishga olib keladi. O‘rganilgan bilimlarni yangi sharoitga tatbiq etish, masala, misol, mashqlarni yangicha usullar bilan bajarishga intilish, mavzuga oid yangi faktlarni izlab topish va shu kabilarni bilishga oid maqsadlarni amalga oshirishga olib keladi. O‘quv muammosi yoki biluv topshirig’ida aks etgan pozitiv (ijobiy) ziddiyat oldin o‘rganilgan bilim, faoliyat usuli, orttirilgan tajriba vositasida hal etilsa, unda o‘quvchi o‘z temperamentidan kelib chiqib o‘quvchida u yoki bu o‘quv predmeti bo‘yicha to‘plangan bilim, usul, hayotiy tajribalar tizimi) kerakli bilim, faoliyat usuli vositasini izlaydi. Zaruriyat tug’ilganda kerakli bilim, faoliyat usuli, orttirilgan tajribani izlash va uni berilgan yangi o‘quv holatiga tatbiq etish o‘ziga xos ijodiy jarayon bo‘lib, u bolalarda tanlay olish layoqatini rivojlantiradi. Biluv topshiriqlari boshlang‘ich sinf darsliklarining bo‘lim yuzasida takrorlash qismlarida uchratishimiz mumkin. Bundan tashqari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘zining amaliyot tajribasidan hamda, kreativligidan kelib chiqib o‘quvchilarning yoshiga mos tarzda tuzishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining - O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli Farmoni

2. Himoyeva, S. (2023). Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning o ‘quv-biluv ko ‘nikmalarni savol-javob tarzida amalga rivojlantirish. Science and innovation in the education system, 2(9), 44-47.

3. Sarvarbegim, H. (2023). Developing Students' Creative Skills through the 4k Model in Mother Language and Reading Literacy Education. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, *1*(10), 198-202.

4. Jamilovna, H. S. (2024, March). Improving the creative abilities of students through educational tasks in primary grade mother tongue education. In *Creativity and Intellect in Higher Education: International Scientific-Practical Conference* (Vol. 6, pp. 1-5).

5. Himoyeva, S. J. (2020). Umumumiy o ‘rta ta’lim maktablari o ‘quvchilarining yozma nutqini insho yozish orqali rivojlantirish usullari. *Студенческий вестник*, (19-12), 99-100.

6. Hamzayevna, O. M. (2024, March). Speech development of students in mother language classes of primary class. In *Creativity and Intellect in Higher Education: International Scientific-Practical Conference* (Vol. 6, pp. 10-12).

7. G.X.Shodiyeva “Boshlang’ich sinflarda badiiy asarni o’qishning ahamiyati”. Respublika ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konfrensiyasi. 12-dekabr 2022-yil. 267-269-betlar.

8. Xayrullayevna, S. G. (2023). Boshlang ‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari. *pedagogs jurnali*, *1*(1), 106-106.

9. Xayrulloyevna, S. G. (2022). Boshlang ‘ich sinf o ‘qish darslarida didaktik o ‘yinlardan foydalanishning metodik imkoniyatlari. *pedagogs jurnali*, *1*(1), 298-300.

10. Gaybulloyeva, N. I., & Gulruh, S. (2022). Use of innovative technology in student speech growth in primary school lessons. *Open Access Repository*, *9*(04), 121-125.

11. Madovich, K. K., & Khairullaevna, S. G. (2023, January). FACTORS OF INTEGRATED ORGANIZATION OF SMALL TEXT LECTURES IN PRIMARY GRADES. In *E Conference Zone* (pp. 44-49).

12. Qoldoshev A. R. Psychological aspects of left-handedness: concept, causes, and peculiarities //Psychology and Education Journal. – 2021. – Т. 58. – №. 1. – С. 4981-4988.

13. Gaforovna J. H. The Impo‘rtance of Project Education in Improving the Creative Activity of Students in Primary Grade Mother Tongue Education //American journal of science and learning for development. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 203-206.

14. Jumayeva H. G. Methodology for Improving the Creative Abilities of Students in Primary School Native Language Education //International journal of inclusive and sustainable education. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 236-238.

15. Jumayeva H. G. Boshlang_ich sinf ona tili talimida o‘quvchilarning ijodiy qobilyatini takomillashtirish metodikasi //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1.–№. 6.–С.

16. G'aforovna, J. X. (2023). Boshlang'ich sinf o 'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari: *Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy-metodik jurnali*, (1), 226-231.

17. Jumayeva, H. (2024). Boshlang ‘ich sinflarda o ‘qitishning zamonaviy metodikasi. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, *45*(45).

Yusufzoda Shabnami Yunus
Buxoro davlat universiteti
Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail: sh.y.yusufzoda@buxdu.uz

YOZUVGA O‘RGATISH JARAYONIDA O‘QUV QUROLLARIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. *Maqolada grafik ko‘nikma va malakalarni takomillashtirishda ish joyini to‘g‘ri tashkil etish, ularga zamonaviy yozuv qurollari va daftardan foydalanishning metodik shartlari keltirilgan. O‘quvchilarda grafik ko‘nikmalarni shakllantirishda zamonaviy vositalarini qo‘llashni o‘rgatishning innovatsion usullari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *innovatsion, right, left, motorika, unicum, termoplastik elastomer, simulyator, anatomik Sattler Grip Writing Aid yozuv asboblari, visio sharikli ruchka, flair angular sharikli ruchka*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ УЧЕБНЫХ ПРИНАДЛЕЖНОСТЕЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ПИСЬМУ

Аннотация. *В статье представлены методические условия правильной организации рабочего места, использования современных письменных принадлежностей для повышения графических навыков и квалификации. Освещены инновационные методы обучения использования современных письменных принадлежностей в формировании графических навыков у учащихся*

Ключевые слова: *инновационный, правый, левый, моторика, уникум, термоэластичный эластомер, тренажер, анатомические пишущие инструменты Sattler Greer Write Aid, шариковая ручка visio, шариковая ручка flair angular.*

IMPROVING THE TECHNOLOGY OF USING EDUCATIONAL TOOLS IN THE PROCESS OF TEACHING WRITING

Annotation. *The article presents the methodical conditions for the correct organization of the workplace, the use of modern writing instruments and notebooks for the improvement of graphic skills and qualifications. Innovative methods of teaching students to use modern tools in the formation of graphic skills are highlighted.*

Key words: *innovative, right, left, motorics, unicum, thermoelastic elastomer, simulator, anatomical Sattler Greer Writing Aid writing instruments, visio ballpoint pen, flair angular ballpoint pen*

Kirish. Yozuvga o‘rgatish, birinchi navbatda, grafik malaka hosil qilishdir. Har bir malaka ham ta’lim berish, ko‘nikmani shakllantirish va shu asosda qator mashqlarni bajarish natijasida hosil qilinadi. O‘qituvchi sinfda o‘quvchilarning ish joyini to‘g‘ri tashkil etgandan so‘ng ularga yozuv qurollari va daftardan qanday foydalanishni o‘rgatishi lozim. Innovatsion ta’lim sharoitida ham birinchi navbatda o‘qituvchi o‘z shogirdlari uchun sifatli yozuv qurollari tanlaydi, chunki yozuvning chiroyli bo‘lishi ko‘p jihatdan yozuv qurollariga bog‘liqdir. Hozirgi zamonda yozuv qurollarining turi nihoyatda ko‘p va ularning na hammasi talabga javob beradi. Ko‘pgina yozuv qurollari ta’lim standartlari talablariga javob berolmaydi. Shuning uchun o‘qituvchining o‘zi talabalarni sifatli yozuv qurollari bilan ta’minlashi lozim. Ayni damda umumta’lim maktablarimizda, hatto boshlang‘ich ta’limda ham an’anaviy ruchkalar yordamida o‘quv jarayoni tashkil qilinadi. Holbuki, birinchi sinflarda o‘quvchilar zamonaviy yozuv qurollari bilan ta’minlangan bo‘lmog‘i lozim. Zamonaviy yozuv qurollari deganda nimani nazarda tutamiz? Bularga ayni damda xorijiy rivojlangan davlatlarining boshlang‘ich sinflarida bolalarga yozishni o‘rgatishga qo‘llanadigan yozish uchun bolalar korrektorlari – bolalar uchun yozuv ushlagichi, o‘quv holatini tuzatuvchisi, yordamchi qalamlar, ergonomik tuzatish vositalari, yozuvni tuzatish uchun ruchka ushlagich va boshqalardan juda unumli foydalanishadi.

Endigina maktab ostonasiga qadam qo‘yib, yozishni o‘rganish jarayonida turli xil qiyinchiliklarni (ruchka va yo qalamni to‘g‘ri tuta bilmaslik, daftar qatorida to‘g‘ri yozolmaslik, qo‘l mushaklarini tez-tez og‘rishi, qo‘lni tez charchashi, noto‘g‘ri pozitsiya, xunuk va chalkash yozuv, qalamni noto‘g‘ri ushlab turish, qog‘ozni juda qattiq bosish, miyopi, disgrafiya (yuqori aqliy funktsiyalarning shakllanmaganligi sababli doimiy, takroriy xatolarda namoyon bo‘ladigan yozish jarayonining qisman buzilishi)) boshidan kechirayotgan o‘quvchilarga zamonaviy yozishga ko‘maklashuvchi vositalar bilan

yordam berish mumkin. Bu vositalarga nimalar kiradi: yozish texnikasini tuzatish uchun nozul, yozish simulyatori, to‘g‘ri yozish uchun o‘rgatuvchi nozul va boshqalar.

Muhokama va natijalar: Yuqorida tilga olingan qurilmalar bolalarga qalam va ruchkalarni to‘g‘ri ushlab turishga yordam beradi: barmoqlar endi og‘rimaydi, bolaning yozish paytida tutadigan holati tuzatiladi, ushlash zaiflashadi (bu osonroq, tezroq va chiroyli yozishni o‘rganishga yordam beradi).

Qalam va ruchkalarda ergonomik o‘quv qopqog‘idan foydalanish yozuvni endi o‘rganayotgan hamda grafik malakalarini shakllantirayotgan o‘quvchilarga yanada qulayroq o‘rganish tajribasini beradi. Yozuvni yengillashtiruvchi qurilmalar o‘quvchilarning barmoqlarini tutqichning to‘g‘ri holatiga olib boradi, bu esa uni qalam yo ruchkani boshqa tarzda (noto‘g‘ri, xato) ushlashini oldini oladi.


Ish yuritish materiallarida, odatda o‘naqaylar uchun mahsulotlar "R"(angl. Right – o‘ng) harfi, chapaqaylar uchun "L" (angl. Left – chapaqay) harfi bilan belgilanadi.



1-rasm. Ruchkalarning turlari

Dunyoda o‘naqaylar va chapaqaylar uchun maxsus o‘quv qurollari ishlab chiqaradigan korxonalar ham mavjud.

Bu korxonalarda o‘quv qurollari bilan birgalikda turli xildagi moslamalar ham ishlab chiqariladi. Bu moslamalar o‘naqay va chapaqay o‘quvchilarga ruchka bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirishga katta yordam beradi. Ushbu moslama – uyinchoqlar orqali o‘quvchilarni ruchka tutish, uni to‘g‘ri ishlatish va u bilan samarali yozish malakasini shakllantiradi. Biz pastda ana shunday moslamalarning metodik ahamiyati va chapaqay o‘quvchilarni yozuvga tayyorlashda qanchalik ahamiyati borligi haqida fikr yuritamiz **(2.2.1-rasm).**



2-rasm. O‘quvchilarni yozuvga tayyorlash

Suratda ko‘rsatilgandek simulyator birinchi sinf o‘quvchisining barmoqlariga qo‘yiladi va ushbu moslama – “tuyaqush”ga harakat qilish “o‘rgatiladi”.

Ushbu simulyator bolalarni qo‘l muskullarini hamda ularni harakatini muvofiqlashtirishga yordam beradi. Ushbu moslama - tuyaqush yurishi, yugurishi, to‘siqlardan sakrab o‘tishi, futbol o‘ynashi, boshini egishi, raqsga tushishi, turli xil narsalarni olib yurishi, shuningdek, bola xayoli taklif qiladigan boshqa harakatlarni bajarishi mumkin. Bola tuyaqushning uzun bo‘yinidagi lentadan ko‘p rangli halqalarni kiygizishi yoki sharf bog‘lashi mumkin.

“Tuyaqush” yumshoq, egiluvchan materialdan tayyorlangan bo‘lib, uni har qanday bolaning qo‘lining ko‘rsatkich va o‘rta barmoqlariga osongina qo‘yish mumkin. Barmoq simulyatori bilan bir necha hafta mashq qilgandan so‘ng, bolanning qo‘llari qanchalik kuchli bo‘lganligini ko‘rib hayron bo‘lasiz. Muayyan mashqlardan so‘ng kichik narsalarni, shu jumladan ruchka va qalam bilan qiyin ishlarni bajarishda bola qo‘llarining chidamlilik va epchilligi oshganini sezish mumkin.

3-rasmdagi moslama esa qo‘lning nozik motorikasini rivojlantirish va qo‘l va barmoqlarni muvofiqlashtirish uchun bir qator afzaliklarga ega.



3-rasm. Qo‘lning nozik motorikasini rivojlantirish

“*Filcha*” –aqlli barmoq ustasi, stol usti va yo‘l o‘yini. Simulyator chapaqay bola barmoqlariga qo‘yiladi va "Filcha" harakatga o‘rgatiladi. Chapaqay bola fil yurishi, yugurishi, orqa oyoqlarida o‘tirishi, futbol o‘ynashi, tanasi bilan har xil narsalarni ko‘tarishi va uzukni tanasi bilan aylantirishi mumkin.

Mashqlar qo‘l harakatlarini muvofiqlashtiradi va rivojlanishini ta’minlaydi, shuningdek, bu boladagi tasavvur, tafakkur va obrazli nutqni rivojlantirish uchun noyob material vazifasini ham bajaradi.

Filcha yumshoq, egiluvchan materialdan tayyorlangan bo‘lib, uni har qanday bola qo‘lining 5 barmog‘iga osongina qo‘yish mumkin. Bu moslama, asosan, 4 yoshdan 8 yoshgacha bo‘lgan chapaqay bolalar uchun tavsiya etiladi.

4-rasmda “Unicum” moslamasi - chapaqay qo‘llarini o‘rgatish uchun "O‘z–o‘zini o‘rgatadigan ruchka" mashq mashinasi berilgan.



4-rasm. “Unicum” moslamasi

Birinchi sinf o‘quvchilariga oson, tez va chiroyli yozishni o‘rgatish uchun, birinchidan, ruchka yoki qalamni qanday tutishni yaxshi o‘rgatish kerak. Yuqorida rasmi berilgan simulyator bolalarga rasm chizish va yozish usullarini o‘rgatishda barmoqlarning to‘g‘ri joylashishini rivojlantirish uchun osonlikcha o‘yin uslubida imkon beradi – ruchka (qalam) ushlab turish uchun oson va qulaydir.


Voyaga yetgan har bir barmoq qanday joylashishi kerakligi va tutqichning qiyshayishi qanday bo‘lishi lozimligini tushuntirib berib, doimiy ravishda bola ustida turishi shart emas. Bolaga birinchi marta o‘rganishda yordam berish kifoya.

Simulyator yozishda ruchka yoki qalamning mutlaqo to‘g‘ri egilishini, barmoqlarning to‘g‘ri holatini ishlab chiqishga va uchta masalani echishga imkon beradi: xattotlik – bola toza va chiroyli

yozadi; yozish tezligi – bola tez yozadi; yozishda qo‘l charchashi – uzoq vaqt yozishda ham qo‘l charchamaydi;

“O‘z–o‘zini o‘rgatadigan ruchka (qalam)” bu yozuv qurollarini ushlab turish uchun qulaylik emas, balki bolani yozishni o‘rgatish, bolalar va kattalar uchun noto‘g‘ri yozish texnikasini tuzatish uchun noyob simulyator hisoblanadi.

5-rasmdagi ruchka termoplastik elastomerdan tayyorlangan. Bolalarni 3 yoshdan qalamga, yozish texnikasini to‘g‘rilashga – 6 yoshdan ruchkaga o‘rgatish beqiyos yordam beradi.



5-rasm. Termoplastik elastomerdan tayyorlangan ruchka

Birinchi sinf o‘quvchilarining grafik malakalarini shakllantirishda Germaniyada ishlab chiqarilgan noyob Stabilio ruchkalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Mazkur ruchkalar yozish paytida maksimal qulaylikni ta’minlaydi, chunki u ham o‘naqay va ham "chapaqaylar" qo‘llari tuzilishining antropometrik va fiziologik xususiyatlarini va ularning yozish metodlarini hisobga olib yasalgan. Tananing maxsus shakli va barmoqlar bilan tutashgan kauchuk tutash zonasi yozuv paytida qo‘l va yelkada mushaklarning charchashiga yo‘l qo‘ymaslik uchun qo‘l va barmoqlarni to‘g‘ri holatida saqlaydi. Bundan tashqari, bu ruchkalar chiroyli yozuvga o‘rgatishda samarali vosita hisoblanadi. Murakkab ruchka (qalam) siyohlari bilan bir xil, ammo qatorlarda farqli o‘laroq yumshoq, tezroq, yengilroq yozadi va bulg‘anmaydi. Bundan tashqari: 1) bu ruchkalar uni to‘g‘ri tutish mahoratini o‘rgatadi va shakllantiradi; 2) chiroyli yozuv malakalarini shakllantiradi; 3) rangi qog‘ozda bir zumda quriydi va bulg‘anmaydi; 4) g‘ayrioddiy dizayni bilan ajralib turadi, diqqatni jalb qiladi va chapaqaylarni yozishga tez o‘rgatadi;

6-rasmda ko‘rsatilganidek, Fransiyadagi Maped kompaniyasining o‘quvchilar uchun maxsus Visio sharikli ruchkasi ham grafik malakalarni shakllantirishga qo‘l keladi.





6-rasm. Visio sharikli ruchkasi

Birinchi sinf o‘quvchilari uchun grafik malakalarni shakllantirishda Visio ruchkalari ko‘rinishi yaxshiroq bo‘lishi va yozuv paytida mukammal ushlash uchun maxsus egri shaklga ega. Ushbu shakl qo‘lning to‘g‘ri holatini boshqaradi, bu ayniqsa yozishni o‘rganayotgan bolalar uchun juda muhimdir. Yumshoq tutash joyi eng yaxshi qulaylik va hatto yozishni kafolatlaydi.

Konusli po‘lat uchi neylon yoki neylon uchiga qaraganda qo‘l bosimiga yaxshiroq bardosh beradi. Uning shakli ham chap qo‘lda yozayotgan o‘quvchi yozuvini ko‘rishi uchun maxsus ishlab chiqilgan (2.2.7-rasm).



7-rasm. Flair Angular sharikli ruchkasi

7-rasmda original Flair Angular sharikli ruchkasi tasvirlangan. Ular ham o‘quvchilarni yozuvga o‘rgatishga yo‘naltirilgan. Ushbu ruchkalarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, uchi muayyan burchak ostida joylashgan. Bu uni ham o‘naqaylar va ham chapaqaylar uchun ideal qiladi, chunki u yozilgan narsalarni ko‘rishga imkon beradi. Ruchkani ushlash joyi tishlangan, shuning uchun ruchka qo‘lda sirpanmaydi va engil, havodor yozuvga erishiladi. Past viskoziteli nemis siyohi bilan to‘ldirilgan (8-rasm).



8-rasm. Sattler Grip Writing Aid yozuv asboblari

8-rasmda anatomik Sattler Grip Writing Aid yozuv asboblari ko‘rsatilgan. Ularning ushlagichi deyarli har qanday yozuv asboblariga mos keladi.

Bu moslamalar yozuv predmetiga kiyiladi va yozuv paytida chapaqay o‘quvchilarning barmoqlarini to‘g‘ri ushlab turishga imkon beradi. Ular yumshoq toksik bo‘lmagan kauchukdan tayyorlangan.

Yuqorida ko‘rsatganimiz yozuv moslamalari va ruchkalar o‘quvchilarda yozuvni o‘rganishning dastlabki davrlarida hamda grafik malakalarini shakllantirishda katta yordam beradi. Ulardan ota-onalar va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ham foydalanishlari mumkin.

Zamonaviy yozishga ko‘maklashuvchi vositalarni bosqichma-bosqich qo‘llash yanada samaraliroq bo‘ladi. Masalan:

1-2-bosqich: Boshida 5 ta barmoq (ajratuvchi o'yinchoq bilan), keyin – 3 ta barmoq.

3-bosqich – ikkita barmoq.

4-bosqich – ikkita barmoq, ajratuvchi bilan.

5-bosqich – ikkita barmoq (jingalak nozul).

6-bosqich – baliq shaklidagi nozul, barmoqlar uchun chuqur moslashtirilgan.

7-bosqich, oxirgisi (hamma uchun, kattalar uchun ham to‘g‘ri keladi, ko‘p yozuvchilar uchun) – cheklovchi, barmoqlar pastga tushmasligi uchun.

Bolalar uchun yozish korrektorlarining musbat tomonlari:

Birinchi kundan boshlab qo‘lning yozishga hamda qalam va ruchkalarni ushlashga to‘g‘ri sozlaydi, yozish vaqtida qo‘l kamroq charchaydi, o‘naqayga ham chapaqayga ham bir xil to‘g‘ri keladi, yengil, chiroyli, qayta-qayta ishlatiladigan, yozish paytida qomatning to‘g‘ri holati shakllanadi.

Xulosa: Innovatsion ta’lim sharoitida birinchi sinf o‘quvchilaridan ham juda ko‘p narsa talab etiladi. O‘qishning birinchi bosqichida bolalar yozishni o‘rganish bilan bog‘liq juda ko‘p qiyinchiliklarga duch kelishadi: qo‘llari tez charchaydi, daftar qatorlarini aralashtirib yo almashtirib yuboradilar, harf va uning unsurlarini to‘g‘ri yozib bilmaydilar; bola “chap”, “o‘ng”, “varaq”, “sahifa”, “qator” kabi mafhumlarni farqiga bormaydi, tushunmaydi. Bu qiyinchiliklar qo‘l va barmoqlarning yaxshi rivojlanmaganligi hamda yaxshi cho‘t ololmaslik bilan bog‘liqdir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Агаркова Н.Г. Основы формирования графического навыка у младших школьников//Начальная школа. - 1999. - №4

2. Azimov Y.Y.. Husnixatga o‘rgatishning amaliy asoslari (Metodik qo‘llanma). Turon Zamin Ziyo nashriyoti, - Toshkent, 2017, -132 b.

3. Бойко Р.А., Салаватова А. М. Изучение сформированности каллиграфических умений у первоклассников //XX Всероссийская студенческая научно-практическая конференция.-Нижневартовского государственного университета, 2018. – С. 27-29.

4. K. Qosimova, S. Matchonov, X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva, Sh. Sariyev. Ona tili o‘qitish netodikasi.T.: “Noshir”, - 2009

5. Safarova R, G‘ulomov M, Inoyatova M. Savod o‘rgatish darslari: O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma / – T.: “Tafakkur”, 2012. – 144 b.

6. G‘ulomov M. Chiroyli yozuv daftari. 1- sinf uchun. –T.: “Turon-Iqbol”, 2021.-48 b.

Yuldasheva Mashxura Muzaffarovna
Buxoro davlat universiteti dotsenti
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

QADRIYATLI YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA TOLERANTLIK TAFAKKURINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Annotasiya. *Ilmiy maqolada qadriyatlarga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida talabalarda tolerant fikrlashni takomillashtirish texnologiyalari ko‘rib chiqilgan. Maqolaning ahamiyati shundan iboratki, tolerantlik tafakkuri tushunchalari ochib berilgan, bag‘rikenglik tajribasini aniq maqsad yo‘lida tashkil etishdan, ya’ni "o‘zga" kishilar bilan birgalikda harakat qilishni talab etuvchi shart-sharoitlarni sobitqadamlik bilan yaratishdan iborat.*

Kalit so'zlar: *Hamkorlik, bag‘rikenglik ruhi, diniy va ijtimoiy muhit, muloqot va muomala, ko‘ngilchanglik va xayrixohlik, hamdard, fikr-mulohazalar.*

ТЕХНОЛОГИИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТОЛЕРАНТНОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ЦЕННОСТНО-ОРИЕНТИРОВОЧНЫХ ПОДХОДОВ

Аннотация. *В научной статье рассматриваются технологии совершенствования толерантного мышления студентов на основе ценностно-ориентировочных подходов. Важность статьи состоит в том, что раскрываются понятия толерантного мышления, которое заключается в организации опыта толерантности к определенной цели, т. е. устойчивом создании условий, требующих совместных действий с окружающими нас людьми.*

Ключевые слова: *Сотрудничество, дух толерантности, религиозная и социальная среда, общение и этика, доверие и доброжелательность, сочувствие, обратная связь.*

TECHNOLOGIES FOR IMPROVING TOLERANT THINKING IN STUDENTS BASED ON VALUE-ORIENTED APPROACHES

Annotation. *The scientific article discusses technologies for improving the tolerant thinking of students based on value-oriented approaches. The importance of the article lies in the fact that the concepts of tolerance and worldview of tolerance are revealed, it lies in organizing the experience of tolerance towards a specific goal, that is, the sustainable creation of conditions that require joint action with the people around us.*

Key words: *Cooperation, spirit of tolerance, religious and social environment, communication and ethics, fun and goodwill, empathy, feedback.*

Maqolada bag‘rikenglik tafakkurining asl mohiyati ochib beriladi. Jamiyat oldida kelgusi avlod yoshlarining tafakkuridagi mafkuraviy goyalarini o‘zgartirish vazifasi paydo bo‘ladi, zero, yoshlar kelajakda davlatimizning ma’naviy va aqliy qadriyatlari, madaniy an’analarini davom ettiradilar. Biroq, bag‘rikenglik hozircha yosh avlod fel-atvorining tarkibiy qismiga aylangan emas. Shu boisdan ham bag‘rikenglik ongini takomillashtirish dolzarb masala sifatida kun tartibida turishi bejiz emas.

Bu maqsadga erishmoq uchun jamiyatda psixologlar, pedagoglar, siyosatshunoslar, tarixchilar, sotsiologlar, madaniyatshunoslar, faylasuflar va shu kabi olimlarning birgalikdagi kuch-g‘ayratlari bilan ijobiy bag‘rikenglik munosabatlarini shakllantirish borasida aniq maqsadni ko‘zlovchi ta’lim strategiyasini amalga oshirish zarur bo‘ladi. Bu strategiya o‘quv jarayoni orqali ta’lim jamoalarida xayrixohlik muhitini yaratish orqali irqchilik, shovinizm, ekstremizm, ksenofobiyaning har qanday ko‘rinishlarini bartaraf etishi, turli etnoslarga mansub bo‘lgan talabalarni birlashtiradigan sohalarga (madaniy merosga, fan-san’at, davlatni rivojlantirishga qo‘shiladigan hissaga; xarakterning ijobiy xislatlariga) e’tiborni kuchaytirish kerak. Boshqa kishilarga hurmat va ochiqko‘ngillik bilan munosabatda bo‘lish, bir-biridan farq qiladigan madaniy, diniy va ijtimoiy muhitlardagi kishilar hayotining xilma-xilligini tushunish ruhinisingdirish zarur. Har qanday millat kishisi o‘zini bemalol his qilishi, himoyalanganligi, "o‘zga" qo‘shni va dunyo bilan oshkora hamjihatlik qila olishini his qiladigan hamjihatlik muhitini yaratishga ko‘maklashish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bag‘rikenglik ruhini tarbiyalashda o‘zimizning holatimizni, an’analarimiz va madaniyatimiz xususiyatlarini e’tiborga olgan holda, odamlarning u yoki bu ko‘zlangan anglashga va o‘zimizga bog‘liq bo‘lmagan sharoitlarning xususiyatlarini e’tiborga olishga tayyorligini hisobga olib ish tutmoq

kerak bo‘ladi.

Bag‘rikenglikning asosi - avvalo shaxsning tajribasidadir. Shu sababli bag‘rikenglik tarbiyasi, pedagogika nuqtai nazaridan, ijobiy bag‘rikenglik tajribasini aniq maqsad yo‘lida tashkil etishdan, ya’ni "o‘zga" kishilar bilan birgalikda harakat qilishni talab etuvchi shart- sharoitlarni sobitqadamlik bilan yaratishdan iborat.

Hamkorlikka tayyorlik ruhini shakllantirish jarayoni naqadar ertaroq boshlansa, shaxsning o‘zaro harakat vaziyatlaridagi imkoniyatlari, o‘rni va baholi qudrat yordam berishi zaruriyatini anglashi shu qadar tezroq sodir bo‘ladi. Shu boisdan, go‘dak tug‘ilishi bilanoq uning ongini atrofdagi dunyo va kishilar bilan yaxshi munosabatda bo‘lishga o‘rgatishi lozim. Bu o‘rinda oilaga birinchi darajali rol ajratiladi, ya’ni boshqacha qilib aytganda, oiladagi muhit: kattalarning o‘zaro munosabatlari, fikr va mulohazalari, yurish-turishi va harakatlari jonli va ta’sirchan namuna bo‘ladi. Go‘dakning dastlabki tushunchasi bilan uning voyaga yetganda odamlarga xayrixohlik munosabati o‘rtasida juda katta masofa borligi barchaga ayon bo‘lgan holdir. Go‘dak ulg‘aya borgan sari uning bag‘rikenglik tushunchasi ham o‘zgarib, kengayib boradi, bu esa keng va tor ma’noda ijtimoiy-madaniy muhitdagi urf-odatlarni qanday o‘zlashtirishiga bog‘liq bo‘ladi. Uning hayotda orttirgan tajribasi ko‘pincha ko‘ngilchanglik va xayrixohlikni rivojlantirishga yordam bermasligi mumkin. Inson uchun qaysi fe’l-atvor shakllari ustuvor bo‘lishi har bir kishining shaxsiy xislatlari va jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy vaziyatga bog‘liq bo‘ladi.

Modomiki, shunday ekan, ta’lim-tarbiya jarayonida bolalarda bag‘rikenglik qarashlarini rivojlantirshi, ularga har bir kishining or-nomusi, nafsoniyat chegarasi borligini tushuntirish, shu chegaradan o‘tish, uni xafa qilishi va hatto ranjitishi muhimligini ta’kidlash kerak. Xalqlar va hatto odamlar o‘rtasidagi adovat ko‘pincha ana shu chegarani buzishdan kelib chiqadi. Odamlar turli madaniyatlarga mansub bo‘lganliklari uchun ularning urf-odatlari ham har xil bo‘ladi. Ijobiy va salbiy madaniyatlar yo‘q, ularning har biri noyob va betakrorbo‘lib, go‘dak aynan mana shularni uqib olishiga yordam berish kerak. Bag‘rikenglik - o‘zga kishilarning boshqacha ekanligini, tanasining rangi, ko‘z tuzilishi bir-biridan farq qilishini hurmat qilish ham demakdir. Bag‘rikeng bo‘lish o‘zgalar qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilish va ular ham yashash huquqiga ega ekanligini anglash demakdir.

Turli ta’lim va tarbiya muassasalari bu jarayonga qo‘shiladilar, zero ularda millatlararo muomalaning ijobiy an’analariga asoslangan ijtimoiy- madaniy muhit vujudga keltirilsa, bu narsa turli millat talabalari o‘rtasida bo‘linish va ixtiloflarni bartaraf etishga ko‘maklashadi hamda millatlararo muomala tajribasini shakllantirish, mojarolarni oldini olish vazifasini hal etish imkonini beradi.

Talabalar bilan bag‘rikenglik tarbiyasi sohasida olib boradigan ishda ta’lim muhiti, avvalo oliy ta’limning pedagog - o‘qituvchilar zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Mazkur murakkab masalada:

birinchidan, bag‘rikenglik tarbiyasining mohiyati, mazmuni va ko‘rinishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar,

ikkinchidan, ana shunday tarbiyaning imkoni bo‘lgan vositalari, texnologiyalari to‘g‘risidagi tasavvur va

uchinchidan, pedagogning o‘zi bag‘rikeng bo‘lishi (bu narsa alohida katta muammo!) juda zarurdir.

Bag‘rikenglik - pedagogning vazifalari, ish mazmuni va xarakteri taqozo etadigan o‘z kasbiga xos zarur fazilat bo‘lmog‘i kerak.

"Bag‘rikenglik pedagogikasi" degan tushuncha endilikda tez-tez ishlatilmoqda. Bu tushuncha bag‘rikenglik makonini, muloqot va muomala madaniyatini shakllantirishni bildiradi. Bunda odamlar bir-birining ko‘nglini tushunib, tashvishlariga hamdard bo‘ladi, bir-biriga o‘zaro hamnafaslik tuyg‘usi bilan yashaydi. Pedagogikada o‘qituvchining bu sohadagi o‘z vazifasini bajarishi uchun quyidagi yo‘nalishlarni taklif qilish mumkin. Masalan, o‘qituvchi:

-o‘zini taqlid qilsa bo‘ladigan namuna deb tushunishlarini anglaydi;

-muloqotni rivojlantirish va mojarolarni tinch yo‘l bilan hal qilish uchun tegishli ko‘nikmalarni o‘zlashtirib oladi hamda ulardan foydalanadi;

-muammoni hal etishga ijodiy yondashuvlarni rag‘batlantiradi;

- ta’lim jarayoni qatnashchilarining birgalikdagi amaliy faol harakatlari uchun, bu sohadagi shaxsiy yutuqlar uchun sharoit yaratadi;

- do‘q - po‘pisa yoki ashaddiy raqobatchilik fe’l-atvori payini qirqadi;

-birgalikdagi faoliyat dasturlarini ishlab chiqish va bu sohada qarorlar qabul qilishga talabalar va ota-onalarni jalb qilishga ko‘maklashadi;

- tanqidiy fikrlashga, o‘zgalarning nuqtai nazarini qadrlashga o‘rgatadi, ayni vaqtda nizoli masalalar xususida o‘z fikr-mulohazalarini aniq- ravshan ifodalab beradi;

- madaniy xilma-xillikni qadrlaydi, hamda madaniytafovutlarni va ularning hayotda namoyon bo‘lishini tan olishi uchun sharoit yaratib beradi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Юлдашева, М. (2024). Формирование технологий гражданской позиции и толерантного мышления студентов на основе ценностных подходов. центр научных публикаций (buxdu. uz), 45(45).

2.Юлдашева, М. М. (2022). Тиббий педагогик йўналиш талабаларида миллий анъаналар асосида бағрикенгликни ривожлантириш. barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2(4), 333-336

3.Muzafarovna, Y. M. (2022). Tibbiy pedagogik yo‘nalish talabalarida milliy an’analar asosida bag‘rikenglikni rivojlantirishga oid tarixiy tajribalar. ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali, 2(12), 80-84.

4. Yuldasheva, M. (2021). Ways to develop tolerance in medical pedagogical students on the basis of national traditions. Scientific progress, 2(6), 1097-1102.

5. Yuldasheva, M. M. The development of tolerance on the basis of national ideas and traditions in student. International Journal for Advanced Research In Science & Technology (IJARST) ISSN, 2457-0362.

6. Юлдашева, М. (2020). Розвиток толерантності в історії східної культури. Науковий вісник Ізмаїльського державного гуманітарного університету, (46), С-158.

7. Yuldasheva, M. M. Development of tolerance in the history of eastern culture. SJIF Impact Factor, 7.

8. Yuldasheva, M. M. (2021). The development of tolerance and its efficiency based on national traditions. Middle European Scientific Bulletin, 8.

9. Muzafarovna, Y. M. (2020). Development of tolerance in the history of eastern culture. Chief Editor, 5(10), 7.

10. Yuldasheva, M. M. (2021). The development of tolerance and its efficiency based on national traditions. Middle European Scientific Bulletin, 8.

Ozodova Vasila Ikrom qizi
Termiz davlat pedagogika instituti magistranti
Orcid: 0009-0003-4837-2866

GAZETA NUTQIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada gazetaning yaratilish tarixi, maqsadi, uning jamiyatimizdagi o`rni haqidagi ma`lumotlar yoritilib berilgan. Gazeta uslubi yozma adabiy ingliz tilidagi barcha uslublarning oxirgisi bo'lib, boshqa shakllardan ajralib turadigan o'ziga xos yozuv shakli ekanligi ta`kidlab o`tilgan. Gazeta va shu kabi ommaviy axborot vositalari nutqida frazeologik birliklardan foydalanish ahamiyati haqida tushunchalar berilgan. Shu bilan birga, frazeologik birliklar va ularning xususiyatlari haqida to`xtalib o`tilgan. Mashhur ingliz gazetalarda uchraydigan ibora va idiomalardan misollar keltirish orqali ular voqealar tasvirini g'ayrioddiy va yorqin shaklda yaratishga yordam berishi ko`rsatib o`tilgan.*

Kalit so`zlar: *ommaviy axborot vositalari, media, gazeta, sarlavha, axborot, frazeologik birlik, ibora, idioma.*

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN NEWSPAPER SPEECH

Abstract. *In this article, information about the history of the newspaper's creation, its purpose, and its role in our society is presented. Newspaper style is the last of all styles in written literary English, and it is noted that it is a unique form of writing that differs from other forms. Insights into the importance of using phraseological units in the speech of newspapers and similar media are given. At the same time, phraseological units and their characteristics were discussed. By giving examples of phrases and idioms found in popular English newspapers, it is shown that they help to create an unusual and vivid image of events.*

Key words: *mass media, media, newspaper, title, information, phraseological unit, phrase, idiom.*

ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ГАЗЕТНОЙ РЕЧИ

Аннотация. *В данной статье представлены сведения об истории создания газеты, ее цели и роли в нашем обществе. Газетный стиль является последним из всех стилей письменного литературного английского языка, и отмечается, что это уникальная форма письма, отличающаяся от других форм. Даны выводы о важности использования фразеологизмов в речи газет и аналогичных СМИ. При этом обсуждались фразеологизмы и их характеристики. На примерах фраз и идиом, встречающихся в популярных английских газетах, показано, что они помогают создать необычное и яркое изображение событий.*

Ключевые слова: *средство массовой информации, СМИ, газета, название, информация, фразеологизм, словосочетание, идиома.*

Kirish. Gazeta muntazam va tez-tez chiqadigan nashr bo'lib, turli xil dolzarb voqealar haqidagi yangiliklarni o'z ichiga oladi. Kasaba uyushmalari kabi tashkilotlar, diniy guruhlar, korporatsiyalar yoki klublarning o'z gazetalari bo'lishi mumkin, ammo bu atama ko'proq ma'lum bir geografik hududdagi jamoatchilikning katta qismiga umumiy qiziqish bo'lgan yangiliklarni olib keladigan kundalik yoki haftalik nashrlarga nisbatan qo'llaniladi. Umumiy tirajli gazetalar o'zlari olib yuradigan reklamalar orqali tijoratda rol o'ynaydi; ular o'quvchilarga amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etadilar, masalan, televizion jadvallar ob-havo xaritalari va qimmatli qog'ozlar narxlari ro'yxati; va bu gazetalar o'zlarining hikoyalari va komikslar va krossvordlar kabi xususiyatlar orqali ko'ngilocharlikni ta'minlaydi? Biroq, umumiy tirajli gazetaning eng muhim vazifalaridan biri (demokratik davlatda hal qiluvchi vazifa) fuqarolarni hukumat va siyosat to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashdir. Bosmaxona 1450-yillarda Iogann Gutenberg xat chop etishning harakatlanuvchi turini ixtiro qilganidan ko'p o'tmay Yevropada yangiliklarni tarqatish uchun foydalanilgan. qo'llagan. XVI va XVII asrlarda minglab nashr etilgan yangiliklar kitoblari, yangiliklar voqeasi haqida qisqacha risolalar, balladalar, she'rlar bilan

yozilgan va odatda bitta qog'ozning bir tomonida chop etilgan, Yevropada va Amerikadagi yangi Yevropa koloniyalarida tarqatilgan. Amerikada chop etilgan birinchi xabarda Gvatemaladagi zilzila tasvirlangan va 1541-yilda Meksikada chop etilgan. Ingliz tilida yozilgan eng qadimgi gazeta Amsterdamda 1620-yilda asli Gollandiyalik va bir necha yillar davomida Londonda yashagan bosma o`ymakor Piter van de Kir tomonidan nashr etilgan. Tarixchi Jozef Frankning so'zlariga ko'ra, 1640-yillardagi Angliya gazetalari o'zlarining siyosiy jarayonlarini yoritish bilan birga, dunyoda birinchilardan bo'lib sarlavhalardan foydalanganlar, reklama chop etganlar, hikoyalarni yog'och o'ymakorligi bilan tasvirlaganlar. Ular, shuningdek, qonli jinoyatlar kabi shov-shuvli voqealarni yoritishda yangiliklar kitoblari va yangiliklar balladalari bilan yakunlangan birinchi gazetalar qatoriga kiradi. Gazeta uslubi yozma adabiy ingliz tilidagi barcha uslublarning oxirgisi bo'lib, boshqa shakllardan ajralib turadigan o'ziga xos yozuv shakli sifatida ham tan olingan. Ingliz gazetasi uslubi 17-asrdan boshlanadi. Gazeta yozuvi keng ommaga qaratilgan va muhim ijtimoiy yoki siyosiy voqealarga, madaniy yoki axloqiy xarakterdagi ijtimoiy muammolarga bag'ishlangan. Ingliz gazetalarining har qanday muntazam turkumlaridan birinchisi 1622-yil 20-mayda paydo bo‘lgan Weekly News edi. 17-asrda bir qator boshqa yangiliklar varaqalari paydo bo‘ldi, ular turli muvaffaqiyatlar bilan Qirollik tomonidan qo`yilgan tushkunlik va cheklovlarga qarshi kurashdilar. Litsenziyalashning qat'iy tizimining joriy etilishi bilan bunday varaqlarning ko'pchiligi bostirildi va hukumat o'z navbatida jamoatchilikka o'zining gazetasini - **London Gazette**ni birinchi marta 1666-yil 5-fevralda nashr etdi. Gazeta yarim haftalik nashr bo'lib, rasmiy ma'lumotlar, qirol farmonlari, xorijdagi yangiliklar va reklamalarni olib borardi.

Metodlar. Gazetaning umumiy maqsadi - jamoatchilik fikriga ta'sir o'tkazish, o'quvchi yoki tinglovchini yozuvchi yoki ma`ruzachi tomonidan berilgan talqin yagona va to`g`ri ekanligiga ishontirish va nutqda yoki maqolada nafaqat mantiqiy dalillar bilan, balki hissiy joziba bilan ham qabul qildirishdir. U ikki xil bo'ladi: insho va maqola. Boshqa yozma janrlarda bo'lgani kabi gazeta maqolalarida ham tildagi barcha o'zgarishlar bir zumda o'z aksini topadi. Gazeta maqolasida sintaktik frazeologik birliklar faol amalga oshiriladi. Ularning yordami bilan muallif aniq maqsad yoki o'quvchiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Sintaktik frazeologik birliklar deganda komponentlar o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatiga ko‘ra turg‘unlik, takroriylik, yaxlitlik, idiomatiklik, shuningdek, tilda kommunikativ va estetik vazifalarni bajaradigan sintaktik birliklar tushuniladi. Ular his-tuyg'ularini va emotsiyalarini ifodalaydi; gazeta maqolalarida betaraf bo'lgan sintaktik frazeologik birliklar ko'rsatilmaydi. Maqola muallifi har doim o‘quvchi e’tiborini ma’lum bir mavzuga qaratish, o‘z fikr-mulohazalarini bildirish istagida bo‘lganligi sababli yuzaga keladi, lekin betaraf ma’noga ega frazeologik birliklardan foydalanib, bu ta’sirga erishib bo‘lmaydi. Mavzuga munosabat nutq salbiy yoki ijobiy bo'lsin, ularning vaziyatni baholash orqali ifodalanadi. Bosma nashrga kelsak, shuni ta'kidlash kerakki, har bir xalqning media materialini turiga, tashkil etilishiga asoslanib, o'ziga xos tanlovi mavjud. A.Abdusaidov ta‘kidlaganidek, “Gazeta tilining o`ziga xosligi shundaki, gazeta jurnalistikasi badiiy jurnalistikadan o‘zining original formati, maxsus lingvistik shakli bilan ajralib turadi"[1]. Ingliz media olami, barcha media olamlar singari, nafaqat ichki, balki mamlakatning tashqi muammolarini ham tahlil qiladi, buning natijasida turli iboralarning o'zaro ta'siri sababli media matn tili boshqa tillar bilan doimiy aloqada bo'lib, bu tillararo faollikka yordam beradi.

Gazetaning so‘z boyligi doimo o‘zgarib, rivojlanib, eskirib, yangilanib turadi. Gazetaning lug‘at boyligi hatto baholovchi nuqtai nazardan ham bir xil saviyani ko‘rsatmaydi, davriy xususiyatga ega. Chunki lug‘atdagi ayrim sifatlar neytral ma’noga ega va o‘zgaradi. Xuddi shunday, «yangi» deb belgilangan so'zlarning ushbu belgisi yangi yaratilgan lug'atlardan olib tashlandi. Hatto ayrim gazetalar ham eskirgan va yangi lug‘atlarga kiritilmagan. So‘zlarning gazeta tiliga kirmasligining turli ijtimoiy sabablari bor. Gazeta pozitsiyasi bevosita siyosiy qarashlarga bog'liq. Shunday qilib, gazeta lug'atining ijtimoiy jihati aniqroq bo'ladi. Shu bilan birga, gazetaning so‘z boyligi bevosita uning faoliyatiga, xususan, axborot yetkazish, targ‘ibot ishlariga bo‘ysunadi.[2]

Frazeologik birliklar quyidagilarni amalga oshiradi:

- hodisalar va odamlarga baho beradi;
- e'tiborni jalb qiladi;
- faktlarni tasvirlaydi;

[1] Abdusaidov A. Language features of newspaper genres: Ds. dis. abstract - Tashkent, 2005. - P. 37.

[2] T.B. Ramazanov. Features of usage of phraseological units in modern newspaper texts. *Tiltanym №4 (84) 2021,72p.*

- matnlarni tartibga soladi;
- birdamlikni targ'ib qiladi;
- hazilni uyg'otadi.

Ommaviy axborot vositalarining eng keng tarqalgan turi sifatida gazeta tilining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1) matnning informatsion boyligi bilan til vositalarining tejamkorligi;

2) nutqning o'ziga xos kommunikativ fazilatlariga (aniqlik, aniqlik, izchillik, dolzarblik, til birliklarining boyligi va rang-barangligi, mavjudlik, ta'sirchanlik, ifodalilik, tasviriylik) e'tibor qaratgan til vositalarini tanlash;

3) bu uslubga xos nutqiy stereotiplardan foydalanish;

4) matnlarning mavzu va janrlari xilma-xilligi tufayli publitsistik uslub xususiyatlari boshqa uslub xususiyatlari bilan uyg‘unlashishi;

5) tilning turli obrazli va ifodali vositalaridan foydalanish;

6) muallif va potensial o'quvchining lingvistik shaxsining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishni o'z ichiga olgan dialogiklik.

Gazeta-publitsistik ixtisoslashuvining asosiy maqsadi - yozma ommaviy axborot vositalarining o'ziga xos gazeta-publitsistik fondini rivojlantirishdan iborat. Bunda gazeta lug'atini shakllantirish uchun material bu umumiy adabiy lug'atdir. Biroq, uning ba'zi qatlamlari gazeta jurnalistik uslubida samarali hisoblanadi. Yozma ommaviy axborot vositalarining o'ziga xos xususiyati standart nutq va frazeologik birliklar kombinatsiyasidir. Standartga intilish gazetada maxsus so'z birikmalari: barqaror birikmalar, klishe va shtamplangan konstruktsiyalardan foydalanishda namoyon bo'ladi. Unda ijtimoiy baholovchi rang berishning rivojlanishi, gazeta tilida frazeologik birliklarning mavjudligi bilan birga maxsus so'z birikmalaridan majoziy ma'noda foydalanish yozma ommaviy axborot vositalarining baholash, ifoda etish jarayonini aks ettiradi. Hissiy jihatdan baholovchi lug'at tarkibida belgilangan obyekt yoki hodisaga nisbatan hissiy munosabat haqida ma'lumot beriladi. Ilmiy-texnik taraqqiyot, madaniyat rivoji ta'siri ostida gazeta leksikasi tezda yangi so'zlar bilan to'ldirilmoqda. Gazetadagi adabiy tilning o'zgarish, so'z boyligini yangilash jarayonlari faol bo'lib, bu gazeta tilining adabiy tilga kuchli ta'siri bilan bog'liq. Biroq, so'z boyligining yuqori harakatchanligi bilan so'zlardan foydalanish xarakteri doimiy bo'lib qoladi.[1]

Gazeta maqolalarining sarlavhasi yoki "ish nomi" sifatidagi sarlavha ma'lum kalit so'zlarni o'z ichiga olgan mikro matndir. Ular asosiy semantik yukni ko'tarib, matn yaratish vazifasini bajaradilar. Sarlavhaning leksik birliklari ushbu matnning semantik markazlari bo'lib, matnning o'zida kalit so'zlar sifatida taqdim etiladi. Sarlavha standart modelga muvofiq ma'lum bir janr matniga kengaytiriladi, ya'ni muallifning intellektual mahsuloti matnning ochilishida ifodalanadi. Sarlavhalarning eng keng tarqalgan tipologiyasi ularni ifodalashning lingvistik vositalariga qaratilgan ierarxik tasnifdir: so'z - ibora - jumla. "Rus tili grammatikasi" gazeta va boshqa nomlar juda xilma-xil shakl ekanligini ta'kidlaydi: alohida so'z shakllari yoki iboralar, shuningdek, bir qator so'z shakllari, murakkab jumlaning qismlari, sodda jumlalar bu rolni o'ynashi mumkin". Ma'lumki, zamonaviy ommaviy axborot vositalarida sarlavhalar, asosan, matn yaratish funktsiyasi bilan bog'liq bo'lgan sodda gapga shaklan mos keladigan konstruktsiya bilan ifodalanadi.

Axborot sarlavhalarining funksional-semantik turlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Indikativ-axborot sarlavhasi axborotni taqdim etishning minimal darajasini ta'minlaydi (eng umumiy shakldagi ma'lumotlarning minimal miqdori, materialdagi o'quvchining yo'nalishi).

2. O'z-o'zidan ma'lumot beruvchi ma'lumotni potensial o'quvchiga tushuntirish va ehtimol qisman talqin qilish doirasidagi ma'lumotni taqdim etishning zarur darajasini bildiradi. Bunday holda, umumiy yodgorlik yozuvlar kitobida ma'lum bir belgini oladi. Baholovchi va informatsion, asosiy semantik element faktni baholash (salbiy, neytral, ijobiy).

Frazeologizmlar sarlavhaning bir qismi sifatida zamonaviy gazeta sarlavhalari mazmuni tuzilishiga ko‘ra jumlalardan iborat bo‘lib, jurnalistlar ko‘pincha sarlavhaga majoziy, ifodali va dialogik bo‘lishi uchun idiomalar qo‘shadilar. To'liq ma'lumotga ega bo'lmagan frazeologik birlikdan farqli o'laroq, maqola mavzusini faqat yordamchi aktant bilan ifodalovchi birlik yoki frazeologik birlikdan farqli o'laroq, jurnalistik materialning bunday sarlavhasi nafaqat baholovchi, balki axborot jihatidan ham

[1] Isroilova Manzura Jamolovna. Fransuz matbuotida frazeologik birliklarning ishlatilishi. *International scientific journal «Grail of Science» | № 4 (May, 2021),318 p.*

o'zini-o'zi ta'minlaydi. Bunday holda, sarlavha baholovchi ma'lumot bo'lib chiqadi, uning asosiy semantik elementi (salbiy, ijobiy) xususiyatga ega.

Natijalar. mulohaza.

Ingliz gazetasi uslubini jamiyat tomonidan o'quvchini xabardor qilish, o'rgatish maqsadlariga xizmat qiladigan alohida til birligi sifatida qabul qilinadigan o'zaro bog'liq leksik, frazeologik va grammatik vositalar tizimi sifatida ta'riflash mumkin. Darhaqiqat, gazetalarning barcha turlari ko'proq yoki kamroq darajada ma'lumotli va baholidir. Baholash elementlarini yangiliklarni tanlash va taqdim etish usulida, aniq lug'atdan foydalanishda kuzatish mumkin. Gazeta yozishda ishlatiladigan lug'at tabiiy va umumiy adabiydir. Bundan tashqari, gazeta uslubi mavzuni ko'rsatish va uni mavzuga yo'naltirishning eng aqlli usullaridan biri - maqolada idiomalardan foydalanish. Mana, ba'zi mashhur ingliz gazetalarda uchraydigan iboralar.

Jadval-2

Name of newspaper	Phraseological units	Features
“The daily telegraph”	*Why love drives us crazy – according to science*[1]	bu yerda *drive someone crazy* idiomasi qo`llanilgan bo`lib, *kimnidir aqldan ozdirmoq* ma`nosini beradi
“The times”	*Putin held responsible over death of Navalny...*[2]	bu yerda *hold someone responsible* frazemasidan *javobgarlikka tortmoq* ma`nosini berish uchun qo`llanilgan.
“The Guardian”	*‘It went nuts’: thousands join UK parents calling for smartphone-free childhood.*[3]	ushbu gapdagi *go nuts* idiomasi ham *aqldan ozmoq* ma`nosida qo`llaniladi.
“Greenwich time”	*Aiding students who might ‘fall through the cracks’.*[4]	*to fall through the cracks* idiomasi *e`tibordan chetda qolmoq* ma`nosini ifodalash uchun qo`llaniladi.
“News and Tribune”	*Taking the plunge. First high school Polar plunge at Deam Lake.*[5]	*take the plunge* frazemasi *uzoq vaqt o`ylashdan so`ng bir qarorga kelmoq* ma`nosini anglatish uchun ishlatiladi
“The Buffalo News”	*It`s ‘full steam ahead’ for Kensington project.*[6]	*full steam ahead* frazeologik birligi *butun kuch va g`ayrati bilan* ma`nosini chiroyli va obrazli qilish uchun qo`llaniladi.
“The Washington post”	*Clock ticks on Trump`s penalties.*[7]	*clock ticks* idiomasidan biror kimning yoki biror narsaning vaqt chegarasi tugayotganligini majoziy ifodalash uchun foydalaniladi.
“ The Modesto Bee”	*I think it`s really great experience to take yourself out of your comfort zone and live in someone else`s shoes, Whang, a senior at Gregori High School, said.*[8]	*in someone else`s shoes* idiomasi *boshqa bir insonning qiyin vaziyatiga tushib qolish* ma`nosini berish uchun ishlatiladi.

Xulosa va tavsiyalar

[1] The daily telegraph. Wed, Feb 14, 2024.
[2] The times. Sat, Feb 17, 2024.
[3] The guardian. Sat, Feb 17, 2024
[4] Greenwich time. Sat, Feb 17, 2024.
[5] News and Tribune. Sat-Sun, Feb 17-18, 2024.
[6] The Buffalo News. Sat, Feb 17, 2024.
[7] The Washington post. Su, Feb 25, 2024.
[8] The modesto bee. Wed, Feb 28, 2024.

Ba'zida ba'zi so'z turkumlarining ma'nosini taxmin qilish juda qiyin, chunki ular alohida ko'rsatilmagan, aslida ular alohida so'zlar emas, balki butun sifatida ma'lum bo'lishi kerak. Ammo baribir, agar bu birliklar tushunilmasa, odamlar ularni tushunishga va ishlatishga harakat qilishadi, chunki bu ularning e'tiborini tortadi va maqolani o'qishni yanada qiziqarli qiladi. Shunday qilib, biz kuzatgan maqolalar mazmuniga ko'ra, ifodali rang berishdan foydalanilmagan maqolalar yo'qligi aniq. Amaliyot bizga ularning har birida idiomalar, frazeologik birliklar mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu birliklarning xilma-xilligi ba'zi voqealar tasvirini g'ayrioddiy va yorqin shaklda yaratishga yordam beradi. Qayd etilgan maqolalarda qo‘llanilgan frazeologik birliklarning aksariyati hozirgi kun o‘quvchilari uchun o‘qish uchun qiziqarli bo‘lgan maxsus til yordamida kimningdir harakatini yorqin ifodalash vazifasini bajaradi. Maqolalar siyosiy bo'lib, sport yangiliklari butun mamlakat bo'lgan voqealarni o'z ichiga olgani uchun tanlangan manfaatdor. Ushbu maqolalardagi frazeologik birliklar shuni ko'rsatadiki, qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'lmagan, ammo tilning boyligiga ko'ra uni qiziqarli qiladigan ifodali matnlarni bo'yash va ifodalashning ko'plab usullari mavjud. Hatto siyosat va sport kabi maqolalar ham juda qiziqarli bo'lishi mumkin. Amaliy va nazariy tadqiqotlar natijalarini tahlil qilib, biz iboralardan foydalanish nafaqat tadqiqot uchun qiziqarli mavzu, balki ijodiy foydalanilgan gazeta va jurnallar o'rganish barcha yoshdagi o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va topqirlikni samarali rivojlantirishi mumkin degan xulosaga keldik. Biz frazeologik birliklarning mohiyatini ko'rsatdik. Frazeologik birliklar odatda nutqda erkin shakllanmaydigan, lekin tayyor birliklar sifatida takrorlanadigan so'zlar - guruhlar sifatida belgilanadi. Tilshunoslar tomonidan odatiy qo'llaniladigan bu atama ko'pincha idioma atamasi bilan sinonim sifatida qaraladi. Frazeologik birliklar turli tasniflarga ko‘ra tasniflanib, gazeta tilida muhim o‘rin tutadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ta'limda gazetalardan foydalanish o'quvchilarning so'z boyligini oshirish va tushunishga yordam beradi. So'z birikmalarini to'liq o'zlashtirish deyarli imkonsiz bo'lishi mumkin bo'lsa-da, har bir o'quvchi qiyinchilikka tayyor bo'lishi kerak, chunki bu stilistik birliklar og'zaki va yozma ingliz tilida juda tez-tez uchraydi. Maqolalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bunday birliklarning qo‘llanishi ingliz tilini yanada ifodali qiladi va bu tilning go‘zalligini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdusaidov A. Language features of newspaper genres: Ds. dis. abstract - Tashkent, 2005.
2. Isroilova Manzura Jamolovna. Fransuz matbuotida frazeologik birliklarning ishlatilishi. *International scientific journal «Grail of Science» | № 4 (May, 2021).*
3. T.B. Ramazanov. Features of usage of phraseological units in modern newspaper texts. *Tiltanym №4 (84) 2021.*
4. The daily telegraph. Wed, Feb 14, 2024.
5. The times. Sat, Feb 17, 2024.
6. The guardian. Sat, Feb 17, 2024
7. Greenwich time. Sat, Feb 17, 2024.
8. News and Tribune. Sat-Sun, Feb 17-18, 2024.
9. The Buffalo News. Sat, Feb 17, 2024.
10. The Washington post. Su, Feb 25, 2024.
11. The modesto bee. Wed, Feb 28, 2024.

Shokirova Marxabo Sharifovna
Farg‘ona davlat universiteti
Amaliy ingliz tili kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: marxaboshokirova12@gmail.com

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA RASMIY USLUBDA STILISTIK VOSITALARNING FOYDALANISHDAGI O‘XSHASHLIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillarida rasmiy uslubda stilistik vositalarning foydalanishdagi o‘xshashlik jihatlari, ingliz va o‘zbek tillarining funksional uslublarining xususiyatlari, turli uslubdagi matnlarni idrok etishning murakkabligini aniqlash tahlil qilinadi. Uslublar har qanday tilning boyligi va rang-barangligini tashkil etadi. Ingliz va o‘zbek tillarida asosiy uslublarni o‘rganish tilni tushunishni jiddiy ravishda boyitadi va uni o‘rganishda yordam beradi. Tilni o‘rganish jarayonida matnlarni o‘qish turli funksional uslublar: so‘zlashuv, badiiy, ilmiy, publisistik (ommabop), rasmiy uslublarga tegishli hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *stilistika, til, uslub, pragmatika, hodisalar, ravshanlik, ketma-ketlik, faoliyat, ko‘plik, foydalanish, nutq, turg‘un, atamalar, matn, hujjat, hayot, faoliyat.*

ASPECTS OF SIMILARITIES IN THE USE OF STYLISTIC TOOLS IN THE OFFICIAL STYLE IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Abstract. *This article analyzes the similarities in the use of stylistic tools in the official style in Uzbek and English languages, the features of the functional styles of English and Uzbek languages, and the complexity of perceiving texts in different styles. Styles are the richness and diversity of any language. Learning the basic techniques in English and Uzbek will seriously enrich your understanding of the language and help you learn it. In the process of language learning, reading texts belongs to various functional styles: conversational, artistic, scientific, journalistic (popular), official styles.*

Key words: *stylistics, language, style, pragmatics, events, clarity, sequence, activity, plural, usage, speech, static, terms, text, document, life, activity.*

АСПЕКТЫ СХОДСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СТИЛИСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ ОФИЦИАЛЬНО-ДЕЛОВОГО СТИЛЯ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ.

Аннотация. *В данной статье анализируются сходства в использовании стилистических средств делового стиля в узбекском и английском языках, особенности функциональных стилей английского и узбекского языков, а также сложность восприятия текстов в разных стилях. Стили – это богатство и разнообразие любого языка. Изучение основных техник английского и узбекского языка серьезно обогатит ваше понимание языка и поможет вам его выучить. В процессе изучения языка чтение текстов относится к различным функциональным стилям: разговорному, художественному, научному, публицистическому (популярному), официальному стилю.*

Ключевые слова: *стилистика, язык, стиль, прагматика, события, ясность, последовательность, деятельность, множественное число, употребление, речь, статика, термины, текст, документ, жизнь, деятельность.*

Kirish. Respublikamizda 2020-yil 23-sentabrdagi yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonunni qabul qilinganligi, maktab ta’lim tizimining ma’naviy - axloqiy tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib xalqaro baholash reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning ona tili, chet tili, o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Biz raqamli texnologiyalar asrida, ta’lim karyerada muvaffaqiyat qozonishning, turmush farovonligini oshirishning bosh omiliga aylangan davrda yashayapmiz. Zamo-

naviy ta'lim bizning nafaqat bilim va ko'nikmalarimizni belgilab beruvchi mezon, balki bizning dunyoqarashimizni, bizning dunyo taraqqiyotiga qo'shadigan hissamizni ham aks ettiruvchi muhim qadriyatdir.

Jahonda va mamlakatimizda ta'lim sohasida bo'layotgan o'zgarishlar, ta'lim samaradorligini ta'minlashdagi islohatlar natijasida katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. ya'ni qabul qilingan qonun va farmoyishlar jamiyatimiz ravnaqiga ijobiy ta'sir qilishi shubhasizdir. Ular mamlakatning intellektual salohiyatini oshirishda, davlat ta'lim standarti talablariga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Stilistika bu (yun. stylos — yozuv, xat tayoqchasi) degan ma'noni bildiradi, uslubshunoslik uslubiyat — tilshunoslikning til uslublarini tadqiq etuvchi, tilning leksik-frazeologik, fonetik, morfologik, so'z yasalishi va sintaktik sathlarda sinxroniya va diaxroniya nuqtai nazaridan funksional qatlamlanishining mohiyati va o'ziga xosliklarini o'rganuvchi, adabiy tilni turli lisoniy vaziyatlarda, yozma adabiyotning xilma-xil tur va janrlarida, ijtimoiy hayotning turli sohalarida qo'llash me'yorlari va usullarini tavsiflovchi tarmog'i. Stilistikada parallel sinonimik til ifodalaridagi ma'noviy va ekspressiv nozikliklar, lisoniy birliklarning o'zaro munosabatdosh variantlari o'rganilgan. Bunday variantlarda ular orasidan muayyan nutqiy vaziyat uchun zarur bo'lganini tanlab olish imkoniyati mavjud bo'lgan.

Uslub-tilning inson faoliyatining muayyan sohasi bilan bog'liq vazifatillariga ko'ra ajratilishi. kishilar faoliyatning barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida tildagi leksik, frazeologik, grammatik va fonetik vositalarni tanlash va ishlatishda bir-birlaridan ma'lum darajada farq qiladilar. Umumxalq tili doirasida til vositalarining bunday tanlab olinishi nutqning xilma-xil ko'rinishlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Nutq uslubi tilning vazifasi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham ular vazifaviy (funksional) uslub deb yuritiladi. Vazifaviy uslub deganda, tildan farq qiladigan qandaydir alohida narsa tushunilmaydi, balki aniq bir adabiy til tarkibi ichida qaraladigan, o'ziga xos xususiyatlari, xizmat qilish doirasi bilan o'zaro farq qilib turadigan yordamchi tizim tushuniladi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Til insonlarning o'zaro aloqa vositasi bo'lib, insonga berilgan bebaho ne'mat hisoblanadi. Millatni millatdan ajratib turuvchi asosiy belgilaridan biri ham tildir. Dunyodagi har bir xalqning o'z tili uning bebaho boyligi, iftixori va najotidir. O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik orqali namoyon bo'ladi. Inson qalbiga jamiki ezgu fazilatlar avvalo ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Bu haqda buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning quyidagi so'zlarini eslash maqsadga muvofiqdir: "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadigan oynai hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo'qotmoq millatning ruhini yo'qotmoqdir".

Stilistika tilshunoslikning ajralmas qismi bo'lib, u badiiy nutqning ifodalanish uslublari, hujjat ta'sirchanligi va umuman inson nutqini o'rganadigan fandir. Tilshunoslikda ifoda va uslubiy vosita atamalari mavjud. Nutqni emotsional yoki mantiqan harakatga xizmat qiluvchi fonetik, morfologik, sintaktik va so'z yasovchi qo'shimchalar tilning amalga oshirish. Fonetik yaratish ohang, emfatik urg'u kabilar bo'lib, badiiy adabiyotda ifodalilikni ta'minlash, asar ohangdorligini qo'shimcha tovushlarni qo'llash uchun xizmat qiladi: qora-qara, qora-qaro, baravar-barobar, maza-mazza kabilar. Bunday fonetik bo'lgan xossa bo'ladi she'riyatga, ayniqsa g'azal janrida keng qo'llanadi.

Vazifaviy uslub nutq ko'rinishlarining asosiy vazifalariga, ya'ni aloqa, xabar berish, ta'sir etish vositasi bo'lishiga ko'ra turli qismlarga bo'linadi. Adabiy tilning quyidagi vazifaviy uslublari mavjud:

1) so'zlashuv uslubi;
2) rasmiy uslub;
3) ilmiy uslub;
4) publitsistik uslub;
5) badiiy uslub.

Vazifaviy uslubni nomlash va atash ham ularning qanday aloqa doirasida ishlatilganligiga qarab belgilanadi. So'zlashuv uslubi - kishilarning kundalik norasmiy, erkin muomalalari doirasida til birliklarining o'ziga xos amal qilishidir. Vazifaviy uslubning bu turi o'ziga xos ish ko'rsatish sharoiti, ya'ni fikr olishuvning bevositaligi, til vositalarini saylab ishlatilmasligi bilan, shuningdek, ohang vositalari, mimika, imo-ishora kabilardan keng foydalanish, oddiy leksik va frazeologik birliklarning, ekspressive-motsional vositalarning keng ishlatilishi bilan ajralib turadi. Masalan, farzand - jujuq, dunyodan o'tmoq - jon bermoq, imtihondan o'ta olmaslik - imtihondan yiqilmoq kabi juftliklarning ikkinchisi asosan so'zlashuv uslubiga xos. So'zlashuv uslubi fonetik, leksik, morfologik va sintaktik o'ziga xosliklarga ega. Rasmiy uslub (rasmiy ish qog'ozlari uslubi) - hozirgi o'zbek adabiy tilining rasmiy yozishmalar va

yuridik ishlarda amal qiladigan bir ko‘rinishidir. Qonunlar matnlari, farmonlar, buyruq va ko‘rsatmalar, shartnomalar, har xil rasmiy hujjatlar, tashkilotlar o‘rtasidagi yozishmalar rasmiy uslubda yoziladi. Bu uslub boshqa uslubdan lugaviy va grammatik xususiyatlari jihatidan farqlanadi. Rasmiy uslubda so‘z va so‘z shakllarini qo‘llashda muayyan chegaralanishlar mavjud. Xususan, rasmiy ish uslubida kichraytirish, erkalash qo‘shimchalarini olgan so‘zlar, ko‘tarinki, tantanavor yoki shevaga oid so‘zlar, tor doiradagi kishilargina tushunadigan so‘zlar, o‘xshatish, mubolag‘a kabi obrazli tafakkur ifodasi uchun xizmat qiluvchi shakllar ishlatilmaydi. Rasmiy ish qog‘ozlari matnining xolislik, aniqlik, ixchamlik, mazmuniy to‘liqlikdan iborat zaruriy sifatlari undagi o‘ziga xos so‘z qo‘llash, morfologik va sintaktik xususiyatlar orqali ta’min etiladi. Bu uslubdagi gap qurilishi, odatda, tasniflovchi, qayd etuvchi va qaror qiluvchi qismlarning birligiga asoslanadi. Shuning uchun ham rasmiy ish qog‘ozlari (hujjatlar)da nisbatan uzun jumlalar, murakkablashgan, uyushiq bo‘lakli gaplar ko‘p qo‘llanadi. Rasmiy gap tarkibida odatdagi so‘z tartibiga qat’iy rioya qilinadi. Rasmiy uslubda so‘roq va undov gaplar deyarli qo‘llanmaydi, asosan, darak va buyruq gaplar ishlatiladi. Matn birinchi shaxs yoki uchinchi shaxs tilidan yoziladi. Rasmiy ish qog‘ozlari matnini tuzishda turg‘unlashgan, qoliplashgan so‘z birikmalaridan keng foydalaniladi.

Har bir uslubning rivojlanishi standart ingliz va o‘zbek tillari normalarining o‘zgarishi bilan oldindan belgilanadi. Bunga ijtimoiy sharoitlarning o‘zgarishi, ilmiy taraqqiyot va madaniy hayotning rivojlanishi ham katta ta'sir ko‘rsatmoqda. An'anaviy ajralib turuvchi funktsional uslublar - ilmiy (ommabop fan), rasmiy, publisistik (ommabop), so‘zlashuv, badiiy - tilning quyi tizimlari bo‘lib, ularning har biri besh asosiy darajadagi o‘ziga xos: fonetik, morfologik, leksik, sintaktik va matn tarkibi bo‘yicha xususiyatlarga ega. Rasmiy uslub turlicha quyi uslublar yoki turlar bilan ifodalanadi: ish hujjatlari tili; huquqiy hujjatlarning tili; diplomatiya tili; harbiy hujjatlarning tili. Ushbu turdagi aloqa vositalarining asosiy maqsadi ikki tomonni bir-biriga bog‘laydigan shartlarni aniqlash va ikki shartnoma tuzuvchi tomonlar o‘rtasida o‘zaro kelishuvga erishish. Ushbu uslubning yana bir o‘ziga xos xususiyati-so‘zlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘z ma'nosida ishlatilishi. Unda majoziy ma'no qo‘llanilmaydi. Rasmiy uslubda ham ilmiy stilga xos aniqlik, logik izchillik, qisqalik va to‘liqlik kabi ekstralingvistik belgilar mavjud bo‘lib, bunda yuqorida M.Mukarramov ustoz ta’kidlagan stil sathlariga kiruvchi faktorlar emas, balki rasmiy uslubning ekstralingvistik belgisi sifatida qaraladi. Chunki stil sathi deb qaraydigan bo‘lsak, ifodalovchi birligi mavjud bo‘lishi kerak, masalan, fonetik sathning birligi fonema, leksik sathning birligi leks, sintaktik sathning birligi esa so‘z birikmasi va gap hisoblanadi. Aniqlik, logik izchillik, neytrallik, qisqalik va to‘liqlik kabi belgilarda ifodalovchi birligi mavjud emas. Aniqlik rasmiy matnlarning asosiy belgisi hisoblanadi.

Rasmiy uslub – adabiy tilning yozma rasmiy shakliga xos bo‘lib, muayyan nutqiy qolip, qat’iy odat tusiga kirib qolgan shakllarga ega nutq uslubi. Bu uslub huquqiy qonunchilik va ish yuritish munosabatlarida, ya’ni davlat arboblari o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarda, idora, korxona, muassasalarning rasmiy ish yuritish jarayonlarida, shaxslarning ariza, tilxat, ishonch qog‘ozi singari ish yuritish qog‘ozlarida qo‘llaniladi. Bu uslubda tilning ikki vazifasi: axborot uzatish va da’vat etish, buyurish vazifasi amalga oshadi. U har qanday tasviriy vositalardan, obrazlilikdanx oli bo‘ladi. Rasmiy ish qog‘ozlarining sintaktik tuzilishi qat’iy qoliplarga bo‘ysunadi, hujjatlar qisqa va aniq, barcha uchun tushunarli qilib tuziladi. Bu uslub ham o‘z navbatida sof qonunchilik uslubi, idoraviy-devonxona uslubi, diplomatik uslublarga bo‘linadi. Rasmiy uslub qat’iy qolip asosida bo‘lib, hujjat matnining darak-axborot xarakterida bo‘lishini, so‘zlarning bir ma’noda ishlatilishini, badiiy-tasviriy vositalar bo‘lmasligini, fe’lning majhullik va buyruq-istak shakllari, qo‘shma gap turlarining keng qo‘llanilishini talab qiladi, til materiali hujjatning turi va xarakteriga qarab tanlanadi. Har bir nutq uslubi tilimizning naqadar boy va go‘zal ekanligini anglatib turadi. Eng muhimi har qanday uslubda so‘zlashishda ham nutq uslublari me’yorlarigava qoidalariga amal qilish foydadan xoli emas. Ko‘p hollarda biz ingliz tilidagi rasmiy uslubni rasmiy xatlarda ko‘rishimiz mumkin. Misol uchun kimdandir maslahat so‘rash xati (asking advice letter), taklif etish xati (invitationletter), maslahat berish xati (giving advice letter), shikoyat xati (complain letter) va hokazo. Rasmiy uslub va norasmiy uslubning o‘rtasidagi tafovut juda katta ya’ni biz buni xatlar qayerga yoki kim uchun yozilayotganiga qarab ularni ajrata olamiz. Rasmiy uslubning o‘ziga xosligi unda faqat adabiy tildan foydalaniladi so‘zlashuv uslubidagi so‘zlardan ya’ni norasmiy uslubga xos bo‘lgan so‘zlardan foydanilmaydi. Ingliz tilida rasmiy uslubga tegishli so‘zlar mavjud bo‘lib ular xatni qabul qiluvchiga rasmiy tarzda murojaat qilinganida foydalaniladi. Quyida ingliz tilining rasmiy uslubida yozilgan xat na’munasi va rasmiy uslubga xos bo‘lgan so‘zlar va so‘z birikmalari keltirib o‘tiladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Zamonaviy stilistika turli lingvistik yo‘nalishlar va maktablarda turlicha tushuniladi, shu bilan birga xar bir nutqai nazar, stilistikaning asosiy o ‘rganish mavzuyi bo‘lmish uslubning serqirraligi sababli, o‘z obyektiv asosiga ega. Stilistika tip me’yor (norma)lari bilan uzviy bog‘liqdir. Stilistika o‘z navbatida funksional stilistika, lisoniy birliklar stilistikasi, matn stilistikasi, badiiy adabiyot (badiiy nutq) stilistikasi, amaliy stilistika, qiyosiy stilistika, tarixiy stilistika kabi turlarga bo‘linadi. Funksional stilistika adabiy tilning o‘z tarixan shakllangan ko‘rinishlari (funksional-uslubiy birliklari) asosida tabaqalanishini, ya’ni uslublar tizimini, bu tizimning ichki strukturaviy shakllanish qonuniyatlarini o‘rganadi va tavsiflaydi. Funksional stilistika nazariy tadqiqot mavzuyi sifatidagi adabiy tilning asosiy funksional uslubiy birliklarini tipologik tasniflash va ajratishning umumiy prinsiplarini ishlab chiqadi. Ta’limni tashkil qilish shakllari o‘quvchilar soniga qarab ta’limning jamoaviy, guruhli shakllari, kichik guruhlarda ishlash, juftliklarda ishlash va individual (yakka tartibda) ishlash kabi shakllari bo‘ladi.

Jamoaviy ta’lim shaklida vazifalarni bajarish va muhokama qilishda butun sinf ishtirok etadi. Bunda “Ko‘tarilgan qo‘l qoidasi”ni qo‘llash va unga rioya qilish, shuningdek, “Gapirayotganni hurmat qilish” tamoyillariga rioya qilish muhimdir. Bu shakl munozara va bahslar, ochiq muhokamalarga to‘g‘ri keladi.

Juftliklarda ishlash shaklida o‘quvchilar ikki kishi bo‘lib ishlaydi. Bunda o‘quvchilarni “yelkadosh sherik” hamda “yuzma-yuz sherik” tamoyili bo‘yicha bo‘lib chiqish mumkin. Individual shaklda esa o‘quvchi vazifalarni mustaqil ravishda, boshqalarning ishtirokisiz, o‘zi bajaradi.

Lisoniy birliklar stilistikasi adabiy tilda odatdagi nutqiy vaziyatlarda, turli ma’noviy va ekspressiv mazmundagi matnlarda barcha satrlar birliklarining mavjud til me’yorlari nuqtai nazaridan amal qilishi (qo‘llanishi)ni o‘rganadi - Bunda lisoniy birliklarning variantlari (variantdor shakllar, parallel tuzilmalar, lug‘aviy va sintaktik sinonimlar)ning uslubiy buyog‘ini chog‘ishtirish muhim ahamiyatga ega. Lisoniy birliklar stilistikasi bir tomondan funksional stilistika bilan bevosita bog‘lik bo‘lsa, ikkinchi tomondan matn stilistikasiga juda yaqin turadi. Badiiy adabiyot (badiiy nutq) stilistikasi tilning adabiyotda qanday qilib san’at hodisasiga aylanganini tekshiradi, uning badiiy qo‘llanishi, unda estetik va kommunikativ vazifalarning birga qo‘shilishi usullarini aniqlaydi. Badiiy asar stilistikasi faqat yozuvchining tildan foydalanishdagi o‘ziga xosligini, asar tilining xususiyatlarini tadqiq etish bilan chegaralanadi. Uslubning muhim unsuri bo‘lgan tilning asardagi vazifasini aniqlashga yordam beradi, ammo asar tilining barcha xususiyatlarini o‘rganish uning mavzuyiga kirmaydi. Ko‘pincha bir masalani stilistika ham, adabiyotshunoslik ham o‘rganadi. Badiiy nutq stilistikasi til materialining aniq bir badiiy tizimdagi estetik vazifasini aniqlashga harakat qiladi. Shuning uchun badiiy adabiyot stilistikasida eng muhim tadqiqot mavzuyi yozuvchi va muayyan badiiy asar tilidan iborat bo‘ladi, ya’ni individual uslub muammosi birinchi o‘ringa qo‘yiladi. Aniq bir asar tilini tahlil qilish orqali umumlashma xulosalar chiqariladi, bir qancha asarlarga, yozuvchilar ijodiga xos xususiyatlar aniqlanadi (Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor, Shuhrat ijodlarining o‘ziga xos uslubiy xususiyatlari). Natijada badiiy nutqning bir qancha qonuniyatlari, tipologik prinsiplari ishlab chiqiladi. Qiyosiy stilistika turli tillardagi uslubiy hodisalarni qiyoslab o‘rganadi. Qiyosiy stilistika tarjima nazariyasi bilan uzviy aloqadordir. Tarixiy stilistika tilning turli tarixiy davrlarda qo‘llanishini tadqiq etadi. U nafaqat muayyan til uslubiy me’yorlarining o‘zgarib turishini, balki adabiy tip tuzilishining shakllanish va rivojlanish yo‘llarini, adabiy til bilan badiiy nutqning o‘zaro munosabatlari tarixini ham o‘rganadi. Amaliy stilistika nutq madaniyati talablariga muvofiq keluvchi uslubiy tavsiyalarni kamrab oluvchi amaliy soha hisoblanadi. Stilistikaning fan sifatida shakllanishi, rivojlanishi va o‘rganilishi G’arbda antik davrlarga, Sharqda esa o‘rta asrlarga to‘g‘ri keladi. Stilistika fanini o‘rganish obyekti haqida turli qarashlar mavjud. Akademik V.V.Vinogradov stilistika bahsida bir-biri bilan aloqador, lekin vazifalari jihatdan farqlanadigan 3 ta tekshirish aspektini ko‘rsatish zarurligini aytadi. Ular quyidagilar:

1. Tilning funksional stillarini o‘rganuvchi stilistika. Bu struktural stilistika deb ham yuritiladi. Struktural stilistikaning vazifasi uning struktural elementlari bo‘lgan rasmiy, ilmiy, publitsistik, badiiy stillarning o‘ziga xos xususiyatlari va ifoda vositalarini o‘gatishdir.

2. Turli janrlarning (semantik, ekspressiv-stilistik) ma’no va tez ta’sir qilish tomonlarini hamda og’zaki va yozma nutq orasidagi farqni tekshiruvchi nutq stilistikasi. Uning vazifasi tilning barcha tizimi bilan birga yozma va og‘zaki shakllari, adabiy va so‘zlashuv nutqi ko‘rinishlarini tekshiradi. U til birliklaridan qaysi biri yozma va og‘zaki nutqda ko‘proq ishlatilishi, fikr ifodalashda til vositalarining to‘g‘ri tanlangan yoki noto‘g‘ri olinganligi, shu vositalarni o‘rnida ishlatish yo’llarini o‘rganadi.

3. Adabiy yo‘nalishlar, badiiy asar hamda yozuvchi stilini tadbiq etadigan badiiy adabiyot stilistikasi. Uning vazifasi badiiy asarlarni yaratishda yozuvchining ifoda vositalaridan foydalanish mahorati haqida bahs yuritishdir. Stilistika fani akademik V.Vinogradov ko‘rsatgan aspektlardan birinchi va ikkinchisi asosida shakllangan. Uchinchisi adabiyotshunoslikning obyektidir. Aslini olganda, badiiy adabiyot stilistikasi uning bir ko‘rinishidir. Bu tushunchaning alohida tur sifatida ko’rsatilishiga sabab shundan iboratki, u boshqa nutq stillaridan anchagina farqli jihatlarga ega.

Badiiy adabiyot stili keng qamrovliligi, ya’ni barcha stillarni ham o‘zida ifodalashi bilan ajralib turadi. Demak, stilistika ikki xil ko’rinishga ega:

1. Nutq stilistikasi. Bu tilning vazifadosh shakllari deb ham yuritiladi. Bunga so‘zlashuv stili, rasmiy stil, ilmiy stil, publitsistik va badiiy stil kiradi.

2. Lingvistik, ya’ni til stilistikasi. Uning turlari: a) fonetik stilistika. b) leksik stilistika. v) grammatik stilistika. Stilistika bizning bilimimizni tilning funksional aspekti va nutq uslublarining lingvistik muammolari, ularning uzaro munosabati haqida bilimlar bilan boyitadi. Stilistika sof amaliy ahamiyatga ham ega: stilistikani o‘rganish, uning tamoyil va qonun-qoidalarini bilish nutq madaniyatini oshirishda muhim omildir. Shunga ko‘ra, stilistika jamiyatning lingvo-stilistik madaniyatini oshirishga xizmat qiladi, til faktlariga baho berishga o‘rgatadi, mazmun va aloqa situatsiyasiga mos til vositalarini tanlash ko’nikmalarini yaratishga ko’maklashadi. Stilistika til vositalarining ekspressivlik belgisi, ularning nutq uslublariga xoslanish darajasini o‘rganishi, leksika, frazeologiya, morfologiya, sintaksisning sinonimik variantlarini aniqlashiga ko‘ra milliy nutq madaniyatining nazariy asosini tashkil qiladi. Umuman, stilistika nutq madaniyatining ko’pgina murakkab va turli tuman masalarini hal qilishning ilmiy asosidir.

Nutq madaniyati ahamiyatining o’sib borishi stilistikaning nazariy va amaliy muammolarini mukammal o‘rganishni taqozo etadi. Tilshunoslikda, til va nutqning farqlanishi stilistikaning mustaqil fan sifatida shakllanishiga olib keldi. V.Gumboldt, Boduen de Kurtene, G.O.Vinokur, L.P.Yakubinskiy, V.V.Vinogradov, N.Yu.Shvedova, chex tilshunosligi maktabining vakillari va tilshunos olimlar nutqni o‘rganish masalasiga katta e’tibor berdilar. Adabiy tilni o‘rganish, uning normalarini belgilash zaruriyati tufayli nutqning ijtimoiy aspektiga, ayniqsa, rus va chex tilshunosligida muhim ishlar qilindi.

Xususan, rasmiy ish uslubida kichraytirish-erkalash qo’shimchalarini olgan so‘zlar, ko’tarinki tantanavor yoki shevaga oid so‘zlar, tor doiradagi kishilargina tushunadigan so‘zlar, ishlatish, mubolag‘a kabi obrazli tafakkur ifodasi uchun xizmat qiluvchi shakllar ishlatilmaydi. Rasmiy ish qog’ozlari matnining xolislik, aniqlik, ixchamlik, mazmuniy to’liqlikdan iborat zaruriy sifatlari undagi o‘ziga xos so’z qo‘llash, morfologik va sintaktik xususiyatlar orqali ta’min etiladi. Rasmiy uslubda so‘roq va undov gaplar deyarli qo’llanmaydi, asosan, darak va buyruq gaplar ishlatiladi. Matn birinchi shaxs yoki uchinchi shaxs tilidan yoziladi. Rasmiy ish qog’ozlari matnini tuzishda turg’unlashgan, qoliplashgan so‘z birikmalaridan keng foydalaniladi. Masalan, moliya sohasida extra revenue, taxable capacities, liability to profit tax, yoki diplomatik yozishmalarda to ratify an agreement, memorandum, pact, extra-territorial status, plenipotentiary kabi qoliplashgan tuzilmalar qo‘llanishi mumkin. / beg to inform you, the abovementioned, on behalf of. Dear Sir, your obedient servants, to deal with a case; summary I I procedure; a body of judges kabi koliplashgan so‘z va so‘z birikmalari ham rasmiy uslub tiliga xosdir. Shuningdek, rasmiy uslubda qisqartmalar ishlatish ham mumkin. Masalan, M .P. (Member of Parliament), Gvt. (Government), $ (Dollar), J (Pound), Ltd. (Limited), adv. (advance); atk. (attack); obj. (object); A/T (anti-tank); ATAS (Air Transport Auxiliary Service) va hokazolar. Bu uslubning yana bir o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda so‘zlarning faqat lug’aviy ma’nosi ishlatiladi, xolos. So‘zlarning kontekstual ma’nosi yoki emotsional ma’nolar rasmiy uslub tilida ishlatilmaydi.

Rasmiy stil diplomatik yozishmalarda, iqtisodiy, davlat idoralaridagi, sudlarda, savdoga doir, yuridik munosabatlar ifodasi bo‘lgan hujjatlarda ishlatiladi, ya’ni bu stil ish yuritish hujjatlarida qo‘llaniladi. Bunga ariza, tushuntirish xati, e’lon, tarjimayi hol, ishonch qog‘ozi, tilxat, hisobot, rasmiy notalar, buyruq va farmonlar, farmoyishlar, taklifnoma, rasmiy xatlar, tijorat yozishmalari kabilar kiradi. (Bu rasmiy qog‘ozlarning qanday yozilishi haqida M.Aminov, A.Madvaliev, N.Malikamov, N.Mahmudovning «Ish yuritish» nomli kitobidan har tomonlama ma’lumot olish mumkin). Bu stilda adabiy me’yorga qat’iy rioya qilinadi, shevaga xos so‘zlar, jargonlar, har xil stilistik bo‘yoqqa ega bo‘lgan so‘zlar ishlatilmaydi. Jumlalar ham inversiyasiz bo‘lishi lozim.

Gaplarda ta’sirchanlik bo‘lmaydi. Rasmiy stilda yoziladigan ayrim hujjatlar shtampga o‘xshash maxsus tartib va shakl bilan yoziladi. Masalan, rasmiy xatlar, ariza, tushuntirish xati, bildirgi, ma’lumotnomalar, qarorlarni ko‘rsatish mumkin. Agar pul, buyum miqdori ko‘rsatilishi lozim bo‘lsa, oldin

raqam bilan, so‘ng qavs ichida harflar bilan yoziladi. Hujjatlarda fikr aniq, qisqa, lo‘nda (ravon) bayon qilinishi lozim. Bunda xatboshi (abzas)ning o‘rni muhimdir.

Xulosa. Turli xil funksional uslublardagi matnlarni o‘rganish, ularning parametrlarini aniqlash, ularning har birida til vositalarini tanlash va ulardan foydalanish normalari, shuningdek lingvistik va statistik tadqiqotlar nafaqat zarur, balki til va uni o‘rganishning dolzarb vazifalaridan biridir. Har bir yangi, alohida fikr xatboshi bilan ajratilishi, bir xatboshi bilan ikkinchi xatboshi o‘rtasidagi matn to‘rt-besh jumladan oshmasligi me’yorga mosdir. Hujjatchilikda imlo va tinish belgilariga alohida e’tibor berish kerak. Hujjatning nomi bosh harf bilan yoziladi. Agar bosma matn bo‘lsa, hujjat nomining har bir harfi bosh harf bilan yoziladi. Hujjatning nomidan so‘ng hech qanday belgi qo‘yilmaydi. Asli rasmiy stilda bo‘yoqdor so‘zlar ishlatilmaydi. Lekin diplomatik yozishmalarda bo‘yoqdor so‘zlar bo‘lishi taqozo qilinadi. Hujjatlardagi nutqiy shtamplar matnga rasmiylik belgisini kiritadi. Hujjatlarda ot turkumiga oid so‘zlar ko‘p qo‘llaniladi. Hatto fe’l ishlatilganda, uning otga yaqin shakli — harakat nomidan foydalaniladi. Masalan, qabul qilishingizni so‘rayman, qarorning bajarilishi, stipendiya tayinlash, talabalar safiga tiklash kabilar. Maktablar kreativ fikrlash ko‘nikmasi, aqliy ko‘nikmalar, bilim sohasining tayyorligi yangi g‘oyalar va tajribalarga nisbatan ochiqlik, boshqalar bilan ishlash ko‘nikmasi yoki boshqalar fikri bilan kelishish (hamkorlik), qiyinchilikka duch kelganda o‘z maqsadiga erishishga harakat qilish, insonning ijodkorlikka nisbatan qobiliyatiga ishonish shu bilan birga, topshiriqni bajarishga rag‘batlantirilganlikni o‘zlashtirish uchun o‘quvchilarning ichki imkoniyatlarining turli jihatlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Sinfda kreativ fikrlashni bunday o‘ziga xos tarzda namoyon etuvchi omillar bir-biriga o‘zaro chambarchas bog‘langan. Kreativ fikrlashni ijtimoiy jihatdan rag‘batlantiruvchi omillar umumiy madaniy tartiblar yoki qonuniyatlar yordamida o‘z-o‘zidan shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Галперин И. Р. Стилистика английского языка. М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», Изд.5, 2013. 336 с.
2. Тихонова Е. В. Медиатекст как инструмент вербалной диагностики конфессионалной напряженности // Мировое культурно-языковое и политическое пространство: инновации в коммуникатсии: сборник научных трудов. М.: ТрансАрт, 2014. С. 172–186.
3. Shomaqsudov A. va boshqalar, O‘zbek tili stilistikasi. –T.: O‘qituvchi, 1983, 9- bb.
4. M.Xalilova: “O‘zbek tili stilistikasi asoslari”, “Farg‘ona” nashriyoti, 2009. 6- bet
5. Musayev. Q. English stylistics. Tashkent, Adolat, 2003 yil.

Jahonova Nargiza Yunus qizi
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARDA IJODIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN MASHQLAR VA ULARNING TIZIMI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirishga qaratilgan mashqlar va o‘quvchilarda ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida foydalanish mumkin bo‘lgan o‘qitish texnologiyalari tasnifi hamda ijodiy tasavvurni rivojlantirish usullari mazmuni yoritilgan. Maktablarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodxonlik darajasini oshirish, ularni erkin fikrlashga o‘rgatish, egallangan ko‘nikma va malakalar bilan uyg‘unlashtirish natijasida yangi mustaqil faoliyat yuritish va mashq bajarish qonun - qoidalarini o‘rganish zarurati, mohiyati va metodikasi berilgan. O‘quvchilar mustaqil ta’limi natijasida erishiladigan yutuqlar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich sinf, mustaqil ish, mustaqil ta’lim, kognetiv, affektiv, psixomotor, bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, sintez, baholash, o‘quvchi, metodika, tasavvur, ijodiy tasavvur, o‘qitish texnologiyasi, ijodiy fikrlash, muammoli o‘qitish.*

EXERCISES AND THEIR SYSTEM AIMED AT FORMING STUDENTS' CREATIVE THINKING IN PRIMARY-GRADE NATIVE LANGUAGE CLASSES

Abstract. *In this article, the content of exercises aimed at forming creative thinking in students in primary class mother tongue classes, the classification of teaching technologies that can be used in the process of forming creative thinking skills in students, and the content of methods of developing creative imagination is highlighted. In schools, the necessity, essence and methodology of learning new independent activities and exercises as a result of increasing the literacy level of elementary school students, teaching them to think freely, and combining them with acquired skills and qualifications are given. Achievements achieved as a result of independent education of students are described.*

Key words: *primary class, independent work, independent education, cognitive, affective, psychomotor, knowledge, understanding, application, analysis, synthesis, assessment, student, methodology, imagination, creative imagination, teaching technology, creative thinking, problem teaching.*

УПРАЖНЕНИЯ И ИХ СИСТЕМА, НАПРАВЛЕННЫЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация: *В данной статье рассмотрено содержание упражнений, направленных на формирование творческого мышления у учащихся начальных классов на уроках родного языка, классификация педагогических технологий, которые можно использовать в процессе формирования навыков творческого мышления у учащихся, а также содержание методов развития творческого мышления. воображение развито. В школах раскрываются необходимость, сущность и методика обучения новым самостоятельным видам деятельности и упражнениям в результате повышения уровня грамотности учащихся младших классов, обучения их свободному мышлению, сочетания их с приобретенными навыками и квалификацией. Описаны достижения, достигнутые в результате самостоятельного обучения студентов.*

Ключевые слова: *начальный класс, самостоятельная работа, самостоятельное обучение, познавательное, аффективное, психомоторное, знание, понимание, применение, анализ, синтез, оценка, ученик, методика, воображение, творческое воображение, технология обучения, творческое мышление, проблемное обучение.*

Kirish. Mamlakatimiz taraqqiyoti, uning taqdiri, birinchi navbatda, mustaqil fikrlaydigan va o‘zining mustaqil qarashlariga ega bo‘lgan, ma’naviy jihatdan barkamol, hozirgi zamon taraqqiyoti talablariga javob beradigan yoshlar qo‘lidadir. O‘zbekiston Respublikasida 2023 yil “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deya nomlanishi ta’lim oldiga bir qator asosiy vazifalarni belgilab berdi. Avvalo, maktablarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodxonlik darajasini oshirish, ularni erkin fikrlashga o‘rgatish va bu orqali Yangi O‘zbekistonning bilimli avlodini tarbiyalash bosh maqsadga aylangan. Aytish kerak, ona tili darslarining ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishdagi roli juda muhim. Ijtimoiy fanlarda “Ijodiy fikr” tushunchasi fikrning o‘z subyekti bilan bo‘lgan munosabatini anglatadi.

Fikr bir tomondan umumiylik xarakterga ega bo‘lsa, ikkinchi tomondan subyektivdir. U shaxsning ijtimoiy-ruhiy holati bilan bevosita bog‘langan. Ushbu fikriy jarayonda shaxsning boshqaruvchilik faolligi muhim o‘rin egallaydi. O‘quvchi yoshlardagi ijodiy fikr, bir tomondan psixologik holat bilan bog‘langan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, uning yoshi, mamlakatda qabul qilingan ta`lim-tarbiya usuli, qoidalari va tamoyillari bilan ham uzviy aloqada bo‘ladi.

Fikrlash qobiliyati tafakkur jarayonining muhim jihatini tashkil qiladi. Biz sezgilar yordamida olingan ma’lumotlarni tafakkur jarayonida ishlab chiqib, narsa va hodisalarning mohiyati, ularning o‘zaro bog‘lanishi va taraqqiyotiga oid yangi bilimlar tizimiga ega bo‘lamiz. Insonning aqlli, ongli bo‘lishini ta’minlovchi tafakkur jarayoni tushuncha, hukm va xulosa kabilar orqali mavjud. Agar tushuncha ma’lum predmet va xulosalar xususiyatlarining umumiy hamda muhim belgilarini yaxlit holda ifodalasa, hukm predmet va hodisalar o‘rtasidagi aloqa, munosabat jarayonini ifodalaydi. Tafakkurning muhim shakli bo‘lgan xulosa yoki xulosa chiqarish ikki va undan ortiq predmetlar o‘rtasidagi bog‘lanish munosabatlarini anglatadi. Tafakkur yuqorida qayd qilingan asosiy shakllardan tashqari o‘zining maxsus qonunlariga, uning to‘g‘riligini ta’minlovchi qoidalarga ham egadir. Bu qoidalarga rioya etilmasa, fikrlar to‘g‘ri bo‘lmaydi. Demak, u voqelikni to‘g‘ri aks ettira olmaydi.

Ijodiy tasavvur va xayolni rivojlantirish - fikrlashni shakllantirish yo‘lidagi muhim qadamdir. Tasavvur - insonning dunyoni akslantiruvchi yoki bo‘lajak faoliyati jarayonini hamda uning natijasini oldindan aytib beruvchi obrazlarni yaratishning psixologik xususiyatidir. Ijodiy tasavvur - yangini yaratish bilan bog‘liq yuksak darajadagi tasavvurdir. Tasavvurning asosiy vazifasi - kutilayotgan natijani uni amalga oshirgunga qadar taqdim etishdir. Tasavvur yordamida bizda xech qachon mavjud bo‘lmagan yoki hozirgi paytda mavjud bo‘lmagan obyekt, vaziyat, shart obrazi shakllanadi. Aqliy masalalarni yechish mobaynida biz qandaydir axborotlardan foydalanamiz. Shunday vaziyatlar bo‘ladiki, uni bir qiymatli yechish uchun mavjud axborotlar kamlik qiladi. Bunday masalalar katta darajadagi noaniq masalalar deb yuritiladi. Vaziyatning noaniqligi juda katta bo‘lganda tasavvur bilishni ta’minlaydi.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar. Boshlang‘ich sinf “‘Ona tili” dasturi va darslarida “Ijodiy matn ustida ishlash” bo‘limining kiritilishi ham xuddi shu maqsadni ko‘zlaydi. O‘quvchi va talabalarni ona tili darslarda mustaqil ijodiy fikrlashga o‘rgatish, ular ongida ma`naviy–ma`rifiy inqilob hosil qilishga intilish lozim. Shuning uchun yangi dastur va darsliklarda grammatik qoidalarni yodlatishdan voz kechish, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, dars va mashg`ulotlarni o‘quvchilarning nutqiy malakasini yuzaga keltirishga qaratish maqsad qilib olindi. Ona tili ta’limi ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalashga xizmat qilar ekan, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishga qaratilgan ijodiy-amaliy ishlarga qo‘yiladigan talablarni hisobga olish, ularni uzluksiz amalga oshirish ta’lim jarayonining muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Ona tilidan ta`limning maqsad va vazifalari avvalo tilning jamiyatda bajaradigan vazifasi, inson hayotida tutgan o‘rni bilan belgilanadi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning ijodiy fikrlash faoliyatlarini shakllantirish, malakalarini hosil qilishda aqliy harakatlarga tayanish zarurdir:

perseptiv faoliyat – harakatlar natijasida atrofdagi predmetlar va hodisalar to‘g‘risida yaxlit obraz shakllanadi;

mnematik faoliyat - narsa va hodisalarning mohiyat va mazmuniga aloqador materialning eslab qolinishi, esga tushirilishi hamda esda saqlab turilishi bilan bog‘liq;

fikrlash faoliyati - aql, fahm-farosat vositasida turli xil muammolar, masalalar va jumboqlarni yechishga qaratilgan;

imajitiv faoliyat - (“image” – obraz so‘zidan olingan) ijodiy jarayonlarda xayol va fantaziya vositasida hozir bevosita ongda berilmagan narsalarning xususiyatlarini anglash, xayolda tiklashni taqozo etadi.

O‘quvchi yoshlarning ijodiy fikrlash faoliyatlari nutqiy (yozma, og‘zaki) jarayonda so‘zlar orqali namoyon bo‘ladi. O‘quvchi so‘z boyligining holati so‘zlarni o‘rnida qo‘llash masalasi kabi muhim omillar fikr va nutq birligini ta’minlaydi. Og‘zaki va yozma nutq jarayonida uzoq yillardan beri saqlanib kelgan bayoniylikdan chekinib, ijodiylik orqali mustaqil fikrlashga yo‘naltirish ta’limning yangi pedagogik texnologiyalarini ona tili darslariga joriy qilishga erishiladi.

Ona tili darslarida o‘quvchining ijodiy fikrlash malakalarini hosil qilish maqsadida, eng avvalo, ularning lug‘at boyligiga e’tiborni qaratish lozim. O‘quvchining so‘z boyligi uning o‘qigan badiiy asarlari, turli ilmiy-ommabop adabiyotlar, darsliklar, ommaviy axborot vositalari orqali to‘plangan ma’lumotlari orqali belgilanadi. So‘z boyligi yillar davomida ongli va ongsiz tarzda to‘planadi. Ona tili darslarida o‘quvchi xotirasida to‘plangan so‘zlardan to‘g‘ri foydalanish, ularni talaffuz qilish, xatosiz

yozish bo‘yicha metodik tavsiyalar beriladi. Nutqni rivojlantirish bilan birga bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri savodxonlik – imloviy xatolarni kamaytirishga ham erishish mumkin.

O‘quvchilar yozma nutqining rivoji olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish malakasi bilan bog‘liqdir. O‘quvchi maxsus tayyorlangan savol-topshiriqlar asosida berilgan mashqlarni bajarar ekan, u grammatik qonuniyatlarni amaliyotda qo‘llashga harakat qiladi. Bu savol va topshiriqlar o‘quvchi uchun yo‘nalish beradi. Bunday ishlarda o‘quvchi nisbatan tor doirada mustaqil harakat qiladi va ijodiy natijalarga erishishga muvaffaq bo‘ladi. Chunki keng doirada ijod qilish shunday ko‘lamda fikrlay olish malakasini talab qiladi. Fikrlay bilish malakasi oshgan o‘quvchining ijodiy matn yaratish samarasi ham yuqori bo‘ladi. Mavzu yuzasidan gap, o‘zaro bog‘liq gaplar, ixcham matn, bayon, hikoyalar tuzish o‘quvchiga 1-sinfdan boshlab o‘rgatiladi. Ixcham matn tuzish, dastlab, o‘qituvchi tomonidan yozma ravishda berilgan bir-birini to‘ldiruvchi savollarga to‘liq javob yozish shaklida o‘rgatiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda quyidagi o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq:

Adaptiv o‘qitish texnologiyalari. Maqsadi – o‘quvchilarga mustaqil ishlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish usullariga, tadqiqot faoliyati, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va takomillashtirish, muayyan maqsadga yo‘naltirilgan bilim olishlari va ushbu asosda o‘quvchining ijodiy fikrlashini shakllantirishga qaratilgan.

Integrallashgan o‘qitish texnologiyalari. Maqsadi – o‘quvchilarning o‘qishga nisbatan qiziqishini rag‘batlantirish, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish, integrallashgan bilimlarini boyitish.

Bilimlarni to‘liq o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari. Maqsadi – barcha o‘quvchilarni bilim, ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda hamda ularni qo‘llashda yuqori natijalarga erishishga o‘rgatishdan iborat.

Muammoli o‘qitish texnologiyasi. Maqsadi – o‘quvchilarning intellektual faolligini rag‘batlantirish, fikrlash jarayonini, aqlning individual xususiyatlarini rivojlantirish;

Olingan natijalar va ularning tahlili. O‘quvchilarning ichki o‘quv motivlarini, aqliy faoliyat usullarini, ularning ijodiy qibiliyatlarini shakllantirish; muammoning yechimini mustaqil izlash ko‘nikmalarini hosil qilishdir. Shu bilan birga o‘quvchilarda nostandart ijodiy fikrlashni shakllantirishdan iborat bo‘lib hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’lim ona tili va o‘qish savodxonligi darslari samaradorligini oshirish hamda o‘quvchilarda ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishda nostandart dars shakllari hamda interfaol o‘qitish usullaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishning bosh maqsadi yoshlarning ijodiy-mustaqil, o‘z fikrini erkin va ta’sirli, mazmunli va mantiqli qilib yozma va og‘zaki shaklda ifodalashga, o‘zbek tili qonun-qoidalarini ongli o‘zlashtirishga o‘rgatish, shuningdek, ularning fikr doiralarini kengaytirishga e’tibor qaratilgan. Ona tili va O‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilar matnni yodlab olish, she’rlarni takrorlash bilan cheklanmasdan, matnni tushunish, anglash, munosabat bildira olish ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- ijodiy fikrlashga yo‘naltirilgan yozma-nazorat ishlari;
- muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ularning yechimini ishlab chiqish;
- ibratli hikoyalar tahlili, test savollariga olingan javoblar orqali baholash;
- mavzuga doir berilgan savollarga olingan og‘zaki javoblar orqali baholash.

Shuningdek, Ona tili va O‘qish savodxonligi fanlari o‘quv rejasida belgilangan mavzular asosida ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkoniyat beruvchi dars ishlanmalarini tayyorlash hamda ta’limiy amaliyotda foydalanish lozim. Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarida olib borgan mashg‘ulotlarimiz natijasida ijodiy topshiriqlarni yaratishning quyidagi metodik usullarini ishlab chiqdik:

1.O‘quvchilarni bayon qilinayotgan mavzudagi umumiylik va xususiylikni aniqlash maqsadida berilgan mashqlarni tahlil qilish va qiyoslash. Masalan, 3-sinfda " O‘zak va o‘zakdosh so‘zlar" mavzusini o‘tayotganda gul, gulla, gulzor, guldon so‘zlaridan gap tuzish bo‘yicha o‘quvchilarga topshiriq beriladi. O‘quvchilar ushbu so‘zlarning ma’no xususiyatlaridan kelib chiqib topshiriqni bajarishga kirishadi.

2.Tanish topshiriqni hal yetishda o‘quvchilar oldiga yangicha yondashuvni talab yetadigan amaliy topshiriqlarni qo‘yish. Masalan, 1-sinf o‘quvchilari hali unli va undosh tovushlar bilan tanishmay turib, so‘z necha bo‘g‘indan iboratligini faqat talaffuz orqali topish topshirig‘i beriladi. Unli va undosh

tovushlar bilan tanishgach, unli tovushlar bo‘g‘in hosil qilishini bilib oladilar va shunga qarab so‘zlarning nechta bo‘g‘indan iborat ekanligini aniqlaydilar.

3.O‘quvchilarning amaliy topshiriqlami mustaqil bajarishda yuzaga keluvchi hayotiy vaziyatlardan foydalanish, ularni bajarish va tahlil qilish. Masalan, 1-sinfda bo‘g‘in ko‘chirish qoidalari bilan tanishtirishda, bo‘g‘in ko‘chirishning zarurligi misol tarzida keltiriladi.

Ijodiy topshiriqlarning bu turlari shartli ravishda ajratilgan bo‘lib, amalda o‘quvchilar bir tushunchaning o‘zini o‘rganishda faktlarni tahlil qilish va sintez qilishni taqqoslash va umumlashtirish bilan qo‘shib olib boradi. Lekin aytib o‘tilgan tafakkur usullaridan biri - tushuncha yetakchi o‘rinda turadi. Ijodiy topshiriqlar berib bo‘lingach, o‘qituvchi o‘quvchilarni yana fikr yuritishga, ammo faraz qilish, muhokama yetish va xulosalar chiqarishga qaratadi. Bilish muammolarini ilgari surish va hal qilish jarayonlari uzluksiz zanjirga o‘xshab qo‘shilib ketadi. Chunki ijodiy topshiriqlarni o‘quvchilarga berar ekanmiz, bir vaqtning o‘zida uni bajarishga kirishamiz. Bu esa, o‘z navbatida, yangi topshiriqni keltirib chiqaradi.

O‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishdan maqsad, ularda tez o‘zgarayotgan dunyoda o‘z o‘rnini topish, jamiyatda qiynalmasdan yashashi uchun zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishdan iboratdir. Ta’lim tizimida o‘qituvchilar tomonidan noan’anaviy ta’lim metodlari joriy etilib, o‘qitishning zamonaviy shakllari va metodlari keng qo‘llanilmoqda. Zamonaviy metod va usullarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. An’anaviy o‘qitish jarayonida asosan o‘qituvchi darsni olib borsa, noan’anaviy o‘qitish jarayonida esa o‘quvchi shaxsiga erkinlik berish, munosabatlarni demokratlashtirish asosida dars jarayonlari tashkil etiladi. Bunda ta’lim jarayonida o‘yinlardan foydalanish ham muhim o‘rin tutadi. Ona tili darslarida ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarning tafakkur doirasini, og‘zaki va yozma nutqini va mustaqil fikrlashga o‘rgatishda muhim o‘rin tutadi. Dars jarayonida o‘quvchilar e'tiborini jalb etish uchun ijodiy topshiriqlarni berish lozim.

- Ona tilining o‘quv predmeti sifatidagi ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati, hayot bilan aloqasiga ko‘ra boshqa fanlardan keskin farqlanishidir.

- Faqat boshlang‘ich sinflarning ona tili darslari uchun xarakterli metodik usullarda ish ko‘rishda.
- O‘quvchilarga o‘quv materialining hissiy ta'sir etishida.

- Faqat ona tili darslarida ijodiy topshiriqlardan foydalanish jarayonida.

- Boshlang‘ich sinflar ona tili ta’limida ijodiy topshiriqlardan foydalanish, balki unga tayyorgarlik haqida ham gap boradi, chunki o‘quvchilar bunday topshiriqni qabul qilishga oldindan psixologik, mantiqiy tayyorgarlik ko‘rgan bo‘lishlari kerak:

- Boshlang‘ich sinflardagi ijodiy topshiriqlar o‘quvchilaming doimiy ravishda mashg‘ul bo‘lishi bilan bog‘liq.

Mashg‘ul bo‘lish ijodiy topshiriqlarni bajarish holatiga olib keladi. Ona tili ta’limi jarayonidagi ijodiy topshiriqlar tizimi muommali suhbatlar, fikr yuritish, isbotlash, umumlashtirish, tahlil kabi tafakkurni rivojlantiruvchi mashqlar hisoblanadi. Ijodiy topshiriq mashqlari o‘quvchilar topshiriqni bajara oladigan bo‘lgandagina qo‘llaniladi. Bunday mashqlar, ayniqsa, yuqori sinf darsliklarida ko‘p berilgan. Unda berilgan topshiriqni bajarish jarayonida o‘quvchilar yangi bilimlar bilan qurollantiriladi. Ijodiy topshiriqlardan yangi mavzuni o‘zlashtirish bilan birgalikda bilimlarni kengaytirish va mustahkamlashda ham qo‘llash mumkin.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga doir zamonaviy yondashuvlar mazmuni hamda unga ta’sir etuvchi omillar, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonini tashkil etishning alohida metodik tizimi maxsus tadqiq etilmagan. Mazkur jihatlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi. Ona tili darslarida so‘zning boy imkoniyatlarini o‘quvchiga ochib berish, lug‘at boyligini ongli o‘zlashtirishlarini ta’minlash, egallangan bilimlarni og‘zaki va yozma nutqda ongli mustaqil qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirish asosiy maqsad bo‘lmog‘i lozim. Shunga ko‘ra, ona tili mashg‘ulotlarini bir qolipda, bir xil yo‘nalishda tashkil etish mumkin emas. Ona tili mashg‘ulotlarining murakkab jarayon ekanligi o‘quvchi shaxsi, uning fikrlash qobiliyati, bilimlarni anglashuvi va muhimi, nutqini to‘g‘ri shakllantirish imkoniyatlari bilan asoslanadi. Dars jarayoni uchun xizmat qilishi mumkin bo‘lgan barcha vositalar o‘quvchining fahm-u idroki hamda dunyoqarashini nazarda tutib tayyorlanishi, uzviylik va izchillik asosida tavsiya etilishi bilimlarni mustaqil egallashga puxta zamin hozirlaydi. Ona tili ta’limiga qo‘yiladigan bosh maqsad «ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki, yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish» bo‘lganligi uchun ham o‘quvchilarning fikrlash salohiyatini, mantiqiy tafakkurini

o‘stirishga xizmat qiladigan ilg‘or ta’lim usullari va vositalaridan o‘rinli foydalanish zarur. Bu jarayonning samarasi har bir darsda o‘qituvchi-o‘quvchi-o‘quv qurollari va vositalari munosabatlarining qanday yo‘sinda tashkil etilishiga bog‘liq. O‘quvchilarda ijodiy fikrlash va ijodiy matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishga oid tashkiliy - metodik ishlarni asosan o‘tilgan darsni mustahkamlash jarayonida, shuningdek, uy vazifalari bajarishga yo‘llanma berish davrida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonuni. O‘RQ-637-son 23. 09. 2020. Ta’lim to‘g‘risida (lex.uz)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash” to‘g‘risida 2019-yil 29-aprel, 5712-sonli Farmoni.
3. Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. f. d…diss. – T., 2003. –280 b.
4. Проектирование результатов обучения с использованием модифицированной таксономии Блума // Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения. 2015. №46.
5. Khusenova, A. (2022). THE PROCESS OF INTEGRATING THE ACTIVITIES OF THE TEACHER IN THE DESIGN OF MOTHER TONGUE EDUCATION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(11), 216-227.
6. Sharipovna, K. A. (2021). The Role of Learning Activities in the Design of Teacher Activities in the Integration of Primary School Mother Tongue Lessons. Central asian journal of literature, philosophy and culture, 2(10), 111-114.
7. Husenova, Aziza Sharipovna. "Training of Future Teachers of Primary Classes to Guide Project Activities of Students." *World science: problems and innovations*. 2021.
8. Sharipovna, Husenova Aziza. "EFFECTIVENESS OF TEACHER MODELING IN INTEGRATION OF MOTHER LANGUAGE AND READING LESSONS IN PRIMARY CLASS." *" USA" INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE TOPICAL ISSUES OF SCIENCE*. Vol. 8. No. 1. 2023.
9. Sharipovna, H. A. (2023). The Practical Importance of Bloom's Taxonomy in Elementary Reading Literacy Lessons. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, *1*(10), 203-206.
10. Hamroyev R.A Ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish (Ped.fan.dok. diss.). Buxoro; 2020.
11. Hamroev A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students
12. //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 2019.
13. Hamroyev R.A Ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish (Ped.fan.dok. diss.). Buxoro; 2020.
14. Quldoshev, R. A. "Assistant pedagogue to children left-handed reading in the last year." Globe Edit.–2020 (2020).
15. Qoldoshev A. R. Psychological aspects of left-handedness: concept, causes, and peculiarities //Psychology and Education Journal. – 2021. – Т. 58. – №. 1. – С. 4981-4988.
16. Gaforovna J. H. The Impo‘rtance of Project Education in Improving the Creative Activity of Students in Primary Grade Mother Tongue Education //American journal of science and learning for development. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 203-206.
17. Jumayeva H. G. Methodology for Improving the Creative Abilities of Students in Primary School Native Language Education //International journal of inclusive and sustainable education. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 236-238.
18. Jumayeva H. G. Boshlang‘ich sinf ona tili talimida o‘quvchilarning ijodiy qobilyatini takomillashtirish metodikasi //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1.–№. 6.–С.

Ozodova Madina Hamza qizi
Buxoro davlat universiteti tayanch doktaranti
E-mail: m.h.ozodova@buxdu.uz

O‘QUVCHILAR NUTQIY MADANIYATINI TARKIB TOPTIRISHDA ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGINING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nutq madaniyatini tarkib toptirish, nutqning asosiy sifatlari, adabiy til me’yorlari, nutq turlari, shuningdek o‘quvchilarda nutq madaniyatini tarkib toptirish usullari haqida fikr yuritilgan. Madaniy nutq milliy tilning o‘ziga xosligi, ma’no jihatidan aniqligi, so‘zlarning rang–barang, turli–tumanligi, badiiy ifodaliligi, ona tili va O’qish savodxonligi darsi va u bilan bog’liq holda olib boriladigan kuzatish, ekskursiya o’quvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala qilish haqida ham keng ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar. *Boshlang‘ich ta’lim, maktab, metod, suhbat, nutq o‘stirish, so‘z boyligi, nutq madaniyati, Ona tili, O`qish savodxonligi, ifodali o‘qish.*

THE IMPORTANCE OF MOTHER LANGUAGE AND READING LITERACY IN DEVELOPING SPEAKING CULTURE OF STUDENTS

Abstract*. This article discusses the formation of speech culture, the main qualities of speech, standards of literary language, types of speech, as well as methods of formation of speech culture in students. Cultural discourse is the uniqueness of the national language, the clarity of meaning, the colorful, diverse, artistic expression of words, the mother tongue. Pupils are given extensive information about natural phenomena, people's life and work, moral rules, dealing with other people*

Keywords*. Primary education, school, method, conversation, speech development, vocabulary, speech culture, Mother tongue, Reading literacy, expressive reading.*

ЗНАЧЕНИЕ РОДНОГО ЯЗЫКА И ЧИТАТЕЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ В РАЗВИТИИ РАЗГОВОРНОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ

Абстрактный. *В данной статье рассматриваются вопросы формирования речевой культуры, основные качества речи, нормы литературного языка, виды речи, а также методы формирования речевой культуры у студентов. Культурный дискурс – это своеобразие национального языка, ясность смыслов, красочное, разнообразное, художественное выражение слов, родной язык. Учащимся даются обширные сведения о явлениях природы, жизни и деятельности людей, моральных правилах обращения с другими людьми.*

Ключевые слова*. Начальное образование, школа, методика, разговорная речь, развитие речи, словарный запас, культура речи, родной язык, читательская грамотность, выразительное чтение.*

Kirish. Inson jamiyatning ichida yashaydi, faoliyat ko’rsatadi, boshqalar bilan muloqot qiladi. Bu muloqot, albatta, nutq orqali amalga oshadi va jamiyat a'zosining nutqi ayni jamiyat tomonidan baholanadi. Jamiyat a'zosining nutqi shu jamiyatda qaror topgan milliy ruhiyat, nafosat, axloq, ijtimoiy munosabat, madaniyat, tarbiya, urf-odat, idrok tamallari va qoidalariga aslo zid kelmasligi lozim. Bu tamallar va qoidalar esa mazkur nolingvistik ijtimoiy fanlar tomonidan turli nuqtai nazarlardan o’rganiladi. To’g’ri va ta'sirchan nutq tuzishda ayni qoidalar hisobga olinmas ekan, ularga amal qilinmas ekan, maqsadga erishib bo’lmaydi. Tilning mohiyati uning inson faoliyati ekanligida. Nutq faoliyati bir individning o‘z mulohazalari, istak va talablarini ikkinchi individga uzatishi, ikkinchi individning esa birinchisining fikrlarini tushunib olishi, uning talablariga tasdiq yoki inkor shaklida javob qaytarishi bilan xarakterlanadi. Demak, nutq faoliyatida ikki shaxs: xabar uzatuvchi–gapiruvchi va qabul qiluvchi–tinglovchi ishtirok etadi.

Nutq so`zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko`rinishi bo`lib, u faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki ham ruhiyat, ham nafosat hodisasi hisoblanadi. Shuning uchun ham yaxshi nutq deyilganda, aytilmoqchi bo`lgan maqsadning tinglovchi va kitobxonga to`liq yetib borishi, ularga ma’lum ta’sir o`tkazishi nazarda tutiladi. Shunga ko`ra nutq oldiga ma’lum talablar qo`yiladi. Bu talablar nutqning mantiq jihatdan to`g`ri, aniq, chiroyli, erkin, maqsadga muvofiq bo`lishidir. Bu belgilar nutqning asosiy sifatlari, xususiyatlari deb qaraladi.

1. Nutqning to`g`riligi. Nutqning to`g`riligi uning adabiy tili me'yorlariga muvofiq kelishidir. Bunda quyidagi me'yorlar hisobga olinadi.:

a) talaffuz me'yorlari: Unli va undosh talaffuzi, so`z tarkibidagi qo`sh va yondosh unlilar talaffuzi, tutuq belgili so`zlar talaffuzi, kishilarning ism-familiyalari, qisqartma otlar, qo`shma fe'llar, so`z birikmalari, morfologik ko`rsatkichlar, so`z yasovchi forma yasovchi qo`shimchalar talaffuzlari.

b) morfologik me'yorlar: Adabiy til dialekt va shevalardan o`z morfologik me'yorlariga ko`ra ham farqlanadi. Buni biz adabiy tilda so‘zlarning kelishiklarda turlanishi, fe'llarning tuslanishi, sonmiqdor tushunchalarning ifodalanish usullarida, shuningdek, so`z va so`z shakllarining yasalish xususiyatlarida ko`ramiz.

d) sintaktik me'yorlar: Ega-kesimning mosligi, ikkinchi darajali bo`laklarning ularga bog`lanish qonuniyatlari.

e) imloviy me'yorlar: Adabiy til yagona va umumxalq yozuv me'yorlariga tayanadi. Bu me'yorlar maxsus ishlangan va kelishilgan imlo qoidalarida o`z ifodasini topadi. Adabiy til imlo qoidalari bu til yozuvi, yozma shaklida foydalanuvchi barcha uchun umummajburiydir. Orfografik me'yorlar va bunga doir imlo qoidalari adabiy til yozma shaklining takomilida belgilangan omildir.

f) lug`aviy me'yorlar: Har bir xalq tili o`sha millat a'zolarining erkin va bemalol fikrlasha olishi uchun yetarli bo`lgan so`z boyligiga ega. Bir tilga mansub bo`lgan bir sheva bu tilning boshqa guruh shevalaridan, jonli so`zlashuv tili esa adabiy tilda qo`llanuvchi so`zlar miqdori, xarakteri, shakli, hatto ma'nosiga ko`ra farqlanib turadi. Mana shunday xususiyat adabiy til bilan shevalar, jonli so`zlashuv tili bilan adabiy til doirasida ham mavjuddir. Demak, tildagi barcha so‘zlar adabiy tilda qo`llanilavermaydi.

2. Nutqning aniqligi. Nutqning aniqligi tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar bilan ularning nutqdagi atamasi bo`lgan materiali o`rtasidagi mutanosiblikni taqozo qiladi:

a) sinonimlardan o`rinli foydalanish;
b) antonimlardan to`g`ri foydalanish;
d) ko`chma ma'noli so`zlarni o`rinli qo`llash;
e) so`z birikmalarini to`g`ri qo`llash;
f) iboralarni to`g`ri qo`llash;

3. Nutqning mantiqiyligi. Mantiqiy nutq deb yaxlit bir tizim asosida tuzilgan, fikrlar rivoji izchil bo`lgan, har bir so`z, ibora maqsadga muvofiq ravishda ishlatiladigan nutqqa aytiladi. Nutqning mantiqiyligi uning asosiy sifatlari – to`g`rilik va aniqlik bilan chambarchas bog`liqdir. Grammatik jihatdan to`g`ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun noto`g`ri tanlangan lug`aviy birlik ham mantiqiylikni buzadi. Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchi va o`quvchiga ifodalanayotgan fikrning to`liq borib yetmasligiga, ba'zan, umuman, anglashmasligiga olib kelishi mumkin. Nutqning mantiqiy buzilishi, eng avvalo, so`zlovchi va yozuvchining tafakkur uquvi, qobiliyati bilan bog`liq. Shuning uchun mantiqiylik faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki tafakkur hodisasi ham sanaladi. Bunda mavzu bo`yicha mavjud bilim asosida mulohaza yurgizish diqqatga sazovordir.

Metod. Maktabda ona tili ta'limining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda nutq madaniyatini tarkib toptirishdir. Madaniy nutq milliy tilning o‘ziga xosligi, ma'no jihatidan aniqligi, so‘zlarning rang–barang, turli–tumanligi, badiiy ifodaliligi bilan ajralib turadi. Madaniy nutqning og‘zaki shakli adabiy tilning orfoepik me'yorlariga, yozma shakli orfografiya, uslub va shu kabi me'yorlariga mos bo‘lishi lozim. Nutq madaniyati adabiy til me'yorlari ustida o‘quvchilarning aqliy va amaliy faoliyatini tashkil etish natijasida shakllanadi. Hamma tomonidan e'tirof etilgan, shu tilda so‘zlovchilarning barchasi rioya qilishi lozim bo‘lgan qonun-qoidalar adabiy til me'yorlari hisoblanadi. Adabiy til me'yorlariga ma'lum tilda mavjud so‘zlar, so‘zlarning qurilishi, so‘z yasash va so‘z o‘zgartirish modellari, so‘z birikmasi, gapni nutqda to‘g‘ri qo‘llash qoidalari kiradi.

Shuningdek, B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodovalarning “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” qo‘llanmasida: “Ona tili mashg‘ulotlari nutq san'atini egallash va undan samarali foydalanish bilim, ko‘nikma va malakalarni tarbiyalaydi. Shu jarayonda nutqiy madaniyat shakllanadi. Nutq madaniyati yoshlarga kundalik oddiy salomlashishidan kimga?, nimaga?, qachon?, qayerda?, qanday? so‘zlashgacha bo‘lgan muomala-muloqot sirlarini o‘rgatadi; sharqona odob-andisha, go‘zal qiroat san'ati qonuniyatlarini anglab borishda ham katta ahamiyat kasb etadi”, - deyiladi. Shunisi ayon-ki, ona tili darslarida eng asosiy vazifa – bu o‘quvchilarning nutq madaniyatini, nutqiy ko‘nikmalarini, mustaqil, ijodiy, mantiqiy fikrlashini o‘stirish va turli nutqiy vaziyatlarlarda purma'no, o'rinli so'zlar ishlatib kommunikatsiyadagi ishtirok etishini rivojlantirishdir.

Professor Sh.Yusupovaning ta'kidlashicha, ona tili darslarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish bo‘yicha “Sharhlash usuli”ni qo‘llashdan turli maqsadlar ko‘zlanishi nazarda tutiladi.”

1.Sharhlash ona tili bo‘yicha o‘tilgan nazariy ma’lumotlarni idrok qilishga yordam beradi.
2.Sharhlash nazariy ma’lumotlarni amaliyotda qo‘llashni bildiradi.
3.Og‘zaki nutqni o‘stirishga yordam beradi.
4.Orfoepik va orfografik normalar munosabatlarini muvofiqlashtiradi.
5.Butun dars jarayonida o‘quvchilarda nazariy ma’lumotlar ta’kidlanadi”. Metodist olima to‘g‘ri qayd etganidek, ona tili darslarida o‘quvchilar nazariy ma’lumotlarni sharhlashi natijasida to‘g‘ri so‘zlash, nutq texnikasiga muvofiq talaffuz qilish va adabiy til me’yorlariga amal qilib to‘g‘ri yozishdagi ko‘nikma va malakalari, dars davomida o‘rgangan bilimlarining amaliyotga tatbiq etish darajasi sinovdan o‘tadi.

O‘quvchilarning nutqini rivojlantirishda o‘qituvchining darsga jiddiy yondashishi zarur ekanligi Sh.Sariyevning tadqiqot ishida yoritilgan. “O‘qituvchining o‘qish namunasiga ko‘ra o‘quvchilar to‘g‘ri, ifodali o‘qishni o‘rganadi. Darsda matnni o‘qib berish uchun o‘qituvchi puxta tayyorgarlik ko‘rishi, mazmunni chuqurroq anglashga intilishi, matnning ayrim o‘rinlari qanday o‘qilishi lozimligini belgilab olishi lozim. O‘qituvchi ayrim tovush, bo‘g‘in, so‘zlarni qanday o‘qish kerakligini izohlagach, o‘quvchilar matnni navbat bilan o‘qishadi. O‘qituvchi ularni kuzatib, to‘g‘rilab boradi”. O‘qituvchi so‘zni risoladagidek o‘qishni, so‘zlarni o‘qish vaqtida intonatsiya va urg‘uga e’tibor berishni, jumlalarning tarkibidagi leksik birliklar tiniq, ravon talaffuz qilishni o‘rgatsa, o‘quvchilarning o‘qish texnikasini egallash faoliyati aktiv holatga o‘zgaradi. O‘qish texnikasini egallashda takror o‘qish samara beruvchi nutqiy faoliyatdir. Bir marta o‘qilgan matn o‘quvchida yetarlicha tushuncha va bilim hosil qilmasligi mumkin. O‘qish faoliyatining qiziqarli tashkil qilinishi ularning chuqur bilim egallashga yo‘naltiradi. Muntazam kitob o‘qish, ilmiy, badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish muayyan motivlarni o’zida tarkib toptiradi. O‘qish texnikasini egallashda takror o‘qish samara beruvchi nutqiy faoliyatdir. Bir marta o‘qilgan matn o‘quvchida yetarlicha tushuncha va bilim hosil qilmasligi mumkin. O‘qish faoliyatining qiziqarli tashkil qilinishi ularning chuqur bilim egallashga yo‘naltiradi. Muntazam kitob o‘qish, ilmiy, badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish muayyan motivlarni o’zida tarkib toptiradi.

Muloaza va natijalar. Maktabda o’quvchilarning tashqi nutqigina emas, balki ichki nutqi ham o’stiriladi. Bolalar ichda o’qishga o’rganadilar va ichki nutqda materialni o’zlashtiradilar, turli vazifalarni o’zlari hal qiladilar, asosiysi − o’zlarining og’zaki va yozma fikrlarini tayyorlab oladilar. Fikrni ifodalash usuliga ko’ra nutq og’zaki va yozma bo’ladi. Og’zaki nutq yozma nutqdan quyidagicha farqlanadi: og’zaki nutq tovush nutqi, yozma nutq esa grafik nutqdir. Og’zaki nutqda eshitish sezgisi, yozma nutqda esa ko’rish va motor-harakat (qo’l harakati) sezgisi asosiy o’rin tutadi. Og’zaki nutq ham, yozma nutq ham kishilarning o’zaro aloqa quroli sifatida xizmat qiladi, ammo og’zaki nutq aniq hayotiy sharoitda, bevosita aloqa jarayonida yuzaga keladi; yozma nutqdan bevosita, aniq sharoitdan ajratilgan holda ham, kishi ishtirokisiz ham foydalaniladi. Og’zaki nutq ko’pincha dialog tarzida, yozma nutq esa monolog tarzida bo’ladi. Yozma nutq logik izchillikka rioya qilgan holda, ayrim til shakllarini tushirib qoldirmay, ortiqcha takrorga yo’l qo’ymay bayon qilishni talab etadi. Shuning uchun yozma nutq ancha murakkab va mavhum hisoblanadi. Nutq fikrni bayon etish vositasi bo’libgina kolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o’stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o’stirish mumkin. Shuning uchun o’quvchilar nutqini o’stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishlisini tanlash, joylashtirish va mantiqiy fikrlashga yo’naltiradigan ish turlariga katta ahamiyat beriladi.

Xulosa va tavsiyalar. Ona tili darslarida o’quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar; ular kuzatishni, o’ylashni va ko’rganlari, eshitganlari, o’qiganlari haqida to’g’ri bayon qilishni o’rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug’atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to’g’ri tuzishni o’rgatadi. O’qish darsi va u bilan bog’liq holda olib boriladigan kuzatish, ekskursiya o’quvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala qilish haqida bilim beradi. Bu darslarda bolalar nutqiga, uni shakllantirish va o’stirishga keng imkoniyat mavjud. She’r, maqolalarni o’qish, o’qilganlarni qayta hikoyalash, ekskursiyada, predmet va tabiat hodisalarini kuzatish vaqtida ko’rganlarini hikoya qilish o’quvchilar og’zaki nutqini o’stirish vositasidir. Ona tili darslarida esa yozma nutqni o’stirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Grammatikani o’rganish va o’qish darslarida o’quvchilar bajaradigan so’z birikmasi, gap tuzish, bayon, inshoga doir turli xil mashqlar nutqiy malakalarni egallashda ularga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон.2016. – 14б

2. Маҳмудов М.Болаларнинг ўқув мақсади– таълимни илмий лойиҳалаш омили// Халқ таълими. –2005. –№5. –49 б

3. Сариев Ш.У.Бошланғич синф ўқиш дарсларида матн устида ишлаш орқали нутқ ўстириш назарияси ва амалиёти (1-, 2-синф материаллари мисолида)): Пед. фан. номз. дисс. –Т.:2020.

4. Тўхлиев Б., Шамсиева М., Зиёдова Т. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. –Т.: Янги аср авлоди, 2006

4. Xayrullayeva, R. L. (2021). Ona tili darsliklarida o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga samarali yondashilmoqda. Til ta’limining uzviyligini ta’minlashda innovatsion texnologiyalar muammo va yechimlar, 1(1), 155-158.

5. Doniyarov M., Mamarahimova N. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy madaniyatini shakllantirishda innovatsion yondoshuvning ahamiyati. Архив Научных Публикаций JSPI. 2020 y.

6. Hamzayevna, O. M. (2023). Creative approach in developing the communication skills of primary class guards. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, *2*(5), 55-59.

7. Mahkamov U., Tilabova N., Tilabova Sh. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma.-T.:ToshDTU,2003-16b

8. Hamzayevna, O. M. (2024, March). Speech development of students in mother language classes of primary class. In *Creativity and Intellect in Higher Education: International Scientific-Practical Conference* (Vol. 6, pp. 10-12).

9. Shodiyev Q. Nutq o‘stirish uslubiyoti. Kasb hunar kollejlari uchun.-T.: O‘qituvchi, 2002-78b

Olloqova O‘g‘iljon Mamanazarovna
Buxoro davlat universiteti
Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: o.m.olloqova@buxdu.uz

2-SINF ONA TILI DARSLIGI: FONETIK VA MORFOLOGIK BILIMLAR TIZIMI

Annotasiya. *So‘z har qanday so‘z birikmasi, gap va matn kabi sintaktik butunliklarning asosi, birlamchi materiali sanaladi. Nutq birligi bo‘lgan so‘z tovushdan tashkil topgan bo‘lib, ijtimoiy hodisa sifatida yuzaga keladi. Tovush va harf tilning eng kichik birligi sifatida tadqiq qilinib, 1-sinfda alifbe davridan boshlab o‘rgatila boshlanadi. Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limining keyingi bosqichlarida tovush va harflar imlosi hamda talaffuzi bilan bog‘liq qoidalar o‘rganiladi. Maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida tovush va harflarga oid mavzularni tabiiy fanlar bilan o‘zaro bog‘lash orqali morfologik va sintaktik bilimlarni berish mazmuni ochib berilgan. Shuningdek, 2-sinf ona tili darsligidagi ayrim mashqlarni fanlararo integratsiyalash qonuniyatiga tayangan holda tushuntirish metodikasi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *tovushlar va harflar, nutq tovushlari, tabiiy tovushlar, sezgi a’zolari, eshitish a’zosi, shaxs va narsaning nomi, belgisi, sanog‘i, harakatini bildirgan so‘zlar, morfologik bilim.*

УЧЕБНИК РОДНОГО ЯЗЫКА ЗА 2 КЛАСС: СИСТЕМА ФОНЕТИЧЕСКИХ И МОРФОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ

Аннотация. *Слово считается основой и первичным материалом синтаксической единицы, такой как любое сочетание слов, предложения и текста. Слово, являющееся речевой единицей, состоит из звуков и встречается как социальное явление. Звук и буква изучаются как мельчайшая единица языка и преподаются в 1 классе со времен обучения правописанию. Правила, связанные с написанием и произношением звуков и букв, изучаются на следующих этапах обучения родному языку в начальных классах. В статье раскрывается содержание передачи морфологических и синтаксических знаний путем соединения тем, связанных со звуками и буквами, с естественными науками на уроках родного языка в начальных классах. Также поясняется методика объяснения, основанная на законе межпредметной интеграции некоторых упражнений учебника родного языка для 2 класса.*

Ключевые слова: *звуки и буквы, звуки речи, звуки природы, органы чувств, орган слуха, слова, обозначающие имя, знак, счет, движение человека и вещи, морфологические знания.*

2ND CLASS MOTHER TONGUE TEXTBOOK: PHONETIC AND MORPHOLOGICAL KNOWLEDGE SYSTEM

Annotation. *The word is considered the basis and primary material of syntactic units such as any combination of words, sentence and text. A word, which is a speech unit, is made up of sounds and occurs as a social phenomenon. Sound and letter are studied as the smallest unit of the language and are taught in the 1st grade from the time of the alphabet. The rules related to the spelling and pronunciation of sounds and letters are studied at the next stages of mother tongue education in elementary grades. The article reveals the content of imparting morphological and syntactic knowledge by connecting topics related to sounds and letters with natural sciences in primary class mother tongue classes. Also, the method of explanation based on the law of interdisciplinary integration of some exercises in the 2nd grade mother tongue textbook is explained.*

Key words: *sounds and letters, speech sounds, natural sounds, sense organs, auditory organ, words indicating the name, sign, count, movement of a person and thing, morphological knowledge.*

Kirish. Ta’lim maqsadi o‘quv-biluv jarayoni, uning mohiyati, mazmunini, usul va vositalari, o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlari, shuningdek, mazkur tizimning samaradorligi qanday shaxs yoki mutaxassisini shakllantirishni ham belgilaydi. Ta’lim maqsadining ijtimoiy buyurtma asosida ifodalanishi shaxs, davlat, jamiyat, fan-texnika hamda ishlab chiqarishning umumiy taraqqiyot darajasi bilan beligilanadi. Demak, ta’lim maqsadi jamiyat ehtiyojlarini ifodalaydi va uning rivojlanishini belgilaydi. Butun ta’lim jarayoni - o‘quv materialidan boshlab, ta’lim natijasigacha ta’lim maqsadidan kelib

chiqqan holda belgilanadi. Ta'lim maqsadi oldida turgan asosiy masala bugungi kun va istiqbolda jamiyat ravnaqi uchun qanday shaxs, mutaxassis tayyorlash kerakligi bilan xarakterlanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston xalqiga yo'llagan murojaatnomasida "Ta'lim sifatini oshirish - Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir", - deya ta'kidladi. Boshlang'ich ta'lim maqsadi ro'yobini ta'minlashda zamonaviy ta'lim texnologiyalar muhim ahamiyatga egadir.

Asosiy qism. Har qanday fanni o'qitishda mufaffaqiyatga erishish uchun albatta bu fan uchun yaratilgan darslik juda katta ahamiyatga ega. Darsliklarni yaratilishida pedagogik, psixologik, ilmiy, metodik, ma'naviy-axloqiy, estetik, dizayn, ekologik hamda gigiyenik talablar qo'yiladi. Boshlang'ich sinflar uchun yaratilgan yangi ona tili darsliklari aytilgan barcha talablarga javob beradi.

Bugungi kunda yangi avlod darsliklari o'quvchining fikrini o'stirishda, uning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda muhim o'rin egallamoqda. Yangi darsliklar yangicha metodlar, yangidan-yangi didaktik materiallar bilan ishlashda qo'l kelmoqda. Bu degani yangi darsliklar o'qituvchining ham o'z ustida ko'proq ishlashga sabab bo'lmoqda. Darslik bilan o'quv jarayoni o'zaro bog'liq bo'lib, unda savollar, topshiriqlar, jadvallardan, statistik, xronologik ma'lumotlar va boshqalardan o'z o'rnida foydalanish lozim. Darsliklarda berilgan ko'plab materiallar hozirgi kun talabiga to'liq javob bera oladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun yangi darsliklar yaratish, mazmunini takomillashtirish, o'qitish metodikalarini ishlab chiqish muammolari bugungi ilmiy tadqiqot markazida turibdi. Respublikamiz olimlaridan A.R.Qo'ldoshev O'zbekistonda boshlang'ich sinf darsliklari yaratilishining metodik asoslari, Q.T.Olimov esa maxsus fanlardan o'quv adabiyotlarini yaratishning nazariy va uslubiy asoslari muammosi ustida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Darsliklar mazmunining yangilanishi o'qituvchilar oldiga ham qator vazifalarni yuklaydi. O'qituvchilar darslik mazmuniga mos bo'lgan vosita va metodlarni tanlashi, xalqaro tajribalarni o'rganishi, bugungi kun talabiga mos bo'lgan o'quv mashg'ulotini tashkil etishi, darsliklardagi mashq va topshiriqlar ustida tizimli ishlashi, o'quvchilar bilimini baholashning zamonaviy usullaridan foydalanishi lozim. Ayniqsa, boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quv topshiriqlari ustida ishlash jarayonida fanlararo integratsiyani ta'minlash orqali o'quvchilarning lingvistik bilimini orttirishi, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishi, tafakkurini boyitish ustida uzluksiz ishlashi lozim.

Biz quyida 2-sinf ona tili (1-qism) darsligidagi ayrim mashqlarning tahlil namunasini keltiramiz.

Muhokamalar va natijalar. 2-sinf ona tili darsligining birinchi mavzusi "O'zbekiston – mustaqil davlat. Tovushlar va harflar" deb nomlanadi. 1-mavzu orqali O'zbekiston mustaqil davlatligi, poytaxti Toshkent shahri ekanligi, tarixiy obidalarga boy qadimiy shaharlari, yurtimizning go'zalligi, ramzlari haqida bilim beriladi.

Darslikning 4-5-betlarida bobo va nabiralarning davlat haqidagi suhbati berilgan. Bobo davlatning o'z maydoni, aholisi, qonunini bo'lishi kerakligini aytadi. Qiz nabira esa davlatni o'zining oilasiga o'xshatgan.

Bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, vatanni, xalqini sevishga o'rgatish, ularda milliy ong, milliy g'ururni shakllantirish, milliy an'analar ruhida tarbiyalashda davlat va jamiyat haqidagi qarashlarini tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarda huquqiy ong, huquqiy madaniyatni shakllantirish keng qamrovli faoliyat bo'lib, tizimli ravishda barcha fanlar bilan bog'liq holda amalga oshirishni talab qiladi.

Umumiy o'rta ta'limning ilk bosqichidan boshlab mustaqillik, erkinlik, haq-huquq, qonun, "mumkin", "mumkin emas" kabi tushunchalar amaliy o'rgatila boshlaydi. Uzviylik va uzluksizlik tamoyillarini ta'minlash maqsadida ta'limning keyingi bosqichlarida yuqoridagi siyosiy tushunchalar orqali o'quvchilarning g'oyaviy, siyosiy tafakkurini rivojlantirish maqsadida huquqiy ongga oid tushunchalar keltirilgan.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish jarayonida umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, vatanni sevish, huquqiy, iqtisodiy bilimlarga ega bo'lish, yangiliklarga intilish va o'zlashtirgan nazariy bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qilish, jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar, jumladan, ijtimoiy hayot, kishilarning yashash tarzi bilan bog'liq bo'lgan o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish ko'zda tutilgan.

Berilgan matn orqali yuqori sinflarda o'rganiladigan "Davlat va huquq asoslari" fanini o'qitishga zamin tayyorlash mumkin. Davlatning tuzilish shartlari, davlat ramzlari, qonunchiligi, Konstitutsiyasi, tili va madaniyati haqida ma'lumot berish mumkin.

O'quvchilarning matnni idrok qilish, tushunish, anglash kabi ko'nikmalari qay darajada o'zlashtirayotganini bilish maqsadida savollar orqali ramzlar haqidagi tasavvurlarini aniqlash mumkin.

1. Davlatning yana qanday belgilarini bilasiz?
2. Davlatning o‘z tili va alifbosi ham bo‘lishi kerakmi?
3. O‘zbek tilida nechta tovush va harf bor?

Birinchi savolda davlatning alohida belgilariga e’tibor qaratilgan. O‘quvchilar bilan tashkil etilgan suhbat davomida davlatchilik belgilari xususida tasavvur uyg‘otiladi. O‘quvchilar yuqoridagi savollarga javob berish orqali so‘zlar va ularning ma’nolari ustida ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Jumladan, shaxs va narsa, uning harkati, belgisi, miqdori kabi bilimlar ustida ishlanadi.

Natijada o‘quvchilar shaxs va narsaning belgisini bildirgan so‘zlar haqidagi bilimlarni takrorlab olishadi. Qo‘shimcha belgini bildirgan so‘zlarga misollar ham ayttirish mumkin.

Darslikning 6-betida “Yodda tuting” shartli belgisi bilan ifodalangan topshiriq berilgan. Topshiriq sharti “E’tibor bilan o‘qing”.

“Biz - odamlar atrofimizdagi turli xil tovushlarni eshitamiz:”

Rasm orqali nimalarni eshitish mumkinligi tasvirlangan.

Nazarimizda, darslikda berilgan topshiriqlarni to‘liq tushunish uchun o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida lingvistik bilimlarini, ya’ni shaxs va narsalarning nomini, harakatini, belgisini, sanog‘ini bildirgan so‘zlarga doir bilimlar rivojlantiriladi. Ushbu bilimlar tanlangan so‘zlarga so‘roqlar berish, so‘roqlarga mos so‘zlar tanlash kabi topshiriqlar asosida tarkib toptiriladi.

2-sinf ona tili (1-qism) darsligida fonetik bilimlarni rivojlantirishga doir tovushlar va harflar, unli tovushlar va harflar, undosh tovushlar va harflar, jarangli va jarangsiz undosh tovushlar, j, x va h tovushlarining talaffuzi va imlosi, harf birikmasi bilan ifodalanadigan undoshlar, tutuq belgisi, bo‘g‘in, bo‘g‘in ko‘chirish, so‘z ichida yonma-yon kelgan bir xil undoshlar talaffuzi va imlosi kabi bilimlar o‘rganilishi ko‘zda tutilgan.

2020-yil qabul qilingan “Milliy o‘quv dasturi”da 2-sinf o‘quvchilari “Tovushlar va harflar” mavzusini o‘rganish orqali rivojlantiriladigan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash ko‘zda tutilgan:

og‘zaki va yozma nutqqa oid

- nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilish;
- rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og‘zaki tasvirlash;
- bo‘g‘in ko‘chirish, bosh harflar imlosiga rioya qilish;
- berilgan rasm asosida, odam yoki ma’lum voqeani tasvirlab, 3-4 ta gap tuzib yoza olish;
- nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilish;
- bo‘g‘in ko‘chirish, bosh harflar imlosiga rioya qilish;

Lingvistik bilimlarni egallashga oid

- unli va undosh harflar talaffuzi, imlosini bilish, og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish;
- bo‘g‘in ko‘chirish va bosh harflar imlosiga rioya qilish kabi bilimlarni o‘rgatish belgilab qo‘yilgan.

Bugungi kunda ona tili darslarining samaradorligini oshirish maqsadida ta’lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, fanlararo integratsiya masalalari keng targ‘ib etilmoqda.

Biz quyida 2-sinf ona tili (1-qism) darsligidagi “Tovushlar va harflar” mavzusini fanlararo integratsiyalash qonuniyatiga tayangan holda “Tabiiy fanlar” misolida ko‘rib chiqamiz.

Tovush va harflarning farqini o‘rgatishda o‘quvchilar tovushlar talaffuz qilinishini, eshitilishini, harflar esa yozlishini, o‘qilishini ongli tushunishiga erishish uchun o‘quv materialining tabiiy fanlar bilan integratsiyasini ta’minlash lozim. Tovushlar va harflarni o‘rganishga yordam beradigan narsa insonning sezgi a’zolaridir. Chunki tovushlar quloq orqali ishitiladi, harflar ko‘z bilan ko‘rib o‘qiladi, yoziladi.

Darslikdagi berilgan topshiriqqa ko‘ra inson sezgi a’zolarining ahamiyati, o‘rnini o‘rganish bo‘yicha quyidagi amaliy ishlarni tashkil etish mumkin.

- Kitobingizni qo‘lingizga oling. Kaftingiz bilan uni paypaslab ko‘ring. Kitob varag‘i qanday ekan? (Kitob silliq ekan).
- Bir qo‘lingizda daftaringizni, bir qo‘lingizda kitobingizni ushlang. Qaysi biri og‘irroq ekan? (Kitob og‘ir)
- Kitobingizning 17-betini oching, mavzuni o‘qing. (Unli tovushlar va harflar)
- Endi mavzuni men ovoz chiqarib o‘qiyman, nimani o‘qiganimni eshiting. (Mehmondo‘st o‘zbek xalqi).
- O‘quvchilar, kitobning ham hidi borligini bilasizmi? (Yo‘q)

- Kitobingizni hidlab ko‘ring, hidni sezdingizmi? (Ha)
- Yana nimalarda hid bor? (Gul, meva, …)
- Mehmon kelganda dasturxonga birinchi bo‘lib nima qo‘yamiz? (Non)
- Endi tandirdan uzilgan nonning hidi qanday? Mazasichi? (Juda yoqimli)
- Siz kitobning silliqligini, nima yozilganini, men nimani o‘qiganimni, hidini qanday bildingiz? (Ushlab ko‘rib, ko‘z bilan ko‘rib, eshitib, burnimiz bilan hidlab ko‘rib)
- Ko‘rishimizga, eshitishimizga, hidini sezishimizga nimalar yordam berdi? (Qo‘limiz, ko‘zimiz, qulog‘imiz, …)
- Biz sezgi a’zolari orqali kitobning silliqligini, nima yozilganini, hidini, nonning mazasini sezamiz.
- Insonning sezgi a’zolari qaysilar? (Teri, burun, ko‘z, og‘iz, quloq)
- So‘zlarga so‘roq bering. (Nima?)
- Ko‘z qanday vazifani bajaradi? (Ko‘rish)
- Odamda nechta ko‘z bor? (2ta)
- Ko‘z faqat odamda bormi? (Hayvonlarda)
- Yana nimada ko‘z bor? (Daraxtning ko‘zi, taxtaning ko‘zi, derazaning ko‘zi, eshikning uzukning ko‘zi)
- Odamlar va hayvonlardan boshqa narsalarda ham quloq borligini bilasizmi?
- Yana nimalarning qulog‘i, og‘zi bor? (Qozonning qulog‘i, qalpoqning qulog‘i, chuchvaraning qulog‘i)

Topshiriqqa asosan muammoli savollarda qatnashgan sezgi a’zolarini tovush va harf nuqtayi nazaridan tahlil qilishga o‘tamiz. Masalan:

- Quloq so‘zida nechta tovush bor? (Tovush va harflar haqidagi bilimlar 1-sinfda o‘rganilgan)? (5ta tovush bor)
- Unli tovushlarini ayting. (u, o)
- Undosh tovushlarini ayting. (q, l, q)
- Nechta bo‘g‘indan iborat? Bo‘g‘inlarni ayting (2 bo‘g‘indan iborat, qu-loq)
- Birinchi bo‘g‘inni talaffuz qiling. (qu-)
- Ikkinchi bo‘g‘inni talaffuz qiling (-loq)
- Ikkala bo‘g‘inning talaffuzidagi farqni sezdingizmi? Qaysi biri cho‘zib talaffuz qilinayapti? (quuuuuu-)
- Qaysi bo‘g‘inning yo‘li “yopiq” ekan? (-loq)
- Yuqoridagi keltirilgan dalillarga qanday xulosalar chiqarish mumkin?

(Unli bilan tugagan bo‘g‘inlar cho‘zib aytiladi.
Undosh bilan tugagan bo‘g‘inlar qisqa talaffuz qilinadi)

Tovush va harflarni o‘rgatishda o‘quvchilar jonli va jonsiz narsalarning nomi, harakatini bildirgan so‘zlar, ya’ni morfologik ko‘nikmalariga tayangan holda amalga oshiriladi. Topshiriq mazmunini to‘liq tushunish uchun shaxs va narsaning nomini va harakatni bildirgan so‘zlar va ularga beriladigan so‘roqlar haqidagi bilimlar juda zarur. 1-sinfda so‘zlar yordamida narsalarning nomini, belgisini va harakatini ifodalash mumkinligi, shaxs va narsalarga kim? nima? shaxs va narsaning belgilariga qanday? qanaqa? shaxs va narsaning harakatiga nima qildi? Nima qiladi? nima qilyapti? so‘roqlari berilishini, so‘zlaning shaxs, narsa, harakat, belgi, sanoq va miqdorni ifodalashi o‘rgatilgan edi. Biz endi o‘quvchilarning morfologik bilimini oshirishga qaratilgan o‘quv topshiriqlari xususida fikr yuritamiz.

- Endi diqqat bilan eshiting (O‘quvchilarga tabiiy tovushlar, fizik tovushlar, nutq tovushlari haqida ma’lumot beriladi). Qanday tovushlarni eshitayapsiz? (Maktab hovlisidagi o‘quvchilarning ovozi, mashinaning ovozi, partadoshimizning nafas olishini, shamolning, ….)
- Rasmlarda nimalarni ko‘rayapsiz? (shaxs va narsaning nomini bildirgan so‘zlar: daraxt, o‘quvchilar, samolyot, qushlar)
- So‘zlarga so‘roq bering. (Nima? Kimlar? Nimalar?)
- Barglar nima qiladi? (shaxs va narsaning harakatini bildirgan so‘zlar: o‘sadi, sarg‘ayadi, to‘kiladi)
- Odamlar nima qiladi? (shaxs va narsaning harakatini bildirgan so‘zlar: so‘zlashadi, kuladi, yuradi, ….)
- Samolyot nima qiladi? (shaxs va narsaning harakatini bildirgan so‘zlar: uchadi, qo‘nadi, ko‘tariladi, …)

- Qushlar nima qiladi? (shaxs va narsaning harakatini bildirgan so‘zlar: uchadi, sayraydi, uchadi, qo‘nadi, …)

Shunga o‘xshash savol-javoblardan keyin eshitish a’zosi orqali barglar shitirlashini, odamlar so‘zlashuvini, samolyot g‘uvullashini, qushlar chug‘urlashini eshitish mumkinligi haqida o‘quvchilarda umumiy xulosa paydo qilish mumkin.

- O‘quvchilar, biz shamol, barg, samolyot, qushlar haqida fikr yuritdik. Bir eslaylik, kim shular haqida topishmoq, she’r, maqol … aytadi?

- Shamol essa barglar qanday ovoz chiqaradi? (shitir-shitir)

-Samolyot uchganda qanday ovoz eshitiladi? (g‘uv-g‘uv)

- Qushlar qanday sayraydi? (chug‘ur-chug‘ur, chirq-chirq)

Bundan tashqari, topshiriq orqali, fe’llarning yasalishi, ularning zamon shaklini ham amaliy o‘rgatish mumkin. O‘quvchilarga “Barglar nima qilayapti? Odamlar nima qilayapti? Samolyot nima qilayapti? Qushlar nima qilayapti?” kabi savollar orqali fe’llarning hozirgi zamon shaklini o‘rgatishga zamin tayyorlash mumkin.

1-mashq (2-sinf Ona tili (1-qism), 6-bet, mavzu: “Tovushlar va harflar”, yozma bajarishga mo‘ljallangan, qisman ijodiy mashq). “Rasmlarga e’tibor bering. Qavslarni ochib, gaplarni to‘g‘rilab o‘qing va ko‘chiring”.

1. Kuchli shamol ko‘tarilib, dengiz to‘lqinlari (shovullamoq) boshladi.

2. Mushukcha (miyovlamoq) yugurib daraxt tepasiga chiqib oldi.

3. Cho‘ponning bo‘ribosar iti tuni bilan (vovullamoq) chiqdi.

O‘quvchilarning o‘quv topshiriqlarini aniq va to‘liq idrok qilishida onglilik muhim ahamiyat kasb etib, bu ta’lim tamoyillari orqali shakllantiriladi.

Ta’lim tamoyillari o‘quv tarbiya jarayoniga qo‘yiladigan ijtimoiy talablar, ta’limni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishda rioya qilinadigan qoidalar sifatida amal qiladi.

Ta’limda onglilikni ta’minlashning asosiy vositalaridan biri ko‘rgazmalilikdir. Ko‘rgazmali o‘qitish ta’limning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, bolalar bevosita idrok qiladigan aniq obrazlarga asoslanadi. Ko‘rgazmalilik mavhum tushunchalar va so‘zlarga asoslanmagan o‘qitish tamoyili bo‘lib, o‘quvchilarni mustaqil kuzatishga, o‘z hayotiy tajribalari asosida mulohaza yuritishga, o‘rganilayotgan tushuncha va kuzatilayotgan obraz orasidagi mantiqiy bog‘liqni aniqlay olishga o‘rgatadi.

O‘quv jarayonida ko‘rgazmali vositalardan foydalanish o‘quvchining yosh xususiyati, tafakkur darajasiga ko‘ra belgilanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida aniq fikrlash ustun bo‘lib, ular rasm, jadvallar asosida narsa-voqealarning mohiyatini chuquroq anglaydi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda aniq-obrazli, harakatchan-obrazli fikrlash shakllarining taraqqiy etganligi ta’limda ko‘rgazmali qurollardan ko‘proq foydalanishni taqozo etadi.

O‘quvchilarning hayotiy tajribasi oshgan sari, unlarda tafakkurning mavhumalshtirish, umumlashtirish, ajratish kabi sifatlari ham rivojlanib boradi. O‘quvchi o‘z bilimlariga tayangan holda induktiv va deduktiv xulosalar chiqarishni o‘rganib boradi.

Katta maktab yoshidagi o‘quvchilar bilimlarini ta’riflar, aksiomalar, xulosalar, farazlar shaklida qabul qila oladi. Shuning uchun yuqori sinfda ko‘rgazmali qurol sifatida turli chizmalar, ramziy belgilar, diogrammalardan foydalanish mumkin.

O‘quv materiallari asosida o‘quvchilarning tafakkuri va nutqini o‘stirish uchun ta’lim-tarbiyaviy matnlar hamda rasmlardan foydalaniladi. Rasmlar o‘quvchilarning savollarga javob berish ko‘nikmasini, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish qobiliyatini rivojlantirishi, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda bildirishga o‘rgatishi, obrazli tafakkurini o‘stirishi, mustaqil ravishda so‘z tanlash, gap va hikoya tuzish uchun xizmat qilishi kerak.

Ko‘rgazmalilik tamoyilini buyuk chex pedagogi Y.A.Komenskiy shunday izohlaydi: “Agar biron-bir narsani bir nechta sezgi a’zolari orqali idrok ettirish mumkin bo‘lsa, u narsani idrok qilish uchun bir nechta sezgi a’zolarini ishga solish kerak, ya’ni, eshitib bo‘ladigan narsalarni eshittirish bilan, hidlarni – hidlatish, ta’mni tatib ko‘rish, ushlab ko‘rish mumkin bo‘lgan narsalarni ushlatib ko‘rsatish vositasi bilan idrok qildirish lozim”.

Rasm bolaning his-tuyg‘ulariga ta’sir qiladi. Rasmlar maktab o‘quvchisiga tanish bo‘lgan hodisalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Uning hayotiy bilimini oshiradi.

Boshlang‘ich sinf darslarida ta’limiy rasmlardan keng foydalaniladi. Rasmlar o‘quvchilar va o‘qituvchi uchun ham, darsda foydalanish uchun ham qulay vosita. Lekin har doim ham yetarli darajada

ifodali va ta'sirli emas. Badiiy suratlar o'quvchilarni kuzatuvchanlikka o'rgatadi, ularning tasavvurini rivojlantiradi, san'atni tushunishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar birinchi navbatda rasmning mavzusini (u tasvirlangan) aniqlab, masalalar bo'yicha rasmni tasvirlashadi. Ikkinchidan, uning tarkibi, oldingi fon, obyektlarning joylashuvini tahlil qilishadi. Uchinchidan, qahramon (agar mavjud bo'lsa)ning harakatlari aniqlashtirishadi.

Ta'limning ko'rgazmalilik tamoyilini ta'minlash maqsadida darslikda 1-mashqdagi gaplarga mos rasmlar berilgan. Rasmlarda dengiz to'lqinlari, mushukchaning daraxtga chiqayotgani, yomg'irda turgan ikkita it tasvirlangan.

Berilgan gaplarga mos bo'lgan fe'l shakllarini tanlash uchun rasmlar batafsil tahlil qilinishi kerak. Tahlil jarayonida rasmlardagi obyektlar, ularning nomi, shakli va ranggi, harakati, miqdori haqidagi savollar orqali o'quvchilarning morfologik bilimi yanada mustahkamlanadi.

- Birinchi rasmga diqqat bilan qarang. Nimalarni ko'rayapsiz? (dengiz to'lqinlari, toshlar, suv, qum)
- Dengiz to'lqinlari qanday tasvirlangan? (Ko'k rangda)
- Toshlar-chi? Ularning shakli qanday? (To'q jigarrangda tasvirlangan. Toshlar esa katta-kichik, har xil)
- Dengiz sohilida nima bo'ladi? (Qum bor)
- Qumni ko'rganmisiz? Rangi qanaqa? (Sariq)
- Siz ham dengizni ko'rganmisiz? Qayerda yoki nima vositasida ko'rgansiz? (Televizorda, multfilmlarda, Internet tarmog'ida, rasmlarda, …)
- Qaysi multfilmda ko'rgansiz? (…)
- Dengiz to'lqinlari qanday hosil bo'lishini bilasizmi? (Shamol bo'lganda)
- O'quvchilar, dengiz suvi qanaqa ekanligini bilasizmi? (Sho'r)
- Nima uchun dengiz suvi sho'r bo'ladi? (Tuz ko'pligi uchun)
- Dengizda qanday hayvonlar yashaydi? (Baliqlar, toshbaqalar, …)
- Ikkinchi rasmda nimalar tasvirlangan? (Daraxtlar, mushukcha, ariq, …)
- Rasmda qanaqa ranglarni ko'rayapsiz? (Yashil, malla, ko'k, qora, ...)
- Sizningcha, rasmda qaysi fasl tasvirlangan? (Bahor, yoz)
- Qaysi hayvonni ko'rayapsiz? (Mushuk)
- Mushuk qanday hayvon? (Uy hayvoni)
- Mushuk nima qiladi? (Yuguradi, uxlaydi, sut ichadi, o'ynaydi, …)
- Mushuklarning rangi qanaqa bo'ladi? (Oq, qora, malla, kulrang, ola-bula, …)
- Kimning uyida mushuk bor? Uning laqabi nima? (…)
- Bu mushukka ham laqab qo'ying. (Mosh)
- Uchinchi rasmda nimalarni ko'rayapsiz? (Itlarni)
- Rasmda qaysi tabiat hodisasi tasvirlangan? (Yomg'ir yog'ishi)
- Nechta it bor ekan? (Ikkita)
- Qaysi it katta ekan? O'ngdagimi? Chapdagimi? (Chapdagi it)
- Itlarning ranggi qanaqa? (Oq-qora, malla, …)
- Ularga qanday laqab qo'yamiz? (Qoplon, Sharik, …)
- Sizningcha, qaysi fasl tasvirlangan? (Bahor)
- Nima uchun bahor fasli deb o'yladingiz? (Yomg'ir yog'ayotgani uchun)
- Yomg'ir kuz faslida ham yog'adiku? (Ha, lekin atrof yam-yashil. Kuzda daraxt barglari sarg'ayadi)
- Itlar qayerda uchrashib qolishgan? (Yo'lda, ko'prik ustida, …)
- Itlar nima qilishayapti? (Gaplashishayapti)
- Itlar ham bir-birlari bilan gaplasha oladimi? Qanday? (Ha, o'z tilida)
- Ular nima haqida gaplashayotgan bo'lishi mumkin? (…)
- Itlar yana nima qiladi? (Yuguradi, uyni qo'riqlaydi, uxlaydi, suyak yeydi, …)

Zamonaviy axborot texnolonolgiyalaridan foydalangan holda to'lqin, mushuk, itning ovozini eshittirish, harakatini ko'rsatish ham mumkin. Bu o'quvchilarda tasavvurlarning kengayishiga yanada ko'proq yordam beradi.

- Endi hamma diqqat bilan eshitsin. Nimaning ovozini eshitayapsiz? (Dengiz to'lqinlari, mushuk, itning ovozi qo'yib beriladi. O'quvchilar nimaning ovozi ekanligini aytishadi)

- Dengiz qachon shovullaydi? (Shamol ko‘tarilganda)
- Siz ham to‘lqinning ovozini hosil qiling. (Shov-shov)
- Mushukchaning ovozini o‘xshatib bering. (Miyov-miyov)
- Mushukcha uxlaganda qanday ovoz chiqaradi? (Xur-xur)
- It-chi, qanday ovoz chiqaradi? (Vov-vov)

O‘quvchilarda rasmlar haqida tasavvur hosil qilinganidan keyin berilgan gaplarni morfologik, sintaktik, fonetik jihatdan taslil qilish mumkin.

Qavs ichida berilgan shovullamoq, miyovlamoq, vovullamoq yasama fe’llari taqlid so‘zlardan hosil qilingan. Ushbu mashq orqali taqlid so‘zlardan fe’llar yasash mumkinligini va zamon shakllarini amaliy o‘rgatish mumkin.

Berilgan yasama fe’llarga o‘quvchilar zamon qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib, gaplarni yozishlari kerak.

Fe’l so‘z turkumiga oid so‘zlarga uch xil savol beriladi: Nima qildi? Nima qilayapti? Nima qilmoqchi? Bu savollar ish-harakatning bajarilish vaqtiga qarab, ya’ni zamoniga qarab beriladi. Shu paytgacha o‘quvchilar ish-harakatning bajarilgan vaqtini, zamon qo‘shimchalarini o‘rganishmagan. Shu sababli qavs ichida berilgan fe’llarga mos savollarini to‘g‘ri berish juda muhim.

- Birinchi gap nima haqida? (Dengiz to‘lqinlari haqida)
- Dengiz to‘lqinlari nima qiladi? (Shovullaydi)
- Kuchli shamol ko‘tarilib, dengiz to‘lqinlari nima qila boshladi? (Shovullay boshladi)
- O‘qigan gapingiz nechta so‘zdan iborat? (7ta)
- Shu fikrni ikkita gap bilan ifodalang. (Kuchli shamol ko‘tarildi. Dengiz to‘lqinlari shovullay boshladi)
- Qanday shamol ko‘tarildi? (Kuchli shamol)
- Shovullamoq so‘zini qanday o‘zgartirdik? (Shovullay)
- Kuchli shamol essa qanday ovoz chiqadi? (Huvvv-huvvv)
- Mushukcha nima qilib yugurib daraxt tepasiga chiqib oldi? (Miyovlab)
- Gap nima haqida? (Mushuk haqida)
- Mushuk nima qildi? (Daraxtga chiqib oldi)
- Mushuk qayerga chiqib oldi? (Daraxt tepasiga)
- Gap nechta so‘zdan tuzilgan? (7ta)
- Shu 7 ta so‘zdan yana shunday mazmunda gaplar tuza olamizmi? (Mushuk miyovladi. Yugurib daraxt tepasiga chiqdi.)
- Gaplarning mazmuni o‘zgardimi? (Yo‘q)
- Birinchi va ikkinchi gaplardan kelib chiqib qanday xulosa chiqarish mumkin?

Ikkita kichik gapdan bitta gap hosil qilish mumkin.

Bitta katta gapni ikkita kichik gapga aylantirish mumkin.

- Uchinchi gap nima haqida? (Cho‘ponning iti haqida)
- Cho‘ponning bo‘ribosar iti tuni bilan nima qilib chiqdi?
- Cho‘ponning iti qachon vovulladi? (Tuni bilan)
- Cho‘pon kim? U nima qiladi? (Qo‘y boqadi)
- Cho‘pon qo‘ylarni qayerda boqadi? (Tog‘da, yaylovda, …)
- Cho‘ponning iti qanday ekan? (Bo‘ribosar)
- Bo‘ribosar it qanday bo‘ladi? (Katta, kuchli, …)
- It cho‘ponlarga nima uchun kerak? (Qo‘ylarni bo‘ridan himoya qilish uchun)
- Shuning uchun ham cho‘ponning iti qanday ekan? (Bo‘ribosar ekan)
- Vovullab so‘zini qaysi so‘z bilan almashtirish mumkin? (akillab, hurib,)
- Qavs ichidagi so‘zlarni qanday o‘zgartirdik? (Shovullay, miyovlab, vovullab)
- Gaplarning mazmuni qanday o‘zgardi? (……..)

Gaplar to‘liq tahlil qilinganidan keyin o‘quvchilar daftarlariga yozishadi.

Mashq “Tovushlar va harflar” mavzusiga oid bo‘lganligi uchun tanlangan so‘zlarni fonetik jihatdan tahlil qilish orqali ta’limning keying davrida o‘rganiladigan unli va undosh tovushlar, ularning talaffuzi, harf birikmalari, bo‘g‘inni o‘rganishga ham tayyorlash mumkin.

- Shovullay, miyovlab, vovullab so‘zlarini bo‘g‘inlarga ajrating. Necha bo‘g‘inli? (Sho-vul-lay, mi-yov-lab, vo-vul-lab, hammasi 3 bo‘g‘inli)

- Nima uchun so‘zlardagi bo‘g‘inlar soni teng? Buni qanday aniqladingiz? (Unli tovushlar soni bir xil)

- Qaysi so‘zda harf birikmasi bor? (Shovullay)

- Shu so‘zlarda qanda o‘xshashlik bor? (Bo‘g‘inlar soni teng, hammasining birinchi bo‘g‘ini bitta undosh, bitta unlidan, ikkinchi, uchinchi bo‘g‘inlari ikkita undosh, bitta unlidan tuzilgan, …)

Xulosa. Mashq mazmunan qisman ijodiy (qayta xotirlash) tipda bo‘lib, o‘quvchilarning bor ijodiy imkoniyatini to‘liq yuzaga chiqarishga qaratilmagan. Bizningcha, mashq uchun qo‘shimcha ijodiy topshiriq berilsa o‘quvchilarning tafakkuri yanada o‘sadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisida mustaqil fikr yuritish ko‘nikmasining shakllanishi, ijodiy faoliyatlarning tarkib topishida ijodiy mazmundagi topshiriqlar yaxshi samara beradi. Shundan kelib chiqib biz mashq uchun quyidagicha ijodiy topshiriq berishimiz mumkin: “Uch guruhga ajraling. Birinchi guruh 1-rasmga mos kichik matn yarating. Ikkinchi guruh 2-rasmga o‘xshash o‘zingiz ko‘rgan holatni so‘zlab bering. 2. Uchinchi guruh rasmga mos qiziqarli hikoya tuzing.”

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. PF-60-son. 2022-yil 28-yanvar. – www.lex.uz

2. Ona tili fanidan Milliy o‘quv dasturi. -Toshkent, 2021. – 256 bet.

3. Kuranov S.D. 1-sinf Ona tili (1-qism) darsligi. -Toshkent: “Novda”, 2023. – 88 bet.

4. Kuranov S.D. 2-sinf Ona tili (1-qism) darsligi. -Toshkent: “Novda”, 2023. – 88 bet.

5. Олимов Қ.Т. Махсус фанлардан ўқув адабиётларини яратишнинг назарий ва услубий асослари. Педаг. фан. док. ... дис. – Т.: ТДПУ, 2005. –274-б.

6. Roziqov O.R., Mahmudov M.H., Adizov B.R., Hamroyev A.R. Ona tili didaktikasi. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2005. - 388 bet.

7. Roziqov O.R., Mahmudov M.H., Adizov B.R. Umumiy didaktika. -Toshkent, 2009. -434 bet.

Sharopova Zarnigor Tolib qizi
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI SAVODXONLIGI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili savodxonligi darslarida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish va hozirgi kunda o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish boshlang‘ich sinflardan boshlab yo‘lga qo‘yilmoqda. Muammoli vaziyatlar yaratish, ularni hal qilish yo‘llarini izlash va aniqlash, muammoni hal qilish jarayonining o‘zi, chiqarilgan xulosalarni qanchalik to‘g‘ri ekanligini amalda tekshirib ko‘rish o‘quv jarayonining muhim elementlari bo‘lib qolmoqda. Bu esa aynan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining yanada ilg‘or bo‘lishga chorlaydi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich sinf, metodlar, tanqidiy fikrlash, konsepsiya, mantiqiy masala, tanqidiy fikrlash, jarayon, didaktika, o‘zlashtirish, qobiliyat, maqsad, mazmun, shakl, metod va usullar, vosita, motivlar, boshlang‘ich ta’lim, malaka, bilim, ko‘nikma.*

IMPROVING THE METHODOLOGY OF DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING SKILLS IN PRIMARY-GRADE MOTHER TONGUE LITERACY CLASSES

Abstract. *In this article, improvement of the methodology of developing students' critical thinking skills in elementary mother tongue literacy classes and now, the development of students' critical thinking is being started from elementary grades. Creating problem situations, searching for and identifying ways to solve them, the process of solving the problem itself, checking the correctness of the conclusions in practice remain important elements of the educational process. This is exactly what encourages the teachers of the first grade to be more advanced.*

Key words: *primary class, methods, critical thinking, concept, logical problem, critical thinking, process, didactics, mastery, ability, purpose, content, form, methods and methods, tool, motives, elementary education, qualification, knowledge, skill.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НА ЗАНЯТИЯХ ПО РОДНОЙ ГРАМОТНОСТИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. *В данной статье ведется совершенствование методики развития навыков критического мышления учащихся на начальных занятиях по родному языку и в настоящее время развитие критического мышления учащихся начинается с младших классов. Создание проблемных ситуаций, поиск и определение путей их решения, сам процесс решения проблемы, проверка правильности выводов на практике остаются важными элементами образовательного процесса. Именно это и побуждает учителей первых классов быть более продвинутыми.*

Ключевые слова: *начальный класс, методы, критическое мышление, понятие, логическая задача, критическое мышление, процесс, дидактика, овладение, способности, цель, содержание, форма, методы и приемы, инструмент, мотивы, начальное образование, квалификация, знания, умение.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PF-5538-son Farmoni ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan umumiy doidalarda mavjud darsliklarning eskirganligi, yangi avlod darsliklarini yaratish lozimligi borasida ko‘rsatma beriladi. Darsliklarni yaratish tizimida xilma-xillikning yo‘qligi ularni yaratish va nashr qilishni monopollashtirishga omil bo‘lib qolmoqda hamda ularning mazmuni, metodikasi va nashr sifatiga salbiy ta’sir etayotganligi, davlat ta’lim standartlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslanganligiga qaramasdan, o‘qitish va baholash metodlari, shuningdek darsliklar va boshqa o‘quv materiallarini asosan axborotni yodlash va bayon qilishga qaratilgan bo‘lib, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotganligi ta’kidlab o‘tiladi. Shuningdek, foydalanilayotgan darsliklar sifatini oshirish,

xorijiy o‘quv qo‘llanmalarini qo‘shimcha yoki muqobil o‘quv materiallari sifatida qo‘llash amaliyotini yo‘lga qo‘yish fursati kelganligi ham ta’kidlab o‘tiladi. 2021-yil sentabrdan birinchi va ikkinchi sinflariga qo‘llanilishi boshlangan Ona tili va O‘qish savodxonligi darsligi ushbu talabni bajarish uchun tashlangan qadamdan biri bo‘ldi. Ona tili va O‘qish savodxonligi fanini o‘qitishda asosiy e’tibor o‘quvchida tilga doir to‘rt ko‘nikma: o‘qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so‘zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilar voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o‘rgatish orqali ijodiy va tanqidiy tafakkurini, fikrlash doirasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ona tili va O‘qish savodxonligi fani ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston uchun mustaqil, erkin va tanqidiy fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir. Shu sababli maktab akademik litsey, kasb-hunar kollej va texnikumlar, oliy o‘quv yurtida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda o‘quvchilarning bilish faolyatini faolashtirish, mustaqil va tanqidiy fikrlash qobilyatlarini takomilashtirish kerak. Biroq tanqidiy fikrlash o‘z-o‘zidan shakllanmaydi. Foydali axborot va fikrlarni olish bo‘yicha tajriba, malaka ko‘nikmalar hosil qilishlari kerak. Tanqidiy fikrlash - o‘qish predmeti emas, balki o‘qitish natijasidir. Bu g‘oyalarni va ularning ahamiyatini ham ko‘p fikrlilik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish hamda ularni boshqa g‘oyalar bilan taqqoslashdir.

Tanqid (kritika (lot)-hukm qilish mahorati) – inson faoliyatining biror sohasiga aloqador hodisani baholash, analiz qilish. U xatolarni topish va muhokama qilishdan iboratdir. *Tanqidiy fikrlash* – narsalar va hodisalarni analiz qilib asosli xulosalar chiqarish maqsadidagi mulohazalar tizimi bo‘lib, u tanqidiy baholash xarakteriga ega. Ya’ni, u tanqidga tayangan analitik fikrlashdir. Demak, tanqidiy fikrlash maqbul yechimni topishning yaxshi usullaridan biri ekankigini ko‘rishimiz mumkin.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar. Tanqidiy fikrlash inson tafakkurining ajralmas qismi hisoblanib inson har bir ko`rgan voqea-hodisaga o`z aqliy qobiliyatidan kelib chiqib xulosa chiqaradi. Tanqidiy fikrlashni chuqurroq tahlil qiladigan bo`lsak, Yaqin va O‘rta Sharqda yashab ijod etgan o'rta asr mutafakkirlari ilmiy asarlarida ilmning turli tomonlari, uning prinsiplari, tuzilishi, me-zonlari, ilmning inson aqliy rivoji va ta'limi bilan bog`liqligiga jiddiy qiziqish borligini ko`rish mukin. Buyuk mutafakkirlarimiz Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, ularning safdoshlari va izdoshlari gno-seologik qarashlarining xarakterli xususiyati shundan iboratki, inson ongida predmet timsoli (obrazi)ni mavhumlashtirish jarayoni ular e'tiborini doimo jalb etgan, buning natijasida mazkur predmet mohiyati va o'ziga xosligi tushunchasi ishlab chiqilgan va shakllangan.

Bolalarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari qanchalik yaxshi rivojlanayotganini aniqlashning yana bir usuli – savol-javob o‘tkazish. Bolaga yakka holatda berilgan savoldan kutilgan natija har xil bo‘lishi mumkin. Ba’zida u bir xil fikrda qolishi yoki vaqt o‘tishi bilan fikrini o‘zgartirishi mumkin. O‘quv mashg‘ulotlarida tanqidiy fikrlashga yo‘naltiruvchi savollarni bosqichma-bosqich ko‘paytirib borish sa-marali natija beradi. Tanqidiy fikrlash – ma’lumot olish va o‘z munosabatini shakllantirishdan bosh-lanadigan murakkab fikrlash va shaxsiy qaror qabul qilish jarayonidir. Bu yangi savollar qo‘yish, o‘z fikrini himoya qilish uchun dalil topish, tahlil etish va xulosa chiqarish qobiliyatidir.Tanqidiy fikrlay oladigan bola har doim o‘z nuqtai nazarini isbotlay oladi.

Tanqidiy fikrlashning kelib chiqishi va shakllanishi qadimgi zamonlar bilan bog‘liq bo‘lib, u o‘sha zamonlarda ham inson xotirasining faollashuviga, narsalar, jarayonlar va boshqa hodisalarning mohiyatiga chuqur kirib borishiga yordam bergan. Fikrlash bu - o‘qish, yozish, so‘zlash va eshitishga o‘xshatishga o‘xshash jarayon bo‘lib, u o‘zida biror haqiqat to‘g‘risidagi fikrlarni qamrab oluvchi faol jarayon.

“Tanqidiy fikrlash” tushunchasi XX asr o‘rtalarida pedagogika faniga kirib kelgan. Birinchilardan bo‘lib tanqidiy fikrlash atamasi K. Popper tomonidan ishlatilgan. Unga ko‘ra har bir tirik organizm muammolarni “hal qiluvchi” vazifasini bajaradi. Atrofdagi ma’lumotlar dunyo tirik organizmning ma'nosini tasdiqlash yoki rad etish sifatida qaraladi bu hodisani oldindan beradi. Bunday vaziyatda tanqidiy fikrlash – haqiqatni izlash va xatoni bartaraf etish usuli sifatida ishlaydi. Tanqidiy fikrlash ma-salasi b‘yicha ish olib borgan xorijiy mutaxassislardan, E. De Bono, J. Daniya, M. Lipman, D. Halpern, D. Klouz. A. E. Petrovlarning so‘zlariga ko‘ra, tanqidiy fikrlash refleksiv xususiyatga ega bo‘lib, bunda inson o‘z tafakkurini va uning to‘g‘riligini o‘rganadi.

V. A. Shams va L. A. Malts ta’kidlaganidek, tanqidiy fikrlash – xatolarni topish va ularni tu-zatishni o‘z ichiga oladi. I. A. Pshonkovskayaning asarlarida tanqidiy fikrlash – aks ettirish va baholash-ning murakkab jarayoni, shuningdek unga ijodiy fikrlash asos sifatida qaraladi. Uning fikricha, ijodiy

